Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti

Alisher NAVOIY

NASOYIM UL-MUHABBAT

INSTITUTDAN

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat mnn shamoyim ul-futuvvat» asari ilk bor arabiy, forsiy matnlar, ularning tarjimalari va izohlari bilan to‘liq holda nashr etilmoqda. Asar muqaddima va 770 ta shayx (35 tasi avliyo ayollar)iing hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Ilgarngi nashrida (1968) atigi 153 ta shayxlar haqida ma’lumot berilib, ayrim diniy va tasavvufiy atamalar ma’lum sabablarga ko‘ra tushirilib qoldirilgan edi.

«Nasoyim ul-muhabbat Abdurrahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot il-quds» tazqirasining tarjimasi, lekin Navoiy Jomiy asariga erkin, ijodiy munosabatda. bo‘ladi va uning asaridagi ma’lumotlarni to‘ldirib yoxud qisqartirib boradi va 618 ta shayxlar sonini 770 taga yetkazadi.

Tarix va madaniy merosimizni keng o‘rganayotgan hamda naqshbandiylik ta’limotiga rag‘bat ko‘rsatayotgan ekanmiz, bu asarni to‘liq holda nashr etilishn ilmiy, ma’rifiy va axloqiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Imom A’zam, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Tirmiziy, Bahouddin Naqshbandiylarning aqida va qarashlari bilan xalqimizni, xususan, yoshlarimizni yaqindan tanishtirish joyizdir.

Asarni nashrga tayyorlashda O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 857 va 5420 inv. raqamli qo‘lyozmalar hamda «Nasoyim ul-muhabbat»ning Turkiyada chiqqan tanqidiy matnlari asos qilib olindi (Kamol Eraslan, 1996).

Matnlarni qiyoslash, shaxs va joy nomlarini to‘g‘ri yozish, tarjima va izohlar tuzishda Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot il-quds» asari qo‘lyozmasidan, Eronda (doktor Obidiy, 1370 H. sh.), Toshkentda (1916) chop bo‘lgan izohli manbalardan hamda Mahmud bin Usmon Ali (Lomi’iy Chalabiy, 1479—1532) tomonidan usmonli turk tiliga o‘girilgan tarjimadan foydalanildi.

Arabiy va forsiy matnlarni asarning oxiriga ilova qildik. Keyingi nashrlarda kitob yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, arabiy va forsiy matnlarni ham o‘z o‘rnida berib, chop etish nazarda tutiladi.

QISQARTMALAR

a. r. — alayhir-rahmah — unga (Allohning) rahmati bo‘lsin!
a. s. — alayhis-salom — unga (Allohning) salomi bo‘lsin.
v. a.—vallohu a’lam — Alloh bilguvchiroq.
n. b. — nafa’ano bihima — ikkalasi tufayli (Alloh) bizga naf yetkazsin.
n. m. n.— nuvvira marqaduhu nuran — uning qabri nurga to‘lsin.
n. m. n.— navvara marqadahu nuran — (Alloh) qabrini nurga to‘ldirsin.
k. v. — karramallohu vajhahu — Alloh uning yuzini mukarram qilsin.
r. — rahimahullohu — Alloh unga rahm qilsin.
r. a. — raziyollohu anh(u) — Alloh undan rozi bo‘lsin.
r. a. — rahmatullohi alayhi — unga Allohning rahmati bo‘lsin.
r. a. a. — rizvonullohi alayhim ajma’in — ularnnng barchasidan Alloh rozi bo‘lsin.
r. r. — ravvahallohu ruhahu — Alloh uning ruhinn shodlantirsin.
r. t. — rahimahullohu taolo — Allohu taolo unga rahm qilsin.
r. t. a. a. — rizvonullohi taolo alayhim ajma’in — ularning barchasidan Allohu taolo rozi bo‘lsin.
r. t. a. — raziyollohu taolo anhum — Allohu taolo ulardan rozi bo‘lsin.
r. t. r.— rahimahullohu taolo ruhahu — Allohu taolo ruhiga rahm qilsin.
s. a. v—sallallohu alayhi vasallam — unga Allohning salavoti va salomi bo‘lsin.
s. r. a. — salavotur-rahmoni alayhi — unga rahmonning (Allohning) salavoti bo‘lsin.
s. t. — subhonahu va taolo — pokdir (Alloh) va oliydir.
q. — qaddasallohu — Alloh muqaddas qilsin.
q. a.— qaddasa arvohahum — Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin.
q. a. — qaddasallohu asrorahum — Alloh ulariing sirlarini muqaddas qilsin.
q. s. — quddisa sirruhu — uning sirri muqaddas qilindi.
q. s. — qaddasallohu sirrahu — Alloh sirrini muqaddas qilsin.
q. r. a. — qaddasallohu ruhahul aziz — Alloh uiing aziz ruhiii muqaddas qilsin.
q. s. a. — quddisa sirruhum aziz — ularning aziz sirlari muqaddas qilindi.
q. t. a. — qaddasallohu taolo asrorahum — Allohu taolo ularning sirlarini muqaddas qilsin.
q. t. r. — qaddasallohu taolo ruhahu — Allohu taolo uning ruhini muqaddas qilsin.
q. t. s. — qaddasallohu taolo sirrahu — Allohu taolo uning sirrini muqaddas qilsin.
Yuzoru va yutabarraku bihi — (Qabri) ziyorat qilinadi va tabarruk sanaladi.

NASOYIM UL-MUHABBAT

BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

[Muhabbat va tavfiq bog‘chalarining shabbodalaridan valiylar qalbini ochgan, haqiqat va futuvvat bog‘larining xushbo‘yliklari bilan do‘stlari ko‘nglini shod etgan Aldohga hamdu sanolar bo‘lsin.

Irfon va faqirlik sharofati bilan faxrlangan Muhammad alayhissalomga salotu salomlar yo‘llaymizki, u zot tufayli zamon ahliga iymon sharofati yetishdi. U zot (Muhammad alayhissalom) odatdan tashqari ishlarning manbai, mo‘‘jiza, karomat va ilhomning ma’danidir. Va u zotning ma’sum ahlu ayollariga, pok sahobalariga ham salotu salomlar bo‘lsin)[1].

Ammo ba’d mundoq arz qilur jahl vodiysining marhalapaymoyi Alisher mulaqqab Navoiy [Alloh uning yuzini zalolat vodiysidan hidoyat yo‘liga bursin – sakkiz yuz sakson birda bu sarmoyasiz, notavon Hazrat ustozim, sayyidim, hujjatim, mahdumim va shayx ul-islomim Mavlono, millat va din nuri – Abdurrahmon Jomiy – unga Allohning rahmati, mag‘firati, salomi va rizosi bo‘lsin][*] xidmatlarida «Nafahot ul-uns mnn hazarot il-quds» kitabi jam’u tartibining boisi bo‘ldum. Andoqki, ul sharif kitobning fihrastida ul Hazrat nuvvira marqaduhu aning kayfiyatini sharh bila zikr qilibdurlar. O‘qug‘onlar ko‘rmish bo‘lg‘anlar va o‘qumag‘onlar o‘qusalar, ko‘rgaylar.

Ul kitob xaloyiq orasida mashhur va o‘qumoq va bitimagi shoe’ bo‘ldi.

Ul ma’rifat kunjining valoyatosor holoti zikridin va foyiz ul-anvor maqoloti fikridin ahli arboblarg‘a naf’lar va shavqu irodat ahlig‘a fayzlar yetishdi.

Doim oshufta xotirga kelur erdi va parishon xayolg‘a evrulur erdikim, ul kitob alfozi forsiydur, arabiyg‘a payvasta va iborati ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar vuqufidin bahravarlar va ul iboratu ishoratdin bexabarlar ul alf Ozdin o‘z qobiliyatlari xurdida va ishtig‘ollari muqobalasida naf’lar toparlar va fayz elturlar.

Ammo turk ulusidin ba’ziki, ko‘ngul sidqu safosig‘a bahramanddurlar, bu kimiyo asar so‘zlar ta’siriga Tengri inoyatidin arjumand, ul alfozg‘a vuquf qillatidin ul fayzlardin mahrum va bu haqoyiqning daqoyiqi ularga noma’lum. Xotirg‘a kechmishkim, agar sa’y qilsam, bu kitobni turk tiliga tarjima qila olg‘aymuman va ul daqoyiqu mushkilotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o‘tkara olg‘anmuman?–deb mutaammil erdim. Va ne bu xayolu muddaodin o‘zumni o‘tkara olur erdim va ne ishning azimlig‘i va dushvorlig‘i jihatidin shuru’ qila olur erdim.

To ta’rix to‘qquz yuz birdaki, ul kitobning ta’lifidin yigirma yil o‘tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug‘ ishg‘a ilik urdum va bu azim amrg‘a qalam surdum va Hazrat shayx Fariduddin Attor q. s. bitigan «Tazkirat ul-avliyo»din ba’zi kibor mashoyixkim, «Nafahot ul-uns»g‘a doxil bo‘lmabdur erdi – har qaysini munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q. a.din so‘nggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog‘i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamong‘acha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarin va ba’zi holotu so‘zlarin o‘z mahalida darj qildim.

Va Hazrat Maxdumi n. m. n.ning oti va muosiru musohib mashoyix q. a. zikri dag‘ikim, ul mutabarrak kitobda yo‘q erdi, munda qo‘shdum va ul kitobda dag‘i avliyoulloh zikridin ba’zi so‘zkim, zamon ahlig‘a ko‘p muhtoj un-ilayh ermas erdi itnob vahmidin tarkin tutdum va bu tarjimadin o‘ksuttum va chun bu valoyat riyozi muhabbat nasimig‘a muhib va futuvvat shamimig‘a sabab bo‘ldi, anga «Nasoyim ul-muhabbat min sha-moyim ul-futuvvat» ot qo‘ydum. Umidim ulki, bu nasoyimdin

[1] Катта қавс ичида арабий ва форсий матнларнинг таржимаси берилди. Арабий ва форсий матнлар эса асар охирида илова қилинди.

[*] Саррафаллозу важҳау ан водиз-залолати ило тариқил ҳидоятиким, саккиз юз саксон бирда бу бебизоат, адимуд иститоат ҳазрати устодий ва саййидий ва санадий ва махдумий ва шайх улисломий мавлоно нурул маллати ваддиа – Абдурраҳмои ал-Жомий алайҳирраҳмату вал-ғуфрону ват-таҳийёту вар-ризвон.

ruhlari toza va shamoyimdin ravhlari beandoza bo‘lg‘on azizlar qoyil ruhini biror duo bila yod va biror fotiha bila shod qilg‘aylar.

Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi

Allohu taboraka va taolo aytdi: biz odam bolalarini azizu mukarram yaratdik, Quruqlik (ot-ulov) va dengizga (kemalarga) chiqarib qo‘ydik. Yana Alloh taolo aytadiki, albatta bu omonatni (shariati islomni) osmonga, yerga va tog‘u toshlarga tavsiya qilgan edik, ular mas’uliyatdan bosh tortdilar va undan qo‘rqdilar. Inson esa, uni o‘z zimmasiga oldi}2.

Bu taqdir bila andoq tahqiq bo‘ldikim, haq subhonahu va taolo mahluqotda bani odamdin sharifroq va biyikroq xalq qilmaydur, nevchunki, ma’rifatulloh ganjining amini va mahrami uldur.

Va dedikim, [men bir maxfiy xazina edim, o‘zimni bildirish, tanitish uchun barcha olamii yaratdim]3. Va chun maxluqning zotida bashariyatni doxil qildi. Bashariyat muqtazosi bila alardin nopisand ishlar vujud tutti. Muning islohi uchun ba’zi bir guzida bandalar boshig‘a nubuvvat tojin qo‘yub, beliga hidoyat kamarin bog‘lab, bu maxluqning amru nahyig‘a o‘z ollidin mahkum va bularg‘a hokim qildi. Va Kalomu ahkom alar uchun nozil qildi, to ul ma’rifatg‘a alarni dalolat qildilar. Chun bu maxluqlar aning asmo’ va sifotining mazohiri erdilar va har sifatg‘a muttasif erdilar. Har qaysi o‘z qobiliyatig‘a ko‘ra ul sifatg‘a munosibki, anga mazhar erdi, taraqqiy va tafovut zohir qildilar va zotlarida bashariyat g‘olib erkan jihatidin muxtalif adyon va milal arog‘a tushti. Ul zamong‘achakim, xalqning ashaddi va ag‘lazi a’rob erdilar, balki alar orasida Qurayshki, alarning hidoyati uchun Hazrat Risolat s. a. v. niki murodi ofarinishdin ul hazratning sharifu pok zoti erdi, habiblig‘ig‘a muttasif qilib, ul gumrohlar hidoyatig‘a yibordi va ahkomin ul Hazratg‘a nozil qildi. Chun anbiyoning ashrafi erdi, qavm-aqvomning ashaddi. Har oyinakim, nozil bo‘lg‘on kalom qonuni bila shariat ahkomin andoqki-sharti erdi tuzdi va botil milAlii oradin chiqardi va qobil xalqni ul ma’rifatg‘a musharraf qildi.

Andoqki, kirom ashobidinki, bu davlatu saodatg‘a foiz erdilar, biri o‘z holidin xabar berurki, [agar parda ko‘tarilmasa, ishonch ortmaydimi?]4

Va chun ul Hazrat s. a. v. anbiyoning xotimi erdi va andin so‘ngra nubuvvat eshigi bog‘landi. Har oynnakim, noqislar takmilig‘a ummatining komilu olimlarini nomvar ettiki, burung‘i anbiyo o‘rnig‘a uhda qilgaylar va yo‘ldin chiqg‘onlarg‘a yo‘l ko‘rguzgaylarki (ummatim ulamosi Bani Isroil olimlari kabidur. Va yana – ulamo payg‘ambarlar vorisidir»]5, ahodisi andin xabar berur va ul Hazratdin so‘ngra buzurgvor ashobi rizvonullohi taolo alayhim ajma’in xaloyiqqa bu rahnamoylig‘ni bajo kelturdilar va Haq subhonahu va taolog‘a yo‘l ko‘rguzdilar va ul sohib davlatlardin so‘ngra bu ummatning mashoyixi va avliyoulloh q. t. a. bu irshodg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar va va’da budurkim, olam inqirozig‘achakim, millat va shariat siyrati mustaqim bo‘lg‘usidur.

Bu toifakim, valoyatu karomat ahlidurlar va xaloyiqqa irshodu uhda qilurlar, muborak zotlarining barakoti bu millat ahli boshidin kam bo‘lmag‘ay.

Bu toifaning a’molu af’ol va muomilotu riyozotidin ba’zini zikr qilmoq

Bularning avval ishlari tavbadurkim, Haq s. t. barcha manhiy ishlardin alarg‘a ijtinob karomat qilg‘ay va andin so‘ngra luqma hilliyatikim, ul bobda ulcha mumkindir, sa’y qilurlar. Har oyina [kosib ollohning sevgan bandasidir]6 mazmuni bila kibor mashoyix ba’zi san’atlarga ishtig‘ol qilibdurlar.

Ul jumladin, Shayx ul-mashoyix Shayx Abu Said Xarroz q. r. a. erdikim, alarni mashoyix Qamar us-sufiya debdurlar. Va shayx ul-islom muqarrabi Hazrat Boriy Xoja Abdulloh Ansoriy q. r. mashoyix ta-baqotinkim bitibdurlar, jamii avliyoullohdinkim zikr qilibdurlar, barchadin alarni ko‘prak vasf qilibdurlar va martabalarin biyikrak tutubdurlar. Alar o‘tuk tikarga mansubdurlar.

Va Shayx Muhammad Sakkok q. s. kim, o‘z zamoni mashoyixining yagonasi ermish, pichoqchiliqqa mansubdur.

Va Shayx Abu Hafz Haddod q. r. temirchilik qilibdur.

Va Shayx Abubakr Xabboz q. s. o‘tmakchilikka mashhurdur.

Va Shayx Abulabbos Omiliy q. s.kim, o‘z zamonining qutbi va g‘avsi ermish va sultoni tariqat Shayx Abusaid Abulxayrning xirqa piri ermish, qassobliq qilibdur.

Va Shayx Ibrohim Ojuriyki, xisht avalabdur.

Va Mirchai Safolfurushki, Xuroson elining piri ermish, doshgarlik qilibdur.

Va Shayx Abulhasan Muzaiyin va Shayx Bannon – hammol va Shayx Abulhasan – najjor.

Va mutaaxxir mashoyixdin zamonining yagonasi Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband q. r. a.ki, kimxo naqshini bog‘lamoqqa mashhurdurlar.

Va soyir mashoyixi kibordin ham ko‘pi halol luqma kasbig‘a muzdurluq qilibdurlar, o‘tin toshibdurlar va halol luqma bu ishda kulliydurki, ondin fayzu ma’rifat zoyanda bo‘lur.

Va bir shubhalik luqma oncha tiyralik keltururki, ko‘p vaqt oning islohig‘a mashg‘ul bo‘lub, ma’lum emaski, daf’i ne nav’ surat bog‘lar.

Ondin so‘ngra shariat rioyatidurki, ul jodada istiqomat bo‘lg‘ay va ulcha mumkindur ondin qadam tajovuz kilmag‘oy.

Shayx ul-islom q. r. a. debdurlarki, har nimadin 6ir miqdorni olsalar, bir miqdori qolur, shariatdin o‘zgaki – bir, miqdori ondin kam bo‘lsa, hech nima qolmas. Bu toifaning shariat rioyati va sunnat mutobaatidin ulug‘roq ishlari yo‘qdur. Ul ishda rusuxu istiqomatdin dushvorroq amrlarikim, Hazrat Risolat s. a. v.din manquldurkim, bir saboh ashob ul Hazratning muborak mahosinlarida necha tuk oq ko‘rdilarki, burung‘i kun yo‘q erdi. Taajjub yuzidin tafahhus qildilar, ersa ul Hazrat buyurdilarki, o‘tgan kecha «Hud» surasi mulohazasida (bas, Ey Muhammad, siz va siz bilan birga tavba qilgan zotlar o‘zingizga buyurilgani yanglig‘ to‘g‘ri yo‘lda bo‘lingiz]7 oyatida taammul qilur erdim. Oning su’ubatidin bu voqe’ bo‘lubdur va ul Hazratning sunnatlarining rioyati va onda istiqomatki, filhaqiqa Haq s. t. amrining. rioyatidur va ondin dushvorroq nima mutasavvar ermasdur. Bu rioyatu istiqomat soyir sunandadur. Va umdalariki, faroyizdur va islom arkonidur.

Va oning avvali shahodat kalimasidur va alhaq jami’i avliyoullohu mashoyix q. t. a.ning zikrlari xoh xafiy va xoh jahr ul tarkibdur, balki ul kalimaki, mudovamatini ul yerga tegurubdurlarki, bir lahza ondin g‘ofil, balki bir turfat ul-ayn ondin g‘oyib bo‘la olmaslar. Va ondin mash’ufu mustag‘raq bo‘lubdurlarki, ba’zi bu kalimann eshitgach, behush bo‘lub, yiqilibdurlar. Va ba’zining ham bu kalima istimo’idin ruhlari muforaqat qilibdur.

Va yana biri saloti xamsadurki, ul nav’ki bu toifa ado qilibdurlar, aql qoshida mahol ko‘runur.

Va ul jumladin, shayx Husayn Mansur Halloj H. s.durki, bovujudi ul da’volar va bovujudi saloti xams adosidin boshqa bir kechalik kunduzlikda Shayx ul-islom q. s. debdurki, ming rak’at nofila guzorlar erdi. Va alarga qatl bo‘lg‘on kunning kechasi besh yuz rak’at ado qilib erdilar. Va sulton ul-orifin Shayx Abu Yazid Bistomiy q. s. namoz qilsa erdilar, qa’-qa’alarning ko‘ksi so‘ngaklaridin chiqar erdi. Haq s. t. haybatidin va shariat ta’zimidin va hozir xalq eshiturlar erdi. Va Shayx q. t.ni ba’zi mashoyix ta’n qilibdurlarki, namoz qilmas. Alar debdurlarki, namoz qilurda manga bir hol voqe’ bo‘lur. Siz ham mulohaza qiling, agar ul hol bila namoz joyiz bo‘lsa, qiloyin. Mulohaza qilibdurlar: «Allohu akbar» deb takbiri tahrima bog‘lag‘ondin so‘ngra, har tuki tubidin bir qatra qon bosh urubdur.

Yana biri zakotdur. Bu toifa dunyo tarkini ixtiyor qilibdurlar. Alardin yuzdin biri sohibi nisob bo‘lmaslarkim, alarg‘a zakot farz bo‘lg‘ay. Ba’ziki, bo‘lsalar ham tamomin Tengri yo‘lig‘a sarf qilurlar va minnat jonlarig‘a tutarlar.

Shayx Abubakr Shibliy q. s.din bir faqih so‘rubdurki, zakot adosi ne nav’dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur? Shayx debdurlarki, sanga bo‘lur zakot uldurkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysan. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen. Debdurlarkim, ikki yuz diramkim

berildi, yana besh diram nedur? Shayx debdurlarki, ul besh diramni burj qilib, ul ikki yuz diram bergan shukronag‘a berilg‘ay. Va bu Abubakr Siddiq mazhabidur, raziyallohu anhu.

Yana biri ro‘zadurkim, soyir xaloyiq fajr tulu’idin kunas g‘urubig‘acha yemak-ichmakdin va mubosharatdin imsok qilurlar. Bu toifa anga ko‘shish qilurkim, andoqki, yemak-ichmakdin bo‘g‘uzg‘a savm buyurg‘aylar. Jami’i a’zog‘a o‘z qilur fe’llaridin ro‘za buyurg‘aylar. Ko‘zga nomashru’ nimaga boqardin va quloqqa nomashru’ un eshiturdin va oyoqqa nomashru’ qadam urmog‘din, ilikka nomashru’ nima tegmakdin va alo hozo jami’i a’zog‘a bu dastur bila. Va bovujudi bu su’ubatlar-barchadin sa’broq ko‘ngul ro‘zasidurki, Haq s. t.din o‘zga hech nima xotirg‘a kechmakdur va bu ro‘zani doimiy ko‘ngulga buyururlar.

Islomning bu mazkur bo‘lg‘on to‘rt rukni takmil topqandin so‘ngra hajdurki, soyir xaloyiqqa sharti istitoat va amni tariqdur. Va bu toifaga amni tariq, Haq taolo mulkidadur, ya’ni har yerki, Haq s. t. mul-kidur, onda asrag‘uchi o‘zidur. Va istitoat oning xizonai karamidurki, ul yo‘lg‘a bovujudi ul to‘rt ruknning mazkur bo‘lg‘on rioyati bu nav’ amni tariq va istitoat bila qadam urarlar va tavakkul bila ul yo‘lni qat’ qilurlar.

Yana bovujudi shariat rioyati va tariqat odobidurki, bu toifa mar’iy tutarlar. Ul adabdurki, yaxshiyu yomong‘a va ulug‘u kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, borcha xaloyiqdin o‘zlarin kichik va kamroq tutorlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki, o‘z farzandlarig‘a va xodimu mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat birla alarg‘a so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha.

Manquldurki, Hazrat Xoja Abulvafoyi Xorazmiy q. r.bir ravzan yorug‘lig‘ida o‘lturub, mutolaa qilurlar ermish. Bir o‘g‘ri angdib, alarning dastorlarin sirmabdur. Alar o‘zlari tarafidin tutubdurlar va o‘g‘ri iztirob bila tortor ermish. Alar der ermishlarki, he valloh, eski va yirtiqdur. Sizning hech ishingizga yaramas. Bu so‘zni muqarrar qilibdurlar. O‘g‘rig‘a asar qilmay tortor ermish. Xoja ojiz bo‘lg‘ondin so‘ngra dastorni qo‘yaberib, demishlarki, sizga har necha ayttuq, inonmadingiz, ochqaningizda ko‘rgunguzdur. O‘g‘ri nariroq borg‘ach, ochib ko‘rsa, Xoja degondek, bag‘oyt eski va pora-pora ko‘rub, toshlabdur. Xoja bilibdurki, ko‘rgach tashlag‘usidur, keynicha borib, dastorni olmishlar va boshlarig‘a chirmarda o‘z-o‘zlari birla der ermishlarki, har necha ayttuqki, yaramas, inonmaslar, o‘zlari ko‘rmaguncha tashlamadilar. Yana bovujudi bu nav’ adab saxoe mufritdurki, oni bu toifa bazli mavjud derlarki, hech nimalarin hech kishidin ayamaslar.

Manquldurki, Xoja Abunasr Porso q. r.ning Balxda bir yaxshi otlari bor ermish. Va hokimning xotiri ko‘p ul ot sori moyil ermish. Ammo tilamas ermishki, shoyadki, Xojaning muborak xotirlari ham anga vobasta erkin. Bir kecha ikki o‘g‘ri ittifoq qilibdur. Tavilani teshib, ul otni chiqarib eltibdurlar. Tong erta ma’lum qilg‘och, muridlar va mulozimlar iztirob birla kelib, Xojag‘a arz qilibdurdar. Xoja debdurlarki, biz oz minar erdik, eltgan kishilarga bizdin darboyistroq erkandur.

Ashob hokimg‘a arz qilurlar. Hokim ul tama’ig‘aki, bu vasila bila shoyad Xojadin tilasa bo‘lg‘ay.

Tush-tushdog‘i yo‘llorg‘a kishilar choptirib, o‘g‘rilarni tutub, bir ulug‘ navkaridin Xoja xizmatig‘a yuborur, ikki ko‘histoniy o‘g‘ri bila. Ashob aydurlarki, hokim o‘g‘rini tutub, otni falon ulug‘ navkaridin yiboribdur, toshqoridur. Xoja derlarki, kirsun! Ul navkar kirgach, Xoja ta’zim uchum qo‘porlar va oni o‘lturdurlar. Ul ikki mulozimlarg‘a ishorat qilurkim, o‘g‘rilarni kiyururlar. Iliklari boglig‘. Alar ham kirgoch, Xoja hamul dastur bilan qo‘porlar va alarni o‘lturdurlar va iliklarnn yeshtirurlar va so‘rarlarki, Qaydalig‘siz?- Derlarki, ko‘histonlig‘. So‘rarlarki, holo, ul yon ozim erdingiz? Derlarki, bale. Derlarki, magar yoyog‘ erdingiz? Derlarki, bale. Derlarki, qo‘nung, ul ot sizga darboyistroqdur, oling va boring! Hokim navkaridin hokimg‘a minnatdorlig‘ bila uzr qo‘lub yiborurlar.

Yana hilm va burdborlig‘durki, bu toifag‘a har kimdin har shiddat yetishsa, alar lutfu madoro bila o‘tkorurlar va muqobalada minnatdorlig‘ bila uzr qo‘larlar.

Ul jumladin azize erdi, bu toifaning mukammalidin va Hazrat Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s. ning kibor ashobidin erdi va faqirning alar xizmatida ko‘p irodatim bor erdi. Va alar yaxshi un samoi’g‘a mash’uf erdilar. Mug‘anniyi bor erdi xush ovoz, ammo kichik yoshlig‘ va devonasoru sho‘x

erdi. Majlisda o‘lturaturg‘och sekrib, ul azizning bo‘ynig‘a minib, ayog‘in depsar erdi. Alar rifqu madoro bila aytur erdilar: Hordingiz erkin, tushsangiz ham siz bilursiz. El malomat qildilar. Ersa, alar man’ qildilarki, ul ajab karamu ehson qiladurki, aytmaydurki, qo‘p, toshqori bozorg‘a ushbu dastur bila mani elt! Agar desa erdi, eltmoqdin o‘zga ne chora bor erdi?

Yana rizodurki, har ne haqdin kelsa, va har kim sabab bo‘lsa, musabbibdin o‘zga kishini orada ko‘rmagaylar. Va rizo izhoridin o‘zga alar tili va ko‘ngliga kirmagay. Ham ushbu mazkur bo‘lg‘on azizning bir o‘g‘li bor erdi. Bag‘oyat qobil, husni xulqi bag‘oyat kamolda va bir yolg‘uz o‘g‘il erdi. Qazoro bemor bo‘ldi va necha kundin so‘ngra Tengri hukmin butkardi. Bir shahr xalqi shohdin gadog‘acha ul sababdin motame erdilar. Ul azizning holig‘a va libosig‘a tag‘yir bo‘lmadi. Motamelarg‘a ko‘ngul berib, haq rizosig‘a targ‘ib qilur erdilar. To ko‘tardilar va madfang‘a elttilar, o‘zi qabr ichiga kirib aziz farzandin shar’ vajhi bila qabrda qo‘yub, mag‘firat duosi qilib chiqti va so‘zi bu erdikim, [Allohning hukmiga bizni rozi qildi.)8. Va shahr xalqi, akobiru ashrof barcha lol erdilar.

Yana sabrdurkim, har ne haqdin, yuzlansa, tahammul pesha qilg‘ay va har balo kelsa, sabr qilg‘ay.

Ul jumladin Shayx Sahl bin Abdulloh Tustariy q. r. a.din manquldurkim, alar yillar bavosir marazig‘a mubtalo erdilar. Va hol ulkim, alar ul zamonning mashoyixi arosida mustajab ud-da’vo erdilar. Har kishiga bir, su’ubatu baloe voqe’ bo‘lsa, alardin duo istid’o qilur erdilar. Alar duo qilg‘och, mustajob bo‘lub, ul tashvishdin qutulur erdi. Yillar ul sa’b marazig‘a sabr qilib, duo qilmadilarki, har ne Tengridin kelsa, xushdur. Biz oni nechuk rad qilali?

Yana sidqdurki, g‘ayri voqe’ so‘z tilga mutlaqo joriy bo‘lmag‘oy.

Manquldurki, Hajoj b. Yusuf qatlidin imomzodalardin biri qochib erdi va keynicha jami’i qavub kelur erdilar. Bu toifadin birovki, ul imomzodag‘a ixlosu xizmatkorlig‘i bor erdi, yo‘luqti. Alar iztirob yuzidin dedilarki, bir yer topsang, biznn yoshurki. Bu jamoat bizning qatlimizg‘a keladurlar. Va iynak yetishtilar. Ul darvesh dediki, bu vayronag‘a kiring! Anda bir buzuq erdi. Imomzoda onda jon havlidin kirdi. Kirgoch, qavib keladurg‘onlar ul darveshg‘a yettilar. So‘rdilarki, bu boradurg‘on kishi qayon bordi? Ul darvesh dediki, bu buzuqqa kirdi. Alar bir necha yig‘och va qamchi urub, dedilarki, oni uzasun deb, bizni hayalg‘a solursan, deb o‘ttilar. Alar ketgandin so‘ngra imomzoda chiqib, ko‘ngul qolish qildikim, ravo bo‘lg‘oykim, o‘zung vayronada bizni yoshurub, o‘zung dushmang‘a so‘rog‘ berursen? Ul darvesh ayttikim, ey maxdumzoda, maning rostliqim barakatidin xalos bo‘ldung. Endi o‘z fikringni qil, dedi. Va aning maxlasig‘a tadbir qildikim, ul xalos bo‘ldi. Va bu nav’ hamida axloq va pisandida sifotki, bu toifadin voqe’dur, ko‘pdurki, agar sharhin qilsa, yana bir kitob yasamoq kerak.

Va yana azim riyozatlarki, shariat ani mutaayyin qilmaydur. Ham toifadin mutanavvi’ voqe’ bo‘libdurki, oning ham sharhining tuli bor. Ul jumladin, biri niyat bila bir oyda bir iftor qilmoq va bir oida bir vuzu’ bila namoz qilmoqki, ba’zi mashoyix r. a. a.din voqe’ bo‘lubdur. Va Sultonn tariqat Shayx Abu Said Abulxayr q. s.kim avoyili sulukda alar har kecha bir chohdin bosh to‘ban o‘zlarin osar ermishlar va tongg‘acha zikr aytur ermishlar. Va andoq bo‘lur ermishki, muborak ko‘zlaridin qon kelur ermish va Hazrat Shayx ul-islom q. r. durkim, Hirida sakkiz botmon non bir tansug‘a ermish va alar yoz giyohi birla kun kechurur ermishlar. Va Shayx ul-islom Shayx Ahmad Jom q. s.kim, o‘n sakkiz yil Yazd tog‘ig‘a chiqib, xalqdin i’roz qilib, ul tog‘da toat qilibdurlar. El yuzin ko‘rmaydurlar va onda yemak ma’lum emas erkondurki, qaydin va qishda kiymak qaydin? Har oyinakim, bu buzurgvorlarg‘a haq subhonahu va taolo bu suluku riyozatlari muqobalasida o‘z fazlu karami birla oncha mavhibat nasib qilibdurki, olam salotini yuzlarin alarning ostonalarig‘a surtubdurlar va ro‘zgorlarining sharafi ko‘rubdurlar alardin bir nazar istid’osig‘a va alarning muborak nazarlarin ba’zig‘a solibdurlar, ba’zig‘a yo‘q.

Avliyoullohg‘a voqe’ bo‘lg‘on xavoriqi odotu karomot bayoni

Va ul ko‘pdur avliyoullohning marotibidek.

Ul jumladin bir nechasi bulardurlar: Ma’dum ijodi va mavjud i’domi va mastur amr izhori va zohir amr istori va duo istijobati va oz muddatda ba’ida masofat qat’i va hisdin g‘oyib ishlarga ittilo’ va andin xabar etmoq va vohid zamonda muta’addid va muxtalif makonga hozir bo‘lmoq va mavto ihyosi va ihyo imotasi va jamodot va nabotot va hayvonot kalomining samo’i va maoniysig‘a vuquf topmoq, tasbihdin va g‘ayridin va at’imayu ashriba izhori hojat vaqti besabab zohir bo‘lmoq va suv ustida yurumoqdek va havoda sayr qilmoqdek va yemak ul nimaniki, odatan ul g‘izo bo‘lmag‘ay va hayvonot tasxiri va badanda mufrit quvvat izhori andoqki, daraxtni tubidin qo‘ng‘ormoq, samo’ vaqtida. Va devorni barmoq ishorati bila shaq qilmoq va ilik ishorati birla muxolifning boshin uchurmoq va daryolarda g‘arq bo‘ladurg‘on kemani tutub, qiroqg‘a chiqarmoq va olam hayulosida har ne nav’ tasarrufiki, har ne tilasa qilmoq, misli yomg‘ur yog‘durmoq va yel esturmoq va sel kelturmoq va daf’ qilmoq va chuvurtka ofatini daf’ qilmoq va har surat bila mutamassil bo‘lmoq. Biyobonda sargashta va ovora bo‘lg‘onlarg‘a rahnamoyiliq qilmoq va dastgir bo‘lmoq.

Va Haq s. t.g‘a andoq muqarrab bandalar va do‘stlar ham borki, bu borcha mazkur bo‘lg‘on holatdin ijtinob qilurlar, balki or qilurlar, nevchunki, bir turfatulayn Haq s. t. shuhudu istig‘roqidin g‘ofil bo‘la olmaslar. To ul saodatdin g‘ofil bo‘lmog‘uncha bu nimalarga maylu iltifot qilsa bo‘lmas. Har oyinaki, ul maqsudi asliydin har amrki, bu buzurkvorlarni bir lahza g‘ofil qilg‘ay agar barcha behishti jovidondurki, alarg‘a do‘zaxcha bor, andin ijtinob yo or qilsalar, muhiq bo‘lg‘aylar. Umid uldurki, bu zalolat vodiysida gumrohdek mahrumlar bu hidoyat olamida rahnamoylarning oyog‘i tufrog‘i bila tiyra bo‘lg‘on botin so‘zlarin yorutmoqqa bahramand bo‘lg‘aylar. Va xokisor boshin ul ayog‘larg‘a tufroq qilmrq bila sarbaland. Emdi alar zikriga shuru’ qilali. Mutolaa ahlig‘a ma’lum bo‘lsunki, «Nafahot» dasturi bila bu kitobda «shayx ul-islom» har yerdakim mazkur bo‘lur, ondin maqsud Hazrat Xoja Abdulloh Ansoriy q.s. dur va «Hazrat Maxdumiy» har yerdakim marqum bo‘lur, Janobi Maxdumiy Nuvvira marqaduhu nurandur.

1*. Shayx Uvays Qaraniy q. r.

[Ollohning payg‘ambari aytgan: Uvays Qaraniy ehson va mehribonligi bilan tobiinlarning yaxshisidir][1]. Goh-goh Xojai olam s. a. v. muborak yuzin Yaman sori qilib der erdikim, [Men xudoning nafasini Yaman tomonidan tuymoqdaman]2. Birovning vasfikim, oning vassoffi Xojai koinot bo‘lg‘ay va nafasi nafasi rahmon bo‘lg‘ay, vasf qilmoq bag‘oyat beodoblnq bo‘lg‘ay. Ham Xojai Koinot s. a. v. buyurubdurkim, tongla qiyomat kuni Haq s. t. yetmish ming farishta

*

Uvays surati bila yaratqoy. To ul alarning orasida arosotg‘a kirib, behishtga borg‘ay. To hech kim ma’lum qilmag‘ay. Tengridin o‘zgaki, ul qaysi biridurki, ul dunyoda barcha xalq ko‘zidin yoshurun Tengri taolog‘a qulluq qilur erdi. Qiyomatda dog‘i Tengri taolo ani barcha nomahram ko‘zidin mahfuz tutqay.

Naqldurki, Hazrat Risolat s. a. v. olamdin o‘tarda, ashob r. t. a. so‘rubdurlarkim, sizning muraqqa’ kimga havoladur? Debdurlarki, Uvays Qaraniyg‘a bersunlar va desunlarki, maning ummatimni duo qilsun! Hazratdin so‘ngra Foruq va Murtazo r.t.a. Ko‘fag‘a borib, Yaman elidin so‘rub, Qaranda Uvaysni topdilarkim, teva kutub yurur erdi. Muraqqa’ni topshurub, ummat uchun duo istid’o qildilar va bu ma’nida so‘z ko‘pdur. Sharhi bila bilayin degan kishi «Tazkirat ul-avliyo»ni o‘qisun. Oning holotini tamom bitisa, yana bir boshqa kitob bitimak kerak.

Uhud urushida Payg‘ambar s. a. v.ning muborak tishi shahid bo‘lg‘onin eshitib, mutobaat uchun o‘ttiz ikki tishin ushotti. Har birinki, ushotur erdi, der erdiki, shoyad bu tish emas erdi ekin. Yana birii ushotur erdi. To mundoq qilib, barcha tishlarin ushotti. Va Hazrat Risolat s. a. v.ni ko‘rmabdur erdi va

* Қўлёзмаларда шайхлар тартибига рақамлар қўйилмаган. Лекин Туркияда чиққан (К. Эраслан, 1996) танқидий матнда рақамлар қўйилган. Изоҳ ва таржималардан фойдаланишни назарда тутиб, бу нашрда ҳам рақамлар берилди.

ul Hazrat ham oni zohir koʻzi bila koʻrmabdur erdilar. Maʼnoyu ruhopiyat yuzidin tarbiyat qilib erdilar. Bu jihatdin har kishiningki, bu toifadin zohir yuzidin piri maʼlum boʻlmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilgʻon boʻlsa, oni Uvaysiy derlar.

2. Habib A'jamiy q. r.

Komil riyozati va vofiy muomaloti bor erdi. Avoyilda gʻaniy erdi, elga yormoq sudgʻa berur erdi. Har kun muddailargʻa yormoq tilay borur erdi. Agar vajh ado qildilar, yaxshi, yoʻq ersa, ayogʻining muzdin olur erdi va andin qut qilur erdi va xalq tiliga bu sifat bila mazkur boʻlur erdi. Va tavbasigʻa sabab bu erdiki, bir kun bu navʼ vajhin taom pishurub erdi. Soyil «Shayʼanilloh [Olloh uchun biror narsa ber!][1] dedi. Ul achchigʻlanib, soyilni qavdiki, taom ozdur, sanga yetmaz.

Xotuni chun taomni chiqarugʻa qozonning boshini ochdi. koʻrdiki, ul taom tamom qon boʻlubdur. Ani tilab koʻrguzdiki, soyilgʻa shiddat qilgʻaning shumlugʻidin bu hol voqeʼ boʻlubdur. U bu holni koʻrgach, holi mutagʻayyir boʻlub, Shayx Hasan Basriy xizmatigʻa yetib, har nedinki bor erdi, chiqib, inobat yuzidin tavba qildi va har kimda har nesiki bor erdi, anga musallam tutti va mashgʻul boʻldi. Va Shayx Hasan Basriy q. s. qoshida kunduz ilm oʻrganur erdi va kecha tong otguncha toat qilur erdi. Va ani «A'jamiy» aning uchun derlar erdiki, Qurʼonni durust oʻquy olmas erdi, ammo sohibkamollar aning qoshida tifli maktab erdilar. Bir xuniyni dorgʻa osib erdilar: Habib andin oʻtarda koʻzi anga tushti. Qecha ul xuniyni voqeada koʻrdilar, behishtgʻa jilva qilur. Soʻrdilarki, sen ul feʼling bila bu martabagʻa nechuk yetting? Dediki, meni u yerdaki qatl qildilar, Habib A'jamiy oʻtub borur ekandur, koʻzi manga tushubdur, bu manzilat aning bir nazari barakatidin toptim.

3. Abu Xozim Makkiy q. t. s.

Hasan Basriyning shogirdidur va koʻp mashoyix suhbatigʻa yetibdur va uzun umr topibdur. Va mashoyixiing aning taʼrifida mubolagʻalari bor ermish. Hisham b. Abdulmalikki, xalifa erdi, andin soʻradiki, nedurki, aning sababidin najot topqanbiz? Dedi: uldurki, har ne olsang, bir yerdin olgʻaysenki, halol boʻlgʻay va bir yerga borgʻaysenki, haq boʻlgʻay. Hisham dedi: muni kim qila olgʻay? Dedi: ulki doʻzaxdin mutavahhim boʻlgʻay va behishtka tolib va maqsudi – Haq rizosi.

4. Ataba b. Gʻulom r. t.

Ajab raveshi bor erdi va nafsni doim taabda tutar erdi. Hasan Basriyning shogirdidur. Tavbasining sababn buni debdurlarki, bir zaifaga oshiq boʻlubdur. Maʼshuqigʻa xabar qilibdurlarkim, falon senga oshiqdur. Maʼshuqa eʼlom qilibdurki, mening qaysi uzvum sanga maqbul tushubdur? U debdurki: Koʻzlaring. Ul zaifa ikki koʻzini oʻyub, bir tabaqqa solib, aning qoshigʻa yiboribdurki, onak mahbubinggʻa nazzora qil. Anga gʻarib holat dast berib, tavba qilib, Tengri yoʻligʻa kiribdur.

5. Molik Dinor q. t. s.

Bu toifaning akobiridindur. Otasining oti Dinor ermish. Va ul bandazoda ermish, ammo ikki olamdin ozoda ermish. Baʼzi debdurlarki, ul kemaga kiribdur va sohilga yetganda, kemachilar muzd tilabdurlar va aning muzd berguncha vajhi yoʻq erkandur. Kemachi anga qatigʻ izo qila boshlabdur. Daryodin chandin hazor baliq har biri bir dinor ogʻizlarigʻa tutub, suvdin bosh chiqaribdurlar. Birining ogʻzidin olib, kemachigʻa beribdur va aning muzdi bir dinor-oʻq ekandur. Bu sababdin ani Molik Dinor debdurlar. Va ul Shayx Hasan Basriy q. s. suhbatigʻa yetibdur. Ul debdurki, «Kalomullohada oʻqubmenki, Tengri taolo bandasigʻa ikki inoyat qilibdurki, maloikai muqarrabindin Jabroil va Mikoilgʻa qilmaydur. Biri buki, debdurki: [Bas, meni eslangiz, men ham sizlarni eslayman, menga shukr qilingiz va meni inkor qilmaygiz![1] Yana biri buki, debdur [Duolaringizni mustajob qilurman[2]]. Aning vafotidin soʻngra buzurg ani voqeada koʻrub soʻrdikim, Tengri sanga ne qildi? Ul dediki, Tengrini koʻrdum, muncha gunohimki bor erdi, barisini yaxshi gumonim jihatidinki, Tengriga bor erdi, mahv qildi va bagʻishladi. Yana bir buzurg ani va Shayx Muhammad Vosiʼ q. r. voqeada koʻrubdurki,

ikkisi behishtqa borur erdilar. Molik Dinor Muhammad Vosi'din ilgarirak erdi. Debdurki, Muhammad Vosi' Molikdin olimroq va komilroq erdi, bu nechuk andin ilgarirak behishtka boradur? Debdurlarki, dunyoda aning ikki ko‘nglaki bor erdi va Molikning bir.

6. Muhammad Vosi' r. t.

O‘z zamonining benaziri erdi va tobiindin ko‘pga xizmat qilibdur va suhbatig‘a yetibdur va ko‘p mashoyix bila suhbat tutubdur, ul jumladin, Shayx Hasan Basriy q. r.dur. Ul debdurki, xush ul kishikim, oqshom och yotqay va tong erta och qo‘pqay va bu hol bila Tengridin xushnud bo‘lg‘ay. Birav andin vasiyat talabi qildi. Ul dedi: sanga bir vasiyat qilaykim, ham bu dunyoda podshoh bo‘lg‘aysen va ham ul dunyoda. Ul kishi ayttiki, ayt. Dediki: bu dunyoda zohid bo‘l va hech kishidin tama' qilma, to barcha xalq sanga muhtoj bo‘lg‘aylar, mundoq bo‘lg‘andin so‘ngra lojaram sen g‘aniy va podshoh bo‘lg‘aysen va dunyoda mundoq bo‘lg‘on oxiratda ham shodshohdur.

7. Abdulloh Muborak q. t. s.

Ani ulamoning shahanshohi der ermishlar va judu shijoatda zamonining yagonasi ermish. Va tariqat ashobining muhtashami. Va bu qavmning mashoyixining ko‘pining suhbatig‘a musharraf bo‘lubdur. Va mashhur tasonifi bor.

Bir kun ul kelur erdi va Sufyon Savriy va Fuzayl Ayoz q. s. hozir erdilar. Sufyon dedi: kel ey mashriq ahlida er! Fuzayl dedi: va mag‘rib ahlida va ikkisining orasida.

Aning tavbasining ibtidosi bu erdiki, bir kanizak ishqig‘a giriftor bo‘ldi. Bir qish kecha tong otquncha ma'shuq devori tubida turub erdi va ustiga qor yog‘adur erdi va ul xabarsiz. Sahar namozin ayturda ul xuftan sog‘indi. Kunduz bo‘lg‘ondin so‘ngra ul holg‘a voqif bo‘ldi, o‘ziga dediki, ey Muborakning nomuborak o‘g‘li, uyot sanga bu avqotingdinki, agar imom namozda bir surani uzunroq qiroat qilsa, toriqib, telbararsen va munungdek kecha nafsing havosig‘a tong otquncha mundoq azob tortarsanki, suubatidin xabaring yo‘qtur. Ko‘ngli bu darddin buzuldi va bori ishdin tavba qildi va sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Ishi ul yerga yettiki, Makkadin Madinag‘a degincha mahofasin ashrof eginlarig‘a ko‘tarib elturlar erdi.

Naz' holatida har ne boru yo‘qin darveshlarga ulashib erdi. Muridlaridin biri dediki, ey Shayx, uch qizing qoldilar va hech nima qolmadi, alar fikrini ne qilding? Dediki, men alar hadisin debmen: [u solih bandalarga yor bo‘lur[1]]. Saloh ahli korsozi uldur. Har kimki, aning korsozi ul bo‘lsa, yaxshiroqki, Abdulloh Muborak bo‘lg‘ay. Va borur zamonda ko‘z ochib, kulub aytur erdi: [amal qiluvchilar mana shunday (mangu baxt-saodat uchun) amal qilsinlar].[2] va dunyodin o‘tdi. Aning manoqibi zikrin tilagan kishi Hazrat Shayx Fariduddin Attor q. s.ning «Tazkirat ul-avliyo»sida tilasunki, vofiy bitibdur.

8. Abuhoshim So‘fiy q. s.

Avval kishikim, so‘fiy dedilar ul erdi. Kufiyulasldur, Shomda Shayx erdi va Sufyon Savriy q. s. bila muosir erdi. Va Sufyon so‘zidurkim, [Agar Abuhoshim So‘fiy bo‘lmaganda edi, riyoning nozik ma'nolarini tushunib yetmagan bo‘lar edim[1]]. Avval xonaqohkim, so‘fiylar uchun bino qildilar, Shomning Ramlasida erdi. Va ul bu nav' erdikim, tarsolar ulug‘i ovga boradur erdi, ko‘rdikim, ikki darvesh bir-biriga yetib, muhabbat yuzidin ko‘rushtilar va muvofaqat bila o‘lturub, ulcha yeguliklari bor erdi, yedilar, tavozu' bila bir-biridin ayrilishtilar. Ko‘radurg‘an kishiga alarning bu ulfat bila muomalalari xush kelib, birin tilab so‘rdikim, ul biring sanga ne bo‘lur? Dedikim, hech nima. Dedikim, ne kishi erdi? Dedikim: tanimasmen. Dedikim, qaydindur? Dedikim, bilmasmen. Dedikim, bas, sizing orangizda bu nav' ulfat qaydin erdi. Dedikim, bizning tariqimiz budur. So‘rdikim, bir yerki siz jamoat anda yig‘ilgaysiz, bormu? Dedikim, yo‘q. Dedikim, men sizing uchun bir yer yasaykim, anda yig‘ilishg‘aysiz. Va Ramlada ul xonaqoh yasadi. Va Shayx ul-islom q. s. so‘zidurkim, [yaxshi insonlar tashrif buyurgan manzil xonadon – eng yaxshi joylardir1. Va qadimdan Alloh yaxshilarni yaxshilar bilan kelishtirib qo‘ygan][2]. Va Hoshim so‘zidurkim, igna bila tog‘ni qozmoq takabburni ko‘ngullardin

chiqarmoqdin osonroqdur. Abuhoshim, Qozi Shuraykni ko‘rdikim, Yahyo Xolid uyidin chiqdi, yig‘ladi va dedikim, [Allohdan manfaatsiz ilmdan panoh tilayman[3]] Mansur Ammor Damashqiy debdurkim, Abuhoshim bemor edi, o‘lum bemorlig‘i. Dedimkim, o‘zungni nechuk ko‘rasen? Dedi: azim baloda ko‘radurmen, ammo havo, ya’ni mehru sevukluk balodin ortuqdur, ya’ni balo azimdur, ammo mehr ollida haqirdur. Shayx ul-islom q. s. dedikim, agar balo havo chog‘liq bo‘lsa erdi, havo bo‘lmag‘ay erdi.

9. Zunnun Misriy q. t. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Oti Savbon b. Ibrohim, kuniyati Abulfayz va laqabi Zunnun. Ul Misrning Ixmim degan mavzeida bo‘lur erdikim, imom Shofe’i r. a.ning qabri andadur va Zunnun Molik Anasning shogirdidur va oning mazhabidadur va «Muvatto»ni andin eshitib erdi va fiqh o‘qub erdi va aning piri Shayx Isrofil erdi, Mag‘ribda. Va Shayx ul-islom debdurki, Zunnun ul kishi emaski, oni karomat bila sitoyish qilg‘aylar va maqomot bila oroyish bergaylarkim, maqomu hol oning ilgida suxra erdi va darmonda. Vaqtning imomi va ro‘zgorning yagonasi va bu toifaning boshidur va barchaning nisbati va izofati angadur. Avval kishikim, ishoratni iboratqa kelturdi va bu tariyqdin so‘z aytti, ul erdi. Chun yana bu tabaqada Junayd q. s. paydo bo‘ldi. Bu ilmga tartib berib, bast qilib, kutub bitidi. Chun Shibliy q. s: arog‘a kirdi. Bu ilmni minbar ustiga aytib, oshkoro qildi. Junayd so‘zidurkim, biz bu asrorni yoshurun uylarda va sardobalarda mahramlarg‘a aytur erdik. Shibliy minbar ustiga aytib, elga oshkor qildi.

Zunnundin so‘rdilarkim, murid kimdur va murod kim? Ul ayttikim, [Murid talab qiladi va murod qochadi[1]]. Shayx ul-islom dedikim, murid tilar va andin yuz ming niyozu murod qochar va andin yuz ming noz.

Va Zunnun sayyoh ermish. Debdurki, bir kun borur erdim, bir yigit ko‘rdumki, anda sho‘re bor erdi. Dedim: qaydinsan, ey g‘arib? Dedi: G‘aribmu bo‘lur ulki, oning bila muvonasati bo‘lg‘ay? Bu so‘zdin qichqirib, behush yiqildim. Hushumg‘a kelgandin so‘ngra dedikim, senga ne bo‘ldi? Dedimki, doru dardg‘a muvofiq tushti. Shayx ul-islom q. s. dedikim, oning xastasi paydodur. Ulki oni ko‘rmish bo‘lg‘an, jon oning tanida shaydodur. Har qayda orom tutsa, dushman orom bo‘lg‘aykim, ul g‘ariblarniig vatanidur va muflislarning moyasidur va begonalarning hamrohi. Harqachon birovni topsangki, bizoating aning ilkida bo‘lg‘ay va dardingg‘a oning dorusi muvofiq. Zinhor etokin ilikdin berma va berk tut! Zunnun debdurkim, [Allohu taolo bandasining nafsini unga xor qilib ko‘rsatishi, uni ulug‘ qiladigan har qanday narsadan ko‘ra azizroq va muhimroqdir[2]]. Va ham ul debdurkim, [maxfiyroq va qattiqroq parda – nafsni ko‘rish va unga tadbir qilish, ya’ni jilovlashdir[3]]. Va ham Zunnun debdurkim, [Alloh zotini tafakkur qilish nodonlik va unga ishorat qilish shirkdir. Ma’rifatning haqiqati hayratdur[4]].

Shayx ul-islom q. s. debdurki, hayrat ikkidur: biri om hayrati va ul ilhodu zalolat hayratidur va yana biri xos hayratidur va ul hayrat ayondadur va topmoqdur va ham oning so‘zidur: avval uzulmak va qo‘shulmoq va oxir ne uzulmak va ne qo‘shulmoq. Zunnun Mag‘ribga bordi, azizedin kim mutaqaddimin mashoyixdin erdi, bir mas’ala so‘rg‘ali. Ul dedikim, ne uchun kelibsen? Agar kelibsenki, avvalin va oxirin ilmin o‘rgangaysen, munung yuzi yo‘qturkim, bu barchani ul biluru bas va agar kelibsenkim, oni tilagaysen. Avval gomkim, bu sori ko‘tarding, ul anda hozir erdi. Shayx ul-islom q. s. debdurkim, ul o‘z tilaguchisining yo‘ldoshidur. Oning ilkin tutub, o‘z talabida yugurtur. Zunnun q. s. dedikim, uch safar qildim va uch ilm keturdum. Avvalqi safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om ham qabul qildi. Ikkinchi safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om qabul qilmadi. Va uchunchi safarda ilme keturdumkim, ne xos qabul qildi va ne om [qochoq, quvg‘in va yolg‘iz bo‘lib qoldim[5]].

Shayx ul-islom q. s. dedikim, avval tavba ilmi erdikim, oni xosu om qabul qildilar. Ikkinchi, tavakkul va muomalat va muhabbat ilmi edikim, xos qabul qildilar va om yo‘q. Uchunchi, haqiqat ilmidurkim elning ilmu aqli toqatidin tashqari erdi. Xaloyiq anglamadilar va ani inkorg‘a qo‘ptilar. Ul vaqtg‘acha

kim, ta’rix ikki yuz qirq beshda Zunnun q. s. olamdin o‘tti. Janozasin elturda benihoyat yashil qushlar jinozasig‘a soya qilib erdilar. Andoqkim, borg‘on xaloyiq alarning ko‘lakasida erdi. Andin so‘ngra Zunnung‘a xalq ko‘nglida qabul voqe’ bo‘ldi. So‘ngqi kun aning qabri boshida bitilgon toptilarkim, [Zunnun Allohning suyukli bandasi va shavqi tufayli Alloh yo‘lida jonini fido qilguvchidir][6]. Va ul bir xat erdikim, odamilar xatig‘a o‘xshamas erdi va oni har necha yusalar yana bitilgan ko‘runur erdi. Shayx ul-islom dedikim, ul so‘ngg‘i safar qadam bila emas erdiki, oni qadam bila bormaslar va himam bila borurlar va oning jinozasig‘a ko‘laka solg‘on qushlardek. Qushlar muddatdin so‘ngra Shofe’iy r. a. shogirdi Mu’azziniyning jinozasig‘a ko‘rdilarkim, soya soldilar, vallohu taolo a’lam.

10. Imom A’zam q. t. s.

Alarkim, Islom ahlining imomidurlar, el ta’rifidin mustag‘niydurlar. Anasi Molik r. a. rivoyat qilurkim, Rasul s. a. v. dedikim, [Ummatimdan birining nomini Nu’mon b. Sobit, kuniyasini Abu Hanifa deb ataydilar. Va o‘sha kishi ummatimning chirog‘idir][1]. Imom Ja’far Sodiq bila suhbat tutubdur va ko‘p mashoyixii ko‘rubdur. Va Fuzayl Iyoz va Ibrohim Adham va Bishri Hofiy va Dovud Toiy r. a. aning ustozidur. Naqldurki Mustafo s. a. v.ning mutahhar ravzasi boshig‘a borib aytti: [As-salomu alayka, yo sayyid al-mursalin][2]. Ravzadin javob keldi: [Vaalayk as-salom, yo imom al-muslimin][3]. Derlarki, avoyildakim, yuz qiblai haqiqiyg‘a kelturdi va xalqdin yuz evurdi va pashmina kiyib, riyozatqa mashg‘ul bo‘ldi, bir necha voqeada ko‘rdikim, Mustafo s. a. v. muborak: so‘ngaklarin lahadda yig‘ib, ba’zini ba’zidin ayiradur. Va voqeaning haybatidin uyg‘ondi va Ibn Sirinning ashobidin biriga aytti. Ul mundoq ta’bir qildikim, sen Rasul s. a; v.ning ilmi va sunnati hifzida biyik darajaga yetkaysan, andoqki, ahodisda mutasarrif bo‘lg‘aysen. va sahihni saqimdin ayirg‘aysen. Yana bir qatla Rasul s. a. v.ni voqeada ko‘rdiki, ul Hazrat anga dedikim: «yo Abo Hanifa, seni mening sunnatlarimni tirguzmak uchun zohir qilibdurlar, uzlat qasdi qilma. Debdurlarkim, zamon xalifasi Malak ul-mavtni tush ko‘rdi va so‘rdikim: mening umrumdin necha qolibdur? Ul besh barmog‘iga ishorat qildi. Uyg‘onib, ko‘p kamol ahlidin bu tush ta’birin so‘rdi, hech kim javob bera olmadi. Abu Hanifa a. r. dediki, bu ishorat besh ilmgadurki, bu oyatda voqe’dur: [Darhaqiqat, yolg‘iz Allohning huzuridagina (qiyomat) soati (qachon bo‘lishi to‘g‘risidagi) bilim bordir. U (o‘zi xohlagan vaqtda, o‘zi xohlagan joyga) yomg‘ir yog‘dirur va onalarning bachadonlaridagi homilalarini (o‘g‘ilmi-qizmi, rasomi-nuqsonlimi, baxtlimi-baxtsizmi ekanini) bilur. Biron jon ertaga nima qilishini bila olmas. Biron jon qaerda o‘lishini ham bila olmas. Faqat Allohgina bilguvchi va ogohdur][4].

Mashhurki, Yahyo Mu’oz Rasul s. a. v.ni voqeada ko‘rub so‘rdikim, yo Rasululloh, seni qayda tilayin? Javob buyurdikim, Abu Hanifaning ilmi yaqinida. Alarning manoqibi behaddur va mahomidi beadad, muncha bila xatm qilildi.

11. Imom Shofe’iy r. a.

Aning fazlu kamoli va sutuda xisoli sharhida qalam ojiz va qalamzan mutahayyirdur. Ul nimalar manquldurki, bani odam jinsidin aql muhol tutar. Un uch yoshida dediki, [mendan istaganingizni so‘rang]1, o‘n besh yoshida fatvo javob qildi. Imom Ahmad Hanbalki, jahonning imomidur va uch yuz ming hadis yodida erdi, aning shogirdlig‘ig‘a keldi va aning g‘oshiyasin egniga ko‘tardi. Jam’i anga e’tiroz qildilarki, bu manzilat va bu buzurgluk bila bir go‘dakka muncha ta’zim qiladur va mashoyixu ustodlar suhbatini tark qilibdur. Ul dediki, har neki bizing yodimizdadur, ul ma’nosin bilur. Agar biz aning suhbatig‘a yetmasak erdi, eshikda qolib erdik. Shofe’iy debdurki, Rasul s. a. v. voqeada muborak og‘zi sunimi mening og‘zimg‘a soldi, andoqki, og‘zimg‘a va tilimg‘a yetishti. Va dedi: borki Tengri sanga barakot bersun va ham ul soat Amir ul-mo‘‘minin Ali k. v. uzugin chiqorib, mening barmog‘img‘a soldi, to nabiyu valilarning ilmi manga siroyat qildi.

12. Imom Ahmad Hanbal r. t.

Sunnat va jamoatning shayxi va dinu davlatning, imomi erdi. Futuvvati ul g‘oyatda erdiki, o‘g‘li bir

kun bu hadis ma’nosini ayturdaki [odam tiynatini (tuprog‘ini) qo‘llarim bilan qordim], iligin yengidin chiqarib erdi. Ahmad man’ qildikim, Yadulloh so‘zin ayturda o‘z iliging bila ishorat qilma!
Ul kibori mashoyix bila suhbat tutub erdi, ul jumladin, Zunnun Misriy erdi va Sari Saqatiy va Bishr Hofiy va Ma’ruf Karxiy erdi. Bag‘dodda Mu’tazila g‘alaba qilg‘anda, anga taklif qildilarkim, Qur’onni maxluq degay, demadi. Va qari bo‘lub erdi va zaif ham, iqobiga torttilar va ming qamchi urdilar, hech foyda qilmadi va ham ul ozor bila olamdin o‘tti. Bu ish odamzoddin kelur ish emaski, din taqviyotida ul buzurgvordin zohir bo‘ldi.

13. Imom Molik q. t. s.
Aning ta’rifi muncha basdurkim, bu mazkur bo‘lg‘an, uch Imom muqobalasida mazhab tuzatibdur va masoil ijtihod qilibdur. Va bu ummatning to‘rt ulushidin bir ulushi aning mazhabidin ixtiyor qilibdurlarki, bular orasida oliyqadr mashoyixu ulamo bor ekandurlar va holo ham bordurlar va olamda bu mazhab shoye’dur.

14. Muhammad Aslam Tusiy q. t. s.
Yagonai mutlaq va muqtadoyi barhaq erdi. Ani «Lisoni Rasul» debdurlar va «Shahnai Xuroson» bitibdurlar. Va Hazrati Imom Ali Muso Rizo r. a. bila kajavada bir tevada Nishoburga kirdi va Ishoq b. Rohavayh teva mahorin tortar erdi: Va Abdulloh Tohirki, vaqt xalifasi erdi, aning xizmatig‘a bordi. Anga bor bermadi va ko‘rmadi. Va ul eshikdin qo‘nmadi. Va juma kuni erdi, dedi: namozg‘a chiqsa qo‘rayin. Namozg‘a chiqqach, Abdullohning ko‘zi anga tushgach, betoqat bo‘lub ayog‘iga tushdi va tufroqqa yuzin qo‘ydi va dedi: Ilohi, sening jihatingdin manga iltifot qilmadiki, men yomon bandamen va meni dushman tutti va men ham sening jihatingdinkim, yaxshi bandangdur, ani do‘st tuttum, chun ikkalasi sening uchundur, bu yomonni ul yaxshi ishga qil! Bir un eshittiki, aning do‘stlug‘i jihatidin maqsudingg‘a yetting! Dunyodin o‘tganda, eski kiyizki, oldig‘a solur erdi, ostig‘a soldilar va xirqasini jinozasi ustiga yoptilar. Ikki qari xotun tom ustida erdilar va dedilarki, Muhammad Aslam bordi va dunyoda har nesi bor edi, olib bordi.

15. Ahmad Harb q. s.
Tengri zikri anga andoq g‘olib erdiki, Muzayyin irni tukini olurda og‘zida Tengri oti erdi. Muzayyni dedikim, bir zamon irningni tebratma! Ul dedikim, sen o‘z ishingga mashg‘ul bo‘lki, bizing bu ishdin farog‘atimiz yo‘qdur, irni necha yerda kesildi, Yahyo Mu’oz-Roziy r. t. dunyodin o‘tarda vasiyat qildiki, boshimni Ahmad Harb ayog‘i sari qo‘yung!

16. Isrofil Mag‘ribiy r, t.
Shayx ul-islom q. s. dedikim, ul Zunnunning pirlaridandur. Mag‘ribdin erdi va Misrda peshvo erdi. Zuhdu tavakkulu muamalatda yaxshi so‘zlari bor. Fathi Shahraf olti yuz yig‘och yo‘l bir savol uchun Misrga borib, andin so‘rdikim, [yomonlarga gunoh qilishlaridan oldin azob qilishadimi?1]. Ul uch kun sabr tiladi. Uch kundin so‘ngra dedikim, manga javob ayttilarki, agar amaldin burun savob ravo bo‘lsa, zalaldin ham burun azob ravo bo‘lg‘ay. Muni dedi va za’qa urdi va shurg‘a tushdi va andin so‘ngra uch kundin ortuq tirilmadi va bordi. Shayx ul-islom q. s. dedikim: ul uch kunlik hayot savoldin so‘ngra uch kun javob uchun sabr tilagandin erdi, agar filhol javob bersa erdi, filhol borur erdi.

17. Abulasvad Makkiy r. t.
Azizening ziyofatig‘a bordi va salom qildi va dedikim: sening do‘stingmen, Abulasvad. Azize sakrab ko‘pti va dedi: alaykassalom, nechuksen? Va filhol o‘zidin g‘oyib bo‘ldi. Uch qatlagacha bu hol erdi. Abulasvad bildikim, Azize tufroq va suv iligidin va insoniyat rusumidin tashqari chiqibdur, aning diydorin g‘animat tutti va qaytti.

18. Abulasvad Ro’iy q. s.

Bodiyada bir kun o‘z ahlig‘a aytikim, bidrud bo‘lki, men bordim. Qiz qardoshi mitharasin sut bila to‘ldirdi, tahorat vaqti mitharasidin sut quyildi. Dedikim, anga sutdin suv muhimroqdur. Qaytti, dag‘i mitharasin sutdin xoli qildi, dag‘i suv bila to‘ldirdi. Tahorat vaqti mitharadin sut to‘kilur erdi. Va ochlik va suvsizlik vaqti – sut.

19. Abu Ya’qub Hoshimiy r. t.

Ul debdurkim, hargiz unutmon anikim, bayram kuni Zunnun bila kelur erdim. Xaloyiq iydgohdin shodmon qaytib erdilar. Zunnun dedikim, bu xalq shodmondurlarki, amonatlarin ado qilibdurlar, ya’ni Ramazon toatin. Ammo bilmaslarki, alardin qabul qilibdurlar, yo yo‘q. Kel, bir yon borali va bularg‘a yig‘lali!

20. Valid b. Abdulloh Saqqo r. t.

Kuniyati Abulishoqdur. Zunnunning ashobidindur. Ul debdurki, Zunnun dedikim, bodiyada bir qaro zange ko‘rdumki, har qachon «Alloh» desa erdi, rangi oqarur erdi. Ham Zunnun dedikim, har kim Allohni yod qilsa, haqiqatda ondin sifate ayrilg‘oy. Abu Abdulloh Roziy dedikim, Valid Saqqo qoshig‘a bordim, tiladimkim, faqrda andin savole qilg‘oymen. Bosh ko‘tardi va dedikim, faqr anga musallamdurkim, aning xotirig‘a hargiz Haqdin o‘zga kirmaydur va qiyomatda bu so‘zumning uhdasidin chiqa olurmen. Zunnun q. s. dog‘i Haq yodida anga muvofiq so‘z aytibdur.

21. Fuzayl b. Iyoz q. t. r.

Avvalg‘i tabaqadindur va kuniyati Abu Alidur. Aning ne yerlik erkanida ixtilof bor. Kufaliq debdurlar. Marv va Bovard navohiysidin ham shuhrati bor. Ul debdurkim: men Haqni do‘stluk va sevukluk yuzidin parastish qilurmen. Va shikebolig‘im yo‘qturni, qilmag‘aymen. Mahmud Varroq debdurki, she’r:

[Allohga muhabbat izhor qilasanda, unga osiylik ham qilasan va yana muhabbatdan lof urasan.. Bu ishing ajabdur. Agar sen muhabbatda sodiq bo‘lsang, Allohga itoat qilasan. Chunki muhib (sevuvchi) mahbubiga, albatta, itoatkor bo‘ladi[1]].

Shayx ul-islom q. s. dedikim, har kim ani biym yuzidin parastish qilur, o‘zin parastish qilur va o‘z najoti tama’ig‘a tepranur, yo‘q muhabbatu farmon itoatig‘a. Va har kim ani umid yuzidin parastish qilur, ul ham o‘zin parastish qilur va o‘z tana’umu rohati tavaqqu’ig‘a tepranur, yo‘qki, muhabbatu itoatqa. Men ani biymu umid bila parastish qilmasmen muzdvorlardek, aning muhabbati da’vosig‘a dag‘i parastish qilmasmenkim, parastishkim, aning sazosi bo‘lg‘ay, ojiz qolurmen, balki ani aning farmoni bila parastni qilurmenki, debdurki, qil, qilurmen va Rasulning sunnatining muhabbati uchun va o‘z taqsirimg‘a mu’tarifmen. Bir darveshdin so‘rdilarkim, sifla kimdur? Dedi: ulkim, Haqni biymu umid ila parastish qilg‘ay. Dedilar: sen ne nav’ bila parastish qilursen? Dedi: aning mehru sevuklug‘i meni ibodatu toatig‘a tutar. Fuzayl Iyoz q. s.ning bir o‘g‘li bor erdi. Debdurlarki, andin martabada ulug‘roq erdi, oti Ali. Bir kun Masjidi Haramda Zamzam yaqinida bir xonanda o‘qudikim, [gunohkorlarni ko‘rasan[2]]. Ul eshitti va za’qai urdi va jon berdi. Shayx ul-islom debdurkim, do‘stdin nishon va orifdin jon [kimki ishq bilan o‘lsa, shunday o‘lgani ma’qul. O‘lim bilan tugamagan ishqda xayr yo‘qdur3]. Va Fuzayl q. s. ning vafoti Muharram oyi, yuz sakson yettida erdi.

22. Ma’ruf Karxiy q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur va Sariy Saqatiyning ustozidur va Dovud Toyi q. s. bila suhbat tutgandur. Va Dovud yuz yetmish beshda o‘tubdur va Ma’ruf q. s. ikki yuzda. Ul debdurki, sufiy munda mehmondir. Mehmon taqozosi mezbong‘a jafodur. Mehmonki, adabliq bo‘lg‘ay, muntazir bo‘lg‘ay, yo‘qki mutaqoziy. Birov andin vasiyat talab qildi. Ul dedikim, [ehtiyot bo‘l Allohu taolo seni miskin suratidin boshqa suratda ko‘rmasin[1]]. Shayx ul-islom dedikim, Ma’ruf bir kun xoharzodasig‘a dedikim, chun

anga hojating bo‘lsa, mendin ont ber! Mustafo s. a. v. duoda ayttikim, [ey bor xudoyo, senga iltijo qilib so‘rovchilar haqqi, senga rag‘bat qiluvchilar haqqi va sen tomon tashlaydigan qadamlarim haqqi hurmati (sendan) so‘rayman[2]], mening bu g‘amlarim haqqi sening sari. [Ma’rufdin muhabbat haqida so‘rashganda, aytdi: Muhabbat – xalq o‘rgatadigan narsa emas, balki u Haqning in’omi va fazlidir[3]]. Aning qabri Bag‘doddadur va xaloyiq qiblai duosidurki, derlar – anda duo mustajob bo‘lur.

23. Abu Sulaymon Doroniy q. r.

Avvalgi tabaqadindur. Oti Abdurahmondur. Shom mashoyixidin. Doron degan yerdinki, Damashqning kentlaridindur, qabri ham anda-o‘qdur. Ahmad b. Abulhavoriyning ustodidur, Rayhonat ush-Shom. Va ta’rix ikki yuz o‘n beshda o‘tubdur. Andin so‘rdilarkim, ma’rifati haqiqiy nedur? Dedi uldurki, ikki dunyoda murod birdin o‘zga bo‘lmag‘ay. Va ham ul debdurki, bir kitobda o‘qubmenki, Haq s. t. debdurki, [tun kirishi bilan meni unutib, uyquga ketgan kishining menga muhabbat da’vo qilishi yolg‘ondir][1] Va ham ul debdurki, vaqtiki, Iroqda erdim, obid erdim va Shomda orifmen. Bu toifadin ba’zi debdurlarki, Shomda aning uchun orif erdiki, Iroqda obid erdi, agar anda obidroq bo‘lsa, munda orifroq bo‘lg‘ay erdi. Va ham Abu Sulaymon debdurki, [ko‘pincha haqiqat (kashfu asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman][2]. Va ham ul debdurki, [qalb matlubni topolmay g‘amgin bo‘lganida, ruh uni topganidan shod bo‘ladi]3. Ahmad b. Abulhavoriy debdurki, Abu Sulaymong‘a dedimkim, xilvatda namoz qildim, andin lazzat toptim. So‘rdikim, lazzatingning sababi ne erdi? Dedim, meni hech (kim) ko‘rmadi. Dediki, [qalbingda xalq yodi o‘tgan payt sen, albatta, zaifsen][4]. Ham ul debdurkim, [Har bir narsaning zangi bo‘ladi, qalb nurining zangi esa, to‘yib ovqatlanishdir]5.

Ham ul debdurkim, [kimki, hamma narsadan uzilib, Allohga bog‘liqligini bildirmoqchi bo‘lsa, Allohdan boshqa narsalarni yelkasidan uloqtirib tashlashi vojibdir][6]. Ham ul debdurkim, [Bandani tezroq Haqqa yetkaruvchi narsa muhosabadir][7].

24. Dovud b. Ahmad Doroniy r. t.

Abu Sulaymon Doroniyning qardoshidur. Qardoshi bila suhbat tutub edi. Ahmad b. Abulhavoriy debdurkim, Dovuddin so‘rdumki: ne dersan ul ko‘ngulnikim, anga yaxshi un asar qilg‘ay? Dedi: ul ko‘ngul za’fu ranjurlig‘idin bo‘lg‘ay, anga iloj qilmoq kerak.

25. Ibrohim Adham q. t. r.

Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Ishoq va oti va nasabi Ibrohim Adham binni Sulaymon, binni Mansur al-Balxiy. Mulukdin erkani xud mashhurdur. yigitlikda tavba tavfiqi topti.

Bir kun ovg‘a boradur erdi. Hotife nido qildiki, ey Ibrohim, sani bu ish uchun yaratmaydurlar. Bu so‘zdin anga ogohlig‘ yuzlandi va mulk tarkin qilib, bu toifa tariqin ixtiyor qildi va Makkaga bordi va anda Sufyon Savriy va Fuzayl Ayoz va Abu Yusuf G‘asuliy suhbatig‘a yetishti va Shomda halol ro‘zi uchun nozirbonlig‘, ya’ni dashtbonlig‘ qilur erdi va anga hadisdur: biyik karomotu maqomot ahlidin bo‘ldi va ta’rix yuz oltmish bir yo ikkida Shomda rihlat qildi.

Birov Ibrohim Adham bila yo‘ldosh bo‘ldi va hamrohlig‘i kechga tortti. Ayrilurda ul kishi uzr qo‘ldiki, shoyad mendin beadablig‘lar voqe’ bo‘ldi erkin va sen mendin ranja bo‘ldung erkin? Javob berdikim, men senga do‘st erdim. Bo‘ do‘stlug‘ aybingni menga yopti, do‘stlug‘ung jihatidin bilmadim: yaxshi qilarsen yo yomon.

Bayt: [U ishni boshqalar bajarsa, xunuk ko‘rinadi, Men uchun agar sen bajarsang chiroylidur][1].

Ibrohim Adham va Ali Begor va Huzayfa Maroshiy va Salim Xavvos bir-birining yoronlari erdilar. Bir-biri bila bay’at qildilarkim, nima yemagaylar to hilliyati alarg‘a sobit bo‘lmag‘ay. Chun shubhasiz halol luqma topmoqdin ojiz bo‘ldilar, yemaklari oz miqdorga keldi. Dedilar, on miqdor yeyaliki, ondin guriz bo‘lmag‘ay, bori shubha ozroq bo‘lg‘ay. Ibrohim Adhamning holoti bag‘oyat ko‘ptur. Bir kitob bitisa bo‘lur. Ammo bu muxtasarda muncha zikre bila iktifo qilindi.

26. Ybrohim b. Sa’d Alaviy q. s.

Kuniyati Abu Ishoqdur. Sharifdur va Hasaniy va Bag‘dod ahlidin. Shomga bordi va mutavattin bo‘ldi. «Nafahot ul-uns»da Ibrohim Adham nozirlaridin bitibdurlar. Shayx ul-islom debdurki, ming ikki yuzdin ortuq mashoyixii tanirmen, alardin ikkisi alaviy erdi, biri Ibrohim b. Sa’d, yana biri Hamzai Alaviy. Ibrohim b. Sa’d Abulhoris Avlosiyning ustodi erdi. Abulhoris irodatining ibtidosida o‘z uyida xoyg‘ina yeb erdi, yoronlaridin ayru. Ibrohim Sa’d xidmatig‘a bordi va Ibrohim yo‘lda erdi. Ulug‘ suvg‘a yetgach Ibrohim ayog‘ suvg‘a qo‘ydi va qadam urdi va Abulhorisg‘a ilig uzattikim, o‘tkargay, Abulhorisning ayog‘i suvg‘a botti. Ibrohim dedikim, sening ayog‘ing xoyg‘inadin osilibdur. Bu so‘z bila anga mutolaba va muohaza qildi ul ishg‘a. Bas dedikim, sen bu ish tolibi emassen, bor va xalqdin uzlat tut va ko‘ngul farog‘ati tilab, qilur ish tegrasig‘a evrul!

27. Abulhoris Avlosiy r. t.

Oti Fayz b. Xizrdur. Ibrohim b. Sa’d Alaviyning shogirdidur. Ul debdurkim, avval ko‘rmakim Ibrohim b. Sa’d Alaviyni mundoq erdikim, Avlosdin g‘ayri mavsumda Makka azimati qildim. yo‘lda uch kishig‘a uchradim. Alardin ikkisi ayrildilar va biri qoldi va ul Ibrohim b. Sa’d Alaviy erdi. So‘rdikim, sen qayon borursen? Dedim: Shom tarafi. Dedikim, men Lug‘om tog‘ig‘a borurman, dag‘i ayrilishtuk, ammo doim maktubi manga kelur erdi. Va ham ul debdurkim, bu kun Ibrohim b. Sa’d bila erdim, bir cherigchi bir zaifaning eshagin tutub erdi. Ul zaifa bizga istig‘osa qildi. Ibrohim Sa’d ul cherigchi bila so‘zlashdi, so‘zin qabul qilmadi. Ibrohim duo qildi, ul cherigchi yiqildi va qo‘pmadi. Men dedim: sendin ayrilurmenkim, shoyad mendin beadablig‘e voqe’ bo‘lg‘ay va sen mustajobud-da’vo ermishsen, meni yomon duo qilg‘aysen: Dedi: yomon emassen? Dedim: yo‘q. Bas, vasiyat qildikim, qila olg‘ancha dunyoliqdin oz nimaga qoni’ bo‘l! Va ham ul debdurki, daryo qirg‘og‘ida og‘zin tebratti, nihoyatda ko‘p balig‘lar saf tortib anga yuzlandilar. Xayolimg‘a sayyodlar kechti, balig‘lar filhol tarqadilar. Ibrohim Sa’d dedikim, sen bu ish kishisi emassen, bu vodiy qumida ancha riyozat tortkim, ajal boshing‘a yetkay. Ham ul debdurkim, bir necha masala halli uchun xidmatig‘a Misr azimati qildim. Men Misrg‘a yetgan kunning burung‘ikuni Zunnun olamdin o‘tub erdi. Qabri boshig‘a borib, anga namoz qildim, meni uyqu eltti, Zunnunni voqeada ko‘rdum, mushkil bo‘lg‘an masalalarimni so‘rdum, barchasig‘a javob toptim.

28. Ibrohim b. Sitanbah Hiraviy q. s.

Kuniyati Abu Ishoqdur. [Ibrohim b. Adham bilan suhbatlashgan, Abu Yazidning yaqinlaridan edi][1]. Ul aslan Kirmondin ermish. Hirida sokin bo‘lg‘on uchun Hiraviy debdurlar. Qabri Qazvindadur. Ul debdurkim, Ibrohim Adham suhbatig‘a yettim, meni dalolat tajridg‘a qildi dunyodin, so‘ngra dalolat kasbg‘a qildi. Kasb qilur erdim va fuqarog‘a nafaqa qilur erdim. So‘ngra dedikim, kasbni tark qil va tavakkulingni Tengrig‘a durust et, to so‘ngra sidqu yaqin hosil bo‘lg‘ay. Har ne dedi, andoq qildim. So‘ngra bodiyag‘a kirmak amr qildi. Bodiyag‘akim kirdim, manga sidqu yaqinu tavakkul muyassar bo‘ldi. Anga azim chohe bor ermish Hirotda. Necha haj qildi tavakkul bila. Duosi bu erdikim, [Allohim, Hirot ahlining mollaridan mening rizqimni qiy va ularni mendan yuz o‘girtir]-duosi chun mustajob bo‘ldi. Debdurkim, necha kunlar och qolur erdim, bozordan o‘tsam erdi, el bir-biriga aytishurlar erdikim, bu ul kishidurkim, har kun muncha va ancha mustahiqlarg‘a nafaqa qilur erdi. Va ham aning so‘zidurkim, [kimki eng oliy sharafga erishmoqchi bo‘lsa, yetti narsadan yetti narsani ixtiyor qilsin: g‘aniylikda faqirlikni, to‘qlikda ochlikni, baland darajada siniqlikni, ulug‘likda xorlikni, manmanlikda tavozu’ni, shodlikda g‘urbatni, hayotda o‘limni][3].

29. Ibrohim Rabotiy r. t.

Ibrohim Sitanbahning murididur va qabri Daray Zangiy rabotida va mavlidi Hirot. Bir qatla piri bir safarg‘a borur erdi. Pir andin so‘rdikim: sening bila hech ma’lum bor? Dedi: Yo‘q. Yana bir necha

qadam borg‘ondin so‘ngra yana so‘rdikim, sening bila hech ma’lum bor? Dedi: Yo‘q. Yana bir pora yo‘l borg‘ondin so‘ngra pir o‘lturdi va aytti: yaxshi ehtiyot qil, senda zodae to‘shadek, yo hech, jins ma’lumdin nima borkim, ayog‘im og‘irlik qiladur, bora olmon. Ul ehtiyot qilg‘andin so‘ngra dedikim, bir necha na’layn shiroki bor. Piri aytti, holo xud anga ehtiyojing yo‘qdur. Dedi: Yo‘q. Dedi: tashlakim, ma’lumdur. Ul tashladi, karh yuzidin va muntazir erdikim, na’laynining shiroki uzulg‘ay, to anga sarzanish qilay. Emdiki, uzuldi, ilik uzattikim, ani suvurub tashlag‘ay. Ko‘rdikim, bir yangi shiroki na’layni yoninda turubdur. Barcha yo‘l bu nav’ erdi. Pir dedikim, [Allohga sidqu sadoqat ko‘rsatganning ahvoli shunday bo‘ladi][1].

30. Ibrohim Utrush r. t.

Shayx ul-islom q. s. debdurkim, ul mutaxxirlaridindur. Ul debdurki, sufiyning rikvasi ovuchidir va yostug‘i qo‘li va xazinasi uldur, ya’ni Haq subhonahu taolo. Shayx ul-islom q. s. dedikim, har kishi munga nima orttursa, ishi o‘z ilayig‘a qo‘yg‘aykim, aning bila darmonda bo‘lg‘ay. Va Ibrohim Xavvos q. s. dedi.

Sh ye’ r:

[Shubhasiz, Senga olib boradigan yo‘l oshkor bo‘ldi.
Bu yo‘lga o‘zingdan boshqa biror kishi dalolat qilmaydi.
Agar qish kelsa, sen boshpana, yoz kelsa soyabonsen][1].

31. Ibrohim Sayyod Bag‘dodiy r. t.

Kuniyati Abu Ishoqdur. Ma’ruf Karxiy bila suhbat tutubdur. Ma’ruf q. s. anga degandurki, faqirni lozim tut va qo‘rqma bu jihatdin. Aning mazhabi tajridu inqito’ erkandur. Junayd q. s. debdurki, ul bir kun Sariy Saqatiy qoshig‘a keldi, bir pora hasirni o‘ziga izor qilib erdi. Sariy ashobidin biriga dedikim, o‘n diramg‘a aning uchun bozordin bir jubba olg‘ay. Dag‘i dedikim, Ey Abu Ishoq, kelgilki, menda o‘n diram bor erdikim, sening uchun bu jubbani sotqin olildi. Ibrohim dedikim, faqr ahli bila o‘lturursen va o‘n diram zaxira qilursen va ani kiymadi.

32. Ibrohim Ajuriy Sag‘ir r. t.

Aning dag‘i kuniyati Abu Ishoqdur. Jaririy va Abu Ahmad Mag‘oziliy dedilarkim, yahudiy aning qoshig‘a keldi va dedikim, agar manga bir nima ko‘rsatsangkim, andin Islom dini sharafin o‘z millatimg‘a bilsam, musulmon bo‘layin. Ibrohim dedikim, chin aytasen? Ul dedi: chin aytadurmen. Dedi: ridongni menga ber! Aning ridosin o‘z ridosig‘a chirmab doshliq o‘tg‘a tashladi va aning keynicha doshqa kirib, olib chiqdi. Aning ridosig‘a o‘tdin osib tegmaydur erdi va yahudiyning ridosi aning ichinda kuyub erdi. Yahud bu ishni ko‘rgach, musulmon bo‘ldi.

33. Ibrohim Ajuriy Kabir r. t.

Junayd q. s. dedikim, Abdun Zajjojdin eshittimkim, Ibrohim dedikim, b a y t: [Aziz va ulug‘ bo‘lgan Allohga bir soat astoydil tavajjuh qilishing, quyosh nuri tushadigan barcha narsadan yaxshiroqdir][1].

34. Fath b. Ali Mavsiliy q. r.

Mavsil mutaqaddim va buzurg mashoyixidindur. Bishri Hofiy q. s. aning nozirlaridindur. Bishri Hofiydin yetti yil burunroq ikki yuz yigirmada dunyodin o‘tubdur. Bu nav’kim, Qurbon bayramida ko‘rdikim, xaloyiq qurbonlar qiladurlar. Dedi: Ilohiy, bilursenki, oncha nimam yo‘qdurki, sening uchun qurbon qalg‘aymen, jonimni sanga qurbon qilayin, deb barmog‘in bo‘g‘zig‘a tortti va yiqildi. Chun boshig‘a keldilar, oxir bo‘lub erdi va bo‘g‘zida yashil xat. Bir kun Bishri Hofiy uyiga bordi va dedikim, yegulik bo‘lsa keltur! Yegulik kelturdilar, onchaki matlubi edi, yedi, qolganini chirmab ko‘tardi. Birov ko‘rub dedikim, Fathni derlarki, mutavakkillarning imomidur, onak zalla bog‘ladi.

Bishr q. s. dedikim, ul sizga o‘rgatadurkim, tavakkul durust bo‘lg‘ondin so‘ngra hech ziyoni yo‘qdur. Shayx ul-islom q. s. debdurkim, tajrid durust bo‘lsa, mulki Sulaymon ma’lum emas va tajrid durust bo‘lmag‘on bo‘lsa, yengning ilikdin ortuqlig‘i ma’lumdur.

35. Fath b. Shaxraf Marvaziy q. s.

Kuniyati Abu Nasrdur. Qapton kiyar erdi, sipohiylardek. Ahmad Hanbal debdurki, Xurosondin Fathdek chiqmadi. O‘n uch yil Bag‘dodda erdi. Bag‘doddin qut yemadi, Antokiyadin aning uchun keltururlar erdi. Naz’ holatida o‘z-o‘zi bila so‘z der erdi. Quloq soldilar, bu so‘zni der erdikim, [Allohim, (senga nisbatan) zavqu shavqim nihoyatda kuchaydi, meni tezroq o‘zingga yetkazgil!][1]. Ani yuvurda yashil xat bila ba’zi uzvida «bitilgan ko‘rdilarkim, [«Fath olloh uchun»][2]. Shayx ul-islom q. s. dedikim, Ibrohim Harbiy dedikim, men ul vaqt hozir erdim, ul xatni ko‘rdum, o‘ttuz uch qatla anga namoz qildilar, har qatla jamoat o‘ttuz ming chog‘lig‘ kishi.

36. Bishr b. Horis b. Abdurahmon q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Aning ham kuniyati Abu Nasr. Derlarki, Marv viloyatidindur. Bag‘dodda sokin bo‘ldi, anda dunyodin o‘tti, ta’rix ikki yuz yigirma, chahorshanba kuni muharram oyining o‘n ikkisida. Ul vaqtki «Qur’on»ni maxluq demakning fitnasi bo‘ldi, ul uyidin chiqmadi. Va Ahmad Hanbal ayoq ilgari qo‘ydi. Anga dedilarki, din nusrati uchun va ahli sunnat taqviyati uchun nechuk chiqib so‘z aytmassiz? Ul dedi: Xayhot! Ahmad Hanbal payg‘ambarlar maqominda tururdur, kim aningdek ayta olg‘ay, manga ul toqat yo‘qdur: Ul debdurkim, [Alloh azza va jalla kimdan o‘zini pinhon tutgan bo‘lsa, unga naqadar ulug‘ musibatdur][1].

37. Shaqiq b. Ibrohim Balxiy q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur va kuniyati Abu Alidur, ul: sohibroy ekandur, so‘ngra sohibi hadis bo‘lubdur. Hotami Asamm aning piri va ustodidur. Va Ibrohim Adham q. s. bila suhbat tutubdur. Ul debdurkim, men qilg‘an gunohdin esa, qilmag‘an gunohdin ko‘prak qo‘rqarmenki, qilg‘an gunohin bilurmenki, ne qilibmen va qilmag‘an gunohni bilmonki ne qilg‘umdur? Va ham: ul debdurkim, [odamlar bilan olovga muomala qilgandek munosabatda bo‘l! Foydalaridan bahramand bo‘lginu kuydirishlaridan ehtiyot bo‘l!]1. Va ham aning so‘zidurkim, tavakkul uldurkim, ko‘nglung orom tutqay aning bilakim, Haq sening bila va’da qilibdur.

Qabri Balxdadur. Ba’zi debdurlarkim, ani Xuttalonda shahid qildilar, yuz yetmish to‘rtta va qabri anda-o‘qdur.

38. Dovud Balxiy q. t. s.

Xurosonning mutaqaddimin mashoyixidindur. Ibrohim Adham q. s. debdurkim, Ko‘fa bila Makka orasida birov bila yo‘ldosh bo‘ldim. Shom namozin qilg‘ondin so‘ngra o‘ng qo‘li saridin bir ko‘za suv va bir ayog‘ osh zohir bo‘ldi, o‘zi ham ichti, manga ham berdi. Bu so‘zni sohibi oyotu karomot mashoyixdin biriga ayttim. Aytti: ey farzand, ul mening qardoshim Dovuddur va aning vasfida so‘zlar ayttikim, majlis ahli yig‘ladilar. Andin so‘ngra mendin so‘rdikim, sanga ne o‘rgatti? Dedim: Ismi a’zam. Dediki: mazkur qil. Dedim: ul mening ko‘nglumda andin azimroqdurki, tilga keltura olg‘aymen.

39. Bishr Tabaroniy q. t. s.

Tabariya mashoyixidindur, bag‘oyat ulug‘ va sohibi karomot. Anga debdurlarkim, to Bishr Tabaristondadur, bizning xotirimiz Rum soridin emindur. Aning qullari bor erdi, barin ozod qildi. O‘g‘li dedikim, Ey ota, bizni muflis qilding! Dedi: bu shukronag‘a mundoq qildimki, Tengri taolo o‘z do‘stlari ko‘ngliga meni mundoq solibdur.

40. Qosim Harbiy q. s.

[Uning ahvoli Allohga bog‘liq bo‘lib, dunyoviy narsalardan xoli edi]1. Bishr Hofiy q. s. aning ziyoratig‘a borur erdi. Bir kun ul bemor bo‘ldi. Bishr Hofiy iyodatig‘a bordi. Boshi ostida bir kirpich erdi va yoni ostida bir pora buriyo. Chiqqandin so‘ngra hamsoyalar ayttilarkim, o‘ttiz yildurkim hamsoyamizdur, hargiz bizga izhori ehtiyoj qilmadi.

41. Horis b. Asad Muhosibiy q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur, Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyix ulamosidindur. Zohir ulumi va botin ulumig‘a jome’. Va anga tasnif bor. Asli basraliqdir va bag‘dodlig‘larning piridur. Va Bag‘dodda dunyodin boribdur, ta’rix ikki yuz qirq uchda. Ul debdurki, [Kimki muroqaba va ixlos bilan botinini tuzatsa, Allohu taolo mujohada va sunnatga tobe’ qilish bilan uning zohirini go‘zal qiladi][1]. Va ham ul debdurkim, [kimki nafsini riyozat bila poklamasa, unga maqomot odoblarining yo‘li ochilmaydi][2].

42. Abu Turob Naxshabiy q. t. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Oti Askar b. Hasin. Xuroson mashoyixining ajillasidindur. Futuvvatu zuhdu tavakkulda Abu Hotam Attor Basriy va Hotam Asamm Balxiy bila suhbat tutubdur. Abu Abdulloh Jallo va Abu Ubayd Busriyning ustodi va piridur. Abu Turob q. s. uch yuz rikvador bila bodiyag‘a kirdi. Abu Abdulloh Jallo va Abu Ubayd Busriy ikkav aning bila qoldilar, o‘zga barcha qayttilar. Ul debdurkim, [qachonki, sizlardan biringizga ketma-ket ne’matlar yetsa, o‘z holiga yig‘lasin. Shubhasiz, u solihlar yo‘lidan emas, o‘zga yo‘ldan yuribdi[1]. Va Abu Turob q. s. bodiyada namozg‘a tufg‘anda, samum yeli ani kuydurdi, ikki yuz qirq beshda, ul yilki, Zunnun q. s. dunyodin o‘tti.

43. Abu Hotam Attor q. t. s.

Abu Turob Naxshabiyning aqronidindur, Abu, Sa’id Xarrozning ustodi. Debdurlarkim, [Abu Hotam Attorning zohiri savdogarlarning zohiriga, botini esa, abror (yaxshilar, sufiy)lar botiniga o‘xshab ketardi][1]. Va debdurlarki, avval kishikim, ishorat ilmidin so‘z aytti, ul erdi. Ul debdurki, [sayohat qalblar bilandir][2].

44. Sariy b. Mug‘allis Saqatiy q. r.

Kuniyati Abulhusayndur. Sayyid ut-toifa Junayd. q. s.ning ustodidur va bag‘dodliklarning shayxi va piri. Horis Muhosibiy va Bishr Hofin aqronidindur va Ma’ruf Karxiy shogirdidur. Alarkim, bu toyifadin ikkinchi tabaqadindurlar, aksar nisbatni anga durust qilurlar. Junayd q. s. debdurkim, [Sariydan obidroq kishini uchratmadim. Yetmishga kiribdiki, biror marta uni yotgan holda ko‘rmadim, faqat o‘lim tufayligina ko‘rdim]1. Va ham Junayd debdurkim: bir kun Sariy uyiga kirdim, uyin o‘lturub supurar erdi va bu baytni o‘qub yig‘lar erdikim,

[n a z m:

Ham kecha va ham kunduz erurman mahzun,
Xohi qisqa mening tunum, xoh uzun][2].

Va Sariy debdurkim, [ma’rifatning ibtidosi – yolg‘iz Haq bilan bo‘lish uchun nafsni poklashdir][3]. Junayd q. s. debdurkim, bir kun Sariy xidmatig‘a kirdim, manga bir ish buyurdi. Ul ishni saranjom qilib keldim, mening ilgimga bir pora qog‘oz berdi, anda bu bitiklik erdi.

She’r:

[Eshitdimki, tuyaboqar sahroda tuyalarni tovush chiqarib haydardi va aytardi:
Men yig‘layman va sen qaydan bilasanki, nega yig‘layman?
Mendan ayrilganing, bog‘lab turuvchi iplarni uzganing va mendan yiroqlashganing uchun

yig‘layman][4].
Ta’rix ikki yuz ellik uchda Ramazon oyining uchida: seshanba kuni dunyodin o‘tti.

45. Ali b. Abdulhamid G‘azoiriy r. t.
Mutaqaddimin mashoyixdindur. [Uning ajoyib ahvoli va yuksak darajasi bo‘lib, abdol (avliyo)lardan edi][1]. Ul debdurkim, Sariy q. s. eshigin qoqtim. Eshittimkim, der erdi: [Allohim, kimki meni sendan chalg‘itsa, uni mendan chalg‘itib, o‘zingga mashg‘ul qilib qo‘y!][2]. Aning bu duosining barakatidin Haq s. t. manga qirq ayoq haj nasib qildi.

46. Abu Ja’far Sammok q. t. r.
Ul bag‘dodlikdur. Sariy Saqatiyning mashoyixidin. Munzavi va munqate’ va mutaabbid ekandur. Junayd. q. s. debdurkim, Sariydin eshittimkim, dedi, bir kun: Abu Ja’far Sammok. keldi, ko‘rdikim, mening qoshimda jam’i o‘lturub erdilar, turdi va o‘lturdi va dedi: [Ey Sariy, bekorchilar turadigan joyga aylanibsan][1] va yondi. Va ul jamoatning ijtimo’in manga pisand qilmadi.

47. Ahmad Xuzravayh Balxiy q. s.
Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Hamid. Xuroson mashoyixining buzurglaridindur. Abu Turob Naxshabiy va Hotam Asamm bila suhbat tutubdur va Ibrohim Adham q. s.ni ko‘rubdur. U dedikim, Ibrohim Adham dedikim, [tavba – dil sofligi bilan Allohga qaytishdir][1]. Boyazid bila Abu Hafs Haddodning nazirlaridindur. Haj safarida Abu Hafsni ziyorat qildi Nishoburda va Boyazidin Bistomda. Abu Hafsdin so‘rdilarkim, bu toyifadin kim buzurgvorrak ko‘rdung? Dedi: Ahmad Xuzravayhdin buzurgvorrak ko‘rmadim, himmatda va ahvol sidqida. Birov andin vasiyat talabi qildi, dedikim, [nafsing tirilmasdan burun uni o‘ldir!][2]. Va ham ul debdurkim, [yo‘l yorug‘, Haq porlab turibdi va da’vat qiluvchi eshittirib bo‘ldi. Bundan keyin hayratlanishga o‘rin yo‘q, faqat ko‘rlargina hayratlanadilar][3]. Ta’rix, ikki yuz qirqda Balxda dunyodin o‘tti.

48. Yahyo b. Mu’oz Roziy q. t. r.
Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Zakariya va laqabi Voiz. Yusuf b. Husayn Roziy q. s. debdurki, yuz yigirma shayxg‘a yetibmen va ulamo va hukamo va mashoyixqa musharraf bo‘lubmen. Yahyo Mu’ozdin so‘zga qodirroq ko‘rmaymen. Ul debdurkim, [osiylarning siniq ko‘ngli itoatkorlarning faxrlanishidan yaxshiroqdir!][1]. Ham aning so‘zidurkim, [muhabbatning rostligi – mahbubga itoat qilishlikdadir][2]. Ul debdurki, zohidlar dunyo g‘urabosidurlar va oriflar – oxirat g‘urabosi. Va ham ul debdurki, muhabbatning haqiqati uldurkim, lutf bila ortmag‘ay va jafo bila o‘ksumag‘ay. Ta’rix ahli debdurlarkim, Yahyo Mu’oz Balxqa bordi va anda iqomat qildi, muddatdin so‘ngra Nishoburg‘a keldi va anda dunyodin o‘tti, ikki yuz ellik sakkizda.

49. Xalaf b. Ali q. t. r.
Ul Basradin erdi, Yahyo Mu’oz q. s. bila suhbat tutub erdi. Ul dediki, bir kun Yahyo Mu’oz suhbatida erdim. Birovga vajd voqe’ bo‘ldi. Birov Shayxdin so‘rdikim, bu kishiga ne voqe’ bo‘ldi? Shayx dedikim, Tengri so‘zin eshitti, vahdoniyat ko‘nglig‘a kashf bo‘ldi va insoniyat sifati mahv bo‘ldi.

50. Boyazid Bistomiy q. t. a.
Avvalg‘i tabaqadindur. Oti Tayfur b. Iso, Ahmad Xuzravayh va Abu Hafs va Yahyo Mu’oz va Shaqiq Balxiyni ko‘rub erdi. Ul Roy ashobidin erdi ammo anga bir valoyat eshigi ochildikim, anda mazhab padiydor bo‘lmadi. Boyazid q. s. namoz qilsa erdi, ko‘ksining. so‘ntaklaridin qa’qa’a chiqar erdi tengri taolo qo‘rqunchidin va shariat ta’zimidin. Boyazid naz’ vaqtida dedikim, [Allohim, seni faqat g‘ofillik bilan esladim va senga faqat sustkashlik bilan xizmat qildim][1].
Bu so‘zni dedi va bordi. Boyazid q. s.ning shogirdi Abu Muso dedikim, Boyazid dediki, Alloh taoloni

tush ko‘rdum, so‘rdumki, bor Xudoyo, yo‘l senga ne nav’dur? Dedikim, o‘zungdinkim o‘ttung, menga yetting! Olamdin o‘tgandin so‘ng tush ko‘rdilar, holin so‘rdilar, dedikim, mendin so‘rdilarki, ey qari, ne kelturubsen? Dedim, darvesh podshoh eshigiga kelsa, andin so‘rmag‘aylarki, ne kelturubsen? So‘rg‘aylarki, ne kerak? Ta’rix ikki yuz oltmish birda olamdin o‘tdi. Derlarki, Nishoburda Iroqiya degan ajuzae erdi. Eshiklarga yurub, savol qilur erdi. O‘tgandin so‘ngra so‘rdilarki, holing nedur? Ul dedikim, mendin so‘rdilarkim, ne kelturubsan. Dedim, oh, barcha umrumni bu eshikka havola qilur erdimkim, tengri bergay. Emdi mandin so‘radurlarki, ne kelturubsen? Javob keldikim, chin aytur. Anga evrushmang.

51. Abu Ali Sindiy q. t. s.

Shayx Ro‘zbehon Baqliy q. s. «Shathiyot» sharhida debdurkim, ul Boyazidning ustodlaridindur. Boyazid q. s. debdurkim, men Abu Alidin fano ilmini tavhidda o‘rganur erdim. Ul mendin «Al-hamdu» va «Qul-hu-volloh»ni.

52. Abu Hafs Haddod q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur.

Oti Amr b. Salama. Nishoburning kentlaridindur. Abu Usmon Hiriyning ustodi. Olam yagonasi erkandur. Shoh Shujo’ Kirmoniy anga nisbat durust qilur. [Mashoyixlardan ba’zisi aytibdurki, Junaydga hikmat, Shoh Shujo’ Kirmoniyga vujud, Abu Hafsga axloq va Abu Yazidga haymon berildi][1].

Abu Hafs Ahmad Xuzravayh bila Boyazidning rafiqi erdi va Abdulloh Mahdiy Bovardiyning shogirdidur. Ul debdurkpm, zohir-husn adabi, botin-husn adabining unvonidur. Hajga borurda Bag‘dodga yetishti. Junand ,q. s. istiqbol qildi. Abu Hafs q. s. musin erdi, muridlari bosh ustida ko‘laga qilib, ayog‘ Ustig‘a turub erdilar. Junayd ashobg‘a dediki, muluk adabin o‘rganibsiz? Agar o‘rganmansiz. ko‘rung, o‘rganing! Zoxir yuzidin adab asramak Tengrining do‘stlarig‘a, botin yuzidin adab asramakdur Tengrig‘a. Abu Hafs debdurki, har kim, har vaqtda af’olu ahvolin kitob va sunnat mezoki bila vazn qilib, rost qilmag‘ay ul kishini er demasbiz. Va ham ul debdurki, [futuvvat– insof va adolat qilish, lekin ularni talab-qilmaslik][2]. Va dunyodin o‘tganini ta’rix ikki yuz oltmish to‘rtda, ba’zi oltmish yettida debdurlar.

53. Abu Muhammad Haddod q. t. r.

Abu Hafsning muridlaridindur. Abu Hafs anga buyurdikim, temurchilik qil va hosil qilg‘aningni darveshlarga maxfiy ulash va andin tasarruf qilma: va o‘z yemaging uchun savol qil! Necha vaqt andoq qildi Xaloyiq aning ta’niga til uzattilarki, hirs ko‘rungki, bovujud kasbi savol ham qilur. Chun oqibat ma’lum qildilarki, holi ne nav’ emish, el qoishda anga qabul paydo bo‘ldi. Abu Hafs dedikim, chun holingdin el voqif bo‘ldilar, emdi savol sanga harom bo‘ldi kasb qilg‘andin o‘q qut qil.

54. Zolim b. Muhammad q. s.

Mashoyix buzurglaridin erdi. Oti Abdulloh, otig‘a tag‘ayyur berib Zolim qo‘ydi. Der erdiki, mendin hargiz bir pisandida bandalig‘ qilmamish bo‘lg‘ay, bas zolim bo‘lg‘anman, ya’ni o‘zumga. Va ul Abu Ja’far Haddodning shogirdidur. O‘l debdurkim, har kim tilasaki, bu yo‘l anga ochilg‘ay, uch ishga mudovamat qilsun: Haq yodi bila orom tutmak va xalqdin qochmak va oz nima yemak.

55. Abu Muzohim Sheroziy q. r.

Fors mashoyixidindur. Junayd va Shibliy bila munozara qilibdur. Chun ma’rifatda so‘z aytsa erdi, mashoyix andin qo‘rqarlar erdi. Buzurgvor, sohibi hadis erdi. Abu Hafs ziyoratig‘a bordi. Abu Hafsg‘a bir necha diram yetib erdi. Ashob dedilarki, bu diramlarni beralikim, mustaroxlarni aritsunlar. Shayx dedikim, muni o‘zumiz qilibbiz, yana birovga aritmag‘in buyurmak ne? Ya’ni o‘zumiz aritmak kerak

va yetgan futuhni darveshlar ishiga sarf qilmak kerak. Ishqa mashg‘ul erdilarkim, birov yetib Shayxqa dedikim, o‘zungni yuv va xirqa kiyki, Shayx Abu Muzohim Forisdin yetishti. Shayx dediki, agar ham ul Abu Muzohimdurki, men ko‘rubmen, bo‘la olurki, meni ushmundoq-o‘q ko‘rgay. Shayx Abu Muzohim yetishti, bu holni ko‘rgach, salom berdi va yalong‘achlanib muvofaqatig‘a alar kirgan yerga o‘zin solib, ishga mashg‘ul bo‘ldi. Abulhusayn Qushchi So‘fiy r. a. debdurkim, [Kimki o‘zining nazarida xor ko‘rinsa, Allohu taolo uning darajasini baland qiladi va kimki, o‘ziga ulug‘ ko‘rinsa, Allohu taolo uni bandalarning nazarida xor qilib ko‘rsatadi][1]. Abu Bakr Varroq q. s. debdurki, bu ish birovning ishidurkim, Tengri taolo uchun mazbalalarni jop bila supurmish bo‘lg‘ay.

56. Abdulloh Mahdiy Bovardiy q. s.

Bu toifaning buzurglaridindur. Abu Hafs Haddod q. s. ustodidur. Abu Hafs avval Bovardqa bordi va bu Abdulloh burun temurchi erdi, munung qoshida shogirdlik qilur erdi. Va Abdullohning olam ishin tark qilib, bu ishga kirmagiga sabab bu erdikim, bir kun temurchilik qilur erdi va temurni ko‘rada qizdirib erdi. Nobiynoe utub borur erdi, eshittiki, bu oyatni o‘qurkim, [o‘sha kunda Haq – sobit (yolg‘iz) Rahmon uchun bulur][1]. Qizig‘an temur ilgidin tushti va hol anga mutag‘ayyir bo‘lub, bexud ilig urub, ul qizig‘ temurni ilig bila yerdin ko‘tardi. Shogird bu ishni ko‘rub, behush bo‘lib yiqildi. Shogirdqa dedikim, sanga ne bo‘ldi? O‘z ilgida ul qizig‘an temurni ko‘rdi, dedi: chun mening sirrim oshkor bo‘ldi, qutuldum. Do‘konni barham urdi va bu yo‘lg‘a kirdi.

57. Hamdun Qassor q. t. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Solih. Malomatiyaning shayx va imomidur. Nishoburda malomat tariqin ul nashr qildi. Avval masalaki, andin Iroqqa elttilar, Sahl Abdulloh Tustariy va. Junayd dedilarkim, agar ravo bo‘lsa erdiki, Ahmad Mursal s. a. v. din so‘ngra pang‘ambare bo‘lg‘ay erdi, ul bo‘lg‘an erdi. Ul.olim va faqih erdi. Savriy mazhabi bor erdi. Abdulloh Muborakning ustodidur. Islom b. Husayn Borusiy va Abu Turob Naxshabin va Ali Nasrobodiy bila suhbat tutub erdi. Abu Hafs Haddodning rafiqlaridindur. Ta’rix ikki yuz yetmpsh birda dunyodin o‘tti, Nishoburda. Qabri Hiriydadur. Ul debdurki, o‘z nafsimni Fir’avi nafsig‘a fazl qo‘ymasmen, ammo o‘z ko‘nglumni aning ko‘ngliga fazl qo‘yarmen. Ham aning so‘zidurkim, [kimki, salafi solihinlarning siyratig‘a nazar solsa, o‘zining kamchiliklarini ko‘radi va odamlardan orqada qolganligini anglaydi][1]. Va ham ul debdurki, [kimdaki, bir yaxshi xislat ko‘rsang undan ajramaginki, albatta, uning barakotidan senga ham naf’ yetadi][2].

58. Abulhusayn Borusiy q. s.

Oti Islomdur. va kuniyati Abu Imron, Nishobur mashoyixining qudamosidindur. Hamdun Qassoriing ustodlaridindur. Mustajob ud-da’vo erdi, ul .debdurki, [sunnatga ergashmay, bid’atlardan qochmay turib, biron kishida iymon nuri zohir bo‘lmaydi. Qaerda nursiz-zohiriy harakatlarni ko‘rsang, bilginki, u yerda maxfiy bid’at bordir][1].

59. Mansur b. Ammor q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abussariy. Ba’zi Marvdin debdurlar, ba’zi Bovarddin. Ani tushda ko‘rdilar, so‘rdilarkim, holing ne? Dedikim, Haq s. t. yettinchi ko‘kda minbare qo‘ydurdi va manga dedi, olamda mendin aytur erding, munda manga ayt va mening fa-rishtalarimg‘a ayt.

Bir qatla bir yigit aning ilgida tavba qilib erdi, yana tavba sindurub, isyon sari moyil bo‘ldi. Ul anga dediki, mundin o‘zga jihat bilmanki, yo‘lni qattig‘ ko‘rdung va hamroh–oz, malul bo‘ldung, qaytting.

60. Ahmad b. Osim Antokiy q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Alidur. Bishr Hofiy va Sari Saqatiy va Horis Muhosibiy aqronidindur. Debdurlar Fuzayl Iyozni ko‘rubdur na Ahmad b. Abulhavoriyning ustodlaridindur. Ul

debdur: Har amAliing imomi ilmdur, har ilmning imomi inoyat. Za ham ul debdurki, Allohu taolo ayturki, [bilingizki, mol-dunyo va bola-chaqalaringiz faqat bir fitna-aldovdir. Yolg‘iz Allohning huzuridagina ulug‘ ajr-savob bordur][1]. Va biz ul fitnani ko‘prak tilarbiz. Va ham ul debdurki, [rizoning boshi sabrdur][2].

61. Muhammad b. Mansur Tusiy q. s.

Ul Bag‘dodda ermish, sufiy va muhaddis. Usmon b. Said Dorimiyning va Abulabbos Masruqning va Haddodning va Abu Said Xarrozning va Junayd q. a.ning ustodi ermish. Abu Said Xarroz q. s. debdurki, Muhammad Mansurdin faqr haqiqatin so‘rdilar. Dediki, [har qanday yo‘qchilikda – xomushlik, har qanday to‘qchilikda saxiylik][1]. Va ham Muhammad Mansur bir yerda so‘z aytadur erdi, bu toifa so‘zidin. Hamonoki, so‘z malomatiya zikrig‘a yetti, birav ayttikim, malomatiya so‘zi bizing shonimiz emas, biz bu so‘zning kimi bo‘lurbiz? Muhammad Mansur javob berdikim, [solihlar esga olinganda, Allohning rahmati nozil bo‘ladi][2]. Filhol yog‘in tutti va go‘yoki bulut yo‘q erdi.

62. Ali Akkiy r. t. ch

Ham bu toifadindur. Makkada muhojir erdi. Yaxshi so‘zlari va muomalasi bor. Shayx ul-islom andin so‘zlar naql qilibdur.

63. Hotam Asamm q. s.

Avvalg‘i tabaqadindur, kuniyati Abu Abdurahmon. Xuroson mashoyixining qudamosidindur. Shaqiq Balixiy bila suhbat tutubdur va Ahmad Xuzravayhning ustodidur. Ta’rix ikki yuz yettida Balx navohiysida olamdin o‘tti. Derlarki, asamm emas erdi va bir amre voqe’ bo‘ldiki, ani Asamm dedilar. Mashoyix kitobin o‘qug‘an ul kayfiyatni ma’lum qilur. Ul debdurki, [Agar xudoyingga osiy bo‘lmoqchi bo‘lsang, u seni ko‘rmaydigan joyda osiy bo‘l, ya’ni Allohga osiy bo‘lmaki, har yerda u senn ko‘radi][1]. Va ham ul debdurki, har kim bu yo‘lg‘a kirar, to‘rt o‘lumni o‘ziga tutmak kerak: Mavti abyaz – va ul qorin ochlig‘idur .va mavti asvad va ul xalq izosig‘a sabr qilmaqdur va mavti ahmar – va ul nafs muxolafatidur va mavti axzar – va ul xirqag‘a yurunlar tikmakdur, Andin so‘rdilarki, qaydin nima yersen? Dedikim, [er va osmon xazinalari Allohnikidir. Lekin munofiqlar (buni) anglamaslar][2].

64. Ahmad b. Abulhavoriy q. s.

Anvalg‘i tabaqadindur va Damashq ahlidin. Kuniyati Abulhasan. Va Abu Sulaymon Doroniy va Abdudloh Nibojiy va ul zamonning ko‘p mashoyixi bila suhbat tutub erdi. Va Muhammad b. Abulhavoriy aning qardoshi, zuhdu taqvoda aning bila tenglpk qidur erdi. Va o‘gli Abdulloh dag‘i ul zamonning zuhhodidin erdi va otasi Maymun mutavarri’lar va oriflardin. Va alarning xonvodasi zudxu taqvo xonvodasi erdi. Va Junayd q. s. aning bobida dobdurkim, [Ahmad b. Abulhavorni Shomning tabarruk kishilaridan][1]. Ul debdurki, dunyo mazbalaedur, itlar majmai. Va itdin o‘ksuk ul kishiki, andin yiroq bormas, nechunki it hojatinki mazbaladin olur ketar va ani sevar kishi hech hol bila andin ayrilmas.

65. Abu Abdulloh Xubayq Sobik Antokiy q. s.

Avvalgi tabaqadindur na kuniyati Abu Muhammad

Sufiyaning zuxhodidindur: Asli Kufiydir, ammo Antokiyada muqim bo‘lur erdi. Va tasavvufda Sufyon Savriy tariqida erdikim, aning shogirdlari bila suxbat tutibdur. Ul debdurki, to‘rt nimadurki, andin guriz no‘qdur: ko‘z va til va ko‘ngul va havo. Ko‘zungni asraki, har neki Xudoyi taolo pisand qilmag‘ay, anga bokmag‘ay va tilingni asraki, bir nima demagayki, Xudoyi taologa aniig xilofi ko‘nglungda zohir bo‘lg‘ay va ko‘nglungni asraki, hech musulmonning hiqdi va g‘illi anda bo‘lmagay, havongni asraki, hech noshoyistqa moyil bo‘lmagay. Vaqtnki, senda bu to‘rt xislat bo‘lmag‘ay, kul boishngg‘a sovurki, badbaxt bulding.

66. Sahl b. Abdulloh Tustariy q. s.

Ikkinchi tabaqadindur, bu qavmning kubarosidin» va bu tonfaning ulamosidin. Imom Rabboniyki, iqtidog‘a shoistadur. Kuniyati Abu Muhammad. Ahvolda qaviy va so‘zda za’if debdurdar. Zunnun q. s.ning shogirdidur. O‘z tag‘oyisi Muhammad Savvor bila suhbat tutubdur. Va Junayd q. s.ning aqronidindur va andin burunroq ta’rix ikki yuz sakson uchda muharram oyida olamdin o‘tubdur, sakson yoshda. Ul debdurki, [bu ishning boshi shunday ilmdurki, uni idrok qilib bo‘lmaydi, oxiri ham ilmdurki, tamom bo‘lmaydi][1]. Va ham aning suzidurkim, [modomiki, faqirlikdan qo‘rqasan, sen munofiqsan][2]. Va ul dsbdurki, darvesheki, aning ko‘nglidin elning ilgidin nima olmoqning chuchukligi ketmamish bo‘lg‘ay, andin faloh kelmagay. Va ham ul debdur, ul oyat tafsiridaki, [albatta, Alloh adolatga, chiroyli amallar. qilishga buyuradi][3]. Adl uldurki, luqmada rafiqning insofin bergaysen va ehson ulki, luqmada avvaliroq ko‘rgaysen. Va ham ul debdurkim, shayton uyuqlag‘andinki och bo‘lg‘ay, qochar.

67. Abbos b. Hamza Nisoburiy q, s.

Bu toifaning ulug‘laridindur. Kuniyati Abulfazl. Zunnun q. s. bila suhbat tutubdur. Ikki yuz sakson sakkizda Rabe’ ul-avval oyida dunyodin o‘tubdur, Junayd q. s.din burun. Aning jaddi Abu Hafiz debdurkim, ul Zunnun q. s.din naql qilibdurkim, [talab qilgan narsalarining nimaligini bilishganda edi, ularga sarf qilganlari behudaligini anglashardi][1]. Ham ul naql qilibdurki, [sen bilan xursandchilik qilib, qanday sevinmayki; menga islomni rizqu-ro‘z qilgan payting sen meni ham eslagan eding][2]. Yana bir rivoyatda [meni tavhid ahlidin qilgay paytingda][3] kelibdur.

68. Abbos b. Yusuf Shakliy q. s.

Aning kuniyati dag‘i Abulfazldur. Bag‘dodlig‘dur. Ul debdurkim, har kishining mashg‘ullug‘i Haq subhonahu va taolo bilandur. Andin so‘rmamoq kerak.

Sh ye ‘ r:

[Qalbimni dunyo va uning lazzatidan ozod qildim.
Sen va qalbim br-biridan ajralmaydi.
Ko‘zlarnmni aslo uyqu eltmaydi, faqat
Seni qorachiqlarim ichida topganimda yumiladi].

69. Abbos b. Ahmad Shoir Rumiy q. s.

Aning ham kuniyati Abulfazldur, Shom mashoyixining yagonasidur. Abulmuzaffar Kirmonshohiyning shogirdidur. Shayx ul-islom debdurki, men bir kishi ko‘rubmenki, ani ko‘rubdur va ul kishi Shayx Abulqosim. Bu Salama Abivardiydur.

70. Abu Hamza Xurosoniy q. t. s.

Uchunchi tabaqadindur. Va debdurlarki, nishoburlug‘ erkondur. Iroq mashoyixi bila suhbat tutubdur va Junayd q. s. aqronidindur va Abu Turob Naxshabiy bila ham suhbat tutubdur. ,Va Abu Said Xarroz q. s. ning rafiqi erkondur va zamon mashoyixining javonmardlaridin ermish. Va ikki yuz to‘qsonda dunyodin o‘tti. Junayd va Nuriydin burun va Abu Said Xarroz va Abu Hamza Bag‘dodiydin so‘ngra. Bir kun Ray mas-jidida poytobae tiladi, birav aning oldig‘a dabiqa soldi. Bir poytobalig‘in yirtub, oyog‘iga chirmadi va ortug‘in tashladi. Birav dediki, ajoyib ish qilding, bu nafis jinsni sotsang erdi, necha poytobalig‘ hosil erdi. Dedikim, men mazhabda xiyonat qilmasmen. Shayx ul-islom debdurki, tasavvuf bila tasarruf jam’ bo‘lmaslar, dunyoni darig‘ tutmak va anga qiymat qo‘ymak – erni tasavvufdin, qilni xamirdin chiqarg‘andek chiqarur. Dunyo bir kesakdur va ul kesakdin bizning

nasibamiz bir gard.

71. Abu Hamza Bag‘dodiy q. s.

Uchunchi tabaqadindur, oti Muhammad b. Ibrohimdur. Sariy Saqatiy va Bishr Hofiy bila suhbat tutubdur va alarning aqronidindur. Abu Turob Naxshabiy bila safarda rafiqlik qilibdur. Abu Bakr Kattoniy va Xayr Nassoj va g‘ayrhumo andin hadis rivoyat qilurlar. Ikki yuz sakson to‘qquzda dunyodin o‘tti. Junayd va Abu Hamza Xurosoniydin burunroq va Abu Said Xarrozdin so‘ngraroq. Ul debdurkim, [agar g‘af-lat bo‘lmaganda edi, siddiqlar Alloh zikri nash’asidin halok bo‘lur erdilar![1]. Va ham ul debdurkim, [faqyrlarni do‘st tutish og‘ir, unga siddiqlardan boshqalar chiday olmaydilar][2].

Bir qatla Tarsusda anga azim qabul voqe bo‘ldi, xaloyiq aning sari yuz qo‘ydilar. So‘z asnosida bir so‘z dedi va avom ul so‘zning ma’nosig‘a yetmay, ani hulul va zindiqg‘a nisbat berdilar va mardud qildilar. ulog‘larni talab, ul yerdin ixroj ettilar. Chun Tarsusdan chiqti, bu baytni o‘qudiki,

sh ye ‘ r:

[Qalbimda sen uchun begonalardan asrab, avaylagan joy bor,
Shuning uchun ko‘yingda duch kelgan mashaqqatlarmenga oson kechadi][3].

72. Hamza b. Abdulloh Alaviy q. s.

Kuniyati Abulqosimdur. [Bir necha yil tavakkul bilan sahrolarga safar qildi. Aytadilarki, muqimlik paytida ham yerga yonboshlamadi. Safarlarida o‘zi bilan mesh olib yurmasdi va zikrdan qolmasdi]. Ul Abulxayr Taynotiyning shogirdi erdi. Bodiyani och qorin bila qat’ qilur erdi. Ul debdurkim, qorin to‘qlug‘i ma’lum doxilidur. Ham aning so‘zidurkim, sufiy bodiyada ani asramoq kerakqi, vatanda asrarki, sufiyg‘a safar hazardur.

73. Abu Said Xarroz q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Iso va laqabi Xarroz. Va Bag‘dodiyyul-asldur. Bu toyifaning muxabbatidin Misrga bordi va Makkada mujovir erdi. Qavmning aimmasi va mashoyixiing ajillasidindur. Muhammad b. Mansur Tusiy shogirdidur. Zunnun Mis-riy va Abu Ubayd Busriy va Sarin Saqatiy va Bishr-Hofiy bila suhbat tutubdur. Va ul avval kishidurki fanovu baqo ilmida so‘z debdur. Va Shayx ul-islom debdurki, ul o‘zin Junaydning shogirdlig‘ida ko‘rguzur erdi, ammo aning ustodi erdi va andin ulug‘ erdi. Va andin burunroq, ikki yuz sakson oltida dunyodin o‘tti. Va Junayd aytibdurki, [agar Allohu taolo Abu Said Xarroz erishgan haqiqatni bizdan talab qil-ganda, albatta, halok bo‘lardik][1]. Bu so‘zi Junaydning dalil bula olurki, Abu Said Xarroz andin ulug‘roq va aning piri bo‘lg‘ay va aning ustodi. Shayx ul-Islom debdurki, bukim Boyazidni Sayyid ul-orifin debdurlar, Sayyid ul-orifin Haq subhonahu taolodur va oda-miylardin Muhammad Arabiydur s. a. v. va bu toyifadin Abu Said Xarrozdur. Va ham Shayx ul-islom debdurki, mashoyix orasida andin ulugroq hech kishini tanimasmen. Abu Said Xarroz debdurkim, [jahdu mashaqqat bilan biror nparsaga erishmoqchip bo‘lgan kishi mutaanniy (mashaqqat tortuvchi)dir. Osonlikcha erishmoqchi bo‘lgan mutamanniy (orzu qiluvchi)dir][2]. Shayx ul-islom debdurki, ani tilamak bila topsa bo‘lmas, ammo tilagan topar va tonmag‘uncha tilamas. Va ham Xarroz q. s. debdurkim, [oriflarning riyosi muridlarning ixlosidan yaxshidir3. Va ham ul debdurkim. moziy avqotining tadoruki boqiy avqotin zoe’ qilmoqdur.

74. Ahiaf Hamadoniy q. s.

Hamadon mashoyixining ulug‘laridindur. Ul debdurki, mening ishim ibtidosi bu erdikim, yolg‘uz bodiyada horib, darmonda bo‘lub erdim. Ajzu niyoz iligin ko‘tarib dedim: bor Xudoyo, ojizu zayf bandangmen, sening ziyoratingg‘a kelibmen. Ko‘pglumga bu keldikim. javob bo‘ladurkim, seni Kim tiladi? Dedim: yo Rab, mulkiydurkim, tufayliyning gunjoyish bor. Nogoh birav kechkam tarafidin

menn chorladi. Boqtim ersa, ko‘rdum. a’robidur, teva mingan. Dedi: Ey ajamiy, qayon borursen? Dedim: Makkaga. Dedi: seni kim tilabdur? Dedim: bilmon. Dedi: ul bu yo‘l sharti isti toat qilmaydur? Dedim: qilibdur, ammo tufayliymen. Dedi: Yaxshi, tufayliysen, ammo mamlakat vasi’dur. Dedi: bu tevaga g‘amxorlig‘ qila olg‘aysen? Dedim: qila olg‘aymen. Tevasidin tushti va meni mindurdi va dedi: bor Tengri uyig‘a.

75. Abu Shu’ayb Muqanna’ r. t.

Oti Solihdur. Misrda bo‘lur erdi. Abu Said Xarroz q. s. asrida erdi. Yetmish haj yayoq borib erdi. Har dajda Bayt ul-muqaddas sahrosindin ehrom bog‘lar erdi va Tabuk bodiyasig‘a kirar erdi. So‘nggi hajida bodiyada ko‘rdikim, bir itning suvsizlig‘din tili og‘zidin chiqib, halok bo‘lgudekdur. Nido qildikim, ey qavm, kim bo‘lg‘ankim. Yetmish yayoq hajni bu it ichkuncha suvg‘a sotqin olg‘ay? Birav ul tilagancha suv kelturdi. Ul olib, ul itni serob qildi va dedn: ul hajlarimdin bu manga yaxshiroq erdikim, Hazrat Risolat s. a. v. debdurki, [har bir tirik jonga yaxshilik qilishda ajr bor)[1].

76. Abu Aqqol b. Ilvon Mag‘rnbiy q. s.

Mashhur mashoyixdindur va Abu Horun Andalusiy bila suhbat tutubdur. Va Makkada dunyodin o‘tubdur, qabri Makkadadur. Abu Usmon Mag‘ribiy q. s. Abu Aqqolning ba’zi ashobidin naql qilibdurkim, ul Makkada to‘rt yil yemak-ichmakdin hech nima ixtiyor qilmadi va ba’zi to‘rt yildin ko‘prak debdurlar. Vallohu a’lam.

77. Hammod Qurashiy q. t. s.

Kuniyati Abu Amrdur va bagdodligdur. Mashonixning buzurglaridindur. Junayd q. s. anga musharraf bo‘lur ermish. Ja’far Xuldiy debdurki, necha kun Hammod Qurashiyni ko‘rmaydur erdim, uyiga bordim ani ko‘rgali. Ul yo‘q erdi, ul yo‘qsizlik zaruratidin ayolining burupchakni olib, bozorg‘a eltgan ermishkim, sotib yegulik kelturgan. Kelturganni ashob qoshida qo‘ydi. Birav o‘ttiz oltun kelturub anga berdi, ul olmadi. Ayoli uy ichidin un biyik qilib, ul o‘tgan ishni izhor qildi va aning bu vajh olmaganidin gila qildi. Ja’far Xuldiy debdurki, mei bu voqeani Junayd q. s.g‘a ayttim. Junayd andin so‘rdi, ersa ul ayttikim, ul koloni dallolg‘a berdimkim, sotqay. Bir un eshit-timki, sen bu ishni bizing uchun qilding, sanga javod yetkusidur. Bu vajhkim, ul kishi kelturub erdi, olmadim. Junayd dedi: yaxshi qildingki, olmading. Shayx ul-islom debdurki, boqingki, podosh birla garra bo‘lmag‘aysiz.

78. Abulhusayn Nuriy q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Muhammad.

Al-Bag‘oviyg‘a ma’rufdur. Bag‘dodiyul-asldur. Sariy Saqatiy va Muhammad Ali Qassob va Ahmad b. Abulhavoriy bila suhbat tutubdur va Zunnun Misriy q. s. ni ko‘rubdur va Junayd q. s. aqronidindur va andin tezvaqtroq, debdurlar. Nuriy doim tasbeh evurur erdi. Andin so‘rdilarkim, [Allohni zikr qilasanmi?][1]. Dedilar: bu tasbeh bila tilarsenki, Allohu taolo sening yodingda bo‘lg‘ay? Dedi: Bu tasbeh bila tilarmenki, Haqdin g‘ofil bo‘lg‘aymen. Va ham aning so‘zidurkim, [ubudiyat (bandalik)ning sofligi seni mag‘rur qilmasinki, unda rububiyat (rabboniylik)ni unutish bordir)[2]. Andin so‘rdilarki, Tengrining ne bila taniding? Dedi: Tengri bila! Dedilarki, Bas, aql nedur? Dedi: Aql ojizdur, yo‘l ko‘rsatmas, magar ojizg‘a. Va ul debdurkim, [Haq kimdan o‘zini yashirsa, har qanday ishonchli dalil va xabar uni hidoyat qilolmaydi][3]. Va ham ul debdurkim, [bir kun nurga boqdim va undan aslo ko‘zimni uzmadim, hatto shu nurga aylandim][4].

79. Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy q. s.

Ikkinchi tabaqadindur va kuniyati Abulqosimdur va laqabi Qavoririy va Zajjoj va Xazzoz. Qavoririy va Zajjoj andin debdurlarki, otasi shisha sotar ermish va Xazzoz aning uchunki, xazz san’atin bilur emish. Asli Nihovanddindur. Tavalludu mansha’i Bag‘doddindur. Abu Savr mazhabida bo‘lur

ermishki, Imom Shofe’iy q. s.ning ulug‘roq shogirdidur va ba’zi debdurlarki, Sufyon Savriy mazhabida ermish.

Sariy Saqatiy va Horis Muhosibiy va Muhammad Ali Qassob bila suhbat tutubdur va alarning shogirdidur va qavmning aimmasi va sodotidindur. Barcha nisbatni anga durust qilurlar Xarroz va Ruvaym va Nuriy va Shibliy va g‘ayruhum. Abul Abbos Ato debdurkim, [shu ilmda bizning imomimnz, tayanchimiz va peshvomiz Junayddur][1]. Xalifai Bag‘dod Ruvaymg‘a ayttiki, ey beadab! Ul dediki, yarim kun Junayd bila suhbat tutubmen, nechuk meni beadab degaylar, ya’ni har kishikim yarim kun Junayd bila suhbat tutmish, bo‘lg‘ay, ondin tarki adab kelmag‘ay. Xususankim, ortuqroq. Junayd debdurki, Sariy manga doim aytur erdikim, majlis tut va elga so‘z ayt! Men nafsimni muttaham qilur erdim mungakim, bu ishga istihqoqim yo‘qdur, to ulkim bir juma kechasi Hazrat Risolat s. a. v.ni voqeada ko‘rdum. Ul Hazrat amr qildilarki, [«Insonlar bilan so‘zlash»][2]. Sahar erta Sariy eshignga bordim va eshik qoqtim. Dediki, men degan so‘zga inonmading, to senga amr qildilar. Bas, tong erta majlis qo‘ydum va so‘z og‘oz qildim. Atrofg‘a xabar muntashir bo‘ldikim, Junayd so‘z aytadur. Majlis qirog‘idin bir yigit dedikim, [Ey shayx, Rasulullоh s. a. v.ning «Mo‘minning farosatidan ehtiyot bo‘ling, chunki u Alloh nuri bilan nazar qiladi» hadisining ma’nosn nima?][3]. Junayd debdurki, bir lahza bosh quyi soldim va bosh ko‘tardim. Dedimki, islom keturki, islomning vaqti yetibdur. Ul yigit tarso emish. Filhol islom qabul qildi. Imom Yofi’i debdur: bu ishta el Junayndg‘a bir karomat isbot qilsalar, men ikki karomat sobit qilurman. Biri ul yigitning tarso ekanin, biri islom vaqti yetkanin bilgani. Junayd debdurki, [ilmning vajdu holg‘a g‘olib bo‘lishi vajdu holning ilmga g‘olib bo‘lishidan yaxshiroqdur][4]. Va ham ul debdurkim, [majlislarning sharaflirog‘i va yuksakrog‘i tavhid maydonida fikr bilan o‘tirishdir][5]. Va ham aning so‘zidurkim, [himmatingni Allohu azza va jalla tomonga qarat. Zinhor Allohu azza va jallani mushohada qiladigan basirat ko‘zingni undan boshqasiga qaratmaginki, Allohning nazaridan qolasan. Junayddan so‘radilar: amalsiz ato bo‘ladimi? Aytdi: Har bir amAliing o‘zi uning lutfu inoyatidindur][6].

Shayx Abu Ja’far Haddod debdurki, agar aql kishi suratia kirsa erdi, Junayd surati bo‘lg‘oy erdi. Junayd q. s. ikki yuz to‘qson yettida dunyodin o‘tubdur. «Tabaqot» kitobida Qushayriy risolasida bu nav’ bitilibdur va Imom Yofi’n" ta’rixida to‘qson sakkizda debdur va ba’zi to‘qson to‘qquzda debdurlar.

80. Abu Ja’far Karnabiy r. t.

Junaid q.s. aqronndin debdurlar va Junaidning x;am ustodn dsbdurlar. Bag‘dod mashoyixining kiboridindur. Ja’far Xuldin debdurki, Ibnul Karnabiy-ning vafoti kuni Junayd q. s. aning boshi ustida o‘lturub erdi. Boshin yuqori, osmon sari ko‘tardi. Abu Ja’srar ayttiki, bu’d va yirog‘liqdur. Boshin yerga qo‘ydi. Ham ul aytti, bu’d va yirog‘liqdur, ya’ni [albatta, Haq bandasig‘a ishora qiladigan taraflardan yaqinroq][1].

81. Kahmas Husayn Xamadoniy q. r.

Laqabi Abu Muhammaddur, hamadonliq. Va ko‘p mashoyix suhbatiga yetibdur. Ul debdurki, Hamadonda bir kecha o‘z uyimda erdim. Birav eshik qoqdi, xayolimga keldiki, Junayd bo‘lg‘ay. Eshik ochdim, Junaid erdi. «Salom» – dedim, javob berib dediki, qosid sening ziyoratingga kelibmen. Xotiring tuzluki ma’lum bo‘ldi,–dedi va yondi. Yana kun Hamadonda tiladuk, topilmadi. Bag‘doddin kelgan musofirlardin so‘ruldikim, falon vaqt Junayd Bag‘dodda g‘oyibmu erdi? Hech kim nishon bermadi, ham ul kecha kelib borgan ekandur.

82. Amr b. Usmon Makkiy q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdulloh. Husain Mansur Halloj q. s.ning ustodidur. Nisbatin Junayd Q. s.g‘a qilur va Xarroz bila suhbat tutubdur va alarning aqronidindur.

Asli Yaman mulkidindur. So‘zi daqiq bo‘ldi, oni kalomga mansub qilib, mahjur qildilar va Makkadin

surdilar, Jiddaga bordi. Ul debdurki, [muruvvat do‘stlarning qusur va kamchiliklaridan ko‘z yumishdir][1]. Va ham ul debdurki, [vajd kayfiyatini so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi, chunki u mo‘minlar nazdida Allohning sirridir|[2].

Bir kun Ali Sahl andin so‘rdikim, [zikrning qonuni nima?,][3]. Ul dedikim, [Haqning sifatlarini bilgan holda, uni yakka-yagona deb bilmoq)[4]. Va ul ikki yuz to‘qson oltida dunyodin o‘tti va ba’zi to‘qson yettida va ba’zi to‘qson birda debdurlar va ba’zi Bag‘dodda va ba’zi Makkada debdurlar.

83. Shoh Shujo’ Kirmoniy q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur, muluk avlodidindur. Abu Hafsning rafiqlaridin. Abu Turob Naxshabiy va Abu Abdulloh Ziro’ Busryay va Abu Ubayd Busriy bila suhbat tutubdur. Va Abu Usmoi Hiriyning ustodidur.. Va ul qabtan bila yurur erdi, andoqki ba’zi mashoyix xirqa bila va ba’z gliyim bila va ba’zi taylason bila. Va Shoh Abu Hafsdin so‘ngra ikki yuz yetmishda dunyodin o‘tibdur va uch yuzda ham bitibdurdar. Shoh bir kitob bitibdur. Yahyo Mu’oz Roziy g‘ino fazlin faqrga qilib bitigan kitobning raddiga. Hazrat Maxdumn Nuran «Nafahot ul-uis»da bu mahalda Shoh jonibidin bu iav’ hukm qilib bitibdurlarki, Shoh Yahyo Mu’oz g‘ino fazlin faqrga qilib bitigan kitob raddi-ga kitob bitibdur, andoqki voqe’dur. Shayx ul-islom q. s. debdurki, faqr fazlidin sanga ushbu kofiydurkim, Payg‘ambar s. a. v. darveshlikni tavongarlikka va faqrni g‘inog‘a ixtiyor qildi va Haq subhonahu va taolo ul Hazratdin bu ishni pisand etti va anga bu davlatni ham karomat qildi. Abu Hafs Shohni to‘n bila ko‘rib so‘rdikim, bo qabo? Shoh javob berdikim, [aboda istaganimizni qaboda topdik][1]. Shoh qirq yil bir vaqt talabiga uyumadi. Bir kun ko‘zi uyquga bordi. Haq subhonahu va taoloni tush ko‘rdi, uyg‘ongach bu baytni dedikim,

b a y t:

[Ey ko‘zimning sururi, seni tushimda ko‘rdim,
Usha lahzadan bern unqunn yaxshi ko‘raman)[2].

Andin so‘ngra doim uiqu tilar erdi, yo oni uyquda ko‘rarlar erdi, yo yotmoq tahiyasida. Bir kun Shoh bir majlisda o‘lturub erdi. Bir darvesh qo‘pub, ikki botmon o‘tmak savol qildi. Hech kim bermas erdi. Shoh dedikim, bo‘lg‘aykn, ellik hajimni ikki botmon nonga sotqun olib, bu darveshga bergay. Bir faqi.ch hozir erdi, dedi: Ey shayx, shariatga istihfof qilding.

Shoh dedi: Hargiz o‘zimdin hisob olmadim, a’molimdin ne hisob olg‘aymen? Va Shoh so‘zidurkim, [kimki nafsini shahvatdan, ko‘zini haromlarga boqishdan saqlasa, botinini doimiy muroqaba bilan ta’mir qilsa va zohirini sunnat bilan bezasa, uning farosati xato qilmaydi][3].

84. Abu Usmon Hiriy q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Sa’d bin Ismoil Hiriy Nshoburiy. Asli Raydindur. Shoh Shujo’ning shogirdi. Abu Hafs va, Yahyo Mu’oz bila suhbat tutubdur. Zamonining imom va yagonasi erdi. Sakkiz yuz to‘qson sakkizda Rabiul avval oyida dunyodin o‘tibdur. Qabri Nishoburdadur. Andin so‘rdilarkim, javonmard kimdur? Dedi: ulkim, o‘zin ko‘rmagan. Va ham ul debdurki, [shavq muhabbatning alomatlaridan biridur][1].

Va ani Imom va Muqtadoyi rabboniy debdurlar. Va rabboniy oni derlarkim, muridlarga oz ilm bila parvarish bergay va tarbiyat qilg‘aykim, to ulug‘ ilmda quvvat topqaylar. Va ul bu nav’ erdi. Va ul debdurki, [Alloh amrini bajarishda sustlik qilish, o‘sha amrning. ma’rifatini yaxshi bilmaslikdandir][2].

85. Zakariyyo b. Duluviyyah q. t. s.

Kuniyati Abu Yahyodur. Nishobur ahlndindur. Ahmad Harb shogirdlaridin, mutavakkil va zuhhoddindur. Uz kasbi bila luqma yer erdi. Abu Usmon Hirpy. debdurki, har kimki, Abu Yahyodek

tirilsa, o‘lumdin andishasi bo‘lmag‘usidur va o‘lumdin so‘ngra ham andishasi bo‘lmag‘usidur. Ikki yuz to‘qsoi to‘rtta Nishoburda dunyodin o‘tti.

86. Zakariyyo b. Yahyo Hiraviy q. s.

Kibori mashoyixdin erdi, mustajob, udda’vo. Imom Ahmad Hanbal rahimahullohu debdurkim, Zakariyyo abdoldindur. Va Abu Said Zohid debdurkim, Zakariyyoni ko‘rdum va suhbat tuttim, siddiqlardin erdi. Ikki yuz ellik birda Hirot shahrida dunyodin o‘tdi.

87. Ziyod b. Kabir Hamadoniy q. t. r.

Hamadonliq erdi. Junayd q. s. suhbatida bo‘lur erdi. Kaxmas Hamadoniy rahimahulloh debdurki, bir yil xushksol voqe’ erdi. Masjidi jum’ag‘a bordim. Ko‘rdumki, mehrobda o‘lturubdur, istisqo duosi o‘qiydur. Ham ul zamon andoq yog‘in tuttikim, uyumga kela olmadim.

88. Abu Usmon Mag‘ribiy q. t. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Said b. Salom Mag‘ribiydur. Abulhusayn Sone’ Dinavariyning shogirdi. Mag‘ribning Qirvonidindur. yillar Makkada mujovirliq qildi va onda Sayid ul-vaqt va mashoyixiing yagonasi erdi. Onga bir nsh voqe’ bo‘ldiki, Makkadin Nishoburg‘a bordi va uch yuz yetmish uchda dunyodin o‘tdi. Qabri Nishoburdadur. Abu Usmon Hiriy bila Abu Usmoi Nasibiyning yonidadur. Mashoyixdin Abu Ali Kotib va Habib Mag‘ribiy va Abu Amr Zajjoz q. s. bila suhbat tutubdur va Abu Ya’qub Nahrajuriyni ko‘ruberdi.

Ul debdurki, bu ishga kirmagimning ibtidosi ul erdikim, bir itim bor erdi va bu itim bila Jazoyirda ovlab yurur erdim. Bir yag‘och ayog‘im ham bor erdiki, oning ichida sut solib ichar erdim. Bir kun ma’hud tariqi bila ul ayog‘din sut ichay, dedim. Ul it ko‘p qichqirib, iztirob qildi. Ayog‘ni yerga qo‘ydum. Yana bir damdin, so‘ngra ul ayog‘ni oldim sut icharga. Ul it bu qatla ko‘prak hurub, manga hamla qildi. Yana ichmay yerga qo‘ydum. Uchunchi qatla ko‘prak hurub, mufrit iztirob qildi. Ersa yana ul ayog‘ni yerga qo‘ydum. Ul it boshin ul harfqa solib, ul sutdin ichti, dog‘i shishib, yiqilib o‘ldi. Hamono ko‘rgan bo‘lg‘ayki, yilon ul sutdin ichib, zahrin onda to‘kmish bo‘lg‘ay. Itdin ul vafo ko‘rgachki, o‘zin manga fido qildi, qiladurg‘onlardin tavba qilib, bu tariqni ixtiyor qildim.

Shayx ul-islom debdurki, Abulhusayn Koshoniy manga dedikim, Abu Usmon Mag‘ribiy dedikim, ul kunki men dunyodin ketsam, maloyika tufrog‘ sovurg‘usidurlar. Nishoburda ul o‘tgan kun men hozir erdim. Andoq gardu oshub bo‘ldiki, el bir-birin ko‘ra olmaslar erdi. Shayx ul-islom debdurki, ul o‘ttiz yil Makkada erdikim, onda bavl qilmadi, Haram hurmati jihatidin. Ul debdurki, [bu ish (tasavvuf ishi) faqat qon hidi bilan qo‘lga kiradi][1].

Va ham aning so‘zidurkim, [e’tikof (masjidda ma’lum kunlar yashab, ibodat qilish) Haq farmonla-ri asosida a’zolarni pok saqlashdir][2].

Va ham ul debdurki, ulki darveshlar suhbatig‘a tavongarlar suhbatin ixtiyor qilsa, Haq s. t. ani murdadilliqqa mubtalo qilg‘ay.

Va ham Shayx Abu Usmon q. s. so‘zidurkim, [Osiy (gunohkor) mudda’iy (da’vogar)dan yaxshi, chunki osiy doimo tavba yo‘lini axtaradi, mudda’iy esa, doimo da’volarining xayolida yanglishib yuradi][3].

89. Abu Tolib Ihmimiy r. t.

Bu qavmning mashoyixidindur. Abu Usmon Mag‘ribiy derkim, Abu Tolibni ko‘rdum. Qushlar bila so‘zlashur erdi. Va ham Abu Usmon debdurkim, bir safarda aning bila hamroh erdim. Yo‘lda sibo’din xavf bo‘ldi. Men dedim: Qo‘nmay, botroq o‘tayli. Ul tavaqquf qilib qo‘ndi. Kecha men vahmdin uyumadim, ul farog‘at bila uyudi. Tonglasi mendin so‘rdikim, nega uyumading? Dedimkim, sibo’ xavfidin. Dediki, har kim Tengridin qo‘rqsa, o‘zga hech nimadin qo‘rqmas. Ul munojotida debdurki, ilohi, agar sening amring bo‘lmasa erdi, kimga zahra bo‘lg‘ay erdikim, buzurgvor otingni tilga mazkur

qilg‘ay?

90. Talha b. Muhammad Saboh Niliy.

Abu Usmon Hiriy ashobining kiboridindur. Uch yuz ikkida dunyodin o‘tti. Abu Usmon Mag‘ribiy q. s. anga dediki, tilarsanki, sanga bir pand bergaymenki, ellik yildurki, elga ul pandni beradurmen, qabul qilmaydurlar. Ul dediki, tilarmen. Dediki, tuhmat kirdoringga qo‘y, to qiymat tutqay va tuhmat xalqdin ol, to nizo oradin chiqqay. Ul qabul qildi va dedi: base kushodlar bu nasihat bobidin topdim.

91. Abulabbos b. Masruq r. t.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Muhammad Masruq, Tusdindur. Bag‘dodda sokin bo‘ldi va ikki yuz to‘qson to‘qqizda olamdin o‘tti, vallohu a’lam. Junayd q. s. andin hikoyat aytur, Abu Ali Rudboriyning ustodlaridindur va Sariy Saqatiy va Muhammad Mansur Tusiy va Muhammad b. Husayn Barjaloniy bila suhbat tutubdur. Va qavmning qudamoyu kiboridindur. [Undan tasavvuf haqida so‘radilar, aytdi: qalbni iloji bor narsadan xoli qilish va iloji yo‘q narsaga (Haqqa) bog‘lashdir][1].

Va ham ul debdurki, [kimki tadbirii tark qilsa, rohatda yashaydi][2].

92. Abulabbos Mo‘razan Bag‘dodiy q. s.

Shayx ul-islom oydin naql qilibdurki, ul debdurki, nafsingni mashg‘ul qil andin burunki, ul seni shug‘lg‘a solg‘ay!

93. Abu Abdulloh Mag‘ribiy q. t. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Muhammad Ismoil. Debdurlarki, Ibrohim Xavvos va Ibrohim Shaybon Qirmonshohiy va Abu Bakr Baykandiy q. s.ning ustodidurva Abulhusayn Ali Razzinning shogirdi, hiraviydur. Va umri yuz yigirma ikki yilda tortti va ustodi Abulhusayn yuz yigirma yashadi. Va Abu Abdullohning qabri Turi Sino tog‘i ustida, ustodi Abulhusayn qabri yonida, xarnub yig‘ochi ostidadur. Ikki yuz to‘qson to‘qqizda dunyodin o‘tibdur. Shayx ul-islom debdurki, ul hargiz qorong‘ulik ko‘rmaydurki, elga qorong‘u bo‘lganda, anga yoruq erkandur. Aning so‘zydurkim, ul Tengri haqqiki, Abu Abdullohni yaratibdurki, Tengri agar mendin shahvat ma’unatin olsa, manga andin yaxshiroqdurkim, aytsakim, behishtga kir! Bu ham ul so‘zdurkim, Amir ul-mo‘minin Aly k. v. debdurkim, agar meni behishtga kirmak bila masjidga kirmak orasida muxtor qilsa, men masjidga kirarmen. Abu Abdulloh debdurkim,, [amallarning afzali – vaqtni ahkomlarga muvofiq o‘tkazmoqdir} Va ham ul debdurki, dunyodin munsifroq ko‘rmadim. Agar anga xidmat qilsang, ul ham sanga xidmat qilur va agar tarkin tutib, sidq bila Tengri qullig‘ig‘a mashg‘ul bo‘lsang, aning sharridin emin bo‘lursen, ya’ni ul sening tarkingni tutar.

94. Abu Abdulloh Nebojny r. t.

Oti Sa’d b. Yaziddur va Zunnun Misriy aqronidindur va Ahmad Abil Havoriy ustodlaridin. Ul debdurki, [adab–himmatlilarning ziynatidur][1].

Va ham ul debdurki, [har bir narsaning vazifasi bor, dinning vazifasi adabdur][2].

95. Abu Abdulloh Antokiy – q. t. s.

Oti Ahmad b. Osim Antokiydur va qavmning a’yonu sodotidindur. Shariat ilmig‘a olim, qudamoyi mashoyix bila suhbat tutubdur! Va tobiin atbo’ig‘a musharraf bo‘lubdur. Bishr Hofiy va Sariy Saqatiy aqronidin ermish va Horis Muhosibiyning muridi va Fuzayl Ayoz suhbatig‘a yetibdur. Shayx ul-islom debdurki, anga hech kishining hech ishidin hargiz hasad bo‘lmaydur, Illo orifona ma’rifatdin, yo‘q tasdiqi ma’rifatdin.

Shayx Abu Ali Daqqoq debdurki [rasmiy ma’rifat yozgi yomg‘irga o‘xshaydi: na bemorga shifo beradi va na chanqoqni qondiradi][1].

Va ham Antokiy debdur, [faqrning manfaatlirog‘i u bilan ziynatlanganing va u bilan rozi bo‘lganing][2].
Faqrning nofe’rog‘i uldurkim, sen oning bila mutajammil bo‘lg‘aysen va onga rozi, ya’ni xalqning kamoli asbobning isbotidadur va faqr jamoli asbobi nafyi va musabbib isbotida va anga ruju’da va rizo aning ahkomig‘a. Negakim, faqr sababi – naqddur va g‘ino sababi–vujud va sababsiz Haq biladir va sababliq o‘zi bilan. Bas, sabab hijob mahalli bo‘lg‘ay va besabablig‘ kashf mahalli.
Va ikki jahon jamoli kashfu rizodur va olam noxushlig‘i hijobu saxatda va bu vozih bayonidur, faqrning g‘inog‘a tafzilining, vallohu a’lam.

96. Mumshod Dinavariy q. s.
Uchunchi tabaqadindur. Iroq mashoyixining buzurglari va javonmardlaridindur. Yahyo Jallo va kibori mashoyix bila suhbat tutubdur. Va Junayd va Ruvaym va Nuriy q. s. aqronidin ermish. Debdurlarki, ikki yuz to‘qson to‘qqizda dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki,
Haq s. t. orifqa sirrida bir ko‘zgu beribdurki, har qachon ul ko‘zguga boqsa, ani ko‘rgay. Shayx ul-islom debdurki, anga mo‘min ko‘nglida bir yerdurki, andin o‘zga onda yetmas, chun tafriqaga qolgay, ul yerga bozgasht qilsa, osoyish topqay. Mumshod debdurkim, qirq yildurkim, behishtni va har ne andadur manga arz qiladurlar, ko‘z uchini ul yon oriyat bila solmaymen. Shayx ul-islom debdurkim, aning suhbat va huzurida aning g‘ayrig‘a boqmoq anga shirkdur. Va Tengri taolo Paig‘ambarig‘a s. a. v. dedikim, [(Payg‘ambarning) ko‘zi (o‘ngu. so‘lga) og‘gani ham yo‘q, o‘z haddidan oshgani ham yo‘q. Olloh deb ayt, so‘ngra ularni tark et][1]. Va ham Mumshod debdurki, har kim aning do‘stlaridin biriga qilg‘ay kiyna, uqubat anga ul bo‘lg‘ayki, ulcha ul do‘stiga beribdur, hargiz ul munkirga bermag‘ay. Va ham ul debdurki, [Muridga lozim bo‘lgan adablar: mashoyixlarni hurmat qilish, birodarlarga xizmat qilish, sabablardan qutilish va shariat odoblarini saqlash][2].

97. Hasan b. Ali Musuhiy q. t. s.
Kuniyati Abu Alidur. Debdurlarki, Junayd va Abu Hamzaning ustodlaridindur va alarning aqronidin xud bor. [Sariy Saqatnyning kibor ashoblaridin][1]. Junayd debdurki, Hasan Musuhiyg‘a bir nima dedim unsdin. Dedikim, agar xalq bir yo‘li o‘lsalar, mening ko‘nglimga malolat kelmas va vahshat yuzlanmas. Lisammun al-Muhibb: [Ey nafsim, o‘zga narsalarday voz kechib, Haq bilan bo‘l! Chunki hayot, ayshu ishrat u bilan ulfat bo‘lish va tasalli topishdir][2].

98. Ahmad b. Ibrohim Musuhiy q. t. s.
Aning kuniyati ham Abu Alidur. Bag‘dod mashoyixining ajillasidindur. Va Sariy Saqatiy bila suhbat tutubdur va andin hikoyat aytur va rivoyat qilur va Hasan Musuhiydin ham. Va debdurlarki, ul bir ko‘nglak va bir rido, bir na’l bila har yil haj qilur erdi, rikva va ko‘za ko‘tarmas erdi, andin o‘zgaki bir olma olur erdi. Bag‘doddin Makkagacha ani islab o‘tkarur erdi. Ul debdurki, [Allohu taolo bandasiga so‘ramagan narsasini bersayu u rad qilsa, Alloh bandani rad etganiga monand boshqa bir narsaga muhtoj etib, uni tilovchi qilib qo‘yadi][1].

99. Ruvaym r. t.
Ikkinchi tabaqadindur va kuniyati Abu Muhammaddur. Va Abu Bakr va Abulhasayn va Abu Shaybon ham debdurlar. Bag‘dodning mashoyixining kiboridindur. Faqih erdi, Dovud Isfahoniy mazhabida. Shayx ul-islom debdurki, ul o‘zin Junaydning shogirdi ko‘rguzur erdi, ammo aning yoronlaridindur va andin uluq. Va Abu Abdulloh Xafif q s. debdurki, hargiz ko‘zum kishi ko‘rmaydurki, tavhidda so‘z aytqoy, andoqki, (Ruvaymdan tasavvuf haqida so‘radilar. Aytdi: Mutasavvif biror narsani o‘ziniki deb bilmaydi va hech kim unga egalik qilolmaydi. Va yana aytdi: Tasavvuf ikki narsaning birini ikkinchisidan ortiq ko‘rmaslikdir][1]. Va debdurlarki, Ruvaym umrining oxirida o‘zin dunyo ahli orasida yashirdi, ammo ul shug‘l ani mashg‘ul qilmadi. Junayd debdurki, biz forig‘i mashg‘ulbiz va Ruvaym mashg‘uli forig‘. «Futuhot»da mazkurdurkim, Ruvaym dediki, [kimki, so‘fiylar bilan birga o‘tirib,

ularning haq deb bilgan narsasiga qarshi chiqsa, Allohu taolo uning qalbidan iymon nurini tortib oladi][2]. Abu Abdulloh Xafif aning xidma tig‘a bordi, qayturda Ruvaym ilgin aning egniga qo‘yub dedikim, ey o‘g‘ul, bu ish jon fido qilmoqdur, zinhor so‘fiyaning turrahotig‘a mashg‘ul bo‘lmag‘aysen. Shayx ul-islom debdurki, jon fido qilmoq ul ermaskim, g‘azog‘a borgaysen, to seni o‘lturgaylar, uldurki, Haq taolo bila jon uchun munozaat qilmag‘aysen. Jon va ko‘ngul va boshni aning yo‘lida qo‘yg‘aysen va hanuz o‘zingni muqassir bilg‘aysen, yo‘qki, oz ranjki ondin sanga yetushsa, shikoyat qilg‘aysen.

Birav Ruvaymdin so‘rdikim, [ahvoling qanday?][3]. Ul dediki, [kimniki, dini – hoyu-havas, himmati – dunyo bo‘lib, o‘zi–solih taqvodor va pokiza oriflardan bo‘lmasa, uning holi qanday bo‘lishi mumkin?][4].

Shayx ul-islom Xarrozdin so‘ngra Ruvaymni tutubdur va andin so‘ngra Junayd bila Nuriyni.

100. Yusuf b. Husayn Roziy q. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Ya’qub. Ray va Jibolning shayxi erdi. Uz zamonida bu toifag‘a imom va tariqi malomat tavrida erdi. Xalqni o‘zidin mutanaffir qilmoq va elning qabulin o‘zidin buzmoqda tlohir erdi. Zunnun Misriy shogirdidur va Abu Turob Naxshabiy va Yahyo Ma’oz Roziy bila suhbat tutubdur va Abu Said Xarroz bila safarda rafiqlik qilibtur va arolarida Junayd bila mukotabot voqe’dur. Uch yuz uchda yo to‘rtda dunyodin o‘tubdur. Utar chog‘da dedi: Ilohi, xalqni sanga dalolat qildim jahd bila va o‘zumga qila olgancha, jafo qildim.Saning uchun. Meni bulardin biriga bag‘ishla.

Utgandin so‘ngra bu toifadin birov oni voqe’da ko‘rub, holin so‘rdi. Dedikim, Haq taolo manga ayttikim, ul so‘zni yana ayt! Aytqondin so‘ngra ayttikim, sani sanga bag‘ishladim va o‘zi va oning orosida vosi-ta kelturmadnkim, oning bila bu toifa orasida vasila ra vosita o‘zi-o‘qdir.

Yusuf b. Husaynning so‘zidurkim, [barcha yaxshiliklar uyiing ichkarisida, uning kaliti tavozu’dir. Barcha yomonliklar ham uy ichkarisida. Uning kaliti, esa, takabburlikdir][1].

Bu faqir o‘zum bu naqlni koshifi ulumi rabboniy Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s.dan eshittimkim, Nishoburda so‘fiy bor ermish. Zohidki, safoyi vaqti onga dast bergay ermish. Bir do‘sti bor ermish, bozurgon va ul bir safarga mutavajjih ermish. Ammo bir turkiyasi bor ermish, jamilakim, oni o‘zi bila elta olmas ermish va shaharda dog‘i qo‘yarda hech yerga e’timodi yo‘q ermish. Ul so‘fiyni mu’tamad deb, oning qoshida amonat topshurub, safarga bormish. Ul so‘fiy oni ko‘rgach, volih bo‘lib, alqissa safoyi vaqtin barbod bermish. Bu xusronzadaliqdin nodim bo‘lib, tavba qilib, mashoyix xizmatig‘a borib, o‘z dardin aytib, iturgonining ilojin tilamish. Borcha muttafiq o‘tmishlarkim, bizing ilgimizdin kelmas. Magar imom Yusuf b. Husayn Roziy bu ishga iloj qilg‘ay. Ul so‘fiy Yusuf b. Husayn xizmatig‘a Rayg‘a borurdin o‘zga chora topmamish. Rayg‘a borib, imomni har kimdinki, so‘rmish va so‘ramish, javob bermishlarki, ul kofur va ul zindiq bila ne ishing bor? Alqissa, bir buzuqda imomni topmishkim, parishon zohir bila sochi, tirnog‘i yitilgan, chopon kiyib, saru po barahna qibla sari mutavajjix. Qur’on o‘qub, o‘lturub ermish. Muborak nazari so‘fiyg‘a tushgach, iturgon safoyi vaqti ko‘ngliga yuzlanmish. Yugurub, imomking ayog‘ig‘a tushub, savol qilmishki, sanga tengri mundoq biyik martaba beribdur. Sen nechuk o‘zungni mundoq jununi besaru polikka solibsanki, seni tilab ko‘rsalar, Ray ahli kofuru zindiq bila ta’bir qilurlar. Imom javob bermishkim, ul jihatdin bu oshuftalig‘ni ixtiyor qilibmanki, bozurgon mani yaxshi amin kishi sog‘inib, kanizagin kelturub, manga amonat topshurmag‘oy. So‘fiy xijil bo‘lib, yuzin yerga qo‘yub, savol qilg‘onidin istig‘for qilib, Nishoburg‘a yonmish, vallohu a’lam.

101. Abdulloh Hozir r. t.

Qavmning akobiridindur. Shayx ul-islom debdurki, ul Yusuf b. Husaynning tag‘oyisidur. Mashoyixiing qudamosidin va Zunnunning aqronidin va andin ulurroq. Aning bila Yusuf b. Husayn orasida so‘zlar borkim, barchada, martabada aning bukjroqlig‘i Yusuf b. Husayndin zohir bo‘lur. Kishi

tilasakim, ma’lum qilg‘ay, «Nafahot ul-uns»ni mutolaa qilsun, vassalom.

102. Sobit Xabboz q. t. s.

Mashoyixiing qudamosidindur. Junayd va Ruzaym bila suhbat tutubdur va Tengri yo‘li suluki tariqin alardin kasb qilibdur va payvasta alardin hikoyat aytur ermish.

103. Abu Sobit Roziy q. s.

Ulamo va qurro va fuqaroning mashohiridin ermish. Ul debdurki, bir kun bir majlisda bir tiflg‘a Qur’on ta’lim qiladur erdim. Yusuf b. Husayn q. s. anda yetib, dedikim, uyalmassankim, bir muxannasqa Qur’on ta’lim qilursen? Ko‘nglumga kechtikim, subho-nallah, bu tifl xud ma’sumdur, ajab so‘z bu ulug‘ kishining tiliga o‘tadur. Oz fursat o‘tti, ul o‘g‘lonni ko‘rdum, muxannaslar jamoati orasida alardin bo‘lib yuriydur erdi. Imom Yusuf b. Husayn xidmatig‘a borib, irodat iligi berdim.

104. Samnun b. Hamza Muhibb Kazzob q. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Imom ul-muhabbatdur. Kuniyati Abulhusayn va Abulqosim ham debdurlar. Uziga Kazzob laqab qo‘yub erdi, to bu laqab bila chorlamasalar, boqmas erdi. Muhabbat ilmida yagona erdi va ha-misha andin der erdi. Sariy Saqatiy va Muhammad b. Ali Kazzob va Abu Ahmad Qalonisiy q. a. bila suhbat tutub erdi va Junayd va Nuriy aqronidin ermish. Junayddin burun dunyodin o‘tibdur va ba’zi so‘ngra debdurlar. Ul debdurki, bandaning Haqqa muhabbati sofiy bo‘lmag‘ay, to zishtliqni barcha olamg‘a qo‘ymag‘ay. Va ham ul debdurki, [bandaning Haq taologa bog‘lanishining avvali – o‘zdan kechish, Haq taolodan ayri tushishning avvali esa, o‘z nafsiga bog‘lanishdir][1]. Derlarki, Samnun bir kun bu ikki baytni o‘qidikim,

n a z m:

[Sen mening maqsadimni seza turib, sirimni bilmoqchi va sinamoqchi bo‘lasan.
Menga sendan o‘zga kerak emas. Zero, qanday xohlasang, shunday sinayber][2].

Filhol ani bavl habsi bila imtihon qildilar, jazo qilmay sabr qilur erdi. Ul kecha aning ashobidin necha kishi tush ko‘rdilarkim, ul duo qilib, Haqdin shifo tilar erdi. Chun Samnun ani bildikim, maqsud ul ta’dibdin odobi ubudiyat va izhori ajzdur, yo‘qkim hol satri. Maktablar tegrasiga evrulub, atfolg‘a aytur erdikim, [Kazzob amakingiz haqida duo qilinglar!][3]. Bu hol bo‘la olurkim, Kazzoblik laqabig‘a bois bo‘lg‘ay va bo‘la olurkim andin so‘ngra bo‘lg‘ay.

105. Zahrun Mag‘ribiy q. s.

Taroblis ahlidindur. Muzaffar Kirmonshohiyning aqronidin. Bir-birining suhbatida Makkaga boribdurlar. Abu Abdulloh Mag‘ribiy Zahrun vasfida debdurki, javonmardlar orasida aningdek javonmarde ko‘rmadim. Shayx ul-islom debdurki, ul bir kun jamoati darveshlar bila tamoshog‘a chiqib erdi. Bu ikki baytni o‘qidilarkim,

she’r:

[«Zi Tavo»dan chaqnagan yashin mendan g‘aflat uyqusini daf’ qildi.
Bu joy sahilari pokiza, binolari obod, Salmo tushgan manzildir][1].

Eshitib xurush qildi va qichqirib sho‘r zohir qildi. Va yondi va dedikim, siz boringki, men tamoshomni qildim.

106. Arun b. Vassoba q. s.

Kuniyati Abulasba'dur. Shayx ul-islom debdurki Ahmad b. Abulhavoriy kitobida ko‘ribmenki, ul Makkada shayx erkandur va Shomda dunyodin o‘tibdur. Aning favtidin so‘ngra bu toifadin birov ani tush ko‘rub, holin so‘rubdur. Ul debdurki, hisobimni qildilar inchkalik bila, so‘ngra minnat qo‘yub, ozod qildilar.

107. Maymun Mag‘ribiy q. s.

[U Mag‘riblik sayyohlardan va qadnm mashoyixlardan. Abu Muso Dabiliy bilan safarlarda hamrohlik qilgan. Ajib alomatlari va karomatlari bor][1]. Aning raigi qora ermish, chun samo'g‘a kirar ermish, oqarar ermish. Anga dedilarki, holing samo'da evrulur. Ul dediki, ulcha manga zohir bo‘lur, sizga dag‘i zohir bo‘lsa, sizning ham holingiz mening holimdek bo‘lg‘ay. [Naql qilishlaricha, bir xaltasi bor erdi, nima istab, qo‘lini tiqsa, shuni olib chiqardi][2].

108. Sa'dun Majnun q. s.

Ato b, Sulaymon ayturki, bir yil Basrada qaht tushdi. El istisqog‘a chiqib erdilar, men ham bila erdim. Go‘ristonda bir un eshitdim, boqdim, ersa Sa'dun Majnun erdi. Go‘ristonda o‘lturub, ilgin tiziga urub, bir nima deydur erdi. Qoshig‘a borib, salom qildim. Dedi: [Va alaykum assalom, ey Ato. Ko‘zing oldidan pardani kim ko‘tardi?][1]. Va so‘rdikim, bu ne g‘avg‘odur? Dedim, qaht va qurog‘lik jihatidin xaloyiq istisqog‘a chiqibdurlar. Dedikim, [sur chalindimi yo o‘liklar ti-rildimi?][2] sen ham bular bila kelibsen? Dedim: bale! Dedi: [Nuroniy qalb bilan keldingmi yo bo‘m-bo‘sh qalb bilan?][3]. So‘ngra dedikim, tilarsenkim, men yog‘in tilagaymen? Dedim, bale, ne uchun tilamagaymen? De-di: Xudovando, mening kechagi rozim haqqi sanga! Filhol yog‘in tutashti. Dedi: Ey Ato, to urmag‘aylar qaytmaki, to urmag‘aylar, qaytmamak kerak.

109. Ato b. Sulaymon r. t.

Basraning zuhhodidindur. Uz zamonining buzurgi ermish. Bir kun bemor erdi; Kunaslikda yotib erdi. Dedilarki, neuchun ko‘lagaya borib yotmaysen? Dedikim, tilarmenki, soyag‘a borg‘aymen, ammo qo‘rqarmanki, degaylar, bir qadam nafs komi uchun bording!

110. Ali b. Sahl Azhar Isfahoniy r. t.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abulhasandur. Isfahon mashoyixining qudamosndindur. Yusuf Bannoning shogirdi va Junayd q. s.ning aqronidin ermish va arolarida makotibatu risolat bor ermish va Abu Turob Naxshabiy bila suhbat tutubdur. [U qattiq riyozat chekardi. Farovon nozu ne'matga ega bo‘lsada, yigirma kunlab yeyish-ichishdan tiyilardi. Kunlarni uxlamasdan, iztirob bilan o‘tkazardi][1] Ul debdurki,]aslo ehtilom bo‘lmadim. Faqat tushimda bir ayolni voliysi va ikki guvoh huzurida nikohlab olganimdan keyin ehtilom bo‘ldim][2].

Bir qatla Umar b. Usmon Makkiyga Makkada o‘ttuz ming diram burj bo‘ldi. Isfahong‘a Ali Sahl qoshig‘a keldikim, shoyad anga bu burj adosida madade qilg‘oy. Ali Sahlga ma'lum bo‘lub erdi. Ul vajhni saranjom qilib, Makkaga Umarning burjlug‘ig‘a yubordi va oni ziyofat qilib uzotti. Ul Makkaga borurda hamisha ko‘nglida ul burjluq tafriqasi erdi. Makkaga yetgach, burjni o‘tolgan topti va ko‘ngli tindi. Shayx ul-islom debdurki, Ali Sahl ul ishni uzrxohlik va shukr-guzorlig‘ yuki biymidin qildiki, hech ozodamard oni torta olmas. Ul debdurki, bizning qoshimizda ravo emaski, bu toifani darvesh degoylarkim, bular xaloyiqning tavongarlaridurlar. Shayx ul-islom debdurki, haq subhonahu va taolokim, to‘nning yaxshirog‘in ag‘niyog‘a beribdur, to‘nning farrini darveshlarg‘a beribdur va pokiza taom agar ag‘niyog‘a beribdur, taomning lazzatin bularg‘a beribdur. Ali b. Sahldin so‘rdilarki, balo kunin yod bilurmusen? Dedi: nechuk yo‘q. Ul xud go‘yo tuno-kun erdi. Shayx ul-islom debdurki, so‘fig‘a bu so‘zda nuqsdur. Tuno-kun, tongla ne bo‘lg‘ay? Ul kunga hanuz kecha kelmaydur. So‘fi hanuz ul kundadr

111. Muhammad b. Yusuf Banno q. s.

Kuniyati Abu Abdullohdur. Derlarki, ul uch yuz shayxdin hadis kitobat qilib erdi. Chun xilvatu inqito' irodati onga g'olib bo'ldi. Makka azimati bila. chiqdi va bodiyani tajrid bila qat' qildi. Debdurlarki, ul kunduz bannolig' kasbig'a mashg'ul erdi. Ulcha hosil qilsa erdi, kecha ondin muhaqqariy bahra olur erdi. Uzgasin fuqarog'a tasadduq qilur erdi. Bovujudi kasb ishtig'oli har kun Qur'onni bir xatm qilur erdi. Xufton namozin qilg'andin so'ngra o'toqg'a borur erdi va ko'p aytur erdikim, xudoyo, manga o'z oshnoli-gingni va ma'rifatingni nasib qil! Yo bu toqqa amr qilki, yuqori chiqyb, maning boshimg'a yemrulsunki, saning shinosolig'ing va ma'rifatingdin ayru manga tiriklik kerakmas! Junayd q. s. aning fazlu kamolig'a qoyil ermish. Shayx Ali Sahl Isfahoniyg'a yuborgai risolatda bitib erdikim, [shayxing Abu Abdullohdan so'ragin, kim sendan g'olibdur?][1]. Chun shayx Ali Sahl Isfahoniy andin savol qildi. Ul dedikim, javobyda bitikim, [Alloh o'z ishida g'olibdur][2].

112. Muhammad b. Foza r. t.

KuniyatiAbu Ja'fardur. Muhammad b. Yusuf Bannoning shogirdlaridindur. [Ibodatda buyuk mujtahid. va infoq-ehson qilishda saxiy edi][1]. Har kun Qur'onni uch xatm qilmoq virdi erdi. Anga otadin ko'p meros qoldi. Yillar Muhammad b. Yusufning, o'zining va iyolining ma'unatin yetkurur erdikim, ul bilmas erdi. Bir do'sti bor erdi va anga buyurub erdikim, har ne aning xarji maoshidur anga yetkurgay. Andoqki, ul vo-qif bo'lmag'aykim, qoydiq yetadur. Bir kun Muhammad b. Yusuf ul do'stdin so'rdikim, oyo, kimdurky bizning boramizda bu ehson qiladur? Ul dedikim, Muhammad Foza. Ul duo qildikim, [Alloh ungamen tomonimdan eng yukeak mukofot bersin][2]. Azize debdurkim, qish o'rtasida Muhammad Foza qoshig'a bordim. Ko'nglokchan o'lturub erdi. Dedim: [Yo Abu Ja'far, to'ngmaysen? Dedi: Ilkingni keltur, degilki: «Lo iloha Illalloh»][3]. Ilik ko'ngloki ichiga eltib dedikim, [Illal-loh, Illalloh»][4]. Issig'din terlab erdi.

133. Sahl b. Ali Marvaziy r. t.

Ul erdikim, Abdulloh Muborak q. s.ning saroyiga bordi, dedikim, bu mutriba kanizaklarni nechun orosta qilib, tomning ustiga chiqaribsen va tushurmassen? Abdulloh Muborak q. s. dedikim, andoq qilay? Ul chiqqach, Shayx dedikim, aning sarvaqtig'a yetingkim, ham bu zamon dunyodin borg'usidur, Mening tomimda kanizaklar no'qdurlar va ul yolg'on aytmas, ul havrodirkim, behishtdin aning istiqbolig'a yiboribdurlar. Shayxning ashobi aning so'ngincha chiqqach, ul olamdin o'tub erdi. Andin so'rdilarkim, Haq taolo navozishlaridinkim, banda borasida qilur, qaysi ulug'roqdur? Dedi: ko'ngul farog'atikim, Mustafo s a. v. debdur-kim, [tansihatlik va xotirjamlik – ikki ne'matdurki, ko'p odamlar uning qadriga yetmaydilar][1].

314. Ali b. Hamza Isfahoniy Halloj q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul Halloj ermas erdi; Husayn Mansurdek Isfahonda Muhammad b. Yusuf Bannoning shogirdi erdi. Isfahondin Haj azimati qildi. Hajdin qaytib, Basraga yetganda, Muhammad b. Yusuf Bannoning favtining xabarin eshitti va qattig' malul bo'lib, Isfahon azimatini tark etib, Basrada sokin bo'ldi. Sahl b. Abdulloh Tustariy q. s.ning ashobi orasida bo'lur erdi. Bir kecha Mustafo s. a. v. nn tushta ko'rdikim, Sahl b. Abdulloh Tustariyg'a iltifot qiladur erdi. Ul yugurdi ul Hazrat sari. Ul Hazrat aning sari boqib, lutf ko'rguzub keldi. Va Sahl Abdullohni bu toifa so'ziga nisbat berib, tashrif qildi. Anga o'xsharki, Sahl Abdullohning ruhiga tavajjuh qilmoqqa ishorat ekan, bo'lg'ayki andin tarbiyat topqay. Bu shodlig'din uyg'ondi. Shayx ul-islom debdurki, bu ishning muhabbati bu ishdur. Yaqindurki, bu ishning inkorini bu ish desa bo'lg'ay. Va ul G'ulom Xalil so'zidur. «Nafahot ul-uns»da o'qug'on ma'lum qilur:

115. Ali b. Shu'ayb Saqqo q. s.

Nishoburning Hirasidindur. Abu Hafs bila suhbat tutubdur. Debdurlarki, ul ellik besh Haj guzarlabdurkim, barchag‘a Nishoburdin ehrom bog‘labdur va har milda ikki rak’at namoz qilibdur. So‘rubdurlarki, bu namoz nedur? Debdurlarki, [ular o‘zlari uchun bo‘l-gan manfaatlarga shohid bo‘lish uchun][1]. bu naf’larim Hajjimdin anga.

116. Ali b. Muvaffaq Bag‘dodiy q. s.

Iroq mashoyixining qudamosidindur. Zunnun Misriy q. s.ni ko‘rub erdi. Shayx ul-islom debdurki, anga yetmish to‘rt Haj kelturubdurlar. Bir qatla Haj qilib, o‘z-o‘zi bila taassuf yuzidin aytur erdikim, ke-lurman va borurman. Ne ko‘ngul muyassaru ne vaqt. Men xud ne ishta ekanmen, ul kecha Haq subhonahu taoloni tush ko‘rarki, Haq ayturki, ey Muvaffaq o‘g‘li, bir kishinikim sen tilamasang, uyungga tilarmusen? Men ham seni tilamas bo‘lsam erdi, uyumg‘a qo‘ymas erdim. Ul debdurki, Xudoyo, agar seni do‘zax qo‘rqunchidin parastish qilur bo‘lsam, mani do‘zaxga tushur. Va agar behisht umididin parastish qilur bo‘lsam, behishtga tushurma. Agar sening mehring jihatidan parastish qilur bo‘lsam, bir diydor ko‘rsat. Uzga ne qilsang qil!

117. Abu Ahmad Qalonisiy q. t. s.

Mashoyixiing qudamosidindur. Oti Mus’ab b. Ahmad Bag‘dodiy. Debdurlarki, asli Marsdindur. Junayd va Ruvaym q. s.ning aqronidindur. Va ta’rixdadurkim, ul ikki yuz to‘qsonda Haj qilib yondi va oz vaqtdin so‘ngra Bag‘dodda dunyodin o‘tti. Chun ul bemor bo‘ldi, muhtazar ekanda dedikim, Xudoyo, sening qoshingga agar mening qadrim bo‘lsa, o‘lumum baynalmanzlaynda bo‘lsa erdi. Ham ul zamon zarurati voqe bo‘ldikim, ani bir mihaffag‘a solib, yana bir manzilga eltur bo‘ldilar, yo‘lda dunyodin o‘tti.

118. Abulg‘arib Isfahoniy q. s.

Muhaqqiqlardin erdi, oyot va karomat sohibi. Ishqda ayni jam’g‘a yetib erdi. Ani Hululiy derlar. Shayx Abu Abdulloh Hafif q. s. oni sevar edi. Sherozda bir marazda o‘z hayotidin navmid bo‘ldi. Va ashobig‘a dedikim, sizga bir hojatim bor. Ravo qilurmusiz? Dedilarkim, ayt. Dedi: Men o‘lsam, meni juhudlar go‘ristonida dafi qilinglar. Ashob mutahayyir bo‘ldilarkim, bu ne so‘zdur? Dedi: Tengridin tilab er-dimkim, agar saning qoshingda qurbum bo‘lsa, mani Tarsusda ul olamg‘a elt. Holo munda o‘ladurmen. Bildimki, oning qoshida hech qadrim yo‘q ermish. Bu so‘z mazkur bo‘lg‘ach, sihat osori mizojida paydo bo‘ldi. Va oz kunda tamom sihat topib, Tarsusg‘a bordi va anda dunyodin o‘tdi.

119. Abu Abdulloh Qalonisiy r. t.

Bu toifaning akobiridindur. Budurki, jamoate bila kemada erkandurkim, muxolif yel esib, guvalak bo‘lubdur va ul jamoat tazarru’ bila nazrlar qilibdurlar. Anga ham debdurlarkim, sen ham bir. nazr qil. Ul chun olam asbobidin mujarrad ermish, g‘aybdin tiliga muni solibdurlarki, agar bu balodin najot bo‘lsa, nazr qildimki, pil eti yemagayman». Nogoh amvoj taskin topib, ul kema ushalib, qavm bir taxta ustida bir sohilg‘a chiqibdurlar. Bir-ikki kun o‘tgandin so‘ngra ul elga ju’ mustavli bo‘lib, maxmasa holig‘a yetganda beshadin bir pilbachcha paydo bo‘lubdur. Xalq oni sayd qilib, ulashib yebdurlar. Ul ahdig‘a vafo qilib, yemaydur. Ul el bir zamon uyug‘ondin so‘ngra beshadin pilbachchaning onasi paydo bo‘lub, bolasining so‘ngoklarin ko‘rub, ul elni birin-birin islay boshlabdur. Har qaysidinki, bolasining isin tonibdur, ayog‘i birla yerga surtub, zoe’ qilibdur. Chun navbat anga yetibdur. Ondin ul isni topmaydur. Uchasin nast qilib, xartumi bila ishorat qilib, orqasig‘a mindirib, yo‘l qat’ qila boshlabdur. Tamom kecha yo‘l yurub, saboh bir obodonliqqa yetib, oni orqasidin tushurub, qaytibdur. Ul xaloyiq taajjub yuzidin ondin ul hol kayfiyatin so‘rubdurlar. Ma’lum qilg‘ondin so‘ngra, sakkiz kunchilik yo‘l ermish, bir kechada kelgan ermish, vallohi taolo a’lam.

120. Abu Abdulloh Jallo q. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Yahyo Kallodur. Abu Turob Naxshabiy va Zunnun Misriy q. s.ning shogirdidur va otasining ham. Va Abu Ubayd Busriy bila suhbat tutubdur. Va Duqqnyning ustodidur. Bu kun Abulxayr Taynotiy Abu Abdulloh Jalloni ko‘rdikim, havoda mig‘ ichinda borur erdi, ayttikim, tanidim. Ul dedikim, tanimading. Shayx ul-islom debdurki, Abulxayr shaxs tanimag‘in debdur va Abu Abdulloh maqom va sharaf tanimag‘in. Andin muhabbatdin so‘rdilar. Ul dedikim, [Mening muhabbat bilai nima ishim bor? Men tavbani o‘rganmoq istayman][1]. Va so‘rdilarkim, [Faqir faqr nomiga qachon sazovor bo‘ladi][2]. Javob berdikim, [uning o‘z nafsig‘a zohiriy va botiniy talablari qolmasa][3]. Shayx ul-islom debdurki, uch yuz murid Abu Turob Naxshabiy bila bodiyag‘a kirdilar rikvalar bila. Aning bila ikki kishi qoldi, Abu Abdulloh Jallo va Abu Ubayd Busriy q. s.

121. Abu Abdulloh Xoqots So‘fiy q. s.

Bag‘dod so‘fiyasining akobiridin erdi. Shayx Ja’far Xazzo debdurkim, ul sohib karomot erdi va ibn Qassob Roziydin naql qilibdurkim, debdurkim, Otamning Bag‘dod bozorida bir do‘koni bor erdi. Men do‘kon eshigida o‘lturub erdim. Nogoh birav o‘tti. Menga gumon bo‘ldikim, Bag‘dodning fuqarosidin bulg‘oy. Va men hanuz bulug‘ haddig‘a yetmaydur erdim. Xotirim oning sori tortti. Qo‘pub, anga salom berdim va bir diramim bor erdi, onga tutaberdim. Oldi va manga iltifot qilmay o‘tti. Men oning so‘nggicha bordim. To Shuniziya masjidig‘a yetdi. Onda fuqarodin uch kishi o‘lturub erdilar. Ul diramin alarg‘a berdi va o‘zi namozga turdi. Alardin biri ul diramg‘a bozordin borib yemak kelturdi. Yedilar va ul darvesh namozg‘a mashgul erdi. Chun alar taomdin forig‘ bo‘ldilar. Darvesh alarg‘a boqib, dedikim, bildingizmukim, mani na ish sizning muvaffaqiyatingnzdin mone’ bo‘ldi? Dedilar, yo‘q, ey ustod. Dedikim, bir kichik yoshlig‘ ul diramin manga berdi va men emdigacha haq subhonahu va taolodin tilaydur erdimkim, oni dunyo bandalig‘idin ozod qilg‘ay va ozod qildi. Ibn Qassob debdurki, men bexost oning ollida o‘lturub dedimkim, rost aytursan, ey ustod. Va ul Shayx xoqon So‘fiy erdi. Ikki yuz yetmish to‘qquzda dunyodin o‘tubdur.

122. Abu Ubaydulloh Busriy r. t.

Oti Muhammad b. Hassondur, Abu Turob Naxshabiy bila suhbat tutubdur. Ibn ul-Jallo r. t. debdurki, [olti yuzta shayx bilan uchrashdim, ulardan to‘rttasining o‘xshashini ko‘rmadim][1]. Zunnun Mnsriy va Abu Turob Naxshabny va Abu Ubayd Busriy va Abulabbos b. Ato. Debdurlarki, Ramazon oyi bo‘lg‘ach, Abu Ubayd bir uyga kirar erdi va buyurur erdikim, eshikni savob berkiturlar erdi va bir to‘shuk qo‘yarlar erdi va har kecha bir tah o‘tmak ul to‘shukdin solurlar erdi. Iyd bo‘lgochkim, eshikni ocharlar erdi, o‘ttuz o‘tmak uyining go‘shasida erdikim, bir oyda ne taom yeb erdi va ne suv ichib erdi. Va o‘ttiz kecha-kunduz bir tahorat bila namoz qilib erdi. Ul debdurki, [Ne’matlar Haqdin yiroqlashishga sabab bo‘ladi. Qimki, Haqqa ne’matlari uchun shukr qilsa, ne’matlarsiz qolganida ham shukr qiladi. Balo Haqqa yaqinlashishga sabab bo‘ladi. Agar kimniki, balo yomon yo‘lga boshlagan bo‘lsa, u Haqdan yiroqlashadi)[2]. Bir kun o‘lturub erdi. Bir otlig‘ o‘tub borur erdi. Keynicha bir qul qo‘ngranib, g‘oshiya egnida, yugurur erdi. Chun anga va ashobig‘a yetishti dedikim, [Allohim, meni ozod et va uning dastidan xalos qil][3]. Abu Ubayd ham dedikim, [Allohim, uni do‘zax olovidan va qullikdan qutqar][4]. Filhol ul otlig‘ni ot yiqti. Otlig‘ ul qulg‘a boqib dedi: seni ozod qildim. U qul dedikim: meni sen ozod qilmadingki, bu jamoat ozod qildilar, deb Abu Ubayd va ashobig‘a boq-ti. Va to umri bor erdi, alardin ayrilmadi.

123. Abu Abdulloh Sijziy q. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Abu Hafz bila suhbat tutubdur. Va borlar bodiyani tavakkul qadami bila qat’ qilibdur. Ul debdurki, [Avliyoning uchta alomati :bor: ulug‘likda – tavozu’, boylikda – zohidlik, kuchu-quvvatda – insof]!.

Va ham ul debdurki, voizki, tavongar aning majlisidin muflis va muflis, aning. majlisidin tavongar chiqmag‘ay ul voiz ermas. Ondin so‘rdilarki, futuvvat nedur? Dedikim, xaloyiqni ma’zur tutmoq.

Ulcha alarga o‘tar va o‘z taqsirin ko‘rmak va shafqat borcha elga ne solih, ne tolih. Va futuvvatning kamoli uldurki, kishini xalq Tengridin mashg‘ul qila olmag‘aylar.

Birov anga dedikim, agar sanga bir filuri bersam, nechuk bo‘lg‘ay?

Dedikim, agar bersang, senga yaxshi bo‘lg‘ay va agar bermasang, manga yaxshi bo‘lg‘ay.

124. Abu Abdulloh Xusriy q. s.

Basradindur, Shayx Fath Mavsiliy q. s.ning shogirdidur. [Xusriy naql qiladi: Fath Mavsiliydan eshitdim, u aytdi: abdollardan bo‘lgan o‘ttizta shayx bilan suhbatlashdim. Ularning har biri xayrlashayotganda: «Zinhor yoshlar bilan ulfatchilik qilma!» – deb nasihat qildilar]!

125. Ja’far b. Mubarqa’ q. s.

Bu toifaning mashoyixining ulamosidindur. [Abu Abdulloh naql qildi: Ja’fardan eshitdim, aytdi: «Uttiz yildan beri astoydil «Alloh» deydigan kishini izlayman, topolmayman»][1].

126. Ali b. Bundor b. Husayn So‘fiy Sayrafiy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Kuniyati Abulhusayn. Nishoburning mutaaxxir mashoyixidindur. Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridin arjumand ermish. Nishoburda Abu Usmon Hiriy va Mahfuz bila suhbat tutubdur va Samarqandda Muhammad Fazl Balxiy bila va Balxda Muhammad Homid bila va Jurjonda Ali Jurjoniy bila va Rayda Yusuf b. Husayn bila va Bag‘dodda Junayd va Ruvaym bila va Simnonda Ibni Ato va Jaririy bila va Shomda Tohir Maqdisiy va Ibni Jalo va Abu Amr Dimishqiy bila va Misrda Abubakr Misriy va Abubakr Daqqoq va Abu Ali Rudboriy q. r. bila suhbat tutubdur va bu nav’ mashoyixi kiborga musharraf bo‘lubdur va hadisda siqa ermish. Uch yuz ellik to‘qqizda dunyodin o‘tibdur. Bir qatla Shayx Abu Abdulloh Hafif bila bir tor ko‘prikka yetishtilar. Shayx dedikim, ilgari yuru va ul dedi: sabab nedur? Shayx dedikim: Sen Junaydni ko‘rubsan va men yo‘q. Shayx ul-islom debdurki, bu toifag‘a ulug‘ nisbat mashoyix diydoridur va pirlarning suhbati. Ali Bundor debdurkim, [balo ustiga qurilgan uyiing balodan xoli bo‘lishi mahol][1]. Va ham ud debdurkim, [Haqni talab qilish oson. Ammo uni topish uchun ikki dunyodan kechish kerak][2].

Va ham ul debdurki, xalqning muxolafatidin yiroq bo‘l va har kimki Tengri aning bandalig‘ig‘a rozidur, sen ham aning qardoshlig‘ig‘a rozi bo‘l.

127. Muhammad b. Fazl Balxiy q. s.

Ikkinchi tabaqadindir. Kuniyati Abu Abdulloh Balxiyul-asl. Mutaassiblar ani Balxdin chiqardilar, begunoh, mazhab jihatidin. Abu Usmon Hiriy q. s. anga bitibdurki, shaqovat alomati nedur? Ul javob bitibdurki, uch nimadur: biri ulki, kishiga ilm bergaylar va amal tavfiqi bermagaylar va amal bergaylar va ul amalda ixlosdin mahrum qilg‘aylar va Haq s. t do‘stlari suhbatin topqay va ikrom va ehtirom tariqin bajo kelturmagay. Abu Usmon q. s. debdurki, [Muhammad fazilatli odamlarning qadrini bilguvchi edi][1].

Va ham aning so‘zidurkim, [Odamlarning ma’rifatlisi shariat amrini sidqdan bajaradigani va sunnati saniyaga tobe’ bo‘ladiganidir][2].

128. Muhammad b. Ali Hakim Tirmiziy q. t. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordindur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Xuzravayh va ibn Jallo bila suhbat tutubdur va ko‘p hadisi bor va zohir karomoti va tasnifi dag‘i bor. Ul jumladin «Xatm ul-valoyat»! kitobi va «Nahaj» kitobi, «Navodir ul-usul va mundin o‘zga ham kitoblari bor va zohir ulumida ham kutubi bor va bir tafsir ham ibtido qilg‘ondur. Ammo itmomig‘a umr vafo qilmaydur va Xizr a. s. bila suhbat tutar ermish. Abubakr Varroqkim, oning shogirdidur, rivoyat qilurkim, har yakshanba Xizr aning bila kelib, muloqot qilur erdi va voqe’lar bir-birlariga ayturlar erdi va so‘zlashurlar erdi. «Qashf ul-mahjub» kitobining sohibi aning vasfida

mubolag‘a ko‘p qilur. Ul debdurki, mening pirim der erdikim, Muhammad Durri yatimdurki, olamda adili yo‘qdur.

Ul debdurkim, [Menga nisbat berishlarini o‘ylab biror harf yozmadim. Faqat yuragim siqilgan, ishim yurishmagan kezlari tasalli topish uchun yozar edim][1]. [Kimkn, bandalik sifatlarini bilmasa, u Haq sifat-larini bilmaydigan nodonroqdir][2].

Va ham ul debdurki, Haq s. t.ning muhabbatining haqiqati uns davomidur. [Undan fe’liy va zotiy sifatlar haqida so‘radilar. Aytdi: Har narsaki, ortmoq, kamaymoq ehtimoli bor – fe’liy sifatdan. Har narsaki, ortmasa, kamaymasa – zotiy sifatdan. Undan isor haqida so‘radilar. Aytdi: Boshqalarning nasibasini o‘zingnikidan ortiq ko‘rmog‘ing! Yaqin haqida so‘radilar: Aytdi: Qalbning Alloh va uning amrlari bilan qaror topishidir. Shukr haqida aytdi: Shukr – qalbni mun’im–ne’mat sohibi Allohga bog‘lashdir][3].

Hazrag Xoja Bahouddin Muhammad Buxoriy al» ma’ruf Naqshband q. t. a. vaqtiki, o‘z mabodiyi ahvolu sulukidin hikoyat ayturlar ermish va mashoyixi ,kibor arvohig‘a o‘z tavajjuhlarining asarin bayon qi-lur ermish. Der ermishlarki, har qachon qudvat ul avliyo Xoja Muhammad Ali Hakim Tirmiziy ruhig‘a tavajjuh voqe’ bo‘lur erdi, ul tavajjuh asari mahzi beskfatlig‘ zuhuri erdi va har necha ul tavajjuhda sayr voqe’ bo‘lur erdi, hech asare va garde va sifats mutolaa tushmas erdi.

129. Ali b. Bakkor q. t. s.

Kuniyati Abulhasandur. Ibrohim Adham q. s. bila suhbat. tutubdur. Ul ashobdin biri bila yozig‘a o‘tun uchun chiqibdur va bir-biridin yiroqroq tushubdurlar. Sohibi har necha intizor tortibdurlar. Ul paydo bo‘l-maydur. Oqibat oni tilay asaricha boribdur. Ko‘rubdurki, ul o‘lturubdur. Ammo bir sabu’ aning tiziga boshin qo‘yub, uyubdur va ul oning chibinin qo‘riydur. Sohibi debdurki, qachong‘acha o‘lturursen? Ul debdurki. bu uyuqlag‘on, uyg‘ong‘uncha!

130. Abu Abdulloh Abbodoniy q. s.

Sahl b. Abdulloh Tustariyning shogirdidur. Va mashoyix xizmatig‘a yetibdur. Va Shibliy bila suhbat tutubdur va oralarida so‘zlar va ramzlar o‘tubdur va andin foyidalar topibdur.

131. Abu Abdulloh Hazramiy q. t. s.

Murta’ish debdurki, Abu, Abdulloh Hazramiydin tasavvufni savol qildim va yigirma yil erdikim, so‘z demaydur erdi. Manga Qur’on bila javob berdi va bu oyatni o‘qudiki, [mo‘minlar orasida Allohga bergan va’dalariga sodiq kishilar bordir][1].

Dedim: alarning sifati nechukdur? Dedi: [ko‘zlari o‘zlariga qaytmaydi, dillari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi][2].

Dedim: alarning mahali qaysi ahvoldindur?

Dedi: [albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar![3].

Dedim: orttur. Dedi: [o‘zing aniq bilmagan narsaga ergashma. Chunki quloq, ko‘z, dil – bularning barchasiga inson mas’uldir][4].

132. Abu Abdulloh Solimiy q. s.

Oti Ahmad b. Olim Basriydur. Sahl b. Abdulloh Tustariyning shogirdidur. Uttiz yil yo oltmish yil oning bila bo‘lur ekondur va tariqat andin kasb qilibdur. Andin so‘rdilarki, Avliyoullohni xalq orasida ne osoru alomot bila tanig‘aylar? Dedikim, takallumning latofati bila va xulqning xublig‘i bila va yuzning tozalig‘i bila, nafsning saxosi bila va e’tirozning qillati va uzrning qabuli bilaki, harkim, uzr etsa qabul qilg‘ay va shafqat tamomlig‘i bila barcha elga xoh solih va xoh tolih. Va hamul debdurkim, diydor do‘stluq kalidining minnatidur.

133. Abu Abdulloh Javporai Sufiy q. s.

Mashoyix kiboridindur. Javpora degan bir yerdir, Rumning sag‘rida. Ul debdurki, Shayx Abubakr Zaqqoq Misriydin so‘rdumki, suhbat kym bila tutay?.Dedi: Ul kishi bilakim, har ne Haq subhonahu taolo sendin bilsa, inkor izhor qilsang sendin rasida va mutanaffir bo‘lmag‘oy. Bir qatla Amir Kofur degan bir mablag‘ vajh shayx Abdulloh Javporag‘a yibordi. Ul olmadi va qaytardikim, Kofur cherikchi erdi. Ya’ni molida shubha bor erdi. Kofur ayttikim, [Yerdagi, osmondagi, bularning orasidagi va yer ostidagi (narsalar) xudonikiyu Kofurniki qaerda bo‘lsin?]1. Shayx ul-islom debdurki, Kofurning bu so‘zi kirdoridin yaxshiroq erdi. Ammo ul ham ul pir barakotidin erdi.

134. Abu Tolib Muhammad b. Ali b. Atiya Horisiy

Makkiy q. s. Ul «Qut ul-qulub» kitobining sohibidurki, tariqat asrorining majmaidur. [Aytishlaricha, Islom olamida tariqatning nozik ma’nolarini ochib bergan «Qut ul-qulub»dek boshqa asarni hech kim yozmagan. U yer yuzidagi eng ulug‘ joy – Makkada o‘sib, ulg‘aydi. Keyin Basraga ketdi. Undan Bag‘dodga o‘tib, uch yuz sakson olti hijriy yili, jumod ul oxir oyida vafot etdi]1. Va aning nisbati tasavvufda Shayx Abulhasan b. Muhammad b. Abu Abdulloh Ahmad b. Solim Basriyg‘adur. Va Shayx Abulhasanning intisobi o‘z otasi Abu Abdulloh Ahmad Solimg‘a va aning nisbati otasig‘adur– Sahl b. Abdulloh Tustariy q. s.

135. Abubakr Varroq Tirmiziy q. t. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Umar Hakim Tirmiziy. Asli Tirmizdindur. Qabri ham andadur. Ammo Balxda bo‘lur ermish. Abu Iso Tirmiziy tag‘oyisidur. Ahmad Xuzravayh bila suhbat tutubdur va ko‘p tasonifi bordur. Va «Tavrot» va «Injil» va «Qutbi rsmoniy»ni o‘qubdur va she’r devoni ham bordur. [Abubakr Varroq do‘stlarini safar va sayohat qilishga da’vat etmasdi. Aytardiki, irodat qilgan yeringda muridlig‘ing kamolga yetguncha sabr qilib turishing barcha barakotning kalitidur. Muridlik kamolga yetgach barakot boshlanady]1. Va ham oning so‘zidurkim, umaroning fasodi zulm biladur va ulamoning fasodi tama’ bila va fuqaroning fasodi riyo bila.

136. Abulqosim Roziy q. t. s.

Oti Ja’far b. Ahmad b. Muhammaddur. Nishoburda sokin erdi. Ibni Ato va Muhammad Abulhavoriy va Abu Ali Rudboriy bila suhbat tutubdur. Ko‘p moli bor erdi. Barchasin bu toifag‘a xarj qildi va darvesh dunyodin chiqdi. Ray mashoyixi debdurlarki, Abulqosimda to‘rt nima jam’ erdiki, o‘zgada yo‘q erdi. Jamol va mol va zuhdi bakamol va saxovatn tamom. Uch yuz yetmish sakkizda dunyodin o‘tubdur.

137. Abulqosim Hakim Samarqandiy q. t. s.

Oti Ishoq b. Muhammad Ismoilduo. Abubakr Varroq bila suhbat tutubdur. Yaxshi so‘zlari bor: muomalotda va nafs g‘aybida va a’mol ofotida. Uch yuz qirq ikkida muharram oyida dunyodin o‘tubdur va qabri Chokardiyzadadur.

Bir kun o‘lturub erdi va xalq orosida hukm qiladur erdi. Ul vaqt buzurglaridin biri oning ziyoratiga keldi. Oni ul nav’ mashg‘ul ko‘rub, sajjodasin davzliq suv yuziga solib, namozg‘a turdi. Chun forig‘ bo‘ldi. Shayx Abo‘lqosim anga aytdikim, ey qarindosh, munii xud yoshg‘inalar qilurlar. Er uldurki, muncha shug‘l orosida ko‘nglini Tengri jalla zikruhu bila asray olg‘ay.

138. Bakr Sug‘diy q. t. s.

Samarqandning Sug‘didandur. Bu toifadin Abubakr Varroq shogirdi. Ul debdurki, Abubakr Varroq karim kishi erdi. Tengrig‘a muzd uchun qulluq qilmish erdi ta’zim bila qilur erdi.

139. Solih b. Maktum q. s.

Ul dag‘i Abubakr Varroqning muridlaridindur. Balxdin erdi. Va Abubakr Varroq so‘zlaridin ko‘p

yodida erdi va doyim andin aytur erdi.

140. Abu Zarr Tirmiziy r. t.

Xuroson mashoyixidindur. Bu toyifadin ba'zi debdurlarkim, biz jam'i edukki, bir-birimiz bila suhbat tutar erdik. Har qaysimizga bir nima keraklik bo‘lsa erdi, Abu Zarr qo‘pub, namozg‘a turar erdi. Tengri ul nimani ham ul zamon yetkurur erdi.

141. Hoshim Sug‘diy q. t. s.

Ul dag‘i Samarqand So‘g‘didindur. Abubakr Varroq shogirdi. Ul piridin naql qilurkim, ul dedikim, ko‘p so‘z aytmak ko‘ngulni qattig‘ qilur. Shayx ul-islom dedikim, Abubakr Varroq dedikim, Muhammad Muslim Hasirbof mehmonlig‘da erdi, Yusuf Xayyot Tirmiziy bila mezbon bir ishqa mashg‘ul erdi. Muhammad Muslim dedi, bot bo‘lki, bir ishim bor! Va ul zohidu obid erdi, ko‘ngli dardig‘a mutaalliq erdi. Yusuf Xayyot dediki, sanga mundin o‘zga ish borki, Tengri taolo olingga kelturur va ul niyat bila uyingdin chiqibsenkim, yana ul uyga borg‘aysen. Uttuz yildurki, hargiz ul niyat bila uydin chiqmaymenkim, yana uyga borg‘aymen. Abubakr Varroq debdurki, Yusuf Xayyotning ul ikki so‘zi Muhammad Muslimning yuz yillik ibodatidin yaxshiroq. Va ham Abubakr Varroq debdurki, [ko‘pincha ikki rakaat namoz o‘qib ketsam, o‘zimni o‘g‘rilik qilgan odamdek uyatli sezardim][1].

142. Muhammad b. Hasan Javhariy q. s.

Kuniyati Abubakrdur. Bag‘dod ahlidindur. Zunnun Misriyning shogirdi. Shayx Abubakr Vositiy debdur, Muhammad Hasan Javhariy dedikim, birav Zunnundin duo talabi qildi. Zunnun javob berdikim, ey javonmard, agar sanga bir ish Haq taoloning azal taqdirida muqarrar bo‘lubdur, baso, qilmag‘on duolarki mustajobdur va agar ul bo‘lmaydur, suvga tushganga qichqirg‘ondin ne sud? Ondin o‘zgakim g‘arqa bo‘lg‘ay va bo‘g‘zig‘a suv ko‘prak borg‘oy.

143. Abubakr Kisoyi q. t. s.

Iroqning Qo‘histonidindur. Dinavarda bo‘lur ermish. Junayd q. s.ning kibor ashobidin va anga mashhur riyozot va ma'ruf safarlar bor. Junayd debdurki, Abubakr Kisoyi Iroqda bo‘lmasa erdi, men Iroqda bo‘lmas erdim. Junayddin burunroq dunyodin o‘tibdur. Junayddin ming mas'ala bu toifa tariqida savol qilib erdi va Junayd barchasig‘a javob bitib erdi. Oning vafoti xabari Junaydqa yetganda dedikim, kosh ul masoyil javobikim, men onga bitib erdim, yusa erdi va hol ulkim, ul dunyodin o‘tar chog‘da ul qog‘azlarni yub erdi. Dedilarkim, chun ul bu ishni qilib o‘tdi. Junayd shodmon bo‘ldi. Shayx ul-islom debdurki, Junayd ondin qo‘rqmas erdikim, ul masoyil avom ilkiga yo podshohi zamon ilkiga tushgay. Ondin Qo‘rqar erdikim, so‘filar ilkiga tushgay va ondin do‘kone yasag‘aylar, so‘z aytmoqda va qabul tilamoqda. Shayx Abulxayr Asqaloniy debdurky, Abubakr Kisoyi uyusa ko‘ksidin Qur'on o‘qug‘on uni kelur.

144. Abu Aliy Juzjoniy q. t. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Hasan b. Alidur. Xuroson mashoyixining buzurglaridindur, o‘z zamonida benazir erdi. Va aning tasonifi bor, muomalotda va ru'yat ofotida [ma'rifat va hikmatga oid so‘zlarni ko‘p aytardi][1]. Muhammad b. Aliy Tirmiziy bila va Muhammad Fazli Balxiy bila suhbat tutubdur va alarg‘a qarib us-sindur. Ul debdurki, [xalq o‘z shubha gumoniga tayanib yo e'tiqod qilib, g‘aflat maydonida yugurib yuribdi. Go‘yoqi ular haqiqat vodiysidayu yana mukoshafadan so‘zlaydilar][2]. Va ham ul debdurki, badbaxt uldurki, aning aybini Haq s. t. yashurmish bo‘lg‘ay va ul oshkor qilg‘ay.

145. Muhammad va Ahmad b. Abulvard r. t.

Ikkinchi tabaqadindurlar. Iroq mashoyixiing akobiridin, Junayd aqronidin. Sariy Saqatiy bila va

Abulfath Hammol va Horis Muhosibiy bila va Bishr Hofiy bila suhbat tutubdurlar. Va alar tariqi vara'da yaqindur Bishr Hofiyg'a. Muhammadning kuniyati Abulhasandur. Bishr Hofiy shogirdidur. Ul debdurki, bir kun shom namozin tugattim, dag'i oyog'imni uzattim, hotife nido qildikim, [podshoh bilan birga shu zayl o'tirasanmi?][1]. Va ham ul debdurki, faqrda faqirning odobidin bir uldurki, dunyo muhabbatig'a giriftorlarg'a sarzanish qilmag'ay va rahmu shafqat qilg'ay va xayr duosi qilg'ay.

Va Haq s. t. alarg'a xalosliq berg'ay, ishdinkim andadurlar. Va ham ul debdurki, xalqning haloki ikki ishdadur: Farzni zoe' qilib, nofilag'a ishtig'ol qilmoq va javorih bila amal qilmoq, ko'ngul muvofaqatidin boshqa [Valiy haqida so'radilar, aytdi: Allohning do'stlarini do'st, dushmanlarini dushman bil-guvchilardir][2]. Va Ahmad b. Abulvard debdurki, chun Tsngri taolo valiyg'a uch ish orturg'ay, ul dag'i uch ish orturg'ay, chun johida orturg'ay, ul tavozu' va furutanlikda orturg'ay, chun molida orturg'ay, ul saxoda orturg'ay, ul umrida orturg'ay, ul ibodat ijtihodida orturg'ay.

146. Tohir Maqdisiy r. t.

Uchunchi tabaqadindur. Shom mashoyixining buzurglaridindur. Zunnun Misriy q. s.ni ko'rub ermish va Yahyo Jallo bila suhbat tutubdur. Derlarki, Zunnun bila Shibliy ani Xayr ush-Shom debdurlar. Tohir Maqdisiy debdurki, Zunnun Misriy manga dedikim, [Allohning zoti haqida idrok qilish johillikdir. Uning ma'rifat haqiqatidan so'zlash hayratdir. Ishorat qiluvchining ishorati shirkdir. Va ham debdurki, asar orifning nurin ko'rsalar, kuygaylar va agar orif xam vujud nurin ko'rsa, kuygay...[1]. Va ham ul debdurki, [ma'rifatning chegarasi – nafs va uning istak-xohishidan holi bo'lishdir][2].

147. Abu Ya'qub Susiy q. s.

Oti Yusuf b. Hamadondur. Abu Ya'qub Nahrajuriyning ustodidur. Olim va sohibi tasonif ermish. Va Basrada bo'lur ermish. Ul debdurkim, har kim takalluf bila tavhiddin so'z aytsa, shirkdur. Va Shayx Abu Sayd Xarroz q. s. debdurki, [faqat o'z tajribasi va o'z fe'lidan so'zlovchi kishigina bu ilm haqida gapirishi joyizdir][1].

148. Abu Ya'qub Nahrajuriy q. s.

To'rtunchi tabaqadindur. Oti Ishoq b. Muhammad. Mashoyixiing ulamosidandur. Junayd q. s. va Amr b. Usmon Makkiy bila suhbat tutubdur, yillar Makkada mujovir ermish, ham anda uch yuz o'ttizda dunyodin o'tubdur. Ibrohim Fotik debdurki, Abu Ya'qub Nahrajuriy debdurki, [dunyo – dengiz, oxirat –uning sohili. Kemasi – taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir][1]. Va ham ul debdurki, [odamlar ichida Allohni ko'proq tanuvchi kishi unga hayrati ko'proq bo'lganidir][2]. Va xam ul debdurki, [kimki taqlid yo'li bilan tavhidga otsa, u ma'rifat yo'lidan yiroqdir][3].

149. Abu Ya'qub Zayyot q. s.

Junayd. q. s. debdurki, jam'i ashob bila Abu Ya'qub Zayyot eshikin qoqtuk. Dedikim, sizlarga Haq s. t. bila hech mashg'ulluq yo'q erdikim, manga kelmakdin sizni mashg'ul qilg'ay? Men dedimkim, chun sanga qelmak bizga Haq s. t.g'a mashg'ulluqlardindur, aning uchun Tengridin ayruluqqa uzr qo'lmasbiz.

150. Ahmad b. Vahab q. s.

Kuniyati Abu Ja'fardur. Basradindur. Abu Hotam Attor bila suhbat tutubdur va Abu Ya'qub Zayyotning piri va ustodidur. Va Shuniziya masjidida muddate tavakkul bila o'lturdi. Ul debdurki, harkim qut tilamakka qo'pti, faqr oti andin qo'pti. Ikki yuz yetmishda dunyodin o'tubdur.

151. Abu Ya'qub Mazobiliy r. t. s.

Bag'doddindur. Junayd q. s. aqronidin. Andin so'rdilarkim, tasavvuf nedur? Dedikim, [tasavvuf bir holdirki, unda insoniylik alomatlari yo'q bo'lib ketadi][1].

152. Abu Ya’qub Aqta’ q. t. s.
[Junayd bilan maktublar yozishib turardi][1]. Makkada bo‘lur erdi, Shayx Abdulloh Xafif q. s. debdurki, Abulhasan Muzayyin dediki, Makkag‘a yettim, Shayx Abu Ya’qub naz’ holatida erdi. Qoshig‘a bordim, manga dedilarkim, agar sanga iltifot qilsa, anga shahodat arza qil! Manga firib berdilarki, man kichik erdim. Oldida o‘lturdum va manga boqti. Dedim: [Ey shayx, guvohlik beramizki, bir Allohdan o‘zga Alloh yo‘q][2]. Ul dediki, [mening guvohlik berishimni istaysanmi? Aslo o‘lim zavqini totmaydigan zot haqqi, men va uning orasida izzat pardasidan o‘zga narsa qolmadi][3]. Shayx ul-islom dediki, hijobi izzat aning ulug‘i-durki, ul uldur va sen-sen. Abulhasan Muzayyin so‘ngra yillar aytur erdikim, meningdek gado Tengrining do‘stlaridin biriga Islom arza qilur deb, o‘z ishiga nodim erdi. Shayx Abu Abdulloh Hadid debdurki, birav uluhiyatda kuyar erdi. Keldilar va pardai izzat keynidin anga shahodat arza qilurlar erdi. Shayx ul-islom debdur, Shayx Abu Abdulloh Toqiy muhtazar erdi. Birav anga shahodat arza qildi. Ul achchig‘lanib dedikim, tek tur, beadabu behurmat qavm kelib, aning do‘stlaridin biriga shahodat arza qilurlar. Sen o‘zungningkini dekim, men o‘zumnikini debmen. [Musulmon holimda jonimni olgin va meni ham solih bandalaring qatoriga qo‘shgin][4], dedi va o‘tti. Bu toifadan biri o‘tgandin so‘ngra birav tushta andin so‘rdiki, iymon ittingmu? Ul dediki: ul xud mendin butub erdi.

153. Abu Ya’qub Ziziy q. s.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Ibni Ziziy bila bir samo’da hozir bo‘ldum. Va qavvol bu baytni o‘qudikim,

b a yt:

[Agar u o‘lukni quchog‘iga olsa, tirilar,
qabrga olib borilmasdi][1].

Ibni Ziziyning vaqti xush bo‘ldi, iliglarin uchasi saridin yerga tiradi va ko‘ksin yuqori qilib, ko‘zin ko‘kka tikdi. Va qavvolg‘a der erdikim, aytqil, vallohki, mendin o‘zga kishi eshitmaydur. Nogoh bo‘yin raglaridin qon ravon bo‘ldi, fasd qilg‘ondek va yiqildi. Ani ko‘tardilar, xirqasini qondin yuvdilar va qon borg‘an raglarin bog‘ladilar, to muddatdin so‘ngra o‘ziga keldi.

154. Abu Ya’qub Mazkuriy q. s.
Andin so‘rdilarkim, tavakkul nedur? Dedi: ixtiyor tarki. Sahl b. Abdulloh Tustariydin so‘rdilar, dedi: tadbir tarki. Bishr Hofiydin so‘rdilar, dedi: rizo. Abu Hafs Haddoddin so‘rdilar, dedi: musabbibni ko‘rmak, Fath Mavsiliydin so‘rdilar, dedi: sababdin malol. Shaqiq Balxiydin so‘rdilar, dedi: ajzda g‘arqi diydor. Shibliydin so‘rdilar, dedi: ko‘ngul diydorida barcha elni unutmoq.

155. Abu Ya’qub Maydoniy q. t. s.
Nusaybin mashoyixlaridindur. Shibliy Bag‘doddin. Misrga borur erdi, halollik tilagalikim, shug‘li chog‘ida birovning yerig‘a ot qo‘yg‘on eqandur. Ya’qub Maydoniyg‘a yo‘luqti. Va ul hanuz bu ishka yangi kirib erdi va irodatining avvali erdi. Shibliy iligin aning boshita surtub indurdi va dedi: [Alloh sening kamchiliklaringni to‘g‘rilasin][1]. Abu Ya’qub aytti: omnn! Andin so‘ngra Abu Ya’qubg‘a yetti, ulcha yetti. Shibliy debdurkim, chun ilig aning boshig‘a surtub [Alloh kamchiliklaringni to‘g‘rilasin][2] dedim, aning a’zosida hech tuk yo‘q erdiki, omin demadi.

156. Abo‘ Ya’qub Xarrot Asqaloniy q. s.
U debdurki, Abulhusayn Nuriy xizmatig‘a yettim va mening bila mihbarayi erdi. Manga dedi: .Ey

o‘g‘ul, tilarsenki, nnma bitigaysen? Dedim, bali! Necha bayt badihada imlo qildi va dedikim, biti! Bitidim. Abyotning hosili ma’nosi bu erdikim, har ne siz bu avroqda isbot qilursiz va bitirsiz, biz alarni mahv qilibbiz. Lojaram siz ul isbot sababidin ulcha maqsuddur, aning idroku fahmidin mahjub bo‘ldungiz. Va bizga ul mahv sababidin maqsud idroku fahmining abvobi beintiho va inqito’ ochildi. Va bizga, : bu mav’izat boisi sizning nekxohligingizdur. Necha ko‘rgaybizki, siz avroqqa nima bitigaysiz va o‘zunguzni bu jihatdin ulcha maqsuddur, andin mahjub qilg‘aysiz.

157. Abu Ya’qub Kuratiy q. t. s.

Shayx ul-nslom debdur, men ani ko‘rubmen. Ro‘shan piri erdi, sohibi vaqtu karomot. Abu Mu’ammar Molikiy debdurki, bir kun ul o‘tar erdi. Jamoati mashg‘ullar o‘lturub erdilar. Alarga o‘qudikim, [ularni bir deb hisoblaysiz dillari xilma-xildir][1] va o‘tti,.

158. Xayr Nassoj q. t. s.

Kuniyati Abulhasandur va oti Muhammad Ismoil, Asli Somarradindur va Bag‘dodda sokin erdi. Abu Hamza Bag‘dodiy bila suhbat tutub erdi va Sariy. Saqatiydin savollar qilib erdi. Va debdurlarki, Sariyning muridi erdi va Junayd aqronidindur ikkinchi tabaqadin. Va Nuriy va Ibni Ato va Jaririyning ustodidur. Va Ibrohim Xavvos va Shibliy aning majlisida tavba qildilar. Shibliyni Junaydg‘a yibordi, Junaydning hurmati hifzi uchun. Va Junayd ,q s. debdurki, [yaxshilarimiz yaxshisi][1]. Umri yuz yigirmag‘a yetti. Uch yuz yigirma ikkida olamdin o‘tti. Bu xoyfaning sodoti va azim ulug‘laridindur. Andoqqi, zikrida ma’lum bo‘ldi.

159. Mahfuz b. Mahmud r. t.

Ikkinchi tabaqadindur va uchunchidin ham debdurlar. Nishobur mashoyixining akobiridindur. Abu Hafs ashobidin. Va andin so‘ngra Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutubdur. Va uch yuz uch, yo to‘rtda dunyodin o‘tubdur. Va qabri ustodi Abu Hafs yonidadur. Ul debdo‘rki, [tavakkul – bandaning o‘z rizqini qizg‘onchsiz. va tama’siz yemog‘idir][1]. Va ham aning so‘zidurkim [kimki hidoyat yo‘liga qadam qo‘ymoqchi bo‘lsa, faqat muxolif ishlarda emas, muvofiq ishlarda ham nafsini qusurli deb bilib, malomat qilsin][2].

160. Mahfuz b. Muhaimad q. s.

Bag‘dodlig‘dur, tasavvuf tariqi soliklaridindur. Aning so‘zidurkim, [kimning ko‘ziga faqat o‘z yaxshiliklari ko‘rinsa, u odamlar nafratiga duchor bo‘ladi. Agar yomonliklari ko‘rinsa, odamlar nafratidan emin bo‘ladi][1]. Va ham ul debdurkim, [odamlarning yaxshirog‘i qalbi sog‘lom va musulmonlarga xayrixoh bo‘lganidir][2].

161. Ibrohim Xavvos r. t. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Ishoqdur. Tajarrud va tavakkul tariqida yagona ermish. [Uz davrida yagona mashoyixlardan edi][1]. Ja’far Xuldiy va Ulug‘ Shirvoniyning ustodidur. Bag‘dodlik ermish va otasi Omildin ermish. Junayd va Nuriy aqronidindur va ikki yuz to‘qson birda dunyodin o‘tibdur va Yusuf Husayn ani yub, dafn qildi. Ich og‘rig‘i bila o‘tti. Masjidda har majliski, taqozo bo‘lur erdi, g‘usl qilur erdi. Ul kunki o‘tti, sovug‘ erdi. Yetmish qatla ijobat qilib. erdi. va har qatla g‘usl qilib erdi. So‘nggi qatla g‘usl qilurda, suv ichida olamdin o‘tdi. Va qabri Tabruk hisorining tubidadur. Shayx ul-islom debdurki, oning qabridek shukuhlik qabr hargiz ko‘rmaydurmen. Ustiga yetsang anga o‘xsharki, bir sher yotmish bo‘lg‘ay. Shayx Abubakr Kattoniy debdurki, bkr qatla Ibrohim Xavvos safardin yetti. Ondin so‘rduyki, yo‘lda hech ajab nima ko‘rdungmu? Dediki, Xizr a. s. manga yetti va dediki, senga hamroh bo‘laymu? Dedim: yo‘q! Dedi: Nevchun? Dedim: Ul rashkindur, tergar; qo‘rqormenki, ko‘nglum senga ulfat tutmag‘ay. Shayx ul-islom debdurki, Shayx Haraqoniy so‘z asnosidakim, menga aytur erdi. Ayttiki, agar Xizr bila suhbat tutsang, tavba qil va agar bir kecha

Hiriydin Makkaga borsang, ondin ham tavba qil!
Ibrohim Xavvos debdurki, ranj tortma ul nima talabidaki, azalda sanga qismat bo‘lubdur va ul rizqdur.
Va zoe’ qilma onikim, kifoyatin sendin tilabdurlar va ul amr va nahyning inqiyodidur.
Abulhasan Alaviy debdurki, qish kuni Dinavar masjidida Ibrohim Xavvosni ko‘rdumki, qor ichida yalang o‘lturubdur. Dedim: Yo Abo Ishoq, kelkim kiygulukka kirolikim, anga shafqat qildim. Ayttikim, men majusliqqa tilarsen. Ya’ni tajarruddin sababqa. Andin so‘ngra ilkimni tutub, o‘z tanig‘a surtdi. Terga garq erdi va andoq issig‘ki, yaqin erdikim, ilikim kuygay, dog‘i kulib, bu ikki baytin o‘qudikim,

she’r:

[Allohga muhabbat izhor qilasanda, unga osiylik ham qilasan.
Va yana muhabbatdan lof urasan. Sening bu ishing qiziq.
Agar sen muhabbatda sodpq bo‘lsang, Allohga itoat qil!
Chunki albatta muhib mahbubnga itoatkor bo‘ladi][2].

162. Ibrohim b. Iso q. s.
Isfahondin erdi va Ma’ruf Karxiy bila suhbat tutub erdi. Ibrohim Xavvos q. s. debdurki, Bag‘dodda erdim va Dajla qirog‘ida vuzu’ qiladur erdim, birovni ko‘rdumki, suvning ul qirog‘idin ayoq qo‘ydi va suv yuzida yurub, bu sari kelur erdi. Yuz yerga qo‘yub dedimkim, sening izzat va jaloling haqqikim, yuz ko‘tarmayin, to bu kinshnn bilmaguncha. Yuzum yerda erdikim, birov kelib, meni ayog‘i bila tebratti. Boqdim, ersa Ibrohim b. Iso erdi. Dedi: har qachon tilasangki Tengrining avliyosidin birini tanig‘aysen, shuni o‘qig‘ilkim, [avval ham, oxir ham, zohir ham, botin ham utshg o‘zidur. Ubarcha narsani bilguvchidir][1]. Ikki yuz qirq yettida olamdin Isfahonda o‘tdi.

163. Ibrohim Sobit q. t. s.
Kuniyati Abu Ishoqdur. Bag‘dod mashoyixidindur. Juvayd q.s. bila suhbat tutubdur. Shayx Abu Abdurahmon Sulamiy debdurki, onga dedim: meni bir duo qil! Dediki, ixtiyoring ongaki, azaldin, senga qismat bo‘lubdur, muorazadin yaxshiroq. So‘ngra dedim: menga vasiyat qil! Dedi: Bir ish qilmaki, ondin pushaymon bo‘lg‘aysen. Ul uch yuz yetmish to‘qquzda dunyodin o‘tubdur.

164. Abu Muhammad Juririy q. t. r.
Uchunchi tabaqadindur. Ahmad b. Muhammad b. Husayn va Husayn b. Muhammad ham va Abdulloh b. Yahyo ham debdurlar. Junayd q. s. kibor ashobidin erdi. Andoqki, Junayddin so‘ngra ani Junayd o‘rnig‘a o‘l-turttilar buzurgligidin. Qavmning ulamoyu mashoyihidin erdi. Sahl b. Abdulloh Tustariy bila suhbat tutub erdi. Habir yilida Qaromita urushida suvsizlikdin halok bo‘ldi, uch yuz yigirma uch yo to‘rtda. Ul debdurki, [tasavvuf jangdir, sulh emas][1]. Abu Muhammad Juririyg‘a darveshe dedikim, uns bisotidin erdim, manga bir bast eshiki ochdilar, o‘z maqomimdin toyildim va andin mahjub bo‘ldum. Iturganimga ne nav’ yo‘l toparimg‘a dalolat qil! Abu Muhammad yig‘ladi va dedikim, ey qarindosh, barcha bu dardg‘a giriftordurlar va bu dog‘qa mubtalo. Ammo sanga bir necha bayt o‘qiy.

Sh ye’ r:

[Maqom, zavq, vajd, bast va lazzat diyorida to‘xtaginki, mahbublarning asmo va sifatlaridan nishonadir.
U muhiblar va oshiqlarda hasrat va shavq uyg‘otib, yig‘latadi. Unda ko‘p to‘xtadim.
Hozir ham sodiq yo mushfiq, kim bo‘lishidan qat’iy nazar u manzildan xabar berishlari va hikoya qilishlarini so‘rayman.

Meni u makrmning muhibi deb biluvchi xabar berdi: sen sevgan u narsalardan ayrilding. Endi senga ulug‘ mulo-qot – visol bor][2].

165. Olim b. Sa’d r. r.

Bag‘doddin erdi. Va Abu Muhammad Juririy bila suhbat tutub erdi va vara’vu mujohadada komil erdi. Aning vafotidii so‘ngra ani tush ko‘rub so‘rdilarki, Tengri sanga ne qildi? Dedi: manga rahmat qildi va behishtqa kivurdi. So‘rdilarki, ul muomalatlar uchun? Dedikim, agar ul muomalatlarg‘a boqsam erdi, ham anda qolib erdim.

166. G‘aylon Samarqandiy q. t.s,

Mashoyixiing kiboridindur. Junayd q. s. bila suhbat tutubdur. Va maorifda sohibi taqallum erdi. Ul debdurki, orif Tengridan Tengrig‘a boqar va olim dalildin. Va sohibi vajd dalildin mustag‘niydurur.

167. G‘aylon Muvasvis r. t. r.

Ani G‘ayloni Majnun ham derlar erdi. Iroq mashoyixiing mutaqaddimlaridindur. Xarobalarda bo‘lur erdi va elga omizishi yo‘q erdi. Va eldin nima qabul qilmas erdi. Va el ko‘rmas erdiki, ul ne yer. Muhammad b. Samin dediki, G‘aylonni Kufaning harobalarida ko‘rdum. So‘rdumki, banda g‘aflat xataridin qachon qutulur? Dedikim, ul vaqtiki, anga har ne buyurubdurlar, anga mashg‘ul bo‘lsa va andinki nahy qilibdurlar, g‘ofil va o‘z nafsi hisobida oqil.

168. Abulabbos Ibn Ato q. t. r.

Ikkinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Muhammad b. Sahl b. Ato Odamiy. Bag‘dodlikdur. Mashoyixiing ulamosidin va so‘fiya zurafosidindur. Fasih til. bila yaxshi so‘zlari bor va Qur’ong‘a ahli ishorat tili bilan tafsir bitibdur. Ibrohim Moristoniyning sho-girdidur va Junaydning yoronlaridindur. Va Shayx Abu Said Xarroz ani ulug‘ tutar erdi. Va Shayx so‘zidurki, (tasavvuf xulqdir, inobat emas. Tasavvuf ahlidan Junayddan va ibn Atodan boshqasini ko‘rmadim][1]. Va Ibn Ato Husayn Mansur Halloj jihatidin maqtul bo‘ldi, Zulqa’da oyi uch yuz to‘qsonda. [Ibn Atodan so‘radilar, toatlarning afzali qaysidir? Aytdi: Har doim Haq Taoloni mulohaza qilmoq][2]. Va ul debdurki, bu oyat tafsiridakim, [u meni o‘ldirur, so‘ngra tirilturur, ya’ni mendan o‘ldiradi, o‘zi bilan tiriltiradi][3]. Va ham ul debdurkim, bu oyat tafsirida [albatta, «Parvardigorimiz Allohdir» deb, so‘ngra «ustuvor bo‘lgak zotlar...», Ibn Ato bu oyatdagi «ustuvor turishlikni» qalbni yolg‘iz Allohga bog‘lash, deb izohlaydi][4].

Va u ham ul debdurkim, [adab –do‘st tutilgan narsalar (yaxshiliklar). bilan to‘xtashdir. Buning ma’nosn nima?–deb so‘raganlarida, aytdi: Allohga pinhon va oshkor adab bilan muomala qilsang, ajamiy bo‘lsang ham adabli hisoblanasan.

She’r:

So‘zlasa, so‘zining bari ma’noli
Va gar sukut qilsa, bari malohat][5].

Shayx ul-islom debdurki, adab uldurki, Haq s. t.g‘a ibodat qilurda suv va tufroq va nafs ruunatidin qo‘pqaysen va demagaysenkim, men va kirdorim, degaysenki, ul va tavfiqu iyoyati.

169. Abu Solih Muzayyin q. t. s

O‘z ro‘zgornning akobiridin erdi. Ibn Ato bilasu suhbat tutub erdi. Sohibi xilvat erdi, Sahl b. Abdulloh Tustariy debdurki, manga orzu erdikim, Abu Solih bila suhbat tutqaymen. Bir qatla Haramda ani ko‘rdum va ul orzuni zohir qildim. Dedikim, zy Sahl, tongla Abu Solih o‘lsa, kim bila suhbat tutqungdur? Dedim: bilmon. Dedi: holo hamul sog‘inki, ul o‘lubdur va ko‘zumdin nopaydo bo‘ldi.

170. Abulabbos Arziziy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul dediki, Abulhasan Abbodoniy dedikim, men va bir darvesh Basrag‘a kirduk. Olti kun taom topmaduk yeguli. Yettinchi kun birav kelib, har birimizga bir diram berdi. Biriga taom yeb, birini mallohga berdukkim, bizni kemaga kivurdi. Kemada ko‘rar erdukkim, darveshe boshin xir qasig‘a chirmabdur va hech kim bila so‘zlashmas. Anga dedukki, biz sening yoronlaringbiz, bizing bila so‘zlash va har nima keraklik bo‘lsa, bizga buyur: Dedikim, tongla namozi peshin men bu dunyodin borurmen Siz mallohqa iltimos qilingki, kemani qiroqqa tortsun. Sohilda beshae bo‘lg‘usidur. Bir ulug‘roq yig‘och tubida mening takfinu tajhizim tayyor bo‘lg‘usidur, meny anda dafi qiling va bu muraqqa’imni zoe’ kilmang: Hillaga yetkanda bir latif va zarif yigit 6u muraqqa’ni sizdin tilagusidur, anga bering: Yana bir ko‘p namozi peshinni guzarladi va boshini muraqqa’g‘a tortti. Chun tahqiq qilduq, o‘tub erdi. Malloh kemani sohilg‘a tortqach, ul aytqondek, besha orasida ulug‘roq yig‘och tubida qazilg‘on go‘r va barcha asbob tayyor erdi. Ani dafi qilib, muraqqa’ni olib, Hillag‘a mutavajjih bo‘lduk. Ham ul aytqondek, zebo yigit o‘tru kelib, ul amonatni tiladi. Anga topshurib dedukki, albatta bizga aytki, ul kim edi va sen kimsen? Dedi: ul bir darvesh edi. O‘tar chog‘da bu vadiatni topshirg‘ali kishi tiladi, mani anga ko‘rguzdilar. Bular tahqiq qilg‘andin so‘ngra andak ma’lum qildilarkim, ul yigit Hillaning raisining o‘g‘li ekandur. Otasig‘a ul hol ma’lum bo‘lg‘ach, shukrlar qilib, ayttikim, bihamdillahki, mening sulbumdin andoq kishi vujudg‘a keldi. Shayx ul-islom debdurki, xaloyiq orasida tirik o‘lukdin meros olur, g‘ayri bu toifakim, o‘luk tirikdin meros olur. Va ham dedikim, hech kishi valoyat pirlaridin biri bila suhbat tutmagaykim, ul o‘tgandin, so‘ngra aning holotu valoyatidin munga meros tegmagay.

171. Abulabbos Dinavariy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Muhammaddur. Yusuf b. Husayn va Abdulloh Xarroz va Juririy va Ibn Ato bila suhbat tutubdur va Ruvaym Bag‘dodiyni ko‘rubdur. Nishoburg‘a keldi va muddate anda bo‘lub, elga mav’izat qildi, ma’rifat tili bila xo‘broq bayon bila. Va Nishoburdin Tirmizg‘a bordi. Va Xoja Muhammad Hamid–Abubakr Varroqning shogirdi anga o‘tru kelib, rikobin o‘pti. Muridlarig‘a noxush kelib, andin jihatni so‘rdnlar. Ul dedi: eshitibmenkim, mening Xudovandimni yaxshi sitoyish qilur. Va Samarqandg‘a borib, uch yuz qirqda olamdin o‘tti. Andin so‘rdilarki, Tengrini ne bila taniding? Dediki, muning bilaki, tanimadim, ya’ni ajzga e’tirof bila. Ul debdurki, [zikrning eng ozi Haqdan o‘zgasini unitish. Zikrning nihoyasi –vokirning zikr ichida zikrdan g‘oyib bo‘lishidir. Ma’shuqiga g‘arq bo‘lish zokiryai zikr maqomig‘a qaytishdan qantarsa, «fano filfano holidir][1].

172. Abulabbos Ahmad b. Yahyo Sheroziy. q. s.

Shayx Abu Abdulloh Hotifning ustodidur. Shayx debdurki, aningdek muhaqqiqe vajdda ko‘rmadim. Junayd va Ruvaym va Sahl Abdullohni ko‘rub erdi. Shayx Abu Abdulloh dedikim, bir kecha Shayx Ahmad Yahyo bila erduk va majlisda bir kichik yoshlig‘ bor erdiki, uyqu vaqti uyiga bormoq kerak erdi. Va qish erdi va azim o‘t yoqib erdilar. Va Shayx Ahmad Yahyoning vaqti samo’da xush bo‘lub erdi. Ba’zi ashob dedilar, kim bo‘lg‘anki bu yigitkinani uyiga yetkurgay? Hech kim javob bermadi. Shayx Ahmad ul o‘tdin ikki ulug‘ cho‘g‘ni o‘z ovuchiga qo‘ydi va yengini anga yopib, ul shaxsqa aytti, qo‘p! Va ilayiga ul yorug‘lug‘ni tutub, ani uyiga yetkurdi. Va biz ul chug‘ning yorug‘lug‘in aning to‘ni ustidin ko‘radur erduk. Chun ul kishi uyiga kirdi, Shayx ul cho‘g‘larni iligidin tashladi, ko‘mur bo‘lub erdilar. Andin so‘ng masjidqa kirdi va namoz qilur erdi, to sahar namozi ayttilar.

173. Abulabbos Bovardiy q. r.

Ul buzurg erdi va Shiblnyni ko‘rub erdi. Va Nishoburda erdi va Shayx Abu Bakr Timistoniy dag‘i Nishoburda erdi. Debdurlarki, Shibliy sohibi hol ermish, tavhid jonibidin hol jonibi qaviyroq ermish,

Shayx ul-islom debdurki, ushmundoq erkandurki, alar debdurlar.

174. Abulabbos Bardu'iy q. t. r.

Oti Ahmad b. Muhammad b. Xorun Berdu'iy Sufiydur. Shayx Abu Bakr Tohir Abhariydin va Shayx Murta'ishdin so'zlari bor. O'l debdurki, Murta'ish dedikim, har kimki diydori sanga manfaat yetkurmagan, ul sanga naf' yetkurmagay. Va ham ul debdurki, Abu Bakr Tohir Abharin dedikim, [sukut saqlagan za sukutining «qubatidin ho'rqqan kishigina gapirishi mumkin][1] .

175. Abulabbos Sayyoriy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Qosim Ibn Qosim Mahdiydur. Marv ahlidindur. Shayx Abubakr Vositiyning shogirdidur. Olim va faqih va muhaddis ermish. Anga otadin ko'p meros qolibdur. Barisin berib Hazrat Risolat s. a. v. ning muborak gisusidin ikki torni sotqun olibdur. Va Haq s. t. anyng barakotidin anga tavba tavfiqi berdi. Va Abubakr Vositiy suhbatig'a yetti. Va ul daraja hosil qildikim, ani bir sinf tasavvuf ahlining imomi derlarki, alar Sayyoriyag'a mashhurdurlar. Va olamdin o'tarda vasiyat qildikim, ul ikki torni aning og'ziga qo'ydilar. Va qabri Marvdadyr. Uch yuz qirq ikkida o'tubdur. Ul debdurki, [tavhid – qalbingda Allohdan o'zganing yodi bo'lmasligidir][1]. Va ham debdurki, Abubakr Vositing'a o'tar chog'da dedilarki, vasiyat qil! Ul dediki, [Alloh sizlardan talab qilganini yodda tuting][2].

176. Abdulvohid b. Ali Sayyoriy q. s.

Abulabbos Sayyoriyning xoharzodasidur va shogirdi. Ham ul Marvda saroyin bu toifag'a vaqf qildi. Va sabab ul ermishki, anda bu jamoat samo' qilurda biri havolanib, andoq murtafi' bo'lubdurkim, ko'zlardin g'oyib bo'lubdur, andoqki, yana paydo bo'lmaydur. Ul deb-durki, tag'onimdin eshittimki, dedi: agar ravo bo'lsa erdikim, namozda Qur'on o'rnida bayt o'quoalar erdi, bu bayt bo'lg'usi erdikim,

B a y t:

[Men bu mahol dunyodan bir hur kishining diydorini ko'rmoq istayman][1].

177. Abulabbos Suhravardiy q. s.

Oti Ahmaddur. Makkada bo'lur erdi, vaqt mashoyixi bila, Sirvoniydek va g'ayruhu bila. Ul debdurki, azxo iydida Minoda erdim. Jamoate o'lturub erdilar va Shayx Shirvoniy orada erdi. Qavvol chun bir bayt o'qudi, shayx yig'lab qo'pti va ketti. Qavm dedilarki, ne voqe' bo'ldi. Magar ul samo'g'a munkirdur? Shayx Abulhasan Sarakiy hozir erdi. Dediki, Tengriga ahd qildimki, agar ul samo'g'a munkir bo'lsa, men yana samo' majlisida o'lturmag'ayman. Shayx Abulabbos Suhravardin dedikim, men ham senga muttafiqmen. Tonglasi bu ikki shayx jamoat mashoyixi bila shayx Sirvonin salomig'a bordilar va tiladilarki, mazkur bo'lgan ishtnn tafahhus qilg'aylar: Shayx Sirvoniy dedikim, men ro'zgoriki qum ustiga yotur erdim. Qo'lumiy boshimga yostar erdim va tosh ozurda qilg'on nishonlar yonimda zohir erdi. Samo' majlisida o'lturur erdim. Holo, yumshoq farsh ustida o'lturubmen va siz aytqon dastur bila kuygan va o'rtangan, manga samo' majlisida sizing bila o'lturmoq halol ermas.

178. Abulabbos Nihovandiy q. t. s.

Shayx ul-islom ani oltinchi tabaqadin bitibdur. Oti Ahmad b. Muhammad b. Fazldur. Ja'far Xuldiyning shogirdidur. Shayx Abulabbos Shayx Amug'a Amu ot qo'ng'andur. Va Shayx Amuni solor debdurlar. Shayx ul-islom debdurki, Abbos Faqir Hiraviy manga dedikim har kishi bu ilmdin so'z desakim, aning hujjati Haq s. t. bo'lmasa, Haq taolo aning xasmidur. Shayx ul-islom debdurki, Nihovandiy dedikim, alarki hilshat ahlidurlar, agar so'l iliglari alarni andin mashg'ul qilsa, o'ng iliglari bila ul so'l iligin kesarlar. Nihovandiy debdurki, avvalki, manga bu ish dardi paydo bo'ldi, o'n ikki yil

boshimni yoqamqa so‘qtumki, ko‘nglumning bir go‘shasin manga ko‘rguzdilar. Va ham Nihovandin debdurki, Tengri taolo bila ko‘p o‘lturung va xalq bila oz. Bir tarso eshittikim musulmonlar orasida farosat ahli bo‘lur. Bu toifa libosi bila Shayx Abulabbos Qassob q. s. xonaqohnga bordi. Shayx ani ko‘rgach dedikim, begonalarg‘a oshnolar orasida ne ish? Ul tarso xijolat bila chiqib, Shayx Abulabbos Nihovandi?! xonaqahig‘a bordi. Nihovandiy ani ta’zim qildi va uch on Shayxning xonaqohida darveshlar bila namoz qilib, suhbat tutar erdi. Uch oydin so‘ngra borurg‘a azimat qildi. Shayx dedikim, uch oylik tuz, o‘tmak, suhbat haqqidin so‘ngra begona kelmak va begona ketmak nechuk bo‘lg‘ay? Tarso ojiz bo‘lub, musulmon bo‘ldi va Shayx qadajidin ketmadi. Va andoq muomala qildikim, Shayxdin so‘ngra xonaqah ahli muridlar ani Shayx o‘rnig‘a o‘lturttilar.

179. Axiy Faraj Zanjoniy q. t. s.

Shayx Abulabbos Nihovandiyning murididur. Chahorshanba kuni rajab oyining boshida to‘rt yuz ellik yettida dunyodin o‘tubdur. Qabri Zanjondadur. Derlarki, shayxning bir mushuki bor ermish. Xonaqohg‘a mehmoneki kelur ermish, har kishi adadi bila bir un qilur ermish. (Xodim ul un adadi bila muvofiq ayoq bila suv qazong‘a solur ermish, takalluf qilmas ermish.

Bir kun mehmonlardin bir kishi ortuq kelibdur va bir ayoq osh o‘ksuk. Darveshlar taajjubda ermishlarkim, ul mushuk kelib, ul musofirlarni birin-birin islab, birining ustiga bavl qilibdur. Tahqiq qilibdurlar. Ul kishi dindin begona ermish.

Bir kun xonaqah qozonida sut solib qo‘yg‘an ermishlarkim, shirbirinch pishurgaylar. Mo‘ridin bir qora yilon sutga tushib o‘lubdur va ul mushuk ko‘rubdur va kishi ko‘rmavdur. Xodimki shirbirinch pishurgali mashg‘ul bo‘lubdur, ul mushuk qazon tegrasida qichqirib, iztirob qilur ermish. Tabbox har necha olib tashlar ermish, ul ko‘prak iztirob qilur ermish. Tabbox chun mutanabbih bo‘lmandur. Uzin qazong‘a tashlabdur va o‘lturubdur. Xodim sutni to‘karda ko‘rubdurki, yilon tushgan ekandur va oning iztirobig‘a sabab ul erkondur, Shayx debdurki, chun ul o‘zin darveshlarga fido qildi darveshlar oning uchun qabr yasab, xonaqah ichida dafi qilibdurlar. Derlarki, holo ham ul qabr zohirdur Xaloyih ziyorat qilurlar.

180. Abulabbos Nisoyi q. t. r.

Oti Ahmad b. Muhammad Zikriyodur. Asli Nisodindur. Ammo Misrda sokin erdi. Shayx Abbos Faqir Hiraviy ani Misrda va Shayx Amuni Makkada ko‘rib erdi. Abbos debdurki, doim aning eshigida otlar va taraddud qilur elning ulog‘lari bo‘lur erdi. Bir kun mani tashqari yubordiki, ulog‘larni asrag‘aymen. O‘z-o‘zumga dedimkim, yaxshi ish paydo qildim. Xurosondin Misrg‘a keldimkim, elning ulog‘larin asrag‘aymen. Mening xud anda farog‘atim bor erdi. Hamul soat birov chiqib dediki, shayx seni tilaydur. Kirgoch dedikim, Hiraviy hanuz go‘rga kirmaydursen, bot bo‘lg‘ayki, to‘rda o‘lturg‘aysen v eshigingda ulog‘lar bo‘lg‘ay va alarni asramoqqa senga kishi kerak bo‘lg‘ay. Shayx ul-islom dediki, ish andoq erdiki, ul shayx deb erdi. Doim oning eshigida arz qilur elning ulog‘lari bo‘lur erdi.

181. Abulabbos Surayj q. t. s.

Oti Ahmad b. Imron b. Surayjdur. Uch yuz beshda; dunyodin o‘tti. Ani kichik Shofe’iy derlar erdi, goyat ulug‘lig‘idin. Bag‘dodda bo‘lo‘r erdi va Junayd bila suhbat tutub erdi furu’ va usulda. Vaqteki so‘z aytsa-erdi, majlis ahlig‘a aning kalomidin taassub bo‘lur erdi. Ul bu holni der erdikim, Abulqosim Junayd h. s. suhbati barakotidindur. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, andin burunki, Shayx Abulabbos Suranj Sherozg‘a kelgay, ilm ashobi Sufiyani juhhol xayol qilurlar erdi. Ulkim, Sherozg‘a keldi va alarning marta bayu maqomin bayon qildi va alar tili bila so‘z aytti va alarning fazlig‘a guvohlig‘ berdi va borlar ulamo majlisida dedikim, «valloh, biz odame bo‘lmaduq va adab o‘rganmaduk, to alar suhbatig‘a yetmaduk». Andin so‘ng ulamo alarni tanidilar va ulug‘ tuttilar.

182. Abulabbos Hamza b. Muhammad q. s.

Hirot mashoyixining mutaqaddimlaridindur. Vara'da komil va mustajobud da'va erdi va azim saxovati bor erdi. Imom Ahmad HanbAliing rafiqi erdi. Oning mazhabin Hirotg'a ul kelturdi va Ibrohim Sitanbah bila suhbat tutub erdi. Ul debdurki, har kishinikim, mashoyix va avliyo suhbati pokiza qilmag'ay, hech pand. bila pokiza bo'lmag'an. Ikki yuz qirq birda dunyodin o'tdi.

183. Husayn b. Mansur Halloj q. s.

Uchunchi tabaqadindur. Kuniyati Abulg'atys. Forsning Bayzosidindur. Avval Halloj emas erdi. Bir halloj do'konida erdikim, oning do'sti erdi. Oni bir ishga yibordi. Ko'ngliga o'ttiki, onyng ro'zgorin zoyo' qildim. Barmog'i bila ishorat qildi. Momug' chigitdin ayrildi. Onga bu jihatdin Halloj ot qo'ydilar. Vosit va Iroqda bo'lur erdi va Junayd va Nuriy bila suhbat tutubdur. Abu Amr Usmon Makkiyning shogirdydur. Mashoyix oning ishida muxtalifdurlar. Ko'pragi oni rad qilibdurlar necha tandin boshqa. Shayx Abulabbos Ato va Shayx Shibliy va Shayx Abu Abdulloh Xafif va Shayx Abulqosim Nasrobodiy bila Shayx Abulabbos Surayjkim, aning qatlig'a rizo bermadilar va fatvo bitmadilarkim va dedilarkim, biz bilmasmizkim, ul ne deydurur va «Kashf ul-mahjub» kitobida barcha mutaaxxir mashoyix oni qabul qilibdurlar va ba'zi mutaqaddim mashoyixiing hajri dog'i dinida ta'n uchun emaskim, muomalot mahjuri asl mahjuri emas. Mutaaxxirlardin Sultoni tariqat Shayx Abusayid Abulxamr q. s. debdurki, ul ulug' holdadur va oning zamonida mashriqdin mag'ribg'acha oningdek yo'q erdi. Shayx ul-islom q. t. debdurki, men oni begonmasmen. Mashoyix muvofaqatig'a va shar'u ilm rioyatig'a va rad qilmasmen. Siz dog'i mundoq qiling va oni mavquf qo'yung va ul kishinikim, oni qabul qilg'an, ko'prak sevarman ondinki, ani rad qilg'ay. Shayx Abu Abdulloh Xafif ani «imomi rabboniy» debdur, Shayx ul-islom debdurki, ul imomdur, ammo barcha elga dedi va zuafog'a haml qildi va shar' rioyati qilmady. Ulcha anga voqe bo'ldi, sabab bu erdi. Oncha da'vo bila bir kecha-kunduzda ming rak'at namoz qilur erdi. Ul. kechakim, kunduzi maqtul bo'ldi, besh yuz rak'at namoz qilib erdi. Shayx ul-islom debdurki, oni ilxom mas'alasida o'lturdilar va anga javr edi. Va dedilarki, ulcha ul deydur, pang'ambarliqdur va andoq emas erdi. Shayx Shibliy debdurlar; ulcha ul dedi, men ham deyirman. Ammo meni telbalik qutqardi va oni aql giriftor qildi. Ul bir kun Junaydning eshigin qoqti. Junayd so'rdiki, kimsan? Dediki, Xaq! Junayd dedi Haq emassen, ammo haq bilasen! qaysi dor yog'ochini saning bila bog'lag'oylar.

Ustod Abu Amr b. Usmon Makkiy juzve tasiif qylib erdi tavhidda, bu toifaning ilmida. Va so'z daqiq erdi va yoshurur erdi. Ul yoshurun olib, oni oshkoro qildi va so'zning diqqati jihatidin el fahm qilmay anga munkir bo'ldilar va mahjur qildilar. Ul Hallojni qarg'adikim, «ilohi birovni onga guzorlakim, ilik oyog'in kesgay va ko'zin o'yg'ay va dorg'a tortqan». Va barcha anga voqe' bo'ldi, ustodi duosi bila.

184. Abdulmalik Iskof q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Abdulmalik Iskof Haldojning shogirdi erdi va umri yuz yigirmaga yetdi va Balxda Sharif Hamzani Uqayliy bila bo'lur erdi va mening otam va piri Forsiy va Abulhasan Tabariy va Abulqosim Hannona barcha, Sharif Hamzai Uqayliyning yoronlari erdilar. Va Sharif maning otamni barchadin ulug'roq tutar erdi. Otam ayttikim, Abdulmalik ayttikim, bir kun Hallojdin so'rdumki, ey shayx, orif kimdur? Ul ayttikim, orif uldurki, uch yuz to'qqizda, zulqa'da oyining yigirma to'rtida seshanba kuni oni Bag'dodda Bobu toqqa eltgaylar va ayog'ilgin kesgaylar va ko'zin o'yg'oylar va sarnigun dordin osqaylar va tanin kuydurgoylar va kulin ko'kka sovurg'aylar. Men mulohaza qilub erdim, hamul tarixda ul deganlarni barchasin anga qildilar. Haykal otlig' shogirdin ham oning bila o'lturdilar.

185. Ibrohim b. Fotik va Ahmad b. Fotik q. s.

Kuniyati Abulfotikdur, bag'dodlig'dur. Junayd va Nuriy q. s. bila suhbat tutubdur. [Junayd uni hurmat qilardi][1]. Ul ham Hallojning shogirdidur. Ul debdurki, ul kunki Shayxqa ul hol voqe' bo'ldi, oqshom Haq s. t. ni tushda ko'rdum. Dedim: Bor Xudoyo, ne erdikim, bandang Husayn Mansurg'a qilding?

Javob keldikim, o‘z sirimni anga oshkor qildim, elga yoydi va anga atoyi berdim, tug‘yon qildi va elni o‘ziga tiladi. Shayx ul-islom debdurki, ul qatl Hallojga naqshdur, yo‘qki ka-romat. Agar ul tamom bo‘lsa erdi, anga ul tushmas erdi. So‘zni ahliga aytmak kerak, to aning sirri fosh bo‘lmag‘ay, chun so‘zni noahlg‘a aytsang, anga haml qilmish bo‘lg‘aysan. Va sanga gazandu uqubat yetkay. Shayx Man-sur Hallojning karomatu maqomati andin ko‘prakdurki, bu muxtasarg‘a siqqay bir ikki. so‘z bila ixtisor qililur. Biravning bir to‘tisi bor erdi, o‘ldi va egasining xotini malul bo‘ldi. Shayx ani ko‘rub dedikim, tilarsen to‘ting tirilgay? Dsdi: har oyina nechuk tilamaganmen? Shayx barmog‘ bila ishorat qildi, qo‘bti tirik. Shayxdin so‘rdilarki: tavhid nedur? Dedikim, [qadim bo‘lgan zotni hodisdam farq qilish][2]. Shayx o‘l-islom debdurki, sufiylar tavhidi bilursenki, nedur? [Yangi paydo bo‘lgan narsani (hodisni) inkor qilib, azaliy narsani isbot etmoq][3].

186. Foris b. Iso Bag‘dodiy q. s.

Kuniyati Abulqosnmdur. Husayin Mansur Hallojning xulafosidindur. [Foris Bag‘dodiy r. mashoyix qavmining so‘zlovchilaridan, ma’rifat iboralarining nozikfahmi edi. Sufiylar ahvoli va haqiqatga ishora qiluvchi yaxshi so‘zlari bor][1]. Xurosonga keldi va o‘tub Samarqandg‘a bordi va anda iqomat qildi dunyodin borg‘uncha. Va Shayx alam ul-Hudo Abu Mansur Moturidiy q. s. muosiri erdi va Shayx Abu Mansur uch yuz beshda dunyodin o‘tti. Va Shayx Foris, Shayx Abulqosim Hakim Samarqandiyg‘a dag‘i muosir. Shayx Abu Mansur va Shayx Abulqosim bir-biri bila musohib ermishlar va murofaqat tariqining dodin bermishlar, to ajal firoq zahri alarning sharbat hayotig‘a qotti va muvosalatlari orasig‘a tafriqa toshin otti. Shayx Foris ul zamon mashoyixining maqbuli ermish. Mazkur bo‘lg‘an mashoyix aning tasqihi holi qilib so‘zlarin o‘z musannafotlarida mazkur qilibdurlar. Shayx Orif Abu-bakr b. Ishoq Kalobodiy Buxoriy o‘z kutubida bevosita andin so‘zlar rivoyat qilibdur. Va Shayx Abu Abdurahmon Sulamiy va Imom Qushayriy dag‘i bir vosita bila andin rivoyatlari bor. Shayx Foris debdurkim, Shayx Husayn Mansurdin so‘rdumkn, murid kimdur? Ul dedijim, murid uldurkim, avvaldin nishoni qasdi Allohu taoloni qilg‘ay va anga yetmaguncha hech nima bila orom tutmag‘ay va hech kishig‘a mashg‘ul bo‘lmag‘ai. Va ham ul debdurkim, [haqiqiy xotir shuki, unga boshqa fikr muxoliflik qilmasa][2].

187. Ahmad b. Husayn Mansur Halloj q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Bokudin eshittimkim, dedikim Husayn Mansur o‘g‘li Ahmad dedikim, otamning so‘ngqi kechasi andin vasiyat talabe qildim. Dedikim, nafsingni bir shug‘lg‘a sol andin burunki, sani bir shug‘lg‘a solg‘ay! Dedimkim, bir nima vasiyatqa orttur? Dedikim, vaqteki, barcha xizmatqa ko‘shish qilg‘aylar, sen bir nimaga ko‘shish qilki, zarran ondin saqalayn ilmidin ulug‘roq va yaxshiroq bo‘lg‘ay. So‘rdumki, ul nedur? Dedikim, ma’rifat!

188. Abu Mansur Govkuloh q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki, Malomatiya mashoyixidindur. Saraxsda bo‘lur ermish. Bir vaqt ashobi safarg‘a borg‘on ermish va o‘zi forig‘ ermish, choh qaziy boshlabdur. Suvg‘a yetkandin so‘ngra aning yonida yana bir choh bunyod qilibdurki, burung‘i chohning tufrog‘larin anga solg‘ay, ul qazilg‘andin so‘ng muning tufrog‘inn solg‘ali yana chog‘ qazmoq bunyod qilibdur. So‘rubdurlarki, telba emassen, ne befonda ishdurki, qilasen? Deb-durki, nafs meni bir ishga mashgul qilmasdin burun men ani bir ishga mashg‘ul qilibmen. Va mashoyixdin ba’zi bu ishni qilibdurlar. Abu Abdulloh Dinovariy daryoda kema ichnda qoldi, muraqqa’in kesar erdi va tikar erdi, to bir bo‘rklukka yetkurdi.

189. Abu Amr Dimnshqiy q. t. s.

Uchunchi tabaqadindur. Shom mashoyixining yagonasi erdi. Va Abu Abdulloh Jallo bila suhbat tutubdur. Va Zunnunning ashobidindur. Uch yuz yigirmada. dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki, andoqki, farizadur anbiyog‘a oyatu mu’jizat izhorn, farzdur avliyog‘a xavoriqi odotu karomat ixfosi, to xalq

fitiag‘a tushmagaylar. Aning so‘zidurki, [tasavvuf borliqni nuqson ko‘zi bilan ko‘rmoq. Balki, benuqson zotni mushohada qilib, barcha noqis narsalardan ko‘z yummoq][1] – bag‘oyat nofi’ va latif so‘zdurur. Va ham ul debdurki, [arvoh Haqqa yaqinlashib soflansa, olam jismlariga toat nuri bilan ta’sir qiladi][2].

190. Muhammad b. Homid Tirmyziy q. s.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abubakrdur. Xuroson mashoyixining javonmardlaridindur. Ahmad Xuzravayhni ko‘rib erdi va uning o‘g‘li Abunasr Muhammad b. Muhammad b. Homid Xurosonning mashohiridindur. Muhammad Homid! debdurki, sening sarmoyang ko‘nglungdur va vaqting. Chun ko‘nglungny mashg‘ul qilsang har zannu gumong‘aki, xotiringga kirgay, zoe’ qilg‘aysen avqotingni ul nimagakim boista va shoista bo‘lmagoy. Qachon sud qila olg‘ay ulki, sarmoyani ziyong‘a bergay? (Va ham aning so‘zidurknm, [insonni eski choponda yurgani birovning yangi to‘nini kiyib yurganidan yaxshiroqdir][1].

191. Abdulloh b. Muhammad Xarroz q. s.

Uchunchi tabaqadindur. Ran mashoyixining yagonasidur. Kuniyati Abu Muhammaddur. Yillar Makkada mujovir ekandur. Hazrati Maxdum r. aning vasfida «Haq go‘yandai bebok va g‘olibi quvvatnok» bitibdurlar. Shayx Abu Imron Kabir bila suhbat tutubdur. Va Shayx Abu Hafs Haddodni ko‘rubdur. Va Boyazidning ashobi ani buzurg tutarlar ermish. Uch yuz yigirmadin burunroq olamdin o‘tubdur. Ul debdurki, [ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi][1]. Va ham ul debdurki, [qalbni Allohu Taolodan boshqa narsaga iltifotdan saqlash Allohu Taologa yuzlanish alomatlaridandir][2]. Va ham ul debdurki, [Zohirda odamlar, botinda hur kishilar kabi bo‘lmoq saxiy, jo‘mardlar axloqidindir][3]. Yusuf b. Husayn Roziy q. s. debdurki, men Abdullohdek ko‘rmaydurmen va Abdulloh ham o‘zidek ko‘rmaydur.

192. Bunon b. Muhammad Hammol q. t. s.

Uchunchi tabaqadindur. Vositiyulasldur va Misrda sokin erkandur. Va anda dunyodin o‘tubdur, uch yuz yigirma yettida Ramazon oyida. [U haqni so‘zlovchilardan,, shariat amriga undovchylardan edi. Mashhur maqomotlari va karomotlari bor][1]. Junayd q. s. va ul asrning mashoyixi bila suhbat tutubdur va Abulhusayn Nuriyning ustbdlaridindur. Shayx ul-islom debdurki, ul hammol emas erdikim, imom erdi. Bir qatla ihtisob qilib erdi. Ani bog‘lab kishi yeguchi arslon ilayiga soldi-lar. Arslon oni islab, yalar erdi Chiqarg‘ondin so‘ngra so‘rdilarkim, arslon seni yalaydurgonda xayolingg‘a ne kechadur erdi? Dedikim, xilofikim, ulamo sibo’ning og‘zin suyida qilibdurlar. Andin so‘rdilar ulug‘roqholdinki, sufiylarg‘a voqe’ bo‘lur. Dedikim, [Allohu taolo kafil bo‘lgan narsalarga orqa qilish, amrlarini ado etish, sirni saqlash. Haqqa ergashib, ikki dunyodan xalos bo‘lish][2]. Uldebdurki, muddate yemakka g‘izo topmadim. Ishim suubatqa yetkanda, boradurg‘onda bir parcha oltun tushub yotur erdi. Olay dedim, olmadimki, luqtadur. Yana yodima ul hadis keldikim, Hazrati Risolat s. a. v. buyurubdurkim, [agar dunyo faqat qondan iborat bo‘lsa ham. musulmonning ozuqasi halol bo‘ladi][3]. Pas, ani oldim va og‘zim qirog‘ida asradim. Ko‘rdumkim, jamoati go‘daklar o‘lturubdurlar. Va biri biyikroq yerda o‘lturub, tasavvufdin so‘z aytadur. Turdumki, eshitaykim, ne deydur? Ham ul dam biri so‘rdikim, [banda qachon sidq halovatiga erishadi?][4] Ul dedi, [og‘zidagi parchani chiqarib tashlaganda][5]. Filhol og‘zimdagini chiqardim va tashladim.

Ul debdurki, Makkada sokin erdim. Ibrohim Havvosni tavofda ko‘rar edim. Andin ko‘nglumg‘a shukuhe yuzlanur erdi. Bir qatla andoq voqe’ bo‘ldikim, ochliq za’ifidin yiqilib hushum zoyil bo‘ldi. Ko‘rdumkim, Ibrohim Xavvos boshimg‘a keldi va dedi: hech nima yermusen? Dedim: kechdur va oqshom yaqindur. Dedi: yaxshi qilursiz ey mubtadiylar, bu tariqda ustuvor bo‘lung, to faloh topqaysiz. Xufton qilg‘ondin so‘ngra keldi va taom kelturdi va dedi: yegil! Ko‘broq voqe’ bo‘lg‘ondur! Ul sahar uyqug‘a qolib, namoz ham favt bo‘ldi va ham o‘y tavofi. Rasul s. a. v. ni tushda ko‘rdumki dedi:

[kimki hirs, ochko‘zlik bilan ovqatlansa, Allohu taolo uning qalb ko‘zini yopib qo‘yadi][6]. Uyg‘onib ahd qildimki, hargiz to‘yguncha nima yemagaymen. Ahmad Masruk debdurkim, Bunon Hammol ba’zi ashobini tilab, znyofat qilibdur, bu baytni o‘qubdurki,

b a y t:

[Kimki bizni chaqirsayu javob bermasak, fazilati ziyoda bo‘ladi.
Agar javob bersak, bizning fazi-latimiz ortadi][1].

193. Ishoq b. Ibrohim Hammol q. s.

Mashoyix akobiridin erdi. Maqomi Lug‘om tog‘i erdi. Bu toyifadin biri aytibdurki Lug‘om tog‘ida yo‘l iturdum. Bir pir ilayimga keldi, eski po‘stin kiygan. Dedi: Allohu akbar, hamonoki yo‘l iturubsen? Dedim: bale! Dedi: o‘ttuz yildurki, bu tog‘da odam yuzin ko‘rmaymen. Va asosin menga berdiki, bu sanga yo‘l boshlasin. Bir necha qadam yo‘l bordim, o‘zumni Antokiyada ko‘rdum. Asoni qo‘ydumki, vuzu’ qilg‘aymen, aso g‘oyib bo‘ldi. Antokiya ahliga ul so‘zni anttim, ersa, dedilarkim, ul Shayx Ishoq b. Ibrohim Hammoldurkim, kishi ani oz ko‘rar. Taassuf yedim.

194. Bunon b. Abdulloh r. t.

Kuniyati Abulhasandur. Misr mashoyixining buzurglaridindur. Ul debdurki, har so‘fikim, ko‘ngli ro‘zi g‘amiga bog‘liq bo‘lg‘ay, anga kasb buyurmoq kerak.

195. Shaybon b. Ali q. t. r.

Misr mashoyixining mutaqaddimlaridindur, Mustajob udda’va erdi. Mashoyixdin ko‘p kishi oning murididur va tariqat ilmida yaxshi so‘zlari bor. Debturlarki, muridlaridin biri andin ruxsat tiladikim, tajrid tariqida hajga borg‘ay. Ul dediki, avval ko‘nglungni sahvu g‘aflatdin mujarrad qil va havodin nafsingni va lag‘vdin tilingni, iynak tajarrud hosil »bo‘ldi. Xoh dunyolig‘ing bo‘lsun va xoh bo‘lmasui.

196. Abulhasan b. Muhammad Muzayyin r. t.

Uchunchi tabaqadindur. Oti Ali b. Muhammad, Bag‘dod ahlidin. Va Junayd va Sahl Abdulloh q. s. bila suhbat tutubdur. Makkada mujovir erdi. Uch yuz yigirma yettida Makkada dunyodin o‘tubdur. Shayx ul-islom debdurki, Abulhasan Muzayyin ikkidur: biri kabir, biri sag‘ir. Muzayyini Kabir Bag‘doddindur va anda madfundur. Aning shogirdi debdurki, ul dedikim, [bandaning o‘rinsiz gapi Allohning g‘azabini keltiradi][1]. Muzayyini Sag‘ir ham Bag‘doddindur, vale Makkada madfundur. Va debdurlarki, bu ikki Muzaymin bir-birining xolalarining o‘g‘lonlaridururlar. Va Muzayyini Sag‘ir debdurki, Tengri taologa yo‘llar adadi osmonning yulduzlari adadidin ko‘prakdur. Va men alarning birining orzusindamen va topmasmen. Va ham ul debdurki, Makkada erdim, manga safar azimat bo‘ldi. Bir «eoga yettimki ani bi’ri Maymun derlar. Ko‘rdumki, bir yigit jon bermak holatidadur. Dedimki, aytki: «La lloha illalloh». Ko‘zin ochib dediki,

b a y t:

[Agar men o‘lsam ham qalbim muhabbatga limmolimdir.
Zero jo‘mardlar muhabbat dinida o‘ladilar][2].

Va jon taslim qildi. Aning ishin saranjom qildim va namozin qilib dafi qildim. Va safar doiyasi xotirimdin chiqdi va yonib Makkag‘a keldim. Derlarki, andin so‘ngra o‘ziga sarzanish qilib aytur erdiki, hajjomiy kelib, avliyoullohga shahodat talqini qilur.

197. Abulhasan Soyig‘ Dinavariy q. t. s.

Uchunchi tabaqadindur. Oti Ali b. Muhammad Sahldur. Dinovar mashoyixidindur va Misrda bo‘lur erdi: Uch yuz o‘ttuzda Misrda dunyodin o‘tti. Shayx Abulhasan Qarofiy va Duqqiy va Abu Usmon Mag‘ribiy q. s. deb-durki, hech kishi ko‘rmadim mashoyix orasida Abu Yaqub Nahrajuriydin yorug‘roq va nuroniyroq va Abulhasang Dinavariydin haybatliroq. Ul Abu Ja’far Saydaloniyning shogirdidur. Ul debdurki, dunyodin ikki qatlag bezor bo‘lmoq kerak: Bir qatla chiqsang xalq qabul yuzidin sanga yuzlangaylar, yana dunyog‘a yongaysen, yo‘q hirsu shug‘l bila, onchaki el qabulin. zoyil qilg‘ay, botin bila andin munqate’ bo‘lg‘aysen, to dunyoning tarkining gunohi aning talabining gunohidin ulug‘roq bo‘lmag‘ay, nechunki xalq qabulining fitnasi dunyog‘a iqbolning fitnasidin ulug‘roqdur. Va ham ul debdurki, [orzu va umid inson tab’ining buzilishidandir][1] Va ham ul debdurki, [o‘zingni yaxshi ko‘rishing – o‘zingni halok qilishingdir][2]. Andin so‘rdilarki, murid kimdur va aning sifati nedur? Bu oyatni o‘qudikim, [to ularga keng yer torlik qilib qolguncha va dillari siqilib, Allohning faqat o‘ziga tavba qilish bilangina qutulish mumkin ekanini bilgunlaricha][3].

198. Abulhasan Subayhiy q. s.

Uchunchi tabaqadindur. Ba’zi debdurlarki, ul Hasan b. Abdulloh b. Bakrdur. Basra ahlidindur. Derlarki, aning saroyida bir uy erdi, yerda qozg‘on. G‘ttuz nil andin chiqmadi va mujohada tortib ibodat qildi. Va derlarki, taom yemas erdi. Ani Basra eli Basradin chiqardilar. Susqa bordi va anda dunyodin o‘tti va qabri anda-o‘qdur. Shayx ul-islom debdurki, ul Basra masjidi eshikida turub erdi. Ul vaqt Basra masjidi g‘alabaliqdin andoq erdikim, el sajda bir-birining uchasida qilurlar erdi. Ul shogirdig‘a boqib ayttikim, bu xalqnikim ko‘rarsen, bular behishtni to‘la qilmoq uchundur, bu ishkina bizga tushub turur. Ul debdurki, [g‘arib – o‘z vatanida musofir bo‘lgan kishidir][1]. Va ham ul debdurki, [g‘arib – o‘ziga monandi bo‘lmagan kishi][2]. Va ham ul debdurki, [g‘arib–o‘zi kabilar bilan suhbat qurgan kishi][3].

199. Abulhasan Suyutiy r. t.

Shayx ul-islom debdurki, ul bu toyifadin erdi. Shayx Abu Ali Rudboriy derkim, Horun, Sahl Abdullohning sohibi dedikim, Abulhasan Suyutiy bila bodiyada erduk. Och bo‘lsak erdi va hayu hilla yo‘lin bilmasak erdi, Abulhasan bo‘ri uni qilur erdi, to har yerda it bo‘lsa, ani eshitsa, un qilur erdi, ul un bila bilur erdukkim, anda eldur. Va borib ashob uchun yemak kelturur erduk. Ham Shayx Abu Ali Rudboriy debdurki, hech kim yoronlar mehribonlig‘ida Abulhasan Suyutiydek emas erdi.

200. Abulhasan b. Sha’ra r. t.

Oti Amr b. Usmon b. Hakim Sha’radur. Sufiylarning mashoyixidindur. Shayx Abu Said Moliniy ani arba’inida kelturubdurki, Misr mashoyixidin erdi. Derlarki, aning qabridin Qur’on o‘qumoqning unin eshiturlar. Har kishi aning ziyoratig‘a borsa erdi, eshitur erdi. Vallohu taolo a’lam.

200. Abulhasan b. Sha’ra r. t.

Oti Amr b. Usmon b. Hakim Sha’radur. Sufiylarning mashoyixidindur. Shayx Abu Said Moliniy ani arba’inida kelturubdurki, Misr mashoyixidin erdi. Derlarki, aning qabridin Qur’on o‘qumoqning unin eshiturlar. Har kishi aning ziyoratig‘a borsa erdi, eshitur erdi. Vallohu taolo a’lam.

201. Abu Homid Asvad Ma’ruf Zanjiy. r. t.

Abu Ali Rudboriyning ustodlaridindur. Abulhasan Muzayynn debdurkim, Shayx Homid Asvad Zanjiy o‘ttuz yil masjidi Haramda erdi. Ka’ba o‘trusida o‘lturdikim, tashqari chiqmadi, magar tahorat uchun. Va hech kishi aning nima yeganin ko‘rmaydur va ichkanin ham, Abu Homidqa har qachon vajd yetishsa erdi, rangi oqarurerdi, chun ul vajd taskin topsa, yana ham ul rangiga borur erdi.

202. Ibrohim b. Dovud Qassor Riqqiy r. t.

Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati, Abu Ishoq. Shom mashoyixining ajillasidindur. Junayd va Abu Abdulloh Jalloning aqronidindur. Umri uzoqqa tortti, uchunchi tabaqag‘a yetti. Va Shayx Sulamiy ani o‘z bitigan tabaqotda uchunchi tabaqada bitibdur. Uch yuz yigirma yettida dunyodin bordi. Zunnun suhbatiga yetib erdi. Shayx ul-islom debdurki, ul o‘ttuz yil bir safar qildi, to inkor ahlining ko‘nglin bu toifa bila tuzatgay. Ul beandomlig‘laru beboklig‘larkym alardin zohir bo‘lur erdi, barchasin salohga kelturdi. Ko‘r, ne javonmardlig‘ bo‘lg‘aykim, umrini sufiy hurmatini tilamakka iysor qilg‘ay. [Islom va tariqatdagi xizmatlari uchun Alloh unga eng yaxshi ajru mukofotlar bersin!][1].

Ibrohim Qassor debdurki, [har bir insonning qiymati himmatiga ko‘radir. Agar himmaty dunyo bo‘lsa, uning qiymati yo‘q. Agar himmati Allohning roziligi bo‘lsa, uning qiymati nihoyasini tasavvur qilish va undan voqif bo‘lish mumkin emas][2].

Ibrohim Qassor debdurki, sanga dunyodin ikki nima basdur: bir faqirning suhbati va avliyoullohdin bir valining xizmati. Va ham debdurki, [kimki, Allohdan boshqa narsa bilan aziz bo‘lsa, albatta u azizligida xordir][3].

203. Abu Ja’far Haffor r.

Junaydning ashobidindur. [Junayd bila qariyb tengdosh. Odamlar uni Junaydning qarindoshlaridan, o‘zi esa do‘stlaridan hisoblaydi] Shayx ul-islom dedikim, Junayd debdurki, yigitligimda Bag‘dodda kezar erdim. Bir buzuqqa kirdim, ko‘rdumki, Shayx Ja’far Haffor Bag‘dodiy o‘lturubdur. Ranjur bo‘ldumki, anga karohiyat yetmish bo‘lg‘ay, xijolat yuzidin dedim: Ey Shayx, bir so‘z ayt, to yonay! Dedi: ne so‘z aytan? Dedim anga: yo‘l nechukdur? Dedi: bashorat bo‘lsun sangakim, ulsanga xaridor bo‘lmasa erdi, sen anga xaridor bo‘lmas erding va agar sendin anga keraklik bo‘lmasa erdi, sen andin so‘rmas erding.

204. Abu Ja’far Sumoniy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurkim, ul bu toifadindur. Ul debdurkim, [do‘sting seni gunohlardan qo‘rqitadi, Rafiqing aybingni ko‘rsatadi. Birodaring shunday kishikim, sani g‘aybni biluvchi zotga yo‘naltiradi][1].

205. Abu Ja’far Saydaloniy r. t.

Abulhasan Soyig‘ Dinovariyning ustodidur va Junayd va Abulabbos Ato q. s. ning aqroni. Makkada mujovir erdi va Misrda dunyodin o‘tti va qabri Zaqqoq Misriyning yonidadur. Abu Said Harroz q. s. bila suh-bat tutubdur va Ibn. ul-Arabinning ustodlaridindur. Shayx ul-islom debdurki, Abulhasan Soyig‘ Dshgavariy dedikim, mening ustodim Abu Ja’far Saydaloniy dedikim; avvali ibodatimda Hazrat Risolat s. a. v. ni tush ko‘rdumki, o‘lturubdur. Va bu toifadin bir jamoat, mashoyix ul Hazratning tegrasida o‘lturubdurlar. Nogoh osmondin bir farishta indi va ilgida bir tasht va bir oftoba. Va ul Hazratning muborak iligida suv quydi. Va birin-birin mashoyix ilgiga ham quydi va iliglarni. yuvdilar. Chu manga yetti, dedilarki, ul bu toifadin emas. Ul farishta tashtni ko‘tardi va ketti. Men ayttim: Yo Rasululloh, men agarchi bu toifadin emasman, ammo sanga zohirdurki, bularning do‘stlarimen. Mustafo s. a. v. dediki, har kim bularni sevar, bulardindur. Bas ul malak kelib, mening ham ilgimga suv quydi va ilgimni yuvdum. Filhaqiqa mosivallohdin ul Hazrat s. a. v. mening sari boqib tabassum qilib dedikim, chun. bizni sevarsen, bizing bilasen!

206. Abu Ja’far Ahmad b. Hamdon b. Ali b, Sinon r. t.

Uchunchi tabaqadindur, Nushoburdindur. Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutubdir va Abu Hafs Haddodni ko‘rubdur va uch yuz o‘n birda dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki, (itoatkorlarning toatlaridan kibrlanib, osiylarga takabburlik qilishlari osiylarning gunohlaridan yomonroq va zararliroq][1].

Va ham ul debdurki, [kishining chiroyi – so‘zining go‘zalligida, kamoli esa fe’lining to‘g‘riligida][2].

Va ham ul debdurki, [Haqqa bog‘langan kishining haqiqiy alomati – Allohdan qaytadigan narsalarga

chalg‘imasligidir][3].

207. Abu Ja’far Farg‘oniy r. t.

Oti Muhammad Abdullohdur. Ul debdurki. [Tilning takallumi da’vo qiladi, qalbning tavakkuli ma’no beradi]1. Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Boqu dedikim, Abu Ja’far Farg‘onin Abu Usmon Hiriy-ning xodimidur.

Bir kun Nishoburda oning rikobida borur erdi.. Yeg‘nn yog‘ib erdi va yer balchuq erdi. Abu Ja’farnish; ko‘adlida shayxidin kechxiki, ul otlig‘ ne bilgayki, maning holim.bu bolchuqda nechukdur? Lahza o‘tmadiki, shayx otdin tushti, dog‘i Abu Ja’farg‘a ayttiki, kel, bu otni min! Abu Ja’far istig‘for qildikim, nechuk andog‘ bo‘lg‘ay?

Shayx xohiy naxohiy hukm qildi. Dog‘i oni otqa mindurdi. Va g‘oshiyani egniga solib, oning jilovida bordi. Abu Ja’far xyjil bo‘lub, otdin tushdi. Shayx dedi, ey Farg‘oniy, sen otlig‘, men olingda yayog‘ yururda holing ne erdi? Dedi: Ey shayx, so‘rmag‘il. Shayx dedi: men ham otlig‘ sen olimda yayog‘ yururda menga ul hol erdi. Bu ish bila oni adab qildi.

208. Abu Ja’far Somoniy r. t.

Ul debdurki, sayohatda Lubnon tog‘iga tushtum. Anda jamoaty abdol yo‘luqdilar. Alar xizmatida bir yigit erdi. Har oqshom bir miqdor giyohni pishurub, alar xizmatida keltirur erdi. Uch kun anda edim, alarga hol bu erdi. To‘rtinchi kun dedilarkim, bizing maoshimizni ko‘rdung, sen bizing bila o‘tkara olmassen, borg‘il! Manga xayr duosi qildilar va alardin ayrildim. Necha vaqtdin so‘ngra Bag‘dodqa tushtum, ul nigitni bozorda ko‘rdumki, dallollik qilur erdi. Taassub qildimkn, ul bo‘lg‘aymu? Tahqiq qildim, ul erdi. Ul ish kayfiyatin so‘rdum. Dedikim, bir kun biryon balig‘ pushurub, qismat chog‘ida yaxshiroq qismni o‘z qoshimda qo‘ndum. Bu yerga tushtum va bu holgakim ko‘rarsen, qoldim.

209. Abu Ja’far Haddod r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Abu Ja’far Haddod ikkidur: biri sag‘ir va biri kabir. Kabir bag‘dodlig‘dur va Junand va Ruvaym q. s. aqronidin. Va Abu Ja’far b. Bukayr Haddod Sag‘ir Misrdindur va Kabiriing as-hobidindur. Ibn Ato bila suhbat tutubdur va shogirdlig‘ qilibdur. Va Abu Turob Naxshabiyni ko‘rubdur va suhbat ham tutubdur. Shayx ul-islom debdurki, Abu Ja’far Haddod o‘n yetti yil Misrda temurchilik qilib, aning muzdidin hech nima o‘z nafsiga tasarruf qilmas erdi va fuqarog‘a nafaqa qilur erdi. Oqshom necha eshikdin savol qilib iftor qilur erdi. Ul debdurkd. (qachonki, faqirning to‘nida faqirlik alomatini ko‘rsang, uning najot topishiga umid qilma][1].

210. Abu Ja’far Mu’oz Misriy r. t.

Abu Hasan Sirvoniy Sag‘irning ustodidur. U debdurki, Abu Ja’far Haddod va Abu Abdulloh Barqiy ikkalasi Misrda erdilar. So‘rdumki, tasavvuf nedur? Ikkalasi dedilarki, tasavvuf aning asaridurki, yerda goh oshkora qilur va goh pinhon. Shayx ul-islom debdurki, agar ming nil umr ko‘rsang, bu bobda mundin yaxshiroq so‘z maxluqdin eshitmagungdir. Yeru ko‘k va barcha sanoyi’in oshkora ko‘rguzdi, hech qaysida oncha oshkora emaski, aning do‘stlari ko‘zida! Aning do‘stlarin tilamak va alar ziyorati uchun sanru safar qilmoq muning uchundur.

211. Abu Abdulloh Barqiy r. t.

Misrning kibori mashayixidindur. Shayx ul-islom dedikim, Abu Ali Kotib Abu Usmon Mag‘ribiyg‘a dedikim, Abu Abdulloh Barqiy bemor erdi, aning uchun bir dam suv kelturdilar, ichmadi va dedikim, mamolikda hodisa turibdur, to ma’lum qilmag‘aymenki, nedur, ichmagaymen. Un uch kun hech nima yemadi va ichmadi to xabar keldikim, Qaromita Haramg‘a kelibdurlar va xalqni qatl qilibdurlar va Hajar ul-asvodni ushatubdurlar, andin so‘ng nima yedi va ichdi.

212. Abu Ja’far Majzum r. s.

Abulabbos Atoning aqronidindur. Ro‘zgorining g‘avsi erdi va g‘avs yashirundur, yo xayrda, yo sharrda. Ibn Hafif .debdurkim, Abulhusayn Darroj dedikim, Makka safarida manga rafiqlar nnqoridin malolat bo‘ldi. Baridin ayrilib, muqarrar qildnmkim, yolg‘iz borg‘aymen. Chun Qodisiya masjidig‘a yettim, anda pire ko‘rdum – majzum va anga azim baloe zohir. Manga salom berib dedikim. Ey Abulhusayn, hajga ozimsen? Karohiyat bila ledim: Bale! Dedi: hamroh kerak? Uzumga dedimki, sahih hamrohlardin ayrildim, bu nav’ ma’yubqa «yo‘luqgum, tiyralik yuzidin. Dedim: yo‘q! Dedi: hamrohlig‘ qil! Dedim, vallohki, qilmag‘umdur. Dedi: Ey Abulhusayn! [Allohu taolo zayfga shunday ma’naviy quvvat beradiki, kuchli kishi taajjubga tushadi][1]. Dedim: andoqdur va g‘oyati inkor bila azimat qildim. Chun manzilga yettim, ani ko‘rdum, farog‘at va huzur bila o‘lturubdur. Manga boqib dedikim, [Allohu taolo zaifga shunday ma’naviy quvvat beradiki, kuchli kishi taajjubga tushadi][2]. G‘oyati kuduratimdin hech nima demay o‘ttum, ammo ko‘nglumda aning saridin taraddude va vasvose paydo bo‘ldi. Chun sahar yana bir manzilg‘a yetib, masjidg‘a namoz uchun kirdim, ko‘rdumki, munda ham farog‘at bila o‘lturubdur. Yana manga boqib ayttiki, [Allohu taolo zaifga shunday ma’naviy quvvat beradiki kuch-li kishi taajjubga tushadi][3]. Ilayida tufroqqa tushtum va ayttimki, Tengri va sanga uzr taqsir qo‘larmen. Dedi: maqsudung nedur? Dedimki, xato qildim. hamrohlig‘ing maqsudumdur. Dedikim, sen hamroh qil-masingg‘a ont ichting, manga sening ontingni yolg‘on qilurg‘a karohiyat kelur. Dedim: bas, andoq qilki, har manzilda seni ko‘rgaymen. Qabul qildi, yo‘l ranji va ochlig‘ mendin zoyil bo‘ldi va hech anduhu taraddud manga qilmadi, andin o‘zgakim, botroq manzilg‘a yetgaymen va ani ko‘rgaymen. Chun Makkaga yetishtim, mashoyix xizmatida ul holimni ayttim, Shayx Abubakr Kattoniy va Shayx Abulhasan Muzayyin q. s. ayttilarkim, ey faqir, ul Shayx Abu Ja’far Majzumdur va biz o‘ttuz: yildur, aning diydori orzusidadurbiz. Agar yana ko‘rsang, bizga xabar qilg‘il! Har qachonkim ko‘rdum, aning diydori shavqi meni andog‘ mash’uf qildikim, alarg‘a. xabar qila olmadim. So‘nggi qatla ko‘rganda iltimos qildimkim, meni bir duo qil! Dedi: sen duo qil, men «omin» deyman! Uch duo qildim va ul «omin» dedi. Biri bu erdikim, Xudoyo mening ro‘zimni kundinkunga yetkur! Va mo‘stajob bo‘ldi va yillardurki, manga hargiz bir kech o‘tmaydurkn, tonglag‘i ro‘zim mavjud bo‘lmamish? bo‘lg‘ay.

Yana bir duom bu erdikim, faqru darveshlikni ko‘nglumg‘a mahbub qil! Va holo hech nima bila oncha muhabbatim yo‘qdurki, faqru darveshlik bila!

Va yana biri bu erdikim, meni bu toifa bila mash– hur qil! Umidim uldurki, bu ham mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay. Shayx ul-islom debdurki, hech kimga haqorat. ko‘zi bila boqmangki, aning do‘st.lari yashurun bo‘lg‘aylar. Agar basiratu farosat bila bu toifag‘a boqmasang o‘zungg‘a sitam qilmish bo‘lg‘aysen. Shayx Abulhasan Xaraqoniy q. s. debdurki, chun amonat el orasidin chiqti, ul do‘stlarin eldin pinhon qildi. Va debdurki, mek kim bo‘lg‘aymenkim, seni sevgaymen, do‘stlaringni se-varmen.

213. Shayx Abu Ja’far Domg‘oniy q. s.

Bu toifadin birov debdurki, Madinada erdim, bir ulug‘ boshlig‘ ajame ko‘rdumki, Hazrat Risolat s. a. .v. vido’e qiladur. Chun forig‘ bo‘lub chiqti, aning so‘ngg‘icha bordim, to Zul-Hulayfa masjidida namoz qildi va chiqti. Va men keynicha chiqtim. Meni ko‘rdi va dedikimg ne tilaysen? Dedimkim, tilarmenki, sanga hamroh bo‘lg‘aymen. Ul man’ qildi va men ilhoh qildim. Dediki, agar, albatta, kelursen qadamingni mening qadamim yeridin o‘zga yerda qo‘yma! Qabul qildim. Bu dastur bila borur erduk. Sahar chog‘i Makkaga kirduk. Ul g‘onib bo‘ldi, men tavof qildim. Va Shayx Abubakr Kattoniy va jamoati mashoyix o‘lturub erdilar, salom berdim so‘rdilar: qaydin kelasen? Dedim: Madinadin. Dedilar, qachon chiqibsen? Dedim: o‘tkan oqshom. Alar bir-biriga boqishtilar. Shayx Abubakr mendin so‘rdiki, kim bila hamroh erding? Hamrohimning nishonalarin sharh qildim. Shayx dedikim: ul Shayx Abu Ja’far Domg‘oniy va bu ish aning holi va martabasi janbida ozdur. Va manga dedikim, ey farzand, bildimki, bu sening holing zmas. Va so‘rdimkim, yururda yerni qadamyng ostida nechuk mulohaza qilding? Dedimki, suv mavjidekki, kema ostyg‘a kirgay.

214. Shayx Abulhusayn Varroq q. s.
Uchinchi tabaqadindur. Oti Muhammd b Sa'd Nishobur mashoyixidindur va Shayx Abu Usmon Hiriy q. s. ashobidindur. Uch yuz yigirmadin burunroq dunyodin o'tubdur. Ul debdurki, karam afvda uldurki, afv qilg'andin so'ngra mujrimning jinoyatin yod qilmag'aysen. Va ham ul debdurki, ko'ngul tirikligi ul han yodidurkim, hargiz o'lmas. Va debdurki, Haq taolo do'stlig'ining alomati aning do'stining mutobaatidur, ya'ni Rasul s. a. v.

215. Abulhusayn Darroj q. s.
Uchinchi tabaqadindur. Bag'dodlig'. Ibrohim Xavvos .q. s. ning xodimi erdi. Uch yuz yigirmada samo'da dunyodin o'tdi. Shayx Abu Amr Dimishqiy va Shayx Abu Imron Roziy bila suhbat tutubdur. Shayx ul-islom debdurki, Abulhusayn Darroj Bag'doddin Yusuf b. Husayn Rozing'a keldi. Ul so'rdiki, ne ishga kelding? Dedikim, sening ziyoratingg'a. Dedikim, agar yo'lda senga birov bir orasta saroy va bir jamila kanizak bersa erdi, senga mening ziyoratimdin mone' kelgaymu erdi? Dediki, bilmon. Tengri taolo meni bu ish bila imtihon qilmadi. Shayx ul-islom debdurki, yaxshi javob beribdur. Soyili xud bu savolni qilmasa kerak erdi.

216. Shayx Bukayr Darroj q. t. s.
Abulhusayn Darrojning qardoshidur. Bag'dodda bo'lur erdi. Abulhusayndin fozilroq va zohidroq va ulug'roq. Ul debdurki, to men bu yo'lga kiribmen, hargiz fosid xotir ko'nglumga kirmaydur.

217. Shayx Abulhusayn Salomiy q. s.
Shayx ul-islom debdurki, buzurg kishi erdi va sohibi tarix erdi. Ul debdurki, Iso Mavsilt! Rohib erdi. Ul debdurki, musulmonlarg'a bir oyat indi, andin so'ngra bilmonki, Haq s. t. ga nechuk ozor yetkurganlar.
[Uch kishining o'zaro shivir-shivirlari bo'lsa, albatta. U zot ularning to'rtinchisidir][1].

218. Abulhusayn MoLikii q. s.
Oti Ahmad b. Said Molikiydur. Bag'dodyaig'dur. fasih erkandur va Junayd va Nuriy q. s. bila va ul tabaqadag'ilar bila suhbat tutubdur. Tarsusda bo'lur ermish va anda dunyodin o'tubdur.

219. Abulhusayn Hoshimiy q. s.
Ul debdurki, Junayddin so'rdilarki, ko'ngul qachon xush bo'lg'ay? Dedi, har vaqtki, ul ko'ngulda bo'lg'ay.

220. Shayx Abubakr Vositiy q. t. s.
Oti Muhammad b. Musodur. [Ibni Farg'oniy r. deb tannlgan edi][1]. Junayd va Nuriyning ashobining qudamosidindur. Va qavmning ulamo va mashoyixidindur. Tasavvuf usulida hech kim andoq so'z aytmandur. Usul va ulumi zohirda olim ermish. Shayx ul-islom debdurkim, ul tavhid imomidur va mashriq imomi ishorat ilmida. Ul yigitlikda Iroqdin keldi va anda aningso'zi ozdur. Va Marvga keldi va dedi: shahrdin shahrg'a kezarmen, bir eshitib, anglag'uchining orzusida! Dedilar: Marvda nedin qaror tuttung? Dedikim, anyng elin tezfahmroq ko'rdum. Ham Marvda uch yuz yigirmadin burun dunyodin o'tubdur. Qabri anda o'qdur, Shayx Abulhusayn Nurit! yonida. Shayx ul-islom debdurki, uch kishidurkim, biriga quni boqarmen va biriga boqarmen va biriga yuqori boqarmen. Yahyo Mu'oz Roziyg'a quni boqarman va Nasrobodiyga boqarman va Vositnyg'a yuqori boqarmen! Shayx ul-islom debdurki, Xurosonda hech kishidin bu tavhid kelmadikim, Vosntiydin keldi. Ul debdurkim, men va ul va ul va men va mening kirdornm va aning podoshi va mening duom va aning ijobati barcha ikkilikdur. Shayx ul-islom debdurki, Vositing'a bir ustod erdi va bir shogird. Ustod Junayd erdi va

shogird Abulabbos Sayyorsh! Va Junaydning Vositiyg‘a nomasi bor va bu nav’ bitibdurkim, [Bismillohir rahmonir rahim. Senga Allohning salomi, rahmati va baraqoti bo‘lsin, ey Abubakr! Alloh bizlarga va senga ofiyat bersin!][2] Oxirida debdurki, ulamo va hukamo Tengri taolodin xalqqa rahmatdur. So‘zungda andoq qilki, xalqqa rahmat bo‘lg‘aysen va o‘zungga balo. Uz holingdin chiq va alar holyg‘a bo‘lki, alarga so‘z aytursen, alarning toqat va holati qadarida alarg‘a so‘z ayt va xitob ul mavze’ga qilkim, alarni anda toparsen. [Bu so‘z sen va ular uchun eng yetukdir va ularga pand-nasihat qilib, o‘zlari haqida yetuk so‘zlarni ayting!][3] Shayx ul-islom debdurki, Junayd bildikim, Vositiy el xurdi holig‘a so‘zaytmas, balki ham inchka va ham biyik ayturki, el andin bahra topmaslar, anga rifqu rahmat sari dalolat qildi.

221. Abubakr Zaqqoqi Kabir q. t. s.

Shayx ul-islom ani uchunni tabaqadin tutubdur. Va oti Ahmad Nasrdur, Misrliq. Va Abubakr Zaqqoqi Sag‘irning ustodidur va Abubakr Duqqining ham Junaydning ashobi va aqronidin erdi. Cho‘n Zaqqoqi Kabir dunyodin o‘tti, Shayx Abubakr Kattoniy dedikim, [Misrga kirish uchun fuqaroning hujjati kesildi][1]. Ul debdurki, [bu yo‘lning qiymati inson ruhidir][2]. Va aning so‘zidurki, bu so‘zlar biravga shoyistadurki, yillar Tengri taolo uchun mazbalalarni joni bila supurmish bo‘lg‘ay.

222. Abubakr Zaqqoqi Sag‘ir q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul bag‘dodlig‘dur. Zaqqoqi Kabiriing shogirdidur. Ul hadisqa mashg‘ul erdi, so‘ngra bu toifa tariqig‘a kirdi. Bir ko‘zi bor erdi. Abubakr Roziy debdurki, andin ko‘zining zoe’ bo‘lgani jihatin so‘rdum. Dedi: bodiyag‘a kirdim, tavakkul bila. Dedim: manozil ahli iligidin hech nima yemayin. Vara’din, ochliqdin bir ko‘zum nriyub yuzumga oqdi. Ul debdurki, qirq yildurki, Junayddin fanoda bir so‘z: zshitibmen, hanuz aning choshnisi jonimdadur.

223. Shayx Abubakr Kattoniy q. t. s.

To‘rtinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Ali b. Ja’far Bag‘dodiy Kattoniydur. Junayd ashobidindur. Va yillar Makkada mujovir erdi. Anda uch yuz iigirma ikkida dunyodin o‘tti, ul yilki, Abdulvohid Isfahoniyki, kuniyati Abulg‘aribdur, Tarsusda o‘tti. Murta’ish debdurki, Kattoniy Haramning charog‘idur. Kattoniy so‘zidurkim, [so‘filar zohirda qul, botinda, hurdirlar][1]

Shayx ul-islom debdurki, ul Xizr a. s. ning musohibi erdi. Xizr anga debdurki, yo Abubakr, bu toifadin barchasi meni tanirlar va men ba’zini taniyman. Ul debdurki, Xizr bu so‘z isbotig‘a ayttikim, Yamanda Safo masjidida xalq Abdurrazzoq qoshida hadis o‘qurlar erdi va masjid go‘shasida bir yigit boshin xirqa yoqasig‘a tortib erdi. Men anga dedimki, Abdurrazzoq hadis aytadur, xalq eshitadur, sen dagi nechun majlisg‘a borib eshitmaysen? Ul dediki, men munda Razzoqdin eshitadurmen, sen meni Abdurrazzoqqa dalolat qilursen. Men dedim, agar chin aytasen, meni aytki, kimdurmen? Dedi, Xizr. Va yana boshin xirqag‘a tortti. Shayx ul-islom dediki, andoqki, botinda Razzoqdin eshitadur erdi, agar zohirda Abdurrazzoqdin eshitsa, zarifroq bo‘lg‘ay erdiki, qavmdin alar ulug‘roqdurlarkim, zohirlari avom zohiridek bo‘lg‘ay va botinlari xos botini dekkim, shariat tang‘adur va haqiqat jong‘a va sirg‘a. Ham aning so‘zidurkim [kimki ustozidan adab o‘rgan-mabdi, u behudago‘ydir][2]. Ham ul debdurkim, [Dunyo uchun taning bilan, oxirat uchun qalbing bilai mashg‘ul bo‘l][3] Shayx Abubakr Roziy debdurki, Shayx Abubakr Kattoniy bir qorini ko‘rdikim, oq bosh va oq soch bila savol qilib yurur erdi. Dedikim, [Bu odam yoshligida Alloh amrini xor qilganligi uchun Alloh uni qariligida xoru zor etdi][4]. Shayx ul-islom debdurkim, Shayx Abubakr Kattoniyni Payg‘ambar s. a. v. ning shogirdi debdurlar Baski, ul Hazratni tush ko‘rar erdi va bilur erdiki, qayasi kecha yo qaysi kun tush ko‘rgusidur. Andin mushkilot savol qilur erdi va ul Hazratdin so‘rub, javobin topib, soyillarg‘a javob aytur erdi. Bir qatla Mustafo s. a. v. anga ayttikim, har kishi har kun qirq bir qatla aytsaknm, «yo Hay, yo Qanyum, yo lo iloha illa anta» chum ko‘ngillar o‘lgay, aning ko‘ngli o‘lmagay. Shayx ul-islom dedikim, Shayx Abulqosim Dimishqiy dedi; Solimshshing ustodikim – Kattoniydin- so‘rdumkn, Tasavvuf nedur? Dedikim,

kaminasi ulkim, sen anglamag‘aysen. Birav.Abuhafs q.s. din so‘rdikim, tasavvuf nedur? Dedi: so‘fiy hargiz so‘rmag‘anki, so‘fiy kimdur Shayx ul-islom dedikim, bu ilm Tengrining asroridur va bu qavm sohibi asror, posbonning muluk rozi bila ne ishi bor?

224. Abubakr Ato Juhfiy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki, bir kun bir biyik yerda o‘lturub erdim. Qo‘rdumki, sayl kelur va bir amori keltirur va bir kishi ul amorida o‘lturub biyik-biyik: ayturki: [Sening amru farmoningdaman, Allohim, sendan madad tilayman. Meni sel balosiga mubtalo qilgan bo‘lsangda, uzoq vaqtlardan beri menga ofiyat berding][1]. Va sayl eltur erdi ani daryog‘acha va Juhfag‘acha. Va Juhfa sayl mavzeidur. Va ani aning uchun Juhfa derlarki, sayl anda kirgay, har ne bo‘lsa supurgay va eltgay.

225. Abubakr Saqqoq q. t. s.

Oti Muhammad b. Abdullohdur. Abusaid Xarroa q. s. ning sohibi. Ul debdurki, Abusaid Xarroz dediki, bir kun biyobonda borur erdim. Unga yaqin it, qo‘ychilar itidin, manga hamla kelturdilar. Chun yetishdilar, muroqabag‘a mashg‘ul bo‘ldim. Nogoh, bir oq it oralaridin chiqdi va alarg‘a hamla qildi va alarni mendan yiroq surdi. Va ul itlar yiroq ketmaguncha mendin ayrilmadi. Chun alar tamom kettilar, ul g‘oyib bo‘ldi.

Va ham ul debdurki, Abusaid Xarroz dedikim, [Allohning zikri bilan bo‘l! Agar holing quvvatli bo‘lsa uning zikriga g‘arq bo‘lib ketasan. Alloh ham seni zikr qiladi][1]. Shayx ul-islom dediki, «til zikr boshig‘a bordi va zikr mazkur boshig‘a».

226. Abubakr Shibliy q. t. s.

To‘rtinchi tabaqadindir. Oti Ja’far b. Yunus. Va aning otasi otida muxolafatlar bor. Ammo Hazrat Maxdumiy q. s. dedilarki, qabri toshida Ja’far b. Yunus bitiklikdur. Shayx ul-islom dediki, ul misrlig‘dur. Bag‘dodg‘a keldi va Xayr Nassoj majlisida tavba qildi Junaydning shogirdidur.Faqih erdi va majlis muzakkiri. Va Molik mazhabida erdi va «Muvatto»ni hifz qilib erdi: Otasi xalifaning sohib ul hijobi erdi. Va Sulamiy tabaqotida «Xurosoniyul-asl va Bag‘dodul mavlid val-mansha’» bitilibdur, Junayd q. s. debdurki, [Abubakr Shibliyg‘a boshqalarga nazar qilganingizdek. nazar qilmayg. Chunki u Alloh ko‘zlaridan bir ko‘zdir][1]

Umri sakson yettiga yetishdi. Uch yuz o‘ttiz to‘rtda Zulhijja oyida dunyodin o‘tti. Va ham Junayd debdurki, [xar bir qavmiing toji bor. Bu qavmning toji esa Shibliydir][2]. Yigirma ikki qatla bemoristong‘a tushti. Ul debdurky, [Hurriyat–qalb hurriyatidir, boshqa narsa emas][3].

Birav Shibliyg‘a dedikim, meni duoe qil! Ul bu baytni o‘qudikim,

b a y t:

[Bir vaqtlar odamlar mendan shafoat istardilar. Ajabo, ertaga Layli oldida meni shafoat qiluvchi bormi?][4] Anga dedilar: xush semizsen va muhabbatiki sen da’vo qilursen, taqozoe semizlik qilmas. Dedikim: [Qalbim ishqbozlik qildi, tanim bexabar qoldi. Agar xabardor bo‘lganda semirmas edi!][5].

Shibliy Abdurrahmon Xurosoniyg‘a aytdi: [Ey xurvsonlik, Shibliydan o‘zgani yolg‘pz Alloh deganiii eshitdingmi? Xurosonlik antdi: Men biror kun Shibliyning Alloh deganini eshitmadim. Shibliy behush bo‘lib yiqildi][6].

Abdurrahmon Xurosonin debdurki, birav Shibliy uyiga keldi va eshik qoqdi. Shibliy bosh-oyoq yalang eshik keyniga kelib so‘rdiki, kimni tilansen? Dedi: Shibliyni. Shibliy dedikim, eshitmansenki, [Kofir bo‘lib o‘ldi. Alloh unga rahm qilmadi][7]. Shayx ul-islom debdurki, nafsni debdur Shibliy bu oyat tafsiridakim, [mo‘minlarga ayting, ko‘zlarini to‘ssinlar, avratlarini saqlasinlar][8]. Va debdurki, [zohir ko‘zni haromlardan, botin ko‘zni zsa, Allohdan boshqasiga nazar solishdan saqlang!][9] Ul eshittikim, xiyor sotquchi qichqirib aytadurkim, {o‘nta bodring bir tanga][10]. Ul dag‘i qichqirdi va dedikim, [o‘ntasi bir tanga bo‘lsa, savdong nima bo‘ladi?][11]. Shibliydin so‘rdilarki, qaysi nima ajabroq? Dedi:

Ul ko‘ngulki, Tengri taolosini tanig‘ay va onga osiy bo‘lg‘ay. Shibliyning xodimi Bakir Dinavariy debdurki, vafotig‘a yaqin Shibliy dedikim, menga bir diram mazlimadur va necha ming diram oning sohibi uchun sadaqa beribman va hanuz ko‘nglumga hech yuk andin og‘irroq yo‘qdur. Shibliy mavt marazidin bir juma kuni uzida xiffat ko‘rdi. Bakirg‘a dedikim, masjidga meni tegur! Ul qo‘ldab elturda birav yo‘luqdi. Shibliy de-liki, tongla bu kishi bila ishimiz bor. Bakir debdurki, namoz qilib kelgan oqshom Shibliy dunyodin o‘tdi. Tonglasi menga dedilarki, falon mahallada bir solih bor. Aning g‘usli uchun ul kishini kelturmak kerak. Ul kishining uyini topib, eshik qoqtim. Eshik keiniga kelib so‘rdikim, Shiblin o‘ldi? Men taajjub bila so‘rdimki, qaydin bildingkim, Shibliy o‘ldi? Ul-dedikim, ey nolon, ul qaydin bilib erdikim, bu kun maning bila ishi bor bo‘lg‘usidur. Eshik ochqoch ko‘rdum, hamul kishi erliki, burunqi kun Shibliy deb erdiki, tongla aning bila ishimiz bor.

227. Abubakr b. Yazdonyor Urmaviy q. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Oti Husayn b. Ali Yazdonyordur. Tasavvufda bir tariqaedurkim, anga maxsusdur. Mashoyixdan ba’zi anga inkor qilibdurlar. Olim ermish ulumi zohiriyda va ulumi muomalotu maorifda. Ham Shayx ul-islom debdurki, Abubakr Yazdonyor Haq s. t. ni tushda ko‘rdi. Dedi: Yo Rab, bir hojatim bor. Javob eshittikim, ne hojating bor, andin ortuqki, sanga berdim? Ya’nn sufiylaraning dastbandidin qutqardim. Shayx ul-islom, debdurki, ko‘rubmen bir yerda-kim, sufiylar dastbandi bitibdurki, [maholhol va botil lshorat][1]. Sufiylar inkorida uzun qissasi bor. Va anda ashkoldur, buzurg kishidur, sohibi talbis zohirda va muhahqiq botinda. Ul debdurki, [farishtalar osmon qo‘riqchilari, muhaddislar sunnat qo‘riqchilari, so‘filar Alloh qo‘riqchilaridir][2]. Va ham ul debdurki, [Ma’rifat – Allohu taoloning vahdoniyati bilan qalbning qaror topishidir][3]. Va ham ul debdurki, [kimki, tavba qilsayu gunohni tark etmasa, Alloh taolo uni tavba qilishdan va o‘ziga qaytishdan mahrum qilib qo‘yadi][4].

228. Abubakr Saydaloniy q. t. s.

Mashoyixiing ajillasidyndur. Shibliy q. s. ni buzurg tutubdur. Forsdin erdi va Nishoburda vafot topti. Ul debdurki, Haq bila suhbat tutung va agar tuta olmasangiz ul kishi bila tutungki, ul Haq bila suhbat tutar, to aning suhbati barakoti sizni Haqqa yetkurgam. Hamul debdurki, so‘zni hojat qadari bila ayting. Har ne hojatdin ortuqdur, andin ilik torting. Va ham ul debdurki, Tengri taolo bila ko‘p bo‘ling va xalq bila oz.

Aning muridlaridin biri debdurki, aning vafotidin so‘ngra qabrig‘a lavh yo‘ndurub, qabri boshida qo‘ydum. Buzdilar, yana qo‘ndum, yana buzdilar. Yana mukarrar buish voqe’ bo‘ldi. Shayx Abu Ali Daqqoqdin munung sirrin so‘rdum, dedi: ul dunyoda gumnomlig‘ ixtiyor qilib erdi, Haq s. t. ham ani pinhon asrar erdi. Sen tilarsenki, ani oshkor qilg‘ansen, qachon muyassar bo‘lur?

229. Abubakr Xabboz Bag‘dodiy q. t. s.

Ul Jaririyning ustodlaridindur. Ul debdurki, (ahlu ayol–halol yo‘l bilan shahvatlarni qondirish jazosidir] [1].

230. Abubakr b. Iso Mutavvi’iy q. t. s.

Abhardindur. Abubakr aqronidin va andin ulug‘roq. Abubakr Tohir aning qoshig‘a kirdi, ul naz’ holatida erdi. Abubakr anga dedikim, [Allohga yaxshi gumonda bo‘lgin!][1] Abubakr Iso ayttikim, meningdek kishi bila mundog‘ so‘z degaylar, agar bizni qo‘ysa, parastish qilg‘aybiz, agar tilamasa, buyrug‘ig‘a bo‘yin qo‘yg‘aybiz va borg‘aybiz. Ul uch yuz beshda dunyodin o‘tubdur.

231. Abubakr Tohir Abhariy q. t. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Oti Abdulloh b. Tohir b. Horis Toiy. Qo‘histonning kibor mashoyixidindur. Shibliy q. s. aqronidin ermish. Olim va mutavarri’. Yusuf b. Husayn bila suhbat tutubdur va Muzaffar

Kirmonshohiy bila rafiq bo‘lubdur. Misrda Shayx Mu-hallab b. Ahmad b. Marzuq debdurkim, mashoyixdiy hech qaysining suhbatidin oning suhbaticha naf’ topmadim. Uch yuz o‘ttuz uchda dunyodin o‘tubdur.

Shayx Abubakr Tohir bir kun bir bazzoz do‘konidin o‘tti va bazzozning o‘g‘li shayxning oshnosi erdi. Chun shayxni ko‘rdi va aning so‘ngicha bordi va bazzozkim do‘koniga keldi, o‘g‘lin ko‘rmadi. Ma’lum qilg‘ondin so‘ngra aning keynicha borib, noxushlug‘ bila o‘g‘lin shayx qoshidin do‘konga kelturdi va shayx ul kecha tong otg‘uncha ranjur erdi. Yana kun ul bazzozning eshigiga bordi va bir kanizak bor erdi. Uzi bila eltdi va bazzozni tashqari tiladi va dedikim, o‘tgan kecha tong otg‘uncha sening ta-rafingdin ranjim bor erdi. Dunyo molidin ushbu kanizakim bor. Agar qabul qilsang ul ranjym kaforatig‘a sang‘a berdim va agar qabul qilmasang, ozod qildim. Bazzoz shayxning ayog‘ig‘a tushub, dedikim, Ey shayx, men jurm qilib, sen uzr qulorsan? Shayx dedi: Rostkim, sen jurm qilibsen. Ammo mani bozxost qiladurlar. Ondin so‘rdilarki, haqiqat nedur? Dedikim, barchasi ilmdur. Dedilar: ilm nedur? Dedikim, barchasi haqiqatdur. Ul debdurkim, [jam’–yig‘ish, tafarruq–ayirish. Qachon jam’ bo‘lsang, Alloh dersan. Va agar ayrilsang, dunyoga nazar solasan][1].

232. Abubakr b. Abi Sa’don q. t. s.

To‘rtunchi tabaqadindur Oti Ahmad b. Muhammad b. Abi Sa’don, Bag‘dodlig‘dur. Junayd q. s. ashobidin va Abu Ali Rudboriy aqronidin. Vaqt mashoyixidin olimroq. ermish bu toifa ilmida. Abulhasan Siddiq va Abulabbos Farg‘oniy debdurlarki, bu kun bu toifadin zamonada qolmaydurlar, ikki kishidin o‘zga: Abubakr b. Abi Sa’dondin o‘zga Iroqda va Abu Ali Rudboriydin o‘zga Misrda. Ul debdurki, har kim so‘fiylar bila suhbat tutsa, kerakkim, anga nafs bo‘lmag‘an va ko‘ngul bo‘lmag‘ay va mulk bo‘lmag‘ayki, har nimaga asbobdin boqsa, o‘z maqsadig‘a bo‘lug‘din tushkay va anga yetmagay.

Va ham debdurki [so‘fiysifat va rasmu rusumdan xoli faqir o‘rtadagi sabablarni ko‘rmaydigan kishi. Faqirning bu sifati uni faqr nomiga sazovor qiladi va sababchi – Allohga olib boruvchi yo‘lni oson qiladi][1].

Va ham ul debdurki, [kimki, tasavvufga oid turfa so‘zlar aytmasa – nodondir][2].

233. Abubakr Atufiy q. t. s.

Junayd q. s. ning shogirdidur. Uch yuz qirq beshda Ramlada dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki, ustodim Junayd q. s. dedikim, agar birav ko‘rsangizkim, bu toifaga iymoni bor va bu so‘zlar anga maqbuldur, dengizki, meni duo bila yod qilsun! Shayx ul-islom debdurki, Halloj «Ayn ul-jam» kitobi oxirida debdurki. har kim, bizing so‘zlarga iymoni bor va andin choshnisibor, mandin anga salom dengyz! Va Shayx Amu debdurki, Shayx Sirvoniy dedikim, agar ayog‘ingiz bor esa, Xuro-songa boring – ul kishi ziyoratig‘akim, bizni sevgay. Va Shayx Abbos debdurki, Shayx Sirvoniya dedikim, sizga vasiyat qilurmen: «bir kishiga yaxshiliq qilki, bu toifani sevgay».

234. Abubakr Sakkok r. t.

Ul debdurki, «mushtoq o‘limdin lazzat ko‘prak toparki, tirik shahd sharbatidin». Shayx ul-islom bu so‘zning muayyadi ko‘p so‘z debdur va bu baytni o‘qibdur.

B a yt:

[Taqvodorlar o‘limi – mangu hayotdir. Zero, qavmlar o‘ldilar, ular esa, odamlar orasida tirikdirlar][1]

235. Abubakr Saqqo q. s.

Ul debdurki, kemada erdim. Yel qo‘bdi va qo‘lak bo‘ldi va xalq duog‘a faryod torttilar. Kemada darveshe erdi, boshin gilimiga chirmag‘on. Aning qoshig‘a borib ayttilarki, agar telba emassen, bu holatdaki xalq duoga mashg‘uldurlar, sen ham bir nima degil! Boshin gilimdin chiqardi va dedikim,

[sening qalbingga hayronman, nega bizdan yuz o‘tirdi?][1] va boshini yuqorig‘a tortti. Dedilarki, ne devonadur? Anga derlarki, duo qil, ul bayt o‘qur! Yana boshin gilimdin chiqardi va so‘nggi misrani o‘qidikim, [menga bo‘lgan yuksak muhabbating nega yo‘qoldi?][2]. Ul yel va oshub biror nima o‘ksudi. Yana anga dedilarki, bir nima degil! Bosh chiqardi va dedikim,

b a y t:

[Ikkisidan ham ajoyibrog‘i shuki, g‘azablangan holimda ham senga rizo ko‘zi bilan boqaman][3]

Yel taskin topti va ko‘lak orom tutti, Shayx ul-islom debdurki, bu ikki baytning uchunchisin men bir yerda ko‘rubmen va ul budur.

B a y t:

[Agar vasling ila lutf etsang, meni tiriltirasan, yo‘qsa, bu yo‘l meni halokatga olib boradi][4].

236. Abubakr Misriy q. t. s.

Oti Muhammad b. Ibrohimdur. Abubakr Duqqiy va Qirofiyning ustodi va Zaqqoqi Kabiriing shogirdidur. Junayd va Nuriy q. s. bila suhbat tutubdur. Uch yuz qirq beshda Ramazonda dunyodin o‘tti, Abubakr Atufiy bila muvofiq. Ul debdurkim, Junayd va Nuriy q. s. bila erduk va mashoyix va so‘fiyadin ko‘p el bor erdi. Qavvol nima o‘qidi, Nuriy samo’g‘a kirdi va Junayd o‘lturub erdi. Nuriy Junayd boshig‘a kelib, bu oyatni o‘qidikim, [Albatta, eshita oladigan zotlargina qabul qilurlar][1]. Junayd dedikim, [Siz tog‘larni ko‘rib, tek qotib turibdi, deb o‘ylarsiz. Holbuki ular ham xuddi bulutlar yurgandek yurarlar][2].

237. Abubakr Duqqiy q. t. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Dovud Dimishqiy. Umri yuz yigirmaga tortti. Abu Ali Rudboriyning aqronidin. Debdurlar, Ibn Jallo anga nisbat durust qilur. Zaqqoqi Kabiriing shogirdidur. Junaydni ko‘rib erdi va Abubakr Misriy bila suhbat tutub erdi. Jahonning mujarradi erdi vaqtining kibori mashoyixidin erdi. Uch yuz ellik to‘qqizda dunyodin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Boku dediki, Duqqiyning quli dediki, Duqqiy dediki, [ofiyat tasavvuf bilan bo‘lmas][1]. Va Xusriy debdur, sufiyga ofiyat bila ne ish? Abu Abdulloh Rudboriy daryo qirog‘ida vasvasasi bor erdi. Tahorat qilur erdi va yel kelur erdi va ayog‘iligi yorilur erdi va qon kelur erdi. Darmonda bo‘ldi va dedi: [Ollohim ofiyat ber!][2] Un keldiki, [ofiyat ilmda, ya’ni shariatda][3]. Shayx ul-islom debdurki, Abubakr Duqqiy dediki, Nusaybinda Sumay’iyg‘a mehmon bo‘lduk. Vaqt xush erdi va qavvol xush va hech yot kishi yo‘q. Hech zavqu hol bo‘lmas erdi. Sumay’iy dediki, ne deysen? Duqqiy dediki, ulcha ul deydur, mendin va sendindur muttasil quloqqa kelurkim, men va sen. Tasavvufda men va sen qaydadur? Sufiyg‘a birdin o‘zga bo‘lmas. Holo shure paydo bo‘ldi va oshub qo‘pti. Ashob to‘nlarin yirtarlar erdi va yiqilurlar erdi, kishi qolmadi yaqosin yirtmagan.

Duqqi debdurki, [qurbning belgisi Allohdan o‘zga barcha narsadan uzilishdir][4]. Va ham aning so‘zidirki. [Qalb nurlanishi sababli unda Allohu taoloning oyatlari joy olsa, bashariy sifatlar va aqliy noqisliklar zoyil bo‘ladi. Ba’zan faqirning Allohga nisbatan adabsizligi haqida so‘rashdi. Duqqiy aytdi: bu haqiqiy nlmdan uzoqlashib, zohiriy ilmga o‘ralashish][5].

238. Abubakr Tamastoniy q. t. s.

Beshinchi tabaqadindur. Forsdin erdi. Shibliy q. s. shogirdi erdi, Ibrohim Dabbog‘ Sheroziyning ham. Kibor mashoyixdin erdi. Oyotu karomot iyasi va o‘z holu vaqtida yagona erdi. Shibliy ani buzurg tutar erdi va qadru maholin ulug‘ qo‘yar erdi. Fors mashoyixi bila suhbat tutub erdi va alarni azim hurmat

tutarlar erdi. Shukru muhabbat anga g‘olib erdi va buyuk kalom va rumuzi bor erdi. Forsda kishiga aning kalomin eshitur quvvat yo‘q erdi. Mashoyix andoq savob ko‘rdilarki, ul Xurosong‘a borg‘ay. Nishoburg‘a keldi va anda uch yuz qirqda dunyodin o‘tti. Ul debdurki: [qalb tirikligi nafsni o‘ldirish bilandir][1]. Birav anga dedikim, manga vasiyate qil! Ul dediki, [doimo himmatli bo‘lki, u barcha ishlarning kuchi va manbaidir][2]. Va ham ul debdurki, ulug‘roq ne’mat – chiqmoqdur nafsdin, ne uchunki, nafs ulug‘roq hijobdur sening bila Tengri taolo orasida. Va ham ul debdurki, mumkin emas chiqmoq va qutulmak nafsdin, o‘z nafsing bilaki, aning bila qutula olg‘aysen va aning suhbati bila.

239. Abubakr Farro’ q. t. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Ahmad b. Hamdun Farro’dur. Nishoburning ajilla adashoyixidindur. Azim farosati bor ermish. Shayx Amu ani kurgan ermish. Ul debdurki, men Abubakr Farro’ni kur-masam erdi, so‘fiy bo‘lmag‘ay erdim. Va Abu Ali Saqafiy va Abdulloh Munozil va Abubakr Shibliy ta Abu Tohir Abhariy va Murta’ish va g‘ayruhu bila suhbat tutubdur. Mashoyixda yagona ermish. Uch yuz yetmishda dunyodin boribdur. Ul debdurki, [yaxshiliklarni yashirish yomonliklarni yashirishdan tuzukroqdir. Shunda najot topishga umid bor][1].

240. Abubakr Shabahiy q. s.

Beshinchi tabaqadandur. Oti Muhammad b. Ja’far Shabaxiydur. Vaqt mashoyixining javonmardlaridin erdi. Nishoburda Shayx Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutubdur. Uch yuz yetmishdin burun dunyodin o‘tibdur. Ul debdurki, [futuvvat–xushxulqlik va zzgu saxovatdir][1].

241. Abubakr Tarsusiy q. s.

Shayx ul-islom ani oltinchi tabaqadin tutubdur. Oti Ali b. Ahmad b. Muhammad Tarsusiydur. Pillar Makkada mujovir erdi. Va ani Tovus ul-Haramayn der erdilar, ibodati kasratidan Abulhusayn Molikiyning shogirdidur. Ibrohim Shayboniy Kirmonshohiy bila suhbat tutubdur va nisbat anga durust hilur. Uch yuz yetmish to‘rtda dunyodin o‘tibdur. Makkada Shayx Sirvoniyning aqronidin ermish. Shayx ul-islom debdurki, Shayx Abbos Faqir menga dedikim, Shayx Abubakr Haramiy dedikim, Makkada birov uyida mehmon erduk. Mezbonning bir kanizaki bor erdikim, nima o‘qiyolur erdi, muni o‘qidikim, [bir qavm sen uchun meni oz va soz malomat qildi][1]. Bir darvesh ayog‘ ustig‘a qo‘pti va bir necha faryod qildi va dedi: kim malomat qildi sening mehringda, magar sen? Bu harfni dedi va yiqildi va dunyodin o‘tty. Shayx ul-islom dediki, Abu Abdulloh Boku dedikim, Ayyub Najjor Makkada bir Qazviniy uyida samo’ qilur erdi. Go‘yanda bir forsiy bayt o‘qudn. Ul qo‘pti tuz qaddi bila va dedi: nafire sendin! Va yiqildi va behush bo‘ldi va dunyodin o‘tti. Shayx ul-is-lom debdurki, Abulqosim Shayx qavm bila mehmonlig‘da erdilar, go‘yandae o‘qidikim,

Sh ye ‘ r:

[Har uyki, unda sen bo‘lsang, chiroqqa hojat yo‘q. Odamlar hujjati bilan keladigan kunda sening muborak jamoling bizning hujjatimizdir. Sendan xalos bo‘lishnn xohlasam, Alloh meni xotir-jam qilmasnn][2].

Abulqosim Shayx o‘ng iligin ko‘tardi va necha faryod urdi va yiqildi va olamdin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki, birav bu toyfadin dediki, Nishoburda hodisae erdiki, xaloniq shahrdin chiqib erdilar. Mey bir masjidda erdim. Va ul masjid go‘shasida yana bir dariesh. erdi. Go‘yandae kirdi, ul darvesh anga dedikim, bir nima o‘qi! Ul o‘qidikim,

b a y t:

[Qalbim va ishq o‘rtasida shunday ma’rifat mavjudki, abadiylik tugasa ham u tugamas. Albatta

dunyodan o‘taman, butun borlig‘imdagi muhabbatingdan hechkim ogoh bo‘lmaydi][3].

Ul darvesh yiqilib, ikki namoz orasig‘acha talpinur. erdi to olamdin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki. Ubulla shahridakim, Kufa bila Basraning orasidadur, darveshe borur erdi, Bir ko‘shk tubiga yetti. Bir g‘urfada bir uluq kishi o‘lturub erdi va ilayida bir kanizak mug‘an-niylik qiladur erdi. Darvesh eshittikim, bu baytni o‘qiydurkim,

b a y t:

[Har kun ranging o‘zgarar. Uzgarmasa senga yaxshiroq. Har kun holing o‘zgarar, o‘zgarmasa senda go‘zalroq][4].

Darveshga hush keldi va mug‘anniyg‘a ont berdikim, [ey kanizak, Allohga va Xojang hayotiga qasamki, bu baytni takror o‘qi!][5] Kanizak takror qilaboshladi. Xoja ul takror sababin so‘rdi. Kannzak dedikim, ko‘shk tubida bir darveshki vaqti hush bo‘lubdur va takroriga ont beradur. Xoja quyi boqti va ul g‘aribni ko‘rdikim, vaqti xushbo‘lib, samo’ qiladur. Oxir bir so‘z aytti va faryod qildi va yiqildi va jon berdi. Xoja chun ul holni ko‘rdi, vaqti mutag‘ayynr bo‘ldi va kanizakni ozod. qildi. Va shahrning ulug‘larin tiladi va ul darveshga namoz qildilar va dafn qildilar. Va ul xaylg‘a dedikim guvoh bo‘lingki, har nimamki bir ziyo’u amloqdin borin vaqf qildim darveshlarga. Va har nesn vajhu diramdin bor erdi, borisin berdi va to‘nin chiqardi va muraqqa’ kiydi va rido soldi va bodiyag‘a yuz qo‘ydi. Va el boqib turub erdilar, to ko‘zlardin g‘oyib bo‘ldi. Andin so‘ngra hargiz ani ko‘rmadilar. Abulhusayn Darroj va Futiy hikoyat qilibdurlar. Va Darrojdeb-durki, [o‘sha kundan yaxshiroq kunni ko‘rmadim][6]. Shayx Abu Abdulloh Jallo debdurki, mag‘ribda ikki ajab nima ko‘rdum: biri Qayravon jome’ida birav erdikim,. saflar orasida yurib, savol qilur erdi va der erdikim, [ey odamlar, men bir so‘fiyerdim, endi zaiflashdim][7] Yana ikki pir ko‘rdum, birining oti Zuraiq va birining Jabala. Va har qaysining muridlari bor erdi. Bir kun Jabala Zurayq ziyoratig‘a bordi ashobi bila. Zurayq muridlaridin biri Qur’on o‘qiydur erdi. Jabala ashobidin biriga ul nav vaqti xush bo‘ldikim, faryod qilib, jon berdi va ani dafn qildilar. Yana bir kun Jabala yana Zurayq qoshig‘a keldi va dedi: ul yoring qayondurki, Qur’on o‘qiydur erdi? Ani tiladilar, Qur’on o‘qidi. Jabala bir oh bila faryod qildikim, o‘qig‘uchi oxir bo‘ldi. Jabala dedikim, [birga bir, lekin bu ish boshlovchisi zolimroqdir][3].

242. Abubakr Susiy q. t. s.

Oti Muhammad Ibrohim Susiy Sufiydur. Shomda Ramla shahrida bo‘lur erdi. Shayx Amu va Ahmad Kufonny oni ko‘rub erdilar. Uch yuz yetmish oltida Dimishqda dunyodin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki, ul bir kecha dedikim, bizing uchun bir kishi topingki, nima o‘qusun. Tilab topmadilar. Shayx mubolag‘a qilur erdi. Birav dediki, hech xonanda topmaybiz va taybat bila dediki, bu yaqinda bir mutrib yigit bor, desangiz ani kelturayli. Shayx ruxsat berdi, borib kelturdilar. Va mutribning o‘zga holi bor erdi, o‘qidikim, [bu so‘filar toifasi sodiq birodardirlar, ular orasida ma’naviy qardoshlik mavjud][1].

Elga azim asar qildi va Shayxqa g‘arib sho‘re voqe’ bo‘ldi. Chun forig‘ bo‘ldilar samo’din, mutribqa qazaf voqe’ bo‘ldi va Shayxning sajjodasi ustida qan qilib yiqildi. Shayx dedikim, hech nima demang va sajjodag‘a ani chirmab, tarqang! Andoq qildilar. Tonglasi mutrib uyg‘onib, o‘z holin bilmas erdi. Dedikim, men ne yerdamen va bu ne holdur? Utgan holidin xabar berdilarki, ne voqe’ bo‘lib erdi. Anga hol mutag‘ayyir bo‘ldi va sozini uzatti va tavba qilib, muraqqa’ kiydi va Shayx xidmatini ixtiyor qildi. Va andoq muomalat va ibodat anta dast berdikim, Shayxdin so‘ngra ani xonaqahda Shayx o‘rnig‘a o‘lturttilar. Shayx ul-islom dedikim, aning oti Muhammad Tabaroniy erdi. Men aning o‘g‘lin ko‘rib erdim, Hiriga kelib erdi Shayx Amu xonaqohig‘a. Va g‘oyat zarif yigit erdi. Va Muhammad Tabaroniy qarib erdi. Mashoyix anga kelib ul o‘qigan baytni so‘rar erdilar. Va aning yodida ul

misra’din ortuq yo‘q erdi. Ammo men ul abyotni topibmen va budur.

Nazm:

[Bu so‘filar toifasi sodiq birodardirlar va ular orasida shunday ma’naviy qarindoshlik mavjudki, unga hech narsa teng kelmaydi. Ular emikdoshlar va bir-birlariga toza vahdat mayini tutadilar. Emikdoshlik va mayxo‘rlik haqqini to‘la ado etadilar. Mastlikdagi xato va tubanliklarni xotirlamaydilar. Ularning ahvoli seni shubhaga solmasin][2].

Shayx ul-islom debdurki, Zunnun Misriy va Shibliy va Xarroz va Nuriy va Darroj barcha samo’da bordilar, ne «Qur’on» samo’ida va ne aning g‘ayri. Alardin uch tan uch kun tirildi va uch kundin so‘ngra o‘tti. Va alardin boshqa ham mashoyixdin ko‘pi bu holda o‘ttilar. Zurora b. Abi Avfo, Basra qozisi mehrobda e.rdi. Birav bu oyatni o‘qidikim, [qachon burg‘u chalingan-da o‘sha kun qiyin «undir][3].
Ul faryod qilib yiqildi va bordi. «Kashf ul-maxjub» kitobining sohibi debdurkim, men muanyana ko‘rdumki, Ozarbayjon tog‘lari orasida bir darvesh bu qavmning ba’zi ab’yotin o‘qur erdi, nogoh yiqildi va oxir bo‘ldi.

243. Abubakr Shukayr q. t. s.
Shayx ul-islom dediki, ul Nishoburda buzurg erdi va vaqt iyasi va Sahl Su’lukiyning qarobati.
Bir kun Sahl Su’lukiy anga dedikim, nechuk manga kelmassen? Ul dediki, kelsam, istig‘no va takabbur qilursen, bu jihatdinki, men darveshu muflismen, mening uchun qo‘pmassen. Ul dediki, sen kel, men ta’zim qilay. Bir kun aning uyig‘a bordi. Ul ta’zim uchun qo‘pti, ammo chiqqanda qo‘pmadi. Abubakr yondi va bu ikki baytni o‘qidiki,

N a z m:

[Garchi men ayolmand, qashshoq va qarzi ko‘p bir odam bo‘lsamda, Rabbim bergan rizq menga kifoya qiladi. Hojatlarim mening va uning o‘rtasi-dadir][1]. Va yana hargiz aning uyiga bormadi.

244. Abubakr Javzaqiy q. t. s.
Qabri Nisodadur. Ul debdurki, bir kun bodiyada og‘zim suvsizliqdin qurub erdi va toqatsiz bo‘lib erdim. Bir yigitni ko‘rdum. Salom, dedim. Javob oldi va dedi: Ey shayx, holing nedur? Dedimki, suvsizman, ko‘nglum tozag‘ina xiyor tilarki, bo‘g‘uzumni ulutgaymen. Ul yigit dediki, kir, dag‘i uz. Shayx debdurki, mening ul yigit so‘ziga imonim bor erdi. Boqtim, polize ko‘rdumki, to‘la qovun va bodring va xiyor erdi. Andin uzub, otashimg‘a taskin berdim.

245. Abubakr Roziy q. t. s.
Mutavarre’ va mujtahid kishi ermish. Debdurlarki, mashoyix orasida kishi andin giryonroq yo‘q erkandur. Har murid va mubtadiki, ani ko‘rsa erdi, ibodati kasrati va samo’da besabrlig‘i hirqatidin aning giriftori bo‘lur erkandir. Ishining ibtidosida Makkaga bordi va so‘fiya mashoyixig‘a musharraf bo‘ldi va bir yil mujovir bo‘ldi. Ul debdurki, Makkada ixlosdin vaqtim dushvor bo‘ldi. Yamang‘a bordim. Menga bir diram futo‘h yetishti. Tiladimki, bir ko‘nglak olg‘aymenki, asru yalang erdim. Chun Makkaga yana bordim. Ul diramni bir yerda dafn qildim va anga bir alomat qo‘ydum va Makkaga kirdim. Chun tavofdin forig‘ bo‘ldum. Shayx Abu Umar Zajjojiydin bir mas’ala so‘rdum. Dediki, avval borg‘il va ul diramki, dafn qilibsen, o‘zungga sarf qil! Bordim va ul degondek qildim. Ondin so‘ngra keldym. Shayx ul mas’alag‘a javob berdi.

246. Abubakr Mufid q. t. s.

Oti Muhammad b. Ahmad b. Ibrohimdur, imom va buzurg erdi. Jarjarobod shahridindur. Junayd bila Yusuf b. Husaynni ko‘rub erdi va Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutubdur. Uch yuz oltmish to‘rtta dunyodin o‘tti, umri uzoqqa tortti. Shayx Amu ani ko‘rub erdi. Aning tasnifi bir kitobdur. Anda kelturubdurki, Abu Said Xarrozdin olamdin o‘tar chog‘da so‘rdilarki, ne arzing bor? Dedikim, hasratim bor g‘aflatga. Va ham ul debdurki, Yusuf b. Husayn debdurki, andoq bo‘lib-menki, mening so‘zimni Allohu taolodin o‘zga kishi eshitmas. Shayx ul-islom debdurki, bu so‘z oxirida andoq bo‘lurki, ul pir debdur.

247. Abubakr Qasriy q. t. s.

Hubayra qasridin erdi, valiy va g‘ayb ahlini ko‘rar erdi. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, bir kun Shayx Abubakr Qasriy manga dedikim, kel sahrog‘a boroli. Borur erduk, bir qavmni ko‘rdukki, bozor tomida iard o‘ynarlar erdi. Shayx Abubakr borib, alar qoshig‘a o‘lturdi va alar bila ilik o‘yung‘a eltti. Va men hijolatdin terga botib erdimki, bu nedurki, ul qiladur? Oxir tushti va borur erduk. Jam’i shatranj o‘ynar erdilar, alar sari borib, shatranj bisotin olib yirtib, yig‘ochlarni har yon sochdi. Alardin ikki kishi anga bichag‘ torttilar. Va ul dediki, bichag‘laringizni manga beringkim yeyin. Alar ilig torttilar, biz o‘ttuk. Va men botinimda aning bila xusumatdakim, avvalgi ne farahro‘liq edi va so‘nggi noxush ihtisob ne erdi? Anga ma’lum bo‘ldi va dedikim, ul vaqt laduniy nazarn bilz bokar erdim, farq ko‘rmadim, so‘ngra ilm nazari bila boqtim, hukm ko‘rdum.

248. Abubakr Mavoziniy q. s.

Misrda bo‘lur erdi. Shayx Sirvoniyning ustodidur. Ul debdurki, Ibn Xabbozdin eshittimki, dedikim, azho iydida Jamra yaqinida erdim. Bir darvesh ko‘rdum, turub erdi va iligida bir ko‘za yo rikva. Va der erdikim, [Ey Egam, odamlar qurbonliklari va sadaqalari bilan senga yaqinlashadilar. Menda jonimdan boshqa hech narsa yo‘q.]1 Kegin u na’ra tortdi va jon berdi.

249. Abubakr Ushnoniy q. s.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, menipg shogirdlarimdin biri kelib dediki, Shayx Abubakr Ushnoniy tomdin yiqilib oyog‘i sindi, dag‘i o‘tti. Va ul bu nav erkandurki, navjavoniy kelib, qavvollik qiladur ermish. Abubakr Ushnoniyg‘a vaqt xush bo‘libdur va bexud tomdin yiqilibdur va o‘tubdur. Shayx Abu Abdullo.x anda borib so‘rubdurkim, qavvol qaysi baytni o‘qidi? Debdurlarki, bu ikki baytni.

B a y t:

[O‘z holiga tashlab qo‘iilgan dardmand oshiqning dardi o‘limdan og‘ir. Agar yashasa, turmushi qiyin, o‘lsa, armon bilan o‘ladi)[1].

Bu abyotni eshitgach Shayx Abu Abdulloh Xafif to‘rg kun o‘zidin g‘oyib erdi. Ul qavvolni uzattilarkim, yana bu ish tegrasiga evrulma! Abubakrni dafn qildilar va ul bexabar erdi. Shayx ul-islom dediki, suvsizg‘a oson ish nedadur suvdin o‘zga? Bir do‘st vafosida bir do‘st bordi.

250. Abubakr Mag‘oziliy q. t. s.

Sirvoni-yning ustodidur. Misrda bo‘lur erdi. Ul debdurki, tilar erdimki, Abulhasan Muzayyinni sinag‘oymen. Eshikiga borib qoqtim va dedimki, ey saroy iyalari, manga bir nima bila muvoso qiling! Ul kishisiga ayttikim, bir nima berkim, ul agar Tengrini tanisa erdi, manga kelmas erdi, ya’ni imtihang‘a. Chun eshittim, qo‘ydum va o‘ttum.

251. Abubakr Qati’iy q. s.

Bag‘dodning imomi va hofir erdi. Hadisda Abdulloh Ahmad HanbAliing shogirdidur. Va Junayd q. s. ni ko‘rub erdi. Ul debdurki, Junayddin eshittimki, dediki, ohvoyki, har kun o‘zga ishdasen, ne bo‘lg‘ayki, bir kunni mening ishimda qilg‘aysen. Ul Bag‘dodda uch yuz oltmish sakkizda Zulhijja oyi dunyodin o‘tti.

252. Abubakr Hamadoniy q. s.

Shayx ul-islom dedikim, Husayn Faqir dedikim, Abubakr Hamadoniy dedikim, darveshlik uch nimadur [tark uttama’ valman’u valjam’u][1] – el nimasiga tama’ qilmamak, agar nima boshingga kelsa man’ qilmamak, har ne jam’ qilmamak!

253. Abubakr Kafshiriy q. s.

Kafshir Shomda bir kentdur. Ul debdurki, Bani Isroyil tihida borur erdim. Manga parzada o‘tmak va chboqla havas bo‘ldi. Filhol boqda sotquchining uni keldi tihdaki qoshimg‘a kelturdi. Shayx ul-islom debdurki, bu karomat emaski, Tasavvuf tariqida beg‘arodur.

Bir darvesh bodiyada suvsiz bo‘ldi, oltin qadahda sovuq suv ollida hozir qildilar. Ul darvesh dediki, sening izzating haqqiki, bu suvdin ichmag‘aymen, magar bir a’robiy iligidinki, meni silliy urg‘ay va suv bergay, yo‘q ersa karomot bila suv kerakmas. G‘urur xavfidin muni dedi. Va dedi: qodirsen angakim, mening javfumda suv ijod qilg‘aysen, ya’ni zohir karomot makrdin emin bo‘lmag‘ay.

Shayx ul-islom debdurki, haqiqat karomot bila durust bo‘lmaskim, haqiqat xud karomotdur va karomot zuhhod bila abdolg‘a bo‘lg‘ay.

254. Abubakr Dovud Dinavariy q. s

Shomda bo‘lur erdi. Ibn Jallo bila suhbat tutubdur. Ul debdurki, «me’da taom mahalidur, agar anda halol taom solsang, toat quvvati topqaysen va agar shubha bila bo‘lsa, Haq yo‘lin sanga yopqay va agar ha-rom bo‘lsa, ma’siyat zoyanda bo‘lg‘ay». Derlarki, ul yuz yil umr topti va uch yuz ellikda Dinavarda dunyodin o‘tti.

255. Abu Ali Rudboriy q. t. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Muhammad b. Qosim Mansur. Vuzaroning ro‘asoni abnosidindur va nasabi Qasriyg‘a yetar. Bir kun Junayd q. s. masjidi jome’da so‘z aytur erdiki, aning ko‘zi masjidi jome’ga tushti, Junayd majlisiga. Junayd biravga so‘z asnosida dediki, [so‘zimni eshit][1]. Abu Ali sog‘indiki, anga dedi, turdi va quloq soldi. Junayd kalomi aning ko‘nglida yer tutdi va muassir tushti, har nedakim bor erdi, boridin chiqti va bu qavm tariqig‘a iqbol ko‘rguzdi. Hofizi hadis erdi va olim va faqih va adib va qavm sayyidi. Abu Abdulloh Rudboriyning xolidur. Shayx Abu Ali Qotib derkim, [Abu Ali Rudboriy r. t. dan o‘zga shariat va haqiqat ilmini o‘zida jamlagan kishini ko‘rmadim][2]. Abu Ali Kotib har qachon Abu Ali Rudboriyni yod qilsa erdi, «Sayyidino» der erdi. Shogirdlarig‘a andin rashk qilur erdi. Anga dedilar, nedur buki, ani o‘zungning sayyidi dersen? Dedi, ul shariatdinha qiqatqa bordi va biz haqiqatdin shariatga kelurbiz. Shayx ul-islom debdurki, to kishini to‘rdin bo‘sag‘aga eltmaslar, bilmaski, ulkim, bo‘sag‘adin to‘rga boribdur, kimdur? Asru sovug‘ bo‘lg‘ayki, nozdin niyozg‘a yuborgaylar, niyozdin nozg‘a borur va tahoratdin namozg‘a. Abu Ali Rudboriy Bag‘dodda Junayd va Nuri va Abu Hamza va Masuhiy va alar bilakim, alar tabaqasida erdilar, suhbat tutub erdi va Shomda Abdulloh Jallo bila. Uni Bag‘dodlig‘dur, ammo Misrda muqim bo‘ldi va Misriylar va ul yerning so‘filarining shayxidur. Va tasavvuf ahlining shuarosidindur. Naz’ vaqtida debdurkim,

she’r:

[sening haqqinga qasamkn, to seni ko‘rmagunimcha sendan o‘zgaga muhabbat nazari bilan boqmasman][3].

Uch yuz Gshgnrma birda dunyodin o‘tti. Va.ham ul debdurki,

n a z m:
[Kimki, mahbub narsalarga ko‘ngul qo‘yishdan qaytib, senga bog‘lanmasa yo unda muhabbat paydo bo‘lib sochilgan narsalarni bir joyga jamlamasa, go‘yoki aro yo‘lda qolib, bahra istagan va savob tilagan kishiga o‘xshaydi][4].

Shayx ul-islom dedi, manga bu she’rda anga hasaddurki, hech kishiga so‘z yeri qo‘ymaydur va barchaii aytibydur. Va ham ul debdurki, [znndonlarning eng tori nomuvofiq kishilar bilan yashash!][5] Va ham ul debdurkim,

b a y t:

[Gap ko‘pu ish oz bo‘lsa – nuqsondir, Ish ko‘nu gap oz bo‘lsa hurmatga loyiqdir]6.

Va ham ul debdurkn, [bandaning foydasiz ish bilan mashg‘ulligi Allohning undan yuz o‘girgani alomatidir]7. Va ham ul debdurki, [modomiki, o‘zingdan tamoman foniy bo‘lmasang, muhabbat hududiga kira olmaysan][8].

256. Abu Ali Saqafiy q. t. s.
To‘rtunchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Abdulvahhobdur. Abu Hafz Haddod va Hamdun Qassorii ko‘rub erdi. Va Nishoburda imom va muqaddam erdi va aksar shar’iy ilmda mohir. Barchani qo‘ydi va tasavvuf ilmiga mashg‘ul bo‘ldi. Va Abu Usmon Hiriy ani madh qi-libdurki, [nafs ayblari va amallar ofatlari haqida ma’noli gapiradigan mashoyixlarning afzalrog‘i edi][1]. Uch yuz yigirma sakkizda dunyodin o‘tdi. Ul debdurki, [Allohni bilish jaholatda – qalb hayoti, zulmatda – ko‘z nuridir][2]. Ham ul debdurki, kimki ulug‘lar bila suhbat tutqay va abad tariqin mar’iy tutmag‘an, anga alariing suhbatining foydasi va nazarining barakati harom bo‘lg‘ay va alarning nuridin anda hech nima paydo bo‘lmag‘ay. Andin so‘rdilarki, kimning maoshi sa’broq va noxushroq? Dedi: aningki, noumid bila zist qilg‘ay. Shayx ul-islom dedi: navmidlig‘ning kufr sari eshiki bor. Va Tengri taolodin navmidliq kufrdir, [Allohning rahmatidan noumid bo‘lmanglar! Zero, Alloh rahmatidan faqat kofir qavmgina noumid bo‘lur][3]. Majlis. asnosida ko‘p aytur ermishki, ey barchani hechga sotqon ka hechni barchaga sotqun olg‘on!

257. Abu Ali Kotib Misriy q. t. s.
To‘rtinchi tabaqadindur. Misrning mashoyixy kiboridin. Abubakr Misriy va Abu Ali Rudboriy bila suhbat tutubdur. Abu Ali Mashtuliyning piridur. Abu Usmop Mag‘ribiy q. s. ani buzurg tutubdur va Rudboriydin ani ulug‘roq debdurlar. Ul debdurki, har qachon manga bir nima mushkil bo‘lsa erdi, Mustafo s. a. v. ni voqe’da ko‘rar erdim va arz qilur erdim va hol bo‘lur erdi. Ul debdurki, Haq subxonahu va taolo buyurubdurkim, [bizning sinovlarga bardosh bergan bizga yetdi][1].
Shayx Abulqosim Nasrobodiy q. s. debdurkim, Abu Ali Kotibdin so‘rdilarqi, faqr bila g‘inodin qaysi biriga moyilroqsen? Dedi: angakim, darajasi va martabyasi buyukroqdur. Va bu ikki baytni o‘qidikim,

n a z m:

[Faqirlikda afzallik bo‘lgani uchun boylik tomon ko‘z tikmayman. Uzimga kelgan sinovlarga, albatta

sabr qilaman. Alloh sabrni maqtadi]2.

258. Dbu Ali Mashtuliy q. s.

Oti Hasan b. Ali b. Musodur. Abu Ali Kotib. va Abu Ya'qub Susiy q. s. ning shogirdidur. Mashtul – bir kentdur, Misrning uch yig'ochlig'ida. Va anda uch yuz qirqda dunyodin o'tubdur. Ani Hazrat Rasul s. a. v. darveshlar ishining kifoyatig'a. muqarrar qilibdur. Bu toifa doim aning xidmatig'a yetarlar ermish. Ul Hazratning amri bila va barcha bu ishlari kifoyat bo'lur ermish. Shayx ul-uslom debdurki, Abu Ali Mashtuyaiy Basrag'a bordi, Shayx Abu Ya'qub Susiy ziyoratig'a. Ani so'rdi, birav uyin nishon berdi va dedikim, ani ko'rsang sanga degusidurkim, bor va kirdoring tegrasida zvrul! Mashtuliy Susiyning eshikin qoqti. Ul dedi: Kirgil! Dedi: Kel, o'ltur! Ulturdi. Dedi: Men senga demasmanki, kirdoring tegrasiga evrul, ya'ni bu ish barcha kirdor emas, bir nima bordur kirdordin uluq.

259. Abu Ali Roziy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul dediki, qachon ko'rsangki Haq s. t. xalqdin vahshat berdi, andoqqi hozirdin asoylamassen va g'aybni tilamassen, bilki irodasi uldurki, sanga o'zi bila unsu orom bergay.

260. Abu Ali Xayron q. t. s.

Oti Hasan b. Solih b. Xayrondur. Faqih erdi. Shofe'i jam' qilib erdi fiqhu vara' o'rtasida. Anga taklif qildilarki, qoziyul quzzot bo'lg'ay. Qabul qilmadi. Derlarki, Muqtadyrbilloh xalifaning vaziri Ali b. Iso kishi yibordikim, Shayx Abu Ali Xayronni kelturgay. To qazoni anga arz qilg'aylar, Shayx eshitti va yoshundi. Necha kishini muvakkil qildilarki, chun suvg'a muhtoj bo'lsa chiqqay, olib eltgaylar. Un kundin ortuq chiqmadi. Vazirg'a bu xabar yetishdi, dedi: qo'ying, bizga maqsud ul erdiki, xalq bilgaylarki, bizing mulkda andoq kishi borkim, sharqdin g'arbg'acha mulk qazosnn anga bersalar, ul qabul qilmas ermish. Ul debdurki, [kimki biror narsaga orqa qilsa, aqli ketadi][1].

261. Abu Ali Sirjoniy q. s.

Debdurlarki, anga musofire yetishti, bir igna uchun ani yetmish qatla bozorg'a yibordiki, mundin yaxshiroq kerak. Ul qarilig' va za'f va buzurgluki bila borur erdi va yana bir olib kelur erdi. Yetmish qatladin so'ngra bir suzangarni rlib keldikim, nechukkim ul tilagay, saranjom qilg'ay. Ul musofir dedikim, darig'kim, yarim haqimdin ortuq emas ermishsen; agar yasaguchini kelturmasang, yetti yuz qatla seni yiborgum erdi.,

262. Abdulloh b. Muhammad Ma'ruf Murta'ish q. s.

To'rtunchi tabaqadindur. Nishoburlik Kuniyati Abu Muhammad. Hiyra mahallasidin. Bag'dodda bo'lur erdi. Iroq mashoyixining yagonasidur, a'immasidin, Abu Hafs Haddod ashobidindur. Va Junayd q. s. ni ko'rub erdi. Debdurlarki, Bag'dodning ajoyibi uch nimadur: Shibliyning za'qasi va Murta'ishnidg nuktasi va Xuldiyning hikoyati. Murta'ish Bag'dodda Shuniziya masjidida uch yuz yigirma sakkizda dunyodin o'tti yo yigirma uchda. Abu Hafs anga sayohat buyurib erdi. Har yil ming yig'och safar qilur erdi, yayog' va boshyalang. Va hech shahrda o'n kundin ortuq turmas erdi, goh bo'lg'ay ediki, uch kundin ortiq bo'lmag'ay erdi. Ibrohim b. Muvallid derkim, Murta'ish Raqqa'g'a keldi. Ibrohim Qassor aning uchun bir tabaq non va uzum yibordi, Murta'ishning bir mirzi bor erdi va po'stnni. Mirzni iyzor qildi va po'stinni sotti va bir tabaq non va uzum olib, Ibrohim Qassorg'a yibordi. Va dediki, non va uzumga non va uzum; agar sening Tengri taolo bila bir holing bor, tashqari chiq! Ibrohim bizga ayttikim, to mundadur, aning bila so'zlashmang va anga salom qilmayg. Ul uzun muddat Raqqa'da iqomat qildi. Bir kun anga yettim. Dedim, yo Abo Muhammad, muncha xorliqkim sanga yetishti, hanuz mundasen? Dedi: mening bu yerda muncha iqomatimg'a sabab ushbu erdi, yo'q ersa men o'zga shahrlarda muncha iqomat Qilmas erdim. Murta'ish debdurki, hargiz o'zumni xavos botini bila ko'rmadim, to avom zohiri bila ko'rmadim. Andin so'rdilarki, Tasavvuf nedur? Dedikim,

ashkol va talbis va kitmon. Ham andin so‘rdilarkim, [qaysi amal afzal?][1]. Dedi: [Alloh faglini ko‘rmoq][2]. Va bu bantnn o‘qidikim,

b a y t:

[agar taqdir qo‘llasa, ojiz kuchliga aylanadi][3]. Va ham ul debdurki, [rizqlarning afzali yaxshi bandalik qilish va sunnatga muvofiq xnzmatdir][4].

263. Abdulloh b. Muhammad Manozil q. t. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Muhammad. Nnshobur mashoyixi buzurglaridindur. Hamdun Qassor bila suhbat tutubdur va bu tariqatni andin olubdur. Mashoyixdin biri debdurki, men bu qavmdin bir tamom kishi va bir yarim kishi tanirmen. Yarim kishi–Nasrobodinki, hech kimni yamonlig‘ bila yod qilmag‘ay. Va bir tamom kishi Abdulloh Manozildurkim, hech kishini xud yod qilmag‘ay. Ham ul debdurkim, harkim bu ishga zo‘r bila kirsa, fazihat bo‘lg‘ay va za’f bila kirsa, quvvat topqay, ya’ni niyoz va hurmat. Va irodat bila kirmas kerak, yo‘qki, da’vo va quvvat bila. Va ham ul debdur: hech nima yo‘qtur ul kishidakim, kasb zulli va savol zulli va rad zulli ta’mini totmamish bo‘lg‘ay. Va ham ul debdurki, har kim nafsig‘a lozim tutsa bir nimanikim, anga muhtoj bo‘lmag‘ay, zoe’ qilg‘ay, o‘z ahvolidin bir nimanikim, anga muhtoj bo‘lg‘an va andin chorasi bo‘lmag‘ay. Va debdurki, basdur bandadin tamom umrida bir nafaski riyo va shirkdin pok bo‘lg‘ay. Har oina ul nafas barakoti umriiing oxi-rida anga siroyat qilg‘an.

264. Abdulloh b. Haddod Roziy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul debdurki, har kim yigitlikda Haq s. t. bandalig‘ida amru nahiyni furuguzosht qilsa, ul qarig‘anda ani furuguzosht qilg‘aylar va anga yorlig‘ qilmag‘aylar.

265. Abdulloh b. Isom L\aqdisiy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul Hazrat Mustafoii s. a. v. tushda ko‘rdi va so‘rdikim, yo Rasulullоh, bu ishning haqiqatiki, biz andabiz, nedur? Ul Hazrat dedikim, Haq taolodin uyalmakkim, xalq bilan bo‘lg‘oningda andin xoli bo‘lg‘aysen, ya’ni kerakki, chun zohiring xalq bila bo‘lsa, botining Haq bila bo‘lg‘ay va botin bila ham xalq bila bo‘lmoqqa Haqdin uyalg‘aysen. Rasul s. a. v. bu so‘zni aytti va azimat qildi va men asaricha borib dedim: yo Rasulullоh, bir nima afsun qil! Dedi: xalqqa baxshoyish vaqtiki, Tsngri bila bo‘lgaysen, ya’niki, botin bila. Tengri bila bo‘lsang, zohir bila xalq bila bo‘lg‘aysen va alar bila muvoso qilgansen va alarning huquqin zoe’ qilmag‘aysen.

266. Abdulloh Nabozoniy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki. ul debdurki, Mustafo Hazratin s. a. v. tushta ko‘rdum va dedim: yo Rasulullоh, qaysi qavm bila o‘lturayin? Ul Hazrat buyurdikim, ul qavm bilaki, mehmonlikka borurlar, ya’ni darveshlar, yo‘q ul qavm bilaki, elni mehmonlikka tilarlar, ya’ni tavongarlar.

267. Abulxayr Taynotin q. t. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Otn Hammod Habashiy. Qul erkandur. Taynot–Misrning kentlaridindur. Zanbil to‘qir ermish. Kishi ko‘rmaydurki, nechuk to‘qur erdi. Lin ikki iliging ham ko‘rubdurlar. Kishi bo‘lmasa, arslon bila muvonasati bo‘lur erdi. [Unga aytishdi: eshitdikki, vahshiy hayvonlar bilan ulfatchilik qilar ermishsen? U aytdi: rost, itlarning ba’zisi ba’zisiga ulfat bo‘ladi][1]. Ani arzning zinhori debdurlar. Uz paqtida xalqning ahvoliga mushrif erdi. Uch yuz qirq va bir nimada dunyodin o‘tti. Anga ko‘p oyot va karomot zohir erdi. Abu Abdulloh Jallo va Junayd va alar aqroni bila suhbat tutubdur. Va tavakkul tariqida yagona erkandur. Ul debdurki, har kim ilmin zohir qilsa, muroyidur va holin zohir qilsa, muddain. Bir qatla biravni ko‘rdikim, suv yuzida boradur. Dedi: bu ne bid’atdur, qurug‘liqqa

chiq, dag‘i xush bor! Yana bi-ravni ko‘rdikim, havoda borur erdi. Anga dag‘i ushbu so‘zin dedi, dag‘i so‘rdikim, qayon borursen? Dediki, hajga. Dedikim, bor! Shayx ul-islom dedikim, karomot sotquchi to ani qabul qilg‘anlar mag‘rurdur va karomot sotqun olg‘uchi agarchi it uni qilmas, ammo ittur, ya’ni haqiqat karomot emas, andin o‘aga nimadur va ul zuhhod va abdolg‘a xush kelur. Sufiyi orif karomotdin yaxshiroqdur va ul karomotning karomotidur. Ham Shayx ul-islom debdurki, Abbos b. Muhammad Xallol debdurki, Abulxayr Taynotiy manga ayttiknm, muraqqa’ bo‘ynungga solib, qayon borursen? Tarsusqa va Bayt ul-muqaddasqa. Dedi: ne uchun bir go‘shada o‘lturub, yuz anga qilmassen? Shayx ul-islom dediki, ul go‘sha qayda bo‘lg‘ay? Vaqtiki sen bo‘lmag‘aysen. Ham Shayx ul-islom debdurki, Abu Solih Hadasoniykim, oti Horundur, manga dedikim, Abulxayr Taynotiy ziyoratig‘a bordim. Mendin so‘rdikim, holo, qayon safarin qilursen? Dedim: Tarsus. Dedi: bu yil niyating qayondur? Dedim: Makka. Dedi: Allohu taolo sizga biriima berdi, aning haqqin bilmadingiz, sizni vodiylarda va daryolarda parokanda qildi. Abu Solih so‘rdikim, ey Shayx, haj bila g‘azoni deysan? Dedikim, har oina ne uchun vaqtingizni g‘ashshat tutmassiz va aning bila suhbat tutmassiz? Shayx ul-islom debdur: Abulqosim Xallol Marvaziy qoshig‘a bir murid kelib ijozat tiladikim, safarga borurmen. Shayx dedikim, ne uchun borursen? Dediki, suv bir yerda tursa islanur va tiyra bo‘lur. Shayx dedikim, ne uchun daryo bo‘lmag‘aysenki, bir yerda turubdur va hech tiyra bo‘lmas.

Abulxayr Taynotiy ashobidin biri debdurki, bir kun shayx o‘lturub erdi, dedikim, va alayhassalom! So‘rdumki, maloyika salom berdiki, javob berding? Dedi, yo‘q, odamizoddin birav havog‘a uchub borur erdi, salom berdi, javob berdim.

Shayx Abulxayrning g‘arib holati bag‘oyat ko‘pdur, tafsilin tilagan Shayx ul-islom kutubidin tilasun va ijmolu maxlasin Hazrat Maxdumi Nuranning «Nafahotul-uns»idin o‘qusun.

268. Abulxayr Habashiy q. t. s.

Shayx Amu va Shayx Abbos aning diydorig‘a faxr qilurlar ermish. Ul Makkada mujovir erdi. Bir kun birav Masjidi Haramg‘a kirdi va dedi: qayondurlar alarkim, alarni javonmard atarlar? Va sufiylar sari boqti haqorat bila. Va dediki, bular javonmardlardurlar? Bir lahzadin so‘ngra Shayx Abulxayr Habashiyni ko‘rdilarki, kulur erdi haybat va g‘azab bila. Ul so‘zni bilib erdiki, ul kishi der erdi. Dedi: kimdurki, javonmardlarni so‘rubdur? Javonmard kerakki, javonmardni ko‘rgay. Debdurlarki, ul ham– uldurki, qabri Abarquhdadur. Oti Iqbol va laqabi Tovus ulHaramayn. Ul debdurki, oltmish yil Makka va Madinada mujovarat qildim va ko‘p qatig‘liklar ko‘rdum, hargiz kishidin nima tilamadim. Har qachon biravdin nima tilamak xayol qildim, hotifiy nido qildikim, uyalmassenkim, ul yuzniki, bizing ollimizda sajda qilur, g‘ayr ilayida xor qilg‘aisen? Debdurlarki, ul har qachon Hazrat Rasul s. a. v. ravzasig‘a kelib der erdikim, [senga salom bo‘lsin, ey jin va insonlarning elchisi!][1] Javob eshitur erdikim, [senga ham salom bo‘lsin, ey Makkayu Madinaning tovusi!][2]. Ul debdurkim, [hurlarga xizmat qilishni o‘ziga lozim ko‘rgan odam hur kishidir. Uziga birovning minnatini ravo ko‘rmagan va biror kishiga muhtojlik izhor qilmagan odam javonmarddir][3]. Uch yuz sakson uchda dunyodin o‘tubdur.

269. Abulxayr Asqaloniy q. s.

Bag‘dodqa bordi va necha vaqt anda iqomat qildi va mashoyix bila suhbat qildi. Va so‘ngra Bag‘dod kentlaridin biriga bordi va mutaahhil bo‘ldi. Va anda vafot qildi.

270. Abulxayr Himsiy q. t. s.

Borlar bodiyani Ka’ba safarida tavakkul qadami bila qat’ qildi. Va uch yuz o‘nda dunyodin o‘tti.

271. Ibrohim b. Shaybon Kirmonshohiy q. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Ishoq. Jabal shayxidur. Uz vaqtida anga maqomot erdi vara’u taqvodakim, xalq andin ojiz erdi. Abu Abdulloh Mag‘ribiy va Ibrohim Xavvos q. s. ning ashobidindur. Abu Abdulloh Manozildin so‘rubdurlarkim, aning bobida dersen? Debdurki, [Ibrohim faqirlarga, adab

ahliga va muomalalarga Allohning hujjatidir]1. Uch yuz o‘ttuz yettida dunyodin o‘tubdur. O‘l debdurki, har kim mashoyix hurmatin asramag‘ay fosid muddaosi bila o‘z haqqida botil tamannosi bila giriftor bo‘lub fazihat bo‘lg‘ay. Va ham ul debdur, darvesh desakim, mening na’laynim, aning sari boqmang, ya’ni darveshga kerak mulk bo‘lmasa. Ul debdurki, otam manga vasiyag qildiki, ilm o‘rgan, zohir odobi uchun va vara’pesha qil, botin odobi uchun. Va ul nimadin yiroq bo‘lki seni Tengri taolodin, mashg‘ul qilg‘ayki, oz tusharki kishi andin yuz evurgay va yana ul davlatni topqayki yuz aning sari qilg‘ay.

272. Abu Zayd Marg‘aziy Xurosoniy q. s.

Shayx ul-islom debdurkim, ul faqih erdi. Hajg‘a boradurg‘onda Kirmonshohqa yetishti Ibrohim Shaybonni anda topti. Ul yil haj azimati tarkin qildi va aning suhbatin lozim tutti, o‘z ko‘nglining imorati uchun. Andin so‘ngra uch haj guzorladi. Ul kunki, Xoja Abu Yazid olamdin o‘tti, azim yog‘in erdi. Chiqara olmadilar, uyida-o‘q dafn qildilarki, majol topsalar, chiqarib eltkaylar va muqarrar qilg‘an yerda qo‘yg‘aylar. Chun qabrini ochdilar, ani qabrda topmadilar. Shayx ul-islom debdurki, bu valoyatni fiqhdin topmaydur erdikim, ul pir suhbati barakatidin topib erdi.

273. Ibrohim b. Ahmad Muvallid Sufiy Raqqiyq. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Ishoqdur va Raqqaning kibori mashoyixidindur. Abu Abdulloh Jallo va Ibrohim Qassor Raqqiy bila suhbat tutub erdi. Uch yuz qirq iqkida dunyodin o‘tti. Qardoshi Abulhasan ibn Ali Hamadon ani tush ko‘rdi va dediki, manga vasiyate qil! Ul dedi: [To rabbing bilan uchrashguncha o‘zingga faqirlik va xorlikni lozim tut!][1]. Ul debdurki, [faqrning haqiqati shuki, banda Haq s. t. dan boshqaga biror narsada ehtiyoj sezmaydi][2]. Va ham ul debdurki, ajab kelur manga biravdinkim, bilgandin so‘ngraki, anga Tengri sarn yo‘ldur, aning g‘ayri bila nechuk zindagonlik qilur. Va hol ulki Xudoyi taolo derki: [Parvardigoringizga qaytinglar va unga bo‘ysuninglar!][3].

274. Ibrohim Jiliy r. t.

Jil yeridin ermish. Shukuhlik buzurg pir ermish. Bu toifaning vaqtin sofiy tutar ermish. Shayx Abulazhar Istaxriy debdurki, ul ammzodasig‘a mubtalo bo‘ldi va ani nikohig‘a kiyuurdi. Va anga andoq mash’uf bo‘ldikim, aning muhabbatidin bir lahza aning qoshidin qo‘pa olmas erdi. Bir kun dedikim, bu ne ishdurki, men andamen; agar bu hol bila o‘tib, oxiratqa borsam, kim bo‘lg‘aymen? Kecha qo‘pti va g‘usl qildi va namoz qildi va Tengri hazratida zorlig‘ qilib dediki, Ilohi, sen ul avvalisenki, bor erding, mening ko‘nglumga hamul avvalg‘i holni karomat qil! Haiul zamon aning holining ofatig‘a isitma yuzlanib, uch kundin so‘ngra o‘tti. Ibrohim ani dafn qilib, o‘z holu vaqti boshig‘a bordi va ayog‘ yalang tavakkul bila bodiyag‘a kirdi.

275. Ibrohim Dehistoniy r. t.

Shayx ul-islom dedikim, Muhammad Qassob Domag‘onda manga dedikim, ul vaqtki bu diyorda Kalom ahli padid bo‘ldilar, men andin ranjur erdim. Qo‘ptum va Shayx Ibrohim Dehistoniyg‘a bordimki, andin so‘r-g‘aymen, ya’ni mazhabdin va alarning so‘zidin. Chun aning qoshng‘a yettim hanuz andin hech nima so‘rmaydur erdimki, dedi: Muhammad, qayt! [Allohni Allohdin o‘zga kishi tanimas][1] Zunnun q. s. so‘zidurkim, [Al-loh zoti haqidagi ilm – nodonlikdur][2].

276. Ibrohim Marg‘inoniy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Ibrohim Marg‘inoniy debdurki, ulcha quloq anglag‘oy – ilmdur va ulcha fahm anglag‘ay – hikmatdur va ulcha oning bila eshitilgay va aning bila anglag‘aysen – hayot va tiriklikdir.

277. Ibrohim Nozuvayh q. s.

Kuniyati Abu Ishoqdur. Nishobur mashoyixindindur. Abu Hafs Haddodni koʻrubdur va Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutubdur. Anga futuvvatda azim shon : ekandur. Oti Ibrohim b. Muhammad b. Sa'd. Ammo anga yaxshi suratdin va xoʻb oʻqumoqdin Nozuvayh laqab qilibdurlar.

278. Muzaffar Kirmonshohiy Qirmisiy q. s.

Toʻrtunchi tabaqadindur. JabAliing kibori mashoyixidindur va sodiq fuqarosidin. Abdulloh Xarroz bila suhbat tutubdur. Uz tariqida mashoyixying yagonasi ermish. Va Abbos Shoirning ustodidur. Shayx ul-islom debdurki, ul kyochani uch qismat qilib erdi bir qismni namoz qilur erdi va yana bir qismni Qur'on oʻqur erdi va yana biri munojot qilur erdi. Va oʻziga zorliq qilib, bu baytlarni oʻqur erdikim,

sh ye'r:

[Jigarimni ishq iloni chaqib oldi. Bu dardimning davosi ham, afsungari ham yoʻq. Uning yolgʻiz tabibi men koʻngul qoʻygan tabibdurkim, afsunim ham, taryokim ham uning qoʻlidadir][1].

Ul debdurki, [orif–qalbini mavlosiga, jasadini xalqiga bagʻishlagan kishidir][2]. Va ham ul debdurki, [kimki yoshlar bilan salomatlik va nasihat qilish sharti bilan suhbat qursa, bu suhbat uni baloga giriftor qiladi. Salomatlik sharti bilan suhbat qilmaganning holi ne kechadi?][3] Andin soʻrdilarki, faqir kimdur? Dedikim, anga hojati boʻlmagʻay, ya'ni hojati barcha ul boʻlgʻay.

279. Abulhusayn b. Bunon q. s.

Toʻrtunchi tabaqadindur. Abu Sa'd Xarroz bila suhbat tutubdur va nisbatin anga durust qilur. Tiyhda dunyodin oʻtubdur. Shayx Abu Usmon Magʻribiy debdurki, bir vaqt Abulhusayn Bunon raqsu samo'da garm erdi. Va Abu Sa'd Xarrozni koʻrdumki, aning uchui ovoʻchin qoqadur erdi. Ul debdurki, barcha el bodiyada tashnalabdurlar va men Nil qirogʻida. Ham ul debdurki, biyik tutmagʻay Tengri doʻstlarining qadrin, magar ulki Tengri qoshida qadri biyikdur.

280. Abulhusayn b. Hind Forsiy q. s.

Toʻrtunchi tabaqadindur. Oti Ali b. Hind Qurashiy, Forsning kibor mashoyixindindur. Va Ja'far Haddod, andin buzurgrok, Abu Amr b. Abu Usmondek va Junayd va ul tabaqadagʻilar bila suhbat tutubdur. Ul debdurki, har kishini Haq Taolo oʻz qurbi bisotida oʻlturtqay, harne anga yetsa, ani rozi va xushnud qilgʻay, neuchunki, qurb bisotida norizoligʻ va noxushnudlugʻ boʻlmagʻay. Ham ul debdurki, Alloh taolo bila husni xulq shikoyat tarkidur va aning amrlari va farmonlariga koʻngul nashoti va nafs tayyibi bila qiyom koʻrguzmak va xalq bila yaxshilik qilmoq va burdborligʻ. Ham ul debdurki,

b a y t:

[Dardu gʻam payti ularga chopardim. Endi dardu gʻamim–ular. qaerga boray?][1].

281. Abuladyon q. s.

Kuniyati Abulhasandur, oti Ali. Aning uchun ani Abuladyon debdurlarki, barcha dinlarda munozaoa qilur erdi va muxolifqa shikast berur erdi. Junayd bila muosir erdi va Abu Sa'd Xarroz bila suhbat tutub erdi. Aning Ahmad otligʻ quli bor erdi. Ul debdurki, Abuladyon bila bir majusiy orasida bir kun soʻz oʻtar erdi. Ul dedikim: oʻt Haq taolo amri bila kuydurur. Majusiy dedi, agar muni manga koʻrguzsang, sening diningga kiray. Bu ishga qaror berdilar va azim oʻt yoqtilar. Chun oʻtunlar choʻgʻ boʻldi, yerga yoydilar. Shayx sajjoda ustida namozgʻa mashgʻul erdi, chun forigʻ boʻldi, qoʻpub ul oʻtqa kirdi va hech boʻshmadi. Majusiygʻa dedikim, muncha basmudur, yo yana ham oʻt yoqarmusen? Majusiy musulmon boʻldi. Shayx soʻzning oxirida chiroyin yopti va oʻtdin chiqti. Ahmad debdurki,

kecha oyog‘in uvalar erdim. Oyog‘i bir olma chog‘lig‘ qabarib erdi. Aning sababin Shayxdin so‘rdum. Dedi, o‘tqa kirganda o‘zumdin g‘oyib erdim, ul so‘zni majusiyg‘a ayturda hozir bo‘ldum, bu aning natijasidur. Agar ul o‘t o‘rtasida erkanda behuzur bo‘lsa erdi, kuyar erdim. Shayx ul-islom debdurki, ul qachon hajga borsa erdi, uyidin ihrom bog‘lab, «labbayk» urar erdi va tebrar erdi. Bir qatla hajdin keldi va «labbayk» urmog‘ni bunyod qildi. Ayttilarkim, sovug‘liq qilma hajdin emdi kelibsen. Dedi, bu «labbayk»ni haj uchun urmaymenkim, aning uchun uradurmen. Bir hafta o‘tmadikim, dunyodin o‘tti.

282. Abu Ja’far Muhammad b. Ali Nasaviy al-ma’ruf Muhammad Aliyon q. s.

To‘rtunchi tabaqadindur. Nisoning ajilla mashoyixidin. Abu Usmon Hiriyning kibori ashobidn. Mahfuz debdurkim, ul maorif ahlining imomidur. Ul debdurki, har kim o‘z ixtiyoru dilxohi bila karomot iz-hori qilsa, ul mudda’idur, har kimki, bexost va ixtiyor andin karomat zohir bo‘lur, ul. valiydur. Va ham ul debdurkim, nechuk sevmagaysen anikim, bir turfa tulayn aning bir ehsonidin xoli bo‘lmag‘aysen? Va nechuk aning muhabbati da’vosin qilg‘aysenkim, bir to‘rfatulayn aning muvofaqati maqomida bo‘lmag‘aysen? Va ham ul debdurkim, har kim Haq taoloning gayri bila orom tutqay, Haq taolo ani aftoda qilg‘ay va har kim Haq taolo bila orom tutqay, Hak taolo o‘zgalar bila orom tutmoq yo‘lini andin bog‘lag‘ay va kesgay.

283. Abu Said A’robiy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Muhammad. Basriyulasldur. Makkada sokin bo‘lub erdi. Olim erdi va faqix Bu toifa uchun tasnifoti bor. Junayd q. s. bila suhbat tutubdur va Amr b. Usmon va Abulhusayn Nuriy va Hasan Masuhiy va Abu Ja’far Haffor va Abulfath Hammolg‘a qaribdur to‘rtunchi tabaqada. Va uch yuz yigirma yo yigirma birda dunyodin o‘tubdur. Uz vaqtida Haram shayxi erdi. Shayx ul-islom debdurki, anga juzviydur tavhid nuktalarida, bag‘oyat xo‘b. Anda debdurki, yaqinlik demagaylar, to yirog‘liq bo‘lmag‘ay. Va ham ul debdurki, [tasavvufning hammasi ortiqcha narsalarni tark qilish, ma’rifatning hammasi bilimsizlikni e’tirof etishdir][1]. Va ham ul debdurki. [Shavq faqat g‘oyibga mansubdur][2]. Shayx ul-islom debdurki, Dovud Toyidin so‘rdilarki, mushtoqsen? Dedi: men yiroq emasmen, g‘oynb mushtoq bo‘lur va mening do‘stum hozirdur.

284. Abu Amr Zujoj q. t. s.

Beshinchi tabaqadindur va oti Muhammad Ibrohim. Va Ibrohim ham debdurlar. Nishoburiyulasldur. Va Junayd va Ruvaym va Xavvos q. s. bila suhbat tutubdur. Derlarki, qirq yil Makkada mujovir erdi, anda bavl qilmadn. Oltmish hajga yaqnn guzorlar erdi. Abu Amr Nujayd debdurki, Makkada erdim. Mashoyix halqa urub o‘ltururlar erdi, Abubakr Kattoniy va Abulhusayin Muzayyini Kabir va Sag‘irdek. Va barchag‘a Abu Amr Zujoj sarhalqa erdi. Va bu toifa so‘zi o‘tsa erdi, ul hukm qilur erdi. Payvasta der erdiki, mem o‘ttuz Gshl Junaydning xalosin iligim bila artibmen. Va bu ishqa mubohot qilur erdi. Va uch yuz qirq sakkizda dunyodin o‘tti. Ul debdurki, [a’zoi vujudnmdagi biror nuqson suv ustida yurganimdan yaxshiroqdir][1].

285. Ibrohim b. Yusuf b. Muhammad Zujojiy. q. s.

Kuniyati Abu Ishoqdur. Abu Amr Zujojiyning volididur. Mashoyix tarixida kelturubdurlarkim, ul Abu Hafsning kibor ashobidindur va malomat tariqida va nafs xilofida sohibi mazhab. Ul debdurki, [Muntazam nafsga xilof ish qilish barakadir. Hayotimda bir marta unga bir qadam hamrohlik qildimu yillar davomida buning jabriga chora topa olmadim][1].

286. Ja’far b. Muhammad b. Nusayr Xuldiy Havvos r. t.

Beshinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Muhammad, Bag‘dodlig‘dur, Xuld mahallasidin. Hasirbof erdi. Juiayd va Ibrrhim Xavvos q. s. ning shogirdidur. Va Nuriy va Ruvaym va Samnun va Jaririy bila suhbat tutubdur. Va bu tonfa nlmida olim ermish. Kutub va tavorix va hikoyot va mashoyix sirrining

jomi’idur. Ul debdurki, mashoyixdin ikki yuz devonim bor va mashoyixdin ikki ming pir tanirmen. Ul debdurki, Iroqning ajoyibi uch nimadur; Shibliyning shathi va Murta’ishning nuktasi va mening hikoyotim. Ul Shayx Abulabbos Nihovandiyning piridur. Bag‘dodda uch yuz qirq sakkizda dunyodin o‘tubdur va qabri Shuniziyadadur. Sariy Saqatiy qabri yonida, Junaydqa yaqin. Ul debdurki, [Javonmardlik o‘z nafsini xor, musulmonlar hurmatini uluq bilmakdir][1]. Va ham ul debdurkim, [oliyhimmat bo‘l! Zotan kishini jiddu jahd emas, oliyhimmat kamolga yetishtiradi][2]. Shayx ul-islom dedikim, Ja’far Xuldiydin so‘rdilarki, oriflar kimlardur? Dedikim, alar emasdurlar alar va agar alar alardurlar, emasdurlar alar.

287. Abulhasan Sufiy Fushanjiy r. t.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ali b. Ahmad b. Sahl. Xurosonning yagonalari va javonmardlaridin erdi. Abu Usmon Hiriyni ko‘rub erdi va Iroqda Ibn Ato va Jaririy bila suhbat tutub erdi. Va Shomda Tohir Maqdisiy va Abu Amr Dimishqiy bila musohib bo‘lub erdi. Va Shibliy bila qavm masoyilida so‘z aytishib erdi. [U tavhid va muomalot ilmida o‘z davri mashoyixlarining olimi, tajrid va javonmardlik tariqatida ularning yaxshirog‘i edi. Go‘zal xulqli, diyonatli, faqirlarga hamdard edi. Hijratning uch yuz qirq sakkizinchi yili olamdan o‘tdi][1]. Po‘shangdin erdi va Nishoburda sokin. Bu qavmning tariqin yaxshi bilur erdi. Va mufid safarlar qilib erdi. Andin so‘rdilarki, tasavvuf nedur? Dedikim, [zamonimizda tasavvuf bir ismga aylangan, haqiqat emas. Ilgari ism emas, haqiqat edi][2]. Abu Usmon Mag‘ribiy debdurkim, andin so‘rdilarki, zarif kimdur? Dedikim, [zarif – tabiati, axloqi, fe’li va shaklu shamoyilida soxtalik bo‘lmagan kishidir][3]. Va ham ul debdurki, [bu dunyoda biror sabab va g‘araz bilan sevuvchi kishidan ko‘ra xunukroq narsa yo‘q][4].

288. Bundor Husayn b. Muhammad b. Muhallab Sherozii q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Kuniyati Abulhusayn, Sheroz ahlidin. Arjonda bo‘lubdur va qabri andadur. Usulda olim erdi. Anga ulumda haqoyiqi rabboniydur, Shibliyning shogirdidur va Abu Abdulloh Xafifniig ustodi. Shibliy aning qadrin biyik tutar erdi. Va Ja’far Haddod bila suhbat tutubdur. Uch yuz ellik uchda dunyodin o‘tubdur. Ul yilki Shayx Abu Ali Kotib o‘tubdur. Va Shayx Abu Zur’a Tabariy ani g‘usl, qilibdur. Andin so‘rdilarki, tasavvuf nedur? Dedikim, ahdqa vafo. Shayx ul-islom debdurki, ahdqa vafo uldurkim, harne ko‘ngulga kechsaki, aning uchun qilayin, qilg‘aysen. Va Bundor so‘zidurkim, [kimki Haq qarshisida xolis barcha narsani tark qilmas ekan, uning uchun butun borliqning haqiqati – Haq s. t. hosil bo‘lmaydi][1].

289. Abu Amr Nujayd q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ismoil b. Nujayd b. Ahmad Sulamiy. Shayx Abu Abdurrahmonning jaddi. Abu Usmon Hiriyning kibori ashobidindur. Uch yuz ellik yo oltmish oltida olamdin boribdur. Junayd. q. s. ni ko‘rub erdi, vaqtining kibori mashoyixidin erdi. Hol talbisi va vaqt nigohdoshtida anga xush tariqi erdi. Aning so‘zidurkim, [sukut so‘zga nisbataya ta’sirliroq va tezda yetib boradi][1]. Va ham ul deb-durki, [kimga nafsi aziz tuyulsa, dini xor ko‘rinadi][2]. Va ham ul debdurki, [ehsonni tarbiyalash ehsondan yaxshidir][3]. Andin so‘rdilarki, ul nedurki, bandag‘a andin chora yo‘qdur? Dedi: [sunnatga muvofiq banda-lik qilishni lozim ko‘rmoq va doimo muroqabada bo‘lmoq][4]. Va ham ul debdurki, [Alloh taolodan boshqasini do‘st tutish–vahshiylikdir][5].

290. Abdulloh b. Muhammad b. Abdurrahmon Rozii q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Muhammad. Aslda Raydin erdi va Nishoburda bo‘lur erdi. Junayd va Abu Usmon va Muhammad b. Fazl va Ruvaym va Samnun va Ali Juzjoniy va Muhammad Hamid q. s. bila suhbat tutubdur. Va Abu Usmonning kibori ashobidin erdi. Va ul ani ulug‘ tutar erdi. Va anga ajib riyozatdur. Bu toifa ulumig‘a olim ermish. Va hadisi bor va siqadur. Uch yuz ellik uchda dunyodni o‘tubdur. Ul debdurki, orif Tengri taoloni xalq muvofaqati bila parastish qilmaski, ul ish

qilg‘uchidur Tengri muvofaqati bila. Va ham ul debdurki, ma’rifat Tengri va banda orasidin hijobni ko‘tarur. Va ham ul debdurki, dunyo uldurki, seni Tengridin mahjub qilur. Vl ham ul debdurki, shikoyat va diltanglig‘ ma’rifat ozligidin zoyanda bo‘lur.

291. Abulhusayn Sirvoniy r. t.

Oti Ali b. Muhammad Sirvoniydur. Sirvonini Sag‘irning ustodi. Mag‘ribning Sirvonidindur. Va Dimyotda o‘lturur erdi va buzurg erdi. Shayx Abu Said Moliniy «Mashoyixi arba’in»ida kelturubdurkim, Abulhusayn Sirvoniyi Kabir debdurkim, Sahl b. Abdulloh Tustarin dedikim, [kimki har qanday ahvolida bir imomning zohiriy amallariga iqtido qilmasa, uning botiniy holini haq deb bilmasa, u Haqdan uziladi][1]. Va ham debdurkim, [rizo–g‘aybdan yetadigan narsalarga muvofaqat qilishdan ustun turadi][2]. Ul Xavvosdin vasiyat talabi qildi. Xavvos dedikim, [faqirlar suhbatin lozim tutki, unda xayr bordir][3].

292. Abulhusayn Qarofiy r. t.

Oti Ali b. Usmon b. Nasr Qarofiydur. Va Qarofa Misr kentlaridindur. Debdurlarki, ul Dimyotda bo‘lur erdi. Abulxayr Taynotiy va Abulhasan Soiig‘ Dinavarnnning shogirdidur. Umri yuz o‘nga yetti. Uch yuz saksonda dunyodin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki, Qa-rofiy o‘z vaqtida dunyoning yagonasi va benaziri erdi. Bas haddunnazar va hozirul vaqt. Avom bila sunnin pa xavos bila orif va o‘zlukida muvahhid erdi va nishoni xud gum! Va shayx ul-islom oxir umrida o‘n tanni ixtiyor qilib ermish. Abulxayr Taynotiy va Qarofiy va Husriy va Ali Bundor Sayrafiy va Nasrobodiy va kichik Sirvoniy va Nihovandiy va Qassob va Xaraqoniy va Toqiy. Va der erdikim, bular boshqadurlar. Bir qatla Qarofiy kemada ihtisob qildi, ayog‘ iligin bog‘lab, daryog‘a tashladilar. Namoz chog‘i ani avvalgi safda ko‘rdilar, tani o‘l bo‘lmaydur erdi. Shayx ul-islom debdurki, aning tirigini kishi o‘ltura oymaskim, ul o‘zga ruh bila tirikdur. Ham shayx ul-islom dedikim, Sayyidus sodot Qarofiy debdurkim, chun sanga bir nima bersalarki, xilofi sher’ bo‘lgay, vojibdur ani yashirmak.

293. Abu Sulaymon Niliy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Abu Sulaymon Niliy Qarofiyg‘a keldi va aning manglayin o‘pti. Va Abu Sulaymonning kisvati bag‘oyat eski va yirtuq erdi. Qarofiy anga boqib dedikim, yo Abu Sulaymon, sening to‘nungni xalaq ko‘rarmen. Va ikki qoshing orasida hukumat ko‘runur, ikki xisht boshing ostiga qo‘yarsen, amio ul orada hokimsen. Andin so‘ngra ani Mag‘ribda hrkim qildilar, sufilig‘ndin. So‘ngra Abubakr Duqqiy Qarofiyg‘a keldi. Qarofni anga dedikim, jahon mujarradi derlar va men seni ikki beshik orasida ko‘rarmen. Oz fursatda Duqqiy uylandi va anga ikki farzand bo‘ldi. Ikki beshik orasida o‘lturub, Qarofiy so‘zni sog‘inur erdi. Qarofiyg‘a farosatda ajoyib ko‘pdur.

294. Abu Sulaymon Xavvos Mag‘ribiy r. t.

Bu toifadindur Mag‘rib mashoyixidin. Uldurki, bir kun bir gaziston orasidin eshak minib borur erdi. Markabin chibin tishladi. Markab sekridi va aning ayog‘i yulg‘un daraxtig‘a siyrilib majruh bo‘ldi. Ul yig‘och bila markab boshig‘a urdi. Markab keyin boqib, fasih til bila anga dediki, urg‘ilki, o‘z dmog‘intta urarsen. Ul Abulxayr Taynotiyning aqronidin erdi. Dimishqda dunyodin o‘tdi.

295. Abulqosim Nasrobodiy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ibrohim b. Muhammad Mahmuya. Mavlid va maqomi Nishobur ermish. Ishorat va. haqoniq ahlining shayxi va tasavvuf lisoni erdi. Va o‘z zamonida anvoyi ulumg‘a olim erdi. Ibrohim Shaybonning shogirdidur. Shibliy va Vositiy q. s.ni ko‘rub erdi. Va Abu Ali Rudboriy va Murtoz va Abubakr Abhariy bila suhbat tutub erdi. Umri oxirida Makkaga bordi va Abu Usmon Mag‘ribiy anga pazira qildi va taybat bila anga dediki, Makka ne sening yeringdur? Ul dedi, bilki ne sening yeringdur, mening yerimdur. Oz vaqt o‘tmadikim, sabab voqe’ bo‘ldikim, Abu Usmok

Nishoburg‘a tushti va anda dunyodin o‘tti. Ul Makkada mujovir bo‘ldi va anda uch yuz yetmish ikkida dunyodin o‘tti. Shayx ul-islom debdurki, Nasrobodiyning o‘g‘li Ismoyil manga otasidin bu so‘zni naql qildikim, [Haq sahrolarida senga biror narsa namoyon bo‘lsa, u yerda jannatga ham, do‘zaxga ham e’tiboringchi; qaratma, ularni xayolingga keltirma. Shu holatdan qaytsang, Allohu taolo ulug‘lagan narsani ulug‘la!]1. Va ham ul debdurki, [bag‘ishlov, ehsonga rag‘bat qiluvchining qadri yo‘q, mute’ga rag‘bat qiluvchi azizdur][2].

296. Abubakr Roziy Bajaliy r. t.

Oti Muhammad b. Abdulloh Roziydur. Nishoburda bo‘lur erdi. Xurosonning kibori mashoyixidindur; Abu Abdurahmon Sulamiyning ustodidur. Va Sulamiytarixini aning tarixig‘a bino qo‘yubdur. Va Abubakr Baykandiy shogirdidur. Shayx ul-islom dedikim, anga azim vaqt va ko‘p qabul erdi. Nishoburda bir ko‘dak ishiga mubtalo bo‘ldi. Ani muttaham qilib, mahjur qildilar. So‘ngra. ma’lum qildilarki, aqidalarining xilofi ermish. Yana anga qabul paydo bo‘ldi. Bir kun Shayx Abu Ali Bundor Sayrafiy anga dedikim, ayyuhash shayx, bu ne erdiki, sanga voqe’ bo‘ldi, ul ish qaydin tushti? Dedikim, ey pir, agar Ibrohimning azmi va Musoning sidqu yaqini va Isoning ismati va Ahmad Arabiy s. a. v.ning himmatu sabri kishida bo‘lsa va aning asramog‘i bo‘lmasa, chun fitna yely esgay, barchasi barbod bo‘lg‘ay va kishi aning o‘rtasida bo‘lg‘ay. Shayx ul-islom dedikim, birov Abubakr Ro-ziydin so‘rdikim, samo’da ne dersen? Dedikim bas fitnaomizu tarabangizdur, o‘zni fitnadin asramak kerak. Dedikim, mashoyix murtakib bo‘lubdurlar. Dedikim, ey aziz farzand, sening vaqting alardek bulsa sen ham bo‘l!

297. Abubakr Folizbon Buxoriy r. t.

Buxorolig‘dur. Buzurg ermish. Junayd q. s.ni ko‘rubdur. Shayx ul-islom debdurki, Shayx Abu Buxorog‘a bordi, ani ko‘rgali. Debdurki, ani bir uyda toptimki, bir eshigi bor erdi. Kirdim va salom qildim. Meni o‘lturtti va sufra kelturdi. Sufrada non erdi va yong‘oq va tuz. Men och erdim, yemakka mashg‘ul bo‘ldum. Anga boqtim, ul yig‘laydur erdi. Iliktaomdin torttim. Manga dedikim, sen nima yegilki, men shodlig‘din yig‘laydurmenki, Abulqosim Junayd q. s. manga deb erdikim, bot bo‘lg‘ayki, bu so‘zlar andoq bo‘lg‘ayki, bir ko‘yda ikki hujra bo‘lsaki, birida bu so‘zlardin bo‘lsa va yana birida bo‘lmasa, bo‘lmag‘on hujradin kelib, bo‘lg‘on hujradag‘idin bu so‘zni eshiturg‘a kariy qilmag‘ay, holokim, hanuz Hirotdin Buxorog‘a bu so‘zlarni eshiturg‘a kishi kelur, xo‘bdur.

298. Abulhusayn Husriy r. t.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ali b. Ibrohim Basriy. Asli Basradin erdi, ammo Bag‘dodda sokin erdi. Iroq shayxidur. Shayx Sulamiy debdurki, mashoyix orasida andin tamomholroq va shirin zabonroq, uluq so‘zroq ko‘rmadim. Lison ul vaqt edi va mashoyix yagonasi. Va maxsus erdi Tavhid ilmig‘a. Shayx ul-islom debdurki, Shibliyning shogirdi erdi va Shibliyg‘a xud andin o‘zga shogird yo‘q erdi va Husriyg‘a Shibliydin o‘zga ustod yo‘qdur. Shibliy aning ishida teng borib erdi, doim anga der erdikim, [sen ham men kabi devonasan, o‘rtamizda azaliy ulfatchilik bor][1]. Husriy va Abu Abdulloh Xafif bir-birining naziri ermishlar. Husriy zulhijja oyi juma kuni uch yuz yetmish birda dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki, [So‘fiy – iztirob paytida iztirobsiz va qarorida barqarordir][2]. Va ham ul debdurki, [So‘fin foniy bo‘lgandan keyin mavjud bo‘lmaydi, mavjud bo‘lgandan keyin foniy bo‘lmaydi][3]. Va ham ul debdurki, sahar vaqti Munojot qilib, dedimki, mendin rozimusenki, men sendin rozimen? Nido keldiki, ey kazzob, agar sen bizdin rozi bo‘lsang erdi, bizing rizomizni tilamagay erding. Anga dedilarkim bizga vasiyate qil! Dediki, [ishning avvalida yolg‘izlikka yuz tuting! So‘ng ma’rifat uchun mashoyixlarni ziyorat qiling! So‘ngra barcha ishlarni tark etib, Haq ila bo‘ling!][4]. Va ham ul debdurki, vaqtekim, mening avqotim tor bo‘lg‘ay, hech nimadin xushluq va rohat tilamasmen, magar ul anfosning so-g‘inmog‘i bilakim, mundin burun manga o‘tubdur, unsu mavaddat safosi vaqtida kuduratlar omizishidin boshqa. Va bu baytni o‘qubdurkim,

bayt:

[Albatta, Salmo visoliga fikrimni band qilib qo‘ygan dunyo– xushbaxt damlardurkim, menga eh-son qilish haqida qayg‘uradi][5].

299. Abulhusayn Sam’un r. t.

Oti Muhammad b. Ahmad b. Ismoil b. Sam’undur. [U «hikmat notiqi» deb laqab olgan edi][1]. Bag‘dod mashoyixidindur. Anga bu ilmda yaxshi tilda adosi erdi. Shayx Abubakr Isfahoniy, Shibliyning xodimi deb-durki, masjidi jome’da juma kun Shibliy xidmatida o‘lturub erdim. Ibn Sam’un go‘dak erdi va shayx ollidin o‘tti. Shayx boqib aning sari dedikim, yo Abubakr, bilursenki, Tengri taolog‘a ne zaxiralardur bu go‘dakda. Bu toifadin birav debdurkim, Ibn Sam’un minbari tubida o‘lturub erdim. Majlisida bu toifadin birav erdi. Nogoh ul kishi uyqug‘a bordi. Ibn Sam’un so‘zni bas qildi, onchakim ul kishi uyg‘ondi. Ibn Sam’un anga dedikim, Rasul s. a. v.ni tush ko‘radur erding? Ul darvesh dedi: bale! Dedi, men ham ul jihatdin so‘zni bas qildimkim, ul uyqudin seni uyg‘otmag‘aymen va ul holdin seni mahrum qilmag‘aymen. Shayx ul-islom debdurki, men Ibn Sam’un bila yaxshi emasmenki, ul maning ustodim Husriyni ranjida qilur erdi. Har kishikim, sening ustodingni ranjida qilur bo‘lsa, sen andin ranjida bo‘lmasang, it sendin yaxshiroq! Ham Shayx ul-islom debdurki, Ibn Sam’un sohibi kalom erdi va Husrny sohibn dard. Ul uch yuz sakson yettida dunyodin o‘tubdur. Va ul debdurki, har so‘zki, zikrdin xolidur– lag‘vdur va har. xomushlikkim, fikrdin xolidur–sahvdur va har nazarki, ibratdin xolidur – lahv.

300 Abunasr Xabboz va Abulhasan Suhon Ojan h. s.

Shayx ul-islom dedikim, Gozurgoh mashoyixidin ikki kishi qadimroqdir, biri Shayx Abunasr Xabboz, buzo‘rg erdi. Shogirdlaridin jamoate Makkaga borurlar erdi, Husriy ziyoratiga bordilar. Husriy alarg‘a iltimos qildikim, agar nima o‘quy olursiz, bir nima o‘qung! Alardin birikim, nima o‘qiy olur erdi, nima o‘qudi. Shayx un tortti va beqaror bo‘ldi samo’da. Va dedi: sizga bu yil bor yo‘qdur, yoning! Va dedi: Abu Xabboz muridlarisiz Hirining ul falon tog‘ida? Dedilar, bale. Dedi andin dastursiz va yo‘lg‘a mutavajjih bo‘lubsiz, qayting, dag‘i aning xidmatig‘a boring! Alardin har kishi aning so‘zy bila yondi, salomat bordi, har kishi bodiyag‘a kirdi, samumdin o‘rtandi.

Va Gozurgoh mashoyixidin yana biri Shayx Abulhasan Suhon Ojan erdi. Va ul masjidi jome’da o‘lturur erdi. Shayx ul-islom dediki, aning shogirdi manga dedikim, bizing pir Ramazonning so‘nggi kuni sajdaga boshin qo‘yub, subhg‘a degincha zorlig‘ bila aytur erdikim, Xudoyo, ul ro‘zakim tuttum, sening uchun. va ul haj va namozki qildim va Qur’onkim o‘qidim, barchadin tavba qilurman, meni roygon yorlig‘a!

301. Shayx Ahmad Harroniy q. t. s.

Ul debdurki, Shayx Abulhasan Mu’ammar ayturki, Husriy bila o‘lturub erdim. Birav andin vasiyat istid’osi qildi.» Ul dedikim, [himmatingni baland tut!][1]. Jahm Raqqiy hozir erdi, dedikim, ey Shayx, oni yiroq solding! Husrin dedikim, nechukki, manga to‘ldurdilar, anga tuttum.

302. Jahm Raqqiy r. t.

[U keyingi mashoyix va javonmardlardan bo‘lib, sodiq faqirlardan edi. Samo’ga oshufta va ko‘ngil bergan edi. Ikki sajda orasida vafot etdi][1]. Shayx ul-islom dedikim, Jahm Raqqiy hammomda erdi, chiqti va elga ayttikim, chiqing! Chun bori el chiqtilar, hammom yiqildi. Va ham ul erdikim, birav aning ilayida takalluf bila raqs qiladur erdi. Ul qo‘pti va boshin aning choti orasiga solib ko‘tardi va tomdin tomg‘a urar erdi, to ul kishining hushi ketti.

303. Abulhusayn Urmaviy r. t.

Buzurg erdi. Bu toifadin Husriy ayyomida va Abu Ali Rudboriy va Abu Abdulloh Xafif va barcha vaqt mashoyixi bor erdilar. Urmiyda erdi va qabri andadur. Andin so‘rdilar: vafo nedur? Dedikim, Ulki, harne ondin qaytting, yana aning boshig‘a bormag‘aysen. Dedilar, bu omningdur, xosning nedur? Dedi: ulki bilgaysenki, neuchun qilibsen.

304. Abu Abdulloh Xafif Sheroziy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Xafif b. Isfikshor Zabbiy. Sherozda bo‘lur erdi. Otasi Nishoburdindur. Uz zamonida shayx ul-mashoyix erdi va oni Shayx ul-islom derlar erdi. Shayx Abu Tolib Xazraj Bag‘dodiyning shogirdidur. Ruvaymni ko‘rub erdi va Kattoniy va Yusuf b. Husayn Roziy va Abulhusayn Molikiy va Muzayyin va Abluhusayn Darroj va Tohir Maqdisiy va Abu Amr Dimishqiy va bulardin o‘zga mashoyix bila ham suhbat tutub erdi. Mashoyix diydoridin marzuq erdi. Zohir ilmida va haqoyiq ilmida olim erdi. Shayx ul-islom debdurki, ilmda hech kishining oncha tasnifi yo‘qdurki aning. Imom Shofi’i mazhabida erdi. Uch yuz o‘ttuz birda dunyodin o‘tubdur. Shayx ul-islom. aning ikki so‘zin bag‘oyat ta’rif qilibdur. Biri buki, andin so‘rdilarki, tasavvuf nedur? Dediki: [g‘aflat paytida haqni topishdir][1]. Yana bukim, so‘rdilarki, Abdurrahim Istaxriy ne uchun sakbonlar bila dashtqa borur va qapton kiyar? Dedikim, [unga og‘irlik qilayotgan narsani yengillatish uchun][2]. Dedi: borurki, aning yukidinki andadur, yengilgay va dami urg‘ay. Shayx ul-islom dedikim, vujudda lazzat yo‘qdurki barcha sadamat va ushalmaqdurki, havas tuganur. [Boshqa birovningg she’rini bizga o‘qib berdi: Laylining yodini unitishni xohlayman, lekin qaerga boqsam, ko‘z oldimda turadi][3].

305. Abulxayr Molikiy r. t.

Oti Bundor b. Ya’qub Molikiydur. Mashoyix akobiridin erdi. Va anvo’i ilm jam’ qilib erdi. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, yigitlikda ro‘za tutar erdim va visol qilur erdim. Va kecha masjidi jome’da bo‘lur erdim va mening uchun bir qandil qo‘yarlar erdi. Bir kecha yel va yomg‘ir jihatidin charog‘ o‘chub erdi. Birav eshik qoqti, boribki eshikni ochtim, Abulxayr Molikiy erdi. Kirdi va o‘lturdi. Va aning haybatidin to‘ldum. Rido ochti, anda taom erdi. Dedi: yegilki, men uyumda erdim, muni kelturdilar, yeyu olmadimki, xotirim sening sari erdi. Aning haybatidin deyolmadimki, visoldadurmen. Aning bila ul taomdin yeduk. Chun forig‘ bo‘lduq, dedimki, ayyuhash shayx, bir savolim bor. Dedi: so‘r! Dedim: [Qachon bandaning hayoti Allohu taolo bilan yorug‘ bo‘ldi? Dedi: O‘rtadan muxolifatchilik ko‘tarilganda][1]. Men bu so‘zdin mutaajjib bo‘ldum, tonglasi mashoyixg‘a arz qildim. Alar ham mutaajjib bo‘lib dedilarki, tilarbizki, o‘zidin eshitgaybiz. Chun andin so‘rdilar, dedikim, [kechasi sodir bo‘lgan narsa kunduz zikr etilmaydi][2] va iqror qilmadi.

306. Abubakr Sha’roniy r. t.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, [zohiran Abubakr Sha’roniydan o‘zga dunyodan ko‘ngil uzgan eng sodiq zohidni ko‘rmadim][1]. Bir kun anga bordim, Istaxrda erdi, kecha qoshig‘a kirdim. Dedi, yo Abo Abdulloh, bu kun sening barakatingdin yog‘lig‘ taom yegumizdur. Qo‘pti va safol qozonni osti va bir pora qoq eti bor erdi, qozong‘a soldi va tuz solib, qozonni qaynatdi: Va biravga dedikim, bir pora o‘tmak kelturdi. Va ani tarid qildi, sho‘rbadin anga soldi va etni aning yuziga qo‘ydi. Va manga dedikim, yegil! Men ul tariddin yer erdim. Dedi: ettin yegil! Men dedim: meni ma’zur tut et yemakdin! Dedi: shoyad sanga falon va falon taom kerak bo‘lg‘ay, ul tongla bo‘lg‘usidur. Shahrg‘a kirali va sening uchun olali. Tonglasi shahrg‘a kirdim va fuqaro jam’ bo‘ldilar va taome hozir qildilar. Ul taomdin bir pora olib, aning uchun elttim. Dedi: aytkim, ne qilding? Dedim: hanuz nima yemaymen, sendin iltimosim budurkim, mening bila taom yegaysen. Ikav taom yeduk va men Sheroz sari Tebradim.

307. Abu Muhammad Atoyidiy r. t.

Ul shayx Abu Abdulloh Xafifning ustodlaridindur. Ul debdurki, kosibeki kasb haqiqatin rioyat qilg‘ay, hargiz Abu Muhammad Atoyidiydek ko‘rmadim. Har kun yarim donak kasb qilur erdi va aning quti andin erdi. Ikki habbag‘a nuxola sotqun olur erdi va andin ikki non pishirur erdi. Biri bila iftor qilib, birin sadaqa berur erdi. Qirq yil uyida chirog‘ yoqmadi. Jihatin so‘rdilar. Dedikim, aning hisobidin qo‘rqarmenki, anga necha nima kerak, to muyassar bo‘lg‘ay va barchasining hisobi bor.

308. Ja’far Hazzo r. t.

Kuniyati Abu Muhammaddur. [Junayd va uning tabaqasidagilar bilan suhbat qurgan, Shibliy uning manoqibini zikr qilgan va fazilati haqida gapirgan edi)[1]. Uch yuz qirq birda dunyodin o‘tubdur. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, bir kun Mu’ammil Jassos manga dedikim, Ja’far Hazzoni ko‘rkim, ne holi bor? Borib ko‘rdum. Mutakallif saroy ichinda va nozanin bisot yuzida va nafis kiyguluklar orosinda. Meni so‘rdi va men ani so‘rdum. Dedi: o‘ltur, bila taom yeyali! Bas laziz taom pishurtti va bila yeduk. Chiqib, Mu’ammil qoshig‘a keldim va har ne ko‘rub erdim, dedim. Mu’ammil duo qilib dedikim, yorab, bizga salomat va ofiyatni arzone tut.

Necha vaqt o‘tgandin, so‘ngra yana Mu’ammil dedikim, borib Ja’far Hazzo holin ko‘r! Borib, bir vayronada toptim. Bir buzuq uyda yig‘lamoqda. Uch kun erdikim, taom totmaydur erdi. Ondog‘i el iltimos qildilarki, anga nimagina yedur! Ko‘p jahd qildimkim, ozg‘ina suyuq yedurdum. Yana Mu’ammilg‘a kelib, ko‘rgonni dedim. Mu’ammil dedikim, agar avval tana’umiy qilmasa erdi, oxir bu holg‘a mubtalo bo‘lmag‘ay erdi.

309. Hishom b. Abdon r. t.

Kuniyati Abu Muhammaddur. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, chun ul namozg‘a turar erdi. Anga vajd va hol paydo bo‘lur erdi. Mehrobda keyin va ilgari yurub, Qur’on o‘qur erdi va goh bo‘lur erdikim, aning namozig‘a nasoro yig‘ilib, nazzora qilurlar erdi. Aning bir qo‘yi bor erdiki, g‘izosi aning suti erdi. Ul qo‘yni ko‘tarib, yozig‘a eltib o‘tlatur erdi.

Bir kun uyqulab, uyg‘ong‘ach ko‘rdikim, qo‘yi birov ziroatig‘a kiribdur. Ani ul ziroat iyasiga berdi va andin behilliq tiladi. Hishomg‘a vahshate va haybate yetishtikim, bir yil namozdin qoldi va el ani takfir qilurlar erdi. Bu qissa masjidi jome’ mashoyixig‘a yetdi. Barcha aning qoshig‘a bordilar va Ibn Sa’don Muhaddis ham bila erdilar. Ondin so‘rdikim, meni tonirmusen? Dedi: Ibn Sa’donsen. Dedi: Nevchun namoz qilmassen? Dedi: Menga bir necha oriz yuzlanur va namozg‘a mone’ bo‘lur. Dedikim, ne nav’? Ul javob bermadi. Shayx Abu Abdulloh Xafifdin so‘rdilarki, jihat ne erdiki Hishom namoz qilmas erdi? Dediki, g‘ayb mutolaasi qilur erdi. G‘ayb umuri anga g‘olib bo‘ldi. Hayrat maqomig‘a tushti va zohir a’molidyn otil bo‘ldi. Bir kun mashoyix Hishomg‘a dedilarki, eshitibbizki, sen mushohadag‘a qoyilsen. Har kim, munga qoyil bo‘lsa, tavba qilmoq kerak yo ani adab qilmoq kerak. Hishom dedi: Menga tavba talqin qiling! Qildilar. Yana kun mashoyix qoshig‘a kelib dedikim, tonug‘ bo‘lingkim, men tuno-kun qilgan tavbadin tavba qildim. Mashoyix qo‘pub, oni sudrab, Masjidi jomidin chiqardilar.

310. Abu Muhriz Sheroziy r. t.

Sheroz navohisidindur. Zunnun Misriy ashobidin. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abu Muhriz dedikim, Nisodin Sheroz azimatig‘a chiqtim va sultonning qoyidi va atbo’i bila yo‘ldosh bo‘ldum. Alarning af’ol va atvori manga bag‘oyat makruh keldi. Ko‘ngluda inkor qilib tiladimkim, alardin ayrilg‘aymen. Nogoh bir un chiqtikim, qoyidning kamari g‘oyib bo‘lubdur. Va ul ont ichibdurki, qofila xalqin borisin axtarg‘ay. Va birin-birin bari elni taftish qildilar, men qoldim. Va pas xalq dedilar, bu shayx qolibdur va andoq kishini bu nav’ ishga nechuk muttaham qilsa bo‘lg‘ay? Qoyid dediki, men ont ichibmen, foyda qilmas, axtarmoq kerak. Meni ham axtardilar. Ul kamar belimda bog‘lig‘ chiqti. Men dedimki, billohki manga bu ishdin xabar yo‘qtur. Qoyid dedi, bu yolg‘on ont o‘gurlig‘idin azimroqdir. Meni buyurdikim, yo‘l boshida qofila guzargohida asrag‘aylar, to har kishi o‘tsa, tavbix va sarzanish qilg‘ay. Va andoq qildilar va mening hamrohlig‘imdin ayrildilar. Va Shayx Abu Muzohim Sheroziy va

Shayx Abu Hafs bila xalo aritqonkim o‘tti, Shayx Abu Abdulloh Xafif Shayx Abu Muhrizg‘a nisbat beribdur.

311. Abdurrahim Istaxriy q. t.

Kuniyati Abu Amrdur. Va Ruvaym bila suhbat tutubdur va Sahlni ko‘rubdur va tariqi satru ixfo va shatorat erdi. Shotirona libos kiyar erdi va itlar asrar erdi va ovg‘a borur erdi. Kabutarlari ham bo‘lur erdi. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurkim, Ruvaym dedikim, bu toifadin ko‘p bila Lug‘om tog‘ida bo‘lubmen. Andin sobirroq ko‘rmaymen. Ov uchun dashtga yo tog‘ga borsa erdi, el ko‘zidinkim, yiroq bo‘ldi, itlarin qo‘yar erdi va tengri zikrig‘a mashg‘ul bo‘lur erdi. Uyida bir o‘y terisi ermishki, ostig‘a solur ermishkim, o‘yning shoxlarini ham ul teri bila qo‘yg‘on ermishlar. Qish oni uyga sudrab solur ermish va yoz tashqari sudrab ermish. Ja’far Hazzo aning qoshig‘a bordi. Ahvolin xarob ko‘rdi bir buzuq uy go‘shasida va anga azim baloyi mutavajjih. Tarahhum qildi va mutag‘ayyir bo‘ldi. Ul dedikim, menga ne bo‘ldi? Ja’far dediki, seni bu dam o‘lgudek ko‘radurmen za’fdin. Ul qo‘pti va bir azim tosh erdi, ko‘tordi. Ko‘torib tomg‘a chiqardi va dedi: Ey qaviy, kelib, bu toshni ko‘tarib, quyi tushur! Ja’far ojiz bo‘lub, hayrat qildi. Ul dedikim, bu kun o‘n yetti kundurkim, hech nima yemaydurmen. Ja’farning hayrati ko‘proq bo‘ldi. Anga otasidan yigirma ming diram meros qoldi. Ammo el zimmasida erdi va o‘n mingni elga kechti va o‘n mingni oldi. Kecha tong otquncha, ul vajh oni gohi savdo xayolig‘a gohi ziroat xayolig‘a parishon qilib erdikim, sahar qo‘pub, ul vajhlarni ovuch-ovuch qo‘shnilar uyiga sochti. Kunduz ul elga xayol bo‘ldikim, go‘yo yormoq yog‘ibdur. Ul tubrani silkidi, yarim diram qolib erdi. Tushti, ashobig‘a dedikim, ishorat sizgakim, nonu baqlo bo‘ldi. El dedilar bu devonani ko‘rung! O‘n ming diramni sochib, yarim diram uchun shodliq qilur. Vaqte Abodong‘a bordi va yigirma bir kun qoldi. Har ne oqshom anga iftor uchun keltururlar erdi, tongla mavjud erdi. Xalq oning sheftasi bo‘ldilar. Sahl Abdulloh qasd qildi, dedi: Senga mehmonman. Ul dedi: Ne buyurursen? Dedi: so‘kboch pishur. Sahl so‘kboch pishurtti va qozon bila oning ollig‘a qo‘ydilar. Hamul dam soyil savol qildi. Buyurdikim, oni soyilg‘a berdilar. Uch qatlag‘acha so‘kboch pishirurlar erdi va ul soyilg‘a berur erdi. To‘rtunchida Sahlning quli yoshurun chiqtikim, soyilg‘a man’ qilg‘ay. Dedikim, qulingni soyil man’idin man’ qil! Sahl man’ qildi. To oy tugandi, ul nima yemay chiqti va birov quruq o‘tmak suvg‘a to‘g‘rab yeydur erdi. Oning shirkatida iftor qildi.

312. Mu’ammil Jassos r. t.

[U Sherozning ulug‘ shayxlaridan bo‘lib, Hijoz va Iroqqa safar qilgan. Besavod bo‘lsada, tavhid va oriflik borasida chiroyli so‘zlar edi][1]. Ul erdikim, javob berdi Sahl Sipahoniy Sherozg‘a yuborgan masoyilg‘a! Sahar namozin qilsa erdi, choshtqa degincha Qur’on darsig‘a mashg‘ul erdi. Chosht namozin qilg‘andin so‘ng masjiddin chiqar erdi, elning hojatin ravo qilmoqqa mashg‘ul bo‘lur erdikim, buzurglukidin xaloyiq anga yuz keltururlar erdi. Har necha elning g‘avg‘osi anga ko‘p bo‘lsa erdi, asliy vajhida botiniy jam’iyatig‘a yo‘l topmas erdi. Har qachon bir musulmon ishiga mashg‘ul bo‘lsa, ishsiz kishi salomig‘a javobdin o‘zga so‘z demas erdi. Va der erdikim, men muzdurdurmen, salom javobi vojib bo‘lmasa erdi, ani dog‘i demas erdim. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, chun Mu’ammil Makkaga bordi, Shayx Abulhusayn Muzayyin xidmatig‘a yetti va dedi: ayuhashshayx, bir savolim bor, javob ber va ajamiy kishidurmen, manga rifq ko‘rguz! Ul dedikim, so‘rg‘il! Mu’ammil dedi: [fahmlar vajdlar martabasini idrok etadimi?][2]. Abulhusayn anga boqib, so‘rdikim, qaydinsen? Dedi: Sherozdin. Dedi: Nega mashhursen? Dedi: Mu’ammilg‘a. Dedi: O‘lturg‘on yerdin qo‘pki, sening yering emas. Va oni o‘z yonida o‘lturtti va doyim anga boqib der erdikim, [sen besavod ajamiy kishisan][3] va kular erdi. Va ondin so‘ngra har kishi mas’alae so‘rsa erdi, aning sari boqib aytur erdikim, Shayxdin so‘rung va anga havola qilur erdi.

313. Ali b. Shulluya r. t.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, ul tog‘larda va vodiylarda bo‘lur erdi. Ul mavzening eli anga

murid va mashg‘uf erdilar. Ul jumladin ikki kishiki, qavm ulug‘lari erdilar, anga istid’o qildilarki, har qaysimizning biror qizimiz bor va har birining to‘rtar ming qo‘yi bor. Agar qizlarni nikoh qilsang, ul qo‘ylarni fuqaroning sodiru voridig‘a sarf qil! Ul qabul qilib, alarni nikoh qildi. Mu’ammil ani ko‘rub, dedikim, emdi bizga tafsil qilmakim, sen ham bizingdek bo‘ldung. Ul dedi: men bu ishni Xudoy uchun qilibmen. Mu’ammil dedikim, biz ham Xudoy uchul qilibbiz. Ul dedikim, men alarni uch taloq qildim, sen ham agar chin aytursen uch taloq qil!
Mu’ammil dedi: [Ey Mayshum, taloq qilishda sunnatni unutdingmi?][1].

314. Abubakr Iskof r. t.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurkim, ul o‘ttiz yil ro‘za tutti. Naz’ holatida suvni momiq bila tiladilarki, og‘zig‘a tomizg‘aylar, oni tashladi va ro‘zada dunyodin o‘tdi.

315. Abu Zahhok r.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abu Zahhok dedikim, bir qatla mening bila shayton orasida muhoraba bo‘ldi, ani bir qotiq silliy urub mag‘lub qildim. Va mundin muddate o‘tti, bir kun bir yo‘l borurda, bir uluq suvg‘a yettim. O‘tardin ojiz erdim. Ko‘rdumki, bir za’if qari suvg‘a kirdi, o‘tgali. Men o‘zumga dedim: bu qaridin xud za’ifroq emassen. Suvg‘akim kirdim, cho‘ma kirishtim. Va ul qari suv qirog‘ig‘a ayaq qo‘yub chiqti va dedikim, manga silliy urarsen, tavba qilding, yo‘qmu?

316. Abu Muhammad Xaffof r. t.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Shayx Abulhusayi Muzayyin bizga bitib erdikim, sizga daryoda muride borki, agar najot topsa, bot sizga javohir kelturur. Bu so‘zdin murodi Muhammad Xaffof ermish. Va aning mushohada bobida va shaytondin boze yeganda, ko‘p so‘zlari bor, tilay degan kishi «Nafahot ul-uns»da aning zikrida mutolaa qilsun!

317. Xasan b. Hammaviyah va sohibuhu Abu Ja’far Xarror Istaxriy q. s.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abu Ja’far Xarror, Hasan Hammaviyaning sohibi, Istaxrdin bizing qoshimizg‘a keldi. Ibn Zaydon dedikim, orzudur mangakim, bu kecha ani bizing qoshimizg‘a hozir qilg‘aysen. Ani munung majlisida hozir qildim. So‘z asnosida Ibn Zaydon dedikim, tilarbizki, o‘z hikoyotingdin bizga bir nima aytqaysen. Ul dediki, manga xud hikoyate yo‘qdur, agar desang, ulcha mashoyixdin ko‘-rubmen, andin aytay. Ibn Zandon dedi: biz ham ushmuni tilarbiz. Ja’far dedi: Bir kun men va jam’i Hasan Hammaviya qoshinda o‘lturub erduk va ul bosh quyi solib erdi. Nogoh sayhae tortti va ul sayha bila hozirlar ko‘zidin g‘oyib bo‘ldi. Bizlar bir-birimizga boqishtik va dedikki, bu so‘zni hech kishiga aytsa bo‘lmaskim, eshitgan antqusidurkim, yana nodirae orog‘a soldilar. Ul uch kun g‘oyib erdi. Har kishi so‘rsa, der erdikki, mashg‘uldur. Uch kundin so‘ngra ko‘rdukki, masjid eshikidin kirdi, mutag‘ayyirul-lavn. Va g‘oyat haybatidin mumkin yo‘qki, kishi aniig bila so‘zlashgay. Va men hamisha aning bila inbisot qilur erdim. Dedimki ayyuhash-shayx, miqdore toza panir bor, mayl bormu, keltursak? Va aning toza panirg‘a mayli ko‘p bo‘lur erdi. Dedi: keltur! Kelturdum, bir luqma yedi va ishorat qildikim, yengiz! Shayx Abu Abdulloh Xafif dedikim: Ibn Zaydon manga dedikim, hech shak yo‘qdurkim bu sodiq kishidur, ammo bu hikoyatni bovar qilaolmasmen, nav’e qilki, inong‘aymen. Dedimki, shayx uchun yer solingki, yo‘l ranjidin osoyish topsin. Yer soldilar. Shayx uyudi va men Ibn Zaydon bila o‘lturduk. Anga ancha ayttimki, bovar qildi. Shayx Abu Abdullohdin ul hol kayfiyatin so‘rdilar. Dedi: ul o‘z makonidin yiroq bormaydur erdi, ammo anga libose yopib erdilarki, ko‘zlardin g‘oyib bo‘lib erdi.

318. Abdulloh Qassor r. t.
Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abdulloh Qassor dedikim, bir qatla haj azimatig‘a Sherozdin chiqdim. Mashoyix manga dedilarkim, chun Sahl Abdulloh Tustariyg‘a yetsang, bizdin salom yetkur

va degilki, biz sening fazlingga mu’tarifbiz va harne desang, inonurbiz. Sendin bizga mundoq yetibdurkim, arafa kuni o‘z yeringdin chiqarsen va soyir hujjoj bila Arafot mavqe’ida hozir bo‘lursen. Agar bu chindur, bizga xabar berki, bizing munga imonimiz bor. Abdulloh Qassor dediki, chun anga yettim, qoshig‘a borib salom berib o‘lturdum. Ul bir chodirshab o‘ziga chirmab erdi va bir na’layn ilayiga qo‘yub erdi va ko‘zi ochuq qolib erdi, bir volihi hayrondek. Manga haybat mustavli bo‘ldi va so‘z ayta bilmadim. Chun dahshatim raf’ bo‘ldi, mashoyix risolatin yetkurdum. Sahl bir lahza boshin quyi soldi, dag‘i bosh ko‘tarib dediki, yo do‘st, [bu qavm xohlaganini qiladigan, Allohga iymon keltirganlardanmi? «Ha»,– dedim. Aytdi: Shunday ekan, mening ishlarim haqida nega so‘raydilar?![1].

319. Ibrohim Mutavakkil r. t.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, bu toifadin biri, manga dedikim, sahrog‘a chiqib erdim. Ko‘rdumki, Ibrohim Mutavakkil, to‘nlarin yubdur va kunaska yoyibdur. Anga dedimki, kel, borib bila nima yeyali! Ko‘nglakini ham andoq uluq kiydi va mening bila yurudi. Chun bir necha qadam borduq, bir miqdor inabus-sa’lab yo‘lda tushub erdi, ani oldi va yudi va yodi va o‘lturdi. Va dedikim, sen borki, manga ushbu kofiydur. Necha mubolag‘a qildim, kelmadi. Mashoyixdin biri Ibrohim Mutavakkilga dedikim, tilarbizki, bu oy bizing bila iftor qilg‘aysen. Ul qabul qildi. Bir kecha anga dedikim, qo‘p, sahur qilali! Dedikim, ul sufrani tushur! Ul dedikim, men muni qilmasmen, ne uchunki, bu harakatdur asbobda. Va men asbobda harakat qilmon. Bir kecha ani ko‘rdilarki, sufra ollig‘a qo‘yub, nima yeydur. Dedilarki, dema-dingmuki asbobda harakat qilmasmen, bas bu nedur? Dediki, valloh, men asbobda harakat qilmadim, ammo qo‘par chog‘da boshim sufrag‘a tegdi va ul ollimg‘a tushdi, budurki yeydurmen.

320. Abutolib Xazraj b. Ali r. t.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abutolib Xazraj Junayd q. s.ning ashobidindur. Sherozg‘a keldi. Va ichining tashvishi bor erdi. Mashoyix dedilarki, aning xidmatin kim ixtiyor qilur? Men ixtiyor qildim. Har kecha o‘n olti, o‘n yetti qatla qo‘par edi. Bir kecha kechga degincha uyg‘oq erdim. Ko‘zum juzvi qizib erdikim chorlabdur, eshitmaymen, yana chorlag‘onda tasht elttim. Dedi, ey farzand, o‘zungdek bir maxluqning xidmatin yaxshi qilaolmasang, Xoliq xidmatin nechuk qilg‘ungdur? Yana bir qatla dog‘i chorlag‘anda eshitmadim, yana bir qatlada [qaydasan, Allohning la’nati bo‘lsin!][1] dedi. Oshuqub tasht elttim. Ali Daylam Shayx Abu Abdullohdin so‘rdikim, aning [Allohning la’nati bo‘lsin!][2] deganin nechuk eshitting? Dedimkim, [Allohning rahmati bo‘lsin!][3] eshittim. Shayx ul-islom debdurki, faloh yo‘qtur ul muridda kim, pir zullin ko‘rmamish bo‘lg‘ay va qafosin yemamish bo‘lg‘ay va [Allohning la’nati bo‘lsin!][4] eshitib, [Allohning rahmati bo‘lsin!][5]ga qabul qilmamish bo‘lg‘ay va dardu nokomlig‘ bila tirilmamish bo‘lg‘ay.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, avval majliski, Shayx Abutolib Sherozda tutti, bir qora palos kiyib erdi va bir aso iligida. Keldi va kursi ustida o‘lturdi. Va men yonida erdim. Elga boqdi va dedikim, bilmayki, ne degaymen, yozug‘lug‘emen yozug‘lug‘lar orasida. Va yig‘ladi va elni yig‘latti va faryod majlisidin chiqdi. Va anga azim qabul paydo bo‘ldi va andoqki, ayog‘i tufrog‘in bemorlar sihhati uchun elturlar erdi. Oz vaqtda amre voqe’ bo‘ldikim, kishi anga iltifot qilmadi va e’roz qildilar. Sherozdin Nnsog‘a bordi. Anda ham iltifot qilmadilar va ijtinob qildilar. Va andin Sipohong‘a bordi. Abu Ali Vorijiy aning burjin ado qildi va aning uchun ul degan yerda maskane yasadi. Ul uyii o‘zi kiygan palosdek qaro qildi va anda bo‘lur erdi, to dunyodin o‘tti.

321. Abu Ali Vorijiy q. s.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Abu Ali Vorijiy Sherozg‘a keldi, amal va hukumat uchun. Va fuqarog‘a va sodiru voridg‘a xon yoydi va moida tartib qildi. Har namozi shomdin so‘ngra kelur erdi va bizing bila o‘lturur erdi. Va bir-birimiz bila so‘z aytur erduk. Bir kecha o‘z irodat ayyomi so‘zi orog‘a keldi. Ko‘nglakin yuqori ko‘tardi, bo‘ynida bir tavqdek nishone erdi. So‘rdumki, bu nedur?

Dedikim, Lug‘om tog‘ida erdim, irig palos kiyib erdim. Bo‘ynumni sidi. Andinki yondim, yangi et butti, bu uldur. Dedimkim, bu amalga kirganing ne edi? Dedikim, qari va zaif onam bor erdi va manga ko‘p burj voqe’ bo‘ldi va muhtoj bo‘ldum, bu ishgaki ko‘rarsiz.

322. Abulfazl Ja’far Ja’diy r. t.

Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, Ja’far Ja’diyg‘a yetkurdilarki, Abu Amr Istaxrin debdurki, g‘usl qilur erdim, izorim ochildi, ko‘rdumki, ikki ilig kenimdin paydo bo‘lub, izorimni belimga mahkam bog‘ladi, Ja’far Ja’diy qo‘pti va Istaxrg‘a bordi va Abu Amr qoshig‘a kirdi va aning ayog‘in tutti. Va Abu Amrning ashobi sekridilar. Ul moni’ bo‘ldi va hech nima demangki, aning g‘azabi lillohdur va o‘n ikki yig‘och yayog‘ kelibdur. Va Abu Amr i’tizor maqomig‘a kelib dediki, andoq demaydurmen, balki mundoq depmen. Andin so‘ng ashobig‘a dedikim, anga xidmatkorliklar qildilar va uzrlar qildi.

323. Abulqosim Qasriy r. t.

Junaydning ashobi kiboridin erdi. Shayx Abu Abdulloh Xafif debdurki, bir kun menga dedikim, meni bir sahrog‘a chiqar! Men ani bir sayrg‘a chiqardim. Bir yerga yettukkim, jam’i shatranj o‘ynaydur erdilar. Alarning bisoti qirog‘ida o‘lturdi va o‘ynay kirishti. Men munfa’il bo‘ldum va choram yo‘q erdi. Qaytib kelurda yana bir jam’g‘a yettukki, nard o‘ynar erdilar. Mutag‘ayyir bo‘ldi va borib alarning bisotin buzdi. Va alar bichog‘lar tortib, anga yuzlandilar. Ul dedikim, bichoqlaringizni beringkim barchasin yeyin. Men bu ikki holdin mutaassib bo‘ldum va savol qildimki, ul ne erdi va bu ne? Dedikim, ul vaqtki laduniy ko‘zi bila boqsoq andoqdur va chun g‘ayri laduniy ko‘zi bila boqsoq mundoq. Bu so‘z ilgarirak o‘tti. Ammo anda Shayx ul-islom Abubakr Qasriy deb erdi va Shayx Abu Abdulloh maqomotida Abulqosim Qasriydur. Bo‘la-olurki, Qasriyg‘a ikki kuniyat bo‘lg‘ay, yo biri sahv voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay, vallohu a’lam.

324. Abdulaziz Bahroniy q. s.

Shayx Abu Abdulloh Xafif q. s. debdurkim, Abdulaziz Bahroniy qatig‘ sovuq qishda Sherozg‘a keldi va eski to‘ni bor erdi. Har futuhki, yetsa erdi, fuqarog‘a sarf qilur erdi. Uch kun Sherozda erdi, aning bila bu bobda so‘zlashdilar. Dedikim, mening nafsim sizing to‘nlaringizdin qochar. Pas manga dedikim, yo Abu Abdulloh, meni bu shahrdin chiqarki, niyatim yo‘qdurki, bu shahrda yangi to‘n kiygaymen. Dedim: qayon borursen? Dedi: bahr nohiyatig‘a. Anga mushoya’a qildim ul darvoza sariki, ul borur yo‘lda erdi. Nogoh ko‘rdukki, Abulxayr Molikiy kelur. Bizni chorlardi. Va o‘zi bila yeguluki bor erdi. Dedi: kelingkim, taom yeyali! Aning bila taom yeduk va biror nima qoldi. Bahroniy qo‘pti va sajjodasin egniga soldi. Abulxayr dedi: kosh bu taomdin birar nima o‘zung bila eltsang! Ul dedikim, mening matbaxim ilgari boribdur. Abulxayr dedikim, pas bu qolg‘on taomlarni netali? Bahroniy dedikim, itlar ollig‘a solg‘il va bordi.

325. Abulhasan Hakimiy q. s.

Ul debdurki, Junayd q. s.din eshittimki, dediki, bir kun Sariy Saqatiy majlisida erdim. Va qalin el bor erdi. Va men borining kichikroki erdim. Sariy so‘rdikim, ne nimadurki, uyquni eltur? Har kishi bir nima dedi. Birav dedikim, ko‘p ochlig‘; birav dediki, suni oz ichmak. Chun navbat manga yetti, dedimki [har bir nafs qilmishidan Allohning ogohligi va bundan qalbning voqif ekanligidnr][1]. Dedi: [ofarin, o‘g‘ilginam!][2]. Va meni yaqinig‘a o‘lturtti. Va ul kundin beri har yerdaki borman, barchag‘a muqaddammen. Va ham Hakimiy debdurki, mashoyixdin ba’zining holin Junayd q. s.din so‘rdumki, anga iqtido qilsa bo‘lg‘aymu? Dedikim, agar anda bir parhezkorlig‘ va halol qut talabi toparsen, iqtido qilsa bo‘lur va agar topmassen, ani qo‘yg‘il!

326. Abu Ali Husayn b. Muhammad Akkor r. t.

Ul shayx Abu Abdulloh Xafif ashobidindur. Va shayx Abu Ishoq Goziruniyning shayxi. Debdurlarki,

Akkor Gozirung‘a yetti, mashoyix aning qoshig‘a yig‘ildilar. Va shayx Abu Ishoq hanuz tifl edi va mashoyix bila kelib erdi. Dedilarki, bu go‘dak Qur’onni xub o‘qur. Anga buyurdikim, Qur’on o‘qudi. Va anga xush keldi. Ani mashoyixdin tiladi va Sherozg‘a eltti va vaqt mashoyixidin va shayx Abu Abdulloh Xafif ashobidin hadis samo’i buyurdi. Va aning bila Iroq va Hijozg‘a musosrarat qildi. Va aning suhbati barakatidin yetishti, ul yergakim yetishdi. Husayn uch yuzdin so‘ngra dunyodin o‘tti. Va qabri Shayx Abu Abdulloh Xafif ravzasi eshikidadur, Sherozda.

327. Abu Ishoq Ibrohim Shahriyor Goziruniy q. t.

Forsiyulasldur va mavlidu mansha’i Gozirun navardi. Shahriyor shayxning otasi musulmon bo‘ldi. Va shayxning valodati otasining islomiy zamonida erdi. Va shayxning intisobi tasavvufda Shayx Abu Ali Husayn b. Muhammad Firuzobodiyi Akkorg‘adur. Va hadis ashobi suhbatig‘a yetibdur. Va barchadin hadis rivoyati va osori bor. Va Makkada Shayx Abulhasan Abdulloh Jahzamiy Hamadoniyni ko‘rub erdi. Va andin rivoyat qilibdurki, Zunnun q. s. debdurki, [sen ishga kirish. Chunki oz rizqqa qanoat qilish kam amAlii ham poklaydi][1]. Vuzarodin biriga Shayx bila irodate voqe’ erdi. Har necha jahd qildikim, Shayx andin bir nima qabul qilg‘ay, qilmadi. Shayxga i’lom qildikim, har necha jahd qildimki, mandin bir nima qabul qilg‘aysen, qilmading, necha banda ozod qildim va savobin sanga bag‘ishladim. Shayx q. s. javob yubordikim, sening risolatingni manga yetkurdilar va yaxshiliging shukrin ado qildim, lekin bandalar ozod qilmoq mening mazhabim emas, balki mening mazhabim ozodlarni banda qilmoqdur rifqu ehson bila. Shayx r. a. Hazrat Risolat s. a. v.ni tushda ko‘rub so‘rdikim, [tasavvuf nima?][2]. Rasul s. a. v. dedikim, [tasavvuf da’vrlarni tark etish va ma’nolarni yashirishdir][3]. Yana so‘rdikim, [tavhid nima?][4]. Javob toptikim, [ko‘nglingdan kechgan va xayolingdan o‘tgan har narsadan Alloh subhonahuning boshqa ekanligidir; Tavhid shak-shubhadan, shirkdan, aybu nuqsondan poklashdir][5]. Yana so‘rdikim, [aql nima?][6]. Javob toptikim, [aqlning eng pasti dunyoni tark qilish, yuqori darajasi Alloh taoloning zoti xususida tafakkur qilmaslik]7. Shayxning osori viloyati va g‘aroyib holati behaddu hasrdur. Tilagan kishi maqomotida topar. To‘rt yuz yigirmada zulqa’da oyida dunyodin o‘tubdur.

328. Shayx Ro‘zbehon Baqliy q. t. s.

[Kuniyati Abu Muhammad b. Abu Nasr Baqliy Fasaviy summash Sheroziy][1] Sultoni ulamo va Burhoni urafo erdi, qudvai ushshoq. Holining bidoyatida Iroq va Hijoz va Shom safari qilibdur. Shayx Abu Najib Suhravardiy bila «Sahihi Buxoriy» samo’ida Iskandariya sag‘rida sherik ekandur va Shayx Sirojuddin Mahmud b. Xalifa b. Abdussalom b. Ahmad b. Solba ilgidin xirqa kiyibdur va oning ishorat tili bila so‘zlari bor va bu qavm istilohoti bila musannafoti bor va ul jumladin «Aroyis» tafsiridur va «Shathiyoti sharhi arabiy va forsiy», «Kitob ul-anvor fi kashf ul-asror» va bulardin o‘zga hamki, barchaning te’dodining tuli bor va ba’zi musannafotida kelturubdurkim, qavvol kerakkim, yaxshi, chiroylig‘ bo‘lg‘ay. Oriflar samo’i majma’ida ko‘ngullar tarvihi uchun uch nimaga muhtojdurlar: ravoyihi tayyiba va vajhi sabih va savti malih. Va mashoyixdin ba’zi bu qavldin ijtinob buyurubdurlar. Nevchunki, bu ish bir orifg‘a musallamdurki, ko‘ngli pokligi kamolg‘a yetmish bo‘lg‘ay va ko‘zi haq s. t. g‘ayrini ko‘rmakdin yopilmish bo‘lg‘ay. Derlarki, ellik yil Sherozning Atiq jome’ida tazkir qildi va va’z aytdi.

Sherozda bir kun borur erdiki, majlis aytqoy. Ko‘rdiki, bir zaifa qizig‘a nasihat qilib aytadurki, ey farzand, husnungni elga ko‘p ko‘rguzmaki, xoru bee’tibor bo‘lur. Shayx dedikim, ey nosiha, husn anga roze zmaski, yolg‘uzu munfarid bo‘lg‘ay. Ul borcha oni tilarkim, ishq bila qarin bo‘lg‘ay. Husnu ishq azalda ahde bog‘labdurlarki, bir-biridin ayru bo‘lmag‘aylar Ashobqa bu so‘z istimo’idin ancha vajdu hol yuzlandikim, ba’zi oning bila-o‘q bordi. «Futuhoti Makkiya» sohibi r, a. debdurki, Shayx Ro‘zbehon Makkada mujovir erdi. [Vajd holida Xudoga tavajjuh qilib, shunday faryod qilardiki, tavof qiluvchilarga tashvishlar berardi. Shu bois Haram tomnda tavof qilardi. U sodiq ul-hol edi][2]. Nogoh bir mug‘anniya muhabbatig‘a mubtalo bo‘ldi va eldin maxfiy erdi va ul vajdu sayhalarki, vajdi fillohda

tortar erdi, boqiy erdi. Ammo avval Tengri ishqida erdi va holo ul mug‘ayniya ishqida. Bildiki, elga ul aqida bo‘lg‘usidurki, emdi dog‘i haqiqat yuzidindur. Haram mashoyixi qoshig‘a bordi va xirqani boshidan tortib, alar qoshig‘a tashladi va dedikim, tilamasmanki, o‘z holimda kozib bo‘lg‘aymen. Va mug‘anniya mulozamatini lozim tutdi va chun shayxning ishqu holu muhabbatini mug‘anniya bildi. Mutaassir bo‘lib bildiki, avliyo akobiridindur. Shayx ilayida tavba qildi va mulozim bo‘ldi va shayxning ul tug‘yoni muhabbati taskin topdi va mashoyix majlisig‘a borib, xirqasin olib, yana egniga soldi va g‘arib holoti shayxning ko‘pdurki, qalam aning sharhida ojizdur. Olti yuz oltida dunyodin o‘tdi.

329. Abulhasan Karduya r. t.

Ilmu taqvo sohibi erdi. Sherozda oltmish yil o‘z uyida munzaviy erdiki, jum’a namozidin o‘zga va ba’zi zaruriyatdin o‘zga ishga uydin chiqmadi. Va Xizr a.s. anga zohir bo‘lur erdi va suhbat tutarlar erdi. Chun Shayx Ro‘zbexon Baqliy q. s. bemor bo‘ldi. Shayx Abulhasan Karduya va Shayx Ali Sarrojki, Shayx Ro‘zbehonning avlodig‘a xol bo‘lur erdi. Shayxning iyodatig‘a bordilar. Shayx alar sari boqib dedikim, kelingki, jismoniy hayot qaydidin chiqarbiz va ruhoniyu abadin hayotig‘a muttasif bo‘lurbiz. Alar qabul qildilar. Shayx dedi: men sizlardin burun borurmen va sen, ey Abulhasan, o‘n besh kundin so‘ngra manga yetarsen va sen, ey Ali, bir oydin so‘ngra. Shayx Muharramning muntasifida bordi va Shayx Abulhasan Muharramning oxirida va Shayx Ali safarning o‘rtasida. r. t.

330. Shayx Abdulloh Balyoniy q. t. s.

Laqabi Avhaduddindur va shayx Abu Ali Daqqoq farzandlaridindur va nisbati Shayx Abu Alig‘a bu nav’ yetarki, Abdulloh b. Mas’ud b. Muhammad b. Ali b. Ahmad b. Imron b. Ismoil b. Abu Ali Daqqoq q. a.

Va Shayx Abi Alining bir o‘g‘li bor erdi – Ismoil va bir qizi bor erdi – Fotimabonu. Shayx Abulqosim Qushayriyning mankuhasi va oning xirqasining silsilasi bu nav’ bo‘lurki, anga xirqa otasi Ziyovuddin Mas’uddin va anga Shayx Asiluddin Sheroziydin va anga shayx Ruknuddin Sanjosiydin va anga shayx Qutbuddin Abdurashid Abhariydin va anga Shayx Jamoluddin Abdussamad Zanjoniydin va ul ikkalasiga Shayx Abunajib Suhravardiy q. s.din yetibdur. Ul bir kun Sherozda shayx Sa’diy xonaqohig‘a bordi. Shayx Sa’diy bir ovuch filus kelturub, ilayiga to‘ktikim, darveshlar uchun sufra muhayyo qilg‘aylar. Ul dedikim, ey Sa’diy, bir ovuch filus kelturub, darveshlar sufrasi uchun pul keltirursan. Ul zarfni kelturkim, anga oltmish ikki oqcha to‘labsen. Shayx Sa’diy filhol ul zarfni hozir qildi va ul vajhni darveshlar sufrasig‘a sarf qildilar.

Shayx Abdullohning bir muridi bor erdi tabboxkim, do‘koni bor erdi. Shayx har qachon anda yetsa erdi, ul murid bir ayog‘ osh yasab, shayx uchun kelturar erdi. Bir kun ul murid do‘koniga yetganda ul murid hamul dastur bila bir ayoq osh kelturub, Shayx ayog‘ ustida turub, ul oshni ichadur erdikim, bir darvesh yetishti va oq pokiza xirqa kiyib erdi. Shayxqa dedikim, Ey shayx, tilarmanki, meni Tengri taolog‘a dalolat qilg‘aysen va degaysenki, foyda ne ishdadur? To o‘shondoq qilg‘aymen. Shayx ichadurgon ilkidag‘i ayog‘ oshni onga berdikim, olib ichgil! Ul olib ichgandin so‘ngra buyurdikim, yog‘ bo‘lg‘an ilkingni bu xirqangg‘a surt va doim ushmundoq qil! Ul dedi: Ey shayx, muni qilaolmon. O‘zga ish buyur! Shayx dedikim, muncha ishni qilaolmasang, har ishki buyursam qilaolmag‘ungdur. Borki, sen bu ish kishisi emassen. Shayx Abdullohning mashrab tavhidi bag‘oyat biyik ekandur. Elning vus’ig‘a sig‘mas. So‘zlar andin nazmu nasr yuzidin voqe’ bo‘lur erkandur

Ul jumladin bu ruboiydur. Ruboiy: [To Haqni o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rmaguncha talab qilishdan aslo to‘xtamayman. Xudoni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi, deydilar. Ular boshqa. Men esa, doimo shuni istayman][1]. Olti yuz sakson oltida ashuro kuni dunyodin o‘tubdur.

331. Jamoluddin Muhammad Bokalanjor q. s.

[Ko‘rkam, ochiq chehra, hikoyalari jozibali, mujohada va xilvatlar sohibi, toatu ibodat borasida duoyu

zikrlari ko‘p, ruhoniy so‘zlar, rahmoniy. ishoralar egasi bo‘lgan qariya edi][1]. Shayx Abu Abdulloh Balyoniy debdurkim, ul vaqtki, kichik yoshlig‘ erdim, Shayx Jamoluddin Bokalanjor otam suhbatida bo‘lur erdi. Va men payvasta zikrga mashg‘ul bo‘lur erdim. Va yaxshi unum bor erdi. Va o‘z jam’iyati xotirim uchun gohi zikr orasida tarannum bila ash’or o‘qur erdim. Shayx Jamoluddin anga quloq solur ermish va andin aning vaqti xush bo‘lur ermish. Va men bu holdin g‘ofil, yana ul tarannumni bas qilib, zikrga mashg‘ul bo‘lur erdim. Bir kun Shayx Jamoluddin mening qoshimg‘a kelib dedikim, ey Shayx Abdulloh, nechun mundoq qilursanki, ba’zi mahalda yaxshi un bila nima o‘qursen va biz sanga quloq solg‘ach tek turarsen va bizni nimbismil qo‘yarsen? Yana mundoq qilma va darveshlar xotirin sotqun ol, chun sendin bu unni sotqun olurlar. Otam Ziyouddin Mas’ud ham mundoq buyurdi va men qabul qildim. Ul qavli taolo [(Shuningdek) to sizga aniq narsa (ya’ni, o‘lim soati) kelguncha Parvardigoringizga ibodat qiling][2] ma’nosida debdurki, yaqin yo‘qdur juz ayni qadim ayoni, ayni qadim ayonining niyati surati amalsiz ibodatdur. Va niyatiki amaldin yaxshiroqdur, budur. Va amal surati ayni qadim ayoni niyatidin. ayru ibodat emas, balki rasmu odatdur. Tolib uldurki, aning matlubi ayoni ayni qadimdin o‘zga emas. Va har ne ayoni ayni qadimdin o‘zgadur, aning qoshida muholu botildur. Va shayx Bokalanjor yetti yuz ellik va bir nimada dunyodin o‘tubdur va qabri Sherozdadur.

332. Muso Imron Juruftiy q. s.

Buzurg ermish Juruftda. Shayx Abdulloh Toqiy aning murididur. Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Xafif bila Muso Imron orasida niqore tushti. Anga noma va payg‘om yibordikim, maning Sherozda ming muridim borki, agar har qaysidin ming oltun tilasam oqshomg‘acha fursat tilamaslar. Muso Imron javob yibordikim, mening Juruftda ming dushmanim borki, har qachon menga dast topsalar, oqshomg‘acha fursat bermaslar va tirik qo‘ymaslar. So‘fiy sen bo‘lg‘aysen yo men?

333. Xoja Ali b. Hasan Kirmoniy q. s.

Kirmon shayxi erdi. Aning mashoyixining mutaaxxirrog‘i erdi. Doruxonasi bor erdi va ishi tartib, va nizom bila erdi va qalin muridlig‘ va yaxshi muomalalig‘ da’visi bor erdi. Shayx Amu dunyodin borg‘ondin so‘ngra ul irshod masnadig‘a o‘lturdi. Shayx ul-islom debdurki, Kirmonda Xoja Ali ibn Hasan bila Xozun Xalil orosida niqor tushti. Xalil Xoja Alig‘a noma yibordikim, sen tongdin choshtgacha doru va sharbat va guvorish yersenki, taomni tilagancha yeyolg‘aysan va men tongdin choshtgohgacha kezarmenki, yegali nima topqaymen? So‘fiy senmusen yo men? Mashoyix ta’n urar erdilar va pisand qilmaslar erdi. Aning qabul tilamakik g‘urur zahri jihatidinki, andadur.

334. Mira Nisoburiy r. t.

Pire erdi, buzurg so‘filardin va malomatiy erdi. Nisog‘a bordi, ziyorat uchun yo o‘zga ishga. Anga azim qabul voqe’ bo‘ldi va ko‘p murid yig‘ildi. Ul bu ishdin ranjur erdi va ko‘nglining shug‘li ortar erdi. Chun yondi. Ko‘p xaloyiq aning bila chiqdilar va andin ayrilmadilar va borurlar erdi. Bir xodime bor erdi. Andin so‘rdikim, bular ne xalqdur? Dedi: Irodat ahlidur! Saning xizmatingg‘a boradurlar. Qattiq yel esar erdi. Bir biyik ustiga chiqti va ishtonining bog‘ini yechib, yel sari siyakirishdi. Andoqki, o‘z to‘ni va ba’zi elning to‘ni mulavvas bo‘ldi. Ul xalq mutanaffir bo‘lub, inkor bila qayttilar. Xodim anga dedi: inkor yuzidinki, bu ne erdiki, qilding? Ul borur erdi. To bir suv qirog‘ig‘a yetdi. Muraqqa’ bila o‘zin suvg‘a soldi va to‘nlarin va o‘zin arig‘ yuvdi va keyin boqib xodimg‘a dedikim, inkor qilmag‘aysen. Aningdek ofat va azim fitna va shug‘lni bu miqdor bavl bila o‘zumdin ketordim. Shayx ul-islom dedi: bilursenki, nevchun mundoq qildi? Oning uchunki, ul g‘avg‘o aning tab’ig‘a va nafsig‘a xush kelib erdi. Bu ish anga vojib erdi.

335. Abu Abdulloh Turug‘badiy r. t.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Muhammad b. Husayndur. Tusning ajillayi mashoyixidikdur, Abu Usmon Hiriy bila suhbat tutub erdi va ul mashoyixki, aning muosiri erdilar. Va

o‘z tariqida mashoyix yagonasi erdi. Uch yuz ellikda dunyodin o‘tti. Ul debdurki, [Xudoga yetish uchun Xudodan boshqa vasidasi bo‘lmagan kishi naqadar baxtli!][1]. Va ham ul debdurki, [dunyoni dunyo uchun tark qilish dunyo yig‘ish alomatidir][2]. Va ham ul debdurki, Ollohi taolo bandasig‘a o‘z ma’rifatidin bir nima bergay va anga oncha ma’rifatki beribdur balo bergay, to ul ma’rifat quvvati bila ul baloni ko‘targay. Va ham ul debdurki, yiroq bo‘l xidmatda tamayyuzdin, ne uchunki, jam’iki alarni xidmatda mumtoz qilursen, zohir qolmaydurlar, pas barchag‘a xidmat qil, to murod hosil bo‘lg‘ay va maqsud favt bo‘lmag‘ay.

336. Abu Abdulloh Rudboriy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ahmad b. Atodur Shomda shayx erdi. Surda sokin erdi. Va Sur daryo qirog‘idadur. Va qabri andadur va emdi suv ostida qolibdur. Abu Ali Rudboriy q. s.ning xoharzodasidur. Buzurg va sufi erdi, qurrolar suratida. Onasi Fotima anga der erdikim, [Abu Abdulloh – murattab qori, tog‘asi – Abu Ali sufiy edi][1]. Olim erdi, Qur’on va shariat ilmida va haqiqat ilmida. Uch yuz oltmish Tukr quzda Zulhijja oyi dunyodin o‘tti. Faqr odobida bir kitobi bor. Shayx ul-islom debdurki, men ikki kishi ko‘rubmenki, ani ko‘rubdurlar. Biri Shayx Abu Abdulloh Boku va yana biri Shayx Abulqosim Abu Salamai Bovardiy. Shayx Abu Abdulloh Boku debdurki, ul dedikim, [tasavvuf – takallufni tark qilmoq, pokiza bo‘lmoq, shonshuhratdan kechmoqdir][2]. Va Shayx Abulqosim debdurki, ul dediki, hadis bitimak kishidin jahlni eltur va darveshlik kibrni. [Agar ikkalasi jam’ bo‘lsa, shularning fazilati senga kifoya][3]. Shayx ul-islom dediki, Abu Said Muqriy dediki, Shayx Abu Abdulloh Rudboriy bila baqliy yeydur erdim. Bir baqliy oldim, yana o‘rnig‘a qo‘ydum. Shayx dediki, hech nimakim o‘zungga pisand qilmassen, yana bir darvesh ollig‘a qo‘yarsenki, yegil! Shayx ul-islom dediki, Muhaymad Shigarf dediki, istinjo kesakida ham insofdur.

337. Abu Abdulloh Monak r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Abdulloh Monak Forsning Arg‘onida erdi. Oti Ahmad b. Ibrohim Monakdur. Bu dor Arg‘oniyning shogirdidur. Shibliyni ko‘rub erdi. Va yoshi yuzdin o‘tubdur. So‘z aytsa, ikki muridi ikki yonidin og‘zining suyini arturlar erdiki, og‘zi suni tishlari yo‘qidin oqar erdi. Ul debdurki, Shibliy bir kun minbar ustida dedikim, Junaydning haqqi hozir erdi, dedikim, g‘iybat haromdur. Shayx ul-islom debdurkim, Abu Said Xarroz q. s. Misrg‘a keldi. Anga dedilarki, qavm sayyidi, ne uchun so‘z demassen? Dedikim, bular Haqdin g‘oyibdurlar Va Haq zikri g‘oyiblarg‘a g‘iybatdur!

338. Abu Abdulloh Duniy q. s.

Mutaaxxirlardindur. Dunda bo‘lur ermish. Sho‘re bor ermish. Shayx ul-islom dediki, Xaraqoniy manga dediki, Abu Abdulloh Duniyning shogirdi manga dedikim, bizing shayx mast keldi va mast ketti. Shayx ul-islom dediki, aning shogirdi chin aytti. Xaraqoniy ayttikim, men ayttimki, ul Abubakr Shibliy erdikim, mast keldi va mast kettiki, men ani o‘z qoshimda ko‘rdumki, havoda raqs qilur erdi va manga shukr der erdi. Shayx ul-islom dedikim, Abu Abdulloh Duniydin so‘rdilarki, faqr nedur? Dedikim, [odamlar orasida voqe’ bo‘lgan ismdurkim, ma’nosi tom bo‘lsa, u Allohu taolodir][1]. Duniy ko‘p Qur’on o‘qur erdi. Har qachon zakot yo sadaqa oyatig‘a yetsa erdi, xushhol bo‘lub, egnidin bir nima chiqarib berur erdikim, eshikdin tashqari chiqarib qo‘yung, har kishi yetsa, olsun!

339. Abu Abdulloh Mavlo q. s.

Hirotda bo‘lur erdi. Abu Abdulloh Mavlo Zohid ayyomida bir kun masjidi jome’dakim hanuz Pir Abusaid Duniy kelmaydur erdi, so‘zga kirdi va bir miqdor so‘z aytti. Va so‘ngra dedikim, agar sarfi tavhid kerak budurki dedim va agar kafchu kadu ilmi kerak, tongla Abu Said kelib bizga aytqay. Shayx ul-islom debdurki, Abu Abdulloh Mavlo bu ishni bir so‘zga kelturubdur. Va ul budurki, bir kun och erdi va anga orzu bo‘ldikim, ikki issiq non bila dushob bo‘lsakim, yesa. Bu ochlig‘da masjidga kirib

uyudi. Bir muridi ani uyug‘on ko‘rdi va dedi, shoyad och erkin. Ikki issig‘ non bila dushob olib eltib, sajjodasi ostig‘a qo‘ydi. Issig‘ non isi anga yetgach uyg‘ondi va orzu qilg‘onin ko‘rdi va yuqori boqib dedi: Ilohi, ishginaki sanga kerak, qila olg‘aysen, ya’ni agar inoyating bo‘lsa, do‘stlaringning ishin sababu jahdsiz yasarsen. Shayx ul-islom dedikim, bizing talabu jahdimizdin hech nima kelmas va hech yerga yetmasbiz, magar ulki, kishiga aning inoyati bo‘lg‘ay.

340. Abu Abdulloh Muqriy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Ahmad b. Muhammad Muqriydur. Yusuf b. Husayn va Abdulloh Xarroz Roziy va Muzaffar Kirmonshohiy va Ruvaym va Jaririy va Ibn Ato bila suhbat tutubdur. Mashoyixiing javonmardlaridin erdi va alarning saxiyrog‘i. Anga ellik ming diram meros yetti. Borini fuqarog‘a nafaqa qildi va vahdatu tajrid bila haj ehromi bog‘ladi. Va hanuz hadosat sinda erdi. Va uch yuz oltmishda dunyodin o‘tdi. Ul debdurki, [sodiq faqir shunday kishiki, hamma narsaga ega bo‘ladi, ammo biror narsa unga ega bo‘la olmaydi][1]. Va ham ul debdurki, [kimki yoru birodariga xizmat qilishdan bo‘yin tovlasa, Alloh uni shunday xor qiladiki, hargiz qutulolmaydi][2]. Ham ul debdurki, [kimki mendan bir narsa qabul qilgan bo‘lsa, undan, albatta minnatdor bo‘lganman. Bu minnatdorlik haqini ado etish menga aslo muyassar bo‘lgan zmas][3]. Va ham ul debdurki, futuvvat yaxshilikdur dushmang‘a va mol bazldur angakim, makruhi tab’ingdur va suhbat husni va muloyimatdur angakim, mutanaffir bo‘lg‘aysen. Va ham ul debdurki, Abdulloh Xarrozdin vasiyat talabe qildim. Uch nimaga amr qildi: biri farz adosig‘a, ulcha mumkindur jahdu toqat bila; yana musulmonlar hurmatig‘a, yana xotirlarni muttaham tutmak, magar ulcha Haq muvofiqi bo‘lg‘ay.

341. Abulqosim Muqriy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Ja’far b. Ahmad b. Muhammad Muqriydur. Abu Abdulloh Muqriyning qardoshidur. Xuroson buzurglari va mashoyixidin erdi, oliyhimmatu sohibhol. Va o‘z tariqida yagona erdi. Shayx Sulamiy debdurki, [ko‘rinishda, viqorda va o‘tirishlikda mashoyixlardan birorta unga o‘xshaganini ko‘rmadim][1].

Ibn Ato va Jaririy va Abubakr b. Abiy Sa’don va Abubakr Mumshod va Abu Ali Rudboriy q. s. bila suhbat tutub erdi. Uch yuz yetmish sakkizda Nisoburda dunyodin o‘tti. Ul debdurki, orif uldurki, ani ma’rufi mashg‘ul tutqay andinki, xalqqa yo rad, yo qabul ko‘zi bila boqqay. Ham ul debdurki, [sodiq kishilar o‘zlari va pirlari haqidagi so‘zlarini tasdiqlash bilan tasvavufga baraka kira boshlaydi][2].

342. Abu Muhammad Rosibiy r. t.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Abdulloh b. Muhammad Rosibiy Bag‘dodiydur. Ibn Ato va Jaririy bila suhbat tutubdur. Shomg‘a rihlat qildi va yana Bag‘dodga keldi. Va anda uch yuz oltmish yettida dunyodin o‘tti. Ul debdurki, [o‘zing va Haq orasidagi eng katta parda – nafsing bilan mashg‘ulliging va ishlaringda o‘zing kabi ojiz kishiga e’timod qilishingdir][1]. Va ham ul debdurki, [g‘am-g‘ussa – gunohlarning uqubatidir][2]. Va ham ul debdurki, [Sufiyni yer ko‘tarmasa osmon unga soya solmasa, xalq nazariga tusholmasa, hamda har qanday holatda murojaat etadigani – Allohu taolo bo‘lmasa, u sufiy bo‘la olmaydi][3]. Bir kun aning qoshida muhabbat so‘zi o‘tadur erdi. Dedikim, [muhabbat oshkor bo‘lsa, oshiqni sharmanda qiladi, agar pinhon bo‘lsa, g‘amda halok etadi][4].

343. Abu Abdulloh Dinavariy q. s.

Beshinchi tabaqadindur. Oti Muhammad b. Abdulxoliq Dinavariydur, [u sufiya mashoyixlarining ulug‘rog‘i, shu toifa ilmining fasihatlirog‘i edi][1]. Shayx ul-islom debdurki, ul umrining oxirida Vodil Quro’da bir masjidg‘a kirdi. Va ul xalq tarqadilar va ani ziyofat qilmadilar va yegulik bermadilar. Ul kecha ochlig‘din o‘ldi. Va kunduz kelib takfin qilib dafn qildilar. Yana kun masjidqa keldilar, kafanni ko‘rdilar, mehrobda kirmog‘lig‘. Va anda bir qog‘azda bitiglikkim, bizing bir do‘stimiz sizga mehmon bo‘ldi, yegulik bermay ani ochlig‘din o‘lturdungiz, sizing kafaningiz kerakmas! Ul debdurki, Haq

subhonahu va tablo fuqarog‘a salom der va ayturki, [bas, «sizlarga salom bo‘lsin!», deb ayt...][2]. Derlarki, ul bir yil kemaya qoldikim, yel esmas erdi. Muraqqa’ning darzin ochar erdi va tikar erdi. Dedikim, nafsni mashg‘ul qiladurmen, andin burunki; ul mashg‘ul qilg‘ay. Ul debdurki, ulug‘lar suhbati kichiklarga Tengri tavfiqlaridindur va alarning ziyrakliklaridindur va ulug‘lar mayli kichiklar suhbatig‘a xazlon alomati va alarning hamoqat va nodonlig‘laridindur. Va ham ul debdur ba’zi ashobig‘akim, [ularning zohiriy liboslari seni taajjubga solmasin. Chunki botinni xarob qilganlaridan so‘ng zohirni ziynatlaydilar][3]. Ham ul debdur, ba’zi safarlarda bir langni ko‘rdumki, bir ayog‘i bila sekrib borur erdi. Dedim: senga safar ne hojat, chun yurur holating yo‘qdur? Dedi: sen musulmonsen? Dedim: bale! Dedi: ul oyatni o‘qukim, [ularni quruqlik va dengizda chiqarib qo‘ydik][4]. Chun homil va ko‘targusi uldur, bo‘la olurki, olatsiz ham ko‘targay.

344. Abulhusayn Sirvoniyi Sag‘ir q. s.

Oltinchi tabaqadindur. Oty Ali b. Ja’far b. Dovud. Mag‘rib Sirvonidindur. Ulug‘ Sirvoniyning shogirdi Xavvosning sohibi, Misrda bo‘lur erdi. Makkada mujovirlig‘ qildi va anda dunyodin o‘tti. Mu’oz Misriyning ham shogirdi erdi. Abubakr Mavoziniy va Junayd va Shibliy va Abulxayr Taynotiy va Abu Ali Rudboriy va Kattoniy va Abu Ali Kotib va Abubakr Misriy va alardin o‘zgani ham vaqt mashoyixidin ko‘rub erdi. Va Haram shayxi erdi o‘z vaqtida va ro‘zg‘or mashoyixi yagonasi. Va Shayx Sulamiy sufiya tarixida debdurki, aning umri yuz yigirma to‘rt yilg‘a tortti. Umrining oxirida muqayyad bo‘ldi, ammo har qachon muazzinqad qomat tortsa erdi, ayoq ustiga qo‘par erdi, namoz qilg‘ondin so‘ngra yana muqayyad erdi. Va samo’ holida ham bu nav’ erdi. Va Shayx Amu va Shayx Abbos aning diydorig‘a faxr qilurlar erdi. Va faxr qilmay ne qilg‘aylar erdiki, alarning faxri ul pir bila farz erdi. Andin so‘rdilarki, tasavvuf nedur? Dedikim, «Himmatni yagona tutmak va xalqdin begona bo‘lmoq». Ul debdurki, [so‘filar avrod bilan emas, voridot bilandir][1]. Shayx ul-islom debdurki, Fath Hoji debdurki, ul debdurki, sufi maqomoti u ahvoldin o‘tubdur, barcha aning qadami ostidadur va aning holida jam’. Shayx ul-islom dedikim, Shayx Amu dedikim, Sirvoniy dedikim, [siddiqlarning xotiridan ketadigan oxirgi narsa–rayosat sevgisidir][2]. Va ham ul debdurki, [kimki, botil yo‘l bilan izzat talab qilsa, Alloh uni Haq yo‘l bilan xor qiladi][3]. Va ham ul debdurkim, [tasavvuf–xalqni tark qilish va ziyoda himmatdir][4]. Va andin so‘ng dedikim, [xalq–mehnatdir, nimagaki dahl qilsa uni buzadi][5]. Va ham ul debdurki, [kimki, tadbir qilishni tark qilsa, rohatda yashaydi][6]. Va ham ul debdurki, [odamlarning ofati – odamlardir][7]. Va ham ul debdurki, [faqirlar rohatga oshiqqan dunyo va oxirat podshohlaridir][8]. Va ham ul dediki, [faqir – vaqt farzandi. Agar u kelajakka ko‘z tutsa, faqirlikdan chiqadi][9]. Va ham ul debdurki, Junayddin eshittimkim, dedikim, har kimga foqa yetishsa, anga bir ortug‘ to‘n bo‘lg‘ayki, onsiz basar qila olg‘ay; ul foqa anga buxldin yetmish bo‘lg‘ay. Va ham debdurki, [talabimizni qondiring, chunki talabimiz talab bilan hosil bo‘lmaydi][10]. Va ham: ul debdurki, Murta’ish dedikim, [faqir yigirma yil umrini o‘yin bilan o‘tkazsa-yu, so‘ng bir soat sadoqat ko‘rsatsa, albatta najot topadi)][11]. Pas Sirvoniy de-dikim, [Xudo saqlasin, ular o‘ynamaydilar!][12]. Va ham ul debdurki, Abulxayr Taynotiy dediki, manga do‘zax ahlig‘a ishrof berdilar. Alarning ko‘pi rikva va aso va muraqqa’ ahli erdi. Pas Sirvoniy dedikim, aning mustavjibi bo‘lmadilar, magar yaqin qillatidin.

345. Abulhusayn Jahzam Hamadoniy q. s.

Oltinchi tabaqadindur. Oti Ali b. Abdulloh b. Hasan Jahzam Hamadoniy. Kavkabiy va Ja’far Xuldiyning shogirdidur. Haramda shayx erdi. Bir kitob tasnifi bor mo‘‘tabar, bu toifaning zikru ahvolu maqomotida, «Bahjat ul-asror»g‘a mavsum. Imom Yofi’i tarixida aning dunyodin o‘tganin to‘rt yuz o‘n to‘rtta bitibdur. Shayx Ahmad Kufoniy ani ko‘rub erdi. Shayx ul-islom debdurki, men kishi bilurmenki, Makkaga bordi Shayx Abulhusayn Jahzam ziyoratig‘a va haj qilmay yondiki, hajni aning ziyoratig‘a qotishtirmadi, aning buzurglukidin. Va ul islom hajji emas erdi. Shayx ul-islom debdurki, mashoyix ziyorati va alarning xidmati bu toifag‘a farzdur. Shayx Abulhusayn Jahzamning o‘g‘li bor erdi nohamvorroq va Shayx andin hamisha ranjur erdi. Bir kun Masjidi Haram ichidin o‘tub borur erdi.

Birav Shayx Sirvoniyg‘a dedikim, ne malomatlarki, bu o‘g‘uldin ul atog‘a yetadur. Shayx Sirvoniy dedikim, ranju malomatlar ul atodin bu o‘g‘ulg‘a yetadur. Otasi andak buzurg va aziz bo‘lmasa erdi, o‘g‘lin kim yod qilur erdi? U otaning oliy marotibidindurki, bu o‘g‘ul el tiliga tushubdur va angushtnamo bo‘lubdur va anga anvoyi malomatlar yetadur.

346. Abulhusayn Tazariy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Tazar bir yerdur Forsda. Buzurg erdi va darveshlarni buzurg tutar erdi va ashoblari adab va siyonat birla erdilar va shayx ul-islom debdurki, Abu Nasr Hoji menga dedikim, shayx Tazariyni ko‘rdumki, bir darveshning poytobasin ko‘ziga surtar erdi. Shayx ul-islom debdurki, Koshonda qavme bor erdilar, yoruq ko‘ngulluk. Manga iltimos qildilar, bizni shayx Abdulloh Toqiyg‘a elting. Andin istijoza qilib, alarni aning qoshig‘a eltdim va dedimkim, alarg‘a vasiyate qil! So‘rdikim, mutaahhildurlar? Dedim: bale! Dedi: muktasibdurlar? Dedim, bale! Dedi: Asru ko‘b bo‘lg‘ayki, kasbe qilg‘aylar va ahllarin yaxshi tutqaylar va aqshom har kishi taomdin o‘z bahrasin olg‘ay va bir lahza bir-birlari bila bo‘lg‘aylar va tarqashqaylar va alarg‘a duo qildi va qo‘ptuk. Men bu ishni sharh bila Shayx Amug‘a ayttim. Dedikim, Abdulloh Duniy bila Abulhusayn Tazariyning tariqlari bu erdi.

347. Abulhusayn Sarkiy r. t.

Ul Makkada mujovir erdi va Shayx Sirvoniy va Abulabbos Suhravardiy va Shayx Usoma va Abulxayr Habashiy va Abusaid Sheroziy va Shayx Muhammad Soxarchi bila musohib erdi. Barcha bir-birining yoronlari erdilar va mashoyix alarni ta’zim qilurlar erdi. Shayx ul-islom debdurki, Abulhusayn Sarkiy jamoati mashoyix bila bodiyada erdilar. Samum yeli qo‘pti. Ul barchag‘a dedikim, qayg‘urmang! Bu ish menga tushubdur. Men borurmen va sizlar barcha xalos bo‘lursiz va serob bo‘lursiz. Andoq erdi. Ul samumg‘a o‘rtandn va bulut kelib yog‘di va alar serob bo‘ldilar va sel kelib ani eltti. Shayx ul-islom dedikim, tiriklikda anga suv bermadi va suvsiz o‘lturub, ani suvg‘a berdi. Ul do‘stlari bila mundoq qilur.

348. Shayx Muhammad Soxariy r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Shayx Muhammad Soxariy uldurki, Mustafo s.a.v. ravzasig‘a bordi va dedikim, yo Rasulalloh, sanga mehmonmen. Yo manga ziyofat qil, yo ulki qabringdagi qandillarni ushatay. Birav keldi va ani uyiga eltib ziyofat qildi. Va so‘rdikim, Rasul s.a. v.g‘a Ne deb erding? Va kular erdi. Soxariy aytqonin aytti va aning so‘rg‘ani kayfiyatin so‘rdi. Ul dedykim, uyquda erdim, Rasul s.a.v.ni tush ko‘rdum. Dedikim, bir badxo‘y mehmonim bor. Borib ani ag‘irla va aytkim, yeringni badal qilkim, bu yer orzu yeri emas.

349. Shayx Ahmad Juvolgar q. s.

Shayx ul-islom dedikim, ul ham alardindur, Farg‘onadindur. Haramda mujovir ermish. Shayx ul-islom Shayx Amudin naql qilibdurkim, bir choq Makkada tenglik tushti. Sufilar kadxudo bo‘ldilar va valiyma berur erdilar. Ul ham uylandi. Kecha o‘tgandin so‘ngra alarg‘a dedikim, mendin buxl emas sizga, bu ish noxush ish ermish va bu muddatda manga demadingiz.

350. Abulhusayn Haddod Hiraviy r. t.

Shayx ul-islom debdurkim, ul buzurg erdi, darvishe mujarrad va zarif, so‘fiyaning zurafosidin, Makkada mujovir. Makkadin Shayx Abulabbos Qassobqa keldi va so‘rdikim, javonmardlig‘ nedur? Shayx dediki, javonmardlig‘ uldurki, harisani yoronlarg‘a sovutmag‘aysen. Va ul bir qatla ba’zi ish ishtig‘olidin yoronlarg‘a intizor bergan ermish va harisa alarning ollida sovug‘on ermish. Shayx ul-islom dediki, Ahmad Kufoniy dedikim, Abulhusayig‘a birav dediki, ul kechaki, mezbonlig‘ing bo‘lmag‘ay, mening sori kel! Ul dediki, ul xud goh-gohdur va ul o‘zum uchun keraklikdur. Va ham Ahmad debdurki, ul umrining oxirida rasmiy so‘filardin malul bo‘lub erdi va dedi: meni o‘z

qoshingg‘a elt, elttim. Andin so‘ng uch kun tirik erdi, to‘rtunchi kun Tengri hukmin butkardi.

351. Abulmuzaffar Tirmiziy r. t.

Oltinchi tabaqadindur. Oti Habbol b. Ahmad. Imom erdi, zohid va Hanbal mazhab. Tirmizda muzakkirlik qilur erdi va Xizr a. s. bila suhbat tutar erdi. Muhammad Homid Doshgardning shogirdidur. Va ul Shayx Abubakr Varroqning. Shayx ul-islom debdurki, aning yaxshi so‘zi ko‘pdur, muomalot va zuhd va vara’ va taqvoda. Shayx ul-islom debdurki, Abulmuzaffar Tirmiziy va aning ustodi Abu Hamid chibinni o‘zlaridin qo‘rimaslar erdikim, alardin uchub yana birav ustiga qo‘nmag‘ay, go‘yo ul vaqt taqvo ahli kishi borinda chibinni qo‘rmas ekandurlar. Va alarg‘a ko‘p mulohaza qilibdurlar, chibin qo‘rug‘onin ko‘rmaydurlar, hamono bu rioyat jihatidin Tengri alar ishin chibindin kifoyat qilg‘andur.

352. Mirchai Safolfurush q. s.

Shayx ul-islom o‘z otasidin naql qilibdurki, Mirchai Safolfurush chiyonni o‘z do‘konidin ko‘tarib, bora yuziga eltib qo‘yar ermish. Va Shayx ul-islom debdur: mening otam hech jonvorni o‘lturmas erdi va bu abdol mazhabidur. Va alar abdoldin erdilar va karomat ahli. Biravga vaqt. xush bo‘ldi, o‘z farishtasin ko‘rdi. So‘rdikim, kishi ne qilsa, sizlarni ko‘rar? Dedikim hech jonvorg‘a ozor yetkurmasa. Shayx ul-islom debdurki, Mircha do‘konida erdiva birav aning qoshinda. Bir zaifa yetishti va anga dedi, ey zarroq, falon kishi favt bo‘ldi, namozig‘a bormassen? Ul qo‘pib do‘konig‘a kirdi va muddate qoldi. Ul kishi do‘konig‘a kirdi, ul yo‘q erdi va do‘konning ham chiqar yo‘li yo‘q. Tabassuf bila kelib o‘ltirdi, andin so‘ng do‘kondin chiqti. Ul kishi dedi: qayon bording? Dedi: do‘konda erdim Dedi: men ko‘rdum, yo‘q erding. Dedi: ul zaifani ko‘rdungki, biravning favtin aytti. Dedi: bale. Dedi: kishi Yamanda o‘lub erdi, borib anga namoz qilib keldim. Bir pora jaz’i Yamaniy ilgida erdi. Ul kishiga tashladi va dedi: bu yo‘lda tushub erdi. Ul debdurki, bir kun havoda Balxdin o‘tub borurda, bir qubba ko‘rdum, anda bir xunyogar bu baytni o‘qub erdikim,

b a y t:

[Bir sheri alamsen, sen olamda havopaymo,
Ishq oyatin o‘qursen fikring zaru sim ammo][1].

Men o‘rgandim. Birav anga dedikim, bu qarobalarki yasarsen, bilursen, munda ne nima solurlar? Dedi: sen bor va ko‘rkim, ne solurlar? Shayx ul-islom aning o‘g‘lin ko‘rub erdi.

353. Sharif Hamza Uqayliy r. t.

Hiraviy erdi. Balxda bo‘lur erdi. Karomot va maqomot sohibi va Xizr a. s.ning suhbatdori erdi va mustajobudda’va erdi. Shayx ul-islomning piridur va aning yoronlari bor erdi, barcha buzurg va karomot iyalari, andoqki, Piri Forsiy va Abdulmalik Iskofva Abulqosim Hannona va Hasan Tabariy va Orif Ayyor va Abu Mansur Muhammad b. Ali Ansoriy va Shayx ul-islomning otasidin va otasi Abulmuzaffar Tirmiziydin naql qildikim, har kim senga yaxshilik qildi, seni o‘ziga vobasta qildi va har kim senga jafo va yamonliq qildi, seni o‘zidin vorasta qildi. Rastaliq yaxshiroqki bastaliq? Shayx ul-islom debdurki, yeru ko‘k ahlida har kimdin rasta bo‘lg‘aysen, sud qilg‘aysen. Bu toifadin birov Koshg‘ar azimati bo‘ldi. Bir pir so‘rdikim, hech ma’lumung bor? Dedi: Yo‘q! Dedi: Maosh bobida ne fikr qilibsen? Dedi: Zarurat bo‘lsa, savol qilg‘aymen. Dedi: Savol qilg‘oningda nima bergan kishimu senga do‘stroqdur yo bermagan? Dedi: Bergan. Dedi: Hanuz norasidasen. Kerak erdi bermagan senga do‘stroq bo‘lsa erdi. Negakim, nima bergan seni andin o‘ziga tilar va bermagan o‘zidin anga yuborur. Bas, bergondin bermagan yaxshiroq bo‘lg‘ay va dedi: Boray, to o‘zumni bu tariyqqa yasab kelay. Hiriyga bordi va bo‘ldi, ulcha bo‘ldi. Nishoburda bir pir ayttikim, pir Mu’tamir Kuhanduziy munda

keldi va dedikim, borcha olamning musofiri bo‘ldim. Ne bir olamdin qutulg‘on ko‘rdum va ne o‘zum qutuldim.

354. Orif Ayyor r. t.

Balxda bo‘lur erdi. Sharif Uqayliy ashobidin. Oti Mansurdur. Ul debdurki, derlarki Ali Murtazo r. a. Xaybar eshikin qo‘ng‘aribdur. Agar Tengrining yorlig‘i va Mustafo s. a. v.ning mushohadasi va Zulfiqor menda bo‘lsa, Qof tog‘in qo‘ng‘armasam, manga tovon bo‘lg‘ay. Shayx ul-islom debdurki, bu–Ali r. a. g‘a nuqs emasdurki, tanuqluqdur, ul mazkur bo‘lg‘ay uch nimaga.

355. Abulhusayn Solbih r. t.

Ani Shayx ush-shuyux derlar erdi. Sherozda erdi. Buzurg va ro‘zgorining yagonasi erdi. Abbos Hiraviyning piridur. Jahon mashoyixi aning xonaqohig‘a kelur erdilar. Shayx Abu Muslim Fasaviy ashobidindur. Sherozda xonaqohida o‘ttiz yil fuqaroyu masokin xidmatig‘a mashg‘ul erdi. Va sodiru voridqa it’om qildi. Va ulamoyu sulahodin jam’i kasir aning xonaqohida mujovir erdilar. To‘rt yuz yetmish uchda dunyodin o‘tti va xonaqohida dafn qildilar. Chun Shayx muhtazar bo‘ldi, xodimi Shayx Abdulloh b. Abdurrahmonni yubordi, to aning kafani tartibin qilg‘ay. Ul bozorga borib, ikki kafan olib, ikki mayyit tajhizin qildi. Chun keldi, Shayx o‘tib erdi. Shayxni quchti, valloh dedi va jon berdi. Va ani Shayxning yonida dafn qildilar. Ul debdurki, muridqa bir mushuk farmonida bo‘lg‘an yaxshiroqdurki, o‘z farmonida, nevchunki, g‘ayr bila suhbat Xudoy uchundur va o‘zi bila suhbat nafsu havo uchun.

356. Shayx Imron Sulsiy r. t.

Suls bir kentdir Misr yaqinida. Ul anda bo‘lur erdi. Shayx ul-islom debdurki, Ibrohim a. s. tariyqi bu erdikim, mehmonsiz nima yemas erdi. Uyin Abuzzifyon derlar erdi.

Shayx Amu debdurki, Nahovandiy mehmon bo‘lmag‘uncha qozon osmas erdi. Shayx Abbos Faqir Hiraviy debdurki, Imron Sulsiy kunduz mehmonsiz nima yemas erdi. Ro‘za tutar erdi. Qachon mehmon yetsa, aning bila taom yer erdi. Bir kun mehmon kechqurun yetishti. Chun soyim erdi va shom yaqin erdi. Mehmonni so‘zga tutdi. To bila iftor qilg‘ay. Hamonoki, musofir och erdi va taomg‘a intizor tortdi. Ul kecha Haq s. t. Imronning tushiga kirib dediki, ey Imron, sening bizning bila bir odating bor erdi, yaxshi. Bizning dag‘i saning bila sunnatimiz bor erdi, yaxshi. Sen odatingni badal qilding, biz ham sunnatimizni badal qilduq! Uyg‘ondi ranjur va qayg‘uluq. Oz o‘tmadikim, Misr Voliysi Suls kentiga bir tarso omil yibordi va ul qattiq zulmlar qildi. Aidoqki, Shayx Imron jalo bo‘lib, qochib, Misrga bordi va andin Sherozg‘a keldi. Shayx Abbos Faqir debdurki, Sherozda Shayx Abulhasan Solbih xonaqosida erdikim, ul keldi g‘arib hol bila. Taajjub qilib, qo‘pub, ta’zim qilib, yonig‘a o‘lturtdi. Hayrat va bexudlug‘i ul martabada erdikim, ko‘zn ichinda arz hasharotidin bir ushoqroq jonvor boradur erdi. Shayx dedi: ul nedurki, ko‘zungda boradur? Shayx Imron dedi: [ko‘zimda biror narsa bormi?]1. Shayx tilar ediki, ko‘p rioyatlar qilg‘ayki, aning xonaqohig‘a ko‘p yitib, xizmatkorlig‘larin ko‘rgon erdiki, shoyad ba’zig‘a talofe bo‘lg‘ay. Shayx Imron turmadi va dediki, muotab kishidurmen. Bo‘lmag‘oyki, meni tana’umda ko‘rub, beganmagoy. Boray va bosh o‘z mehnatimg‘a qo‘yay, to xud ne kelgay. Shayx Abbos Faqir debdurki, necha kundin so‘ngra oni bir buzuqda topdilarki, jon tarkin deb erdi va sichqon bir qulog‘in yeb erdi.

357. Abulhusayn Marv Rudiy r. t.

Ul Shibliyni ko‘rub erdi. Debdurki, Shibliydin so‘rdilarki, Akramul-akramin kimdur? Dedikim, uldurki, bir gunahni biravdin karam bila avf qilg‘on-din so‘ngra, yana ul gunah bila hech kishiga azob qilmag‘ayki, men bu gunah bila falon bandamni va do‘stumni yorlaqabmen. Shayx ul-islom debdurki, tongla karam shodravonin andoq yoyg‘ayki, avvalinu oxirinning gunohi anda gum bo‘lg‘ay.

358. Abu Homid Do‘ston q. s.

Ul Marvda erdi. Shayx ul-islom, debdurki, men bir kishi ko‘rubmenki, oni ko‘ribdur. Ahmad Chashtiy andin so‘rubdurlarki, [hashamat qachon soqit bo‘ladi? Dedi: Suhbat boshlangach hashamat soqit bo‘ladi][1] Shayx ul-islom dedikim, saqo Abu Homid Do‘stoniy ilkiga suv berdi. Ul suvni ilkida muddate asradi. Saqo dediki, ey shayx, nevchun suv ichmassen? Dedi: bir chibin suv icharg‘a mashg‘uldur. Turubdurmen, to ul ichgay. «Ta’arruf» sharhida andoq mazkur ermishki, Haq s. t. ta’zimi anga andoq g‘olib ermishki, chun namozda turar ermish va avvalgi takbirda chun «Alloh» der ermish. «Akbar» demakdin burun behush bo‘lur ermish va yiqilur ermish yillar umri bu nav’ o‘tdi va ham bu hol bila o‘tdi. Derlarki, ul hargiz o‘zi to‘n kiymas erdi. Muridlari kiydirurlar erdi. Birovga ul to‘nga ihtiyoj bo‘lganda egnidin so‘yib olsa erdi, hech nima demas erdi. Kiydurguchi va olg‘uvchiga ixtiyor erdi, anga yo‘q.

Bir kun bir rafiq bila bir yo‘lda borur erdi. Rafiqi aytdi: Sen munda tur. Mening bu yaqinda juzviy nshim bor. Kelurmen. Bordi va kelmadi. Ul hamul yerda turdi. Qecha azim qor yog‘di. Tonglosi keldi. Ko‘rdikim, ul qor ostida tebranadur. Qorni aritti va dedi: Sen hanuz mundasen? Ul dediki, sen demadingmuki, tur, men kelurmen! Do‘stlar – do‘stlar vafosin asrag‘aylar.

359. Bob Farg‘oniy q. s.

Oti Umardur. Farg‘onada bo‘lur erdi. Ul yerda ulug‘ mashoyixii «Bob» derlar.

«Kashf ul-mahjub» sohibi der ermishki, ul avtod ul-arzdindur. Shayx ul-islom debdurki, shayx Amu oni ko‘rib erdi. Ul dediki, bir kun aning qoshida o‘lturub erdim. Birav kirdi va dedikim, duoyi qilki, Sarkab keldi va Sarkab birov erdiki, ul mulkka zarar yetkurur erdi va Bob o‘chog‘ qirog‘ida o‘lturub erdi va oftoba dag‘i o‘chog‘ qirog‘ida erdi. Ayog‘in oftobag‘a urub yiqdi va dedikim, oni yiqdim. Sarkab hamuldam shahr eshigida otdin sarnigun yiqildi va bo‘yni sindi. «Kashf ul-mahjub» sohibi debdurki, Bobning ziyorati qasd qildim. Chun anga yettim. Dediki, ne ishga kelibsen? Dedim: to shayxni ko‘rgaymen – surat bila va andin nazare topqaymen – shafqat bila. Dedi: Ey o‘g‘ul, men falon kundin beri seni ko‘radurmen va to seni mendin g‘oyib qilmag‘aylar, ko‘rgumdur va ul kunni hisob qildim,– mening tavbamning ibtidosi kuni erdi. Andin so‘ngra dedi: Ey o‘g‘ul, yiroq yo‘l qat’ qilmoq o‘g‘lonlar ishidur. Mundin so‘ngra ziyoratii himmat bila qil! Shaxs anga kari qilmaski, oni ziyorat qilg‘aylar va ashboh zuhurig‘a hech nima bog‘liq emas. So‘ngra xodimasig‘a dediki, ulcha bor, olib kelki, darvesh yesun! Bir tabaq uzum kelturdi va toza uzum chog‘i emas erdi va anda necha ratb Farg‘onada mumkin ermaski, ratb bo‘lg‘ay.

360. Abu Mansur Mu’ammar b. Ahmad Isfahoniy r. t.

Shayx ul-islom debdurki, ul Isfahon shayxi erdi, buzurg va imom va olim zohiru botin ulumi bila. Shayx Ahmad Kufoniy ani ko‘rub erdi. Andin so‘rdumki, andin hech so‘z yod bilursen? Dedikim, bir kun so‘z asnosida aytur erdiki, [faqir azizdir!][1]. Anga dedimki, bir pirdin bir so‘z tamomdur.

361. Abunasr Sarroj r. t.

Ani Tovus ul-fuqaro derlar. Ilm fununida komil erdi, riyozatu muomalatda azim shoni bor erdi. «Luma’» kitobining sohibidur. Andin o‘zga dag‘i tariqat va haqiqat ilmida musannafoti bor. Va maskani Tus ekandur. Va qabri andadur. Va Abu Muhammad Murta’ishning murididur va Sariy Saqatiy va Sahl Tustariyni ko‘rub erdi. Derlarki, Ramazon oyida Bag‘dodqa yetti. Shuniziya masjidida anga hujra berdilar va darveshlarga imomatni anga tafviz qildilar, iydqacha imomat qildi. Va tarovihda Qur’onni besh xatm qildi. Va xodim har kecha bir tah non aning hujrasig‘a eltar erdi. Iyd bo‘lg‘ach Bag‘doddin ketti Hujrasin ko‘rdilar, bir oylig‘ nonki berib erdilar, hujra kunjida mavjud erdi. Bir qish kechasi haqoyiqu maorifda so‘z aytur erdi. Vaqti xush bo‘ldi va yonadurg‘on o‘t ichinda Tengri taolog‘a sajda qildi va yuziga o‘tdin osib yetmadi. Shayxdin ul holdin savol qildilar. Dediki, biravki aning dargohida yuzi suyin to‘kmish bo‘lg‘ay, o‘t aning yuzin kuydura olmas. Andin naql

qilibdurlarki, debdurki, har jinozaniki mening qabrim ilayidin o‘tkarsalar, mag‘fur bo‘lur. Va bu bashorat hukmi bila Tus ahli jinozalarni aning qabri ollidin o‘tkarib dafn qilurlar.

362. Shayx Abulfazl Hasan Saraxsiy q. s.

Shayx Abulfazl Hasanning oti Muhammad b. Hasandur. Shayx Abunasr Sarrojning murididur. Va Shayx Abu Said Abulxayrning piri. Shayx Abu Saidqa har qachon azim qabz voqe’ bo‘lsa erdi, Pir Abulfazl Hasan qabrining qasdi qilur erdi va ul qabz bastqa mubaddal bo‘lur erdi. Xoja Abu Tohir, Shayx Abu Saidning farzandi debdurki, bizing Shayxqa bir kun qabze voqe’ bo‘ldi. Giryon bo‘lub va dediki, pir qabri ziyoratig‘a borurbiz. Ul borurda bast voqe’ bo‘ldi va vaqtqa sifat mubaddal bo‘ldi va Shayxqa maorif eshigi ochildi va har nav’ g‘arib so‘zlardin ma’rifat ayta boshladi. Va darveshlarg‘a faryod va yig‘lamoq dast berdi va mazorg‘a yettilar va qavvoldin bu baytni tiladilar.

B a y t:

[Bu saxovat va karam ma’dani– shodlik ma’danidir,
Boshqalarning qiblasi Haram bo‘lsa, bizniki yor yuzidir][1]

Shayxning qo‘llarig‘a ikki kishi kirib qabrg‘a tavof beradur erdilar. Va na’ra uradur erdi. Va darveshlar to‘nlarni chok qilib, bosh-oyoq yalang tufrog‘larg‘a ykqiladur erdilar. Bir damdin so‘ngraki, orom paydo bo‘ldi. Shayx dedikim, bu kunni tarix qilingki, mundin yaxshiroq kun ko‘rmagunguzdur. Andin so‘ngra muridlarg‘a har qaysig‘a haj azimati bo‘lsa erdi, Shayx ani Pir Abulfazl mazori boshig‘a yuborur erdikim, yetti qatla qabrni aylanki, murod hosildur Shayx Abu Said debdurki, [o‘z zamonasi shayxlaridan saraxslik Abulfazl Muhammad b. Husayndan eshitdim, aytti: o‘tmishni eslamaslik, kelajakka ko‘z tutmaslik kerak. E’tibor ayni vaqtga bo‘lsinki, bu bandalikning sifatidir. Yana aytti: bandalikning haqiqati ikki narsa: biri Allohga hojatmandlik qilishdurkim, bu bandalikning asosidir. Ikkinchisi Rasulullоh s.a. v. ga mutobaat. Bu holatda nafs uchun nasiba ham, rohat ham nazarda tutilmasligi kerak][2].

363. Xoliy Nisoburiy q. s.

Oti Ahmaddur. Saraxsda bo‘lur erdi, ham Saraxsda dunyodin o‘tubdur. Buzurg va sohibi valoyat erdi. Aning Muhammad Hasan otlig‘ bir muridi bor erdi. Har ne dunyolig‘i bor erdi, pirig‘a sochti. Shayx ul-islom debdurkim, pirg‘a bir murid basdur va so‘zg‘a bir quloq va to olam yorug‘ay, bir subh tamomdur. Ul muridg‘a ko‘p der erdiki, har ne manga toza yetkururlar, men sanga toza yetkururmen. Shayx ul-islom debdurki, orif uldurki, har ne yetkurgaylar toza, ul muridlarig‘a yetkurgay toza, Xoliy Nisoburiy o‘tar chog‘da anga kafan fikri qildilar. Ul dediki, manga sizing kafaningiz kerakmaskim, ul meni inoyat etakiga tortti dedi va jon berdi.

364. Shayx Abulabbos Qassob Omiliy q. s.

Oti Ahmad b. Muhammad b. Abdulkarimdur. Olim va Tabaristonning muqtadosi erdi. Muhammad b. Abdulloh Tabariyning murididur va ul Abu Ahmad Jurriyning. Azim karomot va tez farosat sohibi erdi va o‘z zamonining qiblayu g‘avsi. To tirik erdi, rihlat anga erdi. Ul debdurki, bu bozorg‘inamiz Haraqoniyg‘a tushgay. Andin so‘ngra Haraqoniyg‘a tushti. Ul ummiy erdi, ammo biyik kalom va nuktalari bor erdi. Tabariston aimmasidin biri debdurki, Tengri afzalidin biri uldurki, ta’limu ta’allumsiz birovni andoq qilg‘ayki, agar bizga din usulida va tavhid daqoyiqida mushkul bo‘lsa, andin so‘rg‘aybiz va ul Abulabbos Qassobdur. Shayx ul-islom debdurki, ul maning ayyomimda erdi. Doim ondin, kishi kelur erdi Shayx Amu xonaqohig‘a. Va men oning ahvolin so‘rar erdim. Hech kim oning ahvolin va so‘zni maningdek bilmas. Ul debdurki, vaqt kimiyodur. Shayx Abulabbos ko‘p namoz qilur erdi va bir kun namozda erdi, ko‘rdiki, darveshlardin biri xirqasig‘a bax’ya tikadur. Har bax’yaki, tuz

kelmaydur, ipin sug‘urub, yangi boshtin tuz tikadur. Shayx namoz salomin berib, Omil tili bila anga dediki, u “saning butungdur”. Shayx Abu Said Abulxayr debdurki, birov Shayx Abulabbos qoshig‘a kelib, andin karomot talabi qildi. Shayx dedi: ko‘rmasmusen bu karomot emas, nedurki, bir qassob o‘g‘li otasidin qassoblig‘ o‘rgandi. Onga bir nima ko‘rguzdilar va oni o‘zidin oldilar va Bag‘dodqa Shibliy qoshig‘a chopturdilar. Bag‘doddin Makkaga chopti va Makkadin Madinaga chopti va Madinadin Bayt ul-Muqaddasg‘a chopti va Bayt ul-Muqaddasda Xizrni anga ko‘rguzdilar va Xizr ko‘ngliga soldilarki, oni qabul qildi va suhbat ittifoqi tushti va munda qaytarib kelturdilar va bir olam ahlining yuzin anga kelturdilar, to xarobotlardin kelurlar va zulmatlardin bezor bo‘lurlar, tavba qilurlar, ne’matlar fido etarlar va olam atrofidin so‘htalar kelur va oni bizdin tilarlar. Karomot mundin ortuq bo‘lg‘ay? Ul kishi dediki, ey Shayx, karomote kerakki, ko‘rgaymen. Shayx dedi: yaxshi ko‘r, oning karami emasmukin, bir bo‘zkush o‘g‘li buzurglar sadrida o‘lturg‘ay va tufroqg‘a kirmagay va devor aning ustiga yiqilmag‘ay va uy oning ustiga yemirulmagay. Mulk va mulksiz viloyati bor va olatu kasbsiz ro‘ze yer va elga yedirur va bu karomot emasmu?

Bir kuni bir o‘g‘long‘ina og‘ir yukluk tevani Omil bozoridin o‘tkarur erdi va yog‘in yog‘adur erdi. Tevaning oyog‘i balchiqda toyilib, cho‘r ushaldi. O‘g‘long‘ina mutahaynir bo‘lub, yig‘laydur erdi. El g‘avg‘o qilib erdilar. Shayx Abulabbos q. s. anda yetishti va ul go‘dakning yig‘lamog‘in ko‘rdi. Tevaning muhridin tutub, tortib, yuqori boqib dedikim, bu tevaning oyog‘in butkar! Agar butkormassan, nechun bo‘zkush o‘g‘lining ko‘nglin bu go‘dak yig‘lamog‘i uchun kuydurdung? Filhol Tengri taolo ul tevaning oyog‘in butkordi va o‘g‘long‘ina tortti va tebradi. Ul debdurki, borcha olamg‘a, agar tilar erdilar va agar yo‘qki, iyasi bila xo‘y tutmoq kerak, yo‘q ersa ranjg‘a qolurlar. Aning uchunki, oning bila xo‘y tutqon baloga mubtalo ko‘rar. Ul balo anga balo ko‘runmas va ko‘ngli ranj bo‘lmaski, Tengri taolo bizning rizo va saxatimizg‘a o‘z taqdirig‘a tag‘yir bermas. Bas, hukmg‘a rizo mujibi rohatdur. Har kim oning bila xo‘y qilg‘ay, ko‘ngli rohat bila bo‘lg‘ay. Har kim ondin e’roz qilsa, qazo vurudi bila ko‘ngli ranja bo‘lg‘ay.

365. Shayx Ahmad Nasr r. t.

Mashoyix akobiridindur. Shayx Abulabbos Qassob muosiridur. Husriyni ko‘rubdur. Yigirma haj qilibdurki, ko‘pin ehrom Xurosondin bog‘labdur. Bir kun Haramda bu toifaning asroru daqoyiqin ayturda, bir so‘z tomot iborati bila ado qildi. Haram mashoyixidin ikki yuz sakson tan dedilarki, sen bu so‘zni ne uchun aytting? Va ani Haramdin ixroj qildilar. Ham ul soat Husriy Bag‘dodda uyidin chiqdi va xodimg‘a dedikim; ul yigitki, har yil Xurosondin kelur, agar kelsa, yo‘l bermagil! Ahmad Nasr Bag‘dodqa keldi va Husriy eshikiga bordi. Xodim dediki, falon tarixda Shayx eshikka keldi va dediki, sanga bor bermagaymen. Ahmad bu so‘zdin behush yiqildikim, aning ixroji tarixi bila muvofiq erdi va buncha kunga tortti. Oxir Husriy chiqdi va anga dediki, ul adab tarki g‘aromatig‘aki, sanga voqe’ bo‘lubdur, Rumg‘a bormoq kerak va bir yil kunduz to‘ng‘uz kutmak kerak va kecha ul yerda Tarsus degan mavzedaki, kofirlar musulmonlardin olib buzubdurlar, sabohgacha namoz qilmoq kerak va bir zamon yotmamak kerak, shoyadki mashoyix ko‘ngli seni qabul qilg‘ay. Chun Ahmad sodiq erdi, Shayx bu yurg‘on ishqa qiyom ko‘rguzdi. Chun bir yil tamom bo‘ldi, Rumdin qaytib, Shayx Husriy eshikiga keldi. Muridi dediki, bot kelki, bu kun Shayx yetti qatla eshikka kelib, seni so‘rubdur. Nogoh Shayx chiqa keldi va dedi: yo Ahmad, va valadiy va qurratu ayniy! Ul shodlig‘din labbayk urdi va Haram azimatig‘a bodiyag‘a kirdi. Mashoyix Haramdin istiqbol qilib dedilarki, [Ey otaginam, ey ko‘zimning nuri!][1].

366. Shayx Abuali Siyoh q. s.

Marv mashoyixining akobiridindur. Shayx Abulabbos Qassob bila va Shayx Ahmad Nasr bila muosir erdi va ustodi Abuali Daqqoq bila suhbat tutubdur. Va ul dehqonliq qilur erdi. Debdurlarki, o‘ttiz yil ul ishga soyimi mahfil erdi. Kunduz ikki tah o‘tmak olib, uydin chiqar erdi, yo‘lda fuqarog‘a yashirin berur erdi. Sho‘rako yemak targ‘ibi qilsalar erdi, uyda nima yeb kelibmen, der erdi. Ul debdurki, har

belki urar erdim, agar o‘zgalar urg‘an beldin tufroq chiqar erdi, men urg‘on beldin ko‘ngul nuri chiqar erdi. IIIayx ul-islom debdurki, birav andin so‘rdiki, hech kishi bo‘lg‘ay, elning aybin bilg‘ay? Ul shayx dedi: bo‘lg‘ay! Soyil dediki, bas Olloh sotir ul-uyub bo‘lmag‘ay. Shayx dedi: o‘zungni mendin yashur! Ul kishi o‘zin to‘nlarig‘a chirmadi, filhol andoq shishdiki, to‘nlari yirtildi va yalang‘och bo‘ldi. Shayxqa tazarru’ qildilar, duo qildi, to ul kishi o‘z holiga keldi. Bir kun biravning iligida kog‘aze ko‘rdi. So‘rdiki, ne kog‘azdur? Dediki, fatvoedurki, Imom Abu Aliki, zamonning muftisidur, javob bitibdur. Shayx dedi: ani Imom qoshig‘a eyt va aytkim, javobda xato qilibdur! Ul kishi ul fatvoni Imomg‘a berib, o‘l so‘zni aytti. Imom taammul qilib, xato qilg‘onin topti. So‘rdiki, Shayx muni o‘qub aytti? Ul kishi dediki, Shayx nima o‘quy olmas. Imom Shayx xidmatig‘a kelib, uzr qo‘lub dediki, agar ul Abu Ali bo‘lmasa erdi, bu Abu Ali do‘zax o‘tig‘a kuyib erdi. Aning vafoti Marvda erdi. To‘rt yuz yigirma to‘rtta, sha’bon oyi dunyodin o‘tti.

367. Shayx Abu Ali Daqqoq r. t.

Oti Hasan b. Muhammad Daqqoqdur. Lison ul vaqt edi va bu fanda vaqtning imomi erdi. Sarih bayoni va fasih lisoni bor erdi. Ko‘p mashoyixii ko‘rub erdi. Nasrobodiyning murididur. To‘rt yuz beshda Zulqa’da oyi, Nishoburda dunyodin o‘tti. Ustod Abulqosim Qushayriy aning kuyovi majlislarin jam’ qilib erdi. Ul debdurki, chun muddai ko‘rsangiz etakin berk tutungki, ma’noliqlar va muhaqqiqlar ketibdurlar. Bu toifadin birav debdurki, bir kun aning majlisig‘a kirdim, bu niyat bilaki, tavakkuldin bir nnma so‘rg‘ayman. Bag‘oyat orig‘ va ulug‘ dastor chirmab erdi. Ko‘nglum anga moyil bo‘ldi. Chun tavakkuldin savolni so‘rdum, dediki, tavakkul uldurki, elning dastorig‘a tama’ qilmag‘aysen, dedi va dastorni mening sarn tashladi. Ham ul debdurki, har kimni rad qilsalar, andoq borsaki, yana kelmasa, maydon xoli qolg‘ay. Shayx ul-islom dediki, [rad emas, nozdir. Yana kelki, qissa uzundir]1. Ham ul debdurki, xudro‘y daraxtkim ani parvarda qilmamish bo‘lg‘aylar, barg chiqarg‘ay, vale bor bermagay, bersa dag‘i mazasi bo‘lmag‘ay. Va dedi: men bu tariyqni Nasrobodiydin ta’lim olibman va ul Shibliydin va ul Junayddin q. a. Hargiz Nasrobodiy nazarig‘a bormadim, to g‘usl qilmadim. Bir muridi bor erdi, bozurgon, bemor bo‘ldi. Shayx aning iyodatig‘a bordi va so‘rdikim, sanga ne bo‘ldi? Ul dediki, kecha vuzu’ hilurg‘a qo‘ptum, uchamg‘a tobe tushti va qattig‘ og‘riq tutti va isitmag‘a tortti. Shayx dedi: sening bu fuzullug‘ bila ne ishing borki, kecha namoz qilg‘aysen, sanga dunyo murdorin o‘zungdin aritmoq kerak. Birovningki, boshi og‘risa, ul tillo ayog‘ig‘a bog‘lasa, hargiz yaxshi bo‘lmag‘usi va iligi najas bo‘lgan yengin yusa, hargiz iligi arimas. Derlarki, oxir umrida ancha dard ustodg‘a mustavle bo‘lub erdikim, har kun oqshom qarin tomg‘a chiqar erdi va kunas sari boqib aytur erdi: mulk sargardoni, bu kun nechuk erding va nechuk o‘tkarding, hech yerda bu hadisning anduhginig‘a partav soldingmu va hech yerda bu ishning zeru zabar bo‘lg‘anlaridin xabar oldingmu? Bu nav’ so‘zlar aytur erdi, to kunas botar erdi. Va debdurlarki, oxir umrida so‘zi andoq bo‘ldiki, el idrokidin ojiz erdilar va eshitur kishiga toqat yo‘q erdi. Majlisida o‘n yetti, o‘n sakkiz kishi yig‘ilurlar erdi. Shayx ul-islom debdurki, Abu Ali Daqqoqqa chun so‘z oliy bo‘ldi, majlisi xaloyiqdin xoliy bo‘ldi.

368. Abu Ali Shabbuyi Marvaziy q. s.

Oti Muhammad b. Muhammad b. Umar Shabbuyidur. [Uz nohiyasining eng donishmandi va benaziri edi][1] Abulabbos Sayyoriyning ashobidindur. Shayx Abu Said Abulxayr q. s. debdurki, ustod Abu Ali Daqqoq pir Shabbuyi qoshiga keldi. Va biz Marvda erdik. Va «Sahihi Buxoriy» pir Shabbuyining yodida erdi va biz «Sahihi Buxoriy»ni andin samo’ qilibbiz va pirg‘a bu ma’nidin ogohliq erdi. Ustod Abu Ali Daqqoqni bu so‘zga ul kelturdi. Ul Abu Ali Daqqoqg‘a dediki, bu so‘zdin bizga nafase ur! Ustod Abu Ali dediki, bu so‘z bizga bog‘lig‘dur, ochuq emas. Pir dedi: ravo bo‘lg‘ay. Biz niyozimizni hozir qiloli. To sanga bizning niyozimizg‘a so‘z ochulg‘ay. Ul ma’no o‘tdur va niyoz qav! Ustod Abu Ali qabul qildi va majlis qo‘ydi va minbarg‘a chiqti va hech so‘z anga ochilmas erdiki, el aning ahli emas erdilar. Pir Shabbuyi masjid eshigidin kirib keldi va ustodning ko‘zi anga tushti. Filhol so‘zi

ochildi. Chun majlis oxir bo‘ldi. Pir dedikim, sen ul edingki, borsen va biz bu eduk niyoz kerak. Xudovand taolog‘a hech yo‘l niyozdin yaqinroq yo‘qdur. Agar chora toshqa tushsa, ondin chashmalig‘ suv ochar. Bir kun yozki, havo issig‘ va gard erdi. Abu Ali Shabbuyini ko‘rdilarki, borur erdi, so‘rdilarki, ayuxash shayx, qayon borursiz? Dediki, falon darveshlar xonaqohig‘aki, men yetibmenki, har kun osmondin darveshlarga yuz yigirma rahmat yog‘ar. Bataxsis qaylula vaqti boradurmenki, onda qaylula qilg‘oymen. Shoyadki ul rahmatlardin manga ham nasibe bo‘lg‘ay. Ulug‘lar debdurlarki, o‘zungni alar orasida sig‘ur va o‘zungni alardin va alarning do‘stlaridin ko‘rguz. Agarchi bilgaysenki ne nav’ rasvosen o‘zni oshiq ko‘rguz. Agarchi bo‘lmasang to tongla so‘rsalarki, kim sen? Degaysenki, alarning do‘stlaridinmen va so‘zlarin eshitsang, agarchi ma’nosin bilmasang, bosh tebrat, to tongla degaysenki, alarning bosh tebratguchilaridinmen. Degaylar, kelki, senga haqqidur. Magar oning bila qutulg‘aysen.

Ishq ahli birla o‘ltur va oshiqliq et guzin,
Har kimki, oshiq ermas onga bo‘lmagin qarin.

369. Shayx Abulqosim Bishr yosin r. t.

Mashoyix ulamosi va avliyo kiboridindur. Jahnada bo‘lur erdi. Uch yuz saksonda dunyodin o‘tubdur. Shayx Abu Said Abulxayr q. s. debdurki, odina kuni otamiz bila masjidi jome’g‘a boradur erdik va men yosh er-dim va. Qur’on o‘qur erdim. Yo‘lda Shayx Abulqosim Bishr Yosin yo‘luqdi va dedi: Ey Abulxayr, bu tifl kimningdur? Otam dedi: Bizning. Ulturdi va meni tiladi va yuzin yuzumga qo‘ydi va ko‘zin yashartti va dedi: ey Abulxayr, biz jahondin bora olmaduqki, yer xoli qolur erdi va darveshlar zoe’ bo‘lur erdi. Emdiki, saning o‘g‘lungni ko‘rduk, emin bo‘lduqki, valoyatlardin bu tiflg‘a nasib bo‘lg‘usidur. Otamg‘a dediki namozdin forig‘ bo‘lsang, oni bizning; qoshimizg‘a keltur! Chun masjiddin chiqduq. Otamiz bizni pir Abulqosim qoshiga eltti. Chun savma’ag‘a kirib, qoshig‘a o‘lturduq. Bir biyik toqcha erdi. Pir otamg‘a ayttikim, bu Saidni egninga ko‘tar. Ul toqda bir nondur. Tushursun! Otamiz bizni ko‘tardi. Ul nonni tushurduk. Arfa o‘tmagi erdi issiq. Shayx Abulqosim ul o‘tmakni oldi va ko‘zin yashartti va ikki sindurdi. Yarimin bizga berdiki, yegil va yarimin o‘zi yedi. Otamiz dediki, bizga hech bu nondin nasib bo‘lmasmu? Shayx dedi: Ey Abulxayr, o‘ttiz yildurki, bu nonni bu toqda qo‘yulubdur va bizga va’da qilibdurlarki, bu qurs ul kishi ilikidakim isigay, olame aning bila tirilgusidur va bu hadisning xatmi anga bo‘lg‘usidur. Emdi bu mujda senga basdurki, ul kishi saning o‘g‘lungdur. Shayx Abu Said q. s. debdurki, bir kun Shayx Abulqosim Bishr Yosin qoshida erduk. Dedi: ey o‘g‘ul, tilarsenki, Tengri bila so‘z degaysen? Dedim: Bale, nevchun tilamagaymen? Dedi: har qachon xilvatda bo‘lsang, muni o‘qu va mundin o‘zga o‘quma!

Ruboiy:

[Jonon, sensiz qarorim yo‘qdur,
Sening ehsonlaringning sanog‘iga yetolmayman.
Tanamdagi har bir tuk tilga aylanganda ham,
Ming shukringdan birini ado qilaolmayman][1].

370. Shayx Luqmon Saraxsiy q. s.

Aning ibtidoda ko‘p mujohada va riyozati bor ermish va muomala va toati ehtiyot bila erkondur. Nogoh anga kashfe voqe’ bo‘lubdurki, aqli zoyil bo‘lubdur. So‘rubdurlarki, ul ne erdi va bu nedur? Debdurki, qullug‘ni har necha ko‘prak qildim, andin ko‘prak kerak erdi. Ojiz bo‘ldim, dedim: Ilohi, podshohlarning bandasi qarisa, oni ozod qilurlar. Podshohlar podshohi-sen, bandalig‘ingda qaridim. Meni ozod qil! Nidoe eshitdimki, ey Luqmon, seni ozod qilduq! Ozodlig‘ ni-shonasi bu erdikim, aqlni andin ko‘tardilar va ul majoninning uqalosidin erdi. Shayx Abu Said Abulxayr ko‘p aytur ermishki, Luqmon Tengrining ozodkardasidur amru nahyidin. Shayx q. s. debdurki, bir kecha xonaqoh eshigi

bog‘lig‘ erdi va darveshlar yotib erdilar. Biz Shayx Abulfazl Hasan bila suffa qirog‘ida o‘lturub erduk va maorifda so‘z o‘tadur erdi. Bir mas’ala mushkul bo‘ldi. Luqmonni ko‘rdukki, xonaqoh tomidin uchub, bizning qoshimizg‘a tushti va ul mas’alani aytdi. Andoqkim, ishkol raf’ bo‘ldi. Yana uchub, xonaqoh chiqdi. Shoyad bu balandparvozlig‘lar jihatidin Shayx Luqmong‘a parrandalig‘ ismi qo‘yilib erdi ekin.

Shayx Abu Saiddin so‘rdilarki, Saraxsda zarif kimdur? Dediki, Luqmon! Dedilar: Subhonolloh, bu shahrda xud andin jo‘lidaroq va sho‘xginroq yo‘qdur. Shayx dedi: G‘alat qilibsiz. Zarif pokiza bo‘lur va pokiza uldurki, hech nima bila payvandi bo‘lmag‘oy va hech kimni ondin payvandsizroq va pokizaroq ko‘rmasmenki, borcha olamda hechnima bila payvandi yo‘qdur: ne dunyo bila, ne oxirat bila, ne nafs bila. Ham Shayx Abu Said debdurki, Pir Abulfazl Hasan suhbatida erdukki, birov kelib dediki, Shayx Luqmong‘a bemorlig‘e tori bo‘lubdur va bir buzuq rabotda yiqilibdur va uch kundurki, hech kishi bila so‘zlashmaydur. Bu kun debdurki, Shayx Abulfazlg‘a aytingki, Luqmon boradur. Shayx chun bu so‘zni eshitti. Dedikim, boroli! Jamoat bila bordilar. Chun shayx Luqmon oni ko‘rdi. Tabassum qildi va shayx Abulfazl Hasan Shayx Luq-monning boshi sari o‘lturdi. Ul Pir sari boqar erdi va issiq nafaslar tortar erdi va hech so‘z demas erdi. Jam’din birov dedi: «Lo iloha illolloh»[1]. Shayx Luqmon tabassum qilib dediki, biz xirojimizni beribmiz va barotimizni olibbiz. Boqimiz tavhid biladur. Ul darvesh dediki, oxir o‘zni sog‘indurmoq kerak. Shayx Luqmon dediki, bizga Haq dargohida arbada buyurursen. Pir Abulfazl Hasang‘a bu so‘z bag‘oyat xush keldi va dedi: mundoqdurki, ul aytti. Soate bor ediki, nafas munqate’ bo‘ldi.

371. Shayx Muhammad Qassob Omuliy q. s.

Ul Damag‘onda bo‘lur erkandur. Abulabbos Qassobning shogirdidur. Shayx ul-islom debdurkim, agar ul va Xaraqoniy tirik bo‘lsalar erdi, men sizni anga yuborur erdim, yo‘q Xaraqoniyg‘aki, ul sizga sudmandroq erdi Xaraqoniydin, ya’ni Xaraqoniy muntahiy erdi, murid andin bahra oz topar erdi. Ham Shayx ul-islom dediki, Muhammad Qassob manga dediki, Hiraviylar sifatidur, ya’ni rahmatu avfu karamg‘a aylang‘aylar va sifatdin ortiq ko‘rmagaylar. Va bu toifaning muomalasi zot biladur, mute’ biladurlar, yo‘q ato bila. Va har ne andin o‘zgadur, hijobdur.

372.Shayx Abulhasan Xaraqoniy r. t.

Oti Ali b. Ja’fardur. O‘z ro‘zgorining yagona va g‘avsi erdi. Vaqtning qiblasiki, zamonida rihlat anga erdi. Shayx Abulabbos Qassob aytib erdiki, [bizning bu bozorchamiz Xaraqoniyga o‘tadi]1. Rihlat va ziyorat aning vafotidan so‘ngra Xaraqoning‘a evruldi, andoqki, ul deb erdi. Ul tasavvuf intisobida sulton ul-orifin Shayx Abu Yazid Bistomiyg‘a yetar va oning tarbiyati sulukda sulton ul-orifin ruhoniyatidin. Shayx Abulhasanning valodati Shayx Boyazid Bistomiyning favtidin muddate so‘ngradur va Shayx Abulhasan to‘rt yuz yigirma beshda ashuroda seshanba kechasi dunyodin o‘tubdur.

Bir kun ashobidin so‘rdikim, ne nimadurki, bori nimadin yaxshiroq bo‘lg‘ay? Dedilarki, shayx aytsunlar! Dediki, ul ko‘ngulki, oning yodidin o‘zga onda nima bo‘lmag‘ay! Andin so‘rdilarki, so‘fiy kimdur? Dedi: kishi muraqqa’ va sajjoda bila so‘fi bo‘lmag‘oy va rusum va odot bila so‘fiy bo‘lmag‘oy. So‘fiy uldurki, bo‘lmag‘oy. Hamul debdurki, so‘fiy bir kundurki, kunasg‘a ehtiyoji bo‘lmag‘oy va bir kechadurki, oyg‘a ehtiyoji bo‘lmag‘oy va bir yo‘qdurki, borliqqa hojati bo‘lmag‘oy. Ondin so‘rdilarki, kishi nedin bilgayki, uyg‘oqdur? Dedi: Ondinki, chun Haqni yod qilsa, farqidin qadamig‘acha xabardor bo‘lg‘ay va so‘rdilarki, sidq nedur? Dedi: sidq uldurki, ko‘ngul so‘z aytg‘oy, ya’ni oni degayki, ko‘nglida bo‘lg‘ay. Va so‘rdilarki, ixlos nedur? Dediki, har ne Tengri uchun qilsang ixlosdur va har ne xalq uchun qilsang, riyodur va so‘rdilarki, fano va baqoda so‘z aytmoq kimga tegar? Dedi: ul kishigaki, oni osmondin bir tor ipak bila osmish bo‘lg‘aylar va yele esadurmish bo‘lg‘ayki, binolarni va yig‘ochlarni qo‘ng‘aradurmish bo‘lg‘ay va daryolarni anboshta qiladurmish bo‘lg‘ay va oni o‘rnidin tebrata olmag‘ay. Debdurki, birov bila suhbat tutmangizki, siz Haq degaysiz va ul o‘zga

nima degay va debdurki, anduh tilang, to ko‘z suyi hosil bo‘lg‘ayki, Tengri yig‘log‘uvchilarni suyar. Debdurki, kishi surud etsa va Haqni tilasa yaxshiroqdurki, Qur’on o‘qusa va g‘ayrni tilasa! Va debdurki, Rasul s. a. v. vorisi uldurki, oning fe’lig‘a iqtido qilg‘ay. Ul kishi emaski, kog‘az yuzin qaro qilg‘ay. Shibliy debdurki, tilarmenki, tilamagaymen. Ul debdurki, bu ham tilamakdur. Va debdurki, qirq yildurki, bir vaqtda men va Tengri ko‘nglumga boqar va o‘zidin o‘zga ko‘rmas. [Haqdin boshqaga vujudimda biror zarra, siynamda biror joy qolmadi]2. Va debdurki qirq yildirki, nafsim bir ichgucha sovuq suv va achchiq dug‘ tilar. Hanuz anga bermaydurmen va debdurki, ulamoyu ibod dunyoda ko‘pdur. Sen andin bo‘lmoq keraksenki, kunduzni kechaga kechani kunduzga kelturgaysen. Andoqki, begangay. Debdurki, yorug‘roq ko‘ngul uldurki, anda xalq bo‘lmag‘ay va ishingning yaxshirog‘i uldurki, anda maxluq andishasi bo‘lmag‘ay va halolroq ne’mat uldurki, kasbing bila bo‘lg‘ay va rafiqlaring yaxshirog‘i uldurki, zindagonligi Haq bila bo‘lg‘ay.

373. Shayx Abu Abdulloh Dostoniy q. s.

Oti Muhammad b. Ali Dostoniydur. Laqabi Shayx ul-mashoyix erkandur. Anvo’i ulumda Haq dargohining muhtashamlaridin ermish. Shayx Abulhasan aqronidindur va irodatining nisbati uch vosita bila Shayx Amiy Bistomiyg‘a yetarki, Shayx Abu Yazidning birodarzodasidur, aning muridididur. To‘rt yuz yigirma yettida Rajab oyida dunyodin o‘tubdur va umri ellik ikki yil ekandur.

374. Shayx Abu Said Abulxayr q. s.

Oti Fazlullohdur. Sultoni vaqt va ahli tariqat jamoli erdi va qulub musharrifi. Va aning zamonida barcha mashoyix anga musaxxar erdilar. Odobi tariqatda piri Pir Abulfazl Hasan Saraxsiydur.

Shayx Abu Said debdurki, bir kun keladur erdim, Saraxsning shoristoni eshigida bir tepa erdi kuldin. Shayx Luqmon ul tepa ustida o‘lturub, po‘stinin yamaydur erdi. Ul biyik ustiga chiqdim va anga nazzora qilur erdim. Va andoq turub erdimki, ko‘lagam Shayx Luqmonning po‘stinig‘a tushub erdi. Shayx Luqmon boqib dedi: Yo Abu Said, seni bir pora teri bila bu po‘sting‘a tikdik. Andin qo‘pti va iligimni tutub, Pir Abulfazl Hasan xonaqohig‘a eltti va ani chorladi. Pir kelgach, iligimniki tutub erdi, Pirga topshurdi. Va dediki, muni asrangki, sizingdur! Pir bizing iligimizni tutti. Xonaqohg‘a eltti va sufada o‘lturdi va bir juzv iligiga tutti. Va anda nazar qilur erdi an-doqki, donishmandlar odatidur. Talabe ko‘ksumizda paydo bo‘ldiki, ul juzvda ne ekin? Pir bildi va dediki, yo Abu Said, yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambarki olamg‘a yubordilar, dedilarki, xalqqa dengki, «Alloh!». Alar ul kishilarga bu kalimani dedilar, bu kalimada mustag‘raq bo‘ldilar. Shayx debdurki, bu so‘z ul kecha bizni uyug‘ali qo‘ymadi. Tong erta Pirdin dastur tilab, tafsir darsig‘a Abu Ali Faqih qoshig‘a bordik. Xoja Abu Alig‘a avval dars bu oyat erdiki, [«Alloh» deb javob qiling! So‘ngra ularni noto‘g‘ri yo‘llarida adashgan hollarida tark eting!][1].

Ul soat bizing ko‘ksumizga eshike ochdilar, bu kalima samo’ida bizi bizdin oldilar. Va Xoja Abu Ali ul tag‘ayyurni ko‘rub so‘rdikim, kecha qayda erding? Deduk: Pir Abulfazl Hasan xidmatida. Dedi: Qo‘p, dag‘i anda-o‘q borki, haromdur sanga, ul ma’nodin munga kelmak. Biz qo‘pub, Pir xidmatig‘a borduk, volihu mutahayyir va barcha bu kalima bo‘lg‘an. Chun Pir Abulfazl bizda ul hol ko‘rdi, dedi: Yo Abu Said!

B a y t:

[Qattiq mast bo‘libsan, baland-pastni bilmaysan.
Hushyor bo‘l! O‘z aslingni yo‘qotma!)[2].

Dedim: Ey Shayx, ne buyurursen? Dedi: Kir va o‘ltur va bu kalimaga mashg‘ul bo‘lki, bu kalimaning sening bila ishlari bor. Chun Pir Tengri rahmatig‘a vosil bo‘ldi, bizga suluk tariqida vaqoe’ ashkolin qilur kishi qolmadi. Chun Shayx Abulabbos xidmatig‘a Omulg‘a borduq va bir yil Shayx xidmatida bo‘lduq. Debdurlarki, Shayx Abulabbosning xonaqohida so‘fiylar jamoatxonasi mavzei bor erdiki,

Shayx qirq bir yil anda bo‘lg‘ondur. Agar darveshlar orasida biri kecha namoz qilsa, Shayx der erdiki, ey o‘g‘ul, sen uyuki, bu qari xar ne qilur, sizing uchun qilurki, aning hech nimaga ehtiyoji yo‘q turur. Va hargiz ul bir yilda Shayx Abu Saidg‘a demadiki, sen yotqil, yo namoz qilmag‘il! Va anga o‘z xilvatining o‘trusida uyg‘ina berib erdi. Bir kecha Shayx Abulabbos uyidin chiqdi, magar fasd qilib erdi va raginin boshi ochilib erdi. Va Shayx Abu Saidning bu holdin xabari bor erdi, qo‘pti va bot hujrasidin chiqdi va Shayx qoshig‘a keldi va Shayxning xirqasin yudi va o‘z xirqasin chiqarib Shayxga tutaberdi va Shayx olib kiydi. Va Shayxning xirqasin namozi qilib, ham-ul oqshom-o‘q qurutub Shayx nazariga kelturdi. Shayx xirqani Shayx Abu Saidga-o‘q ishorat qildikim, kiyg‘il! Shayx Abu Said kiyib, o‘z zoviyasig‘a bordi. Tong ertakim, jamoat qo‘ptilar va hozir bo‘ldilar, Shayxning xirqasin Shayx Abu Said egnida ko‘rdilar va Shayx Abu Said xirqasin Shayx egnida, taassub qildilar. Shayx dedikim, bale, o‘tgan oqshom nisorlar bor erdi va barcha bu Mehnaliq yngitning nasibi bo‘ldi, muborak bo‘lsun anga! Ustoz Abu Solihki, Shayxning muqrisi erdi, bemor bo‘ldi. Xazrat Shayx Abubakr Muaddabg‘aki, farzandlarining adibi erdi, dedikim, davot va qalam keltur va kog‘azki, Abu Solih uchun bir nima bitayli! Ul hozir qilg‘ach, bu ruboiyni buyurdikim, bitidi.

R u bo i y:

[Hurlar nigorimni ko‘rish uchun saf tortdilar.
Rizvon taajjublanib, qarsak chalib yubordi. U
qoraxol yuzlarga parda tortti. Abdol qo‘rqqanidan
«Qur’on»ga changal urdi][3].

Va Abubakr Muaddabg‘a dedikim, eltib, Abu Solihg‘a bog‘ladi. Filhol sihhat topti va hamul kun chiqdi. Hamul dastur bila bu ruboiyni soyir marazig‘a o‘qurlar va naf’ yetkururlar. Va ba’zi akobir sharhlar bitibdurlar. Shayxdin so‘rdilarki, tasavvuf nedur? Dediki, [miyangdagi borini chiqarib tashla! Qo‘lingdagi borini ehson qil! Boshintga nima kelsa, xotirjam. qarshi ol!][4] Va ham Shayx debdurki, [Alloh basdur, qolgani havasdur, tiyilmog‘i shart bo‘lgani – nafs-dur][5]. Shayx juma kechasi xufton namozi vaqti to‘rt yuz qirqda Sha’bon oyi dunyodin o‘tti. Va umrlari ming oy erdi. Alarning zikrida qalam ojizdur, bitilgandin mabsutroq tilagan «Nafahot ul-uns»da ko‘rsun. Va barcha holatlari maqomotlaridakim, niyozmandlardin ba’zi bitibdurlar, bordur. Va ul el orasida ko‘pdur – magar andin bahra vofiy topqaylar.

375. Shayx Abulqosim Gurgoniy q. t. s.

Oti Alidur. O‘z zamonida benazir ermish va o‘z fanida bebadal. Aning nisbati uch vosita bilaki, Shayx Abu Usmon Mag‘ribiydur va Shayx Abu Ali Kotib va Shayx Abu Ali Rudboriydur, sayyid ut-toifa Junayd q. s.ga yetar. Anga qaviy hol erkandur andoqki, asrida barchaning yuzi aning ostonig‘a erkandur. Va muridlar voqeasi kashfida oyati erkandur. Va «Kashf ul-mahjub» kitobining sohibi debdurki, bir qatla voqeae tushti, hallining tariqi manga mushkil erdi. Shayx Abulqosim xidmatig‘a yuzlandim. Ani uyining eshigidagi masjidda toptimki, manga tushgan voqeani masjidning bir sutunig‘a aytadur erdi. So‘rmay javobimni toptim. Va dedim: Ayuhash-shayx, bu mening voqeamdurki, sendin hallin so‘rg‘ali kelib erdim. Shayx dedi: Ey o‘g‘ul, bu sutunni bu zamon Haq taolo notiq qilib erdiki, mendin bu voqea savolin qildi.

Bir kun Tusda Shayx Abulqosim Gurgoniy bila Shayx Abu Said Abulxayr o‘lturub erdilar bir taxtda. Va darveshlar ilaylarida turub erdilar. Bir darveshning ko‘ngliga kechtikim, ayo bu ikki buzurgning manzalati ne erkin? Shayx Abu Said ul darvesh sari boqib dediki, har kim tilasaki, ikki podshohni bir yerda bir vaqtda bir taxtda ko‘rgay, ko‘rsun! Darvesh chun ul ikki buzurgga boqdi, Haq taolo hijobni aning ko‘zi ollidin oldi, to Shayxning so‘zining sidqi anga ma’lum bo‘ldi. Yana ko‘ngliga o‘ttiki, ayo bu kun yer yuzida Haq taoloning bu ikki buzurgvordek hech bandasi bormu erkin? Yana Shayx Abu

Said aning sari boqib dediki, muxtasar mulke bo‘lg‘ayki, anda har kun Abu Said va Abulqosimdek yetmish ming kelmagay va yetmish ming ketmagay.

376. Xoja Muzaffar Ahmad b. Hamdon q. t. s.

Kuniyati Abu Ahmaddur. Haq taolo anga rayosat masnadida bu eshikni ochdi va karomat tojin aning boshig‘a qo‘ydi. Oning yaxshi bayonni va oliy iborati bor erdi fano va baqoda. Shayx Abu Said Abulxayr q. s. debdurki, bizni bu dargohda bandaliq yo‘lidin kelturdilar va ani xudovandlik yo‘lidin, ya’ni biz mujohada bila mushohada toptuq va ul mushohadadin mujohadag‘a keldi. Bir kun Xoja Muzaffar Nuqonda ay-tur erdiki, bir paymona tarig‘din bir dona Shayx Abu Said Abulxayrdur, boqi barchasi men. Shayxning bir muridi hozir erdi, sargarm bo‘lib, hazrat shayxqa kelib, bu so‘zni aytdi. Shayx dediki, ul bir dona ham alardurlar. Biz hech nima emasmiz!

377. Xoja Muhammad Ma’shuq Tusiy q. t. s.

Oti Muhammaddur. Majonin uqalosidindur. Azim buzurgvor va sohibhol ermish. Tusda bo‘lur ermish va qabri ham anda-o‘qdur. Ul vaqtki, Shayx Abusaid Abulhayr Mehnadin Nishobur azimati qilibdur, bir kentgaki, Tus navohisida bo‘lg‘ay, yetganda bir darveshni yiboribdurki, Xoja Muhammad Ma’shuq Tusiydin ijozat tilagilki, oning shahr va viloyatig‘a kirolimu, yo‘qmu? Ul darvesh borg‘och, shayx darveshlar bila otlandi va ul darveshning keynicha Tusg‘a mutavajjeh bo‘ldilar. Ul darvesh Xoja xizmatig‘a yetib, risolat izhori qildi va Xoja buyurdikim, bor, aytki, kirsun! Chun bir yig‘ochqa yetkanda, Shayxning oti yurumadi va ilgari qadam qo‘ymadi. Chun ul darvesh xabar kelturdi. Shayx yaksar Xoja Muhammad Ma’shuq xizmatig‘a bordi. Ul istiqbol qilib, shayxni quchub dedi: Forig‘ bo‘lki, bu navbatki, munda uradurlar, bir necha kundin so‘ngra saning dargohingda chalilgusidur! Va bu Muhammad Ma’shuq qabopo‘sh turk erdi. Bir kun Tusning jome’ida Shayx Abu Said majlis etadur erdi. Ul yetib, to‘nining bir bog‘in bog‘ladi. Shayx xomush bo‘ldi va tili so‘zga uyurulmadi. Chun lahzae o‘tdi. Shayx dedi: Ey asr sultoni va ey vujud sarvari, to‘ning bog‘in yeshki, yetti ko‘k va yerni ul band bila bog‘lading! Ul bog‘ni yeshgach, Shayxg‘a takallum. yo‘li ochildi.

378. Amir Aliyi Abu q. t. r.

Ayn ul-quzot ba’zi maktubotida aning bayonidakim, g‘ayb va huzur hech nav’ bila yakson bo‘lmas, balki ko‘ngul bovujudi qurb ul-qulub qurb ul-abdon taqozosi ham qilur. Debdurki, Mir Ali Abu buzurg pire erdi. Bir muridi bor erdi, oti Muhammad Shahrobodiy. Bir kun ul muridni bozorga yubordi, bir nima kelturgali. Ul bozorga bordi, hamono ul nimani olur vajh hozir yo‘q erdi, filhol o‘zin sotti va Pir tilagan nimani olib yubordi. Chun necha kun bu savdodin o‘tti, ul kishiki, ul muridni sotqun olib erdi, aning qilg‘an ishiga muttale’ bo‘ldi, ani ozod qildi, to Pir qoshig‘a keldi. Amir Ali anga dedikim, ey javonmard, necha ming yil bizing jonimiz g‘aybda sening ofarinishing ishqida kuyar erdi, ul bas ermas erdiki, bu zohir firoqi ham kerak erdi, bir hafta zohir qurbi ham kerak.

379.Shayx Abu Abdurrahmon Sulamiy Nishoburiy q. t. s.

Oti Muhammad b. Husayn b. Muhammad b. Muso Sulamiydur. «Haqoyiq» sohibi tafsiri va mashoyix tabaqotining sohibi. Va bulardin boshqa dag‘i tasnifoti bor. Va Shayx Abulqosim Nasrobodiyning murididur va xirqa aning iligidin kiyibdur. Va Nasrobodiy Shibliy murididur va Shayx Abu Said Abulxayr Pir Abulfazl Hasan favtidin so‘ngra aning suhbatig‘a yetibdur va aning iligidin xirqa kiyibdur. Va Shayx Abu Abdurrahmon Shayx Abu Said q. s. uchun tazkira, o‘z xatti bila bitibdur. Va ul bu ekandur: [Bobom Abu Amr b. Nujayd Sulamiyning shunday deganini eshitdim: Abulqosim Junayd b. Muhammad Bag‘dodiy debdur: tasavvuf xulqdir. Kimki sendan xulqda ustun bo‘lsa, tasavvufda ustundir. Xulq haqida aytilgan eng chiroyli gap – Shayx ul-islom Abusahl Sulukiyning gapidir. «Xulq – e’tirozdan voz kechishdir»][1].

Va ham ul debdurki, [So‘fiy uchun ikki narsa shart: ahvolda sodiqlik va muomalada odob][2]. Va Yofe’iy tarixidadurkim, Shayx Sulamiy to‘rt yuz yigirma ikkida dunyodin o‘tubdur.

380. Husayn b. Muhammad Musa Sulamiy q. s.

Shayx Abu Abdurrahmonning otasidur. Mashoyixi kibordindur. Shayx Abdulloh Muborak va shayx Abu Ali Saqafiy bila suhbat tutubdur va Shibliyni ko‘rubdur va doimiy mujohadasi bor ermish va ulum va muomalotda komil ermish. Chun shayx Abu Abdurrahmon mutavallid bo‘lubdur, har mulkiki bor ekandur, sotib sadaqa beribdur. Anga debdurlarki, sanga o‘g‘ul farzand bo‘ldi. Oning uchun hech nima asramading. Debdurki, agar solih bo‘lsa [u solih bandalarga yor bo‘lur][1] va agar mufsid bo‘lsa, men bori anga fasod olati bermamish bo‘lg‘aymen. Ul uch yuz qirq va bir nimada dunyodin o‘tubdur.

381. Abusahl Su’lukiy r. a.

Oti Muhammad b. Sulaymon Su’lukiydur. [U shariat ilmida o‘z davrining imomi, do‘stu dushman uning peshvoligiga hamfikr edilar. Shibliy, Murta’ish, Abu Ali Saqafiy bilan hamsuhbat bo‘lgan. Abu Hasan Fumanjiy, Abu Nasr Safforiy Nishoburiy bilan do‘st bo‘lgan. Yaxshi samo’ qilardi, xushvaqtlari bor edi][1]. Shayx Sulamiy debdurki, Abusahl Su’lukiydin samo’ni so‘rdilar. Dediki, [samo’ – haqiqat ahli uchun mustahab, olimlar uchun muboh, fosiq va fojirlar uchun makruhdir][2]. Ul debdurki, hargiz ilig jaybimg‘a solmayman va biriima to‘kmagaymen va manga quflu kalide yo‘q erkandur. Va ham ul debdurki, [zahmat tortgan kishiga martabada o‘zini tenglashtirgan – haddan oshganidir][3]. Shayx Abu Abdurrahmon Xo‘taniy debdurki, ne uchun mundoq Demaydurki, [zahmat tortgan kishiga martabada o‘zini tenglashtirgan xato qilibdi][4]. Shayx ul-islom debdurki, bu yaxshiroqdur. Hech kishi men degandek demaydurki, ani tilamak bila topsa bo‘lmas, ammo tilagan topar. Va ham Sahl Su’lukiy debdurki, [kimki vaqtidan oldin maqom-mavqega yetsa, xorlikka yuz tutadi][5]. Bir kun Shayx Su’lukiy darsda dediki, barcha Qur’onda manga bu ajab kelurki, Allohu taolo Musog‘a ayttiki, [men o‘zimga seni tanladim][6]. Shayx ul-islom debdurki, manga hasaddurki, bu so‘zgaki, ul aytibdur. Shayx Abusahl Su’lukiy Nishoburiy uch yuz oltmish to‘qqizda dunyodin o‘tti va o‘g‘li Abu Tayyib to‘rt yuz to‘rtta Rajab oyi o‘tti.

382. Shayx Abulqosim Qushayriy r. t.

Oti Abdulkari b. Havozin Qushayriydur. «Latoif ul-ishrat» tafsirining sohibidur. Va anga harfanda rasoyil va har ilmda tasonif bor. Abu Ali Daqqoqning murididur va Abu Ali Formadiyning ustodi. To‘rt yuz oltmish beshda dunyodin o‘tubdur. «Qashf ul-maxjub» sohibi debdurki, ul debdurki, [So‘fiy zotiljam kabidir: avvali alahsirash, oxiri: jimlik! Agar mustahkam bo‘lsang, jim bo‘lasan][1]. Va ham ul debdurki, [tavhid – «Alloh» ismi zohir bo‘lganda rasm va tabiat asarining zavol topishi, tajalliy nurlari porlaganda, begona narsalarning foniy bo‘lishi, ilohiy haqiqatlar oshkor bo‘lganda maxluqotlarning arzimasligi, zikri ulug‘ Jabborga yaqinlik mavjud bo‘lganda ag‘yorlarning ko‘rinmasligidir][2].

383. Shayx Abulqosim Shaqoniy q. s.

Oti Ahmad b. Muhammaddurur: Usulu furu’, funun va ulumida imom erdi, ko‘p mashoyix diydoridin bahramand. «Kashf o‘l-mahjub» sohibining ustodidur. Ul debdurki, hech kishi ko‘rmaydurmenki, shar’ni ul ta’zim qilg‘ancha qilmish bo‘lg‘ay. Dunyoyu uqbodin payvasta nafir erdi. Ul debdurki, [bir yo‘qlik istaymanki unga qaytish bo‘lmasin!][1]. Va g‘ayri arabiy der erdiki, har kishiga bir muholni tilamak bor, manga bir muholni tilamakdurki, yaqin bo‘lmag‘ay. Va ul budurki, tilarmanki, Haq taolo meni bir adamg‘a eltkayki, hargiz ul adamg‘a vujud bo‘lmag‘ay, ne uchunki maqomotu karomotdin har neki bor, barcha hijobu balodur. Va odame ul hijobu balog‘a oshiq. Io‘qlug‘ diydorda yaxshiroqki, orom hijobda. Chun Haq taolo boriydurki, anga adam ravo ermas. Ne ziyon qilg‘ayki, aning mulkida men yo‘qe bo‘lsamki, hargiz ul yo‘qqa borlig‘ bo‘lmasa. Ham «Kashf ul-mahjub» sohibi debdurki, bir kun aning qoshig‘a kirdim, o‘qiydur erdikim, [Alloh bundoq bir misol keltirur: hech narsaga kuchi

yetmaydigan birovga qaram qul...][2] va yig‘laydur erdi va qichqiradur erdi. Sog‘indimki, oxir bo‘lg‘usidur. Dedim: ayyuhash-shayx, ne holdur? Dedi: o‘n bir yildur, to dardim bu yerga yetibdur va mundin o‘ta olman. Bir kun Shayx Abusaid Abulxayr Nishoburda o‘z xonaqohida o‘lturub erdi. Sayyid Ajalki, Nishoburning ulug‘i erdi, Shayx yonida o‘lturub erdi. Shayx Abulabbos Shaqoniy keldi. Shayx ani Sayyid Ajaldin yuqoriroq o‘lturtti. Sayyid andin ranja bo‘ldi va ko‘ngliga dovarlig‘ kirdi. Shayx Sayyid sari boqib dediki, siz bu toifani Mustafo s. a. v. uchun sevarsiz va biz bu toifani Haq s. t. uchun sevarmiz. Shayx Abulabbos debdurki, bir kun uyimda kirdim, bir sarig‘ itgina yotib erdi. Ani quvlay dedim, yugurdi va etakim ostig‘a kirdi va g‘oyib bo‘ldi.

384. Abulfazl Hasan Hatliy r. t.

Bayt ul-Jinda vafot topubdurki, Dimishqning yaqinidur. «Qashf ul-mahjub» sohibi debdurki, tariqatda mening iqtidom angadur. Tafsir va rivoyat ilmida olim erdi. Husriyning muridi va sohibi sirri, Abuamr Qazviniy va Abulhusayn Solbih aqroni. Oltmish yil uzlatda eldin qochar erdi va otin eldin itirur erdi va ko‘prak Lug‘om tog‘ida basar eltur erdi. Uzun umr topti va yaxshi oyotu karomot iyasi bo‘ldi, Va mutasavvifa libosida emas erdi, rusum ahli siyratida bo‘lur erdi. Men andin muhibrok ko‘rmaydurmen. Ul debdurki, [dunyo bir kundir, unda bizning vazifamiz ro‘zadir][1].

385. Ali b. Usmon b. Abi Ali Jullob G‘aznaviy q. s.

Kuniyati Abulhasandur. Olim va orif erdi va Shayx Abulfazl b. Hasan Xatliyning murididur. Qo‘p mashoyix suhbatig‘a ham yetibdur. «Kashf ul-mahjub» kitobining sohibidurki, bu fanda mashhur va mo‘‘tabar kitobdur. Ul debdurki, Shayx ul-mashoyix Abulqosim Gurgoniy q. s.din so‘rdumki, darveshga noguzir nima nedurki, faqir otin anga itloq qilsa, bo‘lg‘ay? Dedi: Uch nima: biri ulki, tuz yurun tika olg‘ay; yana ulki, chin so‘z ayta va eshita olg‘ay; yana ulki, oyog‘in tuz yerga ura olg‘ay. Jam’e darveshlar hozir erdilar. Dedukki, keling, har qaysimiz bu so‘z ma’nisida taammul qilib, bir so‘z deyli! Har biri bir so‘z dedilar. Navbat manga yetganda dedimki, yurunni tuz tikmak ul bo‘lg‘ay: Faqr yuzidin tikkay, yo‘qki ziynat yuzidin. Agar ruq’ani xirqag‘a faqr bila tiksang, egri tiksang dog‘i tuzdur va chin so‘z ul bo‘lg‘ayki, kishi oni hol yuzidin aytg‘ay va eshitgay. Yo‘qki, minnat yuzidin va haq vajd bila onda tasarruf qilg‘ay. Yo‘qki, hazl bila va zindagonlig‘ yuzidin ani anglag‘ay, yo‘qki, aql bila. Va oyog‘in tuz yerga urmoq ul bo‘lg‘ayki, vajd bila yerga urulg‘ay, yo‘qki lahv bila. Va bu so‘zni biaynihi Shayx hazratida naql qildilar, dediki, (Ali rost so‘zladi. Alloh unga yordam bersin!][1].

386. Xoja Ahmad Hammod Saraxsiy r. t.

«Kashf ul-mahjub» sohibi debdurki, ul muboriz uli-bod erdi va muddate maning rafiqim erdi va oning holotidin ko‘p ajoyiblar bilurmen. Bir kun ondin so‘rdumki, saning bu ishga kirgoning ibtidosi ne erdi? Va dediki, men bir qatla Saraxsdin chiqib, biyobong‘a bordim va tevalarim bor erdi. Alarning muhofazatin qilur erdim va och bo‘lmog‘ni sevar erdim. Va har ne ilkimga tushsa, yana birovga berur erdim va ko‘nglumga Tengri taoloning bu qavli toza bo‘lur erdiki, [ular hijrat qilib kelganlarni suyurlar][1]. Va bu toifag‘a e’tiqodim bor erdi. Bir kun biyobonda bir arslon paydo bo‘ldi. Bir tevani bosdi va saqat qildi va biyikka chiqib, bir go‘kradi. Ul tegradagi sibo’ va bo‘ri va tulku va shaqol yo‘sunlug‘ jonvorlar jam’ bo‘ldilar va arslon tevani alar ilayiga qo‘yub, o‘zi biyik boyirg‘a chiqib o‘lturdi, to alar barcha to‘ydilar. Arslon biyikdin indiki, o‘zi ham andin tu’ma qilg‘ay. Ko‘rdi, bir oqsoq tulku keladur, yana yondi va o‘lturdi. Ul ham o‘z voyasin hosil qilg‘ondin so‘ngra indi va andin tu’ma qildi va men nazzora qilur erdim. Chun yemakdin forig‘ bo‘ldi. Maning sori boqib, fasih til bila dediki, yo Ahmad, luqma iysori itlar ishidur. Eranlar iysori jondur. Chun men bu burhonni andin ko‘rdum. Holim mutag‘ayyir bo‘ldi va olamning barcha ishidin ilik tortib, bu ishga mashg‘ul bo‘ldum va ishimning ibtidosi bu erdi.

387. Adib Kumandiy r. t.

Ul «Qashf ul-mahjub» sohibining Muosirlaridandir. Debdurlarki, yigirma yil ko‘prak avqot ayog‘ ustiga turub yerdi, magar tashahhud vaqtiki, o‘lturur erdi. Andin so‘rdilarki, ne uchun o‘lturmassen? Dediki, manga hanuz ul daraja yo‘qdurki, Haq s. t.ning mushohadasida o‘lturg‘aymen.

388. Abulhasan Musanno r. t.

Oti Ali b. Musannodur. Shayx Abusaid Abulxayr q. s. debdurki, yigitligim chog‘ida Astrobodda Abulhasan Musanno qoshig‘a bordim. Va ul shukuhliq pir erdi. Va Shibliy bila suhbat tutub erdi va oralarida niqorlar o‘tub erdi. Darvishe manga ayttiki, aytqilki, bizga Shibliydin hadise aytsun! Men iltimos qildimki, ayyuhash-shayx, bizga Shibliydin hadise ayt! Dediki, ne uchun burun Rasul s.a.v. din so‘z tilamading? Dedim: ikkalasidin ayt! Dedi: Rasul s.a.v. debdurki, agar mening otimga «Al-Kahf»din o‘zga sura inmasa erdi, ham kofiy erdi. Ham shayx Abusaid q. s. debdurki, Shayx Abulhasan Musanno dedikim, Bag‘dod jome’ida Shibliyning majlisi qirog‘ida turub erdim. Birav bu toifa kisvatida Shibliydin savol qildikim, [ey shayx, vasl nima?][1]. Shibliy anga boqib dedikim, [Ey vasl haqida so‘rovchi, ikki tarafdan kechsang visolga yetasan][2]. Soyil dedikim, [ikki taraf ni-ma?][3]. Shibliy dedikim, [sizlarni ro‘parangizdagi Allohdan to‘sib turgan cho‘qqi][4]. Soyil dedikim, [u cho‘qqi nima?][5]. Shibliy dedikim, [dunyo va oxirat! Chunonchi rabbimiz aytadi: orangizda dunyo istaganlar ham, oxirat istaganlar ham bor edi][6]. [Xo‘sh, Xudoni istovchi qaerda?][7]. Andin so‘ngra Shibliy aytdikim, [agar Alloh desang, U Allohdir. Agar jim tursang ham u Allohdir; yo Alloh, yo Alloh U! Va hech kim bilmaydiki, U nima? U pokdir, U pokdir, U yakka yagonadir, uning tengi yo‘q][8]. Andin so‘ngra g‘ashe qildi va bexush yiqildi, ani ko‘tarib uyiga elttilar.

389. Shayx Ahmad Najjor Astrobodiy q. s.

Shayx ul-islom dediki, ul Xurosonning mashoyixidindur. Shibliy va Murt’ish bila suhbat tutubdur. Bir qatla Shibliy aning shoribaynin olib erdi. Ul debdurki, andin so‘ngra hargiz yana olmoqqa ehtiyoj bo‘lmadi.

390. Shayx Abu Zur’a Roziy q. s.

Oti Ahmad b. Muhammaddur. Shayx ul-islom debdurki, men uch kishi ko‘rubmenki, ani ko‘rubdurlar. Shibliyning shogirdi ermish. Munbasit kishi ermish. Anga ta’n qilibdurlarki, doyim tiybat qilursen. Ul debdurki, manga mundin o‘zgaki bir so‘z degaymenki, darveshlar kulgaylar, hech sarmoya yo‘qdur. Shayx ul-islom debdurki, ani dunyodin o‘tgandin so‘ngra voqe’ada ko‘rubdurlar, holin so‘ribdurlar. Debdurki, meni ilayiga tiladi va dediki, sensenki zirih kiyding mening dinimg‘a, mening xalqimg‘a? Dedim, bale1 Dedi: Ne uchun xalqimni manga qo‘ymading va ko‘nglung yuzin manga kelturmading?

391. Shayx Abu Zur’a Ardabiliy q. s.

Oti Abdulvahhob b. Muhammad Ayyub Ardabiliydur. Olim va zohid ermish. Ko‘p safar qilibdur. Shayx Abu Abdulloh Xafif bila hamroh bo‘lubdur. Derlarki, Shayx Abu Abdulloh Xafif Hijoz azimati qildi va Abu Zur’ani ko‘rgali bordi. Ul islang‘on yaxna et kelturdi. Abu Abdulloh andin yemadi va safarga azimat qildi. Biyobonda yo‘l ozitib, necha kun yegulik topmadilar. Halok bo‘lur chog‘da bir it ko‘zlariga yo‘luqdi, zaruratdin ani o‘lturub ulashtilar. Shayxqa aning boshi tegdi. Shayx tanaffurdin ta’ammulda erdiki, oyo yesa bo‘lg‘aymu yo yo‘q? Imom Molik mazhabi bila yemakka xotir qaror berdi, ammo boshi sa’b erdi. Ul itning boshi tilga kelib dediki, bu ul kishining sazosiki, Abu Zur’a uyida islang‘an etni yemagay. Shayx safardin qaytti va Shayx Abu Zur’a uyiga borib, istihlol qildi va bihillik tiladi va andin so‘ngra safarg‘a chiqdi. Debdurlarki, Abu Zur’a umrining oxirida so‘fiya bila muxolafat ustida bo‘ldi, shoyadki, ba’zi bila erdi ekin. To‘rt yuz o‘n beshda dunyodin o‘tti.

392. Abu Abdulloh mushtahyr Bobuniy q. s.

Qabri Sherozning mashhur mazorotidindir. Ul ermishki, debdurki, [kurd bo‘lib uxladimu arab bo‘lib

uyg‘ondim]1. Va bu qissa mundoq ermishki, ul kurdlardin ermish. Bir kun Sherozg‘a kelibdur va madorisdin ba’zig‘a kiribdur va ko‘rubdurki, ilm talabasi ulum darsi va mubohasasig‘a mashg‘uldurlar. Alardin savol qilibdur. Barcha kulushubdurlar. Ul debdurki, tilarmen, sizning bu aytishadurg‘on so‘zlaringizdin o‘rganganmen. Ular hazl va istehzo yuzidin debdurlarki, agar tilasangki, donishmand bo‘lg‘aysen, bu kecha uyungning saqfidin bir ip bila oyog‘ingdin bog‘lab, tong otquncha degilki, «ko‘zburah usfurah» [kashnich chumchuq]2ki, ilm abvobi senga ochilur. Ul bormish, alar degandek qilmish. Chun niyati va husn talabi sidq bila ermish. Tong otg‘och, Haq s. t.aning ko‘ngliga laduniy ilm eshikin ochmish. Andoqki, har g‘omiz mas’alada ul fan ahli bila taloshib, alarg‘a g‘olib kelur ermish va bu bo‘la olmas, juz valoyat osori.

393. Shayx Abu Abdulloh Boku.

Oti Ali b. Muhammad. b. Abdulloh. Ibn Bokug‘a mashhurdur. Shayx Abu Abdulloh Xafifni ko‘rubdur. Va Sherozdin Nishoburg‘a safar qilibdur. Shayx Abulqosim Qushayriy va Shayx Abusaid Abulxayr q. s. bila suhbat tutubdur. Va Shayx Abulabbos Nihovandiy bila muddate musohib bo‘lubdur. Va oralarida tariqat bobida ko‘p so‘zlar o‘tubdur. Va Shayx Abulabbos aning fazlu sabqig‘a e’tirof qilgan ekandur. Aydin so‘ngra Sherozg‘a murojaat qildi va bir tog‘ mag‘orasida munzaviy bo‘ldi va barcha so‘fiya va ulamo va fuqaro aning suhbatig‘a mulozamat va mudovamat qilurlar erdi. Ul so‘zki, Shayx Abusaid Abulxayr bila voqe’ bo‘lubdurki, necha g‘arib, karomotlar Shayxdin ko‘rgandin so‘ngra Shayxqa debdurki, tilarmenki buki, haftada bir qatlakim, kelursen meni ko‘rgali, emdi kelmagaysen. Va Shayx debdurki, ko‘p eranlar va mashoyixiing ko‘zi sanga tushubdur, ul mashoyixiing nazari tushgan yerni ko‘rgali kelurbiz. Va bu so‘zdin majlis huzzorining yig‘lab, oradin mojaro daf’ bo‘lg‘onining sharhi «Nafahot ul-uns»da bor. Tilagan kishikim bilgay, anda tilasun. O‘l to‘rt yuz qirq ikkida dunyodin o‘tubdur.

394.Shayx Mo‘min Sheroziy q. t. s.

Shayx ul-islom debdurki, Ismoil Dabbos dedikim haj niyati qilib borurda Sherozg‘a yetishdim. Bir masjidqa kirdim. Shayx Mo‘minni ko‘rdumki, o‘lturub, xirqasin yamaydur erdi. Salom qildim va o‘lturdim. Mendin so‘rdikim, ne niyating bor? Dedim: Haj niyatim bor. Dedi: Onang bor? Dedim: bor! Dedi: Yonib onang mulozamatig‘a bor! Bu so‘z menga xush kelmas erdi: Dedi: Ne to‘lg‘anasen? Men ellik haj qilibmen, bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim. Sen onang ko‘ngli shodlig‘in menga ber!

395. Shayx Abu Ishoq Shomiy r. t.

Asru buzurg erdi. Qabri Shom bilodidin Akkadadur. Shayx Alaviy Dinavariyning ashobidindur. Va ul Shayx Hubayrai Basriy ashobidin va ul Shayx Huzayfai Mar’ashiy ashobidin va ul Sulton Ibrohim Adham q. s. ashobidin. Va bu Shayx Abu Ishoq Shomiy Chisht qasabasig‘a yetibdur. Va Xoja Abu Ahmad Abdol suhbatig‘aki, Chisht mashoyixining muqaddamidur, yetibdur va andin tarbiyat topibdur.

396. Shayx Abu Ahmad Abdol Chishtiy r. t.

Sulton Farasnofaning o‘g‘lidur. Hasaniy shurafodin erdi va ul viloyat hokimi erdi va oning bir singli yo egachisi bor erdi. Bag‘oyat soliha. Shayx Abu Ishoq aning uyiga kelur erdi va aning taomidin yer erdi. Bir kun anga dediki, saning qardoshingg‘a bir farzand bo‘lg‘usidurkim, azim sha’ni bo‘lg‘ay. Qardoshingning harami holidin voqif bo‘l va muhofazat qilki, haml ayyomida luqmaiki, onda hurmat yo shubhae bo‘lg‘ay, yemagay! Ul soliha Shayx Abu Ishoq ishorati bila o‘z iliki bila charx igirib, ipin sotib, qardoshining haramining ma’kulin muhayyo qilur erdi. To ikki yuz yetmish tarixida Mu’tasim billoh xilofati zamonida Xoja Abu Ahmad mutavallid bo‘ldi va hamul soliha o‘z uyida halol vajh bila onga parvarish berur erdi va shayx Abu Ishoq Shomiy gohi aning uyiga kelur erdi va der erdiki, bu tifldin bir buzurg xonvoda zohir bo‘lurning isi keladurki, ondin ahvol va osori g‘ariba va ajiba

mushohada bo‘lg‘ay. Yigirma yashar sinnida bir kun otasi bila ovg‘a borib erdi. Otasi va atboidin ayru tushti va ul ko‘histonda bir tosh ustida ko‘rdikim, qirq kishi turibdurlar va oning shayxi Shayx Abu Ishoq Shomiy alarning orasida va ul jamoat Rijolulloh erdilar. Bularni ko‘rg‘ach, onga hol mutag‘ayyir bo‘ldi va otidin tushub aslahayu, malbusotin tashlab, bir pashmina kiyib, alarg‘a qo‘shuldi. Otasi bilgandin so‘ngra har necha oni ul eldin ayirurg‘a sa’y qildi, foyda bermadi va alardin ayrilmadi. Derlarki, otasining bir xumxonasi bor erdi. Bir kun xilvat topib, ul xumxonani ichkaridin bog‘lab, kuplarni ushata boshladi. Otasig‘a xabar qildilar, ersa tom ustiga kelib, g‘oyat,g‘azabidin bir tosh olib, uy darichasidin anga otti. Ravzana andoq tor bo‘ldiki, toshni qisti va anga borg‘ali qo‘ymadi, to tosh yer bila ko‘k orasida turdi. Chun otasi bu holni ko‘rdi. Aning ilgida tavba qildi va ondin bu nav’ karomot behaddu add ko‘rubdurlar. Tafsili uzundur va ul uch yuz ellik beshda dunyodin o‘tdi.

397. Xoja Muhammad b. Abu Ahmad Abdol Chishtiy q. s.

Otasidin so‘ngra aning qoyim-maqomi erdi. Va yigirma to‘rt yoshida diniy va yaqiniy ulumu maorif kasb qilib erdi. Zohid va mutavarri’ erdi va dunyo ahlidin mujtanib va mutanaffir erdi. Doyim der ermishki, chun avvalu oxirimiz dunyo tarhidur, o‘zni aning g‘ururu firibidin asramoq kerak.

398.Ustod Mardon.

Xavof viloyatida Sinjon qasabasidin. Xojaning muridlaridindur. Yillar aning istinjo kesakin va vuzu’ suyin muhayyo qilur erdi. Anga vatan murojaatig‘a amr qilg‘onda, ul yig‘labdurki, manga sizing muforaqatingiz toqati qachon bor? Xoja debdurki, har qachonki sanga bizing dindorimiz orzusi bo‘lsa, jismoniy hijoblar va makoniy masofatlar murtafe’ bo‘lg‘ay va bizni ham andin ko‘rgaysen. Va ham andoq-o‘q bo‘lubdur. Ustod der ermishki, men Sinjondin Chishtni ko‘rarmen. Va Xoja to‘rt yuz yigirma birda
dunyodin o‘tdi.

399. Xoja Yusuf b. Muhammad Sam’on r. t.

Ul Xoja Muhammad Abu Ahmadning xoharzodasidur. Va andin tarbiyat topibdur. Va Xoja Muhammad oltmish beshgacha kadxudo bo‘lmag‘ondur. Va bir singli bor erdikim, Xojaning xidmatin qilur erdi. Va xojaning kiymak-emaki aning dastrastidin erdi. Va aning yoshi qirqqa yetib erdi va og‘asi xidmati va Tengri ibodati ishtig‘oli sababidin tazavvujg‘a mayl qilmaydur erdi. Bir kecha Xoja Muhammad buzurgvor otasi Xoja Abu Ahmadni tushta ko‘rdikim, otasi anga dediki, [Shumo falon]1 viloyatida bir kishidur, oti Muhammad b. Sam’on, olim va solih kishidur, singlingni anga nikoh qil! Xoja ani tiladi, g‘oyibdan ishorat bo‘lg‘on bila ul solihani Muhammad Sam’ong‘a aqd qildi va ul Chishtda-o‘q mutavattin bo‘ldi va Xoja Yusuf alardin mutavallid bo‘ldi. Xoja Muhammadning o‘g‘li yo‘q erdi, Xoja Yusufni farzandliqqa asrar erdi va tarbiyat qilur erdi. Va ulum tahsili va Tengri yo‘li sulukiga dalolat, qilur erdi. Va Xoja Muhammadning vafotidin so‘ngra Xoja Yusuf aning qoyim-maqomi bo‘ldi va anga ellik yoshdin so‘ngra inzivo va inqito’ mayli bo‘ldi. Xoja Hojiyi Makkiy mazori yonidakim, Shayx Abu Ishoq Shomiy ani ko‘p ziyorat qilur ermish yerda chillaxona o‘z muborak iligi bila qazib, o‘n ikki yil anda basar eltibdur. Va oncha sukru dahshat va volahu hayrat anga g‘olib ermishki, mumtad zamonlar o‘zidin g‘oyib bo‘lub, yana hozir bo‘lur ermish. Ul vaqtdakim, Shayx ul-islom Abu Ismoyil Abdulloh Ansoriy q. s. Chisht mazorotida ekandur, aning bila muloqot qilg‘ondur. Andin yong‘onda, Hirotda majolisu mahofilda ani sog‘inib, istihson qilur ermish. Va ul sakson to‘rt yashabdur. Va to‘rt yuz ellik to‘qqizda dunyodin o‘tubdur. Va o‘tar vaqtda ulug‘ o‘g‘li Shayx Qutbuddin Mavdudni o‘ziga qoyim-maqom qilibdur.

400. Xoja Mavdud Chishtiy r. t.

Ul yetti yoshida tamom Qur’onni vozeh bila hifz qilib erdi va ulum kasbig‘a mashg‘ul. Chun yoshi yigirma oltiga yetti, buzurgvor volidi olamdin o‘tti va ani o‘z o‘rnig‘a o‘lturtti va ulhamida hisolg‘a va

pisandida af’olg‘a ma’ruf erdi va ul viloyat ahli anga e’tiqod va irodat va muhabbat maqomida erdi va hazrat Shayx ul-islom Shayx Ahmad Jomning suhbati sharafig‘a va tarbiyati davlatig‘a tavfiq topib erdi va oning sharhi «Nafahot ul-uns»da mabsut voqe’dur. Va Shayx ul-islom mazkur ishorati bila Balx va Buxoro sori tahsil takmili uchun bordi va to‘rt yilg‘acha ul viloyatda qolib, zohir ulumig‘a takmil berib keldi va ul viloyatda ondin g‘ariba xavoriq va ajiba osor ko‘p zohir bo‘lubdurki, sharhining tadvili bor. Chun Chishtg‘a keldi, muridlar tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘ldi va atrofdin toliblar oning xizmatig‘a yuzlanib, tarbiyat toparlar erdi. Shoh Sanjonki, laqabi va oti Rukniddin Mas’uddur, Xoja suhbatig‘a yetgan erkondur va necha vaqt oning xizmatida Chishtda bo‘lg‘on erkandur. Oni Xoja Sanjon der ermishlar. Xoja Mavdud onga shoh laqab beribdur va ul laqab bila hamisha nozishu mufoxirat qilur yermish. Xoja Mavdud besh yuz yigirma yettida, shoh Sanjon besh yuz to‘qson yettida dunyodin o‘tdilar.

401. Xoja Ahmad b. Mavdud b. Yusuf Chishtiy q. s.

Otasidin so‘ngra aning o‘rnig‘a o‘lturdi. Har tavoyifqa maqbul va koffai anomg‘a shafqati tamom va muruvvati om ermish. Debdurlarki, ul bir kecha Hazrat Risolat s. a. v. ni voqe’da ko‘rdiki, ul Hazrat buyurdiki, Ahmad, agar sen bizga mushtoq emassen, biz senga mushtoqbiz. Chun uyg‘ondi, uch muvofiq yor paydo qildi va majhulvor andoqki, el tanimag‘ay. Haramayni sharifayn zodahumollohu ta’ziman va takriman ziyoratig‘a mutavajjih bo‘ldi. Va ul davlatqa musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra olti oy Madinada mujovir bo‘ldi. Va derlarki, aning anda iqomati Madina ravzasi ahlig‘a og‘ir kelib tilar ermishlarki, ani ranjida qilib, uzr qulg‘aylarki, ravzadin un eshitmish bo‘lg‘aylarki, ul bizning mushtoqlarimizdindur, ranjida qilmayg! Andin qaytqonda Bag‘dodda Shayx Shihobiddin Suhravardiy xonaqohida tushti va Shayx ani ehtiromu ikrom qildi va Bag‘dod xalifasi aning suhbatin tabarruk qilib, ta’zimlar qildi. Valodati besh yuz yettida erdi va besh yuz yetmish yettida dunyodin o‘tti.

402. Abulvalid Ahmad b. Abi Rajo r. t.

Ozodon qaryasidindurki, Hirotga muttasildir. Ulumi zohiriy va botiniy bila olim erdi.

Imom Ahmad Hanbal r. a. shogirdidur. Va Buxoriy o‘z «Sahih»ida andin hadis rivoyat qilibdur. Avoilda ko‘p moli bor ermish. Barchasin hadis talabida va haj va g‘azoda sarf qilibdur va derlarki, oning do‘stlaridin biri to‘rt ming diramg‘a muhtoj bo‘ldi va oning qoshida zohir qildi. To‘rt ming diramni naqd qilib, do‘stining uyiga yibordi va oning ul muhimmi kifoyat bo‘lg‘ondin so‘ngra hamul vajhni saronjom qilib, yana oning uyiga yibordi va ul qabul qilmadi. Yana kun ul do‘st oning xizmatig‘a borib, salom qilg‘och, dedikim, agar salom javobi vojib bo‘lmasa erdi, salomingg‘a javob bermagoy erdim. Ul muhaqqarning ne qadri bo‘lg‘aykim, yana naqd qilib yiborgaysen. Ul ikki yuz ikkida o‘tti va qabri Ozodon qaryasidadur.

403. Abu Ismoil Abdulloh b. Abu Mansur Muhammad Ansoriy Hiraviy q. s.

Laqabi Shayx ul-islomdur va bu kitobda har yerdakim Shayx ul-islom voqe’durur mutlaq murod ondindur va Ul Abu Mansur Mattul Ansoriy farzandlaridandur va Mattul Ansoriy Ayyub Ansoriy farzandidurki, Hazrat Rasul s. a. v. ning sohibi rihli ermish. Ul vaqtkim, Madinag‘a hijrat qilibdurlar va Mattul Ansoriy Amir ul-mo‘‘minin Usmon xilofatida Xurosong‘a kelib, Hirotda sokin bo‘lubdur. Shayx ul-islom debdurki, maning otam Abu Mansur Balxda Sharif Hamzai Uqayliy bila bo‘lur ermish. Bir qatla bir xotun kishi Shayx Sharifg‘a iltimos qilgan ermishki, Abu Mansurg‘a aytingki, mani qo‘lsun! Otam degan ermishki, men hargiz uylanmasman va oning iltimosin rad qilg‘an ermish va Shayx Sharif degan ermishki, oqibat uylangoysen va senga bir o‘g‘ul bo‘lg‘ay va ne o‘g‘ul! Chun Hirotg‘a kelibdur, kadxudo bo‘lubdur va men mutavallid bo‘lubmen. Shayx Sharif Balxda debdurki, bizning Abu Mansurg‘a Hiriyda bir o‘g‘ul bo‘ldi. Ondoq han. Va han lafzidurki, jame’ yaxshiliklar anda darjdur va shayx ul-islom debdurki, men Quhandizda mutavallid bo‘lubmen va anda ulg‘ayibman va valodatim juma kuni ermish. Kunas g‘urubi vaqti, uch yuz to‘qsonda sha’bon oyining ikki

yanggisida. Debdurki, men rabi’idurmenki, bahorda tug‘ulibmen. Kunas savrning o‘n yetti darajasida erkanda va bahorni sevarmen. Har qachon kuna sonda yetsa, maning yoshim tugonur. Debdurki, Bu Osim pir mening qarobatimdur. Kichik erkonimda oning uyiga borur erdim. Bir kun oning uyida erkonimdaki, oning xotuni ajuze erdi, muhtasham va sohibi valoyat. Dediki, mening pirim, ya’ni xizr Alayhissalom Abdullohni ko‘rdi va so‘rdi: Kimdur? Dedim: falon kishi! Dedi: Mashriqdin mag‘ribg‘acha andin to‘lg‘ay, ya’ni ovozasidin.

Shayx ul-islom debdurki, bu so‘rmoq oning fannidur, bilur va so‘rar. Bonu oliya shukuhlig‘ xotun erdi Po‘shangda. Chun shayx ul-islom tug‘ubdur. Xizr a. s. anga aytibdurki, ul go‘dakni ko‘rdung Hirida tug‘di va mashriqdin mag‘ribg‘acha andin to‘lg‘ay va ham Xizr a. s. anga debdurki, sizning shahrda bozori zodaidurki, o‘n yetti yoshidadur. Na otasi bilurki, ul kimdur va ne o‘zi. Tamom olamda ondin ulug‘roq kishi bo‘lmag‘usidur va Shayx ul-islom debdurki, avval meni bir xotun maktabida topshurdilar. Chun to‘rt yashadim. Moliniy maktabiga topshurdilar. To‘qquz yoshimda imlo bitidim Qozi Abu Mansurdin va Joruziydin. Va o‘n to‘rt yoshimda majlisqa o‘lturtdilar va men adab dabiristonida kichik erdim va she’r aytur erdim. Andoqki, o‘zgalarga hasad bo‘lur erdi va debdurkn, Xoja Yahyo Ammor qarobatlaridin birovning o‘g‘li mening bila dabiristonda erdi va men arabiy she’rlar aytur erdim va har neki, maktab ahli mendin tilasalar erdiki, falon ma’nida she’r ayt, aytur erdim, alarning tilagonidin ortuq. Bir kun ul, o‘g‘lon otasig‘a aytg‘ondur bu so‘zni. Otasi fozil kishi erdi. O‘g‘lig‘a debdurki, onga degaysizki, bu forsiy baytniki,

b a y t:

[Shodlik bilan o‘tgan kun – kundir
Undan boshqa kun badgumonlar kunidir][1].

Arabiy til bila tarjima qilsun! Ul manga aytqach, men dedimki,

sh ye’r:

[Yigitning kuni shodlik bilan o‘tkazgan kunidir.
Undan boshqasi badbaxtlik va mashaqqatli kunlardir.
Saodatli kunlaringda visoldan bahramand
bo‘lginki, firoq ulug‘lar hayotining ostonasidagi dushmandir][2].

Va bu misra’ni iltimos qildilarki, arabiy tarjima qilki, misra’: [Oqqan ariqdan suv oqar][3]. Dedimki,

b a y t:

[Ariqda suv ko‘rdik. «Oqqan ariqdan suv oqar»,
deganlaridek, yana oqishiga umid qildik][4].

va debdurki, bizning masjidda yaxshi chiroylig‘ kishi bor erdi yigit, Abu Ahmad otlig‘. Iltimos qildilarki, oning uchun bir bayt aytg‘il! Muni ayttimki,

b a y t:

[Abu Ahmadning yuzi shunday chiroyliki, oy uning
g‘ulomi. Va ohu ko‘zlarining o‘qlari qalbni teshib o‘tadi][5].

Debdurki, mening olti ming baytdan ortiq arabiy she’rim bor rost vazni bila. El ilkida va ajzom

keynida. Va debdurki, arab shuarosining mutaqaddim va mutaaxxirindin yuz ming bayt xotirimda bor va debdurki, tong erta qori qoshig‘a borib, qiroat o‘rganur erdim va qaytg‘onda darsqa mashg‘ul bo‘lur erdim va olti varaq bitir erdim va azbar qilur erdim. Darsdin forig‘ bo‘lsam erdi, adib xizmatig‘a borur erdim. Ro‘zgorimni ulashib erdim. Andoqki, ro‘zgorimdin hech nima ortmas erdi. Balki hanuz nima darboist erdi. Ko‘prak kun namozi xufton o‘tguncha nahor erdim va debdurki, kecha chirog‘ yorug‘ida hadis bitir erdimki,non yemak farog‘atim yo‘q erdi. Onam nonni tikka qilib, og‘zimg‘a solur erdi nima bitirning orosida. Debdurki, Haq s. t. manga hofiza berib erdiki, har ne qalamim taxtig‘a kirsa, yodimdin chiqmas erdi va debdurki, men uch yuz ming hadis yod bilurman, yuz tuman isnod bila. Debdurki, ulcha men Mustafo s. a. v. hadisi talabida tortibmen, kishi tortmaydur. Bir manzil Nishoburdin Dizbodg‘achaki yog‘in yog‘ar erdi. Ikki bukanib hadis juzvin ko‘ksumda tutub, boribmenki, juzv o‘l bo‘lmag‘ay va debdurki, uch yuz kishidan hadis bitibmenki, bari sunniy ekondurlar va sohibi hadis, yo‘qki, mubtadi’ va sohibroy va bu kishiga muyassar bo‘lmaydur va debdurki, bas oliy ustodlarki, bitimaymenki, ul kishi sohibroy ekandur yo kalom ahli. Va debdurki, men tazkira va tafsir ilmida Xoja Yahyo Ammor shogirdimen va debdurki, men to‘rt yoshimda erdimki, Xoja Yahyo Ammor Quhandizlig‘larg‘a ayttikim, Abdullohni aziz tutungki, ondin imomlig‘ kelur.

404. Xoja Yahyo b. Ammor Shayboniy r. t.

Ul shayx Abu Abdulloh Xafifni ko‘rub erdi, Sherozda. Va Shayx ul-islom debdurki, ilm rusumin Hirotqa Xoja Yahyo qelturdi va majlis demak va dinni sunnat bila muvofiq qilmoq toza bo‘ldi. Aning sababidin Qozi Abu Amr Bistomiy Hiriga keldi va Xoja Yahyoning majlisig‘a bordi. Chun majlis tugandi, Xoja minbardin tushti va Qozi qoshig‘a bordi. Qozi ko‘rub ta’zim qildi va dedi: sharqdin g‘arbqa bahru barni kezdim, dinni tozavu tar Hirotda toptim! Nishoburda dag‘i buzurglarga aytqon ekandurki, [sharqu g‘arbni kezib, faqat Hirotda dinni sof holda ko‘rdim][1].

Qozi Abu Amr buzurg erdi, jahonning imom va yagonasi. Va shayx ul-islom debdurki, bir qatla Xoja Yahyo bemor bo‘ldi. Sihhat topqondin so‘ngra majlis qildi, kursisi ustida. Ikki qo‘l ikki yonidin qo‘llab, ani minbarga chiqordilar. Dedi: Yahyoyi Ammor o‘zining barcha izzin bu yig‘ochdin topibdur, ya’ni minbar va kursi. Va lekin emdi qila olman. Yana dediki, eshittimki, demishlarki, Yahyoyi Ammorning oyog‘in torttilar. Mustafo s. a. v. ning oyog‘in torttilar. Abubakr r.a. aning o‘rnig‘a o‘lturdi. Alo hazo Abi k. v. g‘acha mening oyog‘imni tortsalar, Abdulloh mening o‘rnumg‘a o‘lturg‘ay va mulhidlar va mubtade’lar dimog‘ig‘a urg‘ay, Shayx ul-islom debdurki, ul kun kursi tubida o‘lturub erdim Xoja manga ishorat qildi va dedi: Abdulloh ul go‘dakdur. Va so‘ngra Shayx Amu manga dediki, ul Abdulloh sen erding va al-haq andoq erdiki ul dedi. Xoja Yahyoyi Ammor to‘rt yuz ikkida dunyodin o‘tubdur.

405. Shayx Abdulloh Toqiy q. t. s.

Oti Muhammad b. Fazldur, Muso b. Imron Juraftiy murididur. Olim ermish ulumi zohir va ulumi botin bila. Shayx ul-islom debdurki, ul mening pirim va ustodimdur. Va hargiz hech hazrat ko‘rmaymen andin haybatliroq. Va men ani nobino ko‘rubmen. Va mashoyix ani ta’zim tutarlar erdi. Va ul karomatu valoyat egasi erdi. Va manga deb erdi: Abdulloh Abo Mansur, ul ne nurdurki Tangri sening ko‘nglungda qo‘yubdur? Kirq yil o‘tmak kerak erdiki, men bilgaymenki, ul ne nurdur.

406. Shayx Abulhasan Bishr Sijziy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul mening pirlarimdindur. Bu mashoyixdinki, men ko‘rubmen, uch kishi uluq edi: Xarakoniy va Toqiy. Va ikkalasi josus ul-qulub erdilar. Va biri Abulhasan Bishriy. Va ul sika erdi rivoyatda, sufiy erdi, mashoyixdin ko‘p ko‘rub erdi, andoqqi, ko‘rmak kerak. Haram mashoyixin ko‘rub erdi. Andoqki, Siyravoniy va Serkiy va Abulhasan Jahzam va Abubakr Tarsusiy va Abu Amr Nujayd va Yana mashoyixii ham. Va ul shayx Abu Abdulloh Xafifning murididur va Husriy va Nuriy

va Abu Zur’a Tabariyni ham ko‘rub erdi.

407. Koko Abulqasr Bustiy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul buzurg kishi erdi va mening ayyomimda erdi. Va men kichik erkanda otam odina kuni meni pirlar va mashoyix qoshig‘a eltar erdiki, ilig boshimg‘a surtarlar erdi. Va Abulqasr qoshig‘a eltmas erdi, nevchunki, ul malomat ahli erdi va otam qurro. Ammo Shayx Abulhasan Tiyshasov va aning inisi Shayx Muhammad Koko Abulqasrning muridlari erdilar. Va ro‘shan pirlar erdilar va azim na’ralari bor erdi. Va aning barcha muridlarida azim qichqirmog‘lar bor erdi.

408. Koko Ahmad Sunbul va inisi Muhammad.

Xoja r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Koko Ahmad Sunbul qardoshidin buzurgrak erdi, Muhammad Xojadin. Va bu ikki pir ham Shayx ul-islom zamonida ermishlar va aning holotig‘a yiroq muta’ammil.

409. Abu Mansur Muhammad Ansoriy r. t.

Shayx ul-islomning otasidur va Shayx Sharif Hamzayi Uqayliyning muridi. Va Abulmuzaffar Tirmiziy xidmatin qilib erdi. Shayx ul-islom debdurki, Shayx Ahmad Kufoniy manga dedi: muncha safarlar qilding va har taraf kezding, o‘z otangdek ko‘rmading? Va debdurki, men yetmish yildin ortiq ilm o‘rgandim va bitidim va ranj torttim e’tiqodda. Ul barchani otamdin o‘rganib erdim. Va debdurki, otamning menda bir sirri bor erdi, azim. Manga deb erdiki, Abdulloh, necha degaysen, Fuzayl Iyoz va Ibrohim Adham sendin fozil kelur va Ibrohim Adham. Otam meni bir voqe’da ko‘rub erdi va manga aytmas edi. Va der erdiki, har kun ta’bir qilurmen, rost kelur! Va Shayx Abu Mansur to‘rt yuz o‘ttizda Balxda dunyodin o‘tti va Sharif Hamzayi Uqayliyki, aning piri erdi, qoshida dafn qildilar.

410. Abu Mansur Suxta r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Abu Mansur Suxta pire erdi Quhandizda. Vaqte o‘zin kuydurmakka berdi, aning uchun kuymadi va anga Suxta ot qo‘ydilar. Sodiq kishi erdi va salobatlik.

411. Shayx Ahmad Chishtiy va inisi Xoja Ahmad Ismoyil q. s.

Shayx Ahmad Chishtiy Abu Ahmad Abdoldin boshqadur, nevchunki ul mutaqaddimdur. Va shayx ul-islom ani ko‘rmaydur. Va Xoja Ahmad Mavduddin ham boshqadur, nevchunki, bu mutaaxxirdir va Shayx ul-islomni ko‘rmaydur. Shayx ul-islom debdurki, men hech kishi ko‘rmay-men Ahmad Chishtiydin tamomroq va quvvatliroq, malomat tariqida. Va Chisht mashoyixi barcha mundoq ekandurlar, xalqdin bebok va botinda jahon sodoti. Uch qatla bodiya boshig‘a boribdur va yana qaytibdurki, o‘zidin ul azimatda tamom ixlos topmaydur. Alarning barcha holi ixlos va riyo tarki bila erdi. Hech nav’ shar’da sustlik ravo ko‘rmas erdilar, tahovung‘a ne yetkay? Va ul Shayx Ahmad Najjorni ko‘rub erdi. Shayx ul-islom debdurki, Ahmad Chishtiy buzurg erdi, meni ta’zim tutar erdi va hurmatki hech kimni tutmas erdi. Ul kishiki oq saqolin mening ayog‘img‘a surtti ul erdi. Va Shayxul-islom debdurki, hech kishi ko‘rmayman diy-dor va farosatda Ahmad Chishtiyning qardoshidek. Ul mening xidmatim qilur erdi. Va aning zikrida nisbat Shayx ul-islomg‘a irodatida ko‘p tarix va maorif surubdur. Va Kavoshonlig‘ Bishr bobidakim, kabutarxona aning ishorati bila yiqilibdur va Axmad Marjoniydek va Ahmad Kahdistoniydekki, tut yig‘ochi shoxi ustida raqs qilur erdi va ul zamon mashoyix va avliyosi bila suhbatlar tutulg‘on va muvofaqotlar qililg‘onni ne nav’ sharhlarki qilibdur, «Nafahotul-uns»da bitiklikdur.

412. Shayx Ahmad Hoji r. t.

Shayx ul-islom deblurki, ul mening pirlarimdindur. Shayx Husrinni ko‘rub erdi va Abulhasan

Tazariyni dag‘i. Va alardin hikoyat der erdi. Andin so‘rdumki, Husriydin hech nima yod bilursen? Dedi, bale! Mashoyixdin biri bila Husriy qoshig‘a kirduk, yegulik nima yo‘q erdi. Shayx Husriy der erdiki, [biz sening ulovingmiz, ey Xojam, ulovingga ozuqa ber, ey Xojam!] va ovuch bir-biriga urar erdi. Shayx ul-islom dedi: anga boqmaki, alafqa muxtoj ekandur. Ani ko‘rki, andin o‘zgaga hojati yo‘q ekandur.

413. Shayx Abu Salama Bovardiy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, Bu Salam Bovardiy xatib, sufiyi sayyoh mening pirlarimdindur. Musin pir erdi va mashoyixdin ko‘pini ko‘rub erdi va Abu Abdulloh Rudboriydek va Abbos Soyir va Abu Amr Nujayd va Abu Ya’qub Nahrajuriy q. a.

414. Abu Ali Kayyol r. t.

Shayx ul-islom debdurki, men Abu Ali Kayyolni ko‘rubmen, ammo kichik erdim, ani tanimaydurmen. Buzurg ermish va Siystonning shayxidur.

Va malomat tariqida ermish. Ani karomot bila sitoyish kilsa bo‘lmag‘ayki, ul karomotdin ulug‘roq erdi. Ul va Shayx Ahmad Nasr va Abu Said Moliniy uchalasi so‘filar saroyida bo‘lub erdilar va men hozir.

415. Abu Ali Zargar r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Abu Ali Zargar dag‘i mening pirlarimdindur va ulug‘ so‘fiy erdi. Abu Abbos Qassob Omuliyning muridi. Va andin hikoyat aytur erdi.

416. Abu Ali Butagar r. t.

Shayx ul-islom debdurki, ul dag‘i mening pirlarimdindur. Javod kishi erdi. Va Shayx Abulhasan Misriyni ko‘rub erdi, andin hikoyat qilur erdi.

417. Shayx Abu Nasr Qabboniy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul yaxshi safarlar qilibdur va ko‘p mashoyixii ko‘rubdur. Shayx Abu Amr Akkofni ko‘rubdur va anga xidmat qilibdur Urdunda. Va Shayx Abu Amr Nujaydni va Shayx Abu Nasr va Abdulloh Monakni ko‘rub erdi, Fors Arg‘onida. Shibliy shogirdi alardin manga hikoyat qildi.

418. Shayx Ismoil Nasrobodiy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul Shayx Abulqosim Nasrobodiyning ulug‘ o‘g‘lidur. Andin hadisim bor va otasidin ham.

419. Shayx Abu Mansur Gozar q. s.

Shayx ul-islom dediki, ul shukuhlik darvesh erdi va mashoyixdin ko‘pini ko‘rub erdi. Va Shayx Amudin ulug‘roq erdi va Shayx Ahmad Najjor Astrobodiyni ko‘rub erdi va Shayx Abu Nasr Sarrojni dag‘i ko‘rub erdi.

420. Shayx Ismoil Dabbos Jiraftiy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, ul mening pirlarimdindur. Va rushan pire erdi. Muhaddis Shayx Mu’min Sheroziyni ko‘rub erdi va andin so‘zlari bor erdi va aytur erdi.

421. Shayx Abusaid Muallim r. t.

Shayx ul-islom dediki, Abusaid Muallim ham rushan pire erdi, yaxshi ko‘ngullik va sodiq oyoq muraqqa’ kiyur erdi. Va Shayx Ibrohim Kayyolni ko‘rub erdi.

422.Shayx Muhammad Abu Hafs Kuratiy r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Shayx Muhammad Abu Hafs buzurg erdi va azim vaqt egasi va mening pirlarimdindur. Bir qatla ul bemor bo‘ldi. Qavm aning qoshig‘a bordilar. So‘ze o‘tar erdi. Birav aning qoshida da’vo qildi. Va ul toqat kelturmadi va g‘ayrat anga zo‘r kel-turdi. Sekrib qo‘pti va dedi: Haq, Haq! Chun soate o‘tti, o‘ziga keldi va dedi: [astag‘firulloh, astag‘firulloh, astag‘firulloh!][1] Zaif bo‘lubmen va uzr qo‘ldi.

423.Shayx Amu r. t.

Kuniyati Abu Ismoil va oti Ahmad b. Muhammad. Hamzat us-so‘fiy. Shayx ul-islom debdurki, Shayx Amu Xuroson xodimi erdi. Mening piri farshovimdur, ya’ni so‘fiya odob va rusumin andin o‘rganibmen. Chun safarda bo‘lsa erdi nomalar manga yuborur erdi. Jahon mashoyixin ko‘rub erdi. Va Shayx Abulabbos Nihovandin anga Amu ot qo‘yubdur, andoqki o‘tti. Va Shayx Abubakr - Farro’ni Nishopurda ko‘rubdur. Va avvalg‘i safarda: Islom hajji Shayx Ahmad Nasriy Tolqonin bila qilibdur. Va Shayx Abubakr Folizbonni ko‘rubdur Bu xoroda. Va Shayx Abubakr Mufidni ko‘rubdur. Va alar ikkalasi Junayd q. s. ni ko‘rubdurlar. Va Shayx Sirvoniy bila suhbat tutubdur. Va ul zamonda Haramning barcha mashoyixi bila andoqki, Shayx Abulhasan Jahzam Hamadoniy va Shayx Abulxayr Habashiy va Muhammad Soxariy va Juvolgar va Shayx Abu Husoma va Shayx Abulhasan Sarakiy va Shayx Abulabbos Nasoyi va Shayx Abulabbos Qassob, va Shayx Abulfaraj Tarsusiy q. a. ni ko‘rub erdi va ani navozishlar qilib erdilar. Va ul alarg‘a shoyista xidmatlar qilib erdi. To‘rt yuz qirq birda rajab oyi dunyodin o‘tti va yoshi to‘qson ikkiga yetib erdi.

424.Shayx Ahmad Kufoniy r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Ahmad Kufoniy Shayx Amuning xodimi erdi. Va ko‘p mashoyixii ko‘rub erdi va yaxshi safarlar qilib erdi. Ul manga dediki, biz sendin bildikki, kimlarni ko‘rgan ermishbiz, ya’ni sen alarni tanigan ermishsen, haqiqat bila.

425.Abulhasan Najjor r. t.

Shayx ul-islom debdurki, ul Quhandizda bir duradgor erdi. Shukuhliq kishi erdi va buzurg. Va el ani tanimas erdilar. Bir vaqt ani Makkada ko‘rubdurlar, ellik rikvador bila aning muridlaridin. Ul manga hikoyat qildi. Hiloldinki, Husriyning hodimi, erdiki, Husriy dediki, [quyosh faqat mening ijozatim bilan chiqadi]. Bu yerda Hazrat Maxdumiy Hazrat Shayx ul-islom holot va haqoyiq va maorifidin ko‘p ado qilibdurlar «Nafohot ul-uns» da. Tilagan kishi ul kitobni ko‘rsun.

426.Shayx Abullays Fushanjiy q. s

Shayx ul-islom debdurki, Abullays Fushanjiy buzurg va orif ermish. Ayoq yalang yurur ermish. Fushanjdin Hiriga kelibdur va qolibdur. Sabab bu ermishki, biyobondin o‘tarda bir zaifa bir qabr boshida farzandin tushub mundoq deb yig‘lar ermishki, ey onasining joni, voy onasining yolg‘izi. Anga hole voqe’ bo‘lubdur va Hirida qolibdur. Shayx ul-islom debdurki, Abu Voyil Shaqiq b. Salama Kufiy tobeinning akobiridin, navha unin eshitsa, yig‘lar erdi. Bu toifadin biri debdurki, [yig‘idan lazzatlanish-yig‘ining qiymatidir][1]. Shayx ul-islom debdurki, sendin yiroq tushgan hasrat yig‘isidin lazzat topar, seni topqan ne topqay! Abullaysning qabri Hirining xiyobonidadur va muridlari quburi aning qabri tegrasida.

427.Muhammad b. Abdulloh Gozuriy-Hiraviy q. s.

Bu qavmdindur. Hirotda buzurg ermish. Valoyat va karomot iyasi. Xoja Abu Abdulloh Zahlning anga irodati bor ermish va aning uchun azim ishlar qilibdur Bir qatla anga dediki, bu ishlarni qilasan va oxir bu shahrdin sen meni chiqarg‘ungdur. Ul dedi: men? Dedi: sen! Ul mutaajjib bo‘ldi. Muddate chun o‘tti, chun Muhammad Abdulloh Gozuriy–Hiraviy maorif va nasoyihni muassir aytur erdi va dunyo

tarhiga dalolat qilur erdi va el koʻngliga asar qilib, dunyo ishidin ilik tortorlar erdi. Xoja Bu Abdulloh ani shahrdin uzr qoʻldiki, sening soʻzing elga ziyon qilur, ya'ni el ishdin ilik tortsa, podshoh uchun oz nima hosil boʻlur va Bu Xoja Abdulloh toʻrt yil Shibliy xizmatini qilib erdi va koʻp nima anga iysor qilib erdi va Shibliy ani Xuroson javodi der erdi va hofiz va siqa erdi.

428.Qurbanj r. t.

Shayx ul-islom debdurki, ul pire erdi, darvesh va valoyat sohibi. Va qabri bizing Gozurgohdadur. Bir kun Xoja Abu Abdulloh Abu Zahlgʻa yetdi. Dediki, ey Abu Zahl oʻgʻli, qachon boʻlgʻayki, seni yuqori oʻlturqaylar va meni quni? Xoja hushyor erdi, bildiki, buzurg kishidur. Dedi: ey Shayx, boʻlaolmagʻayki, seni yuqori oʻlturtqaylar va meni quyi. Shayx dedi: Abu Zahl oʻgʻli ranjur boʻlma, ne mazasi boʻlgʻayki, meni yuqori oʻlturtqaylar va seni quyi? Bir haftakim oʻtti, Xuroson hokimi ani tutub, qoʻrgʻonigʻa yubordiki, bir toqta kivurub eshikni qoʻpordilar, to anda dunyodin oʻtti.

429.Xoja Xayrcha r. t.

Shayx ul-islom debdurki, Xayrcha bir qul erdi. Qabri Gozurgohdadur. Xojasi andin xavoriqi odotu karomot mushohada koʻp qilur erdi. Ani ozod qildi. Gozurgohga keldi va bir uygʻina yasadi va anda muqim boʻldi. Aning munojotidurki, «Xudovando, har kimga dunyo matoindin siymu zar kerak bergil va har kimga yer va qul kerak bergil, Xayrchagʻa sen bassen!». Shayx ul-islom debdurki, ul garro holi mahalli gʻayratdur, ammo Haq ixtiyori bandalargʻa besababu illatdur. Bilolkim, habashe qul erdi, tiladi va Abu Jahl va Utba va Shaybaniki, Makka sodoti erdilar, soʻrdi: ul ne qildi va bular ne qilib erdilar, hech barcha aning inoyat va qismatigʻa vobastadur. Va kishiga anda soʻz yetmas. Shayx ul-islom debdurki, harkim bemor boʻlsa erdi yo bir dardgʻa uchrasa erdi, Xayrchadin fotiha tilar erdi. Ul oʻqigach, filhol shifo topar erdi. Bir qatla bir donishmandning tishi ogʻrib erdi, anga bordi. Ul «Al-hamd» oʻqugʻach hamul dam sihhat topti. Ul donishmand dediki, Xayrcha, «Alhamd»ni rost oʻqumaysen, men sanga oʻrgatay, to tuz oʻqigʻaysen! Ul dediki, sen koʻnglungni tuzat! Shayx ul-islom dedi: men Xaraqoniydin «Al-hamdu lilloh» eshittimki, oʻqidiki, ummiy erdi va «Al-hamd» deyolmas erdi, ammo roʻzgorning sayyid va gʻavsi erdi.

430.Abu Abdulloh Ahmad b. Abdurrahmon Nasr Moliniy q. s.

Ul Hirot mashoyixining ulugʻlaridindur, Shayx Amu aqronidin. Aning bila Islom hajji qilibdur. Va Haram mashoyixin koʻrubdur va suhbat tutubdur. Va zohiru botin ulumi bila orasta ermish va karomotu valoyat iyasi. Aning ashobidin biriga ul debdurki, Makkaga bor, falon kishiga mundoq va mundoq de! Ul biriecha qadamki urubdur, oʻzin Makkada koʻrubdur va ul kishiga Shayxning paygʻomin yetkurubdur. Va namozdin burun: Shayx qoshigʻa kelibdur. Anda yetkan mahalda tilagandurki, haj guzorlagʻay. Ul kishi debdurki, Shayxning soʻzi xilofin qilmaki, yonsang, bora olmagʻaysen va uch oy yoʻlda qolgʻaysen. Qabri Hirotning Molinidadur. Shayx ul-islom avoyil holda aning ziyoratigʻa koʻp borur ermish.

431. Abu Nasr b. Abu Ja'far b. Abu Ishoq Hiraviy Xonchabodiy q. s.

[Abu Nasr Muhammad b. Ahmad b. Ja'far deb ham ataydilar]1. Zohiru botin ulumigʻa olim va roʻzgor faqihi. Va asli Kirmonligʻdur. Va tavbasining sababi bu ermishki, bir kun birav bir fatvo kelturdiki, ne buyurgʻaylar, Islom aimmasi bu mas'aladakim, biraz yigitlikda gʻazab yuzidin bir necha yigʻoch bir eshakka urubdur. Ul eshak yuz kiyn qilibdurki, ey Xoja, sening bu zulmung ham mazlumgʻa oʻtkay, ammo tongla bu gʻazab surmakning uhdasidin nechuk chiqqungdur? Yigirma yildurki, ul kishi yigʻlaydur va holo koʻzining suyi qongʻa mubaddal boʻlubdur, oyo aning tahorat va namozining hukmi nechuk boʻlgʻay? Chun Abu Nasr bu fatvoni oʻqudi, bu soʻz haybatidin behush boʻldi. Chun hushigʻa keldi, ul kishi suhbati ihrome bogʻladi. Chun aning manziligʻa yetdi, ul kishi ul yigʻlamoq va anduhdin oʻlub erdi. Bir qari kishi koʻrdi: nuroniy va qon koʻzidin oqib, yuzida bogʻlab erdi, ammo ul kishi kular

erdi. Abu Nasr ul kulgudin taassub qilib, ul kishi takfinu tajhizin qilib, yig‘lab borur erdi. Bir qari kishi anga yo‘liqib dedi: ey yigit, nega yig‘laysen? Magar Kitob ullohdin oyate sanga yetibdurki, aning bila amal qilmag‘aysen. Bu yig‘lamog‘ing etagi kulganlar yig‘lamog‘ig‘a o‘xshar, yo‘qki ko‘ngul qo‘yganlar yig‘lamog‘ig‘a.

Chun ul pir bu so‘zni aytib o‘tti: Abu Nasrga dard ustiga dard va so‘z ustiga so‘z ortti. Va har nedakim erdi, barchadin chiqti va safar va sayohat ixtiyor qildi. Va derlarki, uch yuz pir suhbatig‘a yetib, barchag‘a xidmat qildi. Va Xizr a. s. suhbatig‘a musharraf bo‘ldi. Va Makka va Madina haramida Bayt ul-Muqaddasda riyozat tortti va ibodat qildi va oxir Hirotqa murojaat qildi. Va umri yuz yigirma to‘rtga yetti va besh yuzda dunyodin o‘tti va qabri Xonchaboddadur, yuzoru va yutabarraku bihi.

432. Sulton Majduddin Tolba r. t.

Debdurlarki, cherikchi va sipohiy ermish. Va tarku tajridu tavakkulda yagona ermish. Darvesh Muhammad Churgarki, abdoldin ermish va masjidi Jome’da bo‘lur ermish, bir kun ibriqidin suv to‘kulgon ermish va o‘zi yotqon ermish. Masjid xodimi ul suvni ko‘rub sog‘inib-durqi, darvesh bavl qilibdur. Ani andoq urubdurki, a’zosi majruh bo‘lubdur. Darvesh bir oh urubdur va ketibdur. Bir o‘t paydo bo‘lubdur va masjidqa, chun yiqochdin ekandur, tutashibdur va andin ul bozorg‘a tu-shubdurki, ani «jumlafurushlar bozori» der ermishlar. Sulton Majduddin Tolbag‘a bu xabarni beribdurlar, darvesh keyincha boribdur. Chun anga yetibdur, debdurki, musulmonlarning shahrin ne uchun kuydurursen? Darvesh yonibdur va ko‘zi ashkidin necha qatra ul o‘tka to‘kubdur, ul ut o‘chubdur. Bu ruboiyni debdurki,

r u b o i y:

[Kechagi olov yonishni qalbimdan o‘rgangan edi,
agar ko‘z yoshlarim yordamga kelmaganda,
Hirotning barcha sotuvchilari kuyib ketardi][1].

Derlarki bir qatla azim sel keldi, andoqki, yaqin erdiki, Hirot shahrin suv eltkay. Sulton Majduddin Todbog‘a ayttilar. Dedi: mening xirqamni sel ilayiga qo‘yun! Andoqki qildilar, sel filhol qaytti. Imom Faxruddin Roziy aning zamonida ermish, aning suhbatig‘a taqarrubu tabarruk tilar erdi. Mazori Hiriy shahrida Xushk va Feruzobod darbi orasidadur.

Va Shayx Mahmud Ushnuviy rahimahullohki, «G‘oyat ul - imkon va ma’rifat uz-zamon val makon» risolasining musannifidur, aning gunbadida madfundur. Va bu Shayx Mahmud Mavlono Shamsuddin Muhammad b. Abdulmalik Daylamiyning ashob va shogirdlaridindurki, muhaqqiqlarning akobir va mashoyixidindur. Va haqiqatda ko‘p mufid musannafoti bor.

433. Abu Abdulloh Muxtor b. Muhammad b. Ahmad Hiraviy q. s.

Hirot mashoyixining akobiridindur. Zohir ulumi va botin ulumig‘a jome’. Valoyat va karomot iyasi. Derlarki, qabri lavhida mundoq bitilgan topibdurlarki, ul ikki yuz yetmish yettida dunyodin o‘tubdur. Ul debdurki, taomni andoq yegilki, sen oni yegaysen, yo‘qki ul seni! Agar sen oni yesang, barcha nur bo‘lg‘ay va agar ul seni yesa, barcha dard bo‘lg‘ay va to‘nni andoq kiyki, ruunat va faxr va xayloni sening nihodingda kuydurgay. Yo‘qki, ul illatlar o‘ti shu’lasin yorutg‘oy. Debdurki, har ishda bo‘lsang andoq bo‘lki, Azroil boshingg‘a kelsa, ul ishdin o‘zga ishga borg‘uliq bo‘lmag‘oysen va bori holating sening bila bo‘lg‘ay. Agarchi taom yemak bo‘lg‘ay, yo muboh amal qilmoq kerak. Botining xolisanlilloh bo‘lg‘ay va niyating ul amalda Haq s. t. ning rizosi bo‘lg‘ay va shar’ rioyati. Debdurki, Ubudiyat asli uldurki, zohirda andoq bo‘lg‘aysenki, sendin barcha shar’ zohir bo‘lg‘ay va botinda andoq bo‘lg‘aysenki, anda g‘ayr yodining sig‘mog‘i bo‘lmag‘ay va anga murid va ashobki, karomat va valoyat iyasi bo‘lg‘ay ko‘p erdi. Abu Ali Muxtor Alaniy Husayniy r. a. dek. Va ul sayyid imomg‘a mashhurdur va pirining oyog‘i sari madfundur va faqih Abu Usmon Marg‘aziydekki, g‘oyat shavq va

so‘xtaliydin Shavqso‘xtag‘a mashhurdur va anga g‘aroib holot va ajib vaqoe’ ermish va Xonchabod go‘ristonida Abduvohid b. Muslimning ayog‘i sari madfundur.

434. Shayx Abu Zar Buzjoniy q. s.

Shayx ul-islom debdurki, men bir kishi ko‘rubmenki, ani ko‘rubdur. Sayyode erdi Buzjonda, qulun tutquchi. Base sa’y qildimki, ani toptim va ko‘rdum. Abu Zar zohir karomoti iyasi erdi. Buzjonda bir madrasa bor erdiki, Shayx Abu Zar aning sokinlarin avliyo der erdi. Shayx bir kun ul madrasa eshigida yotib erdi. Madrasa xodimi keldi. Shayx so‘rdikim, avliyo ne ishda? Xodim dediki, bu kun yeguluk topmaydurlar. Ul madrasada bir tut yig‘ochi bor erdi. Xodimga dediki, chiqib ul yig‘ochni silk! Xodimki, chiqib silkdi, yafrog‘larki tushti, xolis oltun erdi. Shayx qoshig‘a kelturdi. Shayx buyurdiki, yoronlar uchun taom ol! Va aning ash’oridindur.

B a y t:

[Bizni o‘z jinsmizdan bo‘lganlar taniydi, ammo qolganlar inkor qiladilar][1].

Va ham aning nazmlaridindur:
[Sen azal ilmi bilan aybimni ko‘rdingu sotib ochding.
Sen ilmda o‘sha-o‘shasan, men ham aybdorlikda o‘shaman.
Endi o‘zing tanlaganingni o‘zing rad etma!][2].

435. Shayx ul-islom Ahmad Nomaqiy Jomiy q. s.

Kuniyati Abu Nasr Ahmad. b. Abulhasandur va Jarir b. Abdulloh Jabaliy farzandlaridindur raziyollohu anhuki, Rasul s. a. v. vafot qilgan yil musulmon bo‘ldi. [Alloh undan rozi bo‘lsin, dedi: Islomni qabul qilganimdan beri Rasulullo h s. a. v. ziyoratidan mahrum qilmadi va doimo menga tabassum bilan boqardi][1]

Va ul baland qadu bisyor jamil erdi. Amir ul-mu’minin Umar r. a. anga bu ummatning Yusufi ot qo‘yub erdi. Hazrat Shayxqa Hazrati Haq s. t. qirq ikki fyarzand berib erdi, o‘ttuz to‘qquzi o‘g‘ul va uchi qiz. Shayx-ning vafotidin so‘ngra o‘n to‘rt o‘g‘ul va uch qiz boqiy erdi. Va bu o‘n to‘rt o‘g‘ul barisi olim va omil va komil va sohibi tasnif va sohibi karomot va valoyat. Va xalqning muqtadosi-yu peshvosi erdilar. Va o‘zi ummiy erdi va yigirma ikki yoshida tavba tavfiqi topti va tog‘qa chiqdi. Va o‘n sakkiz yil riyozatlar tortqondin so‘ngra qirq yoshida ani xalq ichiga yuboribdurlar va ladunniy ilm eshiklarin yuziga ochibdurlar. Va uch yuz toy qog‘azdin ortuqdurki, tavhidu ma’rifat ilmida va sirru hikmat ma’rifatida va tariqat ravishida va haqiqat bayonida tasnif qilibdurki, hech olim va hakim anga e’tiroz qilmaydur va qila olmaydur. Bu tasnifot barcha oyoti Qur’oniy va Rasul s. a. v. axbor va ahodisi bila muqayyad va muayyaddur. Hazrat Shayx q.s. «Siroj us-soirin» otlig‘ kitobida kelturubdurki, qirq yoshimdan beriki, meni xalq orasig‘a yuboribdurlar, bu kungachakim, oltmish ikki yoshimdamen va bu kitobni farmon bila jam’ qiladurmen, yuz sakson ming kishidurki, bizing ilgimizda tavba qilibdur. Va andin so‘ngra dag‘i ko‘p yil Hirotda ermishlar. Shayx Zahiriddin Isoki, Shayxning farzandlaridin biridur, «Rumuz ul-haqoyiq» kitobida kelturubdur. Bizing Shayx iligida umrlarining oxirig‘acha olti yuz ming kishi tavba qilibdurlar, ma’siyat yo‘lidin toat tariqig‘a kiribdurlar. Va Shayxning Xirqa piri Hazrat Shayx Abu Said Abulxayr q. r. dur. Va aning sharhi budurkim, Hazrat Shayx Abu Saidqa bir xirqa bor erdikim, anda toat qilur erdi.

Mundoq debdurlarki, ul xirqa Amir ul-mo‘minin Abobakr Siddiq r. a. din meros qolib erdi mashoyixqa. To navbat alarg‘a yetib erdi, alarga ko‘rguzdilar va amr qildilarki, ul xirqani Ahmadqa taslim qil! Shayx Abu Tohirg‘akim, alarning farzandi erdi, vasiyat qildilarkim, mening vafotimdin necha yildin so‘ngra bir, navxat buyuk buyluq, azraq ko‘zlug‘ Ahmad otlig‘ yigit sening xonaqohingdin kirgay va sen ashob orasida mening o‘rnumda o‘lturmish bo‘lg‘ansen, zinhorkim, bu

xirqani anga taslim qilg‘aysen. Alarning umri chun oxir damg‘a yetti, Shayx Abu Tohirg‘a bu orzu bo‘lur erdiki, valoyateki alardadur, Shayx Abu Tohirg‘a topshirg‘aylar. Alar ko‘z ochib dedilarki, ul valoyateki, siz tama’ qilib erdingiz, ani yana biravga topshirdilar va bizing shayxlig‘imiz alamin bir xarobote eshikiga urdilar va isheki bizda erdi, anga taslim qildilar. Va so‘zlarki, el bilmadiki, hol nedur, to ulki, alar vafotidin necha yildin so‘ngra bir kecha Shayx Abu Tohir voqe’ada ko‘rdikim, buzurgvor otalari jam’i ashob bila musta’jal boradurlar. Ul so‘rdikim, yo Shayx, ne ta’jildur? Alar dedilarki, sen dag‘i kelki, Qutbi-avliyo keladur. Ul tiladiki, borg‘ay, uyg‘ondi. Yana bir kun Shayx Abu Tohir xonaqohida o‘lturub erdikim, bir yigit kirdi, ham-ul sifat bilaki, Hazrati Shayx vasiyat qilib erdi. Shayx Abu Tohir filhol bildi va e’zozu ikrom qildi, ammo andoqki, bashariyat muqtazosidur. Mutaammil bo‘ldiki, andoq buzurgvor ota xirqasin nechuk iligidin chiqaray? Ul yigit dedi: Xoja, amonatqa xiyonat ravo ermas. Shayx Abu Tohir xushvaqt bo‘ldi va borib ul yerdinki xirqani Hazrat Shayx o‘z muborak iligi bila qozuqdin osib erdilar, olib kelturub, ul yigitning egniga soldi. Va debdurlarki, ul xirqani mashoyixdin yigirma ikki kishi kiyib erdi, oxir Shayx ul-islom Ahmad Jomg‘a havola bo‘ldi. Andin so‘ngra kishi bilmadiki, ul xirqa qayon bordi? Shayx ul-islom Ahmaddin so‘rubdurlarki, mashoyix maqomotin eshitibbiz va kutublarin ko‘rubbiz, hech qaysidin bu nav’ holotki, sizdin zohir bo‘lur, bo‘lmaydur. Dediki, biz riyozat vaqtida har riyozatki eshittik avliyoulloh tortibdurlar, torttik va anga nima mazid ham qilduk. Haq s. t. o‘z fazlu karami bila har ne parokanda alarg‘a berib erdi, bir yo‘la Ahmadqa berdi. Har to‘rt yuz yilda Ahmaddek birav paydo bo‘lg‘ay, izzu taoloning inoyati osori anga bu bo‘lg‘ayki, xalq ko‘rgaylar. [Bu rabbimning fazlu karamidandir][2]. Hazrat Shayx karomotu maqomotining sharhi andin ko‘prokdurki, bu muxtasarda ado topqan, ne uchunki, bovujudiulki, alar maqomotining jam’ini ellik-oltmish juzv bitibdur, ulcha bor, sharh qilaolmaydur va ul maqomot mashhuridur. Agar holotig‘a yaxshi muttale’ bo‘lay degan kishi ul kitobni o‘qimoq kerak. Shayxning valodati to‘rt yuz qirq birda ermish va besh yuz o‘ttiz oltida dunyodin o‘tubdur.

436. Abu Tohir Kurd r. t.

Ul Xizr a.s. bila suhbat tutar ermish va Shayx ul-islom Ahmadqa aning bila muvonasat bor ermish. Shayx ul-islom debdurki, bir kun mendin nafs zardolu tiladi. Dedim: bir yil ro‘za tutqil, sanga zardolu beray! Bir yildin so‘ngra nafs taqozo qildiki, men va’dag‘a vafo qildim, sen ham qil! Ul bog‘ sari bordimki, otamdin meros qolib erdi, ko‘rdumki bir zardoluni shag‘ol yebdur va butun tashlabdur. Oldimki, va’dag‘a vafo qilg‘aymen, nafs far’yod qildiki, ne ish qilg‘ungdur, manga hech zardolu kerakmas! Emdiki, nafs andin tamom kechti, bir necha zardolu yedim va bir nechani ko‘tardim va Shayx Abu Tohir qoshig‘aki mening piri suh-batim erdi va ollida qo‘ydum. Shayx o‘ruk sari boqdi va dediki, Ahmad, bizing uchun vaqf o‘rugi kelturubsen! Dedim: ey Shayx, vaqf emas va mening otam mulkida o‘zi tikkan va manga meros yetgan daraxtdindur va men o‘z iligim bila uzubmen. Shayx musallam tutmadi va o‘g‘liya ayttiki, bizing qo‘ylardin bir qo‘y olib kel va o‘ltur va shurboe pishirki, ochlig‘ safrosi Ahmadning dimog‘i va boshig‘a urubdur, bilmavdurki, ne deydur va ne qiladur. Men dam urmadim, to ul taomni kelturdilar. Ko‘nglumg‘a yetkurdilarki, bu taomdin yemaki, vajhdin emas. Men xayol qilur erdim va nondin ilig urub yer erdim. Ilhoq qildiki, chun aytki, ne uchun yemaysen? Ulcha ko‘nglumga solib erdilar, ayttim. O‘g‘lin tiladi va ul et kayfiyatin so‘rdi. O‘g‘li ayttiki, qo‘ylar yiroq borib erdilar, falon qassobdin oldim. Ul qassobni tilab, et kayfiyatin so‘rdi. Dedi: ul bir qo‘y eti erdiki, shihna zulm bila biravdin olib erdi, manga berdiki, o‘ltur, yarimin shihna eltti, yarimi qolib erdiki, shayxzoda olib keldi. Shayx Abu Tohir boshin quyi soldi. Va yig‘lamoq manga zo‘r kelturdi va qo‘ptum. Bir savma’aki, ul yaqinda erdi, kirdim, yig‘lamog‘imni tiya olmay yig‘lar erdimki, Shayx Abu Tohir kirdi va o‘lturdi. Va men ko‘nglumda munojot qilur erdimki, Xudoyo, andoqki, qo‘y ishini anga ma’lum qildurdung, o‘ruk ishin ham zohir qil! Bu asnoda Xizr a. s. kirib keldi va dedi: yo Abo Tohir, Ahmadning mulkiga vaqf ot qo‘ydung va shubhaliq taoming‘a halol ot qo‘ydung, muni kimdin o‘rganibsen? Sening Ahmadqa hech boz-xosting yo‘qdurki, ul buyuk poyadin borur.

437. Shayx Abu Ali Formadiy q. s.

Oti Fazl b. Ahmaddur. Xurosonning Shayx ush-shuyuxi erdi. Tazkiru mav'izatda ustod imom Abulqosim Qushayriyning shogirdidur va tasavvufda intisobi ikki jonibdadur. Biri Shayxi buzurgvor Shayx Abulqosim Gurgoniy q. s. g'a va yana biri Shayx ul-mashoyix Abulhasan Xaraqoniy r. g'aki, o'z zamonining qutbi erdi. Shayx Abu Ali debdurki, yigitligim ibtidosida Nishoburda ilm tahsilig'a mashg'ul erdim, eshittimki, Shayx Abu Said Abulxayr Mehnadin kelib, majlis aytadur. Men bordim, to ani ko'rgaymen. Ko'zumki oning muborakja-molig'a tushti, vola va oshiq bo'ldim va bu toifaning muhabbati ko'nglumda ko'prak bo'ldi.

Bir kun madrasada, o'z hujramda o'lturub erdim. Shayxning diydorining orzusi ko'nglumga tushti va ul vaqt emas erdiki, Shayx chiqqay. Sabr qila olmadim. Qo'pdum dag'i chiqtim. Chun chorsug'a yettim. Shayxni ko'rdumki, qolin el bila borur erdi. Men dog'i alarni erishaborur erdim, behud. Va shayx bir yerga kirdi va ashob dog'i kirdilar, men dog'i kirdim va bir go'shada o'lturdum. Ondoqki, shayx meni ko'rmas erdi. Chun samo'g'a mashg'ul bo'ldilar. Shayxqa vaqt xush bo'ldi va vajd anga zohir bo'ldi va to'nin chok qildi. Chun samo'din forig' bo'ldilar. Shayx to'nin soldi va ashob yirtib ulashadur erdilar. Shayx bir yeng bila bir ungurin olib chorladiki, ey Bu Ali Tusiy, qaydasen? Kel! Men javob bermadim va dedimki, meni ko'rmaydurur va bilmas. Shoyad ashob orosida Abu Ali otlig' birov bor ekin! Yana mening otimni tutub chorladi. Uchunchi qatlada menga zarurat bo'ldi. Javob berib qo'ptim va qoshig'a bordim. Shayx ul yeng bila ul ungurni menga berdi va dedi: Sen bizga bu yeng bila ungurdeksen. Ani olib bir arig' yerda qo'ydum va doim shayx xizmatig'a borur erdim va shayx xizmatidin menga ko'p foyda va yorug'liqlar yetishti. Chun shayx Nishoburdin bordi. Men ustod Abulqosim Qushayriy xizmatig'a borur erdim va har voqea va holat yuz ko'rguzsa, anga aytur erdim va ul meni ilm kasbig'a targ'ib qilur erdi. Yana ikki-uch yil jidd bila tahsilg'a mashg'ul bo'ldum. Bir kun qalamni mihbaradin chiqordim. Oq chiqdi. Ani ustod imomg'a arz qildim. Ustod dediki, chun ilm sendin ilik tortti. Sen dog'i ondin ilik tort va ishga mashg'ul bo'l! Madrasadin chiqdim va xonaqohda sokin bo'ldim va ustod Imom xizmatida suluk qilur erdim va yuzlangan holni anga arz qilur erdim va javob topar erdim. Bir kun menga bir hol das berdiki, ul holda gum bo'ldim. Chun ustod Imomg'a ayttim. Javob berdiki, ey Abu Ali, mening ravishim mundin yuqori emas. Ul vaqtda Hazrat shayx Abulqosim Gurgoniyning shuhrati Tusdin yetishti. Men Tusqa, oning xizmatig'a bordim. Masjidida ashob bila o'lturub erdi, ikki rakaat tahiyati masjid qilg'ondin so'ngra qoshig'a bordim. Bosh ko'tardi va dedi: Kel, ey Buali! Ne niyating bor? Ayt! Men voqealarimni arz qildim. Ersa, dedikim, qutlug' bo'lsun, ishingning ib-tidosi yamon ermas! Tarbiyat topsang, biyik darajaga yetarsen. Men o'z ko'nglumda dedimkim, mening pirim bu kishidur. Oning xizmatida maqom qildim. Ondin so'ngraki, menga qattiq riyozatlar va mujohadatlar buyurub erdi. Iqbol qildi va majlis aqdi buyurdi va o'z farzandin mening hukmimda qildi va ham shayx Bu Ali debdurki, mundin burun Shayx Abu Said Abulxayr Meh-nadin Tusg'a kelib erdi va chun xizmatig'a bordim. Deb erdiki, ey Abu Ali, bot bo'lg'ayki, to'tidek seni so'zga kiyurgaylar. Oz vaqtdin so'ngra Shayx Abulqosim Gurgoniy menga majlis aqdi buyurdi va so'z eshigi ko'nglumda ochildi.

438. Shayx Abubakr b. Abdulloh Tusiy Nassoj. q. s.

Ul ham Shayx Abulqosim Gurgoniyning muridlaridindur. Va Abubakr Dinavariy bila suhbat tutubdur. Andin so'rdilarki, matlub diydorin ne bila ko'rsa bo'lur? Dediki, sidq ko'zi bila ko'rsa bo'lur, talab ko'zgusida! Va ham ul debdurki, suv tasavvuri suvsizlig'ni daf' qilmas va o't fikrati harorat bag'ishlamas va talab da'vosi matlubg'a yetkurmas. Va ham ul debdurki, to mavhum vujudni fano o'ti kul qilmag'ay va ko'ngul g'ayrat ignasi bila aning g'ayridin tikilmagay, jon xilvatxonasi jonon sham'i jamoli tajallilari bila yorumag'ay, ne uchunki, ekkan yerda tuxum ekmaslar va munaqqash qog'azg'a naqsh chekmaslar. Debdurlarki, holi bidoyatida mujohada ko'p chekti va ul mujohadasi mu-shohadag'a ulanmadi. Xudovandi taolo dargohida nola qildi, sirrig'a yetkurdilarki, Nassoj, talab

dardig‘a qone’ bo‘l, sanga topmoq bila ne ish! Ham ul debdurki, tavakkul uldurki, man’u atoni Tengri taolodin o‘zgadin ko‘rmagaysen. Ayn ul-quzot Hamadoniy o‘z musannafotida kelturubdurki, Shayx Ahmad G‘azzoliyki, Abubakr Nassoj aning piridur, munojotida dediki, [Iloho, mening yaralishimdan hikmat ne?][1] javob keldiki, [Sening yaralishingdan hikmat – jamolimni ruhing ko‘zgusida ko‘rmoq, muhabbatimni qalbingga solmoq][2].

439. Hujjat ul-islom Muhammad b. Muhammad G‘azzoliy Tusiy q. s.

Kuniyati Abu Homiddur va laqabi Zaynuddin. Tasavvufda intisobi Shayx Abu Ali Formadiydur. Ul debdur: [Shayxim imom Ali Formadiy hazratlarining shayxi Abulqosim Gurgoniy hazratlaridan shunday naql qilganini eshitdim: «Solik hanuz vosil bo‘lmagan bo‘lsa ham, Allohu Taoloning to‘qson to‘qqiz ismi uning sifatlariga aylanadi»][1].

Imom Muhammad holining ibtidosi Tusda va Nishoburda ulum tahsilig‘a va oning takmilig‘a ishtig‘ol ko‘rguzdi. Ondin so‘ngra Nizom ul-mulk bila muloqot qildi. Jamoati fuzalo bilaki, oning suhbatida bo‘lur erdilar, mutaaddid majolisda munozara va mujodala qildi va alarg‘a g‘olib bo‘ldi. Va Bag‘dodda Nizomiya madrasasi tadrisin anga tafviz qildilar. To‘rt yuz o‘ttiz to‘rtda Bag‘dodg‘a borib, dars aytdi va Iroq ahli barcha anga shefta va firifta bo‘ldilar. Baland qadr arjumand poya topti. So‘ngra borisin ihtiyori bila tark qildi va zuhdu inqito’ tariqin ilgari tutdi va haj azimati qildi va to‘rt yuz sakson sakkizda hajg‘a musharraf bo‘lub, Shomg‘a murojaat qildi va muddate anda erdi va andin Bayt ul-Muqaddasg‘a bordi va andin Misrg‘a keldi va muddate Iskandariyada erdi va andin Shomg‘a kelib, necha vaqt turdi va andin so‘ngra vatan azimati qildi va o‘z holig‘a mashg‘ul bo‘ldi va xalqdin xilvat ixtiyor qildi va mufid kitoblar tasnif qildi.

«Ih’yo ul-ulum»dek va «Javohir ul-Qur’on» va «Yoqut ut-ta’vil» tafsiridekki, qirq mujalladdur va «Mishqot ul-anvor» dekki, barcha mashhur kutublardur va bu barchadin so‘ngra Nishoburga avd qildi va so‘fiya uchun xonaqohe bino qildi. Va ilm talabasi uchun madrasa ham ihdos qildi va avqotin xayr vazoifi tavze’ etti, Qur’on xatmidin, arbobi qulub suhbatidin va ulum tadrisidin ul zamongachaki, besh yuz beshda jumodul oxir oyining o‘n to‘rtida Tengri taolo jivori rahmatig‘a vosil bo‘ldi. Shayx Abulhasan Shozali q. s. ki, o‘z za-monining qutbi erdi, o‘zi ko‘rgan voqeadin mundoq xabar beribdurki, Hazrat Risolat s. a. v. Muso va Iso a. s. g‘a mubohot va mufoxirat qilibdur G‘azzoliy r. t. bila. [Alloh undan rozi bo‘lsin, ba’zi do‘stlariga yozgan maktublaridagi hikmatlaridan][2]. Ruh hastii nestnamoydurki, kishi anga yo‘l topmas va sultoni qohir va mutasarrif uldur. Qolib aning asiru bechorasidur. Har ne ko‘rsalar Qolibdin ko‘rarlar va Qolib andin bexabar; barcha olamg‘a olam qayyumi bila ushbu misoldurki, olam qayyumi «hasti nestnamon-dur»ki, olam zarrotidin hech zarrag‘a vujud va qivom o‘zi bila emas. Balki oning qayyumlug‘i biladur. Va har nimaning qayyumi zaruratki, ul nima biladur, vujudi haqiqiy angadur va muqavvim vujudi andin oriyat vajhi bila [Sizlar qaerda bo‘lsangiz, u sizlar bilan birgadir][3] budur va lekin, birovkim maiyyatni bilmagay, illo jism maiyyatini jism bila yo araz maiyyatini araz bila yo araz, maiyyatin jism bila va bu uchalasi olam qayyumig‘a maholdur. Bu maiyyatni fahm qilaolmag‘ay va qayyumiyat maiyyati to‘rtunchi qismdur. Balki maiyyat haqiqat yuzidin budur va bu dag‘i hasti nestnamoydur. Alarki, bu maiyyatni bilmagaylar, qayyumni tilaganlar va topmag‘oylar [va yana unga tegishli][4] Girdbodki, sofi havoda yerdin qo‘par. Bir minora surati bila mustatil va o‘ziga chirmanur. Qishi anga boqsa sog‘inurki, tufrog‘ o‘zin chirmaydur va tebranadur va andoq emasdur. Balkn ul tufrog‘din har zarra bila havodurki, oning muharrikidur. Ammo havoni ko‘rsa bo‘lmas va tufrog‘ni ko‘rsa bo‘lur. Bas, tufrog‘ muharriklig‘da nesti hastnamoydur va havo hasti nestnamoy. Tufroqqa harakatda musaxxarlig‘din o‘zga yo‘qdur havo ilkida. Va saltanat barcha havog‘adur va havoning saltanati nopaydo.

440. Shayx Ahmad G‘azzoliy r. t.

Shayx Abubakr Nassojning murididur. Va mo‘‘tabar tasnifoti va ta’lifoti bor. Va alardin biri «Savonih» kitobidurkim, Shayx Faxruddin Iroqiy «Lama’ot»ni aning sunnati bila tartib beribdur.

Andoqki, debochasida ayturki, [Ammo ba’d: ishq martabalari haqidagi bir qancha so‘zlar «Savonih» uslubida yozildi][1]. Va «Savonih» fuzulidin biri budurkim, ma’shuq barcha holi bilan ma’shuqdur, bas istig‘no aning sifatidur. Va oshiq barcha holi bilan oshiqdur, bas iftiqor aning sifatidur. Oshiqqa hamisha ma’shuq keraklik, bas iftiqor aning sifatidur. Va ma’shuqqa hech nima darboist emas, chun o‘zi o‘ziningdur, lojaram istig‘no aning sifati bo‘lg‘ay.

R u b o i y:
[Doim ko‘ngil olasanu uzring bor, Hech g‘am
chekmaysanu uzring bor.
Men sensiz ming kecha qon yutdim, Sen bir oqshom
o‘ylamaysan, uzring bor][2].

Bir kun aning majlisida qori bu oyatni o‘qudiki, [Ey o‘z jonig‘a jinoyat qilgan bandalarim][3]. Ul dedi: [Alloh «bandalarim» deb, o‘ziga nisbat berish bilan ularni ulug‘lamoqda. So‘ngra o‘qidi: Ishq yo‘lida malomat oson kechdi, dushmanlarimning ta’nalari men uchun e’tiborsiz. O‘z nomim bilan chaqirsalar, karga aylanaman va agar Allohning bandasi deb xitob qilsalar, albatta, eshituvchiman][4]. Bu toifadin birida Imom Ahmad so‘zlaridin bir juzv edi, ani hujjat ul-islom Imom Muhammad olib taammul qildi va dedi: subhonolloh, biz tiladuk va ul topti, ya’ni Imom Ahmad.
Besh yuz o‘n yettida dunyodin o‘tubdur va qabri Qazvindadur.

441. Xoja Yusuf Hamadoniy q. t. s.
Kuniyati Abu Ya’qubdur. [Imom, olim, orifi rabboniy, go‘zal hollari, ko‘p ehsonlari, yuksak karamot va maqomotlari bor edi][1]. Ibtidoda Bag‘dodqa bordi va Shayx Abu Ishoq Sheroziy majlisida mulozamat qildi va ishi yuqori bo‘ldi va o‘z aqronig‘a fiqh ilmida va o‘zga ulumda, xususan nazar ilmida foiq bo‘ldi va Shayx Abu Ishoq ani kichik yoshlig‘ ekanida ko‘p ulug‘ poyalig‘ ashobig‘a taqdim qilur erdi va ko‘p ulamodin Bag‘dod va Isfahon va Samarqandda hadis istimo’ qildi. So‘ngra barchani tark qildi va riyozatu mujohadat tariqin ilgari tutdi va mashhur andoqdurki, tasavvufda intisobi Shayx Abu Ali Formadiyg‘adur va debdurlarki, Shayx Abdulloh Juvayniyg‘a. Va Shayx Hasan Simnoniy bila suhbat tutubdur. Marvda sokin bo‘ldi va andin Hiriga keldi va bir necha vaqt iqomat qildi. Yana Marv ahli andin murojaat iltimos qildilar va Marvg‘a bordi. Yana Hiriga keldi va andin so‘ngra Marv azimatig‘a murojaat qilg‘anda, yo‘lda besh yuz o‘ttuz beshda favt bo‘ldi va ham andaki, favt bo‘ldi, dafn qildilar va nscha vaqtdin so‘ngra Marvg‘a naql qildnlar va mazori Marvdadur mashhur. Shayx Muhyiddin Arabiy q. t. r. o‘z musannafotidin ba’zida aytibdurki, Shayx Avhaduddin Homid Kirmoniy Quniya shahrida mening manzilimda erdi. Dediki, bizning bilodda Xoja Yusuf Hamadoniy q. s. ki, oltmish yildin ortuq shayxlig‘ va irshod sajjodasida o‘lturub erdi.
Bir kun o‘z zoviyasida o‘lturub erdiki, ko‘nglida tashqari chiqmoq xutur qildi va tariqi jum’a kunidin o‘zga kun chiqmas erdi va bu anga og‘ir keldiki, bilmas erdiki, qayon borg‘ay? Oxir bir markabga mindi va jilovin qo‘ydi, to qayonki, Tengri taolo eltsa borg‘ay. Ul markab shahrdin chiqdi va bodiyag‘a kirdi va borur erdi, to ani bir vayron masjid eshigiga yetkurdi va turdi.
Shayx tushti va ul masjidqa kirdi va ko‘rdiki, bir yig‘it boshin muroqabag‘a tortibdur. Bir zamondin so‘ngra boshin ko‘tardi. Bir hanbatlig‘ yigit erdi, dedi: Yo Yusuf, menga mas’ala mushkul bo‘lubdur va zikr qildi. Shayx ul mushkulni hal qilg‘ondin so‘ngra dedi, ey farzand, har qachon senga mas’alae mushkul bo‘lsa, shahrg‘a kel, dog‘i mendin so‘r va meni kelurga ranjga solma. Shayx debdurki, ul yigit menga boqdi va aytti, har qachon mas’alae menga mushkil bo‘lsa, aning hallig‘a har tosh manga saningdek bir Yusufdur.
Shayx Ibn Arabiy debdurki, men mundin bildimki, murid tavajjuh sidqi bila Shamxni o‘z jonibig‘a jazb qila olur ermish. Xojaning g‘arib holoti va ajib maqomoti andin ko‘prakdurki, sharh qilsa bo‘lg‘ay. Ashob arosinda xulafosi to‘rt kishi erdilar: Xoja Abdulloh Barqiy va Xoja Hasan Andoqiy va

Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy q. t. a. Va Xoja Yusufdin so‘ngra bu to‘rt kishidin har biri irshod va da’vat maqomida ermishlar va muridlar aning xizmatida adab bila mulozim. Chun Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat qildi. Barcha ashob va irodat ahlini Xoja Abdulxoliq mutobaatig‘a dalolat qildi. Bu nav’ ermish, bu xonadonning ba’zi mutaaxxir mashoyixining risolasida.

442. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy q. t. r;

Ularning ravishi tariqatda hujjatdur. Barcha foruqning maqbulidurlar. Hamisha sidqu safo yo‘lida va Mustafo s. a. v. shar’u sunnati mutobaatida va bid’atu havo muxolafatida qadam urubdurlar va pok ravishlarin ag‘‘yor ko‘zidin yashurubdurlar. Alarg‘a ko‘ngul zikri. sabaqi yigitlikda Xoja Xizr a. s. din bo‘lubdur va ul sabaqqa muvozabat ko‘rguzubdurlar va Xoja alardin farzandliq qabul qilibdurlar va buyurubdurlarki, havzlug‘ suvg‘a kirib, g‘o‘ta ur va ko‘nglungda [«lo iloha illallohu Muhammadur rasulolloh»][1] degil. Alar Xoja buyurg‘ondek qilibdurlar va ishga mashg‘ul bo‘lubdurlar va kushodlar topibdurlar va avvaldin oxirg‘acha alarning ro‘zgori barcha xalq qoshida maqbul va mahmud ekandur. So‘ngra shayx ush-shuyux olimu orifi rabboniy Xoja imom Abu Ya’qub Yusuf Hamadoniy q. r. Buxorog‘a kelibdurlar va Xoja Abdulxoliq alar suhbatig‘a yetibdurlar va ma’lum qilibdurlarki, alarda ham ko‘ngil zikri bor. Alar suhbatida bo‘lur ermishlar va ma’lum qilibdurlarki, to alar Buxoroda ermishlar, debdurlarki, Xoja alarning sabaqi va zikri piridurlar va Xoja Yusuf suhbat va xirqalari piri. Xoja Yusufdin so‘ngra alar riyozatqa mashg‘ul bo‘ldilar va ahvollarin maxfiy tutar erdilar va alarning valoyati ul yerga yettiki, har vaqt namozda Ka’bag‘a borurlar erdi. Alarning valoyati ko‘p erdi va Shomda alarg‘a ko‘p muridlar paydo bo‘ldilar va xonaqoh va ostona zohir bo‘ldi. Ashuro ayyomida jamoati kasir alar xizmatida o‘lturub erdilar va alar ma’rifatda so‘z aytadur erdilar. Nogoh bir yigit kirdi. Zohidlar suratida, egnida xirqa va kiftida sajjoda va bir go‘shada o‘lturdi. Hazrat Xoja anga nazar qildilar. Ul yigit dediki, Hazrat Risolat s. a. v. debdurlarki, [Mo‘minning farosatidin qo‘rqing! Chunki u ulug‘ va qudratli Alloh nuri bilan boqadi][2]. Bu hadisning sirri nedur? Alar dedilarki, bu hadisning sirri budurki, xirqang ostidag‘i zunnoringni kesib, iymon keturgoysen. Ul yigit filhol zunnorin kesti va iymon kelturdi va Hazrat Xoja ashobg‘a boqib dedilarki, ey yoronlar, kelingki, andoqki zohir zunnorin kesib, bu navahd yigit iymon kelturdi, biz ham botin zunnorinki iborati ujbdindur qat’ qilib, iymon kelturali, to andoqki, ul omurzida bo‘ldi, biz dog‘i omurzida bo‘lali! Ajab holate ashobg‘a zohir bo‘ldi. Xojaning oyog‘ig‘a tusharlar erdi va tavbalarin toza qilurlar erdi.

Bir kun alar xizmatida bir darvesh der erdiki, agar Alloh taolo mani behisht bila do‘zax orasida muxayyar qilsa, men do‘zaxni ixtiyor qilurmen. Nevchunki, hargiz nafsim murodi bila zist qilmaydurmen. Bu holda behisht nafs murodidur va do‘zax haq murodi.

Hazrat Xoja ul so‘zni rad qildilar va dedilarki, bandag‘a ixtiyor bila ne ish, har qayon desa bor, borurbiz va qayon desa bo‘l, bo‘lurbiz, bandaliq budur! Yo‘q, ulki, sen aytasan. Ul darvesh so‘rdiki, shaytong‘a haq yo‘lining soliklarig‘a dast bo‘lg‘ay?

Xoja buyurdilarki, har solikki, nafs fanosi sarhadig‘a yetmagan bo‘lsa! Chunki anga g‘azab dast bergay. Shayton anga dast topqay. Chun nafs fanosi hosil qilmish bo‘lsa, anga g‘azab bo‘lmas, g‘ayrat bo‘lur va shayton g‘ayratdin qochar. Bu sifat birovga musallamdurki, yuzi haq yo‘lig‘a bo‘lg‘ay va «Kitobulloh»ni o‘ng ilkiga tutqoy va Rasul s. a. v. sunnatin so‘l ilkiga va bu ikki yorug‘luq orosida yo‘l suluki qilg‘ay.

Bir niyozmand dediki, Xoja bizga iymon duosi bila madad qilsalar bo‘lg‘ayki, bu shayton domgohidin salomat jon eltgaybiz. Alar buyurdilarki, va’da andoqdurki, faroyiz adosidin so‘ngra duo mustajob bo‘lur. Sen ishda bo‘l va bizni xayr duosi bila yod qil! Faroyiz adosidin so‘ngra biz ham seni yod qilali. Bo‘lg‘ayki, bu orada ijobat asari zohir bo‘lg‘ay ham sening haqingg‘a, ham bizing haqimizga!

443. Xoja Orif Revgarviy q. s.

Xoja Abdulxoliqqa uch xalifa ermish: Xoja Ahmad Siddiq va Xoja Orif Revgariy va Xoja Avliyoyi

Kalon. Va nisbat silsilasi Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband q. s. g‘a bu jamoatdin Xoja Orifqa yetishur.

444. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy q. s.
Ul Xoja Orif xulafosidindur.

445. Xoja Ali Romitaniy q. s.
Alar Xoja Mahmud xulafosidindurlar va bu silsilada alarning laqabi Hazrat Azizondur. Va alarg‘a oliy maqomot va zohir karomot ko‘p erkandur. Va to‘qimoq san’atig‘a mashg‘ul bo‘lur ermish. Va Hazrat Maxdumkim, «Nafahot ul-uns» kitobining musannifidurlar, mundoq debdurlarki, manga ba’zi akobirdin mundoq istimo’ tushubdurki, ishorat alarg‘adur. Ulcha Hazrat Mavlono Jaloliddin Rumiy q. t. r. debdurki, b a y t:

[Hol ilmi qol ilmidan yuksak bo‘lmaganda edi,
Buxoro ulug‘lari qachon Xoja Nassojga qulluq
qilgan bo‘lardilar] .

Alardin surubdurlarki, iymon nedur? Debdurlarki, qo‘ngarmoq va ovlamoq. Va ham alardin so‘rubdurlarkim, masbuq masbuqona qazosig‘a qachon qo‘pqay? Debdurlarki, subhdin burun. Va alardin manquldurki, debdurlarki, agar yer yuzida Xoja Abdulxoliq farzandlaridin biri bo‘lsa erdi, Mansur hargiz dor ostiga bormag‘ay erdi. Va bu silsila ahli bu ruboiyni

R u b o i y:

[Kim bilan birga o‘tirsangu qalbing bog‘lanmasa, u bilan suhbating aslo hovushmasa, zinhor uning suhbatidan qochgin, yo‘qsa, azizlar ruhi seni kechirmaydi][2].
alarg‘a nisbat berurlar. Va alarning qabri Xorazmda mashhurdur.

446. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy r. t.
Hazrat Xoja Azizonning xalifasidur va Hazrat Xoja Bahouddin hazratlarig‘a alardin qabul farzandlig‘qa voqe’ bo‘lubdur va alardurlarki, Qasri Hinduvondin o‘tarda der ermishlarki, bu tufrog‘din bir er isi keladur. Bo‘lg‘ayki, Qasri Hinduvon Qasri Orifon bo‘lg‘ay. To bir kunki Sayyid Amir Kulol manzilidinki, alarning xulafosidindur, Qasri Orifon sari mutavajjih erdilar. Dedilarki, ul er isiki, bizing dimog‘imizg‘a yetar erdi, ortuqroq bo‘lubdur. Hamonoki ul er mutavallid bo‘lubdur. Chun nuzul qilibdurlar. Hazrat Xoja Bahouddin valodatidin uch kun ekandur, alarning jaddi bir muomala alarning ko‘ksig‘a qo‘yib, alarni ixlos va niyoz bila Xoja Muhammad Bobo nazarig‘a kelturubdur. Xoja Muhammad Bobo dedilarki, ul bizing farzandimizdur va biz oni qabul qilduq va ashob sori boqib, debdurlarki, bu ul erdurki, bizga oning isi yetib erdi. Ro‘zgorning muqtadosi bo‘lg‘ay va Amir Sayyid Kulolg‘a buyurdilarki, farzandim Bahouddin haqida tarbiyat va shafqatni darig‘ tutmag‘oysen va senga bihil qilmag‘oymen, agar taqsir qilsng. Amir dedikim, er bo‘lmag‘oymen agar, Xoja vasiyatida taqsir qilsam.
Xoja Bahouddin debdurlarki, taqdir hasbi bila mutaammil bo‘lurda jaddim buyurdikim, borib, Xoja Muhammad Bobog‘a tashrif huzuri iltimos qilki, alarning qadami barakoti bu manzilg‘a yetgay. Chun alar liqosiga musharraf bo‘ldum, ajab karomotki, alardin mushohada bo‘ldi. Bu erdiki, ul menda niyoz va tazarru’ paydo bo‘lib erdikim, qo‘ptum va masjidqa kirdum va ikki rakaat namoz qildum va boshimni sajdag‘a qo‘yub, niyoz bila ixlos ko‘rguzdim va ul oroda tilimga bu keldikim, ilohi, balong yukini tortarg‘a quvvat va muhabbating mehnatini tortarg‘a tahammul ber! Chun saboh Xoja xizmatig‘a yettim, buyurdilarki, ey farzand, duo mundoq qilmoq kerakki, ilohi, oncha sening rizong

andadur, bu zaif bandangni anga tut o‘z fazlu karaming bila! Agar xudovandi taolo har do‘stig‘a baloyi yiborsa, o‘z inoyati bila ul yukni tortarg‘a quvvat bergay va aning hikmatin anga zohir, qilg‘ay. Ixtiyor bila balo talabi dushvordur. Gustoxliq qilmamoq kerak.

Andin so‘ng taom hozir bo‘ldi. Chun yeyildi. Xoja bir qurs menga berdi. Xayolimg‘a keldikim, ushbu soat to‘q taom yeduk va manzilg‘aki bordilar, anda ham at’ima bo‘lg‘usidur, Bu qurs bizing ne vasilamizg‘a yarar.

Chun Xoja ravon bo‘ldilar. Men alarning jilovida borur erdim va o‘z xotirimni asli tavajjuhg‘a rosix tutub, niyozi tamom bila qadam urar erdim. Agar botinimda tafriqae paydo bo‘lsa erdi, xoja buyururlar erdikim, xotirni yaxshi asramoq kerak, to yo‘lda muhiblarining biri uyiga yettilar. Ul darvesh bashoshat va niyoz bila ilgari keldi va alar chun nuzul qildilar.

Ul faqirda iztirob asari zohir bo‘ldi. Alar dedilar: chinin aytki, iztirobingg‘a bois nedur? Ul darvesh dediki, biz taraf sut hozirdur, o‘tmak yo‘qdur. Alar menga boqib dedilarki, ul qursni kelturki, oqibat menga ishga yaradi va menga ul hol mushohadasidin alarg‘a yaqin ortug‘roq bo‘ldi.

447. Sayyid Amir Kulol r. t.

Mazkur bo‘lg‘on Xoja Muhammad Boboning xalifasidur. Hazrat Xoja Bahoudding‘a suhbat nisbati tariqat suluki, odobi ta’limi va zikr talqini alardindur. Bir kun azim majma’da Amir Sayyid Kulol Xoja hazratin tilab dediki, ey farzand Bahouddin, Xoja Muhammad Bobo nafasi vasiyatin sizning boringizda tamom bajoy keltirdim deb. Dedilarki, har ne tarbiya bobida bormen, sening haqingda ko‘rguzubmen.

Sen farzand Bahouddin bobida ko‘rgizgil! Andoq qildim va ishorat o‘z ko‘ksiga qilib dediki, bu emchakni sizing uchun quruttum va sizing ruhoniyatingiz qushi bashariyat bayzasidin chiqdi. Ammo sizing himmatingiz shahbozi balandparvoz tushubdur. Emdi ijozattur. Har yerda matlubdin ise dimog‘ingizda yetsa, tilang va talabda o‘z himmatingiz mujibi bila taqsir qilmayg! Hazrat Xoja debdurlarki, ul so‘zlarki Mir hazratlari aytib, bizga ijozat berdilar, ibtilog‘a vosita bo‘ldiki, ham alar tarbiyati tahtida bo‘lsak erdi, saodat va salomatqa yaqinroq erduk.

Bir kun Mir hazratlari Xojag‘a dedilarki, chun ustod shogirdga tarbiyat qilsa, har oyina tilarki, o‘z tarbiyati asarini andin mushohada qilg‘ay, to anga e’timod bo‘lg‘ayki, oning tarbiyati joygir tushubdur va agar shogird ishida xalale ko‘rubdur, ul xalalg‘a isloh qilg‘ay. Andin so‘ng dediki, Mir Burhon mening farzandimdur va hozir o‘lturubdur va hech pirning tasarruf iligi anga yetmaydur va ma’naviy tarbiyat topmaydur va maning huzurimda oning tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘lmoq keraksiz, to aning asarini mutolaa qilg‘aymen va sizing san’atingizga tamom e’timod qilg‘aymen. Hazrat Xoja Mirg‘a muroqib o‘lturub erdilar. G‘oyat adab rioyatidin ul ish imtisolida tavaqquf qiladur erdilar. Mir dedilarki, tavaqquf qilmamoq kerak. Hazrat Xoja alarning amri imtisoli qildilar va Sayyid Burhonning botini va zohirida paydo bo‘ldi va qaviy Hol anga padid bo‘ldi va shukri haqiqiy asari zohir bo‘ldi.

448. Qusam Shayx r. t.

Ul turk mashoyixidindur. Xoja Ahmad Yassaviy q. s. xonadonidindur. Xoja Bahouddin ul so‘z mujibiki, Mir Sayyid Kulolalarg‘a ijozat berganda deb erdiki har qayondin royihai dimog‘ingizg‘a yetsa, talabda taqsir qilmayg! Qusam Shayx xizmatig‘a bordilar. Ul avval muloqotda qovun yeydur erdi. Po‘chog‘in Xoja sori tashladi. Alar g‘oyat talab haroratidin ul po‘chog‘ni terisi bilan yedilar. Ul majlisda ikki-uch qatla bu nav’ voqe’ bo‘ldi ham bu majlisda Shayxning xodimi kirib dediki, uch teva va to‘rt otg‘oyib qilibman. Shayx Xojag‘a ishorat qilib dediki, ani yaxshi tutingiz! To‘rt kishi andoq xushunat bila Xojag‘a yopushtilarki, go‘s aroda qone voqea bo‘lubdur. Hazrat Xoja debdurlarki, turk mashoyixining shinoxti bo‘lmasa, alar tariqidin mutanaffir va navmid bo‘lur. Xoja muroqib o‘lturdilar. Namozshom adosidin so‘ngra xodim yana kirib dediki, g‘oyib bo‘lg‘on tevalar va otlar o‘zlari keldilar. Qusam shayx xizmatida Xoja uch oyg‘a yaqin bo‘ldilar. Oxyr ul-amr Shayx Xojag‘a tashrif berdi va dedi: To‘qquz o‘g‘lum bor. Sen barchasidin ulug‘roq va muqaddamroq. Andin so‘ngra har qachon

Shayx Naxshabdin Buxorog‘a kelur erdi, Xojag‘a mulozamat qilurlar erdi. Shayx debdurki, bu nav’ talabgorlig‘ki, senda ko‘rub-men, toliblardin hech qaysida ko‘rmaymen. Oxir bu Qusam Shayx Xoja inqito’iy va kamoli beta’ayyunlug‘idin Buxoroning timlaridin birida andoq savdo va sotiq qildi va chiqib bir do‘konchada o‘lturub, ashob va farzandlaridin har kimki, oning bila edilar tiladi va dediki, bizing borur chog‘imiz bo‘ldi. Tavhid kalimasin alar muvofaqati bila aytti va jon taslim qildi.

449. Xalil Ota q. r.

Xoja Bahouddin hazratlari debdurlarki, bidoyat holda bir kecha Hakim ota r. niki, turk mashoyixining kiboridindur, voqe’ada ko‘rdumki, bizni bir darveshga siporish qiladur. Uyg‘ong‘ondin so‘ngra ul darveshning surati xotirda erdi va bizga jaddani erdi, soliha otamiz onasi, ul voqe’ani alarg‘a ayttuq. Dedilar: ey farzand, senga turk mashoyixidin nasibe bo‘lg‘usidur va men doim ul darveshga tolib erdim.

To bir kun Buxoro bozorida ul darveshga yo‘luqdum va tanidum. Otin so‘rdum. Xalil erdi. Ul zamon oning bila mujolasat va mukolama muyassar bo‘lmadi. Chuk manzilg‘a bordim va oqshom bo‘ldi. Ul darvesh qoshidin birov kelib, meni tiladi. Kuz ayyomi erdi. Bir pora meva oldim va ul darvesh xizmatig‘a bordim. Chun tiladimki, ul voqe’ani anga izhor qilg‘aymen. Ayttiki, ulcha saning xotiringdadur, bizga ayondur. Bayon qilmoq hojat emas, mening holim o‘zga bo‘ldi. Ko‘ngul mayli oning suhbatig‘a ko‘p bo‘ldi va oning suhbatida shigarf ahvol va g‘arib va ajib nimalar mushohada bo‘lur erdi ondin. Va muddatdin so‘ngra Movarounnahr mulkining saltanati anga musallam bo‘ldi va menga oning xizmat va mulozamatin qilmoq zarur erdi va mulozamat ayyomida ham azim ishlar zohir bo‘lur erdi va menga shafqat zohir qilur erdi. Gohi lutf va gohi unf bila manga xizmat adosin ta’lim qilur erdi va ul jihatdin ko‘p favoid menga yetar erdi va bu yo‘l sayru sulukida ko‘p ishga yoror erdi va olti yilg‘acha oning xizmatida bu nav’ bo‘lur erdim va xaloda xos suhbatining mahrami erdim va maloda saltanat odobin rioyat qilur erdim va malikdin burunroq ham olti yil oning xizmati va suhbatida bo‘lur erdim. Ko‘p qatla borgohi xosi qoshida aytur erdikim, har kim Haq taolo rizosi uchun menga xizmat qilur, xalq orasida buzurg bo‘lg‘ay va menga ma’lum bo‘lur erdikim, bu so‘zdin maqsudi kimdur. Bu muddatdin so‘ngra, chun majozii mamlakatig‘a zavol bo‘ldi va har lahzada mulku xidamu hashami haboan mansuran bo‘lur erdi va dunyo ishi tamom maning ko‘nglumda sovudi. Buxorog‘a keldim. Revartundakim, Buxoro kentlaridindur sokin bo‘ldum.

450. Xoja Bahouddin Naqshband q. t. s.

Alarning oti Muhammad b. Muhammad Buxoriydur Alarg‘a qabul nazari farzandliqqa Xoja Muhammad Boboyi Samosiydindur va odobi tariqat ta’limi zohir yuzidin Amir Sayyid Kuloldindur, andoqki, o‘tti. Ammo haqiqat yuzidin alar Uvaysiydurlar va tarbiyat Hazrat Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy q. s. ruhidin topibdurlar. Andoqki, der ermishlarki, mabodii ahvolda bir kecha g‘alaboti jazabotdin Buxoro mazorotidin uch mozorg‘a yetishdim. Har mazorda bir chirog‘don ko‘rdum yonadurg‘on, yog‘i to‘la va fatilalari yog‘ ichinda. Ammo fatilalarg‘a biror nima harakat bermak kerak erdiki, yaxshi tutashqoy va yorug‘oy. So‘nggi mutabarrak mozorda qiblag‘a mutavajjih o‘lturdum va ul tavajjuhda g‘aybate voqe’ bo‘ldi. Mushohada qildim. Qibla devori shaq bo‘ldi va bir ulug‘ taxt paydo bo‘ldi va yashil parda ul taxt ollig‘a tortilg‘on va tegrasida jamoate. Va Xoja Muhammad Boboni alar orasida tanidim. Bildimki, ul xayli g‘oyiblardindurlar. Oralaridin birov menga ayttiki, taxtda Xoja Abdulxoliqdur va ul jamoat alarning xulafosidurlar va bir-birin alarning otin atadi va Xoja Muhammad Bobog‘a yetgonda, dediki, alarni xud hayotlari chog‘ida ko‘rubsen va sening piringdurlar va senga bir bo‘rk beribdurlar va karomat qilibdurlarki, nozil bo‘lg‘on balo sening barakatingdin daf’ bo‘lg‘ay. Andin so‘ngra ul jamoat ayttilarki, quloq tut va yaxshi eshitki, ulug‘ Xoja Hazratlari senga so‘zlar aytg‘usidurlarki Haq s. t. yo‘li sulukida senga andin chora yo‘qtur. Ul jamoatdin iltimos qildimkim, Hazrat Xojag‘a salom qilay va muborak Diydorlarig‘a musharraf bo‘lay. Pardani ilaylaridin oldilar. Pire ko‘rdum – nuroniy. Salom qildim. Javob berdilar va so‘zlarni, suluk mabdayida va

vasatida va oxirida keraklikdur, menga bayon qildilar va dedilarki, ul chirog‘larki, ul kayfiyat bila senga ko‘rguzdilar ishoratu bashoratdur senga bu yo‘l qobiliyat va iste’dodidin. Ammo iste’dod fatilasin harakatg‘a kelturmak kerak, to yorug‘an va asror zuhur qilg‘an va yana buyurdilar va mubolag‘a qildilarki, barcha ahvolu aqdomni barcha amru nahiy jodasig‘a qo‘yg‘il va azimat bila amal qil va sunnatni bajo kelturgil va ruxsatlar va bid’atlardin yiroq bo‘l va doimo Mustafo s. sh. v. ahodisini o‘zingga peshvo qil va Rasul s. a. v. va ashobi kirom r. a. axboru osorig‘a mutafahhis va mutajassis bo‘l! Va bu so‘zlardin so‘ngra ul jamoat manga ayttilarqi, saning sidqi holingning shohidi uldurki, tongla erta falon yerga borg‘aysen va falon ishni qilg‘aysen va muning tafsili ul Hazratning maqomotida sharh bila bor. Va andin so‘ngra dedilarki, Nasafg‘a mutavajjih bo‘l. Amir Sayyid Kulol xizmatig‘a! Chun alar buyrug‘i bila. Nasafg‘a bordim va Mir xizmatig‘a yettim. Iltifotlar qildilar va altof ko‘rguzdilar va menga zikr talqini qildilar va nafyu isbot tariqi bila zikrga mashg‘ul qildilar. Chun voqe’da ma’mur erdimki, amal azimat blla qilg‘oymen. Aloniya zikri bila amal qildim. Biror alardin savol qildikim, darveshlik sizga mavrus yo muqtasab? Alar dedilarki, [Haqning bir jazbasi jinlar va insonlarning barcha amaliga barobardir][1] huqmi bila bu saodatqa musharraf bo‘lduq. Yana alardin, so‘rdilarki, sizing tariqingizda zikri jahru xilvat va samo’ bo‘lur? Dedilarki, bo‘lmas! Yana so‘rdilarki, sizing tariqingiz binosi ne ishgadur? Dedilarki, anjumanda xilvat zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin Haq s t. bila.

B a y t:

[Zohirda begonadek botindan oshno bo‘l,
Bunday go‘zal odat dunyodakam topiladi][2].

Ulcha Haq s. t. buyurubdurki, [ularni na tijorat va na oldi-sotdi Alloh zikridan chalg‘itolmaydi][3] ishorat bu maqomg‘adur. Derlarki, alarga hargiz qul va doduk bo‘lmas ermish. Ulardin bu ma’noda so‘rubdurlar; Alar debdurlarki, qachon bandalig‘ Xojalig‘ bila rost kelur. Birov alardin so‘rdikim, sizning silsilangiz na yerga yetar? Alar dedilarki, kishi silsilasi bila hech yerga yetmas va der ermishlarki, nafslaringizg‘a tuhmat qilingki, har kim Tengri inoyati bila o‘z nafsining yamonlig‘in va kaydu makrin bilgon bo‘lsa, agarchi anga sahldur, ammo bu yo‘l soliklaridin ko‘p bor ekandurlarki, birov gunohin o‘zlariga tutub, yukin tortibdurlar va der ermishlarki, [ey iymon keltirganlar, Allohga iymon keltiring!)[4] ishorat angadurki, har turfat ul-aynda o‘z vujudi naf’yin va ma’budi haqiqiy isbotin qilg‘ay.
Junayd q. s. debdurki, oltmish yildurki, iymon kelturmakdadurmen va lekin, ul ixtiyor tarki va qusuri a’mol mushohadasidin o‘zga nima hosil bo‘lmas va der ermishlarki, taalluq mosuvog‘a bu yo‘l solikig‘a ulug‘ hijobdur.

B a y t:

[Haqdan boshqasiga bog‘lanish to‘siq, samarasizdirki,
agar ularni uzsang, vosil bo‘lasan][5].

Haqiqat ahli iymonni mundoq ta’rif qilibdurlar. [Iymon – qalbni Allohdan boshqa o‘ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog‘lashdir][6]. Va der ermishlarki, bizing tariqimiz suhbatdur va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat. Hayriyat jam’iyatdadur va jam’iyat suhbatda bu shart bilaki, bir-biriga nafy bo‘lulg‘ay va ulcha ul buzurg buyurubdurki, [kel, bir soat iymon keltiraylik!][7], Ishorat angadurki, agar jam’i bu yo‘l soliklari bir-biri bila suhbat tutsalar, anda ko‘p xayru barakatdur. Umiddurki, anga mulozamat va mudovamat imoni haqiqiyg‘a muntahi bo‘lg‘ay va der ermishki, bizing tariqimiz [mustahkam tutqichr][8] durur. Ul ilik Payg‘ambar s. a. v. mutobaatig‘a

urmoqdur va sahobai kirom osorig‘a iqtido qilmoq va bu tariqda oz amal bila ko‘p futuh yetishur. Ammo sunnat mutobaati rioyati ulug‘ ishdurki, har kishi bu tariqimizdin yuz uyursa, anga din xataridur va der ermishlar: solik vaqtiki, Tengri do‘stlaridin biri bila suhbat tutsa o‘z holidii voqif bo‘lsun va suhbat zamonini o‘zga zamon bila muvozana qilsun. Agar tafovut topsa [etdingki, lozim tut!][9] Va debdurlarki, «lo iloha» tabiat nafyidur va «illalloh» ma’budi barhaq isbotidur va «Muhammadur Rasulullоh» o‘zni [menga ergashinglar!][10] maqomig‘a kivurmak, maqsud zikridin tavhid kalimasining haqiqiqatig‘a yetmakdur va kalima haqiqati o‘zga kalima aytmoqdin bakulli nafiy bo‘lmoqdur. Ko‘p aytmoq shart emas. Debdurlarki, Hazrat Xoja Azizon a. r. v. der ermishlarki, yer bu toifaning ko‘zida bir sufra-chadur va biz derbizki, tirnog‘ yuzichadur. Hech nima bular «o‘zidin g‘oyib emas va debdurlarki, tavhid sirrig‘a yetsa bo‘lur. Ammo ma’rifat sirrig‘a yetmak dushvordur. Alar muborak safar azimati qilurda buzurgzodalardin biriga zikr ta’limin degandurlar. Ul safardin qaytg‘anda alarg‘a debdurlarki, ul ta’lim olg‘on zikrga ishtig‘ol ko‘rsatmaydur va tark qilibdur. Alar andin so‘rubdurlarki, bizni hech tush ko‘rdung? Dedi: Hov, ko‘rdum! Dedilarki, senga basdur! Mundin ma’lum bo‘lurki, har kimgaki oz robita bu azizlar bila bo‘lsa, oxir mulhaq bo‘lur va ul najot sababi va darajot raf’i jihati bo‘lur. Alar hazratida birov dediki, falon kishi bemordur va xotiringiz tavajjuhi daryuza qilur. Alardin dedilarki, [avval xastaning qaytishi, so‘ngra ko‘ngli siniqning tavajjuhi kerak][11]. Alardin karomot talabi qildilar. Alar dedilarki, bizning karomotimiz zohirdur. Bovujudi bu nav’ gunoh yuki yer yuzida bora olurbiz. Alar der ermishlarki, Hazrat shayx Abu Said Abulxayr q. s. din so‘rubdurlarki, sizing janozangiz ilayida qaysi oyatni o‘qusunlur? Der ermishki, oyat o‘qumoq ulug‘ ishdur! Bu baytni o‘qusunlarki,

b a y t:

[Butun olamda do‘stning do‘stga, yorning yorga yotishishidan afzal nima bor?][12].

Andin so‘ngra alar debdurlarki, bizing janozamiz ilayida bu baytni o‘qusunlarki,

b a yt:

[Sening ko‘yingda jamolingdan «shay’anilloh» deb tilovchi gadolarmiz][13].

Mavlono Jaloluddin Xolidin hazratlaridin so‘rubdurlarki, Hazrat Xoja Bahouddinning suluk va tariqining nisbati mutaaxxir mashoyixdin qaysi pirning tariqig‘a munosabati bor? Ul debdurki, so‘z mutaqaddimin mashoyixdin deng va ikki yuz yildin ortuqdurki, bu nav’ osori valoyat zuhuriki, hazrat Xoja Hazratlarig‘a Tengri taolo inoyatidin voqe’ bo‘lubdur. Tariqat mashoyixig‘a mutaaxxirlardin hech kimga bo‘lmaydur. Alar yetti yuz to‘qson birda rabiul-avval oyining uchida dushanba kechasi olamdin o‘tubdurlar.

451. Xoja Alouddin Attor q. s.

Aning oti Muhammad b. Muhammad Buxoriydur. Hazrat Xoja Bahouddinning kibori ashobidindur. Va Hazrat Xoja o‘z hayotlari zamonida ko‘p toliblarning tarbiyatin alarg‘a havola qilur ermishlar. Va der ermishlarki, Alouddin bizga xeyli yukin yengil qilibdur, lojaram valoyat anvorining osori [tom va komil suratda][1] alardin zuhurg‘a kelibdur va alar suhbati yumni tarbiyati natijasidin ko‘p toliblar bu’du nuqson poygohidin qurbu kamol peshgohig‘a yetibdurlar va takmilu ikmol martabasi topibdurlar. Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, bu faqir ba’zi azizlardin eshitibmenki, [haqiqatni aniqlovchi olimlarning rahbari, diqqat bilan tekshiruvchi ulug‘larning peshvosi, yuksak asarlar va fasohatli tadqiqotlarning muallifi, nasabi ulug‘ Sayyid Jurjoniy, unga Allohning rahmati bo‘lsin!][2]ki, inhirot tavfiqi Xoja Alouddin ashobi sulukida topqondur va niyozu ixlos alarning xodimlar va mulozimlarig‘a

paydo qilg‘ondur. Borlar der ermishlarki, to men Shayx Zaynuddin Aliyi Kulol suhbatig‘a yetmadim, rafzdin qutulmadim va to Xoja Attor majlisig‘a ulanmadim, Tengrini tanimadim. Xoja Attorning qudsi kalimotidinkim suhbat majolisida buyururlar ermish, Hazrat Xoja Muhammad Porso q. s. kitobat qaydig‘a kiyurgondin Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da mazkur qilibdurlar. Anga yetgan kishi ul favoiddin bahramand bo‘lur. Alar sakkiz yuz ikkida Rajab oyining yigirmasida chorshanba kechasi xufton namozidin so‘ngra olamdin o‘ttilar va qabrlari Chag‘oniyondadur.

452. Xoja Muhammad Porso r. t.

Alarning oti Muhammad b. Muhammad b. Mahmud Hofiz Buxoriydur q. s. Ulug‘ Xojaning kibor ashobidindurlar va Hazrat Xoja alar haqida buyurubdurlar va o‘z ashobida, huzurlarida alarg‘a xitob qilibdurlarki, haqi va amonatiki, Xojalar xonadoni xulafosidin bu zaifg‘a yetibdur. Va har ne bu yo‘lda kasb qilibdur, borini sizga topshurduq. Andoqki, birodari diniy Mavlono Orif topshurdi, qabul qilmoq kerak va ul amonatni xalqqa tegurmak kerak. Alar tavoze’ ko‘rguzub, qabul qildilar va oxiri marazda alar g‘aybatida ashob huzurida alar haqida buyurdilarki, maqsud bizing zuhurimizdin oning vujudidur va anga ikkalasi tariyq bilaki, jazba va suluk bo‘lg‘ay, tarbiyat qilibman. Agar mashg‘ulluq qilsa, olam ondin munavvar bo‘lur. Yana. bir mahalda burx sifotin mavhibat nazari bila alarg‘a karomat qildilar va Hazrat-Mahdum n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, burx sifoti «Qut ul-qulub» kitobida mazkurdur va yana bir mahal mavhibat nazari bila alarg‘a nafsni bag‘ishladilarki, har ne alar desalar ul bo‘lg‘ay va yana birmahalda dedilarki, harne ul desa Haq taolo oni qilur. Hadisi sahih hukmi bilaki: [Allohning bandalari ichida shundaylari borki, agar Allohga qasam ichsalar, Haq qasamlarini rost keltiradi][1] dermanki, dey, ul demas. Va yana bir mahalda alarg‘a xufya zikri buyurdilar va ijozat berdilar amalig‘a ul mujib bilaki, tariqat odobining daqoyiqu haqoyiqidin ulcha bilur va oning ta’limidin, [bulardan tashqari benihoyat iltifotlari bor][2].

Va sakkiz yuz yigirma ikkida Muharram oyining Bayt ul-harom va Nabii ziyorati alayhis salavot vas-salom niyati bila Buxorodin chiqdilar va Nasaf yo‘li bila Chag‘oniyon va Tirmiz va Balx va Hirotqa mazoroti mutabarrikaki, ziyorat qasdi bila azimat qildilar. Barcha yerda sodot va mashoyix va ulamo alarning sharif maqdamlarin mug‘tanam bildilar va tamom e’zoz va ikrom bila talaqqiy qildilar. Va Hazrat Maxdum n. m. n. debdurlarki, xotirg‘a kelurki, chun Jom viloyatidin o‘tar erdilar. Qiyos andoq qilurkim, jumodul-avvAliing oxiri yo jumod ul-oxirning avvallari erdi erkin. Mazkur bo‘lg‘on yildinki bu faqirning otasi jame’ kasir niyozmandlar va muxlislar bila alarning ziyorati qasdig‘a chiqib erdilar va maning umrum hanuz besh yilda bo‘lmaydur erdi. Otam mutaalliqlaridin biriga ayttikim, mani egniga ko‘tarib, alarning mahofasining ilayiga tutdi. Alar iltifot qilib, bir bosh kirmoniy nabot ilgimga berdilar. Bu kun ul ta’rixdin oltmish yildurki, hanuz tal’atlarining safosi maning ko‘zumdadur va muborak diydorlarining lazzati mening ko‘nglumdadur va hamonoki ixlos va e’tiqod va irodot va muhabbat robitasi bu faqirg‘aki Xojalar q. a. honadonig‘a voqe’dur, ul nazarning barakatidir erkin va umidim uldurki, ushbu robita yumnidin alarning muhiblari va muxlislari zumrasida mahshur bulg‘aymen. Va Jomdin o‘tub chun Nishoburg‘a yetibdurlar; havo harorati va yo‘l xavfi jihatidin ashob orosida so‘z o‘tar ermish va fil-jumla futuri ul azimatqa yo‘l topqon chog‘lig‘ ermish. Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. devonin tafo’ul tariqi bila ochibdurlar. Bu ab’yot kelibdur.

R u b o i y:

[Ey Haq oshiqlari, abadiy iqbolg‘a yetish uchun yo‘lga tushing!
Oy kabi saodatli burj tomonga ravona bo‘ling!
Qaysi shahar, qaysi joy, qaysi dashtni bosib o‘tsangiz,
Allohning tavfiqu amonida yo‘lingiz muborak bo‘lsin!][3].

Va andin Buxorog‘a maktub yiboribdurlarki, Haq subhonahu ismi bila bu bitildi, ul kundaki

Nishoburdin chiqilib erdi va ul kun ta’rix sakkiz yuz yigirma ikkida jumod ul oxir oyining o‘n birinchi kuni erdiki, sihat va salomat va rafohiyat holida va vusuqi tamom, ilohiy fazl va ikromig‘a va qalb quti va yaqin quvvati nomutanohiy fayz va fazlg‘a bor ekan vaqtda ishorat bobashorat hukmi bilaki, [Rasululloh s. a. v. yaxshi bashorat qilardi, badgumonlik qilmasdi. Rasululloh s. a. v. dedi: mendan keyin payg‘ambarlik bo‘lmaydi. Faqat bashoratlar bo‘ladi. Mo‘‘min kishi bu bashoratlarni tushida ko‘radi yoki unga ko‘rsatiladi. Bu hadisning sahihligiga ittifoq qilingan].

B a y t:

[Ey hidoyat payg‘ambari, so‘zlaring madadkorim,
tayanchim, eshigingda umid va iltijo qilaman][4].

Va chun sihat va salomatlig‘ bila Makkai muhtaramag‘a yetishtilar va haj arkonin tamom ado qildilar. Alarg‘a maraze oriz bo‘ldi. Andog‘ki, vido’ tavofin ammori bila qildilar va andin Madinai muborakka mutavajjih bo‘ldilar. Va yo‘lda ashobin tilab imlo qilibdurlarki, [Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Sakkiz yuz yigirma ikkinchi sana, zul-hijja oyining to‘qqizinchi – shanba kunida Allohu Taolo mukarram va muborak qilgan Makkadan chiqayotganimizda, ertalab kun yorishgan payti sufilar toifasining peshvosi Junayd q. t. s. oldimga keldi. Men o‘sha payt mudroq holatda edim. Alloh undan rozi bo‘lsin, Junayd o‘zining ziyorati va bashorati haqida dedi: Bu haj qabuldir. Men bu so‘zni eslab qoldim va uning bashoratidan xursand bo‘ldim. Keyin mudroqlikdan sergak tortdim. Buning uchun Allohga hamd bo‘lsin!)[5]

Andin so‘ngra yana kalimot ham arabiy iborat bila imlo qilibdurlarki, tarjimasi bu bo‘lurki, bu kalimai vohidaki, Sayyid ut-toifa Junayd q. s. din voqe’ bo‘ldi, kalimadur jome’ai tomma va bashoratdur shomilai omma bizga va avlodimizga va ashobu ahbobimizgaki hozir yo g‘oyibdurlar. Aning uchunki, bizning qasdimiz bu izomi mashoir va ad’iyaki, har mahalu zdaqomda qilildi, barchaning diniy va dunyoviy masolihi erdi va ul qasd bu bashorat muqtazosi bila maqbul: [ne’matlariga yetkazgan va ziyoda mukofotlagan Allohu subhonahuga pok, muborak hamd bo‘lsin!][6] Va oyning yigirma uchida chahorshanba kuni Madinag‘a yetibdurlar va Hazrat Risolat s. a. v. din bashorat topibdurlar va ul imlo musavvadasin tilabdurlarki, anga nima orturg‘oylar? Chun mutolaa qilibdurlar. Debdurlarki, ushbular-o‘qdur va ortug‘roq bitimaydurlar va panjshanba kuni Haqning jivori rahmatig‘a vosil bo‘lubdurlar va Mavlono Shamsuddin Fannoriy Rumiy va Madina ahli va qofila alarg‘a namoz qilibdurlar va juma kechasi ul muborak manzilda nuzul qilibdurlar. Amir ul-mo‘‘minin Abbos r. a. ning muborak marqadining jivorida dafn bo‘lubdurlar. Va Shayx Zan-nuddin Xavofiy hazratlari Misrdin bir oq tosh yo‘ndurub kelturub, ularning qabrining lavhi qilibdurlar. Oning bila soyir quburning tegrasidin mumtozdur. Siqotdin biriki, alarning farzandi Xoja Burhonuddin Abunasr r. a.ning maxsusi erdi, ulardin mundoq naql qildiki, ul vaqtdaki volidi buzurgvor favt qildi. Men boshlarn ustida hozir emas erdim. Chun hozir bo‘ldum. Muborak yuzlarin ochtimkim, nazare qilayin. Ko‘z ochib tabassum qildilar va mening iztirobim ortuq to‘ldi. Oyog‘lari sori «elib, yuzumni tobonlarig‘a surttum. Oyog‘larin yuqori torttilar. Chun alarning xabariki, Rasul s. a. v. Madinasida naql qilibdurlar. Ajam akobiridin ba’zig‘a yetishti. Bu iborat buyurdikim, «ham anda uzaldiki, andin quvondi». Alarning murid va mu’taqidlaridin birov debdurki, alar Hijoz azimati qilurda vido’ vaqti dedimki, Xoja, siz bordingiz? Dedilarki, borduq. Ularning tayyiba anfosidindurki, ashobdin biriga bitibdurlarki, bu faqirning xotiri doim sizning zohiriy va botiniy ahvolingizg‘a nigoron bo‘lur va alad-davom ul birodar nisbatig‘a nazaroti be illati ilohiy shomildur: Sayyid ut-toifa Junayd q. s. debdurki, [karam ko‘zi ochilsa, keyin kelganlarni oldin kelganlar bilan bog‘laydi][7]. Bovujud bu kubaroyi din qoshida q. a. mo‘‘tabar asl budurkim, debdurlarki, ko‘shishdin tortma qo‘l va baxshishga muntazir bo‘l! Va debdurlarki, bizning Xoja hazratlaridin so‘rdilarki, tariqatni nima bila topsa bo‘lg‘ay? Dedilarki, shar’ bila va yana [ovqatlanishda o‘rtacha me’yor saqlansa, ya’ni o‘ta to‘q ham, o‘ta och ham bo‘lmasa!][8].

Va manom taqlilida e’tidol tariqi bila ko‘shish qilmaq, alal-xusus, [shom va xufton namozi orasidagi vaqtda quyosh chiqmasdan oldin, hech kimga bildirmay turmoq kerak][9]. Tavajjuh bila o‘ziga furu bormoq va xavotir nafyi alal-xusus tamanniy xotiri hol va moziy va mustaqbal nisbatig‘a yaxshi muassirdir [qalbdan pardalarni ko‘tarish uchun][10]. Va yana: [til behuda gapdan sukut qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi. Agar til gapga tushsa, qalb sukut qiladi. Sukut ikki xildir: tilning sukuti va qalbning dunyo andishalaridan sukut qilishi. Qimki, tilida sukut qilsayu qalbda sukut qilmasa, uning gunohi yengil bo‘ladi. Kimki, tilda ham qalbda ham sukut qilsa, unga sirlar zohir bo‘ladi, ulug‘ va qudratli Parvardigor unga tajalli qiladi. Kimki, tilida ham, qalbida ham sukut saqlamasa, shaytonning mulki va qo‘g‘irchog‘i bo‘ladi. Bundan barchamizni Allohning o‘zi asrasin! Kimki, qalbda sukut qilib, tilda sukut qilmasa, behuda gapdan tiyiladi, hikmat tili bilan gapirguvchi bo‘ladi. Allohu Taolo o‘z fazlu karami ila ulardan bizni nasibador qilsin!] [11].

Abu Nasr Porso q. s. va alardin so‘ngra alarning o‘rnida shajarai toyyibalari:

453. Xoja Hofizuddin Abu Nasr Muhammad b. Muhammad b. Muhammad Hofiz Buxoriy r. t.

Erdiki, ulumi shariat va rusumi tariqat poyasin buzurgvor otasig‘a yetku rub erdi va vujud nafni va mavjud bazlida alardin ham o‘tkarub erdi va satri holu talbisda bir masobada erdilarkim, hargiz alardin zohir bo‘lmas erdiki, bu yo‘lg‘a qadame urmish bo‘lg‘aylar va bu toifa ulumidin, balki soyir ulumdin mas’ala bilmish bo‘lg‘aylar va agar alardin savol qilsalar erdi, der erdilarki, kitobg‘a ruju’ qilali! Chun kitob kelturub, ochsalar erdi, to hamul mahalda chiqar erdi. yo maqsud varaqidin bir-ikki varaq yuqori yo qo‘yi. Mundin taxalluf qilmag‘ay erdi.

Bir kun alarning majlisida Shayx Muhiddin Arabiy q. t. s. zikri va oning musannafoti o‘tar erdi. Buzurgvor otalaridin rivoyat qildilarki, alar der erdilarki, «Fusus» jondur va «Futuhot» ko‘ngul. Va dag‘i der erdilarki, har kim «Fusus»ni yaxshi bilsa, anga Hazrat Risolat s. a. v. mutoba’atining doiyasi qaviy bo‘lur va alardin bu so‘z noqili Hazrat Maxdumiy n. m. n. dur va bu haqir alar ashobu muridlaridin bir siqa! kishidin eshittimki, alarning husnu xulqi bobida dedikim, bir kun alarning tag‘oyisiki, hofiz va xushxon kishi ermish bataxsis «Qur’on» o‘qimoqda. Bir kun bir mulozimig‘a g‘azab qilib, nafsoniyat yuzidin safohat qilib so‘kadur ermish. Alar yetibdurlar va oning g‘azabi o‘ti muntafi’ bo‘lmaydur. Alar anga iltimos qilibdurlarki, bizing uchun bir ushr «Qur’on» o‘qung! Bu iltimos hech kimga yo‘q der iltimos ermas, xususan, alardek buzurgvorg‘a. Zaruratan «Qur’on» o‘qumoq bunyod qilibdur. Bu latofat bila nahy munkar hech kishi yod bilmaski, kishini past martabadin ne biyik manzilg‘a dalolat qilg‘aylar va orada kulliy maqsud xud xo‘broq vajh bila hosil bo‘lg‘ay va alar sakkiz yuz-etmish beshda dunyodin o‘tdilar va qabrlari Balxdadur.

454. Xoja Hasan Attor r. t.

Alar Xoja Alouddin Attorning farzandidurlar. Qaviy jazbalari bor ermish. Va jazba tariqi bila har qachon har kimga tilasalar erkan, tasarruf qilurlar ermish va ani bu olamg‘a, huzur va shuur maqomidin o‘tkarib, bexudliq va beshuurliq olamig‘a yetkurur emishlar. Va g‘iybat va fano jomiki ba’zi suluk va mujohada ahlig‘a ado sabili nadrati voqe’ bo‘lur, anga tutar ermishlar. Va oncha Movarounnahr va Xurosonda bu ishning toliblar orasida alarning bu isrofu tasarrufi muqarrar va mashhurdur. Har kim dastbo‘sig‘a musharraf bo‘lsa ermish, bexud bo‘lub yiqulur ermish va haqiqiy sakru fano davlati anga muyassar bo‘lur ermish. Va derlarki, bir kun saboh uydin chiqqan ermishlar va g‘olib kayfiyatlari bor ermish. Ul holda har kishiga ko‘zlari tushubdur, kayfiyat va bexudlug‘ dast berib yiqilibdur. Alarning darveshlaridin biri muborak safar azimatig‘a Hiriyga kelgan ermish. Ko‘cha va bozor-dakim yurur ermish, elga andoq ma’lum bo‘lur ermishki, o‘z holida emas va anga botiniy kayfiyat g‘alaba qilibdur. Hazrat Maxdum n. m. n. debdurlarki, bu silsilada azizeki, men alar suhbatig‘a yetar erdim, alardin alarning holin istifsor qildim. Dedilarki, ul darveshning ishi budurki, doyim Xoja Hasanning suratin xotirda asrar va anga muroqib bo‘lur, bu ish barakatidin alarning jazbasi anga asar qilib, bu nav’ mag‘lublig‘ va bexudlig‘ anga dast berur. Va alar andoqki, Xojalar silsilasidagi

ba’zi azizlar bemorlar marazi yuki ostig‘a kirib, bemor sihhat topib, alar ul bemorlig‘ni tortarlar ermish. Hijoz safaridaki, Sherozg‘a yetibdurlar, ul yerning akobiridin biri alar nisbatig‘a irodat va ixlosi tamom ko‘rguzub erkandur, anga maraze toriy bo‘lg‘ondur. Xoja aning iyodatig‘a borib, maekur bo‘lg‘on dastur bila aning marazini qabul qilib, ul yuk ostig‘a kiribdurlar va ul aziz sihhat topib dur va Xoja Hasan hazratlari mariz bo‘lub, ul maraz bila olamdin o‘tubdurlar; Va alarning bu voqeasi sakkiz yuz yigirma oltida qurbon hayitining dushanba kechasida voqe’ bo‘lubdur. Va na’shlarin Sherozdin Chag‘oniyong‘aki, otalarining madfani andadur, naql qilibdurlar.

455. Mavlono Ya’qub Charxiy q. t. s.

Asli Charx degan yerdindurlarki, G‘azniyning kentlaridindur. Va Xoja Alouddin Attorning ashobidindur, balki Xojayi buzurgvor ashobidin ermish, Ul Hazrat olamdin naql qilg‘ondin so‘ngra Xoja Alouddin q. s. suhbatig‘a yetibdur. Mavlono der ermishlarkim, avval qatlakim, Hazrat Xojai buzurgvor muborak suhbatlarig‘a yetib, o‘zni topshurduk, alar buyurdilarki, biz o‘zlukumiz bila hech ish qilmasbiz, bu kecha ko‘ralikim, seni radmu qilurlar, yo qabulmu? Mavlono debdurki, hargiz ul kechadin sa’broq kecha manga o‘tmaydurkim, tong otquncha bag‘rim yuz laxt qon erdikim, yo Rab, bu eshikni manga qabul bila ochqaylar, yo rad qilg‘aylar. Alas-saboh chun Hazrat Xojayi buzurgvor subatlarig‘a bordim, inoyat qilib dedilarki, qabul qildilar, ammo sen Alouddin suhbatida bo‘lg‘ungdur, debdurlar. Andin so‘ngra men Badaxshong‘a tushtum va Xoja Alouddin, Hazrat Xojayi buzurgvor q. s. vafotlaridin so‘ngra Chag‘oniyong‘a kelib, mutavattin bo‘ldilar. Va manga kishi yuborib, Hazrat Xojayi buzurgvor ishorat qilg‘an so‘zni izhor qildiladr. Va men alar xidmatig‘a kelib, to alar hayotda erdilar, alar xidmatida bo‘ldum. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. Hazrat Xoja Ubaydulloh q. s. din mundoq debdurlarki, alar Hazrat Mavlono suhbatig‘a yetibdurlar va mundoq debdurlarki, Hirotda erdim, manga Hazrat Mavlononing xidmati doiyasi paydo bo‘ldi. Chag‘oniyon viloyatig‘a mutavajjih bo‘ldum va ko‘p mashaqqat va mehnatdin so‘ngra anda yettim. Va hamonoki tamom, yo aksar yo‘lin yayog‘ bormish bo‘lg‘aylar. Va debdurlarki, chun alar suhbatig‘a musharraf bo‘ldum, alarning yuzida bayozeki, tab’g‘a mujibi tanaffur bo‘lg‘ay, zohir erdi va manga qatig‘ demak siyosat libosida zohir bo‘ldilar. Va ancha irik so‘zlab, siyosat qildilarki, yaqin erdiki, alardin mening botinim munqate’ bo‘lg‘ay. Bag‘oyat mahzunu mag‘mum bo‘ldum. Yana bir qatlaki, alar suhbatig‘a yetishtim, manga mahbubliq va jamoliyat suratida zohir bo‘ldilarki, hargiz ul xo‘blug‘ bila kishi ko‘rmaydurmen. Va nihoyatsiz lutf ko‘rguzdilar. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, bu mahaldaki Xoja xidmatlari bu so‘zni deydur erdilar, mening nazarimg‘a bir aziz surati bila ko‘rundilarki, manga aning jonibi irodat va robitai tamom bor erdi. Va ul aziz olamdin o‘tub erdi va filhol ul suratni xul’ qildilar va hamonoki ul ish Xoja xidmatlarig‘a ixtiyor va shuur bila voqe’ bo‘lub erdi erkin. U ma’no isbotig‘aki, Hazrat Mavlonodin naql qildilar. Va derlarki, Hazrat Mavlono, der ermishlarki, tolibeki bir aziz suhbatig‘a kelur. Xoja Ubaydullohdek kelmoq kerak, charog‘ muhayyo qilg‘on va yog‘ va fatilani tayor yasagan, ham ul gugurd anga tutmak kerak. Xoja Ubaydulloh q. s. der emishlarki, Mavlono xidmatlari Hazrat Shayx Zaynuddin Xavofiy xidmatlari bila Mavlono Shihobuddin Sayrafiy qoshinda hamsaboq erkandurlar. Bir kun mendin so‘rdilarki, derlarki, Shayx Zaynuddin vaqoe’ hallig‘a va maqomot ta’birig‘a ko‘p ishtig‘ol ko‘rguzurlar. Dedim, bale, andoqdur. Mavlono soate o‘zlaridin g‘oyib bo‘lurlar erdi. Chun hozir bo‘ldilar, bu baytni o‘qidilarki,

b a y t:

[Oftobning quliman, oftobdan gapiraman, tun
ham, tunparast ham emasman, uyqudan gapirsam][1].

456. Xoja Alouddin G‘ijduvoniy q. s.

Xoja Ubaydulloh debdurlarki, Xoja Alouddin G‘ijduvoniy buzurgvor Xojaning ashobidin ermish. Va

Hazrat Xoja ani Hazrat Xoja Muhammad Porso suhbatlarig‘a amr qilg‘ondurlar. Va azim istig‘roqi bor ermish. Va bag‘oyat shirintakallum ermish. Goh bo‘lur ermishki, so‘z aytadurg‘onning orasida o‘zdin g‘oyib bo‘lur ermish. Xoja Muhammad Porso q. s. muborak safarg‘a azimat qilg‘onda ani ham o‘zlari bila eltibdurlar. Samarqand akobiridin biri aytibdurkim, Xoja Albuddin bag‘oyat qari va zaif bo‘lubdur, andin hech ish kelmas, agar ani qo‘yub borsangiz bo‘lur. Xoja debdurlarki, aning bila hech ishimiz yo‘qdur, mundin o‘zgakim, har qachon ani ko‘rsak, Xojalar nisbati xotirg‘a kelur.

457. Mavlono Nizomuddin Xomush q. s.

Xoja Alouddin Attor ashobidindur. Va tahsil avonida Xojai buzurgvorni Buxoro ulamosidin birining majlisida ko‘rgan ekandur. Andin so‘ngra Xoja Alouddin suhbatig‘a yetibdur. Avoyilda anvo’i riyozotu mujohadotg‘a mashg‘ul bo‘lur erkandur. Va nafs tazkiyasi va ko‘ngul tasfiyasig‘a ko‘p jidd ko‘rguzur erkandur. Va debdurki, avval qatlaki, Xoja Alouddin suhbatig‘a bordim, Xojai buzurgvor ashobidin biri alarning eshikida o‘lturub erdi. Manga dediki, vaqt bo‘lmadiki, zuhdu pokizaliklaringdin chiqqaysen? Bu so‘z menga og‘ir keldi, ammo Xoja qoshig‘a kirganda alar ham ushbu so‘zni dedilar, vale manga og‘ir kelmadi. Hazrat Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariyning alardin ko‘p naql-lari bor «Nafohot ul-uns»da. Va ul jumladin biri budurkim, debdurlarki, bir kecha inkor ahlidin biri alar borasida so‘zlar aytadur erdi va men muqobalada javoblar aytadur erdim, andoqki so‘z uzoqqa tortti. Va ul yerdinki, biz erduk, alarning manzilig‘acha uzoq yo‘l erdi, andoqki imkon yo‘q erdiki, so‘z eshitilg‘ay. Tong erta alar xidmatig‘a chun bordim, dedilarki, kecha sening unung bizni tashvishga soladur erdi. Har kishi har ne desa, javob berma va o‘z ishingga mashg‘ul bo‘l! Hazrat Maxdumi n. m. n. Hazrat Xoja Ubaydulloh q. s. din naql qilibdurlarkim, alar debdurlarki, bir kun alar xidmatig‘a boradur erdim. Yo‘lda manga oshnolardin biri yo‘liqti va so‘zga tutti, hamonoki, ul kishi chog‘ir ichib erdi. Chun alar xidmatig‘a yettim, dedilarki, magar sen icharsen? Dedim: yo‘q. Dedilar: pas sanga ne holdur? Dedim: Yo‘lda bir mast yo‘luqti, meni so‘zga tutti. Dedilar: pas bu aning holidurkim, sanga qolibdur.

458. Xoja Ubaydulloh Imom Isfahoniy q. s.

Ul dag‘i Xoja Alouddin ashobidindur. Ul debdurki, avval qatlaki Xoja majlisig‘a yettim, bu baytni o‘qidilarki,

b a y t:

[O‘zingdan kech, kamol faqat budur,
Mutlaq foniy bo‘l, visol faqat budur][1].

Ba’zi risolasida Aloiya toifasining tavajjuhi tariqin zikr qilibdurki, alarning botiniy nisbatlarnning parvarishi andoqdurki, har qachon tilasalarqi, anga ishtig‘ol ko‘rguzgaylar, avval ul kishining suratinki, bu nisbatni andin topibdurlar, xayol qilg‘aylar, ul zamong‘achakim, ma’hudi harorat va kayfiyatlari asari paydo bo‘lg‘ay. Andin so‘ngra ul xayolni nafy qilmag‘aylar, balki asrag‘aylar. Va ko‘z va quloq va barcha quvo bila ul xayol bila ko‘ngulda mutavajjih bo‘lg‘aylarki, haqiqati jomi’ai insoniy iborat andindurki, majmu’ koinoti ulvi va suflidin aning mufassalidur. Agarchi ul ajsomg‘a hululdin munazzahdur, ammo chun aning bila bu qit’ai lahmi sanavbari orasida nisbati bor. Ko‘z va xayol va barcha quvoni anga kelturmak kerak va aning hoziri bo‘lmoq va ko‘ngul eshikida o‘lturmoq. Bizga shak yo‘qturki, bu holatda g‘iybat kayfiyati va bexudlig‘i yuz ko‘rguzaboshlar. Ul kayfiyatni bir yo‘l farz qilmoq kerak va aning keynicha bormoq kerak. Va har fikrki kirsa, qalb haqiqatig‘a mutavajjih bo‘lub, ul fikrni nafyi qilmoq kerak. Va ul nimaga mashg‘ul bo‘lmoq kerak va ul mujmalg‘a kulliy qochmoq kerak. Va to ul nafyi bo‘lg‘uncha, ul shaxs suratig‘a iltijo qilmoq kerak. Va ani lahzae asramoq kerak, to yana ul nisbat paydo bo‘lg‘ay. Ul zamon xud ul surat nafy bo‘lur, ammo kerakki,

shaxs ul surati mutavajjihin nafy qilmag‘ay. Va ham ul kalimai tayyiba ma’nosida debdurki, nafyi ashyo kasrat va suvarin ul ayni vohidg‘aki, barcha soliklarning maqsudu matlubndur, roji’ qilmoqdin iboratdur. Va isbot barcha suvarni ul ayni vohidda mushohada qilmoq va bularni aning ayni ko‘rmakdin iboratdur. Pas «Lo iloha», ya’ni bu suvari muta-vahhima g‘ayriyati manfiydur va roji’ ham ul bir aslg‘adur. Va «Illalloh», ya’ni bu vohid ma’nodurkn, bu suvar bila ko‘runur, vallohu a’lam.

459. Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy q. s.

Avoyili holda ulum tahsilig‘a mashg‘o‘l ermishlar va mutadovila kutubni ko‘rgon ekandurlar va suvari jamiyatlari ham bor ekandur. Chun bu tariq doiyasi paydo qilibdurlr tark va tajrid qilib, Mavlono Nizomuddin suhbatlarig‘a ulanibdurlar. Der ermishlarki, necha yildin so‘ngraki, alar xizmatida erdim, menga Makka safari dag‘dag‘asi paydo bo‘ldi. Chun alardin ijozat tiladim. Alar dedilarki, har necha boqadurmen, bu yil seni hojilar qofilasida ko‘rmaymen va mundin burun voqealar ko‘rub erdimki, andin ko‘p mutavahhim erdim. Alar deb erdilarki, ko‘rqma, chun borursen, ul voqealaringni Mavlono Zaynudding‘a aytki, mutasharre’ kishidur va sunnat joddasida sobit. Va murodlarn bu so‘zdin Hazrat Shayx Zaynuddin Xavofiy ermishki, ul kun Xurosonda shayxuxat va irshod masnadida mutaayyin ermishlar. Mavlono debdurlarki, chun Xurosong‘a keldim va hajg‘a bormoq, andoq Mavlono Nizomuddin q. s. deb erdi. Necha vaqt tavaqqufg‘a qoldi va ko‘p yildin so‘ngra muyassar bo‘ldi. Chun Shayx xizmatig‘a yetishtim. Ul voqealarni arz qildim. Dedilarki, bizning bila ban’at qil va bizing irodatimiz qaydig‘a qil! Men dedim: Azizeki, men bu tariqni andin qabul qilibmen, hanuz hayot qaydidadur. Siz amin va murshidsizki, bu toifa tariqida bu joyizdur. Andoq qilai. Shayx dediki, istixora qil! Men dedimki, istixoramg‘a e’timodim yo‘qtur. Siz istixora qiling! Shayx dediki, ham biz istixora qiloli, ham sen istixora qil! Chun kecha bo‘ldi, istixora qildim. Ko‘rdimki, xojalar tabaqasi Hiriy ziyoratgohig‘aki, ul vaqt shayx anda ermishlar kiribdurlar, daraxtlarni qo‘ng‘oradurlar va tomlarni yiqadurlar va qahru g‘azab osori alarda zohirdur. Bildimki, ishorat ul ish man’ig‘adur. Xotirim jam’ bo‘ldi va osudalig‘ bila oyog‘imni uzotib, uyqug‘a bordim. Chun tonglasi Shayx majlisig‘a keldim. Ondin burunki, men voqeamni arz qilg‘aymen, Shayx dediki, tariq birdur va barcha birga-o‘q qayturlar. Hamul o‘z tariqing bila ishga mashg‘ul bo‘l! Agar voqea yo mushkile olling‘a kelsa, bizg‘a aytg‘il, qilaolg‘oncha madad qiloli! Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, Mavlonog‘a ul ma’noki anga mashg‘ul bulurlar g‘alaba va istilosi zohir erdi. Oz tavajjuh bila g‘aybat osori va bexudlug‘ kayfiyati yuz ko‘rguzur erdi. Kishikim, ul holdin voqif ermas erdi, sog‘inur erdiki, alarning uyqusi keladur. Avoildakim, alar suhbatig‘a yettim. Masjidi Jome’da alar xizmatida o‘lturub erdim. Alarg‘a hamul g‘aybat holi yuzlandi. Men gumon qildimki, alarg‘a uyqu keladur. Dedimki, bir soat istirohatg‘a ishtig‘ol ko‘rguzulsa yiroq emas. Alar tabassum qilib dedilarki, magar aqidang yo‘qdurki, bizga uyqudin o‘zga amre bor. Bir kun ayturlar erdi: darveshlardin ba’zi derlarki uyqu bila uyg‘og‘liq orasida farq mundin o‘zga yo‘qdurki, o‘zda xiffateki, uyqudin so‘ngra bo‘lur toporlar. Yo‘q ersa, alarning mashg‘ulluqlarining kayfiyati uyquda va uyg‘og‘liqda bir tariqa biladur. Balki uyqudakim, ba’zi mavone’ murtafe’ bo‘lur sofiyroq va qaviyroq bo‘lur va menga gumon andoqdurki, ulcha ayturlar erdi, ishorat o‘z hollarig‘a erdi, vallohu a’lam. Darveshlardin biriki, alar suhbatig‘a yetar erdi, mundoq hikoyat qildiki, menga va’z majlisidaki, darveshlar maoriflari o‘tar erdilar. Ko‘p tag‘ayyur voqe’ bo‘lub, ko‘p sayha va faryod qilur erdim va andin asru mahjub bo‘lur erdim. Bir kun bu holni alarg‘a dedim. Ayttilarki, har qachon senga ul tag‘ayyur voqe’ bo‘lsa, bizni yodingg‘a keltur! Ul vaqtki, alar Hijoz safarig‘a borib erdilar. Manga madrasalardin biridaki, bir aziz anda va’z aytur erdi, tag‘ayyur bo‘lmoq og‘ozi bo‘ldi. Alarg‘a tavajjuh qildim. Ko‘rdumki, madrasa eshigidin kirdilar va mening qoshimg‘a yettilar. Ikki iliklarni egnimga qo‘ydilar. Men o‘zumdin bordim va behush yiqildim. Ul vaqtki o‘z holimga kelib erdim, va’z majlisi tugonib erdi va ul xalq tarqab erdilar va kunas mening ustumga yetib erdi va ul kun ramazonning so‘nggi panjshanbasi erdi. Oni ko‘nglumda asradimki, alar Makkadin kelsalar, alarg‘a aytqaymen. Chun alar Makkadin tashrif kelturdilar va alar xizmatig‘a musharraf bo‘ldum. Jame’ alar xizmatida erdilarki, bu so‘zni alarg‘a

ayturdin mone’ erdilar ayta olmadim. Alar mening sori boqib dedilarki, panjshanbae erdiki, oning bila iyd orosida yana panjshanba yo‘q erdi. Alar sakkiz yuz oltmishda jumad ul-oxir oyining yettisida chorshanba kuni dunyodin o‘ttilar.

460. Xoja Ubaydulloh q. s.

Hazrat Maxdumi n. m. n. «Nafahot ul-uns»ni bitirda zamon mashoyixu akobirdinki hayot qaydida erdilar Hazrat Xoja Nosiruddin Ubaydullohdin o‘zga kishi ul tabarruk kitobda zikr qilmadilar va alar zikru manoqibida aytilg‘onning tarjimasi budurkim, oyot mazhari va karomot va valoyot majmai Xojalar tabaqasig‘a iltiyom robitasi va intizom silsilasi ul sharif qavmg‘a q. t. a. Hazrat Xoja va alarning muxlislari va niyozmandlaridurlar. Umid uldurkim, alarning sharif vujudlari barakatidin bu sharif silsilaning iltiyom va intizomi ilo yavmil qiyom imtidod topqay. Har necha bu faqirdin bu nav’ so‘zlar amsoli go‘stoxliq surati topar, ammo har necha o‘zum bila andisha qildim. Uzumdin oni topa olmadimkim, xotir anga qaror bera olmag‘aymenki, bu majmu’aki, munung jam’idin maqsud bu toifaning maorifining zikri va manoqibining nashridur, alarning zikridin xoli bo‘lg‘ay. Lojaram bu sharif silsilaning manoqibi sharhin va ahvolin alarning ba’zi qudsiya kalimotlari bilaki, maorif nigorxonalarining raqamzadasi bo‘lubdur, miskiyat ul-xitom qilildi. Hazrat Maxdumiy n. m. n. kim alar vasfida bu nav’ nukta surubdurlar, alarning maorifidin ba’zi so‘z kelturubdurlar. Chun so‘z bag‘oyat daqiqu biyik erdi va bu bebizoatning fahmi va idroki andin qosir. Alarning ba’zi holotiki, bu haqirg‘a mavhum va yaqin erdi anga shuru’ qilildi. Alarning mavlidi Toshkandur va otalari darvesh kishi ermish va ona tarafidin hamonoki, Shayxi Tahurki, ul viloyatda mutaayyin shayx ermish, anta yetarlar va o‘zlarida bu ish choshnisi tufuliyat ayyomidin bor ermish. Yigit bo‘lg‘ondin so‘ngrakim, sayohatg‘a qadam qo‘yubdurlar. Ko‘p mashoyix va avliyo xizmatig‘a yetib, suhbatlarig‘a musharraf bo‘lubdurlar, Xuroson mashoyyxidin Hazrat Mirsayid Qosim Anvor q. s. xizmatlarig‘a yetibdurlar va Shayx Bahouddin Umar r. t. mulozamatig‘a musharraf bo‘libdurlar va Shayx Zaynuddin Xavofiy suhbatig‘a yetibdurlar va Mavlono Muhammad Asad va Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy bila suhbat tutubdurlar va Movarounnahr mashoyixidin Xoja Muhammad Porso mulozamatig‘a yetibdurlar va Xoja Abu Nasr suhbatig‘a yetibdurlar va Mavlono Nizomuddin Xomush bila suhbat tutubdurlar. Mavlono Ya’qub Charxiy q. s. din irshodlar va tarbiyatlar topibdurlar va so‘ngralar Hazrat Xojag‘a oncha muknat dast berdiki, ma’lum emaski, mashoyixdin hech kimga ul dast beribdur yo yo‘q. Mulkka ajab istilo va salotin va mulukka g‘arib isrofu hukm, Movarounnahr salotini o‘zlarin alarning muridzodalari va. mahkumi hukmi tutorlar erdi. Yo‘qki, yolg‘uz Movarounnahr salotini, balki Xuroson va Iroq va Ozarbayjon, hattoki bir soridin Rum va Misrg‘acha va bir soridin Xito va Hindg‘acha barcha muluk va salotin o‘zlarin Xojaning mahkumi hukmi va ma’muri farmoni tutarlar erdi va ruq’alari bu saloting‘a oncha muassir erdikim, alarning ahkomi o‘z xuddomig‘a bo‘lmag‘ay va Hazrat Xojaga zohir jam’iyati barcha abnoi zamondin ko‘prak voqe’ erdi. Andoqki, botin jam’iyatidag‘i barcha abnoi zamondin balki ko‘p, moziy mashoyixdin dog‘i hamonoki ortug‘roq erdi va bu haqir bila iltifotlari ko‘p bor uchun vahyi osor ruq’alari bila musharraf qilib, ishlarga ma’mur qilurlar erdi.

Ul ruq’alarni muraqqa’ yasab, mujallad qilib, jadval va takallufot bila tabarruk yo‘suni bila asrabmen. Umidim ulki, alarning barakotidin bu ishning zavqi va talabi nasib bo‘lg‘ay. Alarning yoshi to‘qsondin olti oy o‘ksuk erdi. Sakkiz yuz to‘qson to‘rtda dunyodin o‘ttilar. Alarning ashobidin irshod va talqing‘a musharraf bo‘lg‘onlardin Mavlono Qosim va Mavlono Xoja Ali va Mavlono Mir Husayn va Mavlono Mir Muhammad va Mir Abdulavval va Mavlono Burhonuddin va Mavlono Lutfulloh va Mavlono Husayn Turk va darvesh Ahmad Jomiy erdi va yana dog‘i darveshlar bor erdilar va muxtasarda munchasi sobit bo‘ldi.

461. Mavlono Qosim q. s.

Hazrat Xoja Ubaydullohning kibor ashobidindur. Anjumanda hamdam va xilvatda mahram. Asli Farkat navohisidindur. Ellik yilg‘a yaqin ul Hazrat xizmatin andoq qildikim, hargiz alarning muborak

xotirlarig‘a andin g‘ayri muhabbat va iltifot voqe’ bo‘lmadi va Mavlono Qosimni salotin xizmatig‘a ba’zi arbobi hojot muhimmoti uchun yiborur erdilar va salotin istiqbol qilib, ta’zim bila o‘lturtub, har ne alar ul Hazratdin risolat qilsalar erdi, minnat tutub, hamul nav’ e’zoz bila uzoturlar erdi va Mavlono ul nav’ foniy va maqbul kishi erdikim, oni ko‘rgon kishi giriftor bo‘lur erdi.Ul jumladin, biri buhaqirdurkim, alarni ul Hazrat musulmonlar maslahati uchun Movarounnahrdin Hurosong‘a risolat rasmi bila yiborib erdilar va bu faqir hamul kelganlarida ko‘rub, alarning volihi bo‘lib erdi. Ul ishni yasab, azim e’zoz va ikromlar topib bordilar. Alarning yoshi yetmishdin o‘tub erdi. Olamdin o‘tganlari bu nav’ erdikim, Hazrat Xojaning azim za’flari bor erdi va so‘l yonlarida bir sanchiq emishki, barcha atibbo va xalq hayotlaridin tama’ munqati’ qilg‘an ermishlar. Mavlono ul holni ko‘rub, andoqki Xojalar xonavodasi ahli ba’zi dilxoh elning marazining yuki ostig‘a kirib ul yukni qo‘torib, mariz sihhat topar va ul kishi ul marazni tortar. Mavlono Qosim dog‘i Xojaning boshig‘a evrulub, ul marazni qabul qilib, og‘riq yuki ostiga kirib, ul yukni ko‘tarib, Hazrat Xoja hamul vaqtda sihhat topib, Mavlononing hamul so‘l yonig‘a hamul sanchig‘ turub, bir hafta hamul marazg‘a giriftor bo‘lub, jonlarin Xojalarig‘a fido qildilar.

Bir kun bu haqir Hazrat Maxdum n. m. n. xizmatlarida erdim va Xojai buzurgvor ashobidin so‘z o‘tadur erdi. Haqir ul Hazratdin savol qildimkim, alarning ashobidin bu tariqda alarning irshodi bila mu vofiq suluk qilib, faqr tariqida martaba hosil qilg‘on va fano rasmida yorug‘luq topib, o‘zluk zulmatidin xalos bo‘lg‘an ulki, sizing muborak xotiringizg‘a zohirdur, kimlar erkin? Alar dedilarkim, barcha bu tariqda yaxshi suluk va ravishlar qilibdurlar. Ammo biz Mavlono Qosimni bag‘oyat vorasta kishi topibbiz. Haq s. t. bu tabaqaning ahli irshodidin toliblarg‘a barchani o‘z fazlu karami bila daryoyi rahmatig‘a g‘ariq va o‘z bavoriqi qurbig‘a hariq qilg‘ay. Omin, yo Rabbal-olamin.

462. Abulhasan Bustiy r. t.

Ul Xoja Yusuf Hamadoniydek Shayx Abu Ali Formadiyning ashobidindur. Va bu mushkil va mashhur ruboiy andoqki, Ayn ul-quzot Hamadoniy rasoyilidin ma’lumdur, aning dururkim,

R u b o i y:

[Dunyoning pinhonlariyu jahonning asliii ko‘rdik va illatu ordan oson kechdik. U qora nur, gunohning qora nuqtasi emas, undanda kechdik. Unisi ham bunisi ham qolmadi][1].

463. Shayx Hasan Sakkok Simnoniy q. s.

Ul shayx Abulhasan Bustiining ashobidindur. Va Sakkokiya xonaqohiki, Simnondadur va Hazrat Abulmakorim Shayx Ruknuddin Alouddavla q. t. s. kim, avoyilda anda bo‘lur erkandur va arba’inot anda chiqaribdur va ba’zi amlokin anga vaqf qilibdur, anga mansubdur. «Nafahot»da mundoqdur.

464. Muhammad Hammuya Juvayniy q. t. s.

Kuniyati Abu Abdullohdur. Ul ham Shayx Abulhasan Bustiyning ashobidindur. Va zohiriyyu botiniy ulumi bila orosta erkandur. Ayn ul-quzot maktubotidin birida debdurki, oz kishi bu toifadin zohiriy ulum bilg‘ay, Xoja Imom Abu Homid G‘azzoliy va qardoshi Shayx Ahmad G‘azzoliy bu jumladindur. Va Xoja Imom Muhammad Hammuya dog‘n Guyonda bu jumladindur, ne bilayki ilm bilgay va buzurglardindur. Va anga bu toifa sulukida tasavvufda «Salovat ut-tolibii» otlig‘ tasnifdurki, anda bu tariqdin ko‘p haqoyiq va daqoyiq darj qilibdur.

465. Ayn ul-quzot Hamadonyy q. s.

Kuniyati va oti Abulfazoyil Abdulloh b. Muhammad b. Mayonajiydur. Ayn ul-quzot laqabidur. Shayx Muhammad Hammuya bila suhbat tutubdur. Va Shayx Imom Ahmad G‘azzoliy q. s. ning murididurur va suvariy va ma’naviy fazoyili musannafotidin ma’lumdur. Ne arabiy va ne forsiy onchakim,

haqoyiqu daqoyiq kashfi va sharhi ul qilibdur, bu toifadin oz kishi qilmish bo‘lg‘ay. Va ondin xavoriqi odot ihyoyu amvotqacha zuhurg‘a kelibdurlar. Va aning bila Shayx Imom Ahmad G‘azzoliy q. s. orasida ko‘p mukotabot va murosalot bor. Ul jumladin biri «Ayniyya» risolasidurkim, Hazrat Maxdumi n. m. n. debdurki, imom anga bitibdurki, ravonlig‘ va salosatda aytsa bo‘lurki, naziri yo‘qdur. Va Ayn ul-quzot «Zubdat ul-haqoyiq» kitobida bitibdurki, andin so‘ngra rasmiy ulum guftu go‘yidin malul bo‘ldum. Hujjat ul-islom musannafoti mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘ldum va to‘rt yilg‘acha ishtig‘olim munga erdi. Chun maqsudumni andin hosil qildim, sog‘indimki, asli maqsudnmg‘a yetdim.

B a y t:

[Zaynab va Rubob manziliga tush va joylashib olki, u yer yoru do‘stlarning istiqomat joyidur][1].

Va yaqin erdiki, talabni tark qilg‘aymen va ma’lum qilg‘onimg‘a iktifo ko‘rguzgaymen. Bir yil bu maqomda qoldim. Nogoh Sayyidiy va mavloyi shayxul-islom sulton ut-tariqa Ahmad bin Muhammad G‘azzoliy r. t.

Hamadong‘akim, mening asli vatanimdur, keldi va aning suhbatida yigirma kunda manga bir nima zohir bo‘ldiki, mendin va talabimdin o‘zga hech nima boqiy qo‘ymadi, illo moshoalloh. Va manga emdi hech ish yo‘qdur, fano talabidin o‘zga ul nimada. Va agar Nuh umri topsam va bu talabda fano qilsam, hech ish qilmamish bo‘lg‘aymen. Va ul nima olamni ihota qilibdur. Ko‘zum hech nimaga tushmagayki, aning yuzin anda ko‘rmagaymen. Har nafaski, istig‘roqim anda ortmag‘ay manga muborak bo‘lmasun.

466. Shayx Baraka r. t.

Ayn ul-quzot r. o‘z musannafotida andin hikoyat aytur. Bir yerda debdurki, Baraka fotiha va bir necha suradin o‘zga Qur’ondin bilmas va ani ham qoida sharti bila o‘qiy olmas. Va «qola yaqulu» o‘qimaydur va bilmas. Va Hamadoniy til bila mavzun so‘z ayta olmas: Va men bilurmenki, Qur’on ul bilur durust va men bilman, magar ba’zini. Ba ul ba’zini ham tafsir va aning g‘ayridin bilmanmen, aning xidmati yo‘lidin bilurmen. Va yana bir yerda debdurki, Hazrat Xoja Imom Shayx Ahmad G‘azzoliy q. s. din eshittimki, dediki, Hazrat Shayx Abulqosim Gurgoniy r. t. hargiz iblis demas erdi. Har qachon aning oti mazkur bo‘lsa erdi, Xojai xojagon va Sari mahjuron der erdi. Shayx Baraka chun eshitti, dediki, Sari mahjuron degani yana bir fiqra yaxshiroqdur.

Yana bir yerda debdurki, Baraka r. a. dediki, birovning bir farzandi bor erdi. Andin so‘rdiki, ey farzand, hargiz rishgov bo‘lubsen? Ul dediki, rishgov kimdur? Dedi uldurki, har saboh uyidin chiqsa, ayturki, bu kun bir ganj topsam! Debdurki, ey ota, to men bor ekanmen, rishgov ekanmen.

467. Shayx Fatha r. t.

Ayn ul-quzot q. s. musannafotida Shayx Fathadii hiqoyat qilur! Bir yerda debdurki, Fatha ayttiki, Haq s. t. din shar yetmas. Va yana bir yerdakim, Baraka q. s. din eshittimki, Fatha der erdiki, Iblis dediki, mendin siyoh gilimroq Fathadur. Va bu so‘zdin so‘ngra yig‘ladi. Va yana bir yerda debdurki, chun murshidlar va pirlar komil bo‘lsalar, bilurlarki, har murid qaysi maqomg‘acha yetaolur, andoqki Fatha aytur erdi. Va andin ko‘p eshitib erdiki, falon falonning qadamig‘a yetkusidur va falon falonning, vallohu taolo a’lam.

468. Shayx Ziyouddin Abunnajib Abdulqohir Suhravardiy q. s.

Zohir va botin ulumida komil ekandur. Ko‘p tasnif va ta’lifi bor. Nisbati o‘n ikki vosita bila amir ul-mo‘‘minin Abubakr Siddiq r. a. ga yetur. Va tasavvufda nisbati Shayx Imom Ahmad G‘azzoliy q. s.

dur.

Ul «Adab ul-muridin» kitobida kelturubdurki, [agar faqirlik ko‘ngul rizosi bilan bog‘liq bo‘lsa, boylikdan afzalligiga ittifoq qilishgan. Bir kishi «Beruvchi qo‘l oluvchi qo‘ldan yaxshiroqdir» – deb, payg‘ambar a. s. so‘zini dalil keltirsa, unga aytiladi: «Beruvchi qo‘l o‘zida borini berish bilan fazilatga ega bo‘ladi. Oluvchi qo‘l borini hosil qilish bilan nuqson topadi».

Ammo saxovat va ehsonning afzalligi faqirlikning fazilatiga dalildir. Kimki, boylik, infoq-ehsonni faqirlikdan afzal desa, go‘yo tavba sharofatidan gunohni toatdan afzal bilgan odamga o‘xshaydi][1]. Va Imom Yofi’iy tarixida debdurki, Shayx Abunnajib q. s. ashobidin biri dediki, bir kun Hazrat Shayx bila Bag‘dod bozoridin o‘tar erduk. Bir qassob do‘konig‘a yettuk, bir qo‘y osig‘liq erdi. Shayx ko‘zi ul qo‘y sari tushgach dediki, bu qo‘y aytadurki, meni o‘lturmaydurlar, o‘zum o‘lubmen. Qassob bu so‘zdin bexud yiqildi. O‘ziga kelgach, Shayxning qavli sidqig‘a iqror qildi va toyib bo‘ldi. Va Shayx Abunnajib Suhravardiy besh yuz oltmish uchda bu olamdin o‘tubdur.

469. Shayx Ammor Yosir q. r.

Shayx Abunnajib Suhravardiyning ashobidindur, Noqislar takmilida va muridlar tarbiyatida va alarning vaqoe’ kashfida bag‘oyat komil ermish. Shayx Najmuddin Kubro q. s. «Favotih ul-jamol» otlig‘ kitobida kelturubdurkim, chun Shayx Ammor Yosir xidmatig‘a yettim va aning izni bila xilvatqa kirdim, xotirg‘a keldikim, chun ulumi zohiriy iktisobin qilibmen, g‘aybi futuhot dast bergandin so‘ngra ani minbarlar ustida Haq subhonahu toliblarig‘a yetkurgaymen. Chun bu niyat bila xilvatqa kirdim, xilvat tamom muyassar bo‘lmadi va chiqdim. Shayx dedikim, avval niyating tashihin qil, andin so‘ngra xilvatqa kir! Aning botinining nurining partavi ko‘nglumga tushdi, kitoblarimni vaqf qildim va liboslarimni fuqarog‘a ulashdim, bir jubbadin o‘zgakim kiyib erdim: Va dedimkim, bu xilvatxona mening qabrimdur va bu jubba kafanim, manga yana tashqari chiqmoqning imkoni yo‘qdur. Va azm qildimkim, agar manga chiqmoq doiyasi g‘olib bo‘lsa, kiyganimni yirtayin, to sotiri avrat qolmag‘ay va to istihyo xuruj man’i bo‘lg‘ay. Shayx manga boqdi va dediki, kirgil, niyatni durust qilding. Chun kirdim, xnlvat itmomi dast berdi. Shayxning himmati yumnidin futuhot eshiklari yuzumga ochildi.

470. Shayx Ro‘zbexoni Kabir Misriy r. t.

Goziruniyul-asldur, ammo Misrda bo‘lubdur. Shayx Abunnajib Suhravardiy q. s. muridlaridindur. Aksar avqot istig‘roqda bo‘lur ermish. Va Shayx Najmuddin Kubro aning suhbatig‘a yetibdur va anda riyozatqa mashg‘ul bo‘lubdur va xilvat o‘lturubdur. Va Shayx Ro‘z-bexoni Kabir alarni quyavliqqa qabul qilib, alarg‘a Shayxning qizidin ikki o‘g‘ul bo‘lubdur. [Majduddin Bag‘dodiyning «Tuhfat ul-bararah» kitobida yozilgan: «Shayximiz Abuljanobdan eshitdim. U kishi Misrda Ro‘zbexonning shunday deganini eshitdim, deydi: «Menga bir necha marotaba «namozni tark qil, sen bunga muhtoj emassan»,– deyildi. Men: Ey Rabbim, bunga toqat qilolmayman, menga boshqa narsani taklif qil”,– dedim][1].

471. Shayx Ismoil Qasriy q. s.

Ul ham Shayx Abunnajib Suhravardiy ashobidindur. Va Shayx Najmuddin Kubro q. s. aning suhbatig‘a yetibdur va aning iligidin xirqa kiyibdur. Va ul Muhammad Monkildin va ul Muhammad b. Dovud al-ma’ruf bi-Nodim ul-fuqarodin va ul Abulabbos Idrisdin va ul Abulqosim Ramazondin va ul Abu Ya’qub Tabariydin va ul Abu Abdulloh b. Usmondin va ul Abu Ya’qub Nahrajuriydin va ul Abu Ya’qub Susiydin va ul Abdulvohid b. Zayddin va ul Kumayl b. Ziyoddin q. t. a. va ul amir ul-mo‘‘minin Ali b. Abu Tolib r. t.din va alar Hazrat Risolat s. a. v. din. [Ba’zi asarlarida Shayx Ruknuddin Alouddavla Simnoniy, Alloh ruhini muqaddas qilsin, shunday zikr qilgan][1].

472. Shayx Najmiddin Kubro q. t. r.

Kuniyatlari Abuljanobdur va otlari Ahmad b.

Umar Xevaqiy va laqablari Kubrodur. Va debdurlarki, alarg‘a Kubro andin laqab bo‘ldiki, yigitlik avonidakim, zohir ulumi tahsilig‘a mashg‘ul ermishlar, har kim bilakim, munozara va mubohasa qilsalar er-mish – ul kishiga g‘olib bo‘lurlar ermish. [Shuning uchun unga «Tommat ul-kubro» laqabini berdilar. U ancha vaqtgacha shu laqab bilan atalib keldi. Keyinroq «tomma» so‘zini qoldirib, «Kubro» deb atay bosh-ladilar. Mana shu vajh to‘g‘riroqdir. Buni uning rostgo‘y, ishonchli ashoblari naql qilgan][1]. Va alarni Shayx Valitarosh ham debdurlar. Oning uchunki, vajdu hol g‘alabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat martabasig‘a yetar ermish.

Bir kun bir tojir tafarruj rasmi bila Hazrat Shayx xonaqosi eshigiga borg‘on ermish va ul Hazratqa qaviy holate ermish, muborak nazarlari ul bozirgong‘a tushmish. Filhol valoyat martabasi anga hosil bo‘lmish. Shayx anga irshodu talqin ijozati bitib, o‘zi mulkiga uzatmishlar, to ul mulkda xaloyiqni Tengriga irshod qilg‘ay. Bir kun ul Hazrat majlisida Ashobi kahf ahvolianing taqriri va tahqiqi o‘tar erdi. Shayx Sa’diddin Hamaviy q. s.ki, Hazrat Shayxning ashobidindur, xotirig‘a o‘ttikim, oyo bu ummatda andoq kishi o‘lg‘aymukim, suhbati itga asar qilg‘ay? Hazrat Shayx karomot nuri bila ma’lum qildilar va qo‘pub xonaqoh eshigiga borib turdilar. Nogoh bir it yetishdi va quyrug‘in tebratadur erdi. Alarning mubarak nazarlari ul it sori tushdi. Filhol baxshish topib, mutahayyir va bexud bo‘lub, shahrdin yuz evurdi va go‘ristong‘a mutavajjih bo‘ldi va boshin yerga surtar erdi. Debdurlarki, har yon borsa, kelsa erdi, ellik-oltmishqa yaqin it oni erishib, ondin ayrilmaslar erdi va qayda sokin bo‘lsa, tegrasida halqa urub, iliklarin ilik ustiga qo‘yib, un chiqarmaslar erdi va nima yemaslar erdi va hurmat bila turarlar erdi. Oqibat ul yaqinda o‘ldi. Ul Hazrat buyurdilarki, oni dafn qildilar va qabri boshida imorate yasadilar. Hazrat Shayx Tabrizda «Muhyis sunna»ning shogirdlaridin biri qoshidaki, oliy sanadi bor ermish «Sharh us-sunna» kitobi o‘qur erdi. Chun oxirlarig‘a yetti. Bir kun ustod huzurida jam’i aimma bila o‘lturub «Sharh us-sunna» o‘qur erdi. Darveshe kirdiki, tanimaslar erdi. Ammo aning mushohadasidin Shayxqa tag‘ayyur yo‘l topdi. Andoqki qiroat majoli qolmadi. So‘rdilarkim, bu na kishidur? Dedilarki, Bobo Faraj Tabriziydurki Haq taoloning majzublari va mahbublaridindur. Shayx ul kecha beqaror erdi. Saboh ustod xizmatig‘a kelib dediki, Bobo Faraj xizmatig‘a borali va iltimos ko‘rguzdi. Ustod ashob bila muvofaqat ko‘rguzdilar. Bobo xonaqosi eshigida xodime erdi, Bobo Shodon otlig‘, chun alarni ko‘rdi, ichkari borib, Bobodin ijozat tiladi. Bobo dedikim, agar andoqki Tengri dargohig‘a borurlar, kela olsalar, kir, denglar! Shayx debdurkim, chun Boboning nazaridin bahramand bo‘lub erdim. So‘zining ma’nisini bildim. Har ne kiyib erdim, chiqardim va ilikimni ko‘ksumga qo‘ydum. Ustod va ashob ham muvofaqat qildilar. Bobo qoshig‘a kirduk va o‘lturduq. Bir zamondin so‘ngra Boboning holi mutag‘ayyir bo‘ldi va suratida azimate paydo bo‘ldi va quyosh qursidek duraxshon bo‘ldi va liboskim kiyib erdi, anga sig‘a olmay, shikof bo‘ldi. Chun bir zamondin so‘ngra o‘z holig‘a keldi, qo‘pti va ul libosini menga kiydurdi va dedikim, senga daftar o‘qur chog‘ emas, vaqtdurki, olamning sardaftari bo‘lg‘aysen. Mening holim mutag‘ayyir bo‘ldi va botinim har nedin Haq g‘ayridur munqati’ bo‘ldi. Chun andin chiqtuq. Ustod ayttikim «Sharh us-sunna»din oz qolibdur. Bir-ikki kunda oni o‘qi! O‘zga o‘zung bil! Chun sabaq boshig‘a bordim. Bobo Farajni ko‘rdumki, kirdi va dedi: Tuno kun manzili «ilm ul-yaqin»din o‘ttung. Bu kun yana ilm boshig‘a borursen. Men dars tarkin tuttim va riyozat va xilvatqa mashg‘ul bo‘ldum. Ulumi laduniy va voridoti g‘aybiy ko‘rina boshladi. Dedim: hayf bo‘lg‘ayki, ul favt bo‘lg‘ay! Oni bitir erdim. Boboni ko‘rdumki, kirdi va dedi: shayton senga vasvasa beradur. Bu so‘zlarni bitima! Davot va qalamni tashladim va ko‘ngul barchadin jam’ qilib, qulluq boshladim. Amir Iqbol Siyistoniy Shayx Alouddavla q. s.dinki oning piridur va oning so‘zlaridin bir kitob jam’ qilibdur. Mundoq naql qilibdurki, Shayx Najmuddin Kubro Hamadong‘a borib, Hadis ijozati hosil qildi va eshittiki, Iskandariyada muhaddise iorki, oliy sanadi bor. Onda ham borib, ijozat hosil qildi. Qaytib kelurda, Hazrat Risolat s. a. v.ni voqeada ko‘rdi va iltimos qildiki, Hazrat anga kuniyate bag‘ishlag‘ay. Abuljanob kuniyatn Hazratdin anga inoyat bo‘ldi. So‘rdiki, Abuljanob muxaffa? Buyurdiki, lo, mushaddada. Chun voqeadin uyg‘ondi. Bu kuniyatdin anga bu ma’ni yuzlandiki, dunyodin ijtinob qilmoq kerak! Darhol tajrid qildi va piri murshid talabig‘a musofir bo‘ldi. Har kishiga irodati durust bo‘lmas erdiki, donishmand erdi va boshi

har kimga inmas erdi. Chun Xuziston mulkiga yetti va Dizpul degan yerda bemor bo‘ldi. O‘zin har nav’ bila bo‘lsa, shayx Ismoil Qasrii xonaqosig‘a yetkurdi va anda ranjurlig‘i uzoqqa tortti va shayx ul so‘filarning samo’i unidin zahmatda erdiki, samo’g‘a munkir erdi. Bir kecha darveshlar samo’da erdilarkim, Shayx Ismoil Hazrat Shayx Najmuddinning boshi ustiga kelib ikki ilkin shayx qo‘ltuqlarig‘a solib ko‘tarib, samo’g‘a kiyurub, necha davr aylandurub, tomg‘a tayab qo‘ydi. Shayxdin tamom ranj zoyil bo‘lib erdi. O‘zin sahih topti va irodat hosil bo‘ldi va Shayx Ismoilg‘a irodat ilki berib, sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Va debdurki, chun menga botin ahvolidin xabar bo‘ldi va zohir ulumin xud vofir kasb qilib erdim. Bir kecha xayolimg‘a keldiki, botin ilmidin xabardor bo‘ldung va zohir ilming Shayx ilmidin ko‘prakdur. Saboh shayx meni tiladi va dedikim, qo‘p, safar qilki, senga Ammor Yosir qoshig‘a bormoq kerak. Men bildimki, kechagi xotirimdin Shayx voqif bo‘ldi, ammo hech nima demadim va shayx Ammor xidmatig‘a bordim va suluk bunyod qildim. Anda ham bir kecha hamul da’vo ko‘nglumga xutur qildi. Saboh Shayx Ammor buyurdikim, Najmuddin, qo‘p va Misrg‘a bor! Shayx Ro‘zbehon qoshig‘akim, bu inoniyatni silliy bila sening boshingdin chiqarg‘oy! Misrg‘a bordim. Chun Shayx Ro‘zbehon xonaqosig‘a kirdim. Shayx hozir ermas erdi. Dedilarki, Shayx vuzu’ qilg‘ali tashqari chiqibdur. Keynicha chiqdim. Shayx Ro‘zbehonni ko‘rdumki, andok oz suv bila vuzu’ qiladurkim, shar’an joGshz emas Yana ko‘nglumga nnkore keldi. Chun shayx vuzu’ni tamom qilib, qo‘pti. Ikki o‘l ilkin yuzumga sochti. Ul suv yeggach menga bexudlug‘ asari zohir bo‘ldi. Shayx chun xonaqog‘a kirdi. Men dog‘i kirdim va shayx shukri vu-zu’g‘a mashg‘ul bo‘ldi va men ham anda turnb, o‘zumdpn g‘oyib bo‘ldum. Ko‘rdumki, qiyomat-qoyim bo‘lubdur va do‘zax zohir, elni tutub, o‘tg‘a soladurlar va bu yerda bir tepadur, birov o‘lturubdur. Har kishi desakim, anga mutaallaqdurmen, oni o‘tg‘a solmay qo‘yadurlar. Nogoh meni tuttilar. Men dedimkim, men oning mutaallaqlaridinmen. O‘tqa solmadilar. Ul tepaga chiqdim. Ko‘rdumki, Shayx Ro‘zbehondur. Yugurub oyog‘ig‘a tushdum. Ul ilikin ko‘tarib, bir qattiq silliy bo‘y-numg‘a urdi. Andoqki, yuz tuban yiqildim va dediki, mundin ortiq Haq ahlig‘a inkor qilma! Chun yiqildim. Ul g‘aybdin hozir bo‘ldim. Shayx namozning salomin berdi. Hamul dastur bila yugurub oyog‘ig‘a tushdum. Shayx hamul voqeadag‘idek mahkam silliy urub, hamul so‘zni aytti. Ul mastlig‘ ranjurlug‘i tamom xotirimdin raf’ bo‘ldi. Andin so‘ngra amr qildiki, qayt va shayx Ammor, Yosir qoshig‘a bor! Va anga bir maktub bitib, mundoq zikr qildikim, har necha miskim toparsen, yiborgilki, xolisoltin qilib yuboray! Andin yana Shayx Ammor xizmatig‘a keldim. Va Shayx chun Shayx Ammor xizmatig‘a kelibdur. Muddate anda bo‘lubdur. Chun su-luk anga tamom bo‘lubdur, Shayx Ammor amr qilibdur-ki, Xorazmg‘a bor! Har necha shayx uzr aytibdurlar, foyda qilmaydur va Xorazmg‘a kelibdurlar va bu tariqni muntashir qilibdur va bu tariqnikim, zohir qilibdurlar, xaloyiq ko‘p murid bo‘libdurlar va irshodqa mashg‘ul bo‘libdurlar. Chun totor kuffori Xorazmg‘a yetibdurlar. Hazrat Shayx ashobini yig‘ib, amr qilibdurlarki, viloyatlaringizg‘a boring! Alar ul Hazratning amri bila o‘z vnloyatlarnga boribdurlar. Ashobdin ba’ziki, Hazrat Shayxqa dog‘i chiqar ilti-mos qilibdurlar. Shayx debdurlarki, biz bu kuffor ilkida shahid bo‘lurbiz. Ashob tarqag‘ondin so‘ngra kim, kuffor Xorazmg‘a kiribdurlar. Hazrat Shayx qolgan ashob bila chiqib, g‘azvg‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar. To shahodat sharbatin totibdurlar. Derlarki, shahodat vaqtida bir kofurning parchamin tutqon ermishlar. Andoqki, shahodatdin so‘ngra o‘n kishi ayira olmaydur va ul parchamni kesib ayirdilar. Va ba’zi debdurlarki, Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. g‘azaliyotida ishorat bu qissag‘a va o‘z intisobini Hazrat Shayxqa qilib debdurki,

r u b o i y:

[Biz qo‘lga qadah oluvchn ulug‘vor kishilarmnz. Oriq echkisi bilan qolgan qashshoqlardan emasmiz. Bir qo‘lda iymonning xolis sharobin icharlar, bir qo‘lda kofirning kokilin mahkam tutarlar][2].

Hazrat Shayxqa muridlar ko‘p erdilar, ammo alardin nechasi jahonda yagona va zamonda muqtado va far-zona erdilar. Andoqki, Shayx Majduddin Bag‘dodiy va Shayx Sa’duddin Humuyiy va Bobo

Kamol, Jandiy va Shayx Rozuddin Ali Lolo va Shayx Sayfuddin Boxarziy va Shayx Najmuddin Roziy va Shayx Jamoluddin Giliy r. t. Va ba’zi debdurlarki, Mavlono Bahouddin valadki, Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s.ning volidi bo‘lg‘ay, ham alardindur. [Uning, Alloh sirrini muqaddas qilsin, shahid bo‘lgan sanasi – yetti yuz o‘n yettinchi yil][3].

473. Shayx Majduddin Bag‘dodiy q. s.

Kuniyati Abu Saiddur va oti Majduddin Sharaf b. Muayyad b. Abulfath Bag‘dodiy r. Asli Bag‘doddindur. Xorazmshoh Bag‘dod xalifasidin tabibe tiladi. Aning otasin yubordi. Va ba’zi debdurlarki, Bag‘dodedindurki, Xorazm kentlaridindur. Va ul sultonning muqarriblaridin erdi. Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. buyurubdurki, ulki derlar amrad ermish, Hazrat Shayx xidmatig‘a yetibdur, xilof voqe’dur. Yoshga yetgan uluq yigit erdi, ammo latif surati va hay’ati bor erdi. Hazrat Shayx ani avval mutavazzo xidmatyag‘a amr qildi. Volidasi eshitti va ul tabibae erdi va Hazrat Shayx ham tabib erdilar, aytib yubordikim, farvand Majdudduig‘a xidmate buyurg‘an ermishsiz va ul nozuk kishidur, agar murod ul xidmatdur, men o‘n turk qul yuborayin, to ul xidmatni bajo kelturgaylar va anga o‘zga xizmate buyuring! Shayx dedilarki, anga aytingki, men eshitibmenki, tib ilmin bilursen, sendin bu so‘z ajabdur. Agar sening o‘g‘lungg‘a safroviy isitma tashvish bersa, men doru ul qullarg‘a bersam, ul sihhat toparmu? Ul javob topmadi. Bu nav’ tarbiyatkim, Hazrat Shayx q. s. Shayx Majdudding‘a bunyod qildilar. Bir necha vaqtdin so‘ngrakim, riyozatlar tortib suluklar qildi, oliy marotib hosil qilib, buyuk maqomlarg‘a qadam qo‘ydi. Derlarki, Shayx Majduddin bir kun darveshlar bila o‘lturub erdi. Anga sakre g‘olib bo‘ldi. Dedi: biz o‘rdak bayzasi erduk daryo qirog‘ida va Shayx qushe erdiki, qanoti ostida bizni parvarish berib tarbiyat qildi, to ul bayzadin chiqtuq. Chun o‘rdak bolasi erduk, daryog‘a kirduk va Shayx qiroqqa qoldi. Va Hazrat Shayx karomat nuri bila ul so‘zga voqif bo‘ldilar va muborak tillarig‘a keldiki daryoda o‘lgay. Shayx Majduddin bu so‘zni eshitib qo‘rqdi va Shayx Sa’duddin Hummuyiy qoshig‘a kelib ko‘p tazarru’ qildikim, bir kunki Hazrat Shayxning vaqtlarin xush topsang, manga xabar qil, to hazratlarig‘a kelib uzr qilay! Bir kunki, Shayx hazratlari samo’da xushhol bo‘lub erdilar. Shayx Sa’duddin Shayx Majdudding‘a xabar qildi. Ul ayog‘ yalang keldi va bir tashtda o‘t to‘ldurub, boshig‘a ko‘tarib, kashfgohda turdi. Chun Shayx Hazratlarining muborak nazari anga tushti, dedilarki, chun darveshlar tariqi bila parishon so‘zung uzrin qilasen. Imon va din salomat eltting, ammo boshing borg‘ay va daryoda o‘lg‘aysen va biz ham sening boshingg‘a borg‘aybiz va sardorlar boshi va Xorazm maliki sening boshingda borg‘ay va olam xarob bo‘lg‘ay. Shayx Majduddin, Shayx hazratlarining muborak oyog‘larig‘a tushti. Va oz fursatda Hazrat Shayxning muborak nafasi zohir bo‘ldi. Shayx Majduddin Xorazmda va’z aytur erdi va Xorazmshohning onasi va’zig‘a borur erdi. Va jamila zaifa erdi. Dushmanlar fursat asradilar va Xorazmshoh mast ekanda, anga ayttilarki, onang Imom Abu Hanifa mazhabi bila Shayx Majduddinning nikohig‘a kiribdur. Sulton bag‘oyat mutyag‘ayyir bo‘ldi va buyurdikim, Shayx Majduddinni Jayhun suyig‘a soldilar. Har ne Xorazmshoh va Xorazm axli va o‘zi bobida va olamning xarob bo‘luri sababida Hazrat Shayx, deb erdi, barcha vujud tutti. Chun Shayx Majduddinni olti yuz yettida, yo olti yuz o‘n oltida shahid qildilar, xotuni Nishoburdin erdi, ani Nishoburg‘a naql qiddi va andin sakkiz yuz uchda Isfaroing‘a naql qildilar.

474. Shayx Sa’duddin Hummuyiy q. S

Oti Muhammad Mu’ayyad b. Abubakr b. Abulhasan b. Muhammad Hummuyiydur, andoqki yuqori o‘tti. Hazrat Shayx Najmuddin Kubroning ashobidindur q. s. [Yofi’iy tarixida keltiriladi; u hol va riyozat egasi, do‘st va muridlari, hikmatlari bor edi. Qosyun tog‘ etagida bir muddat yashadi, so‘ng Xurosonga qaytib, shu yerda vafot etdi][1]. Zohiriy va botiniy ulumda yagona ermish, ko‘p musannafoti bor. «Mahbub»dek va «Sajanjal ul-arvoh» va bulardin o‘zga dag‘i. Va musannafotida marmuz so‘zlar, mushkil kalimotu arqom va ashkolu davoyir ko‘pdurki, aqlu fikr nazari aning kashfu hallidin ojizdur. Va hamonoki, to basirat ko‘zi kashf nuri bila munfatih bo‘lmag‘ay, alarning idroki muta’azzirdur. Ul

debdurki, [Alloh subhonahu menga bashorat qilib dedi: Mening zikrim va ta’rifim xususidagi so‘zlaringni kimki e’tiqod ila qabul qilsa va tinglasa, muhaqqaq u kishining xotiriga ilm va ma’rifat urug‘i qadalgaydir. Garchi o‘sha payt mavhum bo‘lib qolsa ham, keyinroq unga biror sabab yuzasidan nasiba yetadi][2]. Shayx Sadruddin Kunyaviy aning suhbatig‘a yetar ekandur. Debdurki, ul dediki, mavosiq yettidur. [Men sizlarning Parvardigoringiz emasmanmi?][3] miysoqig‘a munhasir emas. Va muni o‘z piridinki Hazrat Shayx Muhyiddin q. s. bo‘lg‘ay, so‘rubdur. Shayx debdurki, ul kulliyotni debdur, juz’iyot mundin dog‘i ko‘prakdur. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot»da Shayx Mu’ayyaddin Jandiy debdurlarki «Fusus ul-hikam» sharhida bitibdurki, bir kun Shayx Sadruddin samo’ majlisida Shayx Sa’duddin bila hozir erdi. Shayx Sa’duddin samo’ asnosida yuzin bir suffa sariki, ul manzilda erdi, qilib, adab va tavoze’ bila muddate turdi va andin so‘ngra ko‘zin yumdn va dedi: [Bu Sadruddin qaerda?][4]. Chuk Shayx Sadruddin ollig‘a keldi, ko‘zin aning yuziga ochdi va dediki, Hazrat Risolat s. a. v. bu suffada hozir erdilar, tiladim, ko‘ziki ul Hazratning jamoli mushohadasig‘a musharraf bo‘lubdur, avval sening yuzungga ochqaymen. Va bu ruboiy aningdurki,

sh ye ‘ r:

[Ey qalbim sururi, ko‘zimning nuri, sen bilan qalbim saharda uyg‘ondi. Munojot qilib, dilu jon bilan aytdim: Ey oy yuzligim, vujudim sendadur, sen mening ko‘zimda][5].

Bu ruboiy ham aningdur.

R u b o i y:

[Kufr istasang nigorim zulfini ko‘r, iymon tilasang, yorim orazini ko‘r! Yorim azizligiyu, mening muhtojligimni ko‘rmoqchi bo‘lsang, kufrga aralashmayu iymonga boqma!][6].

Umri oltmish uchga yetti va olti yuz ellikda Azho iydida dunyodin o‘tti. Va qabri Bahroboddadur.

475. Shayx Sayfuddin Boxarziy q. s.
Shayx Najmuddin Kubroning xulafosidindur. Zohiriy ulum tahsili va takmilidin so‘ngra Hazrat Shayx mulozamatig‘a musharraf bo‘ldi va tarbiyat toptin. Avoilda ani xilvatqa o‘lturtur erdilar. Ikkinchi «Arbain»da aning xilvati eshigiga keldilar va muborak barmog‘in xilvat eshigiga urdilar va chorladilarki, ey Sayfuddin! Va bu baytni o‘qidilar.

B a y t:
[Men oshiqman, dardu g‘am menga yor,
Sen ma’shuqsan, g‘am ila ne ishing bor?]**1**.

Qo‘p va chiq! Oning ilkin tutub, xilvatdin chiqardilar. Bir qatla Hazrat Shayx uchun Xitoydin bir kanizak kelturub erdilar. Zifof kechasi ashobg‘a buyurdilarki, biz bu kecha mashru’a lazzatqa ishtig‘ol ko‘rguzurbiz. Sizlar dog‘i bu kecha riyozat tarkin qiling va farog‘at va osudalig‘ bila bo‘lung! Chun Shayx Hazratlari bu amrni ashobqa qildilar. Ul kecha Shayx Sayfuddin bir uluq ibriqqa suv to‘ldurub, Hazrat Shayxning xilvat eshigida bo‘ldi. Subh vaqtiki, shayx chiqdilar va oning ul xizmatin bildilar, dedilarki, biz deb erdukki, bu kecha o‘z lazzat va huzurungizg‘a mashg‘ul bo‘lg‘aysiz. Sen nevchun o‘zungni bu riyozat va ranjg‘a solding? Dedi: Siz buyurdingizki, har kishi o‘z lazzat va huzurig‘a mashg‘ul bo‘lsun! Menga hech lazzat va huzur mundin o‘zga yo‘qdurki, Hazrat Shayx ostonida xizmatda bo‘lg‘aymen. Hazrat Shayx buyurdiki, bashorat bo‘lsun sengakim, podshohlar sening rikobingda yugurganlar.

Bir kun salotindin biri Shayx Sayfuddin xizmatig‘a kelib erdi. Borur chog‘da iltimos qildikim, bir ot Shayx nazri kelturubmen. Tilarmenki, o‘zum qo‘ldab, shayxni otlandursam. Shayx oning iltimosin qabul qilib, ot qoshig‘a keldi va ul podshoh otning jplovnn tutub, qo‘ldab, shayxni otlandururda ot sarkashlig‘ qilib va tundluq qilib, inonin olib, to‘ylab yugurdi va nodshoh ellik qadamg‘a yaqin otni to‘qtatur uchun jilovin tutib rikobida yugurdi, to to‘qtadi. Shayx ul podshohg‘a ayttikim, bu otning bu tundluq qilg‘onida hikmat bu erdikim, Hazrat shayx q. r. bizni mundoq duo qilib erdilar va o‘tgan hikoyatni tamom aytti. Va bu ruboiy Shayxning anfosidindur.

R u b o i y:

[Harchand gohida ishqdan begonaman.
Ofiyat bilan oshnoyu hamxonaman.
Nogoh bir parichehrani ko‘rib qolsam,
Barchasidin kechib, bir devonaman’][2].

Olti yuz ellik sakkizda olamdin o‘tubdur va qabri Buxorodadur. Shayxul olamg‘a mashhurdur.

476. Ayn uz-zamon Jamoluddin Giliy q. s.

Ul dag‘i Hazrat Shayx Najmuddin Kubroning xulafosidindur. Bag‘oyat donishmand va fozil ermish. Avoyildaki, Hazrat Shayx suhbati azimati qildi, kitobxonag‘a kirdi va ulumi aqliy va naqliy latoyifidi majmuae intixob qildiki, safarda aning munisi bo‘lg‘ay va Xorazm azimati qildi. Chun yaqin yetti, bir kecha voqe’ada ko‘rdiki, Hazrat Shayx anga ayturki, ey Giliykina, yukingni tashla, dag‘i kel! Chun uyg‘ondi andisha qildiki, chun men dunyo asbobidin hech nima: ko‘tarmayman, yukum ne nima bo‘la olg‘ay? Yana kecha ham ushbu voqe’ani ko‘rdi va uchunchi kecha ham ko‘rdi. Tahayyur yuzidin voqe’ada Shayxdin so‘rdikim, yo Shayx, yuk ne nimadur? Ul hazrat dedilarki, ul majmuaki ko‘taribsan. Uyg‘ongach, ul majmuani Jayhung‘a tashladi. Chun Hazrat Shayx mulozamatig‘a musharraf bo‘ldi, ul Hazrat dedilarki, agar ul yukni tashlamasang erdi, hech foyda qilmas erdi. Pas anga xirqa kiydurdilar va arba’ing‘a o‘lturttilar. Arba’in itmomidin so‘ngraki, ulug‘ marotib hosil bo‘ldi. Ayn uz-zamon laqabi berdilar. Shayx Ayn uz-zamon Qazvinda bo‘lur ermish. Aning sodotidin biri Sherozg‘a borur erdi. Shayx xidmatig‘a keldi va Sheroz podshohig‘a siporish iltimos qildiki, Shayx Ayn uz-zamong‘a ko‘p irodati bor erdi. Shayx kog‘az va davot va qalam tiladi Va bitidiki: Asal va roziyona. Va anga berdiki, muni podshoh iligiga bergansen. Ul sayyid chun Sherozg‘a yetti, podshoh eshikiga bordi. Dedilarki, ichi og‘riydur va hammomdadur. Musofir xammom boshig‘a bordi va Shayxning ruq’asin andoq qildiki, podshoh iligiga yetti. Podshoh dediki, Shayx karomat nuri bila ma’lum qilibdurki, bizda maraz bor va davo bitibdur. Filhol asal va roziyona tilab yedi va ul og‘riq daf’ bo‘ldi. Va ruq’a: kelturgan kishiga ko‘p rioyatlar qildi.

477. Bobo Qamol Jandiy q. t. r.

Chun Bobo Kamol Jandiy Hazrat Shayx Najmuddin Kubro q. .s. xidmatida ikmol va takmil martabasi topti. Hazrat Shayx anga xirqa kiydurdi va Turkiston sari havola qildi. Va dedikim, Turkiston viloyatida Mavlono Shamsuddin Muftiyning farzandiki otin Ahmad Mavlonodur, bizing bu xirqani anga yetkur va tarbiyatni andin darig‘ tutma! Chun Bobo Kamol maqsadg‘a yetti, jamoat atfolni ko‘rdikim o‘ynaydur erdilar va bir tiflki, Ahmad Mavlono bo‘lg‘ay, alarning to‘nlarin asrab o‘lturub erdi. Chun Bobo Kamolni Ko‘rdi, qo‘pti va istiqbol qilib, salom qildi. Va dediki, necha biz o‘zgalarning to‘nin asrag‘aybiz va siz bizing to‘numuzni asrag‘aysiz. Bobo aning bila muso-faha qildi va Muftiy uyig‘a iligin tutub kirdilar. Muftiy dediki, bu farzand majzubdur, shoyad shoyista xidmat qila olmag‘ay. Ulug‘ og‘asi Donishmand Mavlono bag‘oyat ziyrak va muaddabdur. Bobo dediki, anga ham nasib bo‘lg‘ay, ammo biz Hazrat Shayx havolasi va ishorati bila munung xidmatig‘a kelibbiz.

Ahmad Mavlono oz fursatda azim tarbiyatlar topti va ko‘p kushodlar anga yuzlandi va aning kamolotining ovozasi mashhur bo‘ldi va ko‘p toliblar aning suhbatida tarbiyat topib, kamolg‘a yettilar. Va alardin biri Shayx Bahouddin Kubrodurki, og‘asi Donishmand Mavlononingki, oti Muhammad erdi, tarbiyatin anga havola qildi. Va Shayx Bahouddin o‘z farzandining tarbiyatinki, oti Abulfutuh erdi, Donishmand Mavlonog‘a havola qildi. Va hamono Xoja Abulvafo Xorazmiy q. s. xidmatlarig‘a intisob Abulfutuhg‘adur, andoqki, o‘z silsilasi mashoyixining bayonida aytibdur.

N a z m:

[Fayz, irshod Rasulullоh s. a. v.dan hazrat Aliga, u kishidan sirlar xazinasi Hasanga, u kishidan Habibga, so‘ng Toiyga, so‘ng Ma’rufga, so‘ng Sariyga, so‘ng Junaydga, so‘ng ikki Abu Aliga, so‘ng yaxshilar sirri-Mag‘ribiyga, bulardan keyin Abulqosimga, keyin Nassojga, so‘ng Imom Ahmadga, so‘ng Suhravardiyga, so‘ng Ammorga, mazkur ulug‘lardan so‘ng yaxshilarning peshvosi, pok kishilarning sarvarin – Shayx Najmuddinga, so‘ng Kamolga, so‘ng «Din va millat baho»siga, so‘ng Muhammadga, so‘ng ulug‘lar faxri – Abulfutuhga yetdi][1].

478. Xoja Abulvafoiy Xorazmiy q. s.

Xoja Abulvafo xizmatlarig‘a tavhid arbobi va mavojid va azvoq ashobi so‘fiya mashoribidin shurbi tamom bor ermish. Andoqki alarning rasoil va ash’oridin, bataxsis ruboiyotidin bu ma’ni zohirdur va bu da’vo isbotig‘a necha ruboiy keltirilur.

R u b o i yo t:

[Garchi vasfingda ojizu hayronman,
Sen jon hayotiyu jonimsan.
Ko‘zimning nuri sensan – ko‘raman,
Aqlimning donoligi sensan – bilaman.
*** * ***
Toki tirik ekanman, sendan judo bo‘lmag‘ayman,
Bu mening mas’ud toleimga dalildir.
Agar yo‘qolgan bo‘lsam, zotingga g‘oyib bo‘lganman,
Mavjud esam, nuringda zohir bo‘lganman.
*** * ***
Haqning ba’zi botil zuhurotlari borki,
Kim ularni inkor etsa, johildir.
Butun borliqda haqdan boshqasini ko‘rgan –
Haqiqatlar haqiqatidan g‘ofildir.
*** * ***
U pinhonu jahon oshkoradir, irfon ahli buning aksini ko‘rdilar. Barcha oshkoru nihon Udirkim, Haq ahdidin bo‘lsang hammasini faqat «Bir» deb bil!
*** * ***
Birdir U, lekin sen bilgan bir emas, ikkinchisi bo‘lmagan birdir U. Agar o‘zingdan kechib, uni bilmoqchi bo‘lsang, biror dalilu hujjat Uni bildirolmaydi...
*** * ***
Gunoh qildim, uzrim gunohimdan yomon, bu uzrda uch narsani: vujudni, qudratni, fe’lni da’vo qilish bekordir. Chunki qo‘rquv ham, kuch-quvvat ham Allohdandir][1]. Va alarningg vafoti sakkiz yuz o‘ttiz beshda ermish, r. t.

479. Pahlavon Mahmud Pakkayor q. s.

Xevaqdindur va laqabi mashhur Puryorg‘a ba’zi Pakkayor debdurlar, ammo Xevaqliq kishidin tahqiq va tashih qilildi, Pakkayorg‘a qaror topti, ya’ni barchag‘a Pakkayor. Yor qassobning o‘g‘lidur. Kurashchilikda saromad bo‘lub, azim shuhrat tutubdur. Yashurun suluk va riyozati ham bor ermish, andoqki, fayz olamidin ko‘nglig‘a choshni yetgan ermish. Tab’i ham xo‘b ermish. Va nazm aytur ermish. Hind mulkidin bir zargar Hind podshohidin misol kelturub, pahlavon ihzorig‘a iltimos yetkurubdur. Pahlavon bu ruboiyni debdurki,

r u b o i y:

[Zargar bola Mo‘lton yo‘llaridan gapirdi, sultonning talabini menga yetkazdi. Qaerda menu do‘stlarimning himmati bo‘lsa, Hindistonni ham bir arpaga sotib olmayman][1].

Ammo g‘oyibdin anga ishorate yettiki, bormoq kerak: Hinduston azimati qilib bordi. Hind mulki podshohining bir kurashchisi bor erdi, Pahlavonni aning uchuch tilagan ermishki, aning bila kurashga solgay. Bu so‘zni Pahlavon bila muloqot qilg‘ondin so‘ngra izhor qilib, muqarrar andoq bo‘lmishki, tongla xaloyiqny majmu’ qilib kurashganlar. Kechasi Pahlavon o‘z qoidasi bila niyozmandona mazorot tavofig‘a borib, no-murodlig‘ bajo kelturadurganda ko‘rubdurki, bir buzurg mazorda yarim kecha bir qari zaifa ko‘p tazallum va tazarru’ bila Tengriga munojot qilib yolboradurkim, Xudoyo, bu kelgan pahlavon kurashchi ma’rakasidin mening o‘g‘lumni sharmanda chiqarmag‘aysen! Pahlavon bilibdurki, ul kurashchiningg onasidur, o‘zi bila muqarrar qilibdurki, tongla ul kurashchi iligida yiqilg‘ay. Tonglasi podshoh ulug‘ ma’raka yasab, Pahlavonni tilab, ul kurashchi bila kurashga solg‘onda, Pahlavon o‘zi bila Muqarrar qilg‘ondek, bir-ikki hamla talashgandin, so‘ngra harif ilgida yiqilur. Mundoq manquldurki, uchasi yerga tegib, ko‘zi ko‘kka tushgach, hijoblar murtafe’ bo‘lub, malakut olami ko‘ziga jilvagar bo‘lub, ul podshoh ham murodu maqsadig‘a yetar, ammo chun Pahlavonni tilab, taklif bila kelturgan ermish, rioyatu hurmat tutmakda mubolag‘a qilib, musohabat tariqi bila maosh qilur ermish. Bir kun ovg‘a taklif qilib, o‘zi bila eltganda, tog‘ ovi ermish, sayd keynicha chopganda, sayd qoyadin uchar, podshoh dog‘i oti jilovin saqlanolmas, ikki oyog‘i kamar qirog‘ida qolib, ikki iligi xato bo‘lganda, Pahlavon bila ermish, Ilig urub markabni rokib bila ko‘tarib, tuz yerga qo‘yar. Podshoh hayrat qilib derki, muncha mufrit kuch bila ajab erdiki, ul kurashchidin yiqilding. Pahlavon anda bu ruboiyni ayturkim,

r u b o i y:

[O‘z nafsingga hokim bo‘lsang, mardsan,
Xotirlab turishdan gapirsang, mardsan,
Yiqilganni tepish mardlik emas,
Yiqilganning qo‘lidai tutsang, mardsan][2].

Podshoh ko‘p niyozmandlig‘lar ko‘rguzub Pahlavon qaytib, Xevaqqa kelur. Mozori Xevaqdadur, Islom qoidasi adosida bu ikki bayt Pahlavonningdur:

[Bir Allohga iymon keltir, besh vaqt namoz o‘qi,
o‘ttiz kun ro‘za tut, zakot ber, imkoi bo‘lsa, yo‘l
tepib haj qil! Bas, bizning qo‘limiz sening etagingda,
gunoh qilish bandadan, kechirmoq Xudodandir][3].

Pahlavon Mahmuddin so‘ngra Pahlavon Muhammad Abusaid ham o‘z zamonining benaziri erdi. Qabri Ne’matoboddadurur.

480. Shayx Najmuddin Roziy al-Ma’ruf bi-Doya q. s.

Ul dag‘i Hazrat Shayx Najmuddin Kubroning ashobidindurki, aning tarbiyatin Shayx Najmuddin Bag‘dodiyg‘a havola qilgan ekandur. «Mirsod ul-ibod» va «Bahr ul-haqoyiq» tafsirnning musannifidur. Va Chingizxon voqe’asida Xorazmdin chiqib, Rumg‘a boribdur. Va anga Shayx Sadruddin Qunyaviy va Mavlon» Jaloluddin Rumiy q. s. bila muloqot voqe’ bo‘lubdur. Naqldurki, uchalasi bir kun bir majlisda erdilar. Namozi shom qoyim bo‘ldi, ikki mazkur bo‘lg‘oi azizlar imomat iltimosi qildilar. Ul ikkala rak’atda «Fotihat ul-kitob»din so‘ngra [«Kofirun»surasini][1] qiroat qildi. Namozdin forig‘ bo‘lg‘andin so‘ngra Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy Shayx Sadrudding‘a boqib, tiybat yuzidin dedikim, zohiran birini sizing uchun va birini bizing uchun o‘qidi. Vafoti olti yuz ellik to‘rtta voqe’ bo‘ldi va Bag‘dodning Shuniziyasida qo‘ydilar. Va Hazrat Maxdumi n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, Shayx Sarn Saqatiy va Shayx Junayd Bag‘dodiy q. r. maqbarasidin tashqari qabre erdi, aning qabri deb ayttilar, v. t. a. Va bu ruboiy aning maqulotidindur.

Ruboiy:

(Gar sham’da men kabi judolik dog‘i bor, yig‘iyu yonish bilan oshnoligi bor. Sham’ning sarrishtasi oqibatimdan yaxshiroq, chunki uning boshida yorug‘ligi bor][2].

481. Shayx Raziyuddin Ali Lolo G‘aznaviy q. s.

[U Ali b. Said b. Abdujalil Loloi G‘aznaviy][1]. Va bu Shayx Saidki, Shayx Ali Loloning otasidur. Hakim Sanoiyning ammzodasidur. Haj azimati bila Xurosong‘a kelibdur. Va Abu Ya’qub Imom Yusuf Ha-madoniy suhbatig‘a yetibdur. Va ul vaqtki, Shayx Najmuddin Kubro q. s. hadis talabig‘a Hamadong‘a bordi, Shayx Ali Lolo bo‘lur kentning bir yig‘ochida tushdi. Ittifoqan Shayx Ali Lolo ham kecha voqe’ada ko‘rdiki, bir shotu qo‘yubdurlar, osmong‘acha. Va birav bu shotu boshida turubdur. Va el bir-bir aning qoshng‘a kelurlar va ul bularning iligin tutub, osmong‘acha eltur. Va bu ilig tutub eltgan kishi bu kishining iligin anga berur va ul iligin tutgan kishini osmong‘a eltur. Shayx Ali Lolo ham bordi va aning ham iligin tutub, ul kishi iligiga berdilar va osmong‘a chiqardi. Chun bu voqeani otasig‘a dedi, ul so‘rdiki, ul kishini tanirsen? Dedi: tanirmen va oti ham xotirimdadur. Dedi: talab qilmoq kerakki sening ishing kalidi aning iligidadur. Shayx Ali Lolo aning talabida musofir bo‘ldi va necha yil olam girdida safar qildi va andin hech nav’ nishon va asar topmas erdi, to ul zamonki, Hazrat Shayx Najmuddin Kubro q, s. Xorazmg‘a keldi va bu tariqni muntashir qildi. Ul chog‘ Shayx Ali Lolo Turkistonda erdi. Xoja Ahmad Yassaviy q. s. xonaqohida xilvatda o‘lturub erdi. Ittifoqan birov Xorazmdin kelib erdi va Xoja Ahmad Yassaviy q. s. andin so‘radurki, Xorazmda holo hech darveshe bu toifadin bormukim, el bu tariqni andin bilgaylar? Ul dediki, bir yigit paydo bo‘lubdur va xalq irshodig‘a mashg‘uldur va ko‘p el anga irodat kelturub tegrasig‘a yig‘ilibdurlar. Xoja so‘rdilarki, oti nedur? Javob berdiki, Shayx Najmuddin Kubro. Chun Shayx Ali Lolo bu otni eshitti, xilvat ichidin iztirob bila chiqti va safarg‘a belin bog‘ladn. Xoja so‘rdilarki, ne voqe’dur? Ayttikim, safar qilurmen. Xoja dedilarki, qishdur, tahammul qil yoz bo‘lg‘uncha. Shayx Ali Lolo dediki, qilaolmon. Andin musofir bo‘lub, Shayx Najmuddin Kubro xidmatlarig‘a keldi va sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Andin so‘ngra ko‘p muddatdin so‘ngra Shayx Majduddin Bag‘dodin Hazrat Shayx: mulozamatlarig‘a musharraf bo‘ldi. Hazrat Shayx o‘ttiz besh yoshlarida taxminan sulukka mashg‘ul bo‘lub-durlar va Shayx Majduddin to‘rt-besh yosh Shayx Ali Lolodin ortug‘ ermish. Ammo Shayx Ali Lolo yigitlikining avvalidan mashg‘ul bo‘lubdur va alar ul vaqt hanuz sulukka mashg‘ul bo‘lmag‘on ermishlar. Shayx Ali Lolo mashoyixdin ko‘pning suhbatig‘a yetgan ermish. Derlarki yuz yigirma to‘rt shayxi komili mukammaldin xirqa olib ermishlar va vafoti chog‘i yuz o‘n uch xirqa ul jumladin mavjud ermish. Va Hinduston safari qilibdur. Va Aburrizo Ratan suhbatig‘a yetibdur va Rasul s. a. v.ning amonatin andin olibdur. Andoqki, Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. ani tashih qilibdur va

debdurki, [Shayx Raziyuddin Ali Lolo Rasulullоh s. a. v. sahobalaridin Aburrizo Ratan b. Nasr r. a. bilan suhbat qilgan va u Rasulullоh s. a. v. tarog‘laridan birini unga bergan][2]. Va Shayx Ruknuddin Alouddavla ul tarog‘ni bir xirqag‘a chirmab, ul xirqani kog‘azg‘a chirmabdur. Muborak xatti bila ul kog‘azg‘a bitibdurki, [Rasulullоh s. a. v. tarog‘laridan bo‘lgan bu tarog‘ va bu xirqa ham uning saqobasi – Aburrizo Ratandan kamina zaifga yetdi][3]. Va ham Shayx bitibdurlarki, mundoq derlarki, ul amonat Hazrat Rasul s. a. v.din Shayx Raziyuddin Ali Lolog‘a ermish. Va bu ruboiy aning qudsiya anfosidindur.

Ruboiy:

[Jon minglab ko‘ngullar bilan giriftoringdur,
Ko‘ngul ham minglab jonlar bilan
xaridoringdur.
Diydoring orzusida yurgan talabgorlarning
na uyqusi, na qarori bordir][4].

Hazrat Shayx Raziyuddin Ali Lolo olti yuz kirq ikkida rabiul-avval oyining uchida dunyodin o‘tubdur.

482. Shayx Jamoluddin Ahmad Jurfoniy q. s.

Ul Shayx Raziyuddin Ali Loloning ashobidindur. Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. debdurki, Shayx Ahmad ajab zohir kishi erdi, buyuk martabasi bor. Mem g‘aybda aning suluki martabasin Shayx Abulhasan Xaraqoniyg‘a munosib toptim va Shayx Ali Lolo suluki martabasin Sulton Boyazid Bistomiyg‘a q. s. Shayx Raziyuddin Ali Lolo debdurki, har kim bizing Ahmadning xomushlig‘i bila borg‘ay, har ne Shibliy g.a Junayddin topibdurlar, andin topqay. Bir kun Shayx Sa’duddin Hummuiy Jurfong‘a yetti. Kishi yubordi va Shayx Ahmadni tiladi. Shayx Ahmad uzlat niyati qilib erdi, kelmadi. Yana kishi yubordiki, kelmak kerakki, manga ishorate yetibdurki, chun sening uchun Shayx Ali ijozat bitibdur, men ham bitigaymen. Shayx Ahmad javob yubordiki, men Haq s. t. ni ijozatnoma bila parastish qilmog‘umdur. Shayx Ruknuddin Alouddavla debdurki, manga bu so‘z andin bag‘oyat xush kelibdur. Bir qatla Shayx Ahmad muridlaridin biriniki muroqabag‘a mashg‘ul erdi, kafshin chiqarib, necha kafsh bo‘ynig‘a muhkam urdi. Ul murid dedi: muroqabadadurmen, Shayx ne uchun ozurda qiladurlar? Shayx dediki, muroqaba biravga yarashurki, bir hafta taom yemamish bo‘lg‘ay, chun ayog‘ uni eshitkay, xotirg‘a kelmagayki, bu kishi mening uchun taom kelturadur erkin. Shayx Ahmad olti yuz oltmish to‘qquzda rabi ul oxir oyining salxida dunyodin o‘tti.

483. Shayx Nuruddin Abdurrahmon Isfaroyiniy Kasirqiy q. s.

Ul Shayx Ahmad Jurjoniy ashobidindur. Toliblar tasliki va muridlar tarbiyati va alarning vaqos’i kashfida azim shoni bor ermish. Shayx Ruknuddin Alouddavla q. r. debdurki, agar oxir uz-zamonda Shayx Nuruddin Abdurahmon q. s.ning vujudi bo‘lmasa erdi, bu toifaning suluki tariqi tamom mahv bo‘lur erdi va nishon qolmas erdi. Ammo chun Haq s. t. bu toifaning baraqotin boqiy tilar erdi, aning bila mujaddad qildi. Va ham Shayx Alouddavla debdurki, bir kun jamoatxonada g‘oyib bo‘ldum. Imom Muhammad G‘azzoliyni ko‘rdumki, o‘lturub erdi va boshin tizi ustiga qo‘yub erdi va qalamni ikki barmog‘i orasida tutub mutahayyir erdi. So‘rdumki, ne voqe’dur va Imom ne fikrdadur? Dedi: nechuk mutafakkir bo‘lmag‘aymenki, men dunyoda simurg‘qa o‘ttiz sifat bitibmen va bu soat ko‘rarmenki, barcha g‘alatdur. Va bu voqe’ani Shayx Nuruddin Abdurrahmong‘a arz qildim, buyurdiki, ajabdur. Men dag‘i Shaqon kentida erdim va ul vaqt manga so‘z aytmak ma’rifatida ko‘p sharah erdi. G‘aybda ko‘rdumki Haq s. t. manga ayturki, sen bilmassanki, har hasratki Imom G‘azzoliyg‘a bor, mundin ortuq yo‘qdurki, sulukni tugatmay bizing xizmatimizg‘a keldi. Andin so‘ngraki ul g‘aybdin keldim, o‘z tilimda uqdae toptim va xomushlik pesha qildim va o‘z ishimga

mashg‘ul bo‘ldum. Aning valodati olti yuz o‘ttuz to‘qquzda, shavvol oyi ekandur va Bag‘dodda dunyodin o‘tubdur.

484. Shayx Abulmakorim Ruknuddin Alouddavla Simnoniy q. s.

Alar aslda Simnon mulukidindurlar. O‘n besh yashag‘ondin so‘ngra vaqt sultoni xidmatig‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar. Bir urushdaki sultong‘a a’do bila voqe’ erdi, alarg‘a jazbae yetti. Andin so‘ngra olti yuz sakson yettida Bag‘dodda Shayx Nuruddin Abdurrahmon Kasirqiy suhbatig‘a yetishtilar, ul vaqtdaki Hijoz safaridin murojaat voqe’ bo‘lub erdi. Va olti yuz sakson to‘qqizda irshod izni toptilar. Va yetti yuz yigirmada Sakkokiya xonaqohida o‘n olti yil muddatda yuz qirq arba’in chiqardilar. Derlarki, soyir avqotda yana yuz o‘ttuz arba’in ham chiqaribdurlar. Chun yoshlari yetmish yetti yilg‘a yetishti, yetti yuz o‘ttuz oltida rajabning ikkisida jum’a kechasi So‘fiobodning burji ahrorida olamdin o‘ttilar. Va Qutbi-zamon Imoduddin Abdulvahhob hazirasida madfun bo‘ldilar. Bir kun darvishe alardin savol qildikim, chun bu badang‘a tufroqta idrok yo‘qdur va ruh andin muforiq bo‘lubdur va arvoh olamida hijob yo‘qdur, ne ihtiyojdur qabr boshig‘a bormoq? Chun har maqomdaki, bir buzurgning ruhig‘a tavajjuh voqe’ bo‘lubdur, ham-uldurki kishi qabri boshig‘a boribdur. Shayx dedilarki, ko‘p foydasi bor. Biri bukim, birovki bir azizning qabri ziyoratig‘a borur, har necha ul yonki qadam qo‘yar, tavajjuh ko‘prak bo‘lur. Chun tufrog‘i boshig‘a yetar, hissi dog‘i ul tufrog‘ni mushohada qilur va tavajjuhda hissi dog‘i mashg‘ul bo‘lur va kulliy mutavajjih bo‘lur, foyda ko‘prak bo‘lur. Yana bir buki, har nechaki ruhda hijob yo‘qdur va barcha olam anga birdur, ammo badaneki tamom tiriklik ayyomida aning bila suhbat tutmish bo‘lg‘ay va aning badan mahshuri ,bo‘lg‘ayki, hashrdin so‘ngra abad ul-abadki, bo‘lg‘usidur, aning bila bo‘lg‘ay, ul mavze’g‘a nazar va taalluqi ko‘prak bo‘lg‘usidur o‘zga yerdin. Bu so‘zdin so‘ngra hikoyat qildiki, bir vaqt Junayd q. s. xilvatida bo‘lur erdim. Va anda zavq tamom yuzlanur erdi. Junayd vositasidinki, ul xilvatda bo‘lur ermish. Chiqdim, dag‘i aning qabri boshig‘a bordim, xilvatidag‘i zavqni topmadim. Bu ma’noni Shayx q. s. xidmatida arz qildim. Dedilarki, ul zavqni Junayd jihatidin toptingmu? Dedim: bale! Dedilarki, mavze’i ma’lumdurki ul umrida necha qatla anda bo‘lmish bo‘lg‘ay. Har qachon zavq yetsa, badaneki topar ekandur, aning bila musohib ekandur, avvaledurki zavq ko‘prak hosil bo‘lg‘ay, ammo shoyadki tufrog‘i boshida hech mashg‘ullig‘idin tavajjuhda taqsire voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay. Oxir bir xirqaeki ahli dile ani kiymish bo‘lg‘ay, aning zavqi mushohada bo‘lur va badan xirqadin yaqinroqdur. Va ziyoratiing favoyidi ko‘pdur. Masalan, birav mundin Hazrat Risolat s. a. v. ruhoniyatig‘a tavajjuh qilsa, fayz topar. Ammo agar Madinag‘a borsa, ul Hazratning mutahhar ruhi aning ul azimatidin va yo‘l ranji tortqondin chun voqifdur va Madinag‘a yetkandin so‘ngra dog‘i his bila ul Hazratning ravzasini ko‘rsa va zohir va botin bila mutavajjih bo‘lsa, munung foydasig‘a aning foydasi bila ne nisbatdur? Va mushohada ahlig‘a bu ma’no tahqiqdur. Va alar debdurlarki, anbiyo aning uchun kelibdurlarki, xalqning ko‘zlarin o‘z ayblarin ko‘rarga ochqaylar, to o‘z ayblarin va Haq taoloning kamolin va o‘z ajzin va aning qudratin va o‘z zulmin va aning adlin va o‘z mazallatin va aning izzatin va o‘z jahlin va aning ilmin va o‘z bandalig‘in va aning xudovandlig‘in va o‘z faqrin va aning g‘inosin va o‘z taqsirin va aning ne’matlarin va o‘z fanosin va aning baqosin bilgaylar va botin ko‘zlari munga biyno bo‘lg‘ay. Va ham ushbu qiyos bila shayx ham aning uchundurki, muridlar ko‘zin bu ma’nig‘a ochg‘ay. Pas, har necha murid o‘z kamoli isbotig‘a ko‘prak ko‘shish qilg‘ay, yo amale qilg‘ayki, aning kamoli zohir bo‘lg‘ay. Shayxqa andin ranj ko‘prak yetishgayki, shayx bu ranjlarni aning uchun tortarki, muridning nafsining o‘z kamolin ko‘rar ko‘zin tikkay va Haqning kamolin ko‘rar ko‘zin yorutqay. Va ul har lahza o‘z kamolin ko‘rarga bir ko‘z ochqay, pas, shayxning ranji zoe’ otig‘a ko‘shish qilg‘ay o‘z haqqida. Darvesh kerakki, o‘z nafsi kaminida bo‘lg‘ay, to har ko‘zki, o‘z kamolin ko‘rarg‘a ochqay, filhol ani tikkay. Va agar mundoq (qilmasa, anga xabar bo‘lg‘uncha nafs aning har sari mo‘yidin o‘z kamolin ko‘rarga bir ko‘z ochqay va Haqning kamolin ko‘rardin ko‘r qilg‘ayki, nafsning odati budur. Ham alar debdurlarki, Tengri taolo to kishining sirrin el ko‘zidin yopmog‘uncha, va ani xalq ko‘zidii yashurmog‘uncha, mumkin ermas ul kishi valoyat martabasig‘a yetmak. Va [do‘stlarim qubbalarim

ostidadir][1]ning ma’nosi budur. Va bu qabob bashariyat sifatidur va pardae emas bo‘zdin va yo o‘zga jinsdin. Va sifat uldurki, anda aybe zohir qilg‘ay, yo bir hunarni andin el ko‘ziga ayb ko‘rguzgay. Va [ularni mendan boshqalar tanimaydilar][2]ning ma’nosi budurki, to irodat nuri bila biravning botinin yorutmag‘ay, ul valini tanimag‘ay, pas ul nur ani tanimish bo‘lg‘ay, yo‘q ul kishi. Va ham alar so‘zidurki, darveshlar ki, o‘z ishlarig‘a mashg‘uldurlar, kerakki battolni o‘z oralarida qo‘ymasalarki, bir bekor yuz darkor kishini bekor qilur.

Sh ye ‘ r:

[Bekorchilarning kasalligi g‘ayratlilarga tez
o‘tadi.
Sovuq kulni cho‘g‘ ustiga tashlasang, o‘chadi][3].

Ham alar debdurlarki, Hakim Tirmiziy va jamoate mag‘oribadin debdurlarki, [avliyolikning boshlanishi payg‘ambarlikning oxiridir][4]. Bir kun Bag‘dodda Shayx xilvatida erduk. Buyurdiki, ul jamoatki debdurlarki, [avliyolikning boshlanishi payg‘ambarlikning oxiridir][5]. Mung‘a uzre bor. Alar ul so‘zdin muni tilab erkanlarki, [Shariatda avliyolikning boshlanishi anbiyolikning nihoyasidir. Tariqatda avliyolikning nihoyasi anbiyolikning boshlanishidir][6]. Nevchun? Hazrat Risolatqa s. a. v. shariat kamoli ishining oxirida tamom bo‘ldiki, [bugun sizlarga diningizni komil qildim][7]. Va vali to shariatni takmil qilmag‘ay, valoyatqa qadam qo‘ya olmas. Pas, ulcha nabig‘a sharoe’da ishining nihoyatida bo‘lsa, valig‘a bidoyatida bo‘lg‘ai. Nevchunki, agar kishi ul ahkom bilaki, Makkada nozil bo‘ldi suluk qilsa, ul ahkomg‘akim, oxir umrda Madinada nozil bo‘ldi, iltifot qilmasa, hargiz valoyatqa yetmagay. Balki agar inkor qilsa kofir bo‘lg‘ay. Pas, valoyat ibtidosi uldurqi, barcha sharoe’ni kamol bila qabul qilg‘ay va mutobaat ko‘rguzgay, ammo tariqat uldurki, har necha vali sa’y qilsa va martabasi oliy bo‘lsa, aning ruhig‘a ul nav’ me’rojeki nabining jismig‘a bo‘lubdur, hosil bo‘lmag‘ay va maholdurki bo‘lg‘ay. Chun valoyatning intihosida valining ruhi nabining jismig‘a mushobahat topar, tariqatda nihoyat ul-avliyo bidoyat ul-anbiyo bo‘lg‘ay. Va ham alar buyurubdurlarki, anbiyo alayhissalom omidan gunah inshosidin ma’sumdurlar va avliyo gunohni xor tutmoqdin mahfuz. Va Mustafo s. a. v. din marvedurki, [agar mag‘firat qilsang, barchani mag‘firat qil! Qaysi bandang borki, gunoh qilmagan?][8]. Va bu faqir qoshida hech gunah andin yomonroq emaski, banda o‘zin muqassir va mujrim bilmagay.

485. Axiy Ali Misriy q. s.

Ul Shom mulkida bir shayx erdi va ko‘p muridlari bor erdi. Ammo chun munsif kishi erdi. Muridlaridin jam’ig‘aki mustaid edilar, dedilarki, agar siz Haq tolibisiz, men dag‘i Haq tolibimen. Va murshide topmaymenkn, aning qoshida suluk qilg‘ay edim. Emdi voqe’ada ko‘rubmen va shahodatda ham eshitadurmenki, Xurosonda murshide bor, mukammal. Ko‘rung borali va anga musharraf bo‘lali va ul murshid xidmatida bir necha kun suluk qilali va andinki, xalq bizda gumon elturlar, bir nima hosil qilali! Alqissa, buso‘z bila kelib erdi va Shayx ashobig‘a doxil bo‘lub erdi, o‘zining jam’i muridlari bila. Shayx buyurdilarki, alarning irodati mundin so‘ngra sanga mening irodatimdur, ammo sening vasotating alarg‘a naf’ qilur. Andoqki, mening qoshimda shayx va Mustafo s. a. v. orasida har nechaki xirqa ko‘prak, yo‘l yorug‘roq va suluk osonroqdur, hadis xilofiki, anda har necha vosita ozroq bo‘lsa, hadis sahihroqdur. Nevchunki, andaki xabardur, har necha vosita ko‘prak bo‘lsa, tafsir ihtimoli ko‘prak bo‘lur, ammo mundaki, xirqadur, har necha mashoyix nuri ko‘prak bo‘lsa, yo‘l yorug‘roq va alarning ruhoniyati madadi ko‘prak bo‘lur. Bir kun Shayx Mansur Halloj so‘zi orag‘a tushti. Axiy Ali Misriy aning holidin istifsor qildi. Hazrat Shayx andin so‘ngraki alar bobida ko‘p so‘zlar ayttilar, dedilarki, ul vaqtki, manga hol garm erdi, aning mozorig‘a bordim. Chun muroqaba qildim, aning ruhin illiyyinda toptim, oliy maqomda munojot qildim. Va dedim, Xudovando, bu ne holdurki, Fir’avn

[Men sizlarning oliy Parvardigoringizman]1 dedi va Husayn Mansur [«Men Haqman»]2 dedi va ikkalasi uluhiyat da’vosi qildilar. Emdi Husayn Mansurning ruhin illiyninda va Fir’avn ruhi sijjindadur, munda hikmat nedur? Mening sirrimda nido qildilarki, Fir’avn o‘zin ko‘rmakka tushti va barcha o‘zin ko‘rdi va bizni gum qildi va Husayn Mansur barchamizni ko‘rdi va o‘zin gum qildi, ko‘rki ne farq bo‘lg‘ay andin mungacha.

486. Shayx Najmuddin Muhammad Edkoniy q. r.

Ul hazrat Shayx Ruknuddin Alouddavlaning murididur. Va umri saksonga yetgan ekandur. Yetti yuz yetmish yettida dunyodin o‘tubdur va Isfaroyin omolidin bir hisorda madfundur. Ul debdur: Hazrat Rasul s. a. v. qavmidakim, [savodi a’zam– Qur’onni lozim tuting va unga mahkam bog‘laning!][1].

487. Axiy Ali Dehistoniy r. t.

Shayx debdurlarki, arba’inda panjshanba kecha arba’inning o‘ttuz to‘qquzunchi kechasida g‘aybda ko‘rdumki, jamoat musofirlar keldilar va oralarida bir yigit erdiki, Haq taoloning aning bila inoyat nazari bor erdi va anga mening tarbiyatimg‘a havoladur. Chun shahodat olamig‘a keldim, xodimg‘a dedimki, hech musofirg‘a borur ijozati berma, men chiqquncha. Qazoro, ham ul zamon musofirlar yetishtilar. Dedimkim, masjidi jome’daki, tongla arba’in tuganmish bo‘lg‘ay musofirlarni kelturki, ko‘rib alarg‘a ijozat berali. Tonglaki masjidg‘a bordim, musofir darveshlar keldilar va salom qildilar. Har necha nazar qildim, ul kishiniki men ko‘rub erdim, alarning orasida topmadim. Dedim: magar yana bir qavm yetkusidurlar. Namoz qilib, uyga kelduk. Xodim kelib dediki, bu jamoate darveshlardin birisi magar raxtlari qoshida ekandur va masjidqa kelmagandur, darxost qiladurki shayxni ko‘rgay. Dedim: kelsun! Eshikdin kirgach tanidimki, uldur. Salom qildi va lahzae o‘lturdi va qo‘pti va chiqti. Xodimg‘a dedimkim, chiqib bu yigitga aytki, bir necha kun munda bizing bila bo‘lsunki, bizing aning bila ishimiz bor. Chun xodim tashqari chiqibdurki, ul qaytib keladur. Xodim andin holni so‘rubdur. Ul debdur: Shayxqa aytki, meni qabul qilsinlarki, darveshlar xidmatig‘a mashg‘ul bo‘layin. Xodim debdurki, Shayx meni ushbu ish uchun yuborib erdi. Ani olib kirdi. Musofirlar bordilar va ani xidmatqa mashg‘ul qildim. Xidmate qila boshladiki, odamedin andin yaxshiroq mutasavvar bo‘lmag‘ay. Uch yildin. so‘ngra zikrlar aytti va xilvatlar o‘lturdi va yaxshi hollar anga yuz ko‘rguzdi. Bir kun safarda erduk va ul bir suffada o‘lturub erdi. Mening nazarim anga tushti, ko‘rdumki, oliy voride anga nozil bo‘ladur va pas shigarf hole anga yuzlanadur. Qo‘ptum va aning qoshig‘a bordim, mag‘lub va ul holning masti bo‘lub erdi. Anga nahib bila dedimki, ne holdasen va ne ko‘rdung, ayt! Dedi: aytaolman. Dedim: yoy chaynama, ayt! Va zajr bila so‘rdum, aytti. Va al-haq oliymaqom erdi, ammo chun ko‘rdumki, anda ajabe paydo bo‘lg‘udekdur. Ani dedim nima emas va nafy qildim, bori ul maqomda o‘zida bir nima paydo qildi; va muddati madid aning dimog‘idin ul bormas erdi, to andin so‘ngra necha vaqtdin so‘ng samadiyat tajallisi bila mutajalle bo‘ldi. Va ul maqomedurki solikka andin ihtiyoj yegulikka qolmas. Chun ul maqomda o‘zin ko‘rdi, g‘urure anda paydo bo‘ldi va o‘ziga dediki, nima yemamak Haq taolo sifatidur va bu manga holo hosildur va botinida xudoylig‘ da’vosi bosh uraboshladi va yemak tarki qildi. Har nechakim tayog‘lar erdim va tishlari orasig‘a yig‘och solib ochib, sharbat va g‘izo og‘zig‘a soldurur erdim, yana og‘zidin to‘kar, tashlar erdi. Qo‘yduqki, o‘z ko‘ngli bila yegay! Ham yemadi, to olti yil mundin o‘tti. Va bu dastur bila darveshlar xidmatig‘a qiyom ko‘rguzur erdi. Bir uluq saodati bu erdiki, bovujudi da’volar va hollar hargiz o‘zin mendin beniyoz ko‘rmadi. Va agar bu bo‘lmasa, ham avvallarda o‘q ul vartada zoe’u halok bo‘lur erdi. Va o‘ttiz yetti yildurki, men Hazrat Shayx irshodi bila toliblar irshodig‘a mashg‘ulmen, bu toifadin ko‘pni ko‘rdum, bu Axiy Alidekki anga dunyo lazzatig‘a va o‘z nafs hazzig‘a mayl bo‘lmag‘ay, hargiz ko‘rmaydurmen. Va yigirma besh yildurki, darveshlar orasidadur, hech kishi andin eshitmaydur erkinki, manga yemakdin va ichmakdin va hech jins nimadin nima kerak demish bo‘lg‘ay. Va bovujude ulki bemorlig‘lar tortibdur, hech kishi ani takya qilg‘on ko‘rmaydur va hech kishiga aytmaydur va hech kimdin davo tilamaydur. Alqissa ul maqomdakim g‘izodin forig‘ erdi, olti yilgacha

qoldi. Andin so‘ngra Ka’bag‘a borur erdim, ani o‘zum bila elttim. Chun Madinag‘a yetishtuk, anga dedimki, agar Hazrat Rasul s. a. v. ummatisen va mening muridimsen, ani qilmoq kerakki, Hazrat Rasul s. a. v. qilnbdurlar va men qilurmen, yo‘q ersa, qo‘p va ketki, mundin ortiq bizing suhbatimizda bo‘la olmassen! Ali Do‘stiy hozir erdi, bir luqma aning og‘zig‘a soldi va ul yedi. Bir kun ta’yin qildimki, uch luqma yegay. To Makkaga yettuk, andin so‘ngra buyurdimki, andoqki soyir darveshlar nima yerlar, ul dag‘i yegay! Va ul vartadin xalos bo‘ldi.

488. Abulbarakot Taqiyuddin Ali Do‘stiy Simnoniy q. s.

Ul dag‘i Shayx Ruknuddin Alouddavlaning ashobidindur. Bir kun Hazrat Shayx maorif so‘rarda buyurubdurlarki, modomiki solik tajalliy vaqtida surate idrok qilur, ul tajalliy suvari bo‘lg‘ay va Haq taoloni ul suratdin munazzah tutmak kerak, ammo ani Haq tajalliysi bilmak kerak, andoqki Muso a. s. daraxtdin [albatta men Allohmen]1 eshitti. Har kim desaki, daraxt Tengridur, kofir bo‘lg‘ay va har kim desa, bu so‘zni Tengri demadi, ham kofir bo‘lg‘ay. Bu suvare tajalliini bu nav’ e’tiqod qilmoq kerak. Va ul kun Taqiyuddin Ali Do‘stiy hozir erdi. Shayx buyurdilarki, bu yil manga Ali Do‘stning voqeasi bisyor xush keldi. Va darveshlarning e’tiqodi saboti uchun aytay. Haq taolo bu yil anga bir qatla kulliy mavjudot suratida tajalliy qildi. Va ul Haq taolo tasbihu tanzihin suvar lafzi bila andoqki Haq taolo aning tiliga joriy qilur erdi, aytur erdi. Haq s. t. o‘zluki bila andin so‘rdikim, meni ko‘rdung? Ul dediki, Bor Xudoyo, ko‘rmadim! Haq taolo buyurdikim, bularki ko‘rdung, ne edi? Javob berdiki, osoru af’olu sifoting suvari erdi va sen barcha suratdin munazzahsen. Haq s. t. bu so‘zda anga sano aytti va bu ma’noni andin pisandida tutti.

489. Amir Sayyid Ali b. Shihob b. Muhammad Hamadoniy q. s.

Ulumi zohiriyu botinida jome’ ermish. Va ahli botin ulumida musannafoti bor: «Asror un-nuqta» kitobidek va «Asmoulloh» sharhidek va «Fusus ul-hikam» sharhi va «Qasidai xamriyai Foriziya» sharhidek va bulardin o‘zga ham. Alar Shayx Sharafuddin Mahmud b. Abdulloh Mazdaqoniyning murididurlar, ammo odobi tariqat kasbi sohibus-sirr, baynal aqtob Taqiyuddin Ali Do‘stiy q. r. qoshida qilibdurlar. Va chun Shayx Taqiyuddin Ali Do‘stiy dunyodin o‘tubdur, yana ruju’ Shayx Sharafuddin Mahmudqa qilibdurlar. Va debdurlarki, farmon nedur? Shayx tavajjuh qilib debdurki, farmon uldurkim, olamning aqsoyu bilodida kezgaysen. Alar uch qatla rub’i maskunni evrulubdurlar. Va ming to‘rt yuz valiy suhbatig‘a musharraf bo‘lupturlar va to‘rt yuzni bir majlisda topibdurlar va yetti yuz sakson oltida zulhijja oyining oltisida Kabru Savod viloyatining yaqinida olamdin o‘tupturlar. Va muborak jismlarin Xuttalong‘a naql qilibdurlar.

490. Shayx Abdulloh G‘arjistoniy q. s.

Shayx Ruknuddin Alouddavlaning ashobidindur. G‘arjistonning kentlaridin biridindur. Kichik erkandurki, otasi favt bo‘lubdur va onasi yana biravga tegibdur. Bir kun andin amre voqe’ bo‘lg‘ondurki, o‘gay otasidin qo‘rqubdur va qochib, kentdin chiqibdur. Va ul kent navohisida bir uluq yig‘och bor ekandur. Ul yig‘ochqa chiqib yoshunubdur. Va ul yig‘och tubida bir chashma ermish. Ittifoqan jam’i darveshlar kelib, ul chashma boshida manzil qilibdurlar. Va ul chashma suyida aning aksin ko‘rubdurlar. Ani ul daraxtdin tushurub, o‘zlari bila olib boribdurlar. Va ul safarda guzarlari Simnon viloyatig‘a tushubdur. Hazrat Shayx xidmatig‘a boribdurlar. Ul ham bilalaricha boribdur. Chun Shayxning muborak nazari aning sari tushubdur, farosat nuri bila aning kamoli qobiliyatin bu tariqda ma’lum qilibdurlar. Musofirlar azimat qilg‘ondin so‘ngra kishilar yuborib, ani qaytaribdurlar. Musofir darveshlar ko‘p iztirob qilibdurlar va vaqt sultoni hukmig‘a ruju’ qilibdurlar. Chun Shayxning haqqo niyati barchag‘a zohir ermish, hech foyda qilmaydur. Va Hazrat Shayx aning tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘lub, Shayxning iltifoti bila ulug‘ maqomlarg‘a yetibdur. Va Shayxning muncha ihtimom va iltifotiki, aning borasida bor ekandur, ma’lum emaski, ashobdin hech kimga bo‘lmish bo‘lg‘ay. Chun muridlar irshodi va takmili martabasig‘a yetibdur. Tus viloyatig‘a havola topibdurki, borg‘ay.

Anda kelgandin, so‘ngra toliblar irshodig‘a mashg‘ul bo‘lubdur. Vaqt podshohi andin istid’o qilibdurki, ba’zi urushqaki aduvsi bila voqe’ bo‘lg‘ondur, aning bila borg‘ay. Borg‘ondin so‘ngra ul urushta shahodat martabasi topibdur va jasadin Tusqa naql qilibdurlar va qabri andadur.

491. Bobo Mahmud Tusiy q. s.

Shayx Abdulloh muridlaridindur. Bir qatla Shayx jam’i muridlar arba’inda o‘lturub erdi. Bir kecha xonaqoh xodimig‘a dediki, kecha voqif bo‘lki, ikki darveshg‘a azim vorid yetkusidur. Nogoh bexudlug‘ qilma-g‘aylar va xilvatdin tashqari chiqmag‘aylar. Xodim hozir bo‘lur erdi. Nogoh Bobo Mahmud na’rai urdi va xilvatdin chiqti. Va yana bir darvesh hamkim, oti Hindu Ilyos erdi, ul dag‘i qichqirib, bexudona yugurub chiqib va yuz biyobong‘a qo‘ydilar. Xodim keynilaricha yugurub, Hindu Ilyosqa yetti va ani tutti. Va Bobo Mahmud majzub va mag‘lub yuz sahrog‘a qo‘yub erdi, kishi yeta olmadi. Va Hindu Ilyos Shayx asari tarbiyatidin filjumla o‘z holig‘a keldi, ammo Bobo Mahmud ishi zabt qilmoqdin o‘tti. Va ani uqaloyi majonin debdurlar. Va karomot va xavoriqi odot ko‘p andin zohir bo‘lur erdi, andoqki mashhurdur.

492. Axiy Ali Qutluqshoh q. s.

Ul dag‘i Shayx Abdulloh muridlaridindur. Va Shayx tarbiyati asaridin kamolg‘a, balki takmil martabasig‘a yetti. Ul vaqt Shayx Abdullohni zamon podshohi cherik taklifi qildi. Axiy Ali hozir ermas erdi. Shayx vasiyat qilib dediki, biz bu safarda shahodat davlatig‘a musharraf bo‘lg‘umizdur, bizing o‘rnumizg‘a Axiy Alini o‘lturtunguz. Va andoq bo‘ldi va andoq qildilar.

493. Shayx Hofiz Umar Abardihiy q. t. s.

Axiy Alining muridlaridindur. Va kichik yoshida Mavlono Raziyuddin Ali Moyoniy r. t. din Xizr a. s. ning suhbatdori ermish, nazar va tarbiyat, topibdur. Shayx Hofiz debdurki, avoyildaki manga Haq yo‘li suluki doiyasi paydo bo‘ldi. Nishoburda Mavlono Shamsuddin Xalifa irshodg‘a mashg‘ul erdi. Dayron degan kentda Shayx Axiy Ali. Va har viloyatda bir azizning otin tutarlar erdiki, faqr tariqi irshodig‘a mashg‘uldur. Mutaraddid erdimki, qaysi biri xidmatig‘a borayin. Bir kecha voqe’da ko‘rdumki, jamoate mashoyixu avliyo bir manzilda hozirdurlar. Bu voqe’alari sharhida tul bor. Hosili budurki, bir haybatliq uluq kishi Shayx Hofizni ko‘tarib, majlis huzzori mashoyixdin birining etakiga qo‘yubdur va debdurki, bu tiflg‘a sut ber. Va ul Shayx Axiy Ali ermish. Shayx Hofiz bilibdurki, aning tarbiyati Axiy Alig‘a havola bo‘ldi. Necha kundin so‘ngraki, Shayx Axiy Ali xidmatig‘a boribdur. Shayx Ali anga boqib, tabassum qilib, debdurki, sut ichkali kech kelding. Shayx Hofiz bay’at iligi Shayx Axiy Alig‘a beribdur va tavajjuh qilib, talqin olibdur. Ul debdurki, Makka safaridakim, Bag‘dodqa yettuk, Shayx Nuruddin Abdurrahmon Bag‘dodning shayx ul-islomi erdi, buzurgvor jaddining xalifasi. Vido’ vaqti manga vasiyat qildiki, chun Hazrat Risolat s. a. v. ravzasig‘a musharraf bo‘lsang, mening niyozmandlig‘imni ul Hazratqa yetkurub, bu iborat bila arz qilg‘aysenki, ummatingning asllaridin Abdurrahmon otlig‘ bir qari osiy duo yetkurdi. Chun munga Madinada ul davlat muyassar bo‘ldi. Shayxning ul so‘zi xotirimg‘a keldi, ham ul iborat bila arz qildim. Hazrat Risolat s. a. v. muborak qoshlarig‘a girih solib dedilarki, sen mundoq demaki, ul g‘oyat tavozu’din mundoq debdur va ul mening ummatimning akobiridindur. Ul safardin qaytqonda, ul xabarni Shayxqa yetkurdum, bag‘oyat xushhol bo‘lub, manga xayr duosi qildi.

494. Xoja Abdurrahmon Gahvoragar q. s.

Xoja Abdurrahmon q. s. Haq taoloning mahbublaridin va majzublaridindur. Alarning g‘arib holoti ko‘pdur. Shayx Hofiz Umar r. debdurki, bir vaqt bu viloyatda azim vabo bo‘ldi. Bir kun Mavlono Raziyuddin Ali Moyoniy q. s. o‘z kenti Moyondin Abardihqa tashrif kelturdilar va kentning tashida tushub, meni tiladilar. Va dedilarkn, amr mundoqdurki, mening bila kelib, Isjil degan yerda Shayx Muhammad Xolid r. qabri boshida «Qur’on» xatm qilg‘aysen, shoyad bu balo daf’ bo‘lg‘ay. Amr

imtisoli qildim, ammo bu jihatdinki, ul fursatda Xoja Abdurrahmon Gahvoragar q. s. Isjilda bir tosh ustida o‘lturur erdiki, Shayx Muhammad Xolid qabri boshidadur. Va buyuk so‘zlar aytur erdi va Mavlono Raziyuddin Ali xidmatlari g‘oyat tasharru’da erdilar. Men mutafakkir bo‘ldimki, bo‘lmag‘ayki, alar orasida amre voqe’ bo‘lg‘ayki, ul baliyatdin sa’broq bo‘lg‘ay. Chun Isjilg‘a yaqin yettuk, birav yo‘luqdi. Aidin Xoja ahvolidin so‘rdum. Dediki, emdigacha tosh ustida o‘lturub erdi, nogoh qo‘pdi va dediki, bir qoj keladurki, men aning bila kalla ura olmasmen. Va ul yaqinda bir haros erdi, anda kirdi va bir chuqurg‘a kirib yashundi. Biz chun kentga yettuk va mazor boshig‘a tushtuk va kent ahli yig‘ildilar va g‘avg‘o qo‘pdiki, viloyat hokimi Amir Ali Bek Xoja ziyoratig‘a keladur. Kent ahli Mavlonog‘a dedilarki, Xoja sizing keladurganingiz jihatidin falon harosda bir chuqurg‘a kiribdur. Agar hokim ani topmasa, shoyadki bizga g‘azab qilg‘ay! Mavlono xidmatlari ul harosqa mutavajjih bo‘lub, ul chuqur ustiga yetib, Xojaga dediki: mehmonni mundoq tutqaylar, Xoja chiqib, ikkalasi quchushub, Xoja Mavlononing qulog‘ig‘a bir so‘z ayttiki, Mavlonog‘a yig‘lamoq yuzlandi va yig‘lay boshladi. Va muddate ul yerda turib erdilarki, birav dediki, Amir Ali Bek tashqari intizor tortadur. Mavlono xidmatlari Xojag‘a tanbih qildilar, Xoja chiqib, Alibek bila ko‘rushdilar. Va dedilarki, [hoy mo‘g‘ulgina, ket!][1]. Ul azimat qilgach Xoja: [Mo‘g‘ulgina ketginki, aziz mehmonim. bor!][2] der erdi. Va ul yugurur erdi, to nazardin g‘oyib bo‘ldi. Andin so‘ngra Xoja bila Mavlono ziyorat boshig‘a keldilar va men xatm og‘oz qildim. Tilovat asnosida Xoja buyuk so‘zlar bunyod qildi. Mavlono hay urdi va Xoja tik turdi va majlis oxirig‘acha hech so‘z o‘tmadi. Va alarning himmati barakotidin Tengri taolo ul baloni daf’ qildi. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da mundoq bitibdurlar. Ammo bu faqir Xoja Hofiz boridinki darvesh kishi erdi va Shayx Hofiz Umar q. s.ning muxlis muridlaridin erdi, mundoq istimo’im borki, Xoja buyuk so‘z bunyod qilg‘ondin so‘ngra Mavlono hay urubdur. Xoja andin so‘ngra Mavlononing qulog‘ig‘a so‘z aytibdurki, Mavlono yig‘labdur va ko‘p niyozmandlig‘lar qilibdur. Mavlonodin maxsus muridlari ul kayfiyatni tahqiq qilg‘andin so‘ngra mundoq debdurlarki, yigitligimdaki, tahsilg‘a mashg‘ul erdim va faqr tariqi suluki doyim ko‘nglumga o‘tar erdi va orzum bor erdi. Bir kecha voqe’ada ko‘rdumki, ikki kishi meni yotkurdilar va ko‘ksumni yordilar va ko‘nglumni chiqarib, birisi oftoba bila suv quydi va birisi ko‘nglumni yudi va yana ko‘ksumga soldilar va butkardilar. Men ul voqe’a ko‘rgali tahsil ishin barham urub faqr tariqi sulukini ixtiyor qildim. Bu zamonki, men Xojaga buyuk so‘z aytqon jihatidin gustoxona hay urdum, og‘zin qulog‘img‘a kelturub dediki, muncha yil burunroq falon ta’rixdaki sen tahsilg‘a mashg‘ul erding, voqe’ada Xizr bila menkim seni yotqurduq va ko‘ksungni yorduq va ko‘nglungni chiqarib, birimiz su qo‘yub, birimiz yub, yana ko‘ksungni butkarduk. Va ul ish sanga bois ul bo‘ldiki, faqr yo‘li sulukiga mashg‘ul bo‘ldung, ul haqguzorlig‘durki, holo bizga hay urarsen. Ul zamon yig‘lamog‘im boisi bu erdi. Muridlar barcha quloq tutub, Xojag‘a o‘zga aqida qildilar. Va Xojaning qabri Mashhad viloyatida Gurmakon degan kentdadur, vallohu taolo a’lam.

495. Mavlono Faxriddin Luristoniy q. s.

Ul ulumi zohiriy tahsilig‘a mashg‘ul ermish. Doim xotirg‘a kelur ermishki, Tengri taolo yo‘li sulukig‘a mashg‘ul bo‘lg‘ay. Bir kun mutolaadin kalol topib, xotir tashhisi uchun hujrasidin chiqib, sayr qilurda ko‘ngliga kelibdurki, sen bir kun xud bu ishdin chiqar xotiring bor, bu kun ul kun bo‘lsun. Misrda bir madrasada ermish, yana hujrasig‘a bormaydur va kutub va har neki anda bor ekandur, barini qo‘yub, Shayxi Shayxulloh degan darveshki, ul vaqt Misrda toliblar irshodig‘a mashg‘ul ermish aning xidmatig‘a borib, suluk bunyod qilibdur. Chun ul dunyodin o‘tubdur, bir komil murshid talabig‘a safar ixtiyor qilibdur. Necha shayx suhbatig‘a yetibdur va maqsudi hosil bo‘lmaydur. Ul vaqt Shayx Hofiz Umar irshodg‘a mashg‘ul ekandur, aning ovozasin eshitib, aning xidmatig‘a borib, anga musharraf bo‘lubdur. Suhbat tutashibdur va xub suluklar dast beribdur va arba’inlar o‘lturubdur va tarbiyatlar topibdur va kulliy maqosid hosil qilibdur. Shayx Hofiz Umar dunyodin o‘tgandin so‘ngra Jom qasabasig‘a kelib, Hazrat shayx ul-islom Ahmad Jom q. s. ravzasi jivorida sokin bo‘lubdur. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, Xarjardda alarning otasi saroyig‘a Mavlono

kelgan ekandur. Va alar sig‘ari sinda ekandurlar, andoqki alarni tizi oldida o‘lturtqon ekandur. Va muborak barmog‘i bila havoda ishorat bila mashhur otlarni, Umar va Alidek bitir erkandur. Va Hazrat Maxdumiy bovujudi tufuliyat o‘qur erkandurlar. Va Mavlono taassub yuzidin tabassum qilib, shafqat va lutf ko‘rguzur ekandur. Alar bitibdurlarki, alarning ul iltifot va nazari mening xotirimda bu toifaning muhabbati tuxmi bo‘ldi va har kun o‘zga nash’u namo topar erdim. Umidim uldurki, bu toifa suhbatida tirilgaymen va bularning xidmatida o‘lgaymen va alarning muhiblari zumrasida mashhur bo‘lg‘aymen. [Allohim, meni miskin holda bor qil, miskin holda o‘ldir va miskinlar qatorida qayta tiriltir!][1]. Sakkiz yuz yigirmadin so‘ngra Xurosondin Haramayni sharifayn zodahumallohu sharafan ziyoratig‘a azimat qildi va andin Misrg‘a bordi va anda Tengri jivori rahmatig‘a vosil bo‘ldi. Va qabri Qarofadadur, Imom Shofi’iy r. a. qabri yaqinida va anda - Sayyid Faxrudding‘a mashhurdur.

496. Shoh Ali Farohiy q. t. s.

Shayx Alouddavla q. s. muridlaridindur. Otasi Faroh viloyatining hokimi erdi, qarib erdi, tiladiki, hukumatdin isti’fo va inzivo ixtiyor qilib, umrining oxirin toatu ibodat bila o‘tkargay. O‘g‘li Shoh Alini zamon podshohining o‘rdusig‘a yubordiki, hukumat nishonin o‘z otig‘a olg‘ay va ul mu’of bo‘lg‘ay. Guzari Simnon sari erdi. Ul yaqinda quttout-tariq bila alar orasida urush voqe’ bo‘ldi, andoqki Shoh Alining barcha mutaalliqlari qatlg‘a keldilar, o‘zi qatiq yaralar yeb, o‘luklar orasida o‘lum holi bila yiqildi. Shayx hazratig‘a g‘aybda ko‘rguzdilarki, falon mavze’da jamoate o‘luklar orasida bir zaxmlig‘ning ruhidin ramaqe bor, aning sarvaqtig‘a yetibki, faqr tariqida tamom qobiliyati bor. Shayx ul mavzeg‘a bordi va hech qaysini tirik topmadi. Yana qatla hamul amrg‘a ma’mur bo‘ldi, yana borib, tirik topmadi. Yana borib, ihtiyot bila ko‘p tafahhus qilg‘andin so‘ngra birida hayot asari tafarrus qildi. Ani ko‘tarib, shahrg‘a kelturub, muolajasig‘a mashg‘ul bo‘ldilar, to yaralari o‘ngalib, o‘z holig‘a keldi. Shayx anga dedilar: sihhat topting, xoh ishing kifoyati uchun podshoh qoshig‘a bor, xoh otang qoshig‘a bor! Ul dediki, men Shayxning sharif xidmatidin hech qayon borur xotirim yo‘qtur, tilarmenki, irodat iligin Shayx etagiga urg‘ayman! Oxir otasi xidmatig‘a bordi va andin ijozat hosil qilib, Shayx hazratig‘a kelib, Shayx Hasan tarbiyati bila oliy maqomotqa qadam qo‘ydi.

497. Shayx Muhammad Shoh Farohiy q. t. s.

Zohiriyu botiniy ulum bila orosta erdi. Va ul bir vosita bila Shoh Ali Farohiyning murididur. Hayoti oxirida haj azimati qildi, Hurmuz yo‘li bila. Chun Manujong‘a yetti, bemor bo‘ldi ham anda vafot qildi. Va qabri ham andadur. Kashfu ilhom sohibi ermish. Derlarki, haj safarida bir shahrg‘a yetibdurki, anda bir xarobote bor ermish. Muroqib o‘lturub ermish. Nogoh bir sayha urmish. Ulamodin biri hozir ermish, so‘rmishkim, ne voqe’ bo‘ldi? Demishkim, bu shahrning xarobotini manga makshuf qildilar, anda bir jamila zaifa ko‘rdum. Dedimki, bor Xudoyo! Bu zaifani bu holdin manga bag‘ishla! Sirrimg‘a yetkurdilarki, ne uchun demassenki, seni anga bag‘ishlag‘aybiz. Ul xotun ham ul vaqtda tavba tavfiqi topdi.

498. Shayx Bahouddin Umar r. t.

Shayx Muhammad Shohning tag‘oyisidur. Ba’zi akobir debdurlarki, ma’lum emaski, Shayx Ruknuddin Alouddavla ashobi silsilasida aningdek bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Kichik yoshdin majzub ekandur va jazba osori anda zohir ekandur. Namoz qilurda ashobidin biravni o‘lturtur ermishki, rakaat adadin anga tanbih qilg‘aykim, o‘zi ani asray olmas ermish. Avoyili holda andoqki, bu toifag‘a g‘oyat shavqu taattush bo‘lur maqsudqa hech yetmakdin tag‘oyisi qoshida izhori malol qilur ermish. Tag‘oyisi anga bu baytnn o‘qub ermishki,

b a y t:

[Agar nola qilsa, yori safarda bo‘lgan kishi nola qiladi. Yoring qo‘yningdayu, yana nega nola qilasan?][1].

Odati bu nav’ ermishki chun masjidi jome’da hozir bo‘lur ermish, hukkom va alarning xavosi bila musulmonlarning ishi kifoyatida so‘z aytur ermish. Azize savol qilibdur muniki, masjidda muncha el so‘zin so‘zlashmakning sababi ne erkin? Mundoq debdurki, agar o‘zumni ul aytmoq va eshitmakka mashg‘ul qilmasam, mag‘lub va mustahlak bo‘lurmen, havosim ishdin qolur, ko‘zum ko‘rmas va qulog‘im eshitmas. Va soyimuddahr bo‘lur ermish. Hazrat Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy q. debdurlarki, Makka safarida anga maraze voqe’ bo‘ldi. Har necha ashob mubolag‘a qildilar, iftor qilmadi. Bir kun ko‘rdum, g‘ayb ahlidin jam’i aning mihaffasi sari boradur erdilar. Chun mihaffa eshikiga yettilar, turmadilar va o‘ttilar. Men bu qissani o‘zidin so‘rdum. Dedi: bale, qutb erdi. Va ashobiki, iyodatqa kelib erdilar, mihaffa eshikiga yetkanda, men ayog‘imni uzatib erdim, o‘ttilar, ayog‘imni yig‘ishturg‘andin so‘ng qayttilar va mening qoshimg‘a kelib, fotiha o‘qudilar. Mavlono xidmatlari debdurlarki, ham ul kun sihhat osori zohir bo‘ldi va iftor qilurg‘a ihtiyoj bo‘lmadi. Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, ba’zi fuqarog‘aki, tavajjuh davomi va iqbol maqsudi haqiqiyg‘a targ‘ib qilur erdi, bu baytni o‘qur erdi.

B a y t:

[O‘z diloromingga ko‘ngil bog‘la va jumla olamdin ko‘ngpl uz!][2].

Sakkiz yuz ellik yettida Rabi ul-avval oyiniig salxnda seshanba kuni dunyodin o‘tubdur. Va zamoi podshohi na’shin egniga ko‘tarib, xeyli yo‘l boribdur. Hirotning iydgohining shimoli hadda sari dafn qilibdurlar. Va oliy imorat yasabdurlar. Va mashhur va mutaayyin mazordur, yuzoru va yutabarraku bihi.

499. Mavlono Shamsuddin Muhammad Asad q. s.

Zohir ulumdin tab’ javdatig‘a va fahm hiddatig‘a shuhrati bor ermish. Hazrat Shayx Zaynuddin suluki tariqida mashg‘ul ekandur. Bovujud kasbi ulum ul tariqda sulukidin kundin kunga o‘ziga zikr ta’siri ma’lum qilg‘andin so‘ngra tahsil tarki qilibdur Hazrat Shayx Bahouddin Umar q. s. bila ko‘p suhbat tutub, arba’nilar chiqaribdur. Xalqning aqidasi ul ermishki alarning muridi erkin. Ammo o‘zi anga mu’tarif emas ermish va Mavlono Faxruddin Luristoniy suhbatig‘a yetgan ermish. Va Mavlono anga bir to‘nin kiydurgon erkandur va tabarruk haysiyatidin goh kiyar erkandur. Va so‘ngralar Hazrat Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy bila suhbat tutar ermish va Mavlono ani ta’zim va taqdim qilur ermish. Va Hazrat Maxdum n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, bir yo‘lda aning bila borur erduk. Bir taqrib bila aning so‘zi anga yettiki, dedi: manga bu necha kunda amre voqe’ bo‘ldiki, hargiz o‘zumga ul gumon eltmas erdim. Ijmol tariqi bila nshorate anga qildi, ul nav’ki men aning tahqiqidin jam’i maqomni fahm qildim. [Ba’zi oriflar dedi: Agar Alloh subhonahu o‘z zoti bilan biror bandasiga tajalli qilsa, barcha zot, sifot va fe’llarni Haqning zot sifat va fe’llari partavida foniy holda ko‘radi. O‘zini barcha maxluqotlar barobarida go‘yo tadbir etuvchi, maxluqotlarni esa, o‘z a’zolari deb biladi. Maxluqotlarning birortasiga biror narsa ro‘y bermaydi, faqat o‘zini ularga eng yaqin deb biladi. Tavhid manbasiga tamoman g‘arq bo‘lgani uchun o‘z zotini Haqning yagona zotida, sifatini uning sifatida, fe’lini uning fe’lida ko‘radi. Albatta insonga tavhidda bu maqomdan yuksagi yo‘q. Ruh ko‘zi zotning jamol mushohadasiga tikilgan zamon, ashyoning orasini ajratuvchi aql nuri qadim zot nuri g‘alabasidan zoyil bo‘ladi. Va Haq kelishi bilan botilning ketishi sababidan qadim va hodislar orasidagi farq ko‘tariladi. Bu holat jam’ deb ataladi][1]. Anga hole tamom vavajde azim bor erdi. Samo’ majlisida holi mutag‘ayyir bo‘lub, aydoq sayhalar va za’qalar urar erdiki, asari majlis ahlig‘a siroyat qilur erdi va vaqtlari xush bo‘lur erdi. Sakkiz yuz oltmish to‘rtda Ramazon oyining g‘urrasida olamdin o‘tti. Va qabri Gozurgohda Hazrat Shayx ul-islomning ayog‘i saridur.

500. Shayx Bahouddin Valad q. t. s.

Oti Muhammad b. Husayn b. Ahmad Xatib Bukriy. Ba'zi debdurki, Shayx Najmuddin suhbatig'a yetibdur. Amir ul-mu'minin Abubakr r. a. farzandlaridindur. Onasi Xuroson podshohi Alouddin Muhammad Xorazmshohning qizidur. Hazrat Risolat s. a. v. tushda anga ishorat qildikim, qizingni Husayn Xatibg'a nikoh qil! Va ul mutavallid bo'ldi. Ikki yoshida otasi naql qildi. Chun tamayyuz sinnig'a yetti, ulum tahsili qildi va dinivu yaqiniydin to kamoli ul yerga yettikim, Hazrat Risolat s. a. v. anga Sulton ul-ulamo laqab berdi. Chun anga ko'p zuhur bo'ldi va xavosu avomning marja'i bo'ldi. Zohir ulamosidin ahli hasad ani zamon podshohi xurujig'a muttaham qildilar va Balxdin uzr qo'ldilar. Va ul vaqt Mavlono Jaloluddin kichik yoshlik erdi. Va alar Bag'dod yo'li bila Makka azimati qildilar. Chun Bag'dodg'a yettilar, jam'i so'rdilarki, bular ne eldurlar, qaydin kelib, qayon boradurlar? Alar dedilarki, [Allohdan Allohga! Qo'rquv va quvvat faqat Allohdin bo'lur!][1]. Bu so'zni Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. g'a yetkurdilar. Dediki, [boshqa kishi emas bu – Bahouddin Balxiydir][2] va istiqbol qildi. Chun anga yetti, xachiridin tushub, Hazrat Mavlononing tizin o'pdi va xonaqoh sari istid'o qildi. Mavlono dedilarki, mavoliyg'a madrasa ansabdur va Mustansiriya madrasasig'a nuzul qildilar. Va Shayx o'z iligi bila alarning o'tugin tortib, munga munosib xidmatlar qildi. Uchunchi kun Makka azimati qilib, murojaat qilg'anda Rum sari mutavajjnh bo'ldilar. To'rt yil Ozarbayjonda sokin o'ldilar va yetti yil Lorandada. Va Mavlono Jaloluddin xidmatlarin o'n sakkiz yoshida kadxudo qildilar va yetti yuz yigirma uchda Sulton Valad mutavallid bo'ldi. Chun ulg'aydi, har kim alarni tanimasa erdi, buzurgvor otalari bila ko'rsa, og'a-ini xayol qilur erdi. Andin so'ngra podshoh alarni Ko'nyag'a istid'o qildi. Va Hazrat Mavlono anda Haqning jivori rahmatig'a vosil bo'ldi.

501. Sayyid Burhonuddin Muhaqqiq q. s.

Husayniy sayyiddur va Tirmizdin erdi va Shayx Bahouddin Valad q. s. ning ashobi va muridlaridindur. Aning xavotirg'a ishrofi jihatidin Sayyidi sirdong'a mashhurdur. Ul kunki Shayx Bahouddin Valad olamdin o'tti, Sayyid Tirmizda o'lturub erdi. Dediki, shayxim va ustodim hazratlari dunyodin rihlat qildilar. Va necha kundin so'ngra Mavlono Jaloluddin tarbiyati uchun Ko'nyag'a mutavajjih bo'ldi. Va Mavlono Jaloluddin hazratlari to'qqiz yilg'acha alar xidmatlarida bo'lub, irshodlar ko'rub tarbiyat toptilar. Debdurlarki, chun Shayx Shihobuddin Suhravardiy Rumg'a keldi. Sayyid hazratlarini ko'rgali bordi. Sayyid kul ustiga o'lturub erdi, o'rnidin tebranmadi. Shayx yiroqdin ta'zim qildi va o'lturdi, hech voqe' bo'lmadi. Muridlar sukut mujibin so'rdilar. Shayx dediki, hol ahli bila so'zlashurg'a hol tili kerak, yo'qki qol tili! Muridlar so'rdilarki, Sayyidni nechuk toptingiz? Shayx dedi: daryoe toptuq, mavvoji maoniy duraridin va Muhammad haqoniqidin bag'oyat oshkor va asru yashurun. Shayx Salohuddin Sayyidning muridlaridindur. Sayyid derlar ermishki, holimni Shayx Salohudding'a bag'ishladim va qolimni Mavlonog'a. Va Sayyidning mutabarrik mazori Qaysariyadadur. [Unga va barcha solih bandalarga Allohning salomi va rahmatn bo'lsin!][1].

502. Mavlono Jaloluddin Muhammad Balxiy Rumiy q. s.

Alarning valodati Balxda ermish, olti yuz to'rtda, Rabi ul-avval oyining oltisida. Debdurlarki, Mavlono xazratlarig'a besh yoshidin beri g'aybe suvar va ruhoniy ashkol, ya'ni maloyika sufrasi va xavos insu jin pardasiki, qibobi izzat masturlaridurlar, zohir va mutamassil bo'lurlar ermish. Buzurgvor otalari xati bila topibdurlarki, Jaloluddin Muhammad Balxda olti yoshida odina kuni kecha atfol bila bizing uylarning tomlarida sayr qilur ermishlar. Alardin biri yana biriga debdurki, keling, bu tomdin yana bir tomg'a sekreli! Ul debdurki, bu harakat it va mushuk ishidur! Hayf bo'lg'ayki, odame anga murtakib bo'lg'ay. Agar sizing joningizda quvvate bo'lsa, osmon tomiga sekreli! Va bu holatda tomdin havo tutubdur.

Onchaki, alar ko'zidin g'oyib bo'lubdur. Atfol iztirobdin qichqirishibdurlar va yig'labdurlar. Bir lahzadin so'ngra ko'zi mutag'ayyir va rangi o'zgacha qaytib, hamul tomg'a tushubdur. Atfolg'a debdurki, ul soatki, sizga ul so'zni aytadur erdim, ko'rdumki, yashil kisvatlig'lar meni sizing

orangizdin sirmadilar va ko‘tarib osmong‘a elttilar va malakut ajoyibin menga ko‘rguzdilar. Chun sizlarning fig‘on va faryodingiz chiqti, yana bu yerga tushurdilar.

Debdurki, ul sinda har ikki-uch kun iftor qilur erdi. Makkaga borurda Nishoburda shayx Fariduddin Attor q. s. suhbatig‘a yetishtilar. Shayx «Asrornoma» kitobin alarg‘a bergan ekandur. Doim o‘zlari bila asrar ekandurlar. Alar der ermishlarki, men bu jism emasmenki, oshiqlar nazarida manzurman, balki ul zavqu xushluqmenki, muridlar botinida maning kalomimdin bosh urar. Alloh, Alloh, chun ul damni topsang va ul zavqni totsang, g‘animat tut va shukr qilki, men uldurmen: Va debdurki, qushki yerdin yuqori uchqay, agarchi osmong‘a yetmagay, ammo tomdin yiroq bo‘lg‘ay. Hamul nav’ agar kishi darvesh bo‘lsa, agar darveshlik kamolnga yetmasa, ammo muncha bo‘lg‘ayki, zumrai xalqdin va bozor ahlidin mumtoz bo‘lg‘ay va dunyoning zahmatlaridin sabukvor bo‘lg‘ayki, [yuki yengillar qutuldilar, yuki og‘irlar halok bo‘ldilar][1]. Dunyo ahlidin birov alar xizmatida uzrxohlnq qilur erdiki, xizmatda muqassirmen. Alar dedilar: i’tizor hojat ermas. Onchaki, o‘zgalar sening kelganingdin minnatdordurlar. Biz sening kelmagoningdin minnatdordurbiz. Ashobidin birini malul ko‘rdilar va dedilarki, barcha malolat bu olamg‘a ko‘ngul bog‘lag‘ondindur. Har damki bu jahondin ozod bo‘lg‘aysen va o‘zungni g‘arib bilgoysen va har rangki, boqsang va har mazaniki totsang, bilsanki, oning bila qolmog‘ungdur va o‘zga sori borg‘ung va hech malolat yeri qolmag‘ay. Va alar debdurlarki, ozodmard uldurki, birov ranjin qilg‘ondin ranjida bo‘lmag‘oy. Va javonmard uldurki, ranjida qilurg‘a mustavjib bo‘lg‘onni ranjida qilmag‘oy. Mavlono Sirojiddin Qunyaviy – ul vaqtning buzurgi er-mish. Ammo alar bila xush emas ermish. Oning qoshida debdurlarki, alar debdurlarki, men yetmish uch mazhab bila birdurman. Tiladiki, alarni ranjida qilg‘ay va behurmat etgay. Birovni o‘z yaqinlaridinki, donishmand erdi va safih erdi yibordiki, jam’ orasida Mavlonodin so‘rg‘ilki, sen mundoq debsen, agar iqror qilsa, safohat qil va og‘zingdin kelguncha so‘k va ranjida qil. Ul kishi keldi. Savol qildi, alar dedilarki, aytibmen. Ul kishi muqarrar qilg‘on dastur bila beqoida aytib safohat qila kirishti. Alar tabassum qilib dedilarki, bular bila ham birmen. Ul kishi bag‘oyat xijil bo‘ldi va qaytti. Shayx Ruknuddin Alouddavla debdurki, menga aning bu so‘zi bag‘oyat xush kelibdur. Alar xodimdin so‘rsalar erdiki, uyda hech nima bor-mu? Agar desa erdiki, yo‘qdur, munbasit bo‘lub, shukr qilurlar erdi va derlar erdiki, bu kun bizning uy payg‘ambar uyiga o‘xshar va agar desa erdiki, matbax muhayyodur. Munfail bo‘lub der erdiki, bu uydin bu kun Fir’avn uyi isi keladur. Bir kun alar majlisida Shayx Avhaduddin Kirmoniy so‘zi o‘tadur erdi. Birov dediki, shohidboz edi, ammo pokboz edi. Alar dedilarki, kosh har ne tilasa qilsa erdi va o‘tsa erdi.

B a y t:

[Benihoyatdur bu manzil, ey rafiq,
Ro‘zu shab ketmak kerak uldur tariq][2].

Alar der ermishlarki, rubob uni behisht eshigining sariridur. Agar bizga andin zavqu xushholliq bo‘lsa, jihat budur.

Bir munkir eshitib debdurki, biz dog‘i eshiturbiz. Bizga nechuk ul zavqu hol bo‘lmas? Alar, debdurlarki, siz ul eshikning yopqanining saririn eshitursiz, biz ochqonining. Sabab budurki, bizga zavqu hol bo‘lur va sizga yo‘q.

Alar debdurlarki, birov bir darveshning xilvatig‘a keldi va dediki, nevchun yolg‘uz o‘lturubsen? Ul darvesh dediki, emdi yolg‘uz bo‘ldumki, sen kelding va menga haqdin mone’ bo‘ldung. Alar samo’da ermishlar, bir darvesh xotirig‘a kechibdurki, savol qilayki, faqr nedur? Alar samo’ asnosida bu ruboiyni debdurlar.

R u bo i y:

[Faqr – javhardir, faqrdan boshqasi arazdir,
Faqr – shifodir, faqrdan boshqasi bemorlikdir.
Olamning barchasi nayrang va g‘ururdir,
Faqr esa, olamdag‘i sir va maqsaddir][3].

Alar debdurlar, suhbat azizdur, [tengqurlardan boshqa bilan suhbatlashmang][4] va debdurlarki, hazrati xudovandim Shayx Shamsuddin Tabriziy q. s. buyurubdurki, qabul topqan muridning alomati uldurki, aslo begona el bila suhbat tuta olmag‘oy va agar nogoh begona suhbatig‘a tushsa, andoq bo‘lg‘oyki, munofiq masjidda va go‘dak maktabda va asir zindonda. Va alarning marazida Shayx Sadruddin Quniyaviy iyodatqa keldi va dediki, [Alloh senga tezda shifo bersin!][5] darajot raf’i bo‘lg‘ay. Umiddurki, sihhat bo‘lg‘ayki, Mavlono olam ahlining jonidur. Alar dedilarki, mundin so‘ngra Sizga bo‘lsun! Hamonoki oshiq va ma’shuq orasida she’r ko‘nglakdin ortuq qolmaydir. Tilamassizki nur nurga qo‘shulg‘ay.

B a y t:

[Men badandan, u xayoldan xoli bo‘ldi,
Visol so‘ngida masrur bo‘laman][6].

Shayx ashob bila yig‘ladilar va Mavlono bu g‘azalni dedilarki,

m i s r a ‘:

[Qaydan bilsanki, botinimda hamsuhbat podshohim bor?][7]
oxirigacha.

Va alar ashob vasiyatida mundoq buyurubdurlarki, [Sizlarga vasiyatim shuki, xoh pinhon, xoh oshkor oz yeb, oz uxlab, oz gapirib gunohlardan saqlanib, doimo ro‘za tutib, tunlari bedor bo‘lib, hamisha katta orzu-istaklardan kechib, xalq jafosiga sabr qilib, omi va nodon davrasini tark etib, ulug‘lar va solihlar bilan suhbat qurib, Allohga taqvo qiling! Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydasi tegadiganidir! So‘zning yaxshisi – ozi va maqsadga yetkazadiganidir! Va hamd; yolg‘iz Allohgadir!][8].
Savol qildilarki, Mavlaviyning xilofatig‘a kim munosibdur? Dedi: Chalabiy Husomuddin! Uch qatlag‘acha savol qildilar, javob bu erdi. Dedilarki, Sulton Valad nnsbatig‘a ne dersiz? Dediki, ul pahlavondur. Onga vasiyat hojat emas. So‘rdilarki, sizga namoz kim qilsun? Dediki, Shayx Sadruddin! Va buyurdilarki yoronlar bu sori tortadurlar va Mavlono Shamsuddin ul sori. [Ey qavmimiz, Allohga da’vat qilguvchini qabul qilinglar][9] nochor borg‘uluqdur.
Olti yuz yetmish ikkida jumod ul-oxir oyining beshida g‘urub vaqti Mavlono olamdin o‘ttilar. Shayx Muayyaddin Jandiydan so‘rdilarki, Shayx Sadruddin: Mavlono bobida ne der erdi? Dedi, valloh, bir kun xos ashob bila o‘lturub erdi. Misli Shamsuddin Igiy va Faxruddin Iroqiy va Sharofuddin Musiliy va Shayx Sa’iyd Farg‘oniy. So‘z alarning siyratu sariridin chiqdi. Shayx dediki, Junayd va Boyazid bu ahdda bo‘lsalar erdi ul mardimardonaning g‘oshiyasin ko‘targoylar erdi va minnat jonlarig‘a qo‘yg‘aylar erdi. Faqri Muhammadiyning xonsolori uldur. Biz aning tufaylidin zavq qilurbiz. Barcha ashob insof berdilar va ofarin qildilar. Bu so‘zlardin so‘ngra Shayx Muayyad dediki, men ham ul sultonning niyozmandlaridinmen va bu baytni o‘qidi.

B a y t:

[Agar oramizda ilohiylik ma’nosini anglatuvchi surat paydo bo‘lsa, u sen, buni kinoyasiz, taraddudsiz

aytaman][10].

503. Mavlono Shamsuddin Muhammad b. Ali b. Malikdod Tabriziy q. s.

Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da mundoq bitibdurlarki, Hazrat Mavlaviy aning alqobida mundoq bitibdurkim, [yaxshilikka chiqiruvchi ulug‘ Mavlono – jonlarning xulosasi, chirog‘, shisha, chirog‘donning sirri, din va haqiqat quyoshi, avvalgi va oxirgilarga Allohning nuri][1]. Ul debdurkn, hanuz maktabda erdim va murohiq bo‘lmaydur erdim. Agar manga qirq kun o‘tsa erdi, siyrati Muhammadiy ishqidin manga taom orzusi bo‘lmas erdi. Ul Shayx Abubakr Sallabof Tabriziy murididur. Va ba’zi debdurlarki, Shayx Ruknuddin Sinjosiy muridi ermishki, Shayx Avhaduddin Kirmoniy ham aning murididur. Va ba’zi debdurlarki, Bobo Kamol Jandiy murididur. Bo‘la olurki, barchaning xidmatig‘a yetmish bo‘lg‘ay va tarbiyatlarin topmish bo‘lg‘ay. Oxir holida doim safar qilur ermish va qora kiyiz kiyar ermish va har mulkka borsa, karvonsaroyda tushar ermish. Derlarki, Bag‘dodqa yetkanda Shayx Avhaduddin Kirmoniyni ko‘rdi va dedi: ne ishtasen? Ul dedi: toshlig‘ suvda oy aksin ko‘radurmen. Ul dedi: agar buyiungg‘a chibon chiqmaylur, oyni ne uchun osmonda ko‘rmaysen? Va ul vaqtki, ul Bobo Kamol xidmatig‘a yetar erdi, Shayx Faxruddin Iroqiy ham Shayx Zakariyo Mo‘ltoniy amri bila anda erdi. Va har fathu kashfeki anga yuzlanur ermish, ani nazm va yo nasr libosida ado qilur va Bobo nazarig‘a yetkurur ermish. Va Shayx Shamsuddin hech nima zohir qilmas ermish. Bir kun Bobo debdurki, farzand Shamsuddin, ul asroru haqoyiqdinki, farzand Faxruddin Iroqiy zohir qilur, sanga hech loyiq bo‘lmas? Ul javob beribdurki, andin ortuq mushohada bo‘lur, ammo bu jihatdinki, ul ba’zi istilohlardin sohibvuquflur, qilaolurki, alarni yaxshi libosda jilva bergay va manga ul quvvat yo‘qdur. Bobo dedikim, Haq s. t. sanga musohibe bergayki, avvalinu oxirin haqoyiqu maorifin sening otingga izhor qilg‘ay. Mavlono Shamsuddin Qo‘nyag‘a yetkanda, Mavlono Jaloluddin madrasadin chiqib, jamoate ulamo aning rikobida boradur erdilar.

Mavlono aning inonin tutub dedi: yo Imom ul-muslimin, Boyazid buzurgrakdur, yo Hazrat Risolat s. a v.? Mavlono debdurki, ul so‘zning haybatidin go‘yoki yetti osmon bir-biridin ayrildi va yerga to‘kuldi va mening botinimdin azim o‘te dimog‘img‘a urdi. Javob berdim-ki, Mustafo s. a. v. olam ahlining buzurgrakidurlar, Boyazid ne bo‘lg‘ay? Pas dedi: ne ma’nosi borki, Mustafo s. a. v. debdurkn, [seni tanishlik darajasida taniyolmadim][2]. Va Boyazid debdurki, [Poko parvardigoro, shonim naqadar yuksak! Men sultonlar sultoniman!][3] ham debdur? Dedim: Boyazid suvsizlig‘i bir jur’adin o‘lturushti, seroblig‘din dam urdi, idrokining ko‘zasi aning bila to‘ldi va ul nur aning uyining ravzanasi xurdida erdi. Ammo Mustafo s. a. v. istisqoe azim va suvsizlig‘ ustig‘a suvsizlig‘ erdi va muborak ko‘ksi [biz sening qalbingni keng – munavvar qilib qo‘ymadikmi?][4] sharhi bila [Allohning yeri kengdur][5] bo‘lub erdi. Lojaram otashdin dam urdi va har kun qurbat ziyodatlig‘ining istid’osida erdi. Mavlono Shamsuddin faryod urub yiqildi. Va Mavlono markabdin tushub shogirdlarig‘a buyurdikim, ani ko‘tarib madrasag‘a elttilar. Chun o‘ziga keldi va muborak boshin Mavlono tizi ustiga qo‘yub erdi, andin so‘ng aning iligin tutub ravon bo‘ldi va uch oy muddate bir xilvatda laylan va nahoran visol savmi bila o‘lturdilarki, aslo chiqmadilar. Va kishiga zahra yo‘q erdikim, alarning xilvatig‘a kirgay. Ul xilvatda bir kun Mavlono Shamsuddin Mavlaviy xidmatidin shohide tiladi. Ul o‘z haramining iligin tutub majlisqa kelturdi. Ul dediki, bu mening singlimdur, bir nozanin yigit ko‘nglum tilar. Filhol farzandi Sulton Valadni olib keldi. Dedi: bu mening farzandimdur, Holiyo agar bir miqdor chog‘ir muyassar bo‘lsa, zavqe qilur erduk. Mavlaviy chiqdi va juhudlar mahallasidin bir ko‘za chog‘ir yetkurdi. Mavlono Shamsuddin buyurdikim, men Mavlononing mutovaati quvvati va mashrabi vus’atin imtihon qiladur erdim. Har nedin desalar, ortig‘roqdur. Va debdurki vaqt mashoyixidin so‘rarbizki, [menda Xudo bilan shunday lahzalar bo‘ladiki...][6] bu mustamir vaqt bo‘lg‘ay? Derlarki, yo‘q, mustamir bo‘lmag‘ay! Va dediki, birav Hazrat Muhammad s. a. v. ummatidin bir darveshga dediki, sanga Tengri jam’iyat bergay. Ul dedi: hay-hay, bu duoni qilma, mundoq duo qilki, Tengri jam’iyatni andin ayir, anga tafriqae berki, men jam’iyatda ojiz bo‘lubmen. Va debdurki, birav derki, siqoyada Tengri otin tutmamak kerak va Qur’on o‘qumamak kerak, magar ohista. Dedimki, munga ne

chora qilayki, ani o‘zumdin ayira olmon: shoh otdin tushmas, bechora ot ne qilsun? Va ba’zi debdurlarki, chun Mavlono Shamsuddin Qo‘nyag‘a yetti, Mavlono xidmatlari darsig‘a kirdi. Va Mavlono bir havz qirog‘ida o‘lturub erdi va tegrasida kitoblar. Ul so‘rdiki, bu ne kitoblardur? Mavlono dediki, bu qiylu qoldur, sening munung bila ne ishing bor? Mavlono Shamsuddin ilig uzatti va ul kitoblarni suvga soldi. Mavlono tamom taassuf bila dedi: ey darvesh, ne qilding, alardin ba’zi otamning favoyidi erdiki, yana topilmas. Mavlono Shamsuddin ilig suvga urub, birin-birin kitoblarni suvdin chiqardi va suv hech qaysig‘a asar qilmaydur erdi. Va Mavlono xidmatlari ayttilarki, bu ne sirdur? Ul dediki, muni zavqu hol derlar, muning bila sening ne ishing bor? Andin so‘ngra ul ikki buzurgvorning suhbatlari tutashti. Bu nav’ naql qilibdurlarki, Mavlono Shamsuddin q. s. shahodat sharafi bila dunyodin o‘tubdur. Va tarix olti yuz qirq besh ekandur. Va oz fursatda qotillarin birin-birin Tengri taolo tafzihlar bila olamdin chiqaribdur. Ul jumladin biri Mavlononing farzandi Alouddin Muhammad ermishki, [Ey Nuh, u sening ahlingdan emas][7] dog‘ig‘a muntasib ermish. Va ba’zi debdurlarki, alarning qabri Mavlono Pahlaviy madrasasida Mavlono Badriddinkim, boniy ekandur, aning yonidadur, vallohu taolo a’lam.

504. Shayx Salohuddin b. Faridun Qunyaviy ma’ruf bi-Zarkub q. s.

Ul bidoyate holida Sayyid Burhonuddin Muhaqqiq Tirmiziyning muridi ermish. Mavlono Jaloluddin xidmatlari zarkublar hovlisidin o‘tarda, alarning zarbi unidin alarg‘a hol voqe’ bo‘lubdur va samo’g‘a kiribdurlar. Shayx Salohuddin ilhom bila do‘kondin sakrab chiqibdur va boshin alarning ayog‘ig‘a qo‘yubdur. Va Mavlono hazratlari aning boshin ko‘tarib, iltifot va navozish qilib, peshindin namozi digargacha Mavlono hazratlari samo’da ermishlar. Va bu g‘azalni buyurdilarki,

b a y t:

[Bu zargarlik do‘konida shunday bir xazina paydo bo‘ldiki, ajab surat, go‘zal ma’ni, qanday yaxshi, qanday yaxshi!][1].

Shayx Salohuddin buyurdi, to do‘konni yag‘mo qildilar. Va ikki kavndin ozod bo‘ldi. Va Mavlono xidmatlarida ravona bo‘ldi. Mavlono hazratlarig‘a ham – ul ishqibozlikkim, Shayx Shamsuddin Tabriziy bila erdi, aning bila bunyod qildilar. Va ikki yilg‘acha aning bila musohabat va muvonasatlari bor erdi. Bir kun Mavlono hazratidin savol qildilarki, orif kimdur? Dedilarki, orif uldurki, sening sirringdin so‘z aytqay va sen xomush bo‘lg‘aysen va andoq kishi Salohuddindur. Va chun Sulton Valad bulug‘ haddig‘a yetti, Mavlono hazratlari Shayx Salohuddinning qizini aning uchui xutba qildilar va Chalabiy Orif ul qizdin mutavallid bo‘ldi. Va Shayx Salohuddin Qunyada madfundur, Mavlono Bahouddin Valad q. s. jivorida.

505. Shayq Hisomuddin Hasan b. Muhammad b. Husan b. Axiy Turk q. s.

Chun Shayx Salohuddin Haq jivori rahmatig‘a bordi, Mavlono xidmatlarining inoyat va xilofatlari Chalabiy Nizomudding‘a muntaqal bo‘ldi va ishqbozlig‘ aning bila bunyod qo‘ydilar. Va «Masnaviy» nazmining sababi ul erdikim, chun Chalabiy Nizomuddin ashob maylini Hakim Sanoiy «Ilohiynoma»sig‘a va Shayx Fariduddin Attor q. s. «Mantiq ut-tayr» va «Musibatnoma»sig‘a ma’lum qildi, Mavlono xidmatlarng‘a arz qildikim, g‘azaliyot asrori ko‘p bo‘lubdur, mazkur bo‘lg‘on kitoblar tarzi bila agar kitobe mavzun bo‘lsaki, do‘stlarg‘a yodgore bo‘lg‘ay, inoyatdur. Mavlono filhol dastorlari boshidin bir kog‘az Chalabiy Nizomnddin ilgiga berdilar, o‘n sakkiz bet anda bitiklik. «Masnaviy»ning avvalidin, andinki,

m a s n a v i y:

[Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur][1] onchakim
[xullas, so‘zni qisqa qilish kerak, vassalom!][2].

Andin so‘ngra Mavlono xidmatlari dedilarki, andin burunki sizing zamiringizga bu doiya tushkay, g‘ayb olamidin ko‘nglumga muni ilqo qilib erdikim, bu nav’ kitobe nazm qililg‘ay va ihtimomi kulliy bila «Masnaviy» nazmig‘a shuru’ qildilar. Goh-goh andoq bo‘lur erdiki, tunning avvalidin fajr tulu’ig‘acha imlo qilurlar erdi va Chalabiy Nizomuddin bitir erdi. Va majmu’ ul bitiganni buyuk un bila Mavlono xidmatig‘a o‘qur erdi. Chun avvalgn daftar tamomg‘a yetti, Chalabiy Nizomiddinning harami favt bo‘ldi va aroda fatrate tushti. Ikki yildin so‘ngra Chalabiy Nizomuddin Mavlono xidmatlarida niyozmandlig‘lar bila «Masnaviy»ning tatimmasin istid’o qildi. Andoqki, ikkinchi daftarning avvalida ishorat anga voqe’ bo‘lubdurki,

m a s n a v i y:

[Bir muddat bu masnaviy kechiktirildi,
qon sutga aylanguncha vaqt kerak][3].

Andin so‘ngra kitobning oxirigacha Mavlono hazratlari ayturlar erdi va Chalabiy Nizomuddin bitir erdi. Bir kun Chalabiy Nizomuddin dedikim, qachonki ashob Maxdumiyning masnaviysin o‘qurlar va huzur ahli aning nurig‘a mustag‘raq bo‘lurlar, ko‘rarmenki, g‘ayb ahlidin jamoate iliglarinda dashnalar va tig‘lar tutub hozir bo‘lurlar. Har kim ixlos yuzidin isg‘o qilmasa, imonining tubin va dinining shoxin kesib, ani sudray-sudray saqar mustaqarrig‘a elturlar. Mavlono dedilarki, andoqdurki, ko‘rdung.

M a s n a v i y:

[Bu so‘zlarga dushman bo‘lganlarning sharmanda bo‘lib, do‘zaxga tushgani ko‘rsatildi.
Ey, Hisomuddin, sen uning holini ko‘rding.
Haq qilmishiga munosib javob berganini senga ko‘rsatdi][4].

506. Sulton Valad q. s.

Ul Sayyid Burhonuddin Muhaqqiq bila Shayx Shamsuddin Tabriziy q. s.g‘a shoyista xidmatlar qilib erdi. Va Shayx Salohudding‘a kulliy irodati bor erdi. Va o‘n bir yil Chalabiy Nizomuddinni buzurgvor-otasi qoyimi maqom va xalifasi tutar erdi. Va ko‘p yillar otasi haqoyiqu maorifin fasih til bila taqrir qilur erdi. Va bir masnaviysi bor, Hakim Sanoyi «Hadiqa»si vaznida, base asroru nukta anda darj qilibdur. Borlar Hazrat Mavlono anga bu xitobni qilibdurki, [odamlar orasida menga surat va siyratda eng ko‘p o‘xshaydigani sensan][1]. Va ani bag‘oyat sevar ermish. Derlarki, jaliy qalam bila o‘z madrasasining devorida bitibdurki: «bizing Bahouddin nekbaxtdur, yaxshi tirildi va yaxshi o‘lg‘ay, vallohu a’lam». Va derlarki, bir kun anga navozish qilur ermish. Debdurki, Bahouddin, mening bu olamg‘a kelmakimga sabab sening zuhurung erdi. Va barcha so‘zlar mening qavlumdur va sen fe’limsen. Bir kun Hazrat Mavlono anga dedilarki, Dimashqqa bor, Mavlono Shamsuddin talabig‘a. Va muncha vajhi sim elt va ul sultoni ma’no kafshi ichiga sol va muborak kashfning yuzin Rum sari qil! Chun Dimashqqa yetsang, Solihiyada karvonsaroydur mashhur, yaksar anda borki, ani anda toparsenki, bir farangi sohibjamol yigit bila shatranj o‘ynaydur. Chun ul eltsa, yormoq oladur va agar ul yigit eltsa silli uradirg‘on ko‘rgungdur. Zinhor inkor qilmaki, ul yigit bu toifadindur va o‘zun tanimas. Va alar tilarki ani o‘ziga shinoso qilg‘aylar. Chun Sulton Valad Dimashqqa bordi va Mavlono Shamsuddinni ham ul yerdaki buzurgvor validi nishon berib erdi, toptiki, ul yigit bila shatranj o‘ynaydur erdi. Niyozmand hamrohlar bila ilayiga bosh qo‘yub riqqatlar qildilar. Va ul farangi kofir yigit bu holni ko‘rub, aning buzurgluqin bildi va o‘z beadabliqlaridin uyalib, bosh yalang qilib, imon kelturdi. Va

insof yuzidin turdi va tiladiki, har nesi bo‘lsa yag‘mog‘a bergay. Mavlono Shamsuddin qo‘ymadi, buyurdiki, Farangistong‘a qayt va ul diyorning azizlarin musharraf qil va ul jamoatning qutbi o‘l! Andin so‘ng Sulton Valad kelturgan vajhni amr topqan bila ul maxdumning kafshiga to‘kub, kafsh yuzin Rum sari evurdi. Va Mavlono xidmati va soyir Rum niyozmandlari tilidin alarni istid’o qildi. Alar qabul qilib, ham aning otig‘a minib, azimat qildilar. Va Sulton Valad rikoblarida yayoq tebradi. Va Mavlono Shamsuddin har necha buyurdilarki, farzand Valad, otlan! Ul boshin qo‘yub dediki, shoh otlig‘ va banda otlig‘ qachon ravo bo‘lg‘ay? Va Damashqdin Qo‘nyag‘acha alarning rikobida yayoq bordi. Chun Qo‘nyag‘a yettilar, Mavlono Shamsuddin aning xidmatlarin Mavlono Jaloludding‘a taqrir qilib aytur erdiki, men mundoq dedim, ul mundoq javob aytti va bashomat qilur erdi. Andin so‘ngra dedi-larki, manga Haq mavhibatlaridin ikki nimadur: sar va sir. Avvalg‘ini ixlos bila Mavlonog‘a fido qildim, ikkinchini Bahouddin Valadg‘a bag‘ishladim. Agar Bahouddiig‘a Nuh umri bo‘lub, barini bu yo‘lda sarf qila erdi, ul muyassar bo‘lmag‘ay erdiki, bu yo‘lda mendin anga yetti. Umid ulkim, sizdin ham nasiblar anga yetkay. Chun Mavlono tengrining jivori rahmatig‘a bordi, yetti kundin so‘ngra Chalabiy Nizomuddin barcha asbob bila Sulton Valad qoshig‘a keldi va dedi: tilar menki, buzurgvor otang o‘rnig‘a o‘lturg‘aysen va muridlarg‘a irshod qilg‘aysen va bizga shayx va muqtado bo‘lg‘aysen va men rikobingda g‘oshiyani egnimga qo‘yub bandalig‘ qilg‘aymen. Va bu baytni o‘qidiki,

b a y t:

[Ey jon, ko‘ngul uyida kim o‘tiribdi,
Shoh taxtida shoh, va shahzodadan boshqa!?][2].

Sulton Valad bosh qo‘ydi va ko‘p yig‘ladi va dediki [Sufiyga xirqa yarashadi, yetimga yonish va kuyish][3]. Andoqki, otam hayotida xalifa va buzurgvor erding, bu zamon ham xalifa va buzurgvorimizsen. Ul debdurki, bir kun otam dedikim, agar tilasangki doyim behishti barinda bo‘lg‘aysen, barcha bila do‘st bo‘l va hech kimning kinasin ko‘nglungda asrama! Va bu ruboiyni o‘qidikim,

r u b o i y:

[Afzallik istasang, hech kimdan afzallik da’vo qilma, mum va malham bo‘lu jarohat bo‘lma!
Birovdan senga yomonlik yetishini istamasang, yomon so‘zli, fikri buzuq, yomonlikni targ‘ib qiluvchi bo‘lma!][4].

Tamom anbiyo a. s. muni qilibdurlar va bu siyratli suratqa kelturubdurlar, lojaram olam ahli alar xulqlarig‘a mag‘lub va lutflarig‘a majzub bo‘libdurlar. Chun do‘stlarni yod qilursen, ko‘nglung bo‘stoni xushlug‘din ochilur va gulu rayhondin to‘lar. Va chun dushmanlarni zikr qilursen, iching tikan va yilon bilan to‘lar va xotiring pajmurda bo‘lur. Derlarki, vafoti kechasi bu baytni o‘qur ermish.

B a y t:

[Bu tun shunday tunki, shodlik tunidir.
Allohdan ozodlik yetar bir tundir][5].

Yetti yuz o‘n ikkida Rajab oyining o‘nida shanba kechasi dunyodin o‘tti.

507. Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s.

Hazrat Maxdum n. m. Imom Yofi’iydin alar alqobig‘a mundoq naql qilibdurlarkn, [o‘z zamonasining

ustozi, davrining yagonasi, nurlar matlai, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarda barcha ulug‘ shayxlarning ustozi, oriflar yo‘lboshchisi, soliklar tayanchi, rabboniy olim Shihobuddin Abu Hafs Umar b. Muhammad Bakriy Suhravardiy, Alloh uning sirrini muqaddas qilsin][1]. Abu-bakr Siddiq r. a. farzandlaridindur. Tasavvufda intisobi o‘zining ammi Shayx Abunnajib Suhravardiyg‘a. Va Shayx Abdulqodir Giloniy r. suhbatig‘a yetibdurlar va alardin o‘zga ham mashoyixdin ko‘pning suhbatig‘a musharraf bo‘lubdurlar. Va debdurlarki, ba’zi abdol bila muddate Abbodon jazirasida bo‘lur ermishlar. Va Xizr a. s. bila suhbat tutubdurlar. Shayx Abdulqodir alar vasfida debdur: [Sen Iroqdagi mashhur kishilarning oxirgisisan][2]. Ko‘p tasniflari bor. «Avorif»dek va «Rashf un-nasoyih» va «A’lom ut-tuqo»dek. «Avorif»ni Makkada tasnif qilibdurlar. O‘z vaqtlarida shayx ush-shuyux ermishlar. Bag‘dodda tariqat arbobi yiroq – yaqindan bu qavm masoyili istifosini alardin qilur erdilar: [Ulardan ba’zisi unga yozdi: Ey Xojam, agar amAlii tark etsam, tanballik qilgan bo‘laman. Agar amal qilsam, menda manmanlik paydo bo‘layapti. Javobida yozdi: Amal qil va manmanlikka qarshi Allohdan panoh tila!][3]. «Iqboliya» risolasida mazkurdurki, Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. debdurlarki, Shayx Sa’duddin Hummuyiydin so‘rubdurlarki, Shayx Muhyiddin Arabiyni nechuk topting? Debdurki, [Sohilsiz, shiddatli to‘lqinlanuvchi daryo][4]. Va debdurki, Shayx Shihobuddin Suhravardiyni nechuk topting? Debdurki, [Suhravardiy peshonasidagi payg‘ambar s. a. v.g‘a tobelik nuri bu boshqa narsadir][5]. Valodati besh yuz o‘ttuz to‘qquzda Rajab oyida ermish, vafotlari olti yuz o‘ttuz ikkida ermish, vallohu taolo a’lam.

508. Shayx Najibuddin Ali b. Buzg‘ush Sheroziy q. s.

Olim erdi va orif, sarchashmai ulumu maorif. Otasi g‘aniy va tojir erdi. Va Shomdin Sherozga keldi va mutaahhil bo‘ldi va mutavattin. Bir kecha amirul-mu’minin Ali k. v.ni tushta ko‘rdi va aning qoshig‘a taome kelturub, aning bila yedi va anga bashorat berdiki, Haq s. t. sanga farzande bergusidur, najib va solih. Chun ul o‘g‘ul tug‘di, anga ul hazrat otin qo‘ydi: Ali va laqab Najibuddin dedi. Va ul o‘g‘ul bidoyat holdin fuqaro muhabbatini ko‘nglida asrar erdi va alar bila musohabat qilur erdi. Otasi anga har necha foxir liboslar yasar erdi va laziz taomlar tartib qilur erdi, parvo qilmas erdi. Va der erdikim, men xotunlar libosi kiymasmen va noziklar g‘izosi yemasmen! Va pashmina kiyar erdi va betakallufona taom yer erdi, angachaki ulg‘aydi. Va qavmning muddaoyu talabi ko‘ngliga g‘olib bo‘ldi va yolg‘uz uyda basar eltur erdi. Bir kecha tushta ko‘rdiki, Shayxi Kabir ravzasidin bir qari chiqdi va aning keynicha yana olti uluq kishilar bir yo‘l bila borur erdilar. Ul burung‘i pir anga boqib tabassum qildi va iligin tutub, so‘ngg‘i pirg‘a topshurdi. Va dediki, bu Tengri taolodin vade’atidur sanga. Chun uyg‘ondi, tushin otasig‘a dedi. Otasi dediki, bu tushni kimsa ta’bir qilaolmas, magar Shayx Ibrohim. Va ul majzub va uqaloyi majonindin erdi. Biravni aning qoshig‘a yubordiki, ul tushni arz qildi. Shayx Ibrohim eshitgach dediki, bu tush Ali Buzg‘ushdin o‘zganing tushi emas! Burung‘i pir Shayx Kabirdur va o‘zgalar jam’iki, bu tariqni andin qabul qilibdurlar va so‘ngg‘i pir kerakki, tirik erkan, ani tilab topmoq kerakki, munung tarbiyatin anga ruju’ qilibdur, to maqsudqa yetkay. Bu so‘zni eshitgach otadin ijozat hosil qilib, Makka safarig‘a azimat qildi. Chun Shayx Shihobuddin Suhravardiyg‘a yetishti, ani tanidiki, tushta ko‘rgan kishidur. Shayx ham aning holig‘a muttale’ erdi, aning tushin anga aytti. Va ul Shayx mulozamatin ixtiyor qildi va yillar aning suhbatida basar eltti va Shayx iligidon xirqa kiydi va Shayxning musannafotin va o‘zga nimalar ham bu ilmu tariqda Shayxdin eshitti. Va Shayx izni bila Sherozg‘a murojaat qilib, mutaahhil bo‘ldi. Va xonaqoh bino qilib, toliblar irshodig‘a mashg‘ul bo‘ldi. Va holotu karomoti xalq orasida ishtihor topti. Va yaxshi so‘zlari va sharif risolalari borki, Shayx so‘zining isi alardin kelur. Bir kun anga dedilarki, tavhid sirrin bir misol bila ravshan qil! Dedi: ikki ko‘zgu va bir olma. Asr fuzalosidin biri hozir erdi, bu ma’noni nazm qildi.

Ma s n a v i y:

[Keksa, komil shayx Najibuddin so‘z sahrosida bu yangi gapni aytdi:

Vahdatdan misol keltirmoqchi bo‘lsang, bir olmayu ikki oynani tasavvur qil!][1].

Bir kun dedi: ma’shuqning xolin payvasta ta’rif qilurlar, bu ajabki, anda xud xol yo‘qdur. Ham ul fozil hozir erdi, bu ma’noni ham nazm qildi.

R u b o i y:

[Ey ulki, sening husnda timsoling yo‘q, mening holatim yuzungdagi xoldan ayri emas. Mening barcha vasf qilganlarim yuzingdagi xoldir, ajabki, yuzingda xolning o‘zi yo‘q][2].

Olti yuz yetmish sakkizda Sha’bon oyida dunyodin o‘tubdur:

509. Zahiriddin Abdurrahmon b. Ali b. Buzg‘ush q. s.

Otasining murididur va xalifasi erdi. Onasi anga homila bo‘lg‘onda, Hazrat Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. o‘z muborak xirqasidin bir pora ayirib yuboribdurlarki, ul mutavallid bo‘lg‘onda, anga kiydurgaylar. Ul xirqaki hajqa kiyibdur, ul ekandur. Ulg‘ayg‘anda, ota xidmatig‘a mashg‘ul bo‘ldi va tarbiyat topti. Va hajg‘a bordi. Arafa kechasi tush ko‘rdiki, Hazrat Rasul s. a. v. ravzasig‘a bordi va salom berdi. Javob qildiki, [Senga ham salom bo‘lsin, ey Abunajoshiy!][1]. Otasi ul holig‘a muttale’ bo‘ldi va ahlu xaylig‘a xabar berdi va bashorat yetkurdiki, murod hosil bo‘ldi. Andin so‘ngra dars aytti va hadis rivoyat qildi va tasonif qildi. Aning tasonifidin biri «Avorif» tarjimasidurki, anda kashfu ilhomdin sodir bo‘lg‘on tahqiqoti ko‘pdur. Buyuk maqomotqa. yetti va arjumand karomotqa mashhur bo‘ldi. Va Hazrat Shayxning bu ikki baytin doyim o‘qur ermishki,

sh ye ‘ r:

[Yuksak rizo maqomiga yetganimda ham rozi emas edim, rizodin yuksakroq maqomdan ham ko‘nglimiz zada. Bizga firoq yuzlanib, maqsaddan yiroqlashgan paytimizda, menga salomga keluvchi xayoling bilan qanoatlanaman][2].

Yetti yuz o‘n oltida Ramazon oyida dunyodin o‘tti.

510. Shayx Muhammad Yamaniy q. t. r.

Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush debdurki, bir kun jam’i ashob bila Hazrat Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. suhbatida o‘lturub erduk. Shayx ashobdin biriga buyurdilarki, xonaqohdin tashqari chiqsun, agar g‘aribe bo‘lsa, olib kirsunki, bizing dimog‘imizg‘a bir oshno isi keladur. Birav chiqti va hech kishi topmadi. Shayx yana haybat bila buyurdilarki, bu qatla chiqki toparsan! Ul darvesh bu qatla chiqqandin so‘ngra bir qora ranglig‘ kishi ko‘rdiki, safar va azimat osori ahvolida zohir erdi, olib kirdi. Kirgach, saffi ni’olg‘a mayl qildiki, o‘lturg‘ay. Shayx dediki, ey Shayx Muhammad, yaqin kelki, sendin oshno isi keladur. Va ani o‘z yonig‘a tiladilar. Va ul va Shayx bir-biri bila sirda bezabonlig‘ tili bila so‘zlar aytishtilar. Andin so‘ngra ul Shayxning tizini o‘pti. Va Shayx buyurdilarki, sufra kelturdilar va taom yedilar. Va men ro‘za erdim. Shayx buyurdilarki, har kim ro‘za tutubdur, o‘z holi bila bo‘lsun! Ul sufrada anor erdi. Va Shayx anor yeydur erdilar va donalarni sufraning bir go‘shasida yig‘adur erdilar. Mening xotirimg‘a keldiki, ul donalarni olayki, Shayxning muborak og‘zi suyi barakati anga yetibdur, aning bila iftor qilay. Chun bu xotir ko‘ngluma kirdi, ul g‘arib ul donalarni olib, og‘ziga solib yedi va manga boqib tabassum qildi. Bildimki, xayolimni bilibdur. Chun sufra ko‘tardilar, Shayx buyurdilarki, Shayx Muhammad hofizi kalomdur, ammo muddate yolg‘uz tilovat qilibdur, emdi tilarki, birav qoshida har kun biror nima «Kalomulloh»din o‘tkargay. Har kim bu muddao qildi, ammo Shayx bu xidmatin manga havola qildilarki, Ali Sheroziy har kun aning darsini quloq tutsun! Ul har kun kelur erdi va bir sipora o‘qub borur erdi. Bu ayyomda andin g‘arib holot

mushohada tushti va ajab fayzlar va osoyishlar aning suhbatidin manga yetishti. Oxir Shayx anga xirqa kiydurub, toliblarig‘a xirqa libosi ijozatin berib, o‘z viloyatig‘a uzatti. Va anda mashhur bo‘ldi va ko‘p xalq anga murid bo‘ldilar.

511. Shayx Ibrohim Majzub q. s.

Ul hamuldurki, zikri Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush bayoni holida o‘tti. Va debdurlarki, gohe necha kun o‘tar erdiki, hech taom yemas erdi, gohe necha kunluk taomni bir lahzada yer erdi. Va aning nima yemakining sharhi va Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush bila suhbatining bayoni «Nafahot ul-uns»da bor, tilagan kishi topar. Va andin g‘arib holot va ajib karomatlar ko‘rubdurlar. Shayx Shihobuddin Suhravardiy va ul tabaqadag‘i mashoyix bila mu’osir ermish.

512. Shayx Jamoluddin Lur q. t. s.

Shayx Najibuddin debdurki, bir qatla manga dedilarki, bu shahrg‘a bir Lur kelibdur, oti Jamoluddin. Va qaviy jazbasi bor va masjidi jome’da bo‘lur. Bordim va ani ko‘rdum va salom dedim. Javob dedi va ayttiki, mening oqni qora qilg‘uchilar bila ishim yo‘qdur, ya’ni fuqaho va bitiguchilar bila. Birav dediki, ul sufilardindur. Borib qoshida o‘lturdum va ahvolidin savol qildim. Dediki, men ummiy kishidurmen Lurda. Va nima o‘qumaydurmen, manga kalo o‘tlatmoq bila xush erdi. Bir kun poygohda kalo o‘trusida o‘lturub erdim. Nogoh manga hole makshuf bo‘ldi va jazba zohir bo‘ldi va hijobni ko‘zum ollidin oldilar. Behush-bo‘ldum va yiqildim. Va kaloning oyog‘i ostida ilik-ayog‘ urar erdim. Chun o‘z holimg‘a keldim, manga tavhid sirri makshuf bo‘lub erdi. Va ul doyim shathiyot aytur erdi. Ulamo va sulaho aning inkorig‘a qo‘ptilar va takfir qildilar. Va aning qatlig‘a fatvo qilib, Otabek Abubakrki, shahrning podshohi erdi, qoshig‘a elttilar va qatl ijozati tiladilar. Otabek dediki, agar ikki kishi ham sizga muttafiq bo‘lsalar, qatl qilay! Biri Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush yana biri Shayx Mu’inuddinki, ham Sherozning buzurgi ermish. Ul fatvoni mening qoshimg‘a kelturdilar. Men bitidimki, ul majzubdur va mag‘lub, aning qatli joyiz emas. Va Shayx Mu’inuddin ham andoq o‘q bitib erdi. Otabek aning qatlig‘a hukm qilmadi. Ham ul debdurki, bir kun vuzu’ qiladur erdim va Jamoluddin manga boqadur erdi. Chun suvni yuzumga yetkurdum, dedimki, [nopoklikni ketkizaman!][1]. Ul dedi, hech hadase qolmaydur, aytki [nopokni ketkizaman][2].

513. Shayx Shamsuddin Safiy r. t.

Kibor mashoyixdindur. Vaqte Shayx Najibuddin Hazrat Shayx Shihobuddin Suhravardiy xidmati niyatig‘a Bag‘dod azimati qilibdur, Shayx Shamsuddin rafiq ekandur. Ul Shayx Najibuddin ollida Qur’on o‘qubdur va Shayx Najibuddin aning qoshida fiqhdin bir nima o‘qubdur. Va uluq Shayx xidmatlarida suluk qilib, bir-biri bila suhbat tutar ermishlar. Va Shayx Najibuddin debdurki, chun Sherozg‘a murojaat qilduq, Hazrat Shayx mening uchun xirqa libos ijozati bitidi va Shayx Shamsuddin uchun ham bitidi. Va qirq adad bo‘rk bizga berdi, yigirma manga va yigirma anga. Va har bo‘rkda Sheroz buzurglaridin birining otin bitidi. Va buyurdiki, chun Sherozg‘a yetarsiz, avval bizing niyatimiz bila bu bo‘rklarni alarg‘a kiydurungki, alarning otlari bitiklikdur. Andin so‘ngra o‘zgalarga xirqa libos qiling.

514. Shayx Nuriddin Abdussamad Natanziy q. s.

Ul Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ushning murididur. Zohiriyu botiniy ulumg‘a olim ermish. Shayx Izzuddin Mahmud Koshiy va Shayx Kamoluddin Abdurazzoq Koshiy ikkalasi aning muridlaridurlar. Shayx Abdurazzoq «Ta’vilot» tafsirida derkim, [Shayximiz Mavlono Nuriddin Abdussamad q. r. a.dan eshitdim. U otasidan eshitgan ekanki, faqirlardan biri ulug‘ Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. xizmatida bo‘lib, vahdat mushohadasi va fano holatlariga yetib, yuksak zavq topgan edi. Ammo nogahon bir kun yig‘iga tushdi va afsuslandi. Shayx undan bu holat haqida so‘radi. Aytdi: Kasrat tufayli vahdatdan to‘sildim va undan uzoqlashdim. Endi o‘z holatimni topolmayapman. Shayx unga bu

holat baqo maqomining boshlanishn, oldingi holatdan a’lo va yuksakroq ekanligini anglatdi va uni xotirjam qildi][1].

515. Shayx Izzuddin Mahmud Koshiy r. t.

«Avorif» tarjimasining sohibidur va «To’iyai Foriziya»ning shorihi va pasbaland haqoyiq va arjumand maorif bu ikki kitobda darj qilibdur. Bu ba’zi ruboiy aning maorifidindur.

R u b o i y:

[Qalbim menga aytdi: Ilmi ladunga havasim bor, imkoning bo‘lsa, uni menga o‘rgat! «Alif» dedim. Boshqasini ham ayt!–dedi. «yo‘q!» – dedim. Uyda birov bo‘lsa, bir harf yetar.

Ey yuzing aksi ko‘zimga nur bergan, yuzingga o‘z nuring bilan boqaman. Bizdan boshqaga boqma!– deding. Axir ayt! «Ko‘zimga sendan boshqa kim ham ko‘rinadi?»

Ey, do‘st, oramizda judolik qachongacha? Men – senman! Senu menlik qachongacha? Sening g‘ayratingdan begonalik majoli qolmadi, bas, ko‘zlarga begonavashlik qachongacha?][1].

Bu ikki qit’a dag‘i aning maorifidindur: [Kasratga yaxshi nazar solsang, vahdatning ayni o‘zidir! Sen shubhalansang ham, biz shubha qilmaymiz. Har bir narsaga haqiqat yuzidan boqsang – surati bo‘lsin, moddasi bo‘lsin birdir.
* * *
O‘rtada sen bor ekansan, vahdat yuzi shubha niqobidan xoli bo‘lmaydi. Agar o‘zlik niqobidan kechsang, ishq, oshiq, ma’shuq birdir][2].

516. Shayx Kamoluddin Abdurazzoq Koshiy r. t.

Ul Shayx Nuriddin Abdussamad Natanziyning murididir. Zohir va botin ulumig‘a jome’dur. Va ko‘p tasnifoti bor, «Ta’vilot» tafsiridek, «Sufiya istilohoti» va «Fusus ul-hikam» sharhidek va «Manozil us-soirin» sharhidek. Va Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. bila muosirdur. Va oralarida vujud vahdati qavlida muxolafot va mubohasot voqi’dur. Va ul bobda bir-biriga maktublar bitibdurlar. Mir Iqbol Siyistoniy Sultoniya yo‘lida Shayx Kamoluddin Abdurazzoqqa hamroh bo‘lg‘andur. Andin bu ma’no istifsori qilib, anga bu bobda g‘uluv ko‘rubdur. Mir Iqboldin so‘rubdurki, sening shayxingning Hazrat Shayx Muhiddin Arabiyg‘a va aning so‘zlarig‘a ne aqidasi bor? Ul javob debdurki, azim ush-sha’n tutar maorifda. Ammo derki, buki Haqni vujudi mutlaq debdur, g‘alat qilibdur va bu so‘zin begonmas. Ul debdurki, Shayxning barcha maorifining asli xud bu so‘zdadur. Ajabdurki, sening Shayxing bu so‘zga inkor qilur va barcha avliyoyu anbiyoyu a’imma bu mazhabda ermishlar. Mir Iqbol bu so‘zni o‘z Shayxig‘a arz qilg‘an ekandur. Shayx degandurk, jami’ milalu nihalda kishi mun-din rasvoroq so‘z demaydur. Va yaxshi boqsa, Tabiiya va Dahriya mazhabi mundin yaxshiroqdur. Va so‘zning yaqini va butlonida ko‘p so‘zlar bitibdur. Va ul javob bitibdur. Va ikkalasini Hazrat Maxdumiy n. m.- n. «Nafahot ul-uns»da Jins bitibdurlar. Tilagan kishi anda tilasunki, topar!

517. Shayx Nuriddin Abdurrahmon Misriy q. s.

O‘z zamonida buzurg ermish va o‘z vaqtida toliblar qiblasi. Va Misr diyorida tarbiyat va irshodlari muta’ayyin va shayxuxot maqomida mutamakkin. Va irodat avoyilida ul diyor mashoyixidin birining muridi ermishlar, ammo ishlari ul shayx qoshida tuganmaydur. Lekin shayxlari alarg‘a aytqon ekandurkim, sening ishing Ajam mashoyixidin biri qoshida tamom bo‘lg‘usidur. Ul intizorda bo‘lur ermishlar, angachaki, Shayx Jamoluddin Yusuf Kuroniy Misrg‘a yetibdur. Aning suhbatidin yigirma kundin ozroq zamonda ishlari tamom bo‘lubdur va Shayx alarg‘a irshod ijozati bitibdur. Ijozatnomada

birodar unvoni bila zikr qilibdur, aning uchunki, muammar bo‘lg‘on ekandurlar. Va Shayx Jamoluddinning nisbati ikki kishigadur, biri Shayx Nizomuddin Shamshiriy yana biri Shayx Najmuddin Mahmud Isfahoniy. Va bu ikkalasi Shayx Nuriddin Abdussamad Natanziy q. r. muridlaridurlar.

518. Shayx Zaynuddin Abubakr Xavofiy q. s.

Alar o‘z zamonlarida Xuroson mulkining shayx ul-mashoyixi erdilar va ulumin zohiriyu botiniy orasida jome’. Va avval hollaridin oxirg‘acha shariat joddasig‘a va sunnat istiqomatig‘a va mutobaatig‘aki bu qavmning muhaqqiqlari qoshida uluqroq karomatdur, tavfiq topibdurlar. Va alarning nisbati tariqatda Shayx Nuriddin Abdurrahmon Misriyg‘adur. Va Shayx alarning tarbiyati takmilidin so‘ngra alarg‘a irshod ijozati akmal vajh bila bitibdur. Alar Shayx ijozati va ishorati bila Xurosong‘a kelurda ijozatnoma-lari Bag‘dodda g‘oyib bo‘lg‘on ekandur. Shayx Tengri jivori rahmatig‘a borg‘ondin so‘ngra Misrg‘a boribdurlar. Va Shayxning xilvatig‘a kirib, ziyorat qilurda o‘z ijozatnomalarining savodini ko‘rubdurlarki, bir tokchada ermish olibdurlar va hamul dastur bila toliblar va muridlarg‘a tarbiyatg‘a mashg‘ul bo‘lubdurdar. Va bu mahzi karomot bo‘la olur. Shayx Zaynuddin debdurlarki, Misrdin kelurda chun Bag‘dodqa yetushtim, ul bo‘rkki, Hazrat Shayx Nuriddin Abdurrahmon q. s. manga berib erdi va ko‘p akobir boshig‘a yetib erdi, boshimda erdi. Pirtoji Giloniy bila muloqot voqe’ bo‘ldi. Ul bo‘rkni mendin tiladi, andoqki, faqru darveshlik muqtazosi bo‘lg‘ay, anga berdim. Kecha voqe’da ko‘rdumki, ul bo‘rk mening qoshimda istig‘osa qiladur: Va ul buzurglarniki, alarning boshig‘a yetibdur, sanaydur va deydurki, men muncha solihu muttaqiy elning boshig‘a yetibmen, emdi sen meni bir xammor boshig‘a qo‘ydungkn, xamr shurbig‘a ishtig‘ol ko‘rguzur. Tong otgach, ashobdin biri bila ani tilay chiqduq. Eshittukki, xarobotdadur va o‘z ishiga mashg‘uldur. Anda boribki so‘rduk, dedilarki falon uydadur. Chun ul uyga kirduk, mast yiqilib erdi va bo‘rk boshida. Hamrohi musohib dediki, siz chiqing, men bo‘rkni olib kelay! Men chiqdim va ul bo‘rkni aning boshidin olib chiqdi va eshikni aning ustig‘a bog‘ladi va bo‘rkni mening boshimg‘a kelturdi. Derlarki, oxir hayotda alarg‘a voride yuzlandiki, uch kecha-kunduz o‘zlaridin bil-kulliya g‘oyib erdilar. Chun alarni o‘zlariga kelturdilar, bir yilg‘a deguncha xomushlik alarg‘a g‘olib bo‘ldi. Darvesh Ahmad Samarqandiy Shayxning ishin qilg‘an muridla-ridin va xulafosidin erdi, so‘fiya so‘zlarin ko‘rub erdi va minbar ustida ani yaxshi bayon qilur erdi. «Fusus» mutolaasi va darsig‘a qiyom ko‘rgazur erdi. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, aning o‘z xatti bila «Fusus ul-hikam»ning oxirida ko‘rubmenki, bitibdurlarki, xilvatda erdimki, Hazrat Risolat s. a. v. manga «Fusus ul-hikam» darsig‘a ishorat qildi. Va Hazrat Rasul s. a. v.din savolot qilib javoblar topqanini ham «Nafahot»da bitibdurlar. Shayx rahimahullohu sakkiz yuz o‘ttuz sakkizda shavvol oynning ikkisida yakshanba kechasi dunyodin o‘tubdurlar. Va alarni avval Molin degan yerda dafn qilibdurlar va andin Darveshobodqa naql qilibdurlar va Darveshoboddin Hirot Dor us-saltanati iydgohi yonig‘a naql qilibdurlar. Va alarning muborak mozori boshida oliy imorate yasabdurlar. Va anda oncha obodonlig‘ bo‘lubdurki, holo juma namozi qilurlar.

519. Amir Qivomuddin Sinjoniy r. t.

Bidoyat holda Xavof viloyatining Sinjon otlig‘ kentida shariku navisand ermish va jam’ va xarj va tarjeh va taxsis nusxasi aning uhdasig‘a ermish. Bu holda anga nogoh jazbae yetibdur. Har nedinki, mashg‘ul ekandur, chiqibdur va suluk bunyod qilibdur. Derlar, iligin Tengri yo‘lida musulmonlarg‘a vaqf qilg‘on ermishki, har kishi har ne buyursa, xoh mushaf va g‘ayrihi bitigay. Ul buyurg‘an kitobning tarixin bigib, otlarin bila asrar ermishkim, buyurg‘an tarix dasturidan burun, so‘ngra bo‘lmag‘ay. Majolisda maorif ko‘p aytur ermish. Der ermishki, Muso a. s. voqe’ada manga bir ayoq sharbat beribdur, bu go‘yolig‘im boisi uldur. Ko‘p ash’ori bor va Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s.ning ba’zi g‘azaliyotig‘a tatabbu’ qilibdur. Va kitobe tasnif qilibdurki, otin «Junun ul-majonin» qo‘yubdur. Va anda g‘arib so‘zlar darj qilibdur. Shayx Zaynuddin Xavofiy q. s. bila muosir ermish.

Oralarida mukotabot va murosalot bor. Hazrat Mahdumiy n. m. n. alardin ba’zini «Nafahot ul-uns»da darj qilibdurlar. Va Mavlono Shayx Ko‘histoniy Mirning valodat va vafotlari tarixida bu qit’ani aytibdurlarki,

q i t ‘ a:

[Amir dunyoni tark etuvchi, solik, din va millat homiysi, talabda shoh Ibrohim Adhamdek edi. Yetti yuz o‘ttiz to‘rt sana ro‘za oyi chiqib, hayit kuni dunyoga keldi. Sakkiz yuz yigirma kirishidan besh kun oldin vafot etdi][1].

520. Xoja Shamsuddin Muhammad Kusuyi Jomiy q.s.

Shayx buzurgvor shayx ul-islom Ahmad Jom q. s. ning buzurgvor avlodi va kibor ahfodidindurlar. Va Shayxning xirqasinki, derlarki, Hazrat Shayx ul-mashoyix Shayx Abu Said Abulxayr q. s.din alarg‘a yetgan ekandur, Xoja xidmatlarig‘a yetib erdi. Va ul xirqaning yoqasida Hazrat Risolat s. a. v.ning muborak ko‘nglaklaridin bir parcha tikilgan mavjuddur. Xoja jomi’ erdilar ulumi zohiriyg‘a va botiniyg‘a. Shomu subh avrodini Hazrat Shayx Zaynuddin q. s. tariqi bila jahr ayturlar erdi. Va Hazrat Shayx Bahouddin Umar suhbatig‘a ko‘p yetarlar erdi. Va azim irodatlari bor erdi. Shayx Muhyiddin Arabiy q. s. musanna fotin ko‘p o‘qur erdilar va mu’taqid erdilar. Va tavhid mas’alasin alarg‘a muvofiq taqrir qilurlar ermish. V ani minbar ustida ulamo qoshida andoq bayon qilurlar ermishki, hech kimga e’tiroz va inkor majoli bo‘lmas ermish. Va «Qur’on» asrorida va ahodis nukotida va mashoyix maorifi nukotida bag‘oyat tezfahm emishlar. Va oz tavajjuh bila alarg‘a andoq maoniy foyiz bo‘lur ermishki, o‘zga akobirg‘a ko‘p taammullar bila ma’lum bo‘lmas ermish. Va Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy va Mavlono Muhammad Asad va Mavlono Boyazid Puronny va alardin o‘zga mashoyix va azizlarki alarg‘a muosir erdilar, alar majlisida hozir bo‘lur erdilar va mutabarrik nafaslaridin mahzuz bo‘lur erdilar. Va’z va samo’ majlisining asnosida alarg‘a azim vajd yuzlanur erdi va sayhalar tortar erdilarki, majlis ahlig‘a siroyat qilur erdi. Bu faqirning otasining alarg‘a irodati ko‘p erdi. Va safarlarda suhbat va xidmatlarig‘a yetib erdi. Va faqir ham kichik yoshimda alarning muborak nazarig‘a yetib, iltifot topib, fotihalarig‘a musharraf bo‘lub men va azim foida andin umidim bor. Umid ulki, noumid bo‘lmag‘aymen. Sakkiz yuz oltmish uchda jumod ul-avval oyining yigirma uchida shanba kuni dunyodin o‘ttilar. Vafotlari tarixida aytibdurlar va ul budurkim,

b a y t:

[Komil shayx, komillarning peshvosi, surat ahliga ma’no ko‘rsatuvchi Xoja Shamsuddin Muhammadkim, yopiq osmon uning g‘amini yeb, ko‘k to‘n bo‘ladi. U muqaddas qadamgoh sahnasidan joy oldi. Imkonsiz yerda chodir qurdi. Dunyo uning martabasi oldida arzimas edi. Vafoti tarixini «charxi dun» so‘zidan chiqar!][1].

Va qabrlari Hirotning masjidi jome’i jivorida faqih Abu Yazid Marg‘aziy mazori yaqinidadur. Va ba’zi azizlar ul maqbara boshida mutakallif madrasa va gunbad yasabdurlar. Va xaloyiq tabarruk yuzidin ziyorat qilib murod tilarlar va ba’zi topar erkanlar.

521. Mavlono Zaynuddin Abubakr Toybodiy q. s.

Mavlono Nizomuddin Hiraviyning shogirdidur. Ammo shariat mutobaati varzishi bilan botin ulumi abvobi ham aning yuziga ochilibdur va bilhaqiqat Uvaysiy ermish. Va tarbiyat Hazrat Shayx ul-islom Ahmad Jom ruhidin topibdur va derlarki, Mavlono muddatlar riyozot va mujohidot bila o‘tkargandin so‘ngra Hazrat Shayx Mavlonog‘a zohir bo‘lib, debdurlarki, sening dardingning davosini Haq taolo bizning shifoxonada quyubdur. Andin so‘ngra Mavlono yetti yilgacha yoyog‘, ko‘prak ayog‘ yalang

Toyboddin Jomg‘a borur ermish va Qur’on tilovatig‘a mashg‘ul bo‘lur ermishlar. O‘ttiz yildin so‘ngraki, bu tariyq bila suluk qilibdur. Ming Qur’on xatmidin so‘ngra Hazrat Shayx ruhoniyatidin ishorat anga bo‘lubdurki, Mashhad ziyorati salomullohi alo man halla fihi ihromi bog‘ladi va ul ravza ostonbo‘slig‘ig‘a musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra xil’atlar va navozishlar topti. Andin Tus mazoroti tavofig‘a mutavajjih bo‘ldi. Kecha Shayx Abunasr Sarroj mazori boshig‘aki, Tus-ning qirog‘idadur ihyo qildi va Hazrat Risolat s. a. v. g‘a musharraf bo‘ldi va hukm toptikim, tongla Tusqa kirsang, Uryon darveshe senga yo‘luqg‘usidur. Yaxshi ta’zim qil, ammo sujud qilma! Tong Tusg‘a kirgoch, Bobo Mahmud Tusiyki, majzub erdi, Hazrat buyurg‘on yo‘sun bila keladur erdi, yo‘luqdi, chun Mavlononi ko‘rdi va o‘zin tufroqqa soldi va boshin kiziga tortti va Mavlononing qoshig‘a keldi. Bir zamon ayog‘ ustida turdi. Bir zamondin so‘ngra oyog‘in kizdin chiqardi va qo‘pti va o‘z-o‘zi bila der erdiki, ey odobsiz, birovni ta’zim qilmassenki, kecha Hazrat Risolat s. a. v. Abu Nasr Sarroj mazori boshida oning bila muloqot qildi va oni senga nishon berdi va osmon farishtalari ondin uyolurlar. Mavlono Bobog‘a salom qildi va Bobo javob berdi va buyurdiki, borg‘ilki, Ro‘dbor avliyo va mashoyixi senga muntazirdurlar va Xoja Muhammad Porso q. s. xizmttlari so‘nggi qatla hajg‘a borurda Mavlono q.s. mazorig‘a kelgan ekandurlar. Der ermishki, avval qatla xojai buzurgvor Hazrat Xoja Bahouddin bila Makkaga borduq. Buxorodin Marvg‘a yetgonda qofila ikqi fariq bo‘ldilar va ba’zi Mashhadi muqaddas ravzi sori mayl qildilar va ba’zi Hirot sori mo‘tavajjih bo‘ldilar. Bu buljar bilaki, Nishoburda bir-biriga qo‘shulg‘oylar. Hazrat Xojai buzurgvor Hiriy sori moyil bo‘ldilar va buyurdilarki, tilarbizki, Mavlono Zaynuddin Abubakir Toybodiy suhbatig‘a yetgaybiz. Men yigit erdim va Mavlono ahvolidin xabarim yo‘q erdi va Mashhad sori bordim va Xoja Muhammad bu ma’ni-din taassuf yer, nadomat izhori qilur ermishlar. Debdurlarki, chun Hazrat Xojai buzurgvor Toibodg‘a yetti va saboh namozin Mavlono bila qildilar va namozdin forig‘ bo‘lg‘ondin so‘ngra burung‘i safda muroqabag‘a o‘z tariqlari bila mashg‘ul bo‘ldilar va Mavlono avrodni tugatgandin so‘ngra alar qoshig‘a kelib, ko‘rushubdur va otlarin so‘rubdur. Alar debdurlarki, Bahouddin. Mavlono debdurki, bizing uchun bir naqsh bog‘lang! Alar debdurlarki, kelibbizki naqshe eltgaybiz. Va Mavlono hazratlari alarni uylarig‘a eltibdurlar va ikki-uch kun suhbat tutubdurlar va hayrbod qilib, Nishoburda qofilag‘a qo‘shubdurlar. Mavlono yetti yuz to‘qson birda muharram oyining salxida panjshanba kuni nisf un-nahorda olamdin o‘tubdurlar va Malik Imomuddin Zavzaniy alar vafoti tarixida debdurki, sana

q i t ‘ a:

[Tarix yetti yuz to‘qson bir sana bo‘lib, muharram oyining oxiri payshanba kuni tush payti Mavlononing pok ruhi jannatga ravona bo‘ldi. Farishtalarning bari jondan «xush kelibsiz» dedilar][1].

522. Mavlono Jaloluddin Mahmud Zohid Murg‘obiy q. s.

Ul, dog‘i zohir ulumida Mavlono Nizomuddin Hiraviyning shogirdidur. Va sunnatu shariat varzishu mutobaati jnhatidin bu toifa tariqidin hazzi tamom topibdur va taqvoyu vara’da mubolag‘asi bor ekandur. Va debdurlarki, aning barzagari va dehqonlig‘ olotidin biri bilaki vaqf ekandur, aning ziroatida ish qilg‘an ekandur. Ul voqif bo‘lg‘ach, ul ziroat mahsulig‘a daxl qilmaydur. Va barchasin fuqaro va masoking‘a tasadduq qilibdur. Hirot maliki bir surra yormoq yuboribdur, qabul qilmaydur. Kelturgon kishi debdurki, malik qoshig‘a eltsam, malul bo‘lur, olib madrasangizda fuqaro va shogirdlaringizg‘a qismat qiling! Debdurki, o‘zung qismat qil, ammo aytqilki, qaydindur? Ul kishi bordi, qismat qilg‘ali. Chun kayfiyatni aytti, hech kim qabul qilmadi. Yetti yuz yetmish sakkizda zulhijja oyi dunyodin o‘tubdur va qabri Hirot Murg‘obidadur.

523. Mavlono Jaloluddinch Abuyazid Puroniy q. s.

Shar’iy ulumni takmil qilib erdi. Va aning rioyati va sunnat mutobaati jihatidin oliya marotibg‘a yetib erdi. Aksar avqoti musulmonlar muhimmoti kayfiyatig‘a mashruf bo‘lur erdi. Har so‘zki mavoiz va

nasoyihdin mazkur qilsa erdi, mustami'larg'a azim asar qilur erdi. Zohir yuzidin birav irodatig'a mansub emas, hamonoki Uvaysiy ekandur. Der ermishki, har qachon manga bir ishda mushkule voqe' bo'lsa, Hazrat Risolat s. a. v. ruhoniyatig'a tavajjuh qilg'animdin ul mushkul raf' bo'lur. Bir qatla bir murididin bir tarog' tilabdur. Va debdurki, Hazrat Risolat s. a. v. manga dedilarki, Boyazid, gohi saqolingni tarag'il! Uyi mehmondin oz xole bo'lur ermish va alar buyurg'on taomlarni muhayyo qilib, o'zi sufra ko'tarib, mehmon ikromig'a ishtig'ol ko'rguzur ermish. Va Mavlono Zahiruddin Xilvatiy suhbatig'a yetar ermish. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da bitibdurlarki, bir qatla bir jamoat bila aning ziyoratig'a borduk Ul jam'din birovning xotirig'a kechmish bo'lg'ayki, agar Mavlononing karomati bor, bizing uchun kishmish kelturgayki, zalla qilg'aybiz. Ul jamoat ko'pqondin so'ngra Mavlono ul kishii tiladi va uyga kirib, bir tabaqda quruq uzum chiqarib, anga berdi. Va dediki, ma'zur tutki, bizing bog'da kishmish yo'qdur. Mavlono sakkiz yuz oltmish ikkida Zulqa'da oyinda dushanba kechasi dunyodin o'tti va qabri Purondadur. Sultoni zamon oliy imorat qabri boshida yasabdurki, darveshlarg'a maskan va ma'baddur.

524. Mavlono Zahiruddin Xilvatiy q. s.

Zohir va botin ulumig'a jome' ermish. Va Mavlono Zaynuddin Abubakr Toybodiy q. s. der ermishki, falak tosi ostida Zahiruddindek kishi bilmasmen. Va ul Shayx Sayfuddin Xilvatiyning murididur. O'n besh yil aning suhbati va xidmatida, bo'lubdur. Va Shayx Sayfuddin yetti yuz sakson uchda dunyodin o'tubdur va qabri Xilvatiylar go'ristonidadur. Gozurgoh ko'pruki boshida Jahonoroy bog'ining yonidadur. Va Shayx Say-fuddin, Shayx Muhammad Xilvatiyning murididur. Va derlarki, ul Xorazmda jahr zikri aytur erdi. Va uni to'rt yig'ochda eshitilur erdi. Va Pahlavon Mahmud Pakkayor muosiri erdi, aning bila suhbat tutar erdi. Va bu ikki bayt Pahlavondin manqul va mashhurdurki.

N a z m:

[Bir Allohga iymon keltir! Besh vaqt namoz o'qi, o'ttiz kun ro'za tut, zakot ber! Imkon bo'lsa, yo'l tepib haj qil! Bas, bizning qo'limiz sening etagingda, gunoh qilmoq bandadan, kechirmoq Xudodandir][1].

Shayx Zahiruddin bir qatla arba'ing'a o'lturg'ondur. To'rt qatla iftor qilibdur. Qaynatqan bug'doy suyi, har o'n kunda bir qatla. Har qachon Gozurgohga Shayx ul-islom q. s. ziyoratig'a borsa ermish, ko'prikdin o'tkach kafshin chiqarurki, avliyoullohdin uyalurmenki, ayog'ni na'layn bila alarning yuzig'a qo'yg'aymen. Sakkiz yuzda dunyodin o'tubdur va qabri Xilvatiylar go'ristonida, shayxning yonindadur, r.

525. Shayx Bahouddin Zakariyo Multoniy q. s.

Ulumi zohiriy tahsili va takmili qilg'andur. O'n besh yildin so'ngraki, dars va ifodag'a mashg'ul bo'lubdur va har kun yetmish kishi ulamodin va fuzalodin aning darsi majlisida istifoda qilurlar erdi. Haj. azimati qildi va hajdin qaytqanda Bag'dodda Hazrat Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. xonaqohida tushti va murid bo'ldi. Va buyuk manzilat ul ostona xidmatidin topti. Va Shayx Faxruddzn Iroqiy va Amir Husayniy aning muridlaridurlar. Va ul olamdin o'tkandin so'ngra farzandi Shayx Sadruddin aning qoyim-maqomi irshod masnadig'a o'lturdi va Amir Husayniy «Kanz ur-rumuz» kitobida otasi bila o'g'lini bu nav' mazkur qilibdurki,

q i t ' a:

[Yetti iqlimning shayxi, avliyolar qutbi, Allohga yetishgan, ulug' dargohning mahrami, millatning faxri, shariat va din bahosi, pok joni sadoqat va ishonchning manbai. Do'stlar davrasida va uning

borligi sharofatidan Hindiston jannat ul-ma’vo edi. Men yaxshi yomondan yuzimni burib, bu baxtni uning huzuridan topdim. Jon humosi o‘z oshyonidan parvoz qilib, borliq matoini o‘rtadan olib ketdi. Ovozasi baland olampanoh, ulug‘ martabaga loyiq asrning peshvosidir. Haqning aziz bandasi, din va davlat boshlig‘i, to‘qqiz falak uning saxovat dasturxonidan bir tovoqdek edi][1].

526. Shayx Nizomuddin Dehlaviy Xolidiy ma’ruf Shayx Nizomuddin Avliyo q. s.

Hind mashoyixining mashohiridindur. Ilm tahsili va takmilidin so‘ngra Dehli jome’ida basar eltur erdi. Bir kecha sahar vaqti muazzin minora ustiga chiqib, bu oyatni o‘qidikim, [Iymon kelgirgan zotlar uchun dillari Allohning zikriga va nozil bo‘lgan Haq– Qur’onga moyil bo‘lish vaqti-kelmadimi?][1]. Ani eshitgach, holi mutag‘ayyir bo‘ldi va har jonibdin anga anvor bo‘la kirishti. Chun tong otdi, zodu rahlasiz yuz Hazrat Shayx Fariduddin Shakkarganj xidmatig‘a qo‘ydi. Va murid bo‘ldi va kamol martabasig‘a yetti. Hazrat Shayx anga toliblar takmili ijozati berib, Dehlig‘a uzatti. Anda irodat ahli tarbiyat va takmilig‘a mashg‘ul bo‘ldi. Va Xusrav Dehlaviy va Hasan Dehlaviy aning muridlaridurlar. Va Shayx Faridudding‘a Xoja Qutbuddin Baxtiyor Kokiydin xirqa yetibdur va anga Xoja Mu’iynuddin Hasan Sanjariydin va anga Xoja Usmon Horuniydin va anga Xoja Hojiy Sharif Rindoniydin va anga Shayx ul-islom Xoja Qutbuddin Mavdud Chishtiy rahimahullohdin. Biravning bir barotiki, mablag‘i kasir bitiglik edi, itti. Shayx Nizomuddin Q. s. qoshig‘a kelib, arzi hol qildi. Shayx anga bir diram berdiki, halvo olib, Shayx Farid ruhi uchun darveshlarg‘a ulash. Chun ul kishi diramni halvogarga berdi, halvogar bir pora halvo bir pora kog‘azg‘a chirmab aning ilgiga berdi. Boqsa, ul qog‘az aning itgan baroti erdi. Derlarki, bir tojirning molin Multonda o‘g‘rilar talab erdilar. Shayx Bahouddin Zakariyo o‘g‘li Shayx Sadruddin qoshig‘a boribki, irshod va sajjoda sohib masnadi erdi, siporish iltimosi qildi, Shayx Nizomudding‘a. Shayx Sadruddin ul siporishni bitidi. Chun ul tojir Dehlida Shayx Nizomuddin xidmatig‘a yetti va ruq’ani berdi. Shayx xodimni tiladi va dediki, tongli sabohdin choshtqacha har futuheki yetsa, bu azizg‘a taslim qil! Xodim bu dastur bila amal qildi. Un ikki ming diram tojirg‘a vosil bo‘ldi. Bir qatla Sulton Muhammad Shoh Xalajiy bir yormoq va javohir to‘la nazr razmi bila Shayx xidmatig‘a yubordi. Qalandare Shayx o‘trusida o‘lturub erdi. Ilgari kelib dediki, [ey shayx, hadyalar hammanikidir][2]. Shayx dediki, [lekin, bir kishiniki bo‘lsa, yaxshiroqdir][3]. Qalandar xijil qaytti. Shayx dediki, kelkim: [bir kishiniki yaxshiroq][4] sening nisbatingga deyildi. Qalandar ko‘tara ol-madi. Shayxning xodimi madad qildi, to ko‘tardi.

527. Shayx Farid Shakkarganj q. s. a.

Hindiston mulkining shayx ul-mashoyixi erdi. Zohiriyu botiniy ulum takmilin qilib erdi. Va shayxqa xirqa Xoja Qutbuddin Baxtiyor Kokiydin yetibdur va anga Xoja Mu’iynuddin Hasan Sanjariydin va anga Xoja Usmon Horuniydin va anga Xoja Hojiy Sharif Rindoniydin va anga Shayx ul-islom Qutbuddin Mavdud Chishtiy r. din. Ashobidin biri Shayxning holotu maqomotin bitibdur. Va ul bir uluq mujalladdur va anda g‘arib ahvol mazkur. Ul jumladin biri bukim, bir kun bir qari xotun Shayx xidmatig‘a kelib, tazallum qilib yig‘lab dedikim, bir yolg‘uz o‘g‘lum bor. Ko‘p muddatdurkim, safarg‘a boribdur va o‘luk-tirigidin xabarim yo‘qdur va ishtiyoqidin betoqatmen. Shayx ul zaifa holig‘a rahm qildi va muroqabag‘a borib, bir zamondin so‘ngra bosh ko‘tarib dediki, o‘yungga bor, Tengri o‘g‘lungni sanga yetkurgay! Ul zaifa o‘yug‘a bordi. Lahzae o‘tmadiki, birav eshik qoqdi. Chiqib eshik ochkach o‘g‘li erdi. Rasmiy qalaqu iztirobni ko‘rguzgandin so‘ngra o‘g‘lining holin so‘rdi ersa, ul dediki, bu zamon falon mulkda erdimki, bu yerdin besh yuz yig‘ochdur. Daryo qirog‘ida vatan yodidin va sening firoqingdinki, onam-sen, yig‘laydur erdimki, bir nuroniy qari kishi paydo bo‘ldi. Va ani ta’rifki qildi, barcha Shayxqa sodiq kelur erdi. Iligimni tutti va dedi: ko‘zungni yum, emdiki yumdum, dedi: och! Chun ochtim, o‘zumni bu eshikda qo‘rdum. Yana bir qatla bir jo‘gi Shayx xidmatida hozir bo‘ldi. Va ko‘nglida da’vo erdiki, Shayxqa o‘z tariqidin g‘arib nimalar ko‘rguzgay. Shayxning muborak nazari anga tushkach, yuz tuban yiqildi va yuzin tufroqqa yopushturdi. Bir zamondin so‘ngra Shayx dedikim, bosh ko‘tar! Boshin ko‘tardi. Shayx so‘rduki, ne kishisen va qaydin kelursen? Jo‘gi

javob beraolmadi. Muqarrar so‘rgandin so‘ngra dediki, Shayx haybatidin tilimga takallum quvvati qolmaydur. Shayx dedikim, o‘z tariqingda tortqan riyozatlar natijasi ne hosil qilibsen? Jo‘gi dedi: falak qamar javfida tayron dast beribdur. Shayx buyurdikim, hosil qilg‘oningni ko‘rguz! Jo‘gi havo tutub uchti. Shayx kafshin olib, aning kenicha tashladi. Har yonki, ul jo‘gi uchar erdi, ul kafsh aning boshi ustida erdi va muttasil aning boshig‘a tegar erdi. Oqibat aning ozoridin Shayx xidmatig‘a tushti va musulmon bo‘ldi va Shayx xidmatin ixtiyor qildi. Va Shayxning bu nav’ holotu karomoti bag‘oyat ko‘pdur. Va Shayx suluk va sayohat zamonida Xuroson va Iroq mashoyixining ko‘pi suhbatig‘a, misli Shayx Shihobuddin Suhravardiy va Shayxi olam Shayx Sayfuddin Boxarziy va Sariyi Saqatiy va Shayx Avhaduddin Kirmoniy va Hind mashoyixidin Shayx Bahouddin Zakariyo Multoniy q. s. suhbatlarig‘a yetibdur.

528. Mavlono Faxruddin Zohid q. t. s.

Hind mashoyixining mashohiridindur. Mustajob ud-da’vo ermish. Va Dehli shahrida sokin ermish. Bir yil Sulton Shamsuddin Iltutmish zamonida ul mulkda xushksol bo‘lub, azim qaht voqe’ bo‘ldi. Va shahr akobiru ashrofi ittifoq bila Mavlono xidmatidin istisqo duosi iltimos qildilar. Mavlono shahrning iydgohig‘a borib, istiqso duosi qildi va minbar boshiga chiqib, bu oyatnikim, [aniqqi, to biron qavm o‘zlarini o‘zgartirmagunlaricha Alloh ularning ahvolini o‘zgartirmas][1] o‘qudi, shahr xalqi azim g‘avg‘o qilib erdilar. Bu holatda Sulton Shamsuddin dag‘i Mavlono suhbatig‘a hozir bo‘ldi. Mavlono sultong‘a dedikim, saltanat tojini boshingdin ol va izomat kamarin belingdin yeshib yerga sol va podshohlar podshohi xidmatida bosh yalang tazarru’ qilib, yog‘in tila! Sulton ma’mur bo‘lgan dastur bila amal qildi. Andin so‘ngra Mavlono Faxruddin to‘nining yengidin bir zarf chiqarib yuqori boqib, dedikim, bor Xudoyo, bu zarfni yog‘mur suyi bila to‘ldurmassen, iftor qilmog‘imdur. Bu so‘z bayonida erdikim, bulutlar paydo bo‘lub, bir-biriga tutashib, yog‘in tutti va Mavlono iftor qilg‘udek yog‘a boshladi. Andoq kim, sulton uchun pil hozir qildilarkim, minib uyiga bordi, vallohu a’lam.

529. Alouddin Kirmoniy q. s.

Zamonining zuhhodidin erdi va Dehli, balki Hindiston mulkining qarilarining afzali. Mavlono Vahiduddinkim, Dehlining muttaqiylaridindur, marviydurkim, debdurki, bir jum’a kechasi Mavlono Alouddin Kirmoniyning hazirasida ihyo qilur erdim. Nogoh ko‘rdumki, qubur ochila boshladi va ul qabrlardin amvot chiqib, Mavlononing munavvar marqadi tegrasiga yig‘ilurlar erdi. Chun anda xotirg‘a kullin jam’iyat dast berdi, Mavlononing ham qabri ochildi va Mavlono qabrdin bosh chiqardi va «Kalomulloh» tilovati bunyod qildi. Va ul ahli qubur ham anga muvofaqat bila tilovatqa mashg‘ul erdilar subh tulu’igacha. Chun subh bo‘ldi, qubur ahli barcha o‘z oromgohlarig‘a kirdilar. Va Mavlono ham asliy maskanig‘a mayl qildi va ochilgan qubur yana barcha bitti va muttasil bo‘ldi. Va Mavlononing maqbarasi Dehli namozgohining jivoridadur.

530. Xoja Imod Xalaj r. r.

Mabodiy holida Sulton Shamsuddin Iltutmishning mulozimi erdi, ammo ul ishdin malul va mutanaffir erdi. Va doyim Haq s. t. xidmatida yolborib, ul ishdin maxlas tilar erdi. Oqibat, Tengri inoyatidin: ul maqsudi hosil bo‘lub, o‘ttuz yil Haq yo‘lida toat va ibodatqa ishtig‘ol ko‘rguzdi. Bir qatla sultong‘a sa’b marazi oriz bo‘ldi, Sulton, Malik Nosiruddin Timroniyg‘akim, xavosidin erdi, buyurdikim, har nav’ bilakim qilaolsang, Xoja Imoduddinni mening boshimg‘a yetkur, bo‘lg‘ayki, sharif maqdami barakatidin bu marazim sihhatqa mubaddal bo‘lg‘ay. Malik Nosiruddin Sulton buyurg‘on bila Xojani tilay bordi. Chun ani topti, dedikim, ey maxdum, maraze iyodati ibodatdindur va Sulton amri itoati toatdin. Xoja Malik so‘zni ijobat qilib, Sulton boshig‘a bordi. Iyotdatdin so‘ngra tiliga o‘ttikim, bu maraz sihhatqa mubaddal bo‘lur. Andin so‘ngra ul uyda bir qovun ko‘rundi, ani tilab kelib, bir miqdor andin Sultong‘a yedurdi, yemak hamon erdi va sihhat topmoq hamon. Ul xaloyiq orasida bu so‘z sihhatqa yetibdurkim, har kishiga rishta zahmati bo‘lsakim, Turklar ani «iplik» derlar chun bir rishta

Xojaning qabrig‘a bog‘lasa, taxallufsiz ul maraz daf’ bo‘lur, v. a.

531. Xoja Mahmud Mo‘ydo‘z r. t.

Dard va so‘zluq darvesh erdi. Bir qatla ko‘chaning oxir tarafidaki, hanuz o‘rnidin qo‘pmaydur erdikim, bir darvesh bu baytni o‘qidikim,

b a y t:

[Yor diydorini istasang darhol to‘xta va qonli yosh to‘kkin, zero u oy yuzli o‘zini ko‘rsatmog‘i dushvor][1].

Eshitgach anga holate yuzlandikim, qichqirib o‘rnidin qo‘pti va o‘zin tufrog‘larg‘a urdi va azim qalqu iztirob anga yuzlandi va suluk ixtiyor qildi. Va andin so‘ngra hargiz ostiga nima solib yotmadi. Derlarki, Dehlida go‘yandae bor ermish, Mahmud Kabir otlig‘. Va ul shart qilib erdiki, har naqshu amal tasnif qilsa, ani Qoziy Hamiduddin qabrig‘a borib, niyozmandlig‘ bila aytqay va andin so‘ngra elga arz qilg‘ay va suhbat bergay. Bir kun bir ish tasnif qilib, mashrut dastur bila Qozi hazirasig‘a bordi ittifoqan Xoja Mahmud ul hazira tavofida erdi. Chun tavajjuhdin o‘z holiga keldi, ko‘rdikim, birav turubdur va ul Mahmud Kabir mug‘anniy erdi. Xoja Mahmud anga mutavajjih bo‘lub, dedikim, Qozi aytadurki, yasag‘on ishingni ayt! Ul tavajjuh yuzidin aytti va elga xushvaqtlik yuzlandi.

532. Amir Olim Dalvolijiy r. t.

Zohir va botin ulumi bila orosta erdi. Va Hind mashoyixidin karomotu maqomot iyasidur. Debdurlarki, Mavlono Dovud Hosurg‘akim, zuhhoddin erdi, besh yuz tanga burj voqe’ bo‘ldi va Mavlono xotiri bu jihatdin doyim mutaraddid erdi. Bir kun Amir Olim Mavlono Dovud eshikidin o‘tub, biyik un bila qichqirib dediki, ey Dovud, xotiringni jam’ tutki, burjung yaqinda ado bo‘ldi! Chun lahzae bu holdin o‘tti, birav bir ko‘za su olib keldi. Mavlono qoshig‘akim, Haybatxonning o‘g‘lig‘a azim qursog‘ og‘rig‘i bo‘lubdur va halok marazidadur. Mavlono bu sug‘a duoyi o‘qub, ho‘rub yubor salarki, ul ichsa, shoyad muborak nafaslari barakatidin anga shifoe yetkay. Mavlono «Fotiha ul-kitob» bila «Ixlos» surasin o‘qub, ul suvg‘a ho‘rub yubordi. Haybatxon o‘g‘li andin ichgach, ul marazi daf bo‘ldi. Bu jihatdin besh yuz tanga niyoz yuzidin Mavlono xidmatig‘a yubordi. Mavlono dag‘i ani dayn adosig‘a yetkurdi. Va Amir Olimning bu nav’ karomoti ko‘pdur. Ul jumladin, bir qatla bozordin o‘tub boradur erdi. Qassob do‘konida bir maslux osig‘lig‘ erdi. Ani buyurdikim, oldilar. Va ayttikim, yerda bir go‘r qazib, dafn qildilar. Qassob bu holni ko‘rgach, yugurub kelib, aning ayog‘ig‘a tushti va tavba qildi. Va dedikim, tunokun qo‘y murdor o‘lub erdi. Meni badbaxtlig‘ va shayton munga tuttikim, chun hech kishi bu ishga muttale’ emas, ani sotqaymen. Bihamdullohkim, alarning qadami yumnidin bu xiyonatdin qutuldum.

533. Qozi Sharafuddin Buhayro r. t.

Ilmu amal bila orosta erdi. Ani otasi avval bazzozlig‘ hirfasig‘a topshurdi, to kasb qilg‘ay. Bir kun birav bir to‘nluq aning ustodi bazzozg‘a kelturdi, to sotqay. Bazzoz ul to‘nluqqa boqib, bisyor ayblar chiqardi va juzviy baho bila ani oldi va do‘kon ichig‘a soldi. Yana bir kun ul to‘nluqni ko‘p ta’riflar qilib, biravga bag‘oyat og‘ir bahog‘a sotti. Ul ustodi bazzozg‘a ayttiki, tilarmenki, bu kecha bu do‘kon ichinda bo‘lg‘a men. Ustod bu tavaqqufning sababini so‘rdi esa, dediki, yaramas to‘nlug‘ bir kecha bu do‘konda bo‘lg‘on bila barcha uyubi hunarg‘a mubaddal bo‘ldi, shoyadki, odamiyg‘a ham bu do‘konda bo‘lmoq bu xosiyat berg‘ay! Ustod bu so‘zdin mutaassir bo‘lub, Qozini otasi qoshig‘a eltib, dediki, bu o‘g‘ulni o‘zga foydalig‘ ishga topshurki, aning martabasi andin biyikrakdurki, bazzozlig‘qa bosh indurgay. Otasi ani ilm tahsilig‘a dalolat qildi. Oz fursatda ro‘zgor ulamosining saromadi bo‘ldi.

534. Qozi Shafiuddin Buhayro r. t.

Qozi Sharafuddinning qardoshidur. Va zuhdu karomat bila mashhur va valoyatu maqomot bila ma’ruf.

Mavlono Alouddin Amnoiyki, Dehlining qozisi va muta'abbid kishi erdi, bir kecha Hazrat Risolat s. a. v. ni voqe'da ko'rdikim, ul Hazrat buyurdilarki, falon kitobni Qozi Shafiuddin qoshida o'qi va bizing tilimizdin anga aytki, ul ikki rak'at namozki, har kecha o'qursen va bizing ruhimiz tuhfasi qilursen, bizga yetar. Qozining bir shogirdi andin bir kitob tiladi. Olg'ondin so'ngra necha kun paydo bo'lmadi. Va qozi ul kitobqa muhtoj bo'ldi. Va aning o'yin kishi bilmas erdi. Bir kecha shogird tushda ko'rdiki, Qozi ul kitobni andin tilaydur. Tong erta kitobni olib, Qozi xidmatig'a yetkurdi. Qozi anga boqib dediki, to taqozo qilmaduk, kitobni kelturmading! Bu ikki azizning qabrlari Dehli shahrida Sulton havzining qoshidadur.

535. Amir Sharafuddin Ashraf q. s.

Siyodat sharafi va zuhdu taqvo saodati bila musharraf erdi. Ul zamon akobiridin bir buzurg Hazrat Risolat s. a. v. ni voqe'da ko'rub, Mir Ashraf ahvolidin savol qilibdur. Ul Hazrat mundoq javob beribdurlarki, mening farzandimdur va mening monandim.

536. Qozi Rais r. t.

Ilm hilyasi bila va nafs tazkiyasi bila muzayyan va muqarrar erdi. Bir qatla bir zaifani aning mahkamasiga kelturdilarki, ikki abushqasi bor. Ul tiladiki, bu ish subutqa yetkandin so'ngra ani sangsor qilmak hukm qilg'ay. Dor ul-qazo vakili ul makkoradin rishvate olib, anga o'rgattikim, aytqayki, men sog'indimki, andoqki eranlarga to'rt xotun olmoq ravodur, xotinlarg'a dag'i to'rt abushqag'a tegmak joyizdur! Qozi chun bu qoziyani so'rdi va makkoradin bu javobni eshitti, dediki, bo'yni sinsun ul kishiningkim, sanga bu so'zni o'rgatibdur. Vakil chun Dor ul-qazodin chiqdi, bir yerdin yiqildi va bo'yni sindi va halok bo'ldi.

537. Mavlono Raziyuddin Nabiy q. s.

Zohiriyu botiniy ulum bila orosta erdi. Aning bir shogirdi bor erdi, pisandida avsof bila mavsuf va zuhdu taqvo sifati bila ma'ruf. Mavlono Raziyuddin olamdin o'tgandin so'ngra bu shogirdig'a har mas'alada ishkole yo ishtibohe voqe' bo'lsa erdi, Mavlononing mutahhar marqadig'a borib, aning pok ruhig'a mutavajjih bo'lsa erdi, ul mas'ala hallig'a foyiz bo'lur erdi. Bir kun mas'ala mushkul bo'lg'onda ma'hud dasturi byala pir mazorig'a borib, mutavajjih bo'ldi. Ul tavajjuhda ani uyqu eltti. Uyg'ong'andin so'ngra hamul kitob hoshiyasidakim, ul mas'ala mushkul bo'lub erdi, aning halli va javobini Mavlono xati bila bitiklik ko'rdi.

538. Mavlono Majduddin Hoji q. s.

Ko'prak zohir ulumig'a olimu maxsus va ma'qul fununig'a mohir erdi. Ahvoli mabdayida Lahovardda bo'lur erdi. Chun Dehli taxtig'a mutavajjih bo'lub yaqin yetti, Sulton Shamsuddin arkoni davlatin anga istiqbol rasmi bila yubordi. Bu asnoda munkir va xabise Sulton arzig'a yetkurdikim, mubtade' keladur, anga muncha e'zoz hojat emas. Mavlononi bir mahalda Sulton majlisig'a yetkurdilarki, shilon tortib erdilar. Sulton ta'zimu tabjil sharti bejo kelturdi va o'z oldidin biryon kabutar Mavlono xidmatig'a yubordi. Mavlono so'zga qirib, kabutar a'zosidin har uzvining xosiyatin bayon qilur erdi. Oncha g'arib maoniyu dilpazir alfoz ado qildikim, Sulton beixtiyor murid bo'lub, ul beadablig' yuzidin habosat qilg'an kishig'a balig' adab buyurdi.

539. Xoja Rohat q. r.

Dehli mashoyixining akobiridindur va kashfu karomot iyasi. Bir kecha qozi Kamoluddin Ja'fariy Hazrat Haq s t. ni voqe'ada ko'rdikim. Haq jalla va alo anga amr qildikim, ey Kamol, borib xidmatig'a yet! Qozi bu tushni azg'osu ahlomg'a haml qilib yana takya qildi, yana bu voqe'ani ko'rdi. Zaruratan saboh Xoja Rohat xidmatig'a mutavajjih bo'ldi. Ko'rdiki, Xoja Rohat vase'u nafis to'nlar kiyib, samo'g'a mashg'uldur. Mundin dag'i Qozi ko'nglig'a inkor yuzlandi. Xoja Rohat samo' asnosida yuz

Qozi sari qilib ayttiki, ey Kamol, o‘tgan kecha ikki qatla Hazrat Zuljalol seni bizing xidmatimizg‘a amr qildi va sen hanuz munkirsen. Qozi Xojaning ayog‘ig‘a tushub, ul inkori raf’ bo‘lub murid bo‘ldi.

540. Mavlono Rashiduddin Na’ziy q. s.

Oliy maqomu buzurg. Bir kecha purholu purzavq erdi va amri ma’ruf va nahyi munkar bayonida so‘z aytur erdi. So‘z asnosida tahorat qasdikim, tajdidi vuzu’ qilg‘ay, nogoh betaqrib ul azimat tarkkn tutti. Hozir ashobdin biri savol qildikim, vuzu’ tajdidi azimatidin so‘ngra aning tarkin tutmoqda sir ne erdi? Dedikim, negaki ko‘z tushadur. Olloh ismi bitiklik ko‘rinadur. Bu moni’i vuzu’ bo‘ldi.

541. Xoja Abubakr Jom q. s.

Oliy maqomu buzurg, zavil ehtirom shayx erdi. Bir kun masjid eshigida o‘lturub erdi. Zamon podshohi o‘tub borur erdi. Xojani ko‘rgach otdin tushub, Xojaning xidmatig‘a keldi va nnyozmandlig‘lar qilg‘andin so‘ngra iltimos ko‘rguzdikim, Xoja anga bir xidmat buyurg‘ay. Xoja dedikim, biz hojatimizni Qoziyul hojotdin o‘zga kishidin tilamasbiz. Podshoh ilhoh qilg‘ondin so‘ngra Xoja buyurdikim, bir dasta sabzi degilki, keltursunlar Podshoh mulozimlarni har sari ta’jil bila yubordikim, sabzi kelturgaylar. Sabzifurushlar do‘konlarida mutlaqo sabzi yo‘q erdi. Podshoh mulozimlari aning sababin so‘rdilar ersa, sabzifurushlar dedilarki, bir lahza burunroq sabzpo‘shlar paydo bo‘lub, barcha sabzilarni olib, yuqori chiqdilar. Podshoh mulozimlari chun ul maqsuddin noumid bo‘ldilar, podshohg‘a kelib, ul holni arz qildilar. Xoja podshohg‘a dedikim, podshohi zohiriykim, bir dasta sabzig‘a dastras topmag‘ay, har oyinakim, kishi har ne tilasa podshohi haqiqiydin tilagan avlodur! Zamon podshohi o‘z ajzig‘a mu’tarif bo‘lub quloq tutti va gustoxlig‘idin pushaymon bo‘ldi.

542. Shayx Ziyouddin Rumiy q. r.

Akobir avliyosidin va kummal urafosidin erdi. Va hamisha sayohatqa mashg‘ul erdi. Bir kun vaqti xush bo‘lub qo‘pti va qasamyod qildikim, to iligimni g‘ayb eranlaridin qirq kishi iligiga yetkurmagaymen, ayog‘din o‘lturmag‘aymen. Uch kun bu muddao va talab bila yurur erdi, to ulki bir bodiyada bir azim masjidqa yetishti. Chun ul masjidqa kirdi, qirq kishi g‘aybdin paydo bo‘ldilar. Biri azon aytti va qomat tushurdi va yana biri ilgari borib imomat qildi va o‘zgalari anga iqtido qildilar. Ul dag‘i bu jamoat bila namoz qildi. Namozdin forig‘ bo‘lg‘ondin so‘ngra ul qirq g‘ayb eranlari birin-birin aning bila dastbo‘s qilib dedilarki, marhabo, ey g‘ayb eranlari tolibi! Bu buzurgvorning qabri Sulton Muhammad Shah b. To‘g‘lot Shohning qabri yaqinidadur.

543. Shayx Najibuddin Mutavakkil q. s.

Payvasta tavakkul bila ro‘zgor o‘tkarur erdi. Va Xizr alayhissalom bila musohabat qilur erdi. Bir kun aning harami ahli aning bila mojarovu jadal bunyod qildi va ro‘zgor faqru foqasidin shikoyat boshladi. Va Shayx tahammul qilur erdi. Nogoh Xizr alayhissalom kirdi va tahiyyot shartin bajo kelturdi va dedi: har kishi tahammul va burdborlig‘ni o‘z shiori qilsa, Tengri ani bizing suhbatimizg‘a yetkurgay! Bu asnoda shahr ulug‘i qoshidin azim xonu moyida bila kullin vajh nazr kelturdilar. Zaifa chun muni ko‘rdi, qiladurg‘on mojarosidin uyatlig‘ bo‘ldi va iztirobidin anga pushaymonlig‘ yuzlandi. Shayx Najibuddinning munavvar marqadi Dehli shahrida Pil darvozasining tashidadur.

544. Qirq Abdol q. s.

Bu qirq barguzida banda sayohat va musofarat bila tavakkul qadami urub yururlar erdi. Chun Dehli shahrig‘a yetishtilar. Havzi Shamsiy ustida nuzul qildilar va sokin bo‘ldilar. Va umrlari oxirig‘acha anda bo‘lurlar erdi. Va alarning sarxayli Shayx Mahmud Matharado‘z erdi. Ul mulkda mundoq muqarrardurkim, har kim har murod bila bu qirq kishining mutabarrik mazoroti tavofig‘a musharraf bo‘lsa, murodi hosil bo‘lur.

545. Mavlono Karimuddin Mav'idiy q. s.
Ro‘zgorin tavakkulu tajrid bila o‘tkarur erdi va avqotin toatu tafrid bila sarf qilur erdi. Aning bir do‘sti bor erdikim, doim safarlarda anga musohib erdi. Chun Dehli shahrig‘a ikav yetishdilar, aning ul do‘sti dedikim, sen namozgoh yonida bir zamon tavaqquf qil! Mening juzviy ishim bor, ani saranjom qilib kelguncha. Mavlono qabul qildi va ul degan yerda tavaqquf qildi. Va ul do‘sti andoq bordiki, ro‘zgor havodisi ani yonib, va'dasig‘a vafo qilg‘ali qo‘ymadi. Va Mavlono qirq yil ul yerdin tebranmadi, to olamdin o‘tti. Munavvar marqadi Dehli namozgohining yonidadur.

546. Shayx Muhyiddin Ali Chishtiy q. s.
Ul dag‘i Hind mashoyixidindur. Karomot va valoyat iyasi erdi. Biravki anga e'tiqodi yo‘q erdi va inkor qilur erdi, har qachon aning mazori tarafidin o‘tsa erdi, bir tosh ul qabr sari otar erdi. Har necha ani bu harakatdin man' qilurlar erdi, mumtane' bo‘lmas erdi. Bir qatla otlig‘ ul yondin o‘tarda ham ul dastur bila tosh otti va bu asnoda oti ram qildi va ul otdin yiqildi va hamul tosh otar iligi sindi. Ul buzurgning ruhi bu nav' bila aning iligini o‘zi sari tosh otardin qisqa qildi.

547. Darvesh Bashir q. s.
Majzub va sohibi karomotu maqomot erdi. Bir kun Dehli shahridin jamoate gashtga chiqdilar. Va quyosh botquncha tashqari qoldilar va qorong‘u bo‘ldi. Yonib shahrg‘a kelurda yo‘lni iturdilar. Nogoh yiroqdin bir nure ko‘rundikim, daraxtdin partav ko‘rguzadur. Ul sari mutavajjih bo‘ldilar. Emdikim, yettilar, ko‘rdilarki, Darvesh Bashir o‘lturubdur va bu yorug‘lug‘ andin zohir bo‘ladur. Bildilarki, ul yorug‘lug‘ aning sharif vujudi barakotidindur. Ul yorug‘lug‘ bila yo‘lni toptilar va har qaysi o‘z uylariga bordilar. Bir qatla bir jamoate Darvesh xidmatig‘a keldilar, har qaysig‘a munosib ish buyurdi. Biri o‘z ko‘ngliga kechurdikim, muncha aqlki bu kishidadur, ne uchun o‘zin telbalikka solib erkan? Darvesh aning sari boqib o‘qidikim,

b a y t:

[Do‘st talabida mardona bo‘ldim, ilk qadamda o‘zimdan begona bo‘ldim. U ilm tinglamasdi – og‘zimni yopdim. U aql xaridori emasdi – devona bo‘ldim]1.

Mozori Sanguladadur.

548. Mavlono Sarroj Hofiz r. t.
Qumustegin avlodidindurki, ul Amir Sabuktegining qardoshi erdi. Debdurlarki, ul yuzkim, xalqdin evurub erdi va Xoliqqa kelturub erdi, bir masjid ichiga kirib va eshikni ichkaridin bog‘lar erdi va andin chiqmas erdi. Va doim «Kalomulloh» tilovatig‘a mashg‘ul erdi. Birav eshik darzidin ehtiyot bila mulohaza qildi, ko‘rdiki, aning qoshida bir nuroniy pir o‘lturubdurki, olam ahlig‘a o‘xshamas. Chun ul masjiddin chiqdi, ko‘rgan kishi Mavlono xidmatig‘a borib, ul kishini so‘rdi. Mavlono hech nima demadi. Chun mubolag‘a qildi, dediki, Xizr alayhissalomdurki, kelib, laduniy ilmini manga dars aytur. Hind mulkida muqarrardurki, dushanba kuni bu buzurgvor ziyoratig‘a xaloyiq musharraf bo‘lurlar.

549. Sayyid Jamol Surx a. r.
Qaromot va xavoriqi odot iyasi erdi. Bir kun tarso Sayyid qoshida Iso a. s. ni Hazrat Risolat s. a. v. g‘a tarjih qildi. Sayyid so‘rdiki, mujibi tarjih nedur? Ul dediki, Iso osmondadur va Muhammad yerda. Bu so‘zni tarso aytti va havog‘a parvoz qildi. Sayyid qo‘ynidin «Mushaf» chiqardi va yuqori boqib dediki, bor Xudoyo, bu «Kalomulloh» haqqiki, rostlig‘ bila Hazrat Risolat s. a. v. g‘a yiboribsenki, bu tarsoni tushkali qo‘yma! Tarso havoda qoldi va tusha olmadi, faryod qila boshladi. Xaloyiqqa bu hol

mushohadasidin g‘avg‘o tushti. Va tarso Sayyid xidmatig‘a qichqirib, darxost qildiki, duo qilingki, quyi tushaolsam, musulmon bo‘lurmen! Sayyid duo qildi va tarso havodin tushub, Sayyid qoshida imon qabul qilib, musulmon bo‘ldi. Sayyidning madfani G‘azni darvozasidadur.

550. Hoji Karimuddin Nimgo‘r q. s.

Orif va pursho‘r kishi erdi. Va ani Nimgo‘r aning uchun derlarki, doyim der erdiki, menda orzu budurki, mening qabrim soyir el qabridek baland bo‘lmasa, balki hamvor bo‘lsa. Chun dunyodin o‘tti, qabrini yasadilar, tongla ko‘rdilarki, yarmi buzulubdur va yarimi bor. Yana yasadilar, yana tongla buzuq toptilar. Har nechaki, yasarlar erdi yana yarimini buzuq toparlar erdi, to yasamog‘din ilig torttilar. Va Nimgo‘r laqabi bila mashhur bo‘ldi.

551. Mavlono Hisomuddin G‘olbek q. s.

Din mujohidlaridin va yaqin masoliklaridin erdi. Va Sulton Shamsuddin zamonida Lakhnutiy hukumati anda erdi, bovujudi sipohiylik. Haqiqat yo‘lida dag‘i riyozat va suluki bor erdi. Debdurlarki, zohir jihod maydonida yuz ming mushrik qonin to‘kub, jahannamg‘a yibordi va botin jihodida dag‘i nafsi mushrikin Haq yo‘lig‘a rosix qildi.

552. Mir Buzurg va Mir Xo‘rd Ma’ruf bis-Sodoti Nuhqa q. s.

Bu ikki og‘a-ini sahih un-nasab sodotdin erdilar. Ahvollari mabda’ida Lahovardda basar elturlar erdi. Bir kecha ul ikavdin har biri uch qatla Hazrat Risolat s. a. v. ni tush ko‘rdilarki, har qatla ul Hazrat alarg‘a amr qildiki, bu shahrdin chiqing! Tong erta og‘a-ini voqealari kayfiyatin bir-biriga aytib, amr bo‘lgan yo‘sun bila Lahovarddin chiqib, Dehlig‘a azimat qildilar. Chun ul shahrg‘a kirdilar, bir xojasaro alarg‘a yo‘liqib so‘rdiki, siz Lahovarddin kelasiz? Dedilarkim, bale! Alar dedilarki, sen qaydin bizing Lahovarddin keladurganimizni bilding? Ul xojasaro dediki, ul kishiki, sizni ul yerdin chiqarg‘a amr qildi, manga ham ul xabar qildi. Bu so‘zdin so‘ngra ul xojasaro ikkalasin uyiga olib bordi va mehmonlik qildi. Chun ul xojasaroning uyidin chiqdilar, bir masjidqa kirib, ibodatg‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Nogoh masjid saqfidin bir hamyon yormoq alar ollig‘a tushdi. Ikkalasi mashvaratdin so‘ngra ra’yni anga qaror berdilarkim, ul vajhga bir mavze’ sotqun olg‘aylar, to ibodatu toat qilurda mo yuhtoj uchun kishiga muhtoj bo‘lmag‘aylar. Andoq qildilar va alarning toatu ibodati barakatidil ul mutaayyin yer bo‘ldi. Va holo ul yer ikki azizning avlodu atbo’i tasarrufidadur va mashhur muqarrar yerdur.

553. Mavlono Kamoluddin Zohid q. s.

Zuhdu taqvo bila orosta va fiqhu hadis ilmida dono erdi. Shayx Nizomuddin q. s. «Mashoriq» kitobin aning qoshida o‘qub erdi. Mavlononing muxlis va mu’taqidlaridin biriga farzande mutavvallid bo‘ldi. Ul kishi Mavlono xidmatig‘a kelib, farzandi tavalludidin ani xabardor qildi. Va ko‘nglida kechurdikim, ne xub bo‘lg‘ay, agar Mavlono xidmatlari to‘nlaridin bir qit’a inoyat qilsalarki, farzandimni anga chirmasam. Mavlono yenglaridin bir dastorcha chiqarib anga berdi. Ul xushdil bo‘lub, yana ko‘ngliga kechurdikim, agar amomasidin ham bir parcha inoyat qilsalarkim, o‘g‘lum boshiga chirmasam. Mavlono dedikim, ul dastorchanikim sanga berduk, eski amomamizdin yasabbiz. Bu buzurgvorning qabri Faridxon masjidining yaqinidadur.

554. Shayx Rashn Avliyo q. t. s.

Hind mulkining kibor mashoyixidin va mashohiri avliyosidindur. Zohiriy ilmda komil va botiniy irfonu nukotda mukammal. Munavvar hazirasi avliyo atqiyoning chilla o‘lturur xilvatlari mavzeidadur.

555. Shayx Mahmud Bihoriy r. t.

Karomotu xavoriqi odot andin ko‘p zohir bo‘lur erdi va bazl zotida g‘olib erdi. Chun xilvatdin chiqib,

koʻyubozorgʻa yetar erdi, yosh oʻgʻlonlar va savol ahli muhtojlar ilayin tutub va keynicha yugurub, nima tilarlar erdi. Va ul ogʻzidin diramlar chiqarib, alargʻa berur erdi. Va ul diramlar birdek emas erdi, baʼzi kumush, baʼzi mis. Har kishining toleiga koʻra nasib boʻlur erdi. Debdurlarki, Hind mulkida bir tabbox bor erdiki, har kun bir zarf taom yasab, oʻz oʻgʻlidin Shayx uchun yuborur erdi. Ittifoqan ul oʻgʻlon mariz boʻldi va favt boʻldi. Bu asnoda Shayxning xotirigʻa ul tifl jonibidin bir nima keldi. Betavaqquf qoʻpti va ul tabbox uyiga bordi. Bildiki, ul farzandi tabboxning oʻlubdur va madfangʻa eltibdurlar. Shayx ham bordi, koʻrdiki, goʻrga kiyurub, tufroqqa topshirdilar. Shayx ul goʻrga kirdi va mayyit egnidin koʻtardi va yuqori boqib dediki, bor xudoyo, bu oʻgʻlonginani tirguz! Haq subhonahu va taolo ul oʻgʻlonginagʻa jon bagʻishladi. Va qoʻpti va Shayxning ayogʻigʻa tushti. Shayx Mahmud Bihoriyning qabri Kilukuharidadur va duo mustajob boʻlurning mahalidur.

556. Shayx Abubakr Tusiy va Shayx Malikyor Parron q. s.

Bu ikki buzurgvor Hind mashoyixi kiboridindurlar. Va Jun daryosi yaqosida ikkalasining xonaqohlari bor erdi. Va doim bir-biri bila musobih erdilar. Bir kun namoz digarga yaqin ikkalasi daryo yaqosida oʻlturub erdilar. Shayx Abubakr Tusiy Shayx Malikyor Parrongʻa dedikim, kel, to suning ul yuziga borib namozdigarni ado qilali! Shayx Malikyor dediki, menga xud bu daʼvo yarasi yoʻqdur, ammo sizga chun bu doiya bor, siz boring, to men soʻngunguzdin kelayin. Shayx Abubakr tayron qildi va daryoning nari qirogʻida namozdigar adosigʻa ihrom bogʻladi. Shayx Malikyor soʻngradin azimat qildi. Jun daryo vosiʼ erdi, oʻrta yerga yetkuncha gʻurub boʻlib, namoz bevaqt boʻlgʻudek erdi, daryo yuziga musallosin solib, namoz adosigʻa mashgʻul boʻldi. Va Shayx Abubakr boqib turub erdi. Chun namozdin forigʻ boʻldi, uchub, Shayx Abubakr qoshigʻa bordi. Hind mashoyixi tarixida bitibdurlarki, jinlar Shayx Malikyor Parron qoshida saboq oʻqurlar ermish. Bu ikki buzurgvorning qabrlari Jun daryosi qirogʻidadur.

557. Mavlono Nizomuddin Kalomiy q. s.

Holining bidoyatida zamon podshohining mulozamatigʻa mashgʻul erdi va musulmonlarning ishi kifoyatigʻa murtakib. Soʻngra ul ishlardin etak tortti va faqr suluki tariqin ixtiyor qildi va azim riyozat boshladi.

Oʻttiz yilgʻa yaqin Dehli shahrining icharigi hisoridin chiqmadi.

Bir aziz andin bir kun iltimos qildikim, bir miqdor chuchukluk gʻizo omoda qilibdurmenki, anga mayl qilgʻaysen? Ul dedi: oʻttiz yildurki, nafsni riyozat achigʻligʻigʻa oʻgratibmen, holo anga chuchukluk bersam, yana anga bas kelmasmen! Bu javob bila ul chuchuklukdin ijtinob qildi.

558. Shayx Mujir r. a.

Oʻz ahdida benazir erdi va doim istigʻroq bila oʻtqarur erdi. Andoqki, juma kuni Dehli jomeʼigʻa hozir boʻlaolmas erdi. Bir kun Qozi Saʼdkim, Dehli shahrining aqzal-quzoti erdi, Shayx Mujirdin soʻrdikim, masjidi jomeʼgʻa ne uchun kelmassen? Shayx dedi: bu juma sen kelki, bila masjidqa boroli! Qozi juma kuni keldi. Shayx Mujir Qozining ilgin tutti va dedi: koʻzungni yum! Qozi koʻzin yumdi. Soʻngra dedi: och! Koʻzun ochqoch, oʻzin masjidi Haramda koʻrdi. Shayx bila namoz qildi. Yana ham-ul dastur bila oʻz mulklarigʻa keldilar. Bu holni koʻrgach, Qozi Shayxqa irodat iligi berib, murid boʻldi va faqr tariqigʻa kirdi. Shayx Mujir qabri eski Dehli ichidadur.

559. Shayx Qutbuddin Baxtiyor Qokiy q. s.

Shayx Muʼinuddin Sanjariy q. s.ning murididur. Va Hind mulkining kibor mashoyixidindur.

Bir kecha ahlullohdin jamoate Shayx huzuri istidʼosi qildilar. Samoʼ vaqti mugʻanniy bu baytni oʻqidiki,

b a y t:

[Taslim xanjari bilan o‘lganlarga har zamon g‘aybdan boshqa jon keladi][1].

Shayx bu bayt istimo’idin andoq xushhol bo‘ldikim, behush bo‘lub yiqildi. Va muddate o‘z holig‘a kelmadi, andoqkim, muridlar Shayxni ko‘tarib, xonaqohg‘a elttilar. Va Shayx to‘rt kecha-kunduz ul zavqu xushvaqtlikdin o‘zida yo‘q erdi, to beshinchi kuni Haq subhonahu va taolo jivori rahmatig‘a vosil bo‘ldi. Va Dehlida mazori mashhurdur va elning qiblai hojatidur. Bir qatla bir donishmand bir hojat arzi uchun yiroq yo‘ldin shahrg‘a kelib erdi. So‘zni hech nav’ bila zamon podshohi arzig‘a yetkura olmadi va arkoni davlatdin hech kim aning muhimmi kifoyatig‘a parvo qilmadi. Navmid bo‘lub qayturda bir aziz anga irshod qildikim, Shayx Qutbuddin mazori boshig‘a borib, o‘z ahvolin bitib, Shayx mazori boshida niyozmandlig‘ bila qo‘ydi. Ul kecha Shayx q. s. podshohning tushiga haybat bila kirib, ul qog‘ozni aning ilgiga berib dediki, bu faqir hojatmandning ishin yasa! Podshoh iztirob bila silkinib qo‘pti. Ko‘rdiki, ul qog‘az ilgidadur, o‘qub, mazmuni bila bitigan kishini tilatib topib, aning ishin ko‘ngli tilagandek yasab, ani uzatti.

560. Qozi Hamiduddin Noguriy q. s.

Nogur mulkining hokimining o‘g‘lidur. Va kichik yoshdin faqr ahli tariqida suluk qilur erdi va bu toifa suhbatig‘a shefta erdi. Chun shabob ayyomig‘a yetti, Hazrat Shayx Bahouddin Zakariyo q. s. mulozamatida haj azimati qildi chun Madinag‘a yittilar, Shayx Avhaduddin Kirmoniy q. s. suhbatig‘a musharraf bo‘ldilar. Va muddate aning mulozamatida sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Mufid riyozatlar va mujohadalardin so‘ngra Makka azimati qildi va ul muborak xittada mashoyix mulozamatig‘a musharraf bo‘lub, alardin ko‘p fayzlarg‘a bahramand bo‘lub, alar irshodu ishorati bila Dehlig‘a yonib, toliblar irshodig‘a mashg‘ul, bo‘ldi. Va Dehlida Shayx Qutbuddin Baxtiyor q. s. suhbatig‘a musharraf bo‘ldi. Bir qatla Dehli aholisidin biri Shayx Qutbuddin Baxtiyor va Qozi Hamiduddin q. s. va soyir aizzani uyiga indab, ziyofat qilur erdi. Va shahrning shayx ul-islomi ham hozir erdi va so‘filarning samo’ qilmog‘ig‘a munkir. Alqissa chun mug‘anniylar navo chektilar, Qozi xushvaqt bo‘lub, samo’g‘a kirdi va shayx ul-islomni quchub olib uchti va shayx ul-islom mutaajjib, balki mutavahhimki, nogoh Qozi iligidin xato bo‘lsa, halokdin o‘zga ish yo‘q erdi. Ko‘zi qarorib, esi ozgan mahalda samo’ tugandi va Qozi shayx ul-islomni solim majlisqa tushurdi. Va shayx ul-islom ul hol mushohadasidin Qozig‘a irodat iligi berib murid bo‘ldi. Bir qatla Dehlida xushksol jihatidin qaht voqe’ bo‘ldi. Nogur ahlidin birav Qozi xidmatig‘a kelib, ju’ tashvishidin shikoyat qilib, Nogur sari borurg‘a ruxsat tiladikim, anda at’ima ochug‘lug‘ va suhulat bila muyassardur. Qozi ul kishiga dedikim, Nogur Tengrisiga bizdin salom de! Ul kishi dedikim, magar Nogurda yana bir Tengri bor, Dehli Tengrisidin boshqa? Qozi dedikim, agar sanga bu aqida bo‘lmasa erdi, ro‘zi tilay Dehlidin Nogurga bormag‘ay erding. Ul azim mutanabbih bo‘lub, azimatini fasx qildi. Ham bu xushksolda Dehli ahlidin akobiru ashraf Qozi xidmatidin istisqo duosi iltimos qildilar. Qozi qabul qilib, dasht azimati qildi. Bozordin o‘tub borurda ko‘rdiki, bir sabzifurush sabzisi qurumasun deb, dam-badam sabzilarig‘a ovuch bila suv olib separ erdi. Qozi bu holni ko‘rgach boradurg‘on tarafdin qaytti va dediki, bir tarrafurush sabzilari g‘amin yeb, qurumasun deb, anga dam-badam suv separ bo‘lsa, hosho Tengri karamidinki bandalari sabzazori hayotin suvsuzluqdin qurug‘ali ravo ko‘rgay? Hanuz bu so‘z Qozi og‘zida edikim, bulut paydo bo‘lub, bir-biriga tutashib yog‘a kirishdi. Va mulk ahli serob bo‘ldilar. Hamono andoqki, ko‘prak akobirii Xurosonda shayx derlar va Samarqandda xoja va Rumda bob va Hindda qozi derlar. Qozi Hamiduddinning qabri Dehli shahrida Shayx Qutbuddin Baxtiyor q. s.ning oyog‘i saridur.

561. Malik Nasiruddin Mahmud q. s.

Ham Hind mulki mashoyxidindur. Va tab’ida bazl g‘olib erdi. Hamisha ziyofat tariqini masluk tutar erdi va fuqarovu g‘urabo it’omida ko‘shish ko‘rguzur erdi. Bir kecha muridlaridin biri ani voqe’da ko‘rdikim otlig‘ boradur erdi va bu murid ham otlig‘ aning bila boradur erdi. Nogoh ikkalasining orasida bir tom paydo bo‘ldi va aning bila Malik orasida hoyil bo‘ldi. Va ul sarikim, Malik erdi, bir

oliy qasr erdi. Malik Mahmud ul qasrg‘a tushub kirdi. Ul muridkim bu voqe’ni ko‘rdi chun uyqudin uyg‘andi. Malik xidmatig‘a bordikim, voqe’sin aytib, ta’birin tilagay. Ul izhor qilmasdin burun Malik Mahmudning ko‘zi anga tushgach ilgari tilab, quchub xayrbod qildi va dediki, bizing rihlatimiz chog‘i yetibdur. Va shahodat barmog‘in qoyim qilib, kalimai shahodat bayoni qildi va jonni jonofaring‘a topshurdi. Va bu voqea juma kuni Jumod ul-oxir oyining oltisinda yetti yuz ellik sakkizda erdi. Va ani Iraj xittasida dafn qildilar va olti oydin so‘ngra Dehli shahrig‘a naql ko‘rguzdilar.

562. Shayx Shodiy q. r.

Agarchi o‘zi Hind mulkidin, ammo Hirot shahrining bulukotidin ba’zi kentta sokin erdi. Va zohidu mutavarri’ kishi erdi. Va yillar taqvo sajjodasi ustida mutamakkin erdi. Va base xalq anga murid erdilar. Va andin ko‘p xavoriqi odot naql qilurlar. Va qabri dag‘i hamonoki, hamul maskan qilg‘an kentdadur.

563. Shayx Abu Abdulloh Savma’iy q. r.

Ul Gilon mashoyixining akobiridindur. Va anga oliy ahvol va zohir karomot bor erdi. Ajam mashoyixining ko‘pining xidmatig‘a yetibdur. Va mustajob ud-da’vo erdi. Va har kishiga g‘azabe bo‘lsa erdi, Tengri bot ul kishidin aning intiqomin tortar erdi. Jamoate, aning ashobidin, tijorat dasturi bila chiqib erdilar va boradurlar erdikim, Samarqand yaqinida bir bo‘luk otlig‘lar chiqdilarki, alarni talag‘aylar. Ul jamoat Shayx Abdullohni shafe’ qilib chorladilar. Ko‘rdilarki, Shayx alarning orasida turubdur va deydurki, [bizni tarbiyat qiluvchi Allohimiz pokdir, munazzahdir][1], yiroq boring, ey jamoat, bizing oramizdin! Ul jamoat tafarruq bo‘ldilar, andoqki, hech qaysi otlarining jilovin asrayolmadilar. Va otlari ba’zini olib tog‘larg‘a eltti va ba’zini vodiylarg‘a soldi va alardin ikkisi bir-biriga yig‘ila olmadilar. Ashob alardin xalos bo‘lg‘ondin so‘ngra shayxlarni oralarida tiladilar, topmadilar. Gilong‘a vatanlarig‘a borg‘ondin so‘ngra Shayx xidmatidag‘i ashobdin so‘rdilar. Alar dedilarki, siz borg‘ali Shayx hargiz bizing oramizdin g‘oyib bo‘lmadi.

564. Shayx Muhyyddyn Abdulqodir Jiliy q. s.

Kuniyatlari Abu Muhammaddur. Nasabda Alaviy Hasaniy ermishlar. Ona jonibidin Shayx Abu Abdulloh Savma’iyg‘a nabira bo‘lurlar. Va onalari Ummulxayr Amatuljabbor Fotima binti Abu Abdulloh Debdurki, chun farzandim Abdulqodir mutavallid bo‘ldi, hargiz Ra-mazon oyida sut ichmadi. Valodatlari to‘rt yuz yetmish birda ermish va vafotlari besh yuz oltmish birda voqe’ bo‘lubdur. Alar debdurlarki, kichik erdim, yozig‘a chiqib erdim va bir o‘yning quyrug‘in tutub erdim, hirosat uchun. Ul o‘y manga boqib dediki [buning uchun yaratilmading va amr etilmading][1]. Qo‘rqdum va qaytdim. Va kelib uy tomig‘a chiqtim, hojilarni ko‘rdumki, Arafotda turub erdilar. Onam qoshig‘a keldim va dedimki, meni Tengri ishiga qil va ijozat berki, Bag‘dodqa boray va ilme kasb qilay va solihlarni ziyorat qilay. Mendin bu doiya sababin so‘rdi, ayttim. Ersa, yig‘ladi. Va qo‘pti va saksan oltun kelturdi. Va dediki, menga ota merosidin bu qolibdur. Yarimin qardoshim uchun qo‘ydi va yarimin mening to‘numg‘a tikdi va manga safar izni qildi. Va manga ahd berdiki, barcha ahvolda rostlik qil va mening vido’img‘a chiqdi. Va dediki, bor, ey farzand, Tengri uchun sendin kesildim va qiyomatqacha seni ko‘rmagumdur. Men oz qofila bila Bag‘dodqa tavajjuh qildim. Chun Hamadondin o‘ttuk, oltmish otlig‘ chiqdilar va qofilani tuttilar va manga ta’arruz qilmadilar. Nogoh birav manga yetti va dediki, neing bor? Dedim: qirq oltin. Dedi: Qani? Dedim: to‘numda tikiklikdur. Sog‘indiki, istihzo qiladurmen. Meni qo‘ydi va o‘tti. Va yana biri yetib ham andoq so‘rdi va hamul javobni eshitti. Ikkalasi ul jamoatning ulug‘lari qoshig‘a borib, bu so‘zni ayttilar. Ul meni tilab, hamul so‘zni so‘rdi. Va men hamul javobni berdim. Bir tepa ustida o‘lturub qofila ahli molin qismat qiladur erdi. Buyurdiki, to‘numni so‘ktilar va ul vajhni chiqardilar va sanadilar. Deganim bila muvofiq chiqdi. So‘rdiki, sening bu e’tirof qilurg‘a boising ne erdi? Dedimki, onam manga ahd berib erdi – sidqu rostliqqa! Va men aning ahdiga xiyonat qilmam. Pas, ul qavmning ulug‘i yig‘ladi va dediki,

yillardurki, men parvardigorim ahdig‘a xiyonat qilibmen. Va qiladurg‘on ishidin mening iligimda tavba qildi. Pas, ashobe dedilarki, sen tariyq qat’ida bizing muqtadomiz eding, emdi tavbada dag‘i sanga tatabbu’ qilurbiz. Va barcha mening iligimda tavba qildilar. Va har ne qofila ahlidin olib erdilar, barisin qaytara berdilar. Mening iligimda avval tavba qilg‘anlar alar erdilar. Alar to‘rt yuz saksan sakkizda Bag‘dodqa yettilar, vajd bila tahsilg‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Avval Qur’on qiroati va fikh va hadis va ulumi diniyani takmil qildilar. Va aksar ulumni ul akobir qoshidaki, ul zamonda mutaayyin erdilar, bilib abnoyi zamong‘a foyiq bo‘ldilar. Va besh yuz yigirma birda majlis tutub, xaloyiq nasihatu va’zig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Alarda zohir karomati va ahvoli maqomot holi ko‘p ekandur. [Imom Yofiiy r. t.ning tarixida keltiriladi: Shayx Abdulqodir r. a. karomatlari haddan tashqari ko‘p edi. Men bilgan ulug‘ imomlardan biri shunday dedi: uning karomotlari tavotur yoki unga yaqin darajada. Va barchaga ma’lumki, jahon shayxlarining boshqa birortasiga bunday karomotlar zohir bo‘lmagan. Shayx Abu Muhammad Abdulqodir b. Abu Solih b. Abdulloh Jiliy, Shayx Abu Sand Muborak Ali Maxzumiy qo‘lidan xirqa kiydi. Va u Shayx Abu Hasan Ali b. Muhammad b. Yusuf Qurashiy Hakkoriydan va u Shayx Abu Faraj Tarsusiydan va u Shayx Abulfazl Abdulvohid b. Abdulaziz Taymimiydan va u Shayx Abubakr Shibliyning qo‘lidan xirqa kiydi. Alloh Taolo ruhlarini muqaddas qilsin!][2].

565. Shayx Hammod Dabbos r. t.

Ul Shayx Abdulqodirning mashoyixidindur. [Besavod edi, lekin unga ma’rifat va sirlar eshigi ochilib, ulug‘ shayxlarning rahbariga aylandi][1]. Shayx Abdulqodir yigit erdi va Shayx Hammod suhbatida bo‘lur erdi. Bir kun g‘oyat adab bila aning qoshida o‘lturub erdi. Chun qo‘pti va chiqdi. Shayx Hammod dediki, bu ajamiyg‘a qadamedurki, o‘z vaqtida barcha avliyoning egnida bo‘lg‘usidur. Har oyina ma’mur bo‘lg‘ay angakim aytqayki, [shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo‘ynidadir][2]. Barcha avliyo bo‘yun qo‘yg‘aylar. Va Shayx Hammod besh yuz yigirma beshda Ramazon oyida olamdin o‘tubdur. Shom ulamosidan Abdulloh otlig‘ pire debdurki, ilm talabig‘a Bag‘dodqa bordim va Ibn Saqqo mening hamrohim erdi. Va Bag‘dodning Nizomiyasida ibodatqa mashg‘ul erduk va sulahoni ziyorat qilur erduk. Ul vaqtda Bag‘dodda azize bor erdiki, derlar erdiki, ul g‘avsdur. Va ham derlar erdiki, har vaqt tilasa, g‘oyib bo‘lur va har vaqt tilasa, hozir bo‘lur. Pas, men va Ibn Saqqo va Shayx Abdulqodir va ul hanuz yigit erdi, g‘avs ziyoratiga borduq. Yo‘lda Ibn Saqqo dediki, men andin mas’ala so‘rg‘umdurki, javobin bilmagay. Men dedim: mas’ala so‘rg‘umdur, to ne degay? Shayx Abdulqodir dediki, ma’ozalloh, andin nima so‘rg‘aymen, men borurmen va aning barakoti intizorin tortarmen. Chun aning qoshig‘a kirduk, ani o‘rnida ko‘rmaduk. Bir zamon o‘lturduk, ko‘rdukki o‘z-o‘rnida o‘lturubdur. Pas g‘azab bila Ibn Saqqog‘a boqib dediki, ey Ibn Saqqo, mendin mas’alae so‘rarsenki, men ma’nosin bilmag‘aymen. Ul mas’ala budur va javobi bu: Men ham ko‘radurmenki, kufr o‘ti sendin zabone uradur. Andin so‘ngra manga boqdi va dediki ey Abdulloh, mendin mas’alae so‘rarsen va ko‘rarsenki, ne dermen. Ul mas’ala budur va javobi bu: Har oyina dunyo seni qulog‘ingg‘acha bosa olg‘ayki, mening bila beadablig‘ qilding! Andin so‘ng Shayx Abdulqodirg‘a boqdi va dediki, Xudoy va Rasulni xushnud qilding, adab jihatidinki, asrading, go‘yoki ko‘rar menki, Bag‘dodda minbar qo‘yarsen va chiqib aytursenki [shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo‘ynidadir][3]. Va ko‘radurmenki, vaqt avliyosi barcha bo‘yunlarin sanga past qilibdurlar, ijlolu ikromingdin. Va hamul zamon g‘oyib bo‘ldi. Andin so‘ngra ani hargiz ko‘rmaduk. Va har ne Shayx Abdulqodir haqida aytti, voqe’ bo‘ldi. Va Ibn Saqqo ulum takmilidin so‘ngra xalifa ani riyozatqa Rumg‘a yubordi. Rum podshohi nasroniy ulamoni aning bila munozara buyurdi. Barchani ilzom qildi va aning nazarida bag‘oyat ulug‘ ko‘rundi. Va aning yaxshi, chiroylig‘ qizi bor erdi. Ibn Saqqo anga sheftavu mash’uf bo‘ldi. Rum podshohi ma’lum qilg‘ach anga dedurdiki, qizimni sanga nikoh qilurmen, bu shart bilaki, o‘z diningdin chiqib, nasroniy bo‘lg‘aysen. Va ul qabul qildi va nasroniy bo‘ldi. Va qizni anga berdilar. Va Ibn Saqqo g‘avs so‘zin yod qilib bildiki, anga har ne yetti, o‘zidin yetti. Va men Damashqqa bordim. Va Nuriddin Shahid avqof ishin manga buyurdi va dunyo manga

yuz qo‘ydi. Va Shayx Abdulqodir bir kun va’z aytadur erdi. Omma mashoyix aning majlisida edilar, Misli Shayx Ali Haytiy: va Shayx Baqo b. Botu va Shayx Abu Sa’d Qilaviy va Shayx Abunnajib Suhravardiy va Shayx Jogir va Shayx Qazib ul-bon Mavsiliy va Shayx Abus-Su’ud va g‘ayruhum kibori mashoyixdin. Shayx, so‘z asnosida hamul so‘zni dediki, [shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo‘ynidadir][4]. Va bu hozir mashoyix barcha bo‘yunlarin aning ayog‘ig‘a past qildilar. Va «Nafahot»da mundoqdurki, hech valiy qolmadiki, bu so‘zga bo‘yun sunmamush bo‘lg‘ay. Bir vali Ajamda ibo qildi, holi andin mutavoriy bo‘ldi.

566. Shayx Sadaqa Bag‘dodiy q. s.

Shayx Sadaqa Bag‘dodlig‘dur. Bir kun bir so‘z aytadur erdiki, shar’i zohiriy bila anga mulohaza kelur erdi. Xalifag‘a yetkurdilar, buyurdikim, ani hozir qildilar, to ta’zir qilg‘aylar. Chun boshin yalang qildilar, muridi qichqirdikim, [voy, Shayxim!][1]. Urarg‘a ilig ko‘targan kishining iligi shol bo‘ldi va buyurg‘an vazirg‘a haybat mustavliy bo‘ldi. Va xalifag‘a ham bu hol bo‘lub buyurdikim, ani qo‘ydilar. Shayx Abdulqodir manzilig‘a bordi, ko‘rdikim, mashoyix va soyir el o‘lturubdurlar, Shayxqa muntazirki, chiqqay va so‘z aytqay. Shayx chiqdi va minbar ustiga bordi va so‘z ham aytmadi va qori ham nima o‘qimadi, ammo elga vajdu xushholliq yuzlandi. Shayx Sadaqa o‘zi bila ayttiki Shayx nima demaydur va qori nima o‘qimaydur, elga bu vajd nedindur? Shayx yuz aning sari qilib dedikim, mening bir muridim. Bayt ul-Muqaddasdin mungacha bir gom bila kelibdur va mening iligimda tavba qilibdur, hozirlar aning ziyofatidadurlar. Shayx Sadaqa yana o‘zi bila dediki, biravki Bayt ul-Muqaddasdin Bag‘dodqa bir gom bila kelgay, anga ne nimadin tavba qilmak kerak va Shayxqa ne hojati bor?

Shayx yuz aning sari qilib dediki, yo hozo, ul tavba andin qildiki, yana havog‘a uchmag‘ay va manga hojati uldurkim, ani Haq subhonahu va taolo muhabbatiga yo‘l ko‘rguzgaymen.

567. Shayx Sayfuddin Abdulvahhob r. t.

Ul shayx Abdulqodir q. s.ning o‘g‘lidur. Ul debdurki, har oy yangi bo‘lsa, avval kelib otamg‘a tahniyat yetkurur erdi va ul oyda yaxshi-yamondin har hol voqe’ bo‘lsa erdi, andin xabar berur erdi. Agar ul oyda yaxshilik erdi, yaxshi suratlik kishi shakli bila kelur erdi va agar yamon erdi, yamon chiroylig‘ kishi shakli bila kelur erdi. Otam Ramazon oyida necha kun bemor bo‘ldi. Dushanba kuni oyning yigirma to‘qqizida jam’i mashoyix hozir erdilar, Misli Shayx Ali Haytiy va Shayx Najibuddin Suhravardiy va g‘ayrihumo bir avqar vaqor va baholig‘ kishi kirdi va dediki, [Assalomu alayk, ey Alloh valiysi!][1]. Men Ramazoi oyidurmen, kelibmenki, i’tizor qilg‘aymen, ul umurdinki, menda sanga muqaddar bo‘lub erdi va sanga vado’ qilg‘aymenki, bu oxir ijtimo’dur, sening bila mening oramda, dedi va qaytti. Rabi ul-oxir oyida Shayx dunyodin o‘tti va yana bir Ramazonni musharraf qilmadi. Bir kun Shayx majlis aytadur erdi. Va Shayx Ali Haytiy Shayxning o‘trusida o‘lturub erdi va ani uyqu eltti. Shayx majlis ahlini tik turg‘uzdi va minbar ustidin tushub kelib, Shayx Ali Haytiy qoshida adab bila turdi. Chun Shayx Ali uyg‘ondi. Shayx anga dediki, Hazrat Risolat s. a. v. ni tush ko‘rdung? Dedi: bale! Elga dediki, men bu ish uchun adab bila turub erdim. Hazrat sanga ne nimaga vasiyat qildi? Dediki, sening mulozamatingg‘a! Shayx Alidin majlis huzzori bu ma’nodin so‘rdilar. Ul dediki, ulcha men uyquda ko‘radur erdim, ul uyg‘og‘lig‘da ko‘radur erdi. Va bu Shayx Ali q. s. [Batoih shayxlaridan edi. Karomatlaridan ba’zisi shuki, kimki sher hamla qilganda, uni eslasa, sher qaytib ketardi. Kimki serpashsha joyda uni eslasa, pashshalar uzoqlashardi][2].

568. Shayx Abu Muhammad Abdurrahmon Tafsunajiy r. t.

Tafsunaj Bag‘dod tavobi’idin bir kentdur. Ul bir kun anda minbar ustida dediki, [Men valiylar orasida go‘yo qushlar ichidagi bo‘yni uzun kurkadekmen][1]. Shayx Abulhasan Ali b. Ahmadki, Shayx Abdulqodir q. s.ning ashobidindur, Jannat degan kentdin, anda hozir erdi, qo‘pti va dalqni boshidin chiqardi va dedi: meni qo‘yki, sening bila kurashay! Shayx Abdurrahmon tik turdi va ashobig‘a dediki,

bir qil uchi Tengri inoyatidin anda xole emas. Buyurdikim, dalqini kiygay. Ul dediki, bir nimaki, andin chiqdim, yana anga kirmasmen. Va kenti sari boqdi va zavjasig‘a biyik un bila xitob qildiki, to‘n kelturki, kiyay! Ul Jannat kentidin eshitib, aning uchun to‘n kelturdiki, ul kiydi.

569. Shayx Abu Amr Sarifiniy q. t. r.

Ul debdurki, mening ishimning bidoyati uldurki, bir kecha Sarifinda orqam bila yiqilib yotib erdim. Ko‘rdumki, havoda besh kabutar uchub o‘tub borurlar. Biri ayturki, [pokdir Alloh! Har bir narsaning asli manbai uning huzuridadir. U ularni aniq o‘lchov bilan bizlarga tushiradi][1]. Yana biri der erdiki, [pokdir Alloh! U barcha narsaga o‘z xilqatini – shaklini ato etib, so‘ngra uni to‘g‘ri yo‘lga solgan zotdir][2].

Yana biri der erdiki, [pokdir Alloh! U payg‘ambarin xalqqa hujjat qilib yubordi. Muhammad s. a. v.ni ularning afzali qildi][3]. Biri der erdiki, [Alloh va rasuli uchun bo‘lmasa, dunyodagi barcha narsa botildur][4]. Yana biri der erdikim, [ey xojasidan g‘ofil qolganlar, behisob mukofotlar berib, katta gunohlaringizni ham mag‘firat qiluvchi sahovatli zot – Parvardigoringizga qayting, shoshiling!][5]. Chun men bularni eshittim va ko‘rdum, behud bo‘ldum. Chun o‘zumga keldim, dunyoyu mofihoning muhabbati ko‘nglumdin chiqib erdi. Tong erta bo‘lg‘ach, Tengri bila ahd qildimki, o‘zumni bir pirga taslim qilay, to manga Tengri yo‘lin ko‘rguzsun! Va tebradim va bilmas erdimki, qayon borurmen. Bir pir yo‘liqdi, yaxshi yuzlug‘, haybatliq va viqorliq. Va dedi: Assalomu alayka, yo Abu Amr! Salomig‘a javob berdim. Va ont berdimki, sen kimsenki, mening otimni bilding va men seni tanimasmen? Dedi: men Xizrmen! Va Shayx Abdulqodir qoshida erdim, dedi, yo Abulabbos! Bu kecha biravga Sarifinda jazba yetibdur va qabul topibdur va yettinchi ko‘kdin anga nido yetibdurki: [Xush kelding, ey bandam!][6]: Tengri bila ahd qilibdurki, o‘zin bir Shayx taslimi qilg‘ay, aning sari bor va ani manga yetkur. [Ey Abu Amr, Abdulqodir bu davr oriflarining sayyidi, keyingilarning qiblasidir. Uning xizmatida bo‘lish, hurmat va ulug‘lash senga lozimdur][7]. Men chun o‘z holimg‘a hozir bo‘ldum va o‘zumni Bag‘dodda ko‘rdum. Va Xizr a. s. g‘oyib bo‘ldiki, yetti yilg‘acha ani ko‘rmadim. Chun Shayx Abdulqodir xidmatig‘a kirdim, dediki, [Marhabo, ey xojasi qush tili bilan dargohiga chaqirgan va barcha yaxshiliklarni uning uchun jam qilgan][8]. Ey Abu Amr, bot bo‘lg‘ayki, Tengri taolo sanga muride bergay, oti Abdulg‘ani b. No‘qtaki, martabasi ko‘p avliyoullohdin biyikrak bo‘lg‘ay. Tengri taolo aning bila maloyikaga mufoxarat qilg‘ay. Andin so‘ngra bir bo‘rk mening boshimg‘a qo‘ydi. Va aning xushlug‘i va sovug‘lug‘i dimog‘img‘a yetti va dimog‘din ko‘ngulga. Malakut manga kashf bo‘ldi. Eshittimki, olam va har ne andadur, Haq subhonahu va taolo tasbehin muxtalifa til bila aytadurlar, anvo’i taqdis bila. Yaqin erdiki, aqlim zoyil bo‘lg‘ay. Shayxning ilgida bir pora momuq erdi, manga urdi, aqlim o‘z holig‘a keldi. Andin so‘ngra meni necha xilvatqa o‘lturtti, vallohki, menga hech zohir bo‘lmag‘ay erdiki, burunroq manga xabar bermagay erdi. Har holg‘a va maqomg‘a va mukoshafayu mushohadag‘aki yettim, andin burunroq meni voqif qildi va meni ishlardin ogoh qildiki, ul degandin so‘ngra o‘ttiz yilg‘a yaqin surat tutti. Va ul manga xirqa kiydurgan bila men Ibn No‘qtag‘a xirqa kiydurganning orasidaki aytib erdi, yigirma besh yil bo‘ldi. Va har neki, Ibn No‘qta bobida dedi, taxallufsiz voqe’ bo‘ldi. Va ul Hazrat valoyat maobning xoriq odoti va xaqoyiqu maorifi andin ko‘prakdurki, qalam tili bila sharh qilsa bo‘lg‘ay. Alardin ba’zini Hazrat Maxdum n. m. n. «Nafahot ul-uns»da zikr qilibdurlarki, tilagan kishi, anda tilasa topar, vassalom.

570. Shayx Baqo b. Battu r. t.

Bu toifadin uluq va azim ush-sha’n kishidur. Va Shayx Abdulqodir Giloniy q. s. xidmatig‘a yetibdur Va alardin g‘arib holot naql qilurlar. Va Shayx Ali Haytiy va Shayx Abu Sa’d Qilaviy va Shayx Abun-Najib Suhravardiy va Shayx Jogir va Shayx Qazib ul-bon Mavsiliy va Shayx Abus-Su’ud boshlig‘ uluq mashoyixii ko‘rubdur va alarning suhbatig‘a yetibdur. Va ba’zi bila safarda rafiq bo‘lubdur va yana ba’zi bila hazarda yoru musobih bo‘lubdur. [Bu Allohning fazlu marhamati bo‘lib, o‘zi istaganiga berur][1].

571. Qazib ul-bon Mavsiliy q. s.

Kuniyati Abu Abdullohdur. Hazrat Maxdum n. m. n. «Nafahot ul-uns»da kelturubdurlarki, Shayx Muhyiddin Arabiy ba'zi rasoyilda debdurki, bu toifadin biz ba'zini ko'rubbizki, alarning ruhoniyat suratlari mutajassid va mutamassil bo'lur, jismoniyat suratlarig'a va ul mutajassida suratlarig'a af'olu ahvol o'tkarurlar, ko'rganlar sog'inurlarki, ul ahvol alarning jismoniya suvarig'a o'tadur. Va derlarki, falon kishini ko'rduk, mundoq dedi va andoq qildi. Va biz bu holni bu toifadin mushohada qilibbiz va muoyana ko'rubbiz va hol mundoqdur. Abu Abdulloh Mavsiliyki, Qazib ul-bong'a mashhurdur, kerakki, inkor qilmasangki, Haq taoloning asrori olam afrodida uluq va ko'pdurki, aql quvvati bila aning g'urining idrokin qilsa bo'lmas. Shayx Abdulloh Yofi'iy r. debdurki, ilm ahlidin biri manga xabar berdiki, fuqarodin birini ko'rmas erdilarki, namoz qilur bo'lg'ay.

Bir kun namoz iqomati qildilar va ul o'lturub erdi. Bir faqih inkor yuzidin anga dediki, qo'p va jamoat bila namoz qil! Qo'pti va ul jamoat bila namoz takbiri bog'ladi, avval rak'atni qildi va munkir faqih aning yonida erdi. Chun ikkinchi rak'atqa qo'ptilar, faqih anga nazar soldi, o'zga kishi ko'rdi va andin mutaajjib bo'ldi. Uchunchi rak'atda yana bir kishi ko'rdi, avvalg'i ikkidin o'zga. To'rtunchi rak'atda ul uch kishidin o'zga kishi ko'rdi. Chun salom berdilar, hamul faqirni ko'rdi. Ul faqir anga boqib, tabassum qilib dediki, ey Shayx, bu to'rt kishidin qaysi biri sizing bila namoz qildilar? Shayx Abdulloh Yofi'iy debdurki, Qazib ul-bon Mavsiliydin bu nav' ish voqe' bo'lubdur. Mavsiliyning ba'zi fuqahosining anga inkori bor erdi. Bir kun ul faqih ko'rdiki bir ko'chadin aning o'trusidin kelur. O'zi bila dediki, ani tutmoq kerak va qissasin hokim qoshig'a raf' qilmoq kerak, to ani siyosatqa yetkurgay. Nogoh ko'rdiki, bir kurd suratig'a aylandi. Yaqinroq kelgach, ani bir a'robiy surati bila ko'rdi. Yana yaqinroq kelgach, ani fuqahodin biri surati bila ko'rdi. Chun Qozig'a yetti, dedi: ey Qozi qaysi Qozib ul-bonni hokimg'a eltib, siyosatqa yetkurursen? Qozi inkoridin tavba qildi va murid bo'ldi. Shayx Abdulqodir q. s. qoshida dedilarki, Qazib ul-bon namoz qilmas! Dedi: demangki aning boshi doyim Ka'ba uyi eshikida sujuddadur.

572. Muhammad Avoniy Ibn ul-Qoid q. s.

Shayx Muhyiddin Abdulqodirning ashobidindur. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da Hazrat-Shayx Muhyiddin Arabiy q. s.din mundoq naql qilibdurlarki, «Futuhoti Makkiya»da bitibdurki, Shayx Abdulqodir ani Mufrad ul-hazrat der ermish va debdurki, Muhammad b. Qoid min al-mufradin. Ham «Futuhot» sohibidin naql qilibdurlarki, mufradun jamoatidurlar, qutb doyirasidin xorij. Xizr a. s. alardindur va Rasul s. a. v. bi'satdin burunroq alardin ermishlar. Ibn Qoid debdurki, barcha nimani keyin soldim va yuz Hazratqa kelturdum. Nogoh yuzum ollida bir ayog' nishoni ko'rdum, manga hayrat voqe' bo'ldi. Dedim: bu kimning ayog'ining nishoni erkinkim, hech kishini o'zumdin sobiq e'tiqod qilmas erdim. Dedilarki, sening Payg'ambaring s. a. v.ning ayog'i nishonidur. Ko'nglum taskin topti.

573. Abus-Su'ud b. Shabl r. t.

Ul ham Shayx Abdulqodirning ashobidindur. «Futuhot»da mazkurdurki, sodiqu siqa kishidin eshittimki, Shayx Abus-Su'uddinki, vaqtining imomi erdi, naql qildiki, dedi: Bag'dodda Dajla qirog'idin o'tar erdim. Ko'nglumga kechdiki, oyo suv ichinda andoq el bo'lg'aymu erkinki, Tengri ibodatig'a mashg'ul bo'lg'ay? Bu xotir ko'nglumga kirgach ko'rdumki, Dajla suyi shaq bo'ldi va birav bosh chiqardi va dedi: yo Abus-Su'ud, bale, suv ichinda eranlar borki, Tengri qullug'ig'a mashg'uldurlar va men alardinmen. Hazrat Maxdum n. m. n. «Fusus»din naql qilibdurlarki, Shayx Abus-Su'ud muridlarig'a dediki, o'n besh yildurki, Tengri manga mulkda tasarruf beribdur, ammo men tasarruf qilmaymen. Ibn Qoid bir kun andin so'rubdurki, ne uchun tasarruf qilmaysen? Debdurki, men tasarrufni o'ziga qo'yibmen, nechukki tilar, qilsun! Shayx Ruknuddin Alouddavla debdurki, go'riston bila o'tub borur erdim. Bir vayrona gunbaddin ishorate zohir bo'ldikim, bizing ziyoratimizga kel!

Emdiki bordim, manga vaqt xush bo‘ldi. Ul azizning ruhidin bu fayz yettikim, harne Tengridin sanga yetsa, qabul qil! Dedimki, qilg‘uluq bo‘lsa qilay. Dedi: bore bu kun bir nima yetar, qabul qil! Dedim: andoq qilay! Chun shahrg‘a keldim, bu holni Shayx Nuruddin Abdurrahmon xidmatida arz qildim. Dedilar: anda Shayx Abus-Su’uddir. Va aning tariqi bu ermishki, har ne Haqdin kelsa, qabul qilur ermish va rad qilmas ermish. Va mutakallif libos kiyar ermish va mutakallif g‘izo yer ermish. Va hech kishidin nima tilamas ermish. Bir kun birav aning qoshig‘a kiribdur. Ko‘rubdurki, boshida bir dastordurki, ikki yuz diramg‘a arzir. Ko‘nglig‘a kechibdurki, ajab isrofdurki, dastoriki aning bahosig‘a necha darveshning libosi hosil bo‘lg‘ay, bir darvesh ani boshig‘a chirmag‘ay. Shayx debdurki, biz muni o‘zlukumiz bila boshimizg‘a chirmamaydurbiz. Dastorni ul kishi ollig‘a solibdurki, agar sen tilarsen, bor va sot va harne olursen darveshlarga ol! Ul borib, sotib kelibdur va dastorni Shayxning boshida ko‘rubdur va mutaajjib bo‘lubdur. Shayx debdur, taajjub qilma va falon xojadin so‘rki, bu dastorni qaydin kelturubdur? So‘rg‘andin so‘ngra ul xoja debdurki, bultur kemada erdim, muxolif yel qo‘pti, nazr qildimki, salomat daryodin chiqsam, bir xub dastor Shayxqa had’ya kelturgaymen. Olti oydurki, Bag‘dodda ko‘nglum tilagandek dastor tilar erdim, bu kun ko‘zumga yo‘luqdi, oldim va nazrimg‘a vafo qilib, Shayx xidmatig‘a kelturdum. Shayx ul kishiga dediki, bilding, xudki bu nav’ dastorni yana birav bizing boshimizg‘a bog‘lar. Va Shayx Abus-Su’uddin bu nav’ holot ko‘p manquldur.

574. Shayx Abu Madyan Mag‘ribiy q. t. s.

Oti Shu’ayb b. Hasan, yo Husayndur. Bu toifaning akobiridindur. Va mashoyixdin ko‘p aning suhbatu xidmatida tarbiyat topibdurlar. Va alardin biri Hazrat Shayx Muhyiddin Arabiydur. Va musannafotida aning zikrin ko‘p qilur va haqoyiqu maorifin ko‘p kelturur. Va Imom Yofi’iy debdurki, Yamanning aksar shuyuxining Shayx Abdulqodirg‘a nisbatlari bor va ba’zining Shayx Abu Madyang‘a nisbatlari bor. Bu biri Mag‘rib shayxidur va ul biri, ya’ni Shayx Abdulqodir, Mashriq shayxi r. a. va n. b. Hazrat Maxdum n. m. n. «Futuhot»din naql qilibdurlarki, sohibe debdurki, avliyoning biridin eshittimki, dediki, bu toifadin biri shaytonni tush ko‘rub, so‘rubdurki, sening holing Shayx Abu Madyan bilaki, tavhidu tavakkulda imomdur, nechukdur? Dediki, qachon tilasamki, aning ko‘ngliga bir nima solg‘aymen, anga o‘xsharki, birav muhit daryosig‘a bavl qilg‘ayki, ul nopok bo‘lg‘ay. Ham «Futuhot»dadurki, xaloyiq iliglarin Shayx Abu Madyang‘a surtub, tabarruk tayammum jihatidin yuzlariga surtarlar erdi. Shayxdin so‘rdilarki, bu jihatdin o‘z nafsingda hech asar toparsen? Dedi: buki, Hajar ul-asvadni xaloyiq tabarruk jihatidin o‘parlar, ul o‘zida ne miqdor asar toparki, ani hajariyatdin chiqarg‘ay, ulki ani avliyoyu anbiyo o‘parlar, men dag‘i o‘shancha asar o‘z nafsimda toparmen va menda ham ul hukm bor.

Bir kun Shayx Abu Madyan Mag‘rib diyoridin bo‘ynini past qildi va anttikim, [ey Allohim, men eshitganim va itoat qilganimga seni va farishtalaringni guvoh qilamang][1]. Ashobe so‘rdilarki, bu so‘zning sababi ne erdi? Dediki, Shayx Abdulqodir bu kun Bag‘dodda dediki, [bu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo‘ynidadir][2].

Andin so‘ngra, ba’zi ashobi Shayx Abdulqodirning Bag‘doddii keldilar va xabar berdilar. Shayx ul so‘zni ham ul kun Bag‘dodda dedi. Har qachon Shayx Abu Madyan bu oyatni eshitsa erdiki, [Sizlarga juda oz ilm berilgandir][3], der erdiki, bu oz ilmki, Haq taolo bizga beribdur, bizing emasdur, balki oriyatdur bizda. Va andin ko‘piga yetishmaydurbiz. Pas, biz johillarbiz, alad-davom.

Bir qatla Shayx Abu Madyan daryo qirog‘ida borur erdi. Jamoate kuffordin ani asir qildilar va kemalarig‘a kivurdilarki, anda jamoate musulmonlarni asir qilib kivurur erdilar. Va bodbonlar torttilarkim, mulklarig‘a azimat qilg‘aylar. Kema yeridin qipranmadi, bovujude ulki, azim yel dag‘i borur erdi. Har necha jahd qildilar, foyda qilmadi. Dedilarki, hamono bu musulmon jihatidindurki, hali asir qilibbiz, shoyad sohibi botin kishi erkin. Shayxqa ijozat berdilarki, chiq va bor! Shayx dedi: to barcha musulmonlarni qo‘ymassiz, men ham chiqmasmep! Hech chora topmadilar barchani qo‘ymoqdin o‘zga va barini Shayxning muborak himmati barakotidin asirlikdin ozod qildilar, filhol

kemalari ravon bo‘ldi. Ul debdurki, [Haq oshkor bo‘lgan vaqtda undan boshqasi qolmaydi][4]. Va ham aning so‘zidurkim, [ko‘ngilning faqat bir qiblasi bordir. Har bir qiblaga yuzlanaversa, boshqasidan quruq qoladi][5]. Va ham ul debdurki, [kimning nafsidan bir miqdor qolgan bo‘lsa ham haqiqiy hurriyatga erisholmaydi][6].

Sh ye ‘ r:

[O‘z ra’yingcha botilni inkor ztma, chunki u ham Haq zuhurotlaridan. Xudoning isbotini to‘la anglash uchun botilni o‘z andozasida tani!][7].

Besh yuz to‘qsonda olamdin o‘tubdur.

575. Abulabbos b. Arif, Sanhojiy Andalusiy r. t.

Oti Ahmad b. Muhammaddur. Olim erdi ulumg‘a va orif erdi qiroat vujuhig‘a va jame’ rivoyatda mutanohiy. Va muridlar va muxlislar ko‘p xidmatida yig‘ildilar. Zamon podshohig‘a andin xavfe paydo bo‘ldi, ani tilatti. Yo‘lda favt bo‘ldi, besh yuz o‘ttiz oltida. «Futuhoti Makkiy» sohibi o‘z shayxi Abu Abdulloh G‘azzoliydin, naql qilibdurki, ul debdurki, bir kun o‘z Shayxim Ibn Arif qoshidin chiqdim va yozida sayr qilur erdim. Har daraxt va giyohg‘aki yetar erdim, manga aytur erdiki, mendin olki, falon illatqa nofe’durmen va falon zararg‘a dofe’. Va manga ul holdin hayrate yuzlandi. Shayx xidmatig‘a yondim, dag‘i bu voqeani arz qildim; Shayx dedilarki, biz aning uchun seni tarbiyat qilmaydur erduk. [Vaqteki, daraxtlar sanga foyda va zarar keltirishlarini so‘yladilar, sen nega haqiqiy foyda va zarar yetkaruvchi Haqni unutding?][1]. Shayx dedi: Tengri taolo seni imtihon qilib sinabdur, yo‘q ersa, biz seni Tengri taolog‘a rahnamunluq qilduq, yo‘q aning g‘ayrig‘a. Sening tavbangning sidqi alomati uldurki, hamul mavzeg‘a qaytib borg‘ay sen va ul daraxtu giyohlar sanga ul so‘zni demagaylar. Shayx Abu Abdulloh qaytib ul mavzeg‘a bordi va ul ashyodin ul so‘zlarni eshitmadi va qaytib shayxig‘a aytti. Shayx dediki, [seni o‘zingga o‘xshagan bir maxluqqa muhtoj qilmasdan o‘zi uchun tanlagan Allohga hamd bo‘lsin!][2]. Vafot etgan sanasi besh yuz o‘ttiz oltinchi yil.

576. Aburrabi’ Kafif Molaqiy r. t.

Abulabbos b. Arifning ashobidindur. Bir kun bir ashobiga dediki, masalan, agar ikki kishi bo‘lsa va har qaysida o‘n diram bo‘lsa, alardin biri bir diram sadaqa qilsa va to‘qquz diramni asrasa va yana biri to‘qquz diramnn sadaqa qilsa va bir diramni asrasa, qaysi fozilroqdur? Dedilarki, ulki, to‘qquz diramni sadaqa qilg‘ay; Shayx dediki, ne uchun bu fozilroqdur? Ashob dedilarki, aning uchunki, ko‘proq tasadduq qilibdur. Shayx dedi: ulcha dedingiz, yaxshidur! Ammo mas’alaning ruhini bilmadingiz va sizga maxfiy qoldi. Dedilarki, ul qaysidur? Dedi: ulki biz ikkalasini teng bergan farz qilduk, ulki ko‘prak berdi, aning faqrg‘a kirgani burunroqdur, andinki, ozroq veribdur, pas, aning faqrg‘a nisbati ortig‘roq bo‘lg‘ay, bu jihatdin ul afzal bo‘lg‘ay. Hadis voriddur bu ma’nog‘akim, yetmish ming qatla «Lo iloha illalloh». demakka aytquchining najotig‘a yo har kishiki, aning niyatig‘a o‘qilmish bo‘lg‘ay, tamom asari bor.

Shayx Aburrabi’ Molaqiy debdurki, men bu zikrni der erdim va lekin ne o‘zumg‘a va ne kishiga muayyan qilmaydur erdim, to bir kun biravning moida taomig‘a hozir bo‘ldum; bir jamoat bila. Va alar orasida tifle erdi sohibi kashf. Ilig taomg‘a kim eltti yig‘lamoqqa tushdi. Sababin so‘rdilar, dediki, do‘zax manga mushohiddur, anda onamni ko‘radurmenki, azob qiladurlar. Shayx Aburrabi’ debdurkim, botinimda dedimki, Xudovando, sen voqifsenkn, yetmish ming qatla «Lo iloha illalloh» zikrin aytibmen, ani bu tiflning onasi do‘zax o‘tidin xalos bo‘lurg‘a muayyan qildim. Chun bu niyatni ko‘nglumda qildim, ko‘rdumki, tifl kulaboshladi va shodmonlig‘ qildi. Yana sababin so‘rdilar, dediki, onamni-ko‘radurmenki, do‘zax o‘tidin xalos bo‘ldi, alhamdulillah! Pas, taom yemakka mashg‘ul bo‘ldi. Shayx Aburrabi’ derkim, manga bu hadis sihhati ul tifl kashfidin va ul go‘dak kashfi sihhati nabaviy, hadisidin ma’lum bo‘ldi.

577. Adiy b. Musofir Shomiy summa Hakkoriy q. s.

Shayx Uqayliy Manbijiy va Shayx Hammod Dabbos bila suhbat tutubdur. Anga ko‘p xaloyiq jam’ bo‘ldilar. Hakkoriya tog‘idaki, Mavsil tavobindindur, xalqdin munqati’ bo‘ldi va anda zoviyae bino qildi. Va ul diyor ahli murid va mu’taqid bo‘ldilar. Va anga oyotu karomot va xoriqi odot asru ko‘pdur. Besh yuz ellik yettida dunyodin o‘tubdur. Va qabri ham ul diyorda mutabarrik mozordindur, yuzoru va yutabarraku bihi.

577. Saydiy Ahmad b. Abulhasan Rifo’iy q. s.

Imom Muso Qozim r. a.ning buzurgvor avlodidindur. Va xirqada nisbati besh vosita bila Shayx Shibliy q. s.g‘a yetar. Aning ta’rifidin qalam tili ojizdur. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da ba’zi holotidin shammae zikr qilibdurlar, tilagan kishi anda boqsun. Ba’zi holotidin juzve munda zikr qililur. Agar alardin kishi ta’viz tilasa erdi, kog‘az keltursa erdi va siyohe kelturmasa erdi, ul kog‘azni olib, siyohisiz anga ta’vizni raqam qilurlar erdi. Bir qatla birav uchun ushbu mazkur bo‘lg‘on dastur bila siyohsiz bitib erdilar.

Ul kishi muddate madid g‘oyib bo‘ldi va muddatdin so‘ngra hamul oq kog‘azni imtihon uchun kelturdiki, ey Shayx, mening uchun ta’viz biti! Chun ul kog‘azg‘a boqtilar, dedilar, ey farzand, bu kog‘az bitilgandir va anga berdilar. Bir kun alarning ashobidin ikki kishi yozida erdilar. Biri yana biridin so‘rdiki, bu muddatdaki alar mulozamatidasen, ne hosil qilibsen? Ul dedi: matlubing nedur? Dedi: buki, osmondin do‘zax o‘tidin xaloslig‘ barotim tushgay. Bu so‘z aytur vaqtda osmondin bir oq varaq tushti. Olib alar qoshig‘a kelturdilar. O‘tgan holdin Shayx nima demadi, alarg‘a berdilar. Alar ul varaqqa boqqach sajda qildilar. Chun bosh sajdadin ko‘tardilar, dedilarki, [oxirat bo‘lmasdan, shu dunyoning o‘zida ashobimni o‘tdan xalos etib, menga ko‘rsatgan Allohga hamd bo‘lsin!][1]. Dedilar, yo Saydiy, bu oq varaqdur! Alar dedilarki, qudrat iligi siyohi bila bitilmas, bu nur bila bitilibdur. [Alloh undan rozi bo‘lsin! Besh yuz yetmish sakkiz sana jumodul avval oyining payshanba kunida vafot etdi][2].

579. Hayot b. Qays Harroniy r. t.

Ul to‘rt kishidin biridurkim, Shayx Abulhasan Furaysiy debdurkim, mashoyixdin bular o‘z qabrlarig‘a tasarruf qilurlar, andoqki, ihyo qilurlar. Biri Shayx Ma’ruf Karxiydur va biri Shayx Abdulqodir Giloniy va biri Shayx Uqayliy Manbijiy, biri Shayx Hayot Harroniy q. t. a. Sulahodin biri debdurkim, Yamandin kemaga o‘lturduk. Chun Hind daryosig‘a yettuk, muxolif yel qo‘pti va kemani ushatti. Va men bir taxta poraga qoldim va bir jazirag‘a chiqdim. Hech kishi yo‘q erdi va ko‘p xarobalar erdi. Nogoh bir masjidqa yettim, kirdim. To‘rt kishi o‘lturub erdilar. Salom, dedim. Javob berdilar, holimni so‘rdilar, ayttim. Oqshomg‘acha alar bila erdim. Chun oqshom bo‘ldi, Shayx Hayot Harroniy keldi. Ul jamoat yugurub, salom qildilar. Ilgari brrdi, xufton namozin jamoat bila qildilar. Va fajr tulu’ikacha namozda erdilar. Va Shayx Hayot munojotqa turdi va dedi: [Ey tavba qiluvchilarning mahbubi va ey oriflarning sururi va ey obidlarning ko‘z nuri va ey yolg‘izlarning munisi va ey panoh tilovchilarning panohi va ey chorasizlar ko‘makchisi va ey sodiqlar qalbi unga tikilgan, ey muhiblar ko‘ngliga munis bo‘lgan va qo‘rqadiganlarning himmati unga bog‘langan zot!][1].

Andin so‘ngra yig‘lay boshladi. Ko‘rdumki, anvor zohir bo‘ta kirishti, dag‘i Shayx Hayot masjiddin chiqdi. Ul jamoat manga dedilarki, Shayx keynicha bor. Men Shayx keynicha erishtim. Ko‘rdumki, biyobon va tog‘ va daryo oyog‘i ostida nurdiyda bo‘ladur. Bildimki, tayyi arzdur. Har gomda der erdiki, [Yorab, Hayotga hayot ber!][2]. Oz zamonda Harrong‘a yettuk. Va Shayx Hayot Harronda sokin ermish. Anda dunyodin besh yuz sakson birda o‘tubdur.

580. Shayx Jogir q. t. r.

Shayx Abulvafo anga sano debdur va o‘z bo‘rkin Shayx Aliy Haytiydin anga yuboribdur va anga tilamak taklifi qilmaydur. Va debdurki, men Tengridin tiladimki, Jogir mening muridlarimdin bo‘lg‘ay.

Tengri ani manga bag‘ishladn. Va Shayx Jogir aslan kurdlardin erdi. Iroq vodiylaridin birida Somarraning bir kunchilikida mutavattin bo‘ldi va anda besh yuz to‘qsonda dunyodin o‘tti. Va ul debdurki, [kimki ulug‘ va aziz Allohni sirrida mushohada qilsa, borliq uning qalbidan soqit bo‘ladi][1].

581. Shayx Abu Abdulloh Muhammad b. Ibrohim Qurashiy Hoshimiy q. s.

[Oriflar imomi, soliklar rahnamosi, faxrli ahvol va zohir karomotlar sohibi]1. Ul debdurki, bir kun Minoda erdim va suvsiz bo‘ldum, hech yerda suv topmadim. Va menda hech nima yo‘q erdiki, suv olg‘aymen. Borur erdim, to bir choh topib, andin suv tortqaymen. Chohe toptimki, Ajam ahli anda yig‘ilib erdilar. Alardin biriga dedimki, bir miqdor suv bu rikvaga sol! Meni urdi va iligimdin rikvani olib tashladi. Va men shikasta xotir bordimki, rikvani olg‘aymen. Ko‘rdumki, bir bo‘rkada chuchuk sudur. Ul sudin oldim va ichdim va rikvag‘a su to‘ldurub, ashob qoshig‘a kelturdum. Borcha andin ichdilar. Va ul holni alarg‘a ayttim. Anda bordilar, to su olg‘aylar. Ne su toptilar va ne andin asar. Bildimki, inoyate erkandur, ilohiy.

582. Abulhasan Ali b. Humayd Sa’idiy q. s.

Baland holot va arjumand karomot sohibi erdi. Otasi bo‘yoqchi erdi. Tilar erdiki, ul ham sabbog‘lig‘im o‘rgangay. Anga og‘ir kelur erdiki, ul darveshlar suhbatig‘a borur erdi. Va alar tariqasin varzish qilur erdi. Va ul ishdin qolur erdi. Bir kun otasi buyurg‘on to‘nlug‘larni bo‘yamaydur erdi.

Otasi achig‘landi. Va do‘konda tog‘oralar erdi, har birida o‘zga rang. To‘nlug‘larni borchasin bir zarfqa soldi otasining g‘azabi ortti va dediki, ko‘rdungki, ne ish qilding? Bularning iyalari har birin o‘zga rang buyurub erdilar. Ul ilig ul zarfqa urub barchani chiqardi va har qaysini neki buyurub erdilar, hamul rang olib, otasi iligiga berdi. Chun otasi ul g‘arib holni ko‘rdi, ani Tengri yo‘li sulukida qo‘ydi. Va ul sulukda martabasini derlarki, ul yerga yettiki, murid va ashobi bag‘oyat ko‘p bo‘ldi. Ammo har kishi otiniki Lavhi Mahfuzda ko‘rmas erdi, muridliqqa qabul qilmas erdi. Va ul olti yuz o‘n ikkida dunyodin o‘tubdur.

583. Abu Ishoq b. Zarif q. s.

Hazrat Shayx Muhyiddin Arabiy q. s. mashoyixidindur. Shayx «Futuhot»da debdur, ul buzurgroq mashoyixdindurki, men ko‘rubmen. Ul debdurki, alarki meni tanirlar avliyoullohdurlar. Dedilar, nechuk, yo Abo Ishoq? Dedi: aning uchunki, alar ikki holdin tashqari emaslar, yo uldurki, mening haqqimda xayr va yaxshilik derlar, yo aning g‘ayri. Agar xayr va yaxshilik ayturlar, manga sifat demaslar, magar ul nimakn alarg‘a sifat bo‘lmish bo‘lg‘ay. Agar alar ul sifat mahali bo‘lmag‘an bo‘lsalar erdi, meni andoq sifat qilmag‘aylar erdi. Pas, bular mening qoshimda avliyoullohdindurlar. Va agar mening haqqimda yomonlig‘ va shar ayturlar, alar farosatu kashf sohibidurlarki, Xudoyi taolo alarg‘a, mening holatimg‘a ittilo’ beribdur, pas, alar ham avliyoullohdindurlar.

584. Ibnul-Foriz Hamaviy Misriy q. s.

Kuniyatlari Abu Hafsdur va otlari Umar. Va baniy Sa’d qabilasidindurlarki, Halima r. a. Hazrat Risolat s. a. v.ning murzi’asn andindur. Hamaviyul-asl ermish va Misriyul-mavlid. Otasi Misr ulamosining akobiridin erdi. Va aning farzandi Sayyid Ka-moluddin Muhammad debdurki, ul debdurki, avvalkim, sayohat va tajridqa otamdin ijozat olur erdim va Misr tegrasida tog‘lar va vodiylarda kezar erdim va aning qoshig‘a kelur erdim va aning xotiri murooti uchun bir kecha-kunduzga yaqin aning qoshida bo‘lur erdim va yana ham ul sayru sulukka borur erdim. Chun otam Tengri hukmin butkardi, bilkulliya o‘zumnn Tengri yo‘li sulukiga bog‘ladim, ammo bu tariqdin hech nima fath bo‘lmas erdi.

Bir kun Misr madorisidin birida kezar erdim, ko‘rdumki, madrasa eshikida bir qari baqqol erdi. Vuzu’ qiladur erdi va mashru’ tartibi bila qilmaydur erdi. Avval iliglarin yudi va andin so‘ngra ayog‘larin, andin so‘ngra boshig‘a mash tortti va andin so‘ngra yuznni yudi. Men o‘zumga dedimki, ajabdur bu

qaridinki, bu kibari sinda va Islom diyorida ulamo orasida madrasa eshikida vuzu’ qiladur va mashru’ tartibi bila emas. Ul mening sari boqib dediki, ey Umar, sanga Misrda hech fathe bo‘lmas, fatheki sanga bo‘lur, Makka va Hijoz tarafidin bo‘lg‘usidur. Ul yon qasd qilki, sening fathing vaqti yetibdur. Bildimki, ul avliyoullohdindur va murodi ul nav’ vuzu’dii talbisu jahl izhori va o‘z holining satridur. Qoshida o‘lturdum va dedim yo sayyidi, men qayda va Makka qayda? Haj mavsumi emas va hech hamrohu rafiq yo‘q. Iligi bila ishorat qildi va dedi iynak Ka’ba ko‘zung ilayida! Chun nazar qildim, Makkani ko‘rdum. Ani qo‘ydum, dag‘i yuz Makkaga qo‘ydum va Makka ko‘zumdin yana g‘oyib bo‘lmadi. Va anda sulukka mashg‘ul bo‘ldum. Futuh abvobi yuzumga ochildi va osori mutarodif bo‘ldi. Va Makkaning tog‘ va vodiylarida sayohat qilur erdim, to ulki bir vodiyda muqim bo‘ldumki, andin Makka o‘n kupchalik yo‘l erdi. Saloti xamsaqa; jamoatqa hozir bo‘lur erdim. Bu nav’ bila o‘n besh yil o‘tkandin so‘ngra nogoh bir kun ul qari baqqolning uni manga keldikim, [ey Umar, Qohiraga kel, vafotimga hozir bo‘l!][1]. Ta’jil bila anga keldim, ko‘rdumki, muhtazardur. Salom qildim, ul ham salom qildi. Va bir necha diram manga berdiki, munung bila mening takfin va tajhizimni qil! Va tobutum hammollarig‘a har qaysig‘a birar diram bergil va Qirofadin falon mavze’g‘a itkil! Derlarki, hamul mav-ze’durki, Shayx Ibn Foriz holo anda madfundur. Pas, dedi: mening tobutnmni anda qo‘y va muntazir bo‘lki, birav tog‘din tushub kelgay, aning bila namoz qil va muntazir bo‘lki, Tengridin ne kelgay? Ul vafot qildi: va aning vasiyati bila amal qildim. Va tobutni ul yerdaki deb erdi, qo‘ydum. Ko‘rdumki, birav tog‘din inib keldi qushdek ta’jil bila. Va dedi: ey Umar, ilgari borki, namoz qilali! Ilgari bordim, namoz qilurda ko‘rdum, bizing bila osmon orasida yashil va oq qushlar namoz qiladurlar. Chun namozdin forig‘ bo‘lduk, bir-azimulxilqa yashil qush ul qushlar orasidii indi va tobut qoshida o‘lturdi va tobutnn yutti va uchub o‘zga qushlarg‘a qo‘shuldi. Va tasbih o‘quy borurlar erdi, to nazardin g‘oyib bo‘ldilar. Men mutaajjib bo‘ldum. Ul kishi dedi: [Ey Umar, eshitmaganmisan, shahidlar ruhi jannatning xohlagan yerida sayr qiladigan yashil qushlar ichida bo‘ladi. Bular qilichdan shahid bo‘lganlar. Ammo muhabbat shahidlarining jasadlari ham, ruhlari ham yashil qushlar ichida bo‘ladi. Bu kishi ulardandir, ey Umar!][2]. Men ham alardin erdim va mendin zillate vujudqa keldi va meni alarning orasidin surdilar va holo bozorlarda manga silliy urarlar va ul zillat uchun ta’dib qilurlar. Va Shayx ibn Forizg‘a devoni she’rdur arabiy tili bilaki, mushtamildur, maorif uyunig‘a va latoyif fununig‘a. Va bir qasida andin «Toiyya»durki, yetti yuz ellik bayt kami besh bo‘lg‘ayki, [bu qasida so‘fiy mashoyixlari, ulardan tashqari fozillar, olimlar va haqiqat ahli o‘rtasida ham shuhrat tutdi][3]. Sayru sulukdin so‘ngra ulumi dunyoyi haqoyiqi va maorifi yaqiniya daqoyiqidin o‘z zavqu kummali avliyoyu akobir va mashoyix muhaqqiqlari ravvahallohu taolo arvohahum ajma’in azvoqidin jam’ qilibdur. Va bu nav’ nazm royiqu foyiq kishiga muyassar bo‘lmaydur. Va hech kishiga fazlu hunar ahlidin maysur, balki ko‘prak nav’i basharg‘a maqdur emas. Va Shayxning fazoyilu kamoloti ulumu maorifi a’lo marotibidin, balki karomotu valoyati a’lo darajasida shar’din tashqaridur va ta’rifdin mustag‘niydur. Andin biror nima voqif bo‘lmak tilagan Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul uns»in ochib, mutolaa qilsun. [Alloh undan rozi bo‘lsin, olti yuz o‘ttiz ikkinchi yil jumodul-avval oyining ikkinchisida vafot etdi][4].

585. Ibrohim b. Mi’sor Ja’bariy q. s.

Kuniyati Abu Ishoqdur. Oyoti zohira va maqomoti foxira sohibidur. Mazhabi mahvi kulli va nafy vujud va iflosu nodosht emish. Shayx Abdulqodir Giloniy q. s. debdur: [Men daraxt shoxlarida xursandchilik qiluvchi poloponlar bulbuliman va samolarda oq lochinman]1. Shayx Ibrohim aning muqobalasida debdurki, [Men g‘uslxona o‘rasini anqitadigan qushman va sahrodagi qo‘tir itman][2]. Bir kun aning shogirdlaridin biri kirdi va dedi ikki bayt eshitibmen va manga asru xush kelibdur. Shayx so‘rdiki, qaysi ikki baytdur? Ul o‘qidi.

Sh ye ‘ r:

[Bir nasihatgo‘y menga aytdi: Nozu kibrini haddan oshirib yuboradigan mahbuba uchun umringni behuda isrof qilibsen. Unga aytdim: malomatim bas qil! Men unga shu qadar mashg‘ulmanki, hijronu visoldan forig‘man][3].

Shayx Ibrohim anga dediki, bu sening maqoming ham emas, sening piringning ham. Debdurlarki, chun ajal yetti, o‘z qabrining mavze’ig‘a keldi va dediki, [ey, qabrgina, Zubayr senga keldi][4]. Va anda muqim «bo‘ldi, onsizki, anga za’fe va maraze bo‘lg‘ay va anqarib Tengri jivori rahmatig‘a vosil bo‘ldi. [Olti yuz to‘qson yettida vafot etdi][5].

586. Shayx Muhyiddin Muhammad b. Ali b. Arabiy h. s.

Vahdati vujud qoyillarining qudvasidur. Zohir fuqaho va ulamosidin ko‘p anga ta’n qilibdurlar. Fuqahodin oz va so‘fiydin jamoate ani buzurg tutubturlar. [Uni yuksak ehtirom bilan ulug‘ladilar, so‘zlarini maqtab, madh etdilar, baland martabasini sifatladilar, behisob karomotlaridan xabar berdilar. Imom Yofi’iy r. o‘z tarixida shunday zikr qilgan][1]. Alarg‘a ash’ori latif, g‘arib va axbori nodir ajib bor. Va musannafotlari ko‘p bordur. Bag‘dod mashoyixidin birisi alar manoqibida kitobe jam qilibdur. Va anda kelturubdurki, alarning musainafoti besh yuzdin ortlqroqdur va Hazrat Shayxning ba’zi ashobining iltimosi bila o‘z musannafoti fihrastida risola bitibdurlar. Anda ikki yuz ellikdin ortiqning otin mazkur qilibdurlar, ko‘praki tasavvufda.

Va ul risolaning xutbasida debdurlarki, mening qasdim bu kutub tasnifida soyir musanniflardek tasnifu ta’lif emas erdi, balki ba’zig‘a sabab bu erdikim, manga Haq subhonahudin amre vorid bo‘lur erdikim, yaqin bo‘lur erdikim, meni kuydurgay. Uzumni alardin ba’zining bayonig‘a mashg‘ul qilur erdim. Va ba’zig‘a sabab ul erdikim, yo voqe’da, yo mukoshafada haq subhonahu va taolo qoshidin anga ma’mur bo‘lur edim. Va Imom Yofi’iy tarixida mazkurdurkim, alar bila Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s.g‘a muloqot ittifoqi voqe’ bo‘lubdur. Va ba’zi akobir dedilarki, ul muloqot Haram tarafida ekandur. Har biri alardin yana biriga nazra qilib o‘tushubdurlar, onsizki oralarida kalome voqe’ bo‘lg‘ay. Andin so‘ngra Shayx Shihobuddin holini alardin so‘rubdurlar. Alar debdurlarki, [u boshdan oyog‘iga qadar sunnat bilan to‘ladir][2]. Shayx Shihobuddindin alarning holini so‘rubdurlar. Debdurki, [u haqiqatlar dengizidir!][3]. Ba’zi buzurgvordin andoq eshitildiki, Haram soyasida suhbat tutubdurlar. Va Shayx Shihobuddin ul Hazratdin necha savol qilibdurlar. Ba’zig‘a javob beribdurlar va ba’zig‘a debdurlarki, Tubo daraxti soyasida javob bergumizdur. Bu so‘z bila bir-biridin ayrilishibdurlar. Va alarning xirqalari nisbati bir voskta bila Hazrat Shayx Abdulqodir Giloniy q. s.g‘a yetar. Va yana bir nisbatlari bir vosita bila Xizr a. s.g‘a yetar. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-unoda bu nav’ debdurlarki, to’inlarning ulug‘roq ta’ni alarg‘a «Fusus ul-hikam» kitobidur. Va hamonoki, alarning ta’nining maysha’i yo taassubdur, yo ittilo’lari adami, alarning mustalahotig‘a yo maoniy yo haqoyiq rumuziki tasniflarida darj qilibdurlar, bataxsis «Fusus»da va «Futuhot»da. Va bu ma’no ul martabadadurkim, bu toifadin hech qaysmning hech kitobida topilmas. Ham ul Hazrat debdurlarki, bu faqir Xoja Burhonuddin Abu Nasr Porss q. r. din bu nav’ istimo’ qilibmenki, der erdilarki, bizing volidimiz buyururlar erdiki, [«Fusus» – jondir, «Futuhot» – dil][4]. Har yerdaki alarning buzurgvor volidlari «Fasl ul-xitob» kitobida [oriflarning ba’zi ulug‘lari]5 debdurlar, murodlari alardur. Hazrat Maxdumiy n. m. n. alarning musannafotidin «Fusus»ni sharh qilibdurlar. Andoqki, aning ta’rifini qilmoq bu faqirdek bebizoatlarning haddi emas. Va «Futuhot»ni doim mutolaa qilurlar va o‘z musannafotlarida «Futuhot»din ko‘p kelturubdurlar. Va Hazrat Shayx ta’rifida «Nafahot ul uns»da ko‘p so‘zlar debdurlar. Tilagan kishi anda topar. [Shayx r. besh yuz oltmishinchi yil Ramazonning o‘n yettisi dushanba kechasi Andalusning Mursiya degan shahrida tug‘ildi. Olti yuz o‘ttiz sakkizinchi yil Rabi ul-oxir oyining yigirma ikkisi juma kechasi Damashqda vafot etdi. U shahar tashqarisidagi Qosyun tog‘ etagida dafn qilindi]6. Va holo ul mavze’ Solihiyag‘a mashhurdur.

587. Shayx Sadruddin Muhammad b. Ishoq b. Qo‘nyaviy q. r.

Kuniyati Abulmaoliydur. Zohir ulumi va botin ulumi orasida jome’ ermish va aqliyu naqliy ulumda.

Aning bila Xoja Nosiruddin Tusiy orasida as’ilavu ajviba voqe’ bo‘lubdur. Va Mavlono Qutbuddin Allomai Sheroziy hadis ilmida aning shogirdidur. «Jomi’ ul-usul» o‘z xatti bila bitib, aning qoshida o‘qubdur va iftixor qilur erkandur. Va bu toifadin Shayx Mu’ayyaduddin Jandiy va Mavlono Shamsuddin Egiy va Shayx Faxruddin Iroqiy va Shayx Sa’iduddin Farg‘oniy q. a. va g‘ayrihi akobirdin ko‘p buzurglar aning tarbiyati huzurida ermishlar. Va Shayx Sa’iduddin Hammuyi bila ko‘p suhbat tutubdur va andin savollar qilibdur; Va uluq Shayx r. alul vaqtki, Mag‘rib bilodidin Rumg‘a mutavajjih erdi va ba’zi mushohidi aning valodati chog‘i aning iste’dodi va ulumi va tajalliyot va ahvolu maqomot va har ne umr muddatida va muforaqatdin, so‘ngra barzaxda va barzaxdin so‘ngra anga o‘tubdur va o‘tkuzibdur va barchag‘a mukoshif bo‘ldi va Qo‘nyag‘a yetti. Aning valodatidin so‘ngra va otasining vafotidin so‘ngra onasini Shayx o‘z nikohi aqdig‘a kiyurdi. Va ul Shayxning xidmatu suhbatida tarbiyat topti. Ul Shayx kalomining naqqodidindur. Va Shayxning maqsudi vujud mas’alasi vahdatida bir vaj bilaki, aqlu shar’ muvofiqi bo‘lg‘ay, aning tahqiqoti tatabbu’idin ayru fahm bo‘lmoq muyassar emas Va aning musannafoti bor «Tafsiri Fotiha» va «Miftoh ul-g‘ayb»dek va «Nusus» va «Fukuk» va hadis sharhi, «Nafahoti ilohiya» kitobiki, o‘ziga voqe’ bo‘lg‘on voridotdin ko‘p anda zikr qilibdur. Va har kishi tilasaki, bu tariqda aning kamolotidin ittilo’ topqay, ani mutolaa qilsun. Shayx Sadruddin bila Mavlono Jaloluddii Rumiy q. s. bila suhbat ixtisosi va muhabbat ko‘p ermish. Bir kun azim majlis ermish va Qo‘nya akobiri jam’ va Shayx Sadruddin suffa sadrida sajjoda ustida o‘lturub ermishki, Mavlono Jaloluddin kirar. Shayx sajjodadin qo‘pub, o‘z o‘rnin Mavlonog‘a qo‘yar. Va Mavlono o‘lturmas va derki, qiyomatda ne javob berayki, Shayxning sajjodasida nevchun o‘lturdum. Shayx derki, bir go‘shada siz o‘lturung, bir go‘shada biz. Ham Mavlono o‘lturmadi. Shayx dediki, sajjodayiki sizing o‘lturungizg‘a yaramas, bizing dag‘i o‘lturumizg‘a yaramas va arodin ko‘tartti. Mavlono Shayxdin burun olamdin o‘tubdur. Va Mavlono vasiyati mujibi bila alarg‘a namoz qilibdur. Debdurlarki, Shayx Sharafuddin Qo‘nyaviy Shayx Sadruddin q. s.din so‘rubdurki, [qaerdan qayoqqa borasiz va o‘rtada nima hosil bo‘ladi?][1]. Shayx javob berdiki, [ilmdan aslga boramiz. O‘rtada hosil bo‘lgani dunyoviylik va ilohiylik hukmi bilan zohir bo‘lgan ikki tarafni birlashtiruvchi nisbatni yangilashdir][2].

588. Shayx Mu’ayyaduddin Jandiy q. s.

Shayx Sadruddin Qo‘nyaviyning shogirdlaridindur. Jomi’ erkandur zohir ulumi bila botin ulumig‘a. Va Shayxi buzurgvor Shayx Muhyiddin q. r.ning kutubidin «Fusus ul-hikam» va «Mavoqi’ un-nujum»ga sharh bitibdur. Va barcha shorihlar sharhining ma’xazi aning sharhidur. Ul debdurki, o‘z shayxim Sadruddindin eshittimki, ulug‘ Shayx hazratlari, ya’ni Shayx Muhyiddin q. s.g‘a Xizr a. s. bila muloqat voqe’ bo‘ldi. Xizr a. s. dediki, Muso b. Imron s. r. a. uchun valodati kunidin aning bila ijtimo’ kunigacha ming mas’ala aning uchun muhayyo qilib erdim. Ul alardin uch mas’alag‘a sabr qila olmadi. Va ishorat bu ma’nog‘adur, ulki Hazrat Risolat s. a. v. buyurubdurki, [koshki, birodarim Muso sukut qilsa ediyu, Haq bizga ikovlari haqida hikoyat qilsa edi][1]. Va anga Ibn Foriz r. tariqi bila haqoyiqu maorif bayonida latif arabiy ash’ordur. Va ul jumladin Shayx Faxruddin Iroqiy q. s. bu ikki baytni «Lama’ot»da kelturubdur. Va ul budurki,

sh ye ‘ r:

[Bu daryo o‘sha qadim daryodirkim, hodisalar uning mavjlari va irmoqlaridir. Uning pardasidak ko‘rinadigan zohiriy suratlar seni aslo to‘sib qo‘ymasin!][2].

589. Shayx Sa’iduddin Farg‘oniy r. t.

Ul irfon arbobining mukammali va zavqu vijdon ashobining akobiridindur. Shayx Ibn Foriz q. s.ning «Toiya» qasidasig‘a sharhi bor. Hech kim haqiqat ilmi bayonin andoq marbut va mazbut bayon qilmaydurki, qasida debochasida ul oni forsin iborat bila bitibdur va o‘z shayxi Shayx Sadruddin

Qo‘nyaviyg‘a arz qilibdur va shayx ko‘p istihson qilib, ul bobda bir nima bitibdur va Shayx Sa’id shayxning bitkonin biaynihi tabarruk va tayammum jihatidin sharhining debochasida kelturubdur va soniyan fonda ta’mimu tatmimi uchun arabiy iboratqa naql qilibdur. O‘zga favoyid ham anga mazid qilibdur. [Allohu taolo uni toliblarning eng yaxshi mukofoti bilan siylasin!][1].

«Manohij ul-ibod ilal mi’od» otlig‘ kitobida kelturubdurki, muridlar intisobi mashoyixqa uch tariyq biladur: biri xirqa bila, ikkinchi zikr talqini bila va uchunchi xizmat va suhbat va aning odobi bila. Va xirqa nisbati ikkidur: biri irodat xirqasi va ani bir-shayxdin o‘zgadin olmoq ravo emas va yana biri tabarruk xirqasi. Va ani ko‘p mashoyixdin tabarruk uchun olmoq ravodur va o‘z irodati xirqasi bayonida dsbdurki, Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush Sheroziydii olibtur va ul Shayx ush-shuyux Shihobuddin Suhravadiydin va ul o‘z tag‘oyisi qozi Vajihuddindin va ul o‘z otasidin Abu Muhammad Ammuya va Axiy Faraj Zanjoniydin. Va har biri ilgi anga xirqa kiydururda, yana birining ilgi mushorikidur. Ammo Abu Muhammad Ahmad Asvad Dinavariydin xirqa kiyibdur va ul Mumshod Dinavariydin va ul Abulqosim Junayd q. s.din, ammo Axiy Faraj Abulabbos Nihovandiydin va ul Abu Abdulloh Hafif Sheroziydin va ul Abu Muhammad Ruvaym Bag‘dodiydin va ul Sayyid ut-toifa Abulqosim Jo‘nayddin. Va Shayx Shihobuddin Suhravardiy r. a. xirqa nisbatin Abulqosim Junayddin o‘tkarmaydur va Junayddin Mustafo s. a. v.g‘acha suhbat bila nisbat beribdur, yo‘qki, xirqa bila, Ammo Shayx Majduddin Bag‘dodiy q. s. «Tuhfat ul-bararah otlig‘ kitobida kelturubdurki, xirqalar nisbati muttasildur. Hazrat payg‘ambar s. a. v.g‘a Hadis durust muttasil mu’an’an bila. Va debdurki, Mustafo s. a. v. kiydurdi xirqa Amir ul-mo‘minin Ali k. v.g‘a va Amir ul-mo‘‘minin Ali Hasan Basriy va Kumayl b. Ziyodg‘a; Va Kumayl b. Ziyod Abdulvohid b. Zaydqa va ul Abu Ya’qub Nahrajuriyg‘a va ul Amr b. Usmon Makkiyg‘a va ul Abu Ya’qub Tabariyg‘a va ul Abulqosim Ramazong‘a va ul Abulabbos b. Idrisqa va ul Dovud Xodimg‘a va ul Muhammad b. Monkilg‘a va ul Ismoil Qasriyg‘a va ul Shayx Najmuddin Kubroga va ul bu faqirg‘a, ya’ni Majduddin Bag‘dodiyg‘a. Fa’alo hazo xirqalar nisbati Mustafo s. a. v.g‘a muttasil bo‘lur Ammo Shayx Abu Said debdurki, bu faqirning zikrining talqin nisbati o‘z xirqam shayxi Shayx Najibuddin Alidin va apga Shayx ush-shuyux Shihobuddin Suhravardiy r. a.din va anga o‘z tag‘oyisi Shayx Najibuddin Suhravardnydin va anga Shayx Ahmad G‘azzoliyi va anga Abubakr Nassojdin va anga Shayx Abulqosim Gurgoniydin va anga Abu Usmon Mag‘ribiydin va anga Abu Ali Kotibdin va anga Abu Ali Rudboriydin va anga Sayyid ut-toifa Junayd q. s. dindur.

Yana debdurki irodat xirqasi nisbatin va zikr talqini nisbatin ikki Shayxdin olmoq mahmuddir. Ammo suhbat nisbatida mahmuddur. Ammo burung‘i shayx nisbati sharti bila yo favti vuqu’i bila; Andoqki, bu zaif Shayx Najibuddin Suhravardiy q; s. xizmati muforaqatidin so‘ngra Mavlono va shayxuno va sayyiduno sadrul haq vad-din vorisi ulum Sayyid ul-mursalin sulton ul-muhaqqiqin Muhammad b. Ishoq Qo‘nyaviy q. s. sharafi xizmatu suhbatdin va saodati talqinu irshodidin tarbiyat topti va muntafe’ bo‘ldi. Har necha xizmat va suhbatlarining sharoiti huquq rioyati uhdasidin chiqaolmadim va lekin alar o‘z karamlari bila bu bechoraga husni qabul bila irshod tariqidin furuguzosht qilmadilar.

590. Shayx Muso Sadroniy q. t. s.

Ul Shayx Abu Madyan Mag‘ribiy q. s. ning akobir ashobidindur. Shayx Sa’iduddxinn Farg‘oniy «Qasidai Toiya» sharhida kelturubdurki, Shayx Mu’tabar Talha b. Abdulloh Talha Tustariy Iroqiy q. s.din olti yuz oltmish beshda eshittimkim, ul rivoyat qildiki, Shayx Imoduddin Muhammad b. Shayx ush-shuyux Shihobuddin Suhravardiy q. s. dediki, hajjotdin birida otam bila erdim. Ka’ba uyini tavof qiladurg‘onda, nogoh ko‘rdumki, Shayx Mag‘ribiy tavof qiladur erdi. Va xalq tabarruku tayammun jihatidin ani ziyorat qiladur erdilar. Meni aning qoshida ta’rif qildilarki, Shayx Shihobuddin Suhravardiyning o‘g‘lidur. Manga marhabo dedi va boshimni o‘pti va xayr duosi qildi. Va men ani tanimas erdim. Pas men so‘rdumki, bu kimdur? Dedilarki, Shayx Muso derlar. Chun tavofdin forig‘ bo‘ldum otam qoshiga keldim. Alarg‘a deb ermishlarki, men Shayx Musog‘a musharraf bo‘lubmen va mening boramda xayr duosi qilg‘an ermish. Alar bu ma’nodin bag‘oyat masrur bo‘ldilar. Andin so‘ng

hozirlar Shayxning manoqibi zikrida dedilarki, virdidurki, kechalik kunduzlikta yetmish ming qatla «Kalomulloh»ni xatm qilur. Otam xomush erdi. Nogoh alarning kibori ashobidin biri qasamyod qildi va dediki, rostdur har neki andin derlar. Men bu so‘zni andin eshitib erdim va xotirimda filjumla inkore bor erdi, to ul vaqtqachakim, bir kecha Shayx Musoni tavofda ko‘rdum, aning keynicha borur erdim. Ko‘rdumki, Hajar ul-asvad taqbili qildi va Fotihadin tilovat bunyod qildi. Xalq dasturi bila borur erdi, kamo besh-to‘rt qadam borg‘uncha bir xatm qildiki harf-baharf fahm bo‘ldi. Otam va barcha ashob tasdiq qildilar. Va bu ma’noda otamdin savol qildilar. Alar dedilarki, basti zamon qobilidurki, avliyoullohg‘a voqe’ bo‘lur va munung istishhodig‘a Shayx Ibn Sukaynah va aning soyig‘ muridi hikoyatini dedilarki, basti zamon qobilidindur va g‘arib hikoyatlardindur. Va «Nafahot ul-uns»da Shayx Muso hikoyati zimnida mazkurdur. Va andin so‘ngra «Futuhoti Makkiy» sohibining javharidin naql qilg‘an so‘zi dag‘iki, anga yaqin ahvoldurki, ikkalasi ul kitobda bor. Tilagan kishi topar, vassalom.

591. Shayx Iso Hattor Yamaniy q. t. s.

Imom Yofi’iy debdurki, ul bir kun bir fohishag‘a o‘tti. Va anga dediki, bu kecha xuftondin so‘ngra sanga kelgumdur. Fohisha xurram bo‘ldi va yasandi. Degan chog‘da keldi va aning uyiga kirb, ikki rak’at namoz qilib chiqdi va ketti. Ul zaifag‘a hol mutag‘ayyir bo‘ldi va tavba qildi va har nedaki bor erdi, boridin chiqdi. Va Shayx ani o‘z darveshlaridin biriga nikoh qildi. Va taome buyurdi va dediki, yog‘ olmang. Sohibi shavkateki, ul xotunning rafiqi erdi, anga bu holni dedilar. Va aning tavbasidin mutaajjib bo‘ldi va dedki, sur uchun taom pishiribdurlar va yog‘i yo‘qdur. Ul g‘aniy istihzo yuzidin bir shisha xamr yubordi va dediki, Shayxqa dengki, shod bo‘lduk, bu yog‘ni taomingizga qo‘shung! Shayx dedi: kech ketturdung. O‘z ilgiga oldi va ul taomg‘a quydi. Va dedi: o‘ltur, nima yegil. Ul kishi chun o‘lturdi va ul taomdin yeya kirishdi, andoq xo‘b yog‘ erdiki, andin yaxshiroq bo‘la olmag‘ay. Chun borib, ul holate maxdumig‘a arz qildi, ul dag‘i Shayx xidmatig‘a kelib tavba qildi.

592. Shayx Abulg‘ays Jamil Yamaniy q. s.

Oliya maqomot Va soniya holotu karomot egasidur. Avoyil holda qutto’ ut-tariqdin ermish. Bir kun bir qofila intizorida ko‘z tikib o‘lturub ermish. Eshitibdurki hotife aytadur: [Ey ko‘z tikuvchi, senga ham ko‘z tikuvchi bor)[1] Ya’ni, eyki, qofilag‘a ko‘z tikibsen, yana biravniig ko‘zi sendadur. Bu so‘z anga azim asar qildi va qiladurg‘on ishdin chiqdi va tavba qildi va Tengriga yondi va Shayx ibn Aflah Yamaniy xidmatu suhbatig‘a qo‘shuldi, Yaxshi suluklar qildi, biyik marotib hosil qildi va qo‘p xavoriqi odot andin zuhurg‘a keldi. Bir kun ahli bayti andin miqdore atr tiladilar. Va bozorg‘a bordi va attordin tiladiki, sotqun olg‘ay. Attor dedi: do‘konimda atr yo‘qdur. Ul dediki, do‘koningda atr bo‘lmag‘usidur! Filhol har atrki, ul do‘konda erdi mun’adim bo‘ldi. Attor Shayx Ibn Aflah xidmatig‘a borib, andin shikoyat qildi. Shayx ani tiladi va bu jihatdinki, karomot izhori qilib erdi, siyosat qildi va dedi: ikki qilich bir qinda bo‘la olmas, bizing suhbatimizdin yiroq bo‘l! Har necha Abulg‘ays tazallum va tazarru’ ko‘rguzdi, qabul tushmadi va aning suhbatidin ibo qildi. Va ul mahrum bo‘lub, yana bir shayx talabig‘a tushti, to ulki, Shayxi Kabir Ali Ahdal xidmatig‘a yetishti va irodat izhori qildi. Shayx qabul qildi. Shayx Abulg‘ays debdurki, chun anga yettim, qatrae erdimki, daryog‘a qo‘shuldum. Bir kun fuqaro dedilarki, bizga et orzusi bor. Shayx dedi: falon kunki, bozor kunidur, et yegunguz-dur.

Chun ul kun bo‘ldi, xabar keldiki, qutto’ ut-tariq bir qofilani talabdur. Bir lahzadin so‘ngra qutto’ ut-tariqdin biri keldi va shayx uchun bir o‘y kelturdi. Shayx fuqarog‘a dediki, o‘yni o‘lturung, ammo boshini solim asrang! Andin so‘ngra yana birov bir xarvor bug‘doy kelturdn. Shayx buyurdiki, un tortnng va noi pishurung! Fuqaro shayx degandek qildilar. Andin so‘ngra buyurdi darveshlargakim, siz yengizki, fuqaho harom yemaslar. Jam’i fuqaho hozir erdilar, ul sufra boshig‘a kelmadilar. Chun fuqaro taomdin forig‘ bo‘ldilar, nogoh birav Shayx qoshig‘a keldi va dedi: ayyuhash-shayx, bir o‘y fuqaro nazri qilib erdim, haromiylar taladilar. Shayx dediki, agar o‘yungning boshin ko‘rsang tanig‘aysen? Dedi: bale Shayx dedikim, o‘yning boshin hozir qildilar. Dedi: bu ham ul mening

o‘yumdur. Shayx dedi: sen mutaraddid bo‘lmaki, fuqaro nazri fuqarog‘a yetishti. Yana birav Shayx xidmatig‘a kelib dediki, bir xarvor bug‘doy fuqaro nazri qilib erdim, haromiylar elttilar. Shayx anga dag‘i o‘y iyasig‘a aytqan javobin aytti. Fuqaho bularni ma’lum qilib, sharmandayu pushaymon bo‘ldilar. [Alloh undan rovi bo‘lsin! Olti yuz ellik birinchi yilda vafot etdi][2].

593. Shayx Abulhasan Mag‘ribiy Shoziliy q. s.

Oti Ali b. Abdullohdur. Nasabda sharif, Hasaniy. Iskandariyada sokin ermish. Va fuqarodin ko‘p aning suhbatig‘a anda qo‘shulubdurlar. Kibori avliyoullohdindur. Ul debdurki, sayohatda erdim. Bir kecha bir tepa ustida erdim va sibo’ tegramda evrulurlar erdi. Tong otquncha hargiz uns ul kechaki unscha topmadim. Chun tong otti, xayolimg‘a keldiki, manga Tengri taolo unse maqomidin bir nima Hosil bo‘ldi, ul tepadin bir rudxonag‘a tushtum. Qalin kekliklar ko‘rdumki, hargiz oncha qalin keklik ko‘rmaydur erdim. Chun mening ayog‘im unini eshittilar, barcha bir yo‘li hurkdilar, andoqki, aning vahmidin manga xafaqon paydo bo‘ldi. Bir un eshittimki, manga ayturlarki, ey ulki, oqshom sibo’ bila uns tutub erding, sanga ne bo‘ldiki, bu kekliklar uchqanidin qo‘rqubsen? Va lekin, sen oqshom bizing bila erdiig va bu soat nafsing bilasen. Hamul debdurki, bir qatla sakson kun och erdim. Xotirimg‘a keldiki, sanga bu ishdin nasibe hosid bo‘ldi. Nogoh bir zaifa ko‘rdumki, bir mag‘oradin chiqti, bag‘oyat jamila. Va der erdiki, manhuse sakson kun ochlik tortti va turdi va Tengriga noz qiladur bu ishi uchun. Va olti oy manga o‘tubdurki, taom topmaydurmen. Va ham ul debdurki, Rasul s. a. v.ni tush ko‘rdum. Manga dedi: orig‘ qil to‘nlaringni kirdin, to bahramand bo‘lg‘aysen Tengri taoloning madadi va ta’yidi bila har nafas. Dedim: yo Rasulalloh, mening to‘nlarim qaysidur? Dedi: Tengri taolo sanga besh xil’at kiydurubdur: muhabbat xil’ati va ma’rifat xil’ati va tavhid xil’ati va imon xil’ati va islom xil’ati. Har kim Tengrini sevsa, anga oson bo‘lg‘ay har ish. Va har kim Tengrini tanisa, ko‘ziga kichik ko‘rungan har nima. Va har kim Tengrini birlik bila bilsa, anga sherik kelturmagay hech nimani. Va har kim, Tengriga imon keltursa, emin bo‘lg‘ay barcha nimadin. Va har kim, islom bila muttasif bo‘lsa, Tengriga osiy bo‘lmag‘ay. Va agar osiy bo‘lsa, e’tizor qilg‘ay. Va chun e’tizor qilg‘ay, qabul tushkay. Shayx Abulhasan debdur: [Alloh aytdi: libosingni toza tut!][1] ma’nosin mundin fahm qildim. Olti yuz ellik to‘rtda dunyodin o‘tubdur. Makka tavajjuhi vaqtida bir bodiyadaki, suyi sho‘r ekandur. Chun ani anda dafn qilibdurlar, aning vujudi barakatidin ul suv chuchuk bo‘lubdur.

594. Shayx Yosin Mag‘ribiy Hajjom ul-Asvad q. s.

Ul valoyat arbobidin va karomot ashobidin erdi. Ammo, bu holni hajjomlik suratida yashurur erdi. Imom Navaviy r. a. aning muridlaridin va mu’taqidlaridin ermish. Aning ziyoratig‘a borur ermish va aning muhabbati va xidmatig‘a tabarruk tilar ermish. Va anga irodat maqomida ermish. Va harne ul ishorat qilsa, ul ishorat mujibi ila amal qilur ermish. Bir kun anga dediki, kitoblarki senda oriyatdur egalariga bergil va o‘z diyoringga murojaat qil va ahlingni ziyorat qil! Aning so‘zin qabul qildi. Chun o‘z diyorng‘a yetti va ahlin ko‘rdi, bemor bo‘ldi va dunyodin o‘tti. [Shayx Yosin Mag‘ribiy olti yuz sakson sakkizinchi yil Rabi ul-avval oyida vafot etdi. Sakson yil umr ko‘rdi.

Imom Muhiddii Navaviy esa, olti yuz yetmish oltinchi yil Rajab oyining yigirma to‘rtida vafot etdi][1].

595. Shayx Abulabbos Mursiy q. r.

Shayx Abulhasan Shoziliyning shogirdidur, maqomoti oliya va karomoti zohira iyasi. Bir kun birav oni uyiga ziyofatqa indadi, imtihon uchun. Taomeki anda shubhae erdi, Shayx ilayiga qo‘ydi. Shayx dediki, agar Horis Muhosibiyning ilgida bir tomur erdiki, shubhalik taom ilayiga qo‘ysalar erdi, harakatqa kelur erdi. Mening iligimda oltmish tomurdurki, andoq harakatqa kelur. Mezbon istig‘for qilib, uzr qo‘ldi. Imom Yofi’iy debdurki, manga mundoq yetishibdurki, salotindin biri imtihon uchun sohibi kashf darveshlardin birini ziyofat qilib, halol va harom etdin pishurtti. Ul darvesh taom tortar vaqtda dediki, bu kun biz xodimlik qilurbiz. Barcha halol etlarni darveshlarig‘a ulashti va bori harom etlarni ayirdiki, podshohning sipohilarig‘a munosibdur. Va muni o‘qidiki, [pokiza pok uchun, nopok

nopok uchundir]1. Sultong‘a zohir bo‘ldi va ul imtihondin istig‘for qildi. Debdurlarki, Ya’qubki, Mag‘ribning volisi erdi, mulk g‘ayratidin qardoshin o‘lturdi va pushaymon bo‘lub, ul shane’ harakat anga asar qilib, tavba qilib, Shayx Abulabbos xidmati istid’osi qildi. Va Shayx ham aning qabulig‘a Haqdin ma’mur bo‘ldi. Bir kun Shayx Ya’qub uyida sufrasig‘a hozir bo‘ldi. Ya’qub buyurub erdiki, bir xo‘rus jo‘jani o‘lturub erdilar va birin jifah qilib erdilar. Ikkalasin pishurub, Shayx ilayiga qo‘ydilar. Shayx xodimg‘a ishorat qildiki, bu birii ko‘tarki, murdordur va birin yeya kirishti. Ya’qubki, muni ko‘rdi, mulkni o‘g‘lig‘a berdi va o‘zin bidkulliya Shayxqa taslim qildi. Va Shayxning husni tarbiyati bila ko‘shoyish topti va valoyat martabasida sobitqadam bo‘ldi. Andoqki, bir yil qurug‘luq jihatidin el yog‘ing‘a muhtoj bo‘ldilar. Xalq Shayxqa duo istid’osi qildilar. Shayx yozig‘a chiqib, Ya’qubqa ishorat qildiki, namoz qilg‘ay va duo qilg‘ay. Pas, Ya’qub namoz qildi va yomg‘ur talabig‘a duo qildi, fil-favr ijobat asari zohir bo‘ldi va yog‘in tutashti.

596. Shayx Sa’d Haddod va aning muridi Shayx Javhar r.

Shayx Sa’d Haddod Adanda buzurg shayx erdi. Va Shayx Javhar avoyilda biravning bandasi erdi. Chun ozod bo‘ldi, bozorda sotiq-savdo qilur erdi. Va fuqaro majolisig‘a hozir bo‘lur erdi. Va alarg‘a ixlosu e’tiqodi ko‘p erdi. Chun Shayx buzurgvor Shayx Sa’d Haddodning vafoti vaqti yettiki, holo Adanda madfundur, xulafosi ayttilarki, Shayx o‘z o‘rnig‘a kimni ishorat qilurki, o‘lturgay? Shayx dediki, mening vafotimdin uch kundin so‘ngraki, fuqaro jam’ bo‘lg‘aylar, bir yashil qush kelgay, har kimning boshig‘a o‘ltursa, ani mening o‘rnumg‘a o‘lturtunguz! Shayx vafotidin uch kundin so‘ngra fuqaro jam’ ekanda, ul yashil qush kelib, Javhar boshig‘a o‘lturdi. Va bu ma’no hargiz aning ko‘ngliga kechmaydur erdi va fuqarodin ham hech kimning xotirig‘a xutur qilmaydur erdi. Pas, fuqaro yig‘ildilarki, ani Shayxning zoviyasig‘a eltkaylar va aning o‘rnig‘a o‘lturtqaylar, ul yig‘ladi va dedi: men ne salohiyat bila bu ishni qilurmenki, bir bozoriy kishiman, ummiy va fuqaro tariqin va alarning odobin bilmasman. Va elning menda huquqi bor va mening el bila muomalotim bor. Dedilarki, bu amredur osmoniyki, sanga havola bo‘lubdur va sanga muni qilurdin o‘zga chora yo‘qdur! Tengri taolo sanga ta’yidu ta’limda bo‘lg‘ay. Chun chora yo‘q erdi, bozorg‘a bordi va elning huquqin bo‘ynidin ado qildi. Va Shayxning zoviyasig‘a kelib, fuqaro suhbatin lozim tutti. [O‘z ismiga o‘xshab, javharga aylandi. Fazilat va kamolotlari borki, aytilsa, gap cho‘zilib ketadi. Va pokdir karim va ne’mat berguvchi. «Bu Allohning fazlu marhamati bo‘lib, uni o‘zi xohlagan kishilarga ato etur. Alloh ulug‘ fazlu marhamat sohibidur»][1].

597. Ahmad b. Ja’d va Shayx Sa’iydki, kuniyati Abu Isodur q. s.

Imom Yofi’iy debdurki, Yaman bilodida ikki shayx erdilar. Biri shayxi kabir Ahmad b. Ja’d, yana biri Shayxi orif Shayx Sa’iyd. Har qaysig‘a murid va ashob bor erdi. Bir kun Shayx Ahmad ashob bila mazorot tavofig‘a borur erdi. Shayx Sa’iydqa yo‘luqdi. Ul ham muvofaqat qildi. Chun bir miqdor yo‘l bordilar, Shayx Sa’iyd pushaymon bo‘ldi va qantti. Va Shayx Ahmad bordi va tavof qildi va qaptti. Necha kundin so‘ngra Shayx Sa’iyd ashobi bila chiqdi hamul mazorot tavofig‘a. Va yo‘lda Shayx Ahmad anga yo‘luqdi va muloqot qilishdilar. Shayx Ahmad Shayx Sa’iydqa dedikim, fuqaroning bir haqqi sanga utavajjih bo‘lubdurki, ul kun alar muvofaqatidin yonding. Shayx Sa’iyd dedikim, manga hech haqqe mutavajjih bo‘lmaydur. Shayx Ahmad dedi, qo‘pqil va insof bergil! Shayx Sa’iyd dedi: har kishi bizni qo‘porsa, biz ani o‘lturtali. Shayx Ahmad dedi: har kishi bizni o‘lturtsa, biz ani mubtalo qilali. Pas, ul ikki buzurgdin har qaysi har nekim yana birisi bobida deb erdi, ham andoq o‘q bo‘ldi. Shayx Ahmad «muq’ad» bo‘ldi va o‘rnida qoldi, ul vaqtqachakim, Tengri rahmatig‘a vosil bo‘ldi. Va Shayx Sa’iyd mubtalo bo‘ldi, angaki, o‘z tanidin uzar erdi va kesar erdi, angachaki olamdin o‘tti. Imom Yofi’iy r. debdurki, fuqaro ahvoli kesagan qilichlardin itikrakdur. Chun ahvol ashobi bir biri bila teng bo‘lsalar, alarning holi bir-biriga siroyat qilur. Va agar teng bo‘lmasalar, qaviy holi zaifqa siroyat qilur. Va goh borki, sobiq holi siroyat qilur. [Masbuqning holi emas. Va bu hukm aniqroq. Alloh haqiqiy ahvolni biluvchidir][1].

598. Shayx Najmuddin Abdulloh b. Isfaxoniy q. s.

Shayx Abulabbos Mursiyning shogirdidur. Manoqibi behaddur va karomoti beadd. Va koʻp yillar Makkada mujovir erdi. Yaman ulamosidin biri debdurki, men hajga bordim va otam bemor qoldi. Chun Makkaga yettim va haj qildim, xotirim otam saridin bagʻoyat mutaraddid erdiki, holi ne boʻlgʻonni bilmas erdim. Shayx Najmuddingʻa ayttimki, ne boʻlgʻayki, baʼzi mukoshafotingdin xotir anga keltursangki, mening otam holidin muttaleʼ boʻlub, manga dagʻi xabar bersang! Filhol, aning sari boqti va dediki, otang bemorligʻidin sihhat topib, firosh ustida oʻlturubdur va kitoblarni tegrasida teribdur hilyasi mundoq va mundoq. Barcha nishonlarni rost aytti. Va ani hargiz koʻrmaydur erdi. Bir kun avliyoullohdin birining janozasi bila chiqib erdi. Chun mulaqqinki, fuqaho kiboridin erdi, qabri boshigʻa oʻlturdi talqin qilgali. Shayx Najmuddin kuldi. Birav kulgu sababin soʻrdi, Shayx zajr qildi, soʻngra ayttiki, mulaqqin talqin ogʻoz qilgʻanda, qabr sohibi dedi: hech taajjub qilmassizki, oʻluk tirikka talqin qilur. Andin soʻrdilarki, hargiz xotun olibmusiz? Dedi: hargiz xotun olmaymen va alar pishurgan taomdin ham yemaydurmen. Aning Shayxi Ajam bilodida, anga deb erdiki, bot boʻlgʻayki, Misr bilodida qutb bila muloqot qilgʻaysen. Qutb talabigʻa chiqti. Va yoʻlda haromilar dedilar: josusdur va bogʻlab asradilar. Va debdurki, nogoh koʻrdumki, bir pir mening ustumga tushti, andoqki, qarchigʻay bir sayd ustiga. Va meni bandlardin ochib, xalos qildi. Va dedi: qoʻp, ey Abdullohki, sening matlubung mendurmen. Pas, Misrgʻacha bordim, hech matlubumni tanimadim va bilmadimki, qaydadur, to ulki bir kun dedilarki, Shayx Abulabbos Mursiy kelibdur. Jamʼi fuqaro dedilarki, keling, borali va anga salom qilali! Chun koʻzum anga tushti, tanidimki, ham ul pirdurki, meni yeshib erdi. Va ul ham ramz bila nishonalar ayttiki, hozirlar fahm qilmadilar. Va men aning xidmatu suhbatin lozim tuttum, ul vaqtqachaki, dunyodin oʻtti. Chun Shayx vafot qildi, Makkaga mutavajjih boʻldi, yoʻlda Shayxning shayxi Shayx Abulhasan Shoziliy q. s. qabrigʻa yetishti. Ul qabridin aning bila soʻzlashib, anga dediki, Makkaga bor va oʻltur! Chun Makkaga yetti, eshittiki, hotife ayturki, [odamlari yomon eng yaxshi shaharga kelding][1] va Makkada mujovir boʻldi, to yetti yuz yigirma birda dunyoding oʻtti. Va Shayx Fuzayl Ayoz q. s. qabrigʻa yaqin qoʻydilar. Xuroson akobiridin birining xatti bila topibdurlarki, yetti yuz uchda Makka ziyoratigʻa musharraf boʻldum. Va ul vaqt Haram shayxi Shayx Najmuddin Isfahoniy erdi. Aning xidmatigʻa yetishur erdim. Bir kun mendin soʻrdiki, bu hadis sanga yetibmudurki, [Ummatimning abdollari qirqtadir. Oʻn ikkitasi Iroqda, yigirma sakkiztasi Shomda][2]. Dedim: yetibdur. Ammo bu mushkuldurki, nechuk bu toifa Shom va Iroqda-oʻqdurlar. Shayx dediki, Hazrat Risolat s. a. v. barcha odamni ikki qismat qilibdur Nisfi gʻarbiy, nas, Iroq va gʻayrihi, Xuroson va Hinduston va Turkistondek. Soyir sharqi bilod, Iroqqa doxil va Shom va gʻayrihi va Misr va Magʻrib barcha Shomgʻa doxildur. Noqil bitibdurki, bu vaqtda xotirimgʻa keldiki, Xoja Qutbuddin Yahʼyo Jomiy Nishoburiy holidin savol qilgʻaymen. Soʻrmayin dediki, Xoja Qutbuddin Yahʼyo ul oʻn ikkidin biridurki, Iroqdadurlar.

599. Xoja Qutbiddin Yahʼyo Nishoburiy q. s.

Kuniyati Abulfazldur. Jomiyul-asl, Nishoburiyulmavlid. Zohiriy va botinin ulumgʻa maʼrufu mavsuf ermish. Va Shayx Ruknuddin Alouddavla va Shayx Sadruddin Ardabiliy va Shayx Sharafuddin Darguziyniy suhbatigʻa yetibdur. Va yetti qatla haj guzarlabdur. Bir kun oʻz qay va kolosi boshigʻa yozigʻa borgʻondur. Andin Makka doiyasi koʻngliga tushub ham andin azimat qilibdur. Va ruqʼa ashobqa bitibdurki, [oʻtgan kun bir guruh kishilar bilan dam olish va xursandchilik qilish niyatida sahroga yoʻl olindi.

R u b o i y:

Mahbubim bilan boʻstonga yoʻl oldim, nogahon bir gulga nazar soldim, dildor taʼna bilan: uyat senga, ruxsorim turganda gulga boqasanmi? – dedi

Nogahon Allohning g‘ayrati «Alloh bilan birga boshqa biron «iloh»ga iltijo qilmayg» pinhon joyidan tashqariga chiqdi va «Haq jazbalaridan bir jazba» sirtmog‘ini imtihon qilinuvchining bo‘yniga soldi.

M i s r a:

Yaxshilik bilan kelmasa, sochidan sudrab keltiring.

Vatanga bormasdan, ko‘rmasdan, tafakkur ham qilmasdan «Odamlarni hajga da’vat qil, ular yayov holatda senga kelurlar»... ishorati bilan yuksak va sharafli Ka’baga ravona bo‘ldi.

B a y t:

Bo‘ynida tuzog‘i bor bechora kiyik ovchining ketidan qanday ergashmasin?

Hidoyat yo‘lidagi kishilarga salom bo‘lsin! Yetti yuz qirqinchi yil jumod ul-oxir oyining yigirma birinchi: kuni payshanba kechasi vafot etdi]1. Va qabri Hiriyda Feruzobod darvozasining toshidadur.

600. Mir G‘iyos q. r.

Asli Isfahondindur, ammo mavlud va manshai ishoburdindur. Va Nishoburda anga jazbae yetti, andoqki, mag‘lub bo‘ldi va hushidin asar qolmadi. O‘z holiga kelganda, o‘zin Hiriy shahrida Iroq darvozasida topti. Bozor bila ravon bo‘ldi. «Xush» bozorig‘a yetganda, Mirning xaylidin biravning ul bozorda halvogarlik do‘koni bor erdi, Mirni tanib do‘kong‘a kiyurdi. Shayx Axiy Muhammad Jomiy Mirning pisar vaqtig‘a yetib, aning tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘ldi va riyozatlar buyurdi. Ko‘p riyozatdin so‘ngra Iroq safarig‘a ishorat qildi. Mir chun Mashhadqa yetti, bir kecha Imom Ali alayhit-tahiyatu vas-salomu ravzasida ihyo qilur erdikim, bir jo‘lida mo‘y kishi zohir bo‘lub, anga dedikim, ulcha aning talabidasen, ul bnzdadur, deb o‘tti. Mir ani erishib borib, sahar Tusqa yettilar. Va Bobo Mahmud Tusiy q. s.g‘a yo‘liqdilar. Bobo Mirga boqib dediki, senga Iroq safari havola emas. Mirning ko‘ngliga kechdiki, men pirim irshodi bila bu safar azimati qilib erdim, nechuk yonay? Bobo ayog‘in uzatib, dedikim, bor, ko‘ray, nechuk borursen? Hirot Bodg‘isining kelidin sanga beribdurlar, yonib o‘z ishingga bor! Mir yonib, Shayx Axiy Muhammad qoshig‘a kelib, o‘tgan voqeani aytti. Shayx aytti: ajab cho‘g‘ bo‘ynunga qo‘yubdurlar. Shayx favtidan so‘ngra Mir Bodg‘isqa kelib, bu yerdaki, holo langaridur va ul er barakatidin uluq qasaba bo‘lubdurki, har ne uluq shahrlarda muyassardur, anda muyassardur, ul vaqt biyobon erdi, sokin bo‘ldi. Bir kecha Ibrohim Xalil bila Hazrat Risolat s. a. v.ni voqe’da ko‘rdiki, kelurlar va Amir ul-mo‘‘minin Ali r. a. ham alar biladur. Bir anboida to‘la o‘tmakdur. Mirga havola qilib, dediki, ulash, zakotsiz va tamannosiz. Shayx ul-islom Ahmad Jom Amir ishorati bila Mirg‘a charog‘ havola qildi. Mir ul yerda ishga mashg‘ul bo‘ldi va langar noni ul vaqtdin beri o‘ksumaydur va charog‘i o‘chmaydur. Va kundin kunga ortig‘roq va ravshanroq bo‘lubdur. Mirning hayoti muddati to‘qson uch yil bo‘ldi. Va bu umrda mashhurdurki, g‘oyati riyozatdin o‘n ratldin ortuq taom yemaydur.

601. Abu Muhammad Abdulloh Marjoniy Mag‘ribiy q. s.

Mashoyix buzurglaridin va so‘fiya akobiridindur. Ulumi ilohi va maorifi rabboniy abvobi yuziga ochilgandur. Anga dedilarki, falon dediki, shayx so‘z aytur erdi, ko‘rdumki, osmondin bir nuri amudiy shayxning og‘zig‘a muttasil erdi. Chun Shayx so‘zni bas qildi, ul nur munqati’ bo‘ldi. Shayx tabassum qildi va dediki, ul bilmaydur: nur munqati’ bo‘lg‘ondin so‘ngra men so‘zni bas qildim, ya’ni ul nurdin amud osmondin ilohiy madadining surati erdi. Chun ul madad munqati’ bo‘ldi, so‘z qat’ topti. Yetti yuz to‘qson to‘qquzda Tunisda dunyodin o‘tti.

602. Abu Abdulloh Ma’ruf bi-Ibn ul-Mutarrif Andalusiy.

Makkada mujovir erdi. Har kecha-kunduz iltizom qilib erdiki, ellik usbu’ tavof qilg‘ay. Yetti yuz yettida dunyodin o‘tubdur va Makka podshohi g‘oyat e’tiqodidin na’shin egniga ko‘taribdur. Shayx Abo‘ Muhammadqa chun Rasul s. a. v. ravzasi ziyoratig‘a azm bo‘ldi, Shayx Abdulloh b. Mutarrif vado’ig‘a keldi. Shayx Abu Abdulloh dediki, eshitibmenki, falon manzilda su yo‘qdur. Anda ko‘p qatig‘lig‘ sizga yetkusidur, ammo oqibat yomg‘ur yog‘ib, serob bo‘lg‘unguzdur. Shayx Abu Muhammad debdurki, biz to‘rt kishi erdik. Chun ul manzilg‘a yettuk, su yo‘q erdi. Zaruratdin yo‘lg‘a kirduk, havo bag‘oyat issig‘ erdi. Otash bizga g‘alaba qildi. Va bizda ozroq su bor erdi. Ashobdin biri tiladiki, ani ichgay. Shayx Abu Muhammad dediki, barchasin ichmaki, agar ichsang, o‘larsen, bo‘g‘zungni ho‘l qil! Ushbu dastur bila bo‘g‘uz o‘lutur erdilar. Ish issig‘din va susizlig‘din chun halokka yovushti. Shayx Abu Muhammad so‘rdiki, Shayx Abu Abdulloh Mutarrif ne deb erdi? Biri dediki, deb erdiki, ko‘p qatig‘lig‘ sizga yetkusidur! Shayx Abu Muhammad dediki, qatig‘lig‘ mundin o‘tmaski, holo mundabiz. Yana ne so‘z deb erdi? Yana biri dediki, deb erdiki, yamg‘ur yog‘ib, serob bo‘lg‘unguzdur! Shayx dediki, yomg‘ur sizga mujda bo‘lsunki, bayak nogoh bulut paydo bo‘ldi va muntashir bo‘ldi va yog‘a kirishdi. Oncha yog‘diki, serob bo‘lduq. Va sel keldi va vuzu’ qilduq va g‘usl qilduq va su ko‘tarduk va yo‘lga tushduk. Oz yo‘lki borduk, ul bulut va yog‘indin hech asar ko‘rmaduk.

603. Shayx Sulaymon Turkman Muvallih q. s.

Ul Dimishqda bo‘lur erdi. Egnida eski shol va o‘rnidin oz qo‘par erdi va so‘z oz aytur erdi. Zohir ulamosidin ba’zi o‘z jalolat va buzurglugi bila aning ollida niyozmandlik qilurlar ermish. Debdurlarki, ramazonda nima yer ermish va namoz qilmas ermish, ammo mug‘ayyibotqa mukoshif va muttali’ ermish va ondin axbor qilur ermish. Imom Yofi’iy debdurlarki, bo‘la olurki, ul hol anga o‘z ahvolining satru kitmoni uchun talbis qabilidin bo‘lg‘ay. Har vaqt namoz qilur ermish bo‘lg‘ay va og‘zig‘a nima solib chaynab yutmas ermish bo‘lg‘ay. Ko‘p mundoq bu toifadin mushohada qilibdurlar. Andoqki, Shayx Qozi Mavsiliydin va Shayx Rayhondin va alardin o‘zgadin dog‘i manquldur va Shayx Sulaymon yetti yuz o‘n to‘rtda dunyodin o‘tti.

604. Shayx Ali Kurdiy q. t. r.

Ul uqaloyi majonindin ermish. Va andin anvo’iy karomot va xavoriqi odot zohir bo‘lur ermish. Dimishq ahli anga murid va mu’taqid ermishlar. Har hukm qilsa, mamluk molik hukmin eshitgandek eshitur ermishlar.

Bir kun Dimishq buzurglaridin biriga buyurubdurki, darveshlar uchun bir da’vat va samo’ fikre qil! Ul qabul qilib, da’vat tartibi qilib, qavvollarni yig‘ib, mashhur darveshlarni jam’ qilib indabdur. Chun majlis muhayyo bo‘lubdur. Shayx Ali Kurdiy dag‘i hozir bo‘lubdur. Ul uyda shakarni qand qo‘yg‘an qoliblar ermish. Mulk iyasig‘a debdurki, bu qoliblarnn havzg‘a sol! Birisin havzg‘a solibdur Darveshlar sharbat icharlar ermish va samo’ qilurlar ermish oqshomg‘acha. Chun oqshom bo‘lub, majlis ahli tarqamishlar, Shayx Ali Kurdiy ev iyasig‘a demishki, bu qoliblarni sudin chiqar! Sudin chiqarg‘andin so‘ngra ul shakarlardin hech miqdor erimagan ermish va qolibg‘a nuqson yetmagan ermish. Pas un iyasig‘a buyurubdurki, uyii mening ustumga qufl qil va mening Qoshimg‘a kelma uch kungacha! Ul degandek, eshikni bog‘lab ketibdur. Ikkinchi kuni bir yo‘lda Shayx Ali Kurdiyg‘a yetibdur va salom qilib o‘tub, uyga boribdur, eshikni ham andoq bog‘lig‘ ko‘rubdur. Qulfni ochib kiribdur, ko‘rubdurki, Shayx uyda va uy farshining ruxomlarin qo‘ng‘aribdur. Andin so‘rubdurki, yo sayyidiy, uyiing farshi ruxomin nega buzdung? Debdurki, ravo bo‘lg‘ayki, sen yaxshi kishi bo‘lg‘aysen va harom ruxomlar farshi ustida darveshlarg‘a ziyofat qilg‘aysen? Ul debdurki, bu uy va farsh manga ota merosdur. Shayx mutag‘ayyir bo‘lub chiqibdur. «Va ul shaxs chun Shayxning mukoshafotin bilur ermish, ta’ammuldin so‘ngra xayolig‘a kelibdurki, bir qatla bu uyiing farshin

buzg‘on ekandur va isloh qilg‘andur. Ul ustodqi, aii yasag‘on ekandur, topib yaxshi mubolag‘a bila istifsor qilg‘andin so‘ngra ma’lum qilibdurki, aning ruxomin sotib, bir masjidning farshi ruxomin aning o‘rnig‘a solg‘on ekandur. Shayx Ali Kurdiy avoyilda masjidi jome’da bo‘lur ermish. Nogoh yana bir majzubki, ani Yoqut der ermishlar, paydo bo‘lubdur va Dimishq shahrig‘a kiribdur. Shayx Ali Kurdiy shahrdin chiqib, sahroda sokin bo‘lubdur. Andin so‘ng shahrg‘a kirmaydur, to vafot qilibdur. Va Yoqut shahrda hokim ekandur.

605. Shayx Mufarrij r. t.

Ul Misrning Sa’iydiy ahlidindur. Ko‘p jalil ul-qadr va kabir ush-sha’n ekandur. Bandiy ermish, habashiy. Anga jazba yetibdurki, qaviyki, olti on yemak-ichmakdin ozod bo‘lubdur. Sog‘inibdurlarki, telbarabdur. Har necha tayog‘labdurlar, sud qilmaydur. Band qilibdurlar, chun kelibdurlar, ko‘rubdurlarki, ul o‘zga yerdadur va band o‘zga yerda. Zindong‘a qavabdurlar, zindonning tashida topibdurlar. Chun bu karomotlarni andin ko‘rubdurlar, necha tovug‘ biryon qilib, oldig‘a kelturubdurlar. Boqib, tovug‘larg‘a debdurki, uchungiz! Tirilib, ucha boshlabdurlar, biiznillohi taolo. Aning ashobidin biri arafa kuni Arafotda ani ko‘rdi. Yana biri hamul kun oqshomg‘acha aning unida aning bila erdi. Chun ul ikki kishi bir-biriga yettilar, har qaysisi o‘zi ko‘rganin ul yana biriga aytti. Va bu bobda alar orasida nizo tushti. Va har qaysi o‘z so‘zi sidqig‘a taloqdin ont ichdi. Va bu bahsu xusumat bila shayx Mufarrij qoshig‘a bordilar. Va har qaysi o‘z muddaosini izhor qildilar. Shayx dedi: ikkalangiz chun aytibsiz va hech qaysingizning xotuni taloq tushmaydur. Akobirdin biri debdurki, men Shayx Mufarrijdin so‘rdumki, har birining so‘zining sidqi yana birining hanasi mujibidur, nechuk hech qaysi honis bo‘lmamish bo‘lg‘ay. Va ul majlisdaki, men bu so‘zni so‘rdum, jamoati ulamo ham hozir erdilar. Shayx ishorat barchag‘a qildikim, bu mas’alada so‘z ayting! Har qaysi bir so‘z dedi, ammo hech qaysi sofiy javob aytmadi. Va bu asnoda aning javobi mening xotirimg‘a yetti. Shayx ishorat manga qildiki, sen ayt! Men dedimki, chun valiy viloyatda mutahaqqiq bo‘lg‘ay va ul ma’nodaki, aning ruhoniyati yana bir surat bila musavvar bo‘lg‘ay, mutamakkin bo‘lg‘ay. Bo‘la olurki, bir vaqtda muxtalif jihodda o‘zin muta’addid suvar bila zohir qilg‘ay, andoqki tilagan. Pas, agar birav ani ul suvardin ba’zida Arafotda ko‘rdum desa, chin demish bo‘lg‘ay. Va yana birav ul suvardin ba’zi bila uyda ko‘rmish bo‘lsa ham chin demish bo‘lg‘an. Va hech qaysining onti honis bo‘lmamish bo‘lg‘ay. Shayx Mufarrij dediki, sahih javob budurki, sen aytting.

606. Shayx Abulabbos Damanhuriy q. s.

Damanhur mavzeidur Misrda. Bir tojir hikoyat qilibdurki, safarda erdim va barcha matoim bir ulog‘ ustida erdi. Chun Misrg‘a yettim va xalqqa qo‘shuldum va bu ulog‘im yetti. Har necha tiladim, topmadim. Ba’zi sohibi vuquf el ayttilarki, Shayx Abulabbos xidmatig‘a borib, tazallum qilsang, shoyad duoyi qilg‘ayki, g‘oyibing hozir bo‘lg‘ay. Va men mundin burun ani tanir erdim. Aning qoshig‘a bordim va salom qildim va holimni ayttim. So‘zumg‘a quloq solmadi, ammo ayttiki, bizga mehmonlar yetibdurlar. Alarning ziyofati uchun muncha un kerak va muncha et va soyir masolihni te’dod qildi. Qoshidin behuzur chiqib, kelgandin pushaymon bo‘lub dedim: yana hargiz aning qoshig‘a bormayin. Bu niyat bila borur erdim, birov yo‘liqdiki, aning qoshida biror nima vajh o‘ntunchum bor erdi. Tuttum va ul o‘ntuchdin oltmish oltin iligimga kirdi. Dedim: yo bu ham borg‘ay Tengri yo‘lida yo iturganim iligimga bergay. Alqissa, bozorg‘a bordim va har ne Shayx deb erdi sotqun oldim. Necha diram ortti, aning bila halvo murattab qildim va Shayx xidmatig‘a azimat qildim. Chun Shayxning zoviyasig‘a yaqin yettim, ko‘rdumki, ulog‘im yuki bila zoviya eshikida turubdur. Inonmadimki, mening ulog‘im bo‘lg‘ay. Yaxshi ehtiyot qildim, hamul yer va barcha ustidagi matoyi mavjud. Shayx qoshig‘a kirdim va tilagan nimalarniki kelturub erdim, arz qildim. Chun halvoni ko‘rdi, dedi: bu nedur? Dedim: iligimga tushgan vajhdin bir nima ortib erdi, muni oldim. Shayx dedi: bu shartda doxil emas. Men ham nima orttururmen. Ko‘p, bozorg‘a bor va qumoshlaringni sot va har ne sotarsen, bahosin filhol ol! Va andin qo‘rqmaki, o‘zga tujjor kelib sening matoingning bahosi sing‘ayki, daryo

mening o‘ng iligimdadur va biyobon so‘l iligimda. Chun bozorga bordim va qumoshlarimni sottim, ma’hud bahosidinki, tama’im bor erdi, ko‘p ortig‘roqqa. Va matlubum hosil bo‘ldi. Va chun ul ishdin forig‘ bo‘ldum, tujjor baru bahrdin to‘kuldilar, andoqki, go‘yo bandda erdilarki alarni ozod qildilar.

607. Shayx Rayhon q. s.

Adanda bo‘lur ermish. Axyordin birav debdurki, birav Adan daryosidin kechrak chiqib, shahrg‘a kira olmadi. Darvozani bog‘lag‘ondin so‘ngra tashqari qolibdur va yegulik hech nima topmaydur. Nogoh ko‘rubdurki, Shayx Rayhon paydo bo‘ldi va aning qoshig‘a keldi. Ul kishi debdur: yo Shayx, darvoza bog‘lig‘dur va ochmen va hech yegulik yo‘qdur. Tilarmen, manga harisa bersang! Shayx debdurki, muni ko‘rung, mendin shomlig‘ tilar va harisadin o‘zga narsa tilamas. Magar men harisapazmen? Ul debdurki, albatta bu muddaodin o‘tman. Bu so‘z orasida kurubdurki, bir ayog‘ issig‘ harisa hozir bo‘ld, ammo yog‘i yo‘q erdi. Ul kishi debdur: Yo Shayx yog‘ kerak! Shayx debdurki, muni ko‘rung, harisani yog‘siz yeya olmas, mendin yog‘ tilar. Magar men yog‘ sotquchimen? Debdur, yo sayyidiy, muni yog‘siz yemagumdur. Debdurki, bu rikvani olib, daryodin su solib kel, to vuzu’ qilay! Boribdur va daryodin su kelturubdur. Shayx aning iligidin rikvani olib, ul sudin harisa ustiga quyubdur, latif mazalig‘ yog‘ ekandur. Yana birav naql qilibdurki, Ramazon oyi baynal-ishoayn bozorg‘a bordim, to ahlim uchun nima sotqun olg‘aymen. Nogoh Shayx Rayhon meni ko‘rdi va o‘zi sari tortti va yuqori havog‘a eltti. Chun ko‘p buyuk bo‘ldum, ko‘zum qarordi, yig‘lay kirishdim. Va mubolag‘a qildimki, meni yerga qo‘ygay. Qaytardi va yerga qo‘ydi. Va dedi: tilar erdim, tafarruje qilg‘aysen, ammo tilamading. Imom Yofi’iy debdurki, hamonoki bu tafarrujdin samovot malakutining ajoyib mutolaasin debdur.

608. Shayx Alouddin Xorazmiy q. s.

Bu toifada buzurg ermish. Imom Yofi’iy r. debdurki, o‘n ikki kun bir vuzu’ bila namoz qildi va o‘n besh yil yonin yerga qo‘ymadi. Va necha kun o‘tar erdiki, taom emas erdi, magar ozroq va xashin. Mening bila Minoda erdi. Dedilarki, necha yildurki, munkirot jihatidinki ko‘rar, ixtiyorsiz hajga kelurki, anga buyurubdurlar. Ham Imom Yofi’iy debdurki, Shayx Alouddin dediki, Rum daryosining sohillaridin ba’zida go‘sha tutub erdim. Chun fitr bayrami bo‘ldi, musulmonlar kentlaridin biriga namoz uchun bordim. Qaytib maskanimga keldim, bir odameni ko‘rdumki, mening hujramda namoz qiladur va hujram eshikidagi qumda hech ayog‘ izi yo‘qdur. Taajjub qildimki, qaydin kirib erkin. Namozdin so‘ngra zor yig‘ladi. Men fikrga bordimki, aning uchun ne kelturayki, iyddur. Iltifot qilmadi va dediki, fikr qilmaki, g‘aybdadur, ulcha sen bilmassen va lekin agar su bo‘lsa, manga keltur! Ibriq sari bordimki, olib kelgaymen. Ibriq qoshida ikki uluq qurs ko‘rdum, issig‘ va ko‘p bodom mag‘zi. Alarni ko‘tardim va aning qoshig‘a elttim. Qursni ushatti va bodom mag‘izlarin mening ilayimga to‘kdi. Va dediki, yegil! Va ul bodom mag‘izlaridin manga berur erdi va men yer erdim. Va ul yemadi, bir mag‘izdin o‘zga yo ikkidin o‘zga. Va men ul taomda g‘arib huzur topar erdim. Dedi: muni g‘arib ko‘rmaki, Tengri taolog‘a bandalar borki, har qayda bo‘lsalar va har ne tilasalar, toparlar. Mening taajjubum ortug‘roq bo‘ldi. O‘zumga dedimki, andin mu’oxot talabi qilay. Dedi: oshiqmaki, yana sanga kelgumdur, inshoollohi taolo. Va g‘oyib bo‘ldi. Va bilmadimki, qayon bordi. Shavvolning yettinchi kechasi keldi va mening bila mu’oxot ahdi bog‘ladi, raziyollohu anhumo.

609. Imom Abdulloh Yofi’iy Yamaniy q. s.

[U Abussaodat Afifiddin Abdulloh b. As’ad Yofi’iy Yamaniy, ulug‘ Makka-Madinaning mehmoni – Alloh har ikkalasini sharofatli qilsin va Alloh undan rozi bo‘lsin!][1]. Vaqtning kibor mashoyixidin ermish. Zohir va botiniy ulumg‘a olim ermish. Va aning tasnifoti bor va ul jumladin «Mir’ot ul-jinon» va «Ibrat ul-yaqzon fi ma’rifati havodis iz-zamon» tarixidur va «Ravz ur-rayohin fi hikoyot issolihin» kitobidur va «Durr un-nazim fi fazoil il-Qur’on il-azim» kitobidur. Va bulardin o‘zga dag‘i mufid musannafoti bor. Va xub ash’or ham aytibdur. Ul debdurki, Shayx Alouddin Xorazmiy r. t. der erdiki,

Shom bilodida bir kecha xuftondin so‘ngra o‘z xilvatimda uyg‘og‘ o‘lturub erdim. Va eshik ichkaridin bog‘lig‘ erdi. Ikki kishi o‘zum bila xilvatda ko‘rdum. Bilmadimki, qaydin kiribdurlar. Bir soat mening bila so‘zlashdilar. Va bir-birimiz bila fuqaro ahvolini yod qilduq. Alar bir kishiniki, Shomdadur, yod qildilar va anga sano dedilar. Va dedilarki, yaxshi kishidur, agar bilsa erdiki, qayondin yir. Andin so‘ngra dedilarki, bizing salomimizni o‘z yoring Abdulloh Yofi’iyg‘a yetkur! Dedim: ani qayondin tanirsiz? Va ul Hijozdadur. Dedilar: bizga yashurun emas. Va qo‘ptilar va ilgari bordilar mehrob sari. Sog‘indimki, namoz qilg‘usilardur, devordin chiqdilar. Va ham ul debdurki, holimning avoyilida mutaraddid erdimki, ilm talabiga mashg‘ul bo‘layki, mujibi fazilatu kamoldur yo ibodatqamu ishtig‘ol ko‘rguzayki, musmiri halovatu dofe’i qilu qoldur. Bu kashokashu iztirobda ne uyqum: qoldi va ne qarorim. Bir kitobim bor erdiki, doim mutolaa qilur erdim. Bu taraddudda ani ochtim. Anda bir varaq ko‘rdumki, hargiz ko‘rmaydur erdim. Va anda necha bayt bitiklik erdiki, hech kishidin eshitmaydur erdim. Va ul abyot budurki,

sh ye ‘ r:

[O‘z tadbiringdan yuz o‘gir va ishlarni Allohning taqdirig‘a havola qil! Ko‘p tor va qiyinchilik keng va oson bo‘lishi mumkin. Ko‘p kenglik esa, Allohning hukmi bilan tor bo‘ladi. Zahmatli ishlarning oqibati senga rizolik keltiradi. Alloh xohlaganini qiladi, amriga bo‘ysun va rahmatidan bahramand bo‘l!][2].

Chun bu abyotni o‘qudum, go‘yoki o‘tung‘a su urdilar va iztirobu qalaqim shiddatin daf’ qildilar. Va ishga mashg‘ul bo‘ldum.

610. Shayx Shihobuddin Suhravardiy Maqtul q. r.

Oti Yahyo b. Habashdur. Mashsho’iylar va Ishroqiylar hikmatida mutabahhir ekandur va alardin har qaysida tasnifoti bor. Va ba’zi ani simiyog‘a mansub qilibdurlar. Va Halab ahli aning sha’nida muxtalif erdilar. Va ba’zi ani ilhod va zindiqag‘a nisbat qilur erdilar. Va ba’zining anga karomotu maqomotqa e’tiqodlari bor erdi. Va derlar erdiki, aning qatlidin so‘ngra ko‘p shavohid aning karomotig‘a zohir bo‘ldi. Va Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da debdurlarki, bu jamoatning so‘zi muv,ofiq ko‘runur angaki, Shayx Shamsuddin Tabriziy q. s. debdurki, Dimishq shahrida Shayx Shihobuddin Maqtulni oshkoro-kofir dyorlar erdi. Dedim: hoshoki, kofir bo‘lg‘ay. Chun sidqi tamom bila Shamsuddin xidmatig‘a kirdi, badri komil bo‘ldi. Men niyozmandlarg‘a ko‘p mutavoze’ bo‘lg‘aymen, ammo qatiq naxvat bila bo‘lg‘aymen mutakabbirlarg‘a. Shihobuddinning ilmi aqlig‘a g‘olib erdi. Aql kerakki, ilmg‘a g‘olib bo‘lsa va dimog‘i hokimeki, aql mahalidur, zaif bo‘lib erdi. Toyifa arvoh olamida zavq toptilar, tushtilar va muqim bo‘ldilar. Va rabboniy olamdin so‘z ayturlar, ammo ham ul arvoh olamidurki, rabboniy sog‘inurlar, magar fazli ilohiy kirgay, yo jazabotdin jazbae yetishgay, yo bir komileki, ani quchog‘ig‘a olg‘ay va arvoh olamidin rabboniy sari tortqay.

611. Xoja Ahmad Yassaviy q. t. s.

Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniy q. s. ning ashobidindur. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy bila q. s. suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy q. r. bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniy r. t. muridlaridurlar, Imom qaysi biyik marotibg‘a yetibdurlar, musohib bo‘lubdur va ro‘zgor mashoyixidin ko‘p buzurgvorlar aning tarbiyatin topibdurlar va Shayx Raziyuddin Ali Lolo q. s. Shayxi buzurgvor Shayx Najmuddin Kubro r. xizmatig‘a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy q. r. xizmatida bo‘lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi bila suluk qilibdur va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining

qiblai duosidur.

612. Qutbuddin Haydar q. s.

Mashhur andoqdurki, Turkiston podshohining o‘g‘lidur va Xoja Ahmad Yassaviy r. t. ning murididur. Kichik yoshida anga jazbae yetibdurki, Hazrat Xoja Ahmad Yassaviy r. t. suhbatidin shikibolig‘i yo‘q erkondur. Har necha otasi iltimos va taklif bila uyiga yetkurur erkondur, yana beixtiyor Xoja mulozamatig‘a borur erkondur. To ulki zajr bila eltib, ani kadxudolig‘qa targ‘ib qilibdurlar. Ul o‘z nafsig‘a andoq zulm qilibdurki, mashhurdur. Ota-onasi chun ko‘rubdurlarki, alarning sa’y va ehtimomi bila bo‘lmas. Tengri bandasin tengriga topshurubdurlar va andin ilik tortibdurlar. Chun Hazrat Xoja Yassaviy q. s. ko‘rubdurki, ota-onasi taklifotidin qutuldi, anga ko‘p nazarlar qilib, Xuroson viloyatig‘a havola qilibdur. Xuroson mulkig‘a kelgandin so‘ngra Turbat va Zova viloyatida sokin bo‘lubdur. Anda azim riyozatlar bila suluk qilibdur va ul maqomg‘a yetibdurkim, ul mulk eli qoshida Qutbi olamg‘a mashhurdur va Haydariy, qavmi o‘zlarin anga nisbat berurlar va turbati hamul Turbat degan yerdadur. Go‘yoki ul yerning oti aning turbati onda erkan jihatdin Turbat bo‘lubdur.

613. Hakim ato r. t.

Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy q. s. ning murididur. Hamonoki bir kun Xoja tabxe buyurg‘ondurlarki, mutbixe o‘tun yetmaydur, deb kelgandur. Alar ashobg‘a degandurlarki, yozidin o‘tun terib kelturung! Va ul zamon yog‘in yog‘adur ekandur. Ashobkim o‘tun teribdurlar, alar xizmatig‘a kelguncha yog‘in jihatidin o‘tunlar xo‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ato tergan o‘tinlarni to‘nig‘a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab ondin qolg‘ondur va Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur. Andoqki, oning favoidi atrok orosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on butadur,
Borgonlarni yutadur.
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadur.

614. Ismoil ato a. r.

Zohiran Xoja Ahmad Yassaviy q. s. ning Ibrohim ato otlig‘ inisining o‘g‘lidur va Xojaning muridi va nazar qilg‘onidur va anga muridu ashob bo‘lubdur. Va karomotu maqomot va xavoriqi odot benihoyat va yoshi yuzga yaqin. Va avlodi o‘n yetti, yo o‘n sakkiz bor erdi va olamdin o‘tarda avlodi orasidin Ishoq atoni o‘z qoyim maqomi qilib olamdin o‘tubdur.

615. Ishoq ato a. r.

Chun atosig‘a xalafu xalifa va qoimi maqom erdi. Muridu ashobqa peshvoliq qilib, atosi zikru avrodig‘a qavm ko‘rguzubdur va o‘z zamonida muqtado ermish.

616. Xoja Bahouddin a. r.

Ismoil atoga nabiradur. Bu xonavodada alardin oliyhimmatroq va muazzamroq o‘tmandur. Doim qush solmoqqa va ovlamoqqa tablu alam bila ishg‘ol ko‘rguzurlar ermish. Zamon podshohi alarg‘a elning irodatu hujumidin yamon eltib, mulkdin ixroj buyurubdurlar. Kashmirg‘a borib, ul xalq alarg‘a murid bo‘lg‘ondurlar.

617. Xoja Boyazid a. r.

Atoning yaqin avlodidindur. Temurbek oning suhbatig‘a kelibdur va kelurda ko‘nglida kechurubdurki, bu erning ma’no olamidin xabari bo‘lsa, bizga issiq halvo tortqoy. Ul muridlarg‘a halvoni xud

buyurg‘on ekandur. Bek bila salomlashib ko‘rishgondin so‘ngra debdurki [avval salom, o‘rtasi taom va oxiri kalom!][1]. Filhol halvoni tortturubdur. Bekka bu hol zohir bo‘lg‘ach, murid bo‘lib langar yasab, ko‘p avqof qilibdur.

618. Xoja Xalil r. t.
Ham ato avlodidindur, Atoning xirqa va sajjodasi «abo an jad» anga tegibdur va ato avlodi orasida naqib ekandur. Ko‘p axloqi hamida andin marziydurur.

619. Qo‘rqut ato a. r.
Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav’izaomiz mag‘izliq so‘zlari aroda bor.

620. Ali ato a. r.
Kumushkentliqdur va ilmi va charog‘i darveshlarida shoe’dur. Necha yillardurki, o‘zi yondurg‘on chirog‘i o‘chmaydur deb mashhurdur. Turk xaloyiqi nazru niyat anga berurlar.

621. Qilich ato a. r.
Azim qurbatlig‘ kishi ekandur va sayyoflik san’atig‘a mashg‘ul ekandur.

622. Sadr ato r. t.
Mavlidi Turkiston viloyatidindur, o‘z zamonida murshid ekandur.

623. Hubbi Xoja a. r.
Mavlidi Xorazm viloyati va navohisidindur. Aning avsofi turk va o‘zbak xaloyiqi orasida andin ko‘prak va mashhurroqdurki, sharhg‘a ehtiyoji bo‘lmag‘oy. Yigitlikda o‘tubdur yigitlar sarvari Hubbi Xoja derlar.

624. Yigit Ahmad a. r.
Karomot va maqomotlig‘ aziz, erkondur. Yigitlik ayyomidin qarilardek toatu ibodat va suluku riyozatqa mashg‘ul bo‘lubdur. Shuhrati turk eli orosida bag‘oyat ko‘pdur.

625. Ko‘k Shayxa.r.
Karomotu maqomot iyasi ekandur va ko‘p ajibu g‘arib holot andin manquldur. Singli nomunosib kishi nikohig‘a kirgondur va oralarida ul kishining nohamvor maoshi jihatidin doim mojaro bo‘lur erkandur. Andoqki, mojarolari Shayxqa dag‘i yetibdur. Ul kuyov beandomlig‘idin noxush so‘z ko‘p aytib, Shayxni malul qilibdur. Shayxning g‘azabi yuzidin tiliga o‘tubdurki, «ko‘r bo‘l, shariat yukini chek!» Ul kishi hamuldam nobino bo‘libdur, al-ilmu indalloh.

626. Temurchi ato r.
G‘oliban mazkur bo‘lg‘an san’atqa mashg‘ul bo‘lur ermish. Bir kun qiziq temurni iligi bila bir olat yasab debdurki, Haq s. t. barcha o‘tlarni manga harom qilibdur.

627. Zuhhodxon r.
Hamonoki Xitoy mulkidindur. Andin Buxoro viloyatig‘a ilm kasbi uchun kelgandur. Andin Xorazmg‘a borib, Hazrat Shayx Najmuddin Kubro q. s. xidmatig‘a tushgandur. Va anda anga ko‘p yorug‘luq nasib bo‘lub, Hazrat Shayx ishorati bila Xuroson mulkiga kelibdur va qabri Chechaktu Qisor viloyatidadur.

628. Shayx Abulhasan Ishqiy q. s.
Xorazmdindur. Shayx Boyazid Ishqiy q. s. kim silsilasi sulton ul-orifin sulton Boyazid Bistomiy r. g‘a yetar, anga tarbiyat qilg‘andur. O‘z zamonida faqr ahlining muqtadosi ermish, balki mashoyixining peshvosi Murid va ashobi bag‘oyat ko‘p va karomotu maqomoti andin ko‘prak.

629. Mahmud Shayxzoda q. s. ,
Shayx Abulhasan Ishqiyning xalafidur. Aning dag‘i muridu ashobi ko‘p. Muomalayu riyozati mustahsan va karomotu maqomoti benihoyat ermish.

630. Xudoyquli Shayx q. s.
Shayx Abulhasan Ishqiyning sohibi sajjodasi va qoyimi maqomi va zamonining shayx ul-mashoyixi ekandur. Ishqiya silsilasida Shayx Abulhasandin so‘ngra go‘yo andin ulug‘roq kishi yo‘q erkandur. Va xavoriqi odotu karomoti ko‘p manquldur.

631. Muhammad Shayx r. t.
Xudoyquli Shayx q. s. ning o‘g‘lidur. O‘z zamonida xaloyiq murshidi ermish. Sultonlar anga muridlik haysiyatidin irodat kelturubdurlar. Aning suhbatida olime anga bir qatla taarruz qilg‘andur. Shayxning ollida obxo‘ra ko‘za turg‘an ekandur. Bir toshni olib, ul ko‘za og‘zig‘a qo‘yubdur. Ul olim har ilmki kasb qilg‘on ekandur, barcha xotirdin chiqib, o‘zin omiyu johil topibdur. Bo‘ynig‘a fo‘ta solib, istig‘for qilib, Shayx qoshig‘a tazallum qilibdur. Shayx ul toshni ko‘za boshidin olg‘ach, yana o‘zin burungi holida topib, Shayxqa murid bo‘lubdur.

632. Ilyos Shayx r. t.
Muhammad Shayx r. a. ning o‘g‘lidur. Zohir ulumida bu silsilada andin olimroq yo‘q ermish. Va haj davlatig‘a musharraf bo‘lubdur. Arabiyatda mohir ermish. Va ul til bila so‘zlashur ermish va nazm dag‘i aytur ermish. Va Samarqandda Qum tog‘ida sokin ermish. Muborak marqadi go‘yo ham anda-o‘qdur.

633. Shayxzoda Abulhasan q. s.
Ilyos Shayxning o‘g‘lidur. Kichik yoshidin riyozatu mujohada bila o‘tkaribdur. Mundoq manquldurkim, Tengri taolo qo‘rqunchidin ancha yig‘lag‘ondurki, ko‘zlariga tiyralik yuzlangandur. Ilyos Shayxdin so‘ngra bu silsila ahli barcha anga bay’at qilib, irodat toza qilibdurlar. Va Makka safarig‘a borurda mizojig‘a za’f bo‘lub, Bistomda Sulton ul-orifin q. s. avlodi anga xirqayu toj havola qilib qaytib, Hirim shahrig‘a yetganda Hazrat Maxdumiy n. m. n. sharafi majlisig‘a musharraf bo‘lub, alardin iltifotlar topib, alar o‘z musannafotlaridin bir kitob va joyinamoz va bir ro‘pok anga bergandurlar. Xoriqi odot andin ko‘p naql qilibdurlar.

634. Shayx Muhammad Sufiy q. s.
Ishqiya silsilasidindur va Xudoyquli Shayxdin tarbiyat topibdur. Andin so‘ng Muhammad Shayx suhbatig‘a yetibdur. Va Ilyos Shayx suhbatig‘a ham musharraf bo‘lubdur. Nafasi muassir aziz erkandur. Va muridlari orasida so‘z bu nav’durkim, Xizr a. s. bila suhbat tutar. Va andin xoriqi odot ko‘p manquldur.

635. Abu Muso Shayx q. t. s.
Ham Ishqiya silsilasidindur va Xudoyquli Shayxning ahfodidindur. Bu silsila ahlidin ul azizlar tariqini faqru fano tavrida kishi ancha rioyat qilmag‘ondur. Va xavoriq andiq ko‘p manquldur.

636. Shayx Sulton Sufiy k. s.
Ul dag‘i ulug‘ Muhammad Shayxning tarbiyatin topibdur va ko‘p mashoyix xidmatig‘a musharraf bo‘lg‘andur. Va o‘zi salimu halim kishi erkandur. Qo‘prak vaht soyimu somit erkandur. Va karomotu maqomoti zohir erkandur.

637. Keshlig‘ ato a. r.
Samarqandning Kesh otlig‘ mavze’idindur. Hamono anga yasoq nisbati bor ekandur. Ul taklifdin xotiri malul bo‘lub, Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviy mazorig‘a borib, riyozatlar tortib, ishiga kushodlar yetgandur. Andin Chin mulkiga tushub, ul xalq muridi bo‘lib, anda elga peshvo bo‘lubdur va mazori hamul mulkdadur va imorat va mujovirlar mutaayyindur.

638. Umar ato r. t.
Keshlig‘ atoning inisidur. Ul ham faqr tariqig‘a kirib, ko‘p safoyi botin kasb qilg‘andur. Va zamon podshohidin elning yasog‘in bag‘ishlar istid’osi qilg‘andur. Ul podshoh ta’n yuzidin degandurki, sen elni muridlig‘ing uchun tilaysen. Sen yaxshi bo‘lako‘r, murid ham bo‘lmag‘usidur. Avval men murid bo‘lay. Ul ham og‘asi borg‘on mulk sari boribdur va riyozatlar tortib, martaba hosil qilibdur. Qabri ham ul mulkda-o‘qdur.

639. Sayyid ato a. r.
Xoja Ahmad Yassaviyning qarobatidur. Riyozat bila mujohadalar tortibdur. Ishi ul yerga yetgan ekandurki, debdurki, men va Ahmad tengashtuk, men biyikrak erdim. Ani ba’zi ham siyodatqa mansub qilibdurlar. Va turk ulusida «Ato» derlar. Va shuhrati bag‘oyat ko‘pdur va da’voomiz so‘zi ham ko‘p.

640. Bobi mo Husayn a. r.
Kibori mashoyixdindur. Debdurlarki, Xoja Ahmad Yassaviy q. r. g‘a kichik erkanida tarbiyat qilg‘andur. Va aning xonavodasin buzurglukka Movarounnahr eli musallam tutubdurlar.

641. Zangi ato a. r.
Turkiston mashoyixidindur va ko‘p mashoyix xidmatu suhbatig‘a yetibdur. Va turk ulusida mashohirlardindur. Aning bobida ham ko‘p so‘zlar manquldur.

642. Husayn Shayx a. r.
Ismoil ato farzandlaridindur. Mustahsan muomalaliq kishi ermish. Xalq aning atvorig‘a firifta bo‘lubdurlar. Dunyo asbobi sori mayl qilmaydur. Va bovujudi faqr o‘zin ul nav’ g‘aniy ko‘rguzur ermishki, xalq rioyat yo‘lin topmaslar ermish. Olamdin o‘tgan zamonida manquldurki, eldin g‘oyib bo‘lg‘ondur. Hozir bo‘lg‘ach boshi ustida bir qush qo‘ng‘on ermishki, hech kim ul-naqshu ranglik qush ko‘rmagan ermish. Elni ko‘rgach uchubdur, vallohu a’lam.

643. Yusuf Shayx a. r.
Sadr ato q. s. avlodidindur. Maskani Qo‘xi Sof erkandur. Andin ham ko‘p xoriqi odotu karomot manquldur. Umri yuz yigirmaga yetgandur va mozori ham ul-navohidadur.

644. Hoji Shayx a. r.
Yusuf atoning o‘g‘lidur. Ishin atosidin ko‘p o‘tkaribdur. O‘z zamonining uluq ulusi o‘zin anga muridu ashob tutar erkandurlar. Arlot ulusi va Tarxon elining uluq kichiki ani muqtadoliqqa qabul qilibdurlar. Xoriqi odot ko‘p andin zohir bo‘lur ermish. Bir kun muridlari bila otlanib borur ermish, bir yerda tushmishlar, o‘tqa ehtiyoj bo‘lmish. Har taraf tilamishlar, topilmamish. Shayx demishki, men sizga o‘t topsam, nechuk bo‘lg‘ay? Demishlarki, lutf bo‘lg‘ay! Yog‘lig‘i ichida bir tugun ermish. Ul tugunni

yeshmish, andin bir pora cho‘g‘ chiqmish. Ul cho‘g‘ni ul o‘tqa muhtoj elga bermishki, alarning ham suhbatlari qizimish va ham ko‘zlari yorumish. Vallohu taolo a’lam.

645. Adib Ahmad r. t.

Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g‘arib nimalar manquldur. Derlarki, ko‘zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo‘lub, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay. Ammo bag‘oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish. Haq s. t. agarchi zohir ko‘zin yopuq yaratqandur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur: lubyog‘a ilik surtubdur va debdurki, qo‘y bukragiga o‘xshaydur va naxudni barmog‘i bila silab, debdurki, itolg‘u boshig‘a o‘xshar. Maskani Bag‘doddin necha yig‘och, ba’zi debdurlar, to‘rt yig‘och yo‘l erkan. Bir kun imom A’zam q. r. darsig‘a hozir bo‘lur erkandur va bir mas’ala o‘rganib, bu yo‘lni yayog‘ borur erkandur. Darsda yeri saffi ni’ol erkandur. Naqledurki, Hazrat Imomdin so‘rubdurlarki, shogirdlaringiz arosida qaysidin andoqki ko‘nglunguz tilar, rozisiz? Bovujudi Imom Muhammad va imom Abu Yusuf r. va alarning abnoyi jinsi va hamsabaqlari. Imom q. s. debdurki bori yaxshidurlar. Ammo ul ko‘r turkki, saffi ni’olda o‘lturur va bir mas’alani mazbut qilib, to‘rt yig‘och yo‘l yayog‘ kelib borur, andoqki kerak ul tahsil qilur. Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoe’dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoydidindur.

Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,
Ilik so‘n, og‘iz ur, yemasang yema!

Va ham aningdurkim:

So‘ngakka ilikdur, eranga bilik,
Biliksiz eran-ul so‘ngaksiz ilik.

Al-ilmullohi taolo.

646. Mavlono Kalon Ziyoratgohiy q. s.

Aziz kishi ermish, zuhdu taqvo bila ma’ruf va salohu sadod bila mashhurdur. Ziyoratgohdin shahrg‘a masjidi jome’g‘a kelur bo‘lsa, uy minib kelur ermish. Buzurglugi zamon ahli qoshida muharrar ermish. Zamon podshohi suhbatig‘a orzumand ermish, vale ul ibo qilur ermish. Andoqki, bir kun g‘oyat ishtiyoqdin otlanib, Ziyoratgohg‘a aning ziyorati qasdig‘a azimat qilibdur. Yo‘lda otdin yiqilibdur, dag‘i yonibdurki, Hazrat Mavlono chun bizing mulozamatimizni qabul qilmaydur, tashvish bermagan avlodur. Va qabri Ziyoratgoh dashtidadur.

647. Mavlono Nizomuddin Ahmad q. s.

Mavlono Kalonning xalaf farzandidur. Donishmandu muttaqiy kishi ermish. Ravishi pok, suluki inchka. Hazrat Mavlono Sa’duddin Qoshg‘ariy q. r. aning bila musohib bo‘lub erkandur. Va degandurki, otasin ulug‘ kishikim derlar, agar o‘g‘lining o‘n ulushidin biri bo‘lsa ham uluq kishi ekandur. Aning so‘zidurkim, uch nimadurki ozi ko‘pdur. Shirkat va shirk va o‘t. Qabri ham Ziyoratgohda, otasi yonidadur.

648. Bobo Sungu q. s.

Zamon majzublaridin ermish. Andxud qasabasida bo‘dur ermish. Sohibi botin kishi ermish. Ramzlarin bilganlar natija topar ermish. Temurbek Xuroson mulki azimatig‘a yuruganda Andxudqa yetganda mashhurdurki, Bobo xidmatig‘a borg‘andur. O‘lturg‘ondin so‘ngra Bobo ilamida bir sufrada yaxna et

erkandur. Qo‘yning yaxna to‘shin olib, Temurbek sari otibdur. Temurbek g‘oyati aqlu zakosidin debdurki, Xurosonni yer yuzining ko‘ksi debdurlar. Ani Bobo bizga havola qildi, deb bu bashorat bila yurub, Xuroson mulkini olibdur. Va Bobo Sunguning qabri ham Andxud qasabasidadur, yuzoru va yutabarraku bihi. Va Bobojon Bobo aning xalifasi ermish. Va Bobo Ibrohim Bobojon Boboning muridi va xalifasi. Ikkalasining qabrlari ham Bobo Sungu jivorida, Andxuddadur. Va holo darveshlar takyani ma’mur yasarlar.

649. Shayx Abu Mansur Moturudiy q. s.

O‘z zamonining a’lami ulamosidin ermish. Ul vaqt ulamosi alarni Sulton al-muizzin der ermishlar. Zohir va botin ulumi birla orosta. Alardin g‘arib holog manquldur: bir kun o‘z havlilarida bir ayvonda o‘lturub, hamono ilaylarida tafsir emish bo‘lg‘ay. Ikki mast razilvash eldin alarning eshiklariga kelib, biri tashqari turub, biri ichkari kirib, alarning sharif avqotlarig‘a beadabona harakat va so‘z bila mushavvish bo‘lur ermish. Alarg‘a g‘ayratu g‘azab mustavli bo‘lub, qo‘pub, bir mahkam cho‘bdasti turg‘on ermish, olib, ul beadabning boshig‘a andoq urarlarkim, mag‘zi parishon bo‘lub yiqilur. Oyog‘idin sudrab, bir chuqur ermish, anga solurlar. Dag‘i kelib, huzur bila qiladurg‘on ishlarig‘a mashg‘ul bo‘lurlar. Yana bir hamrohi bir zamon turar. Bu kirgan hamrohi chiqmas. Oni tilay ul dag‘i kirar. Hamul nav’ be adabona so‘z ayta kirishurki, mening hamrohim bu uyga kirdi va chiqmadi. Qayon bordi? Ayt! – deb. Shayx ayturlarki, munda hech kishi kirmadi. Bir it kirdi, telbalik qilur erdi, urub o‘lturdum, dag‘i ana u chuqurda tashlabmen, deb chuqurni ko‘rguzdilar. Ul mast ul chuqur ustiga borib, mulohaza qilsa, ko‘rarki, bir itdur, mag‘zi parishon bo‘lub, o‘lub yotur. Ul mastlig‘din sog‘olib, Hazrat Shayx qoshida tavba qilur va tuz yo‘lg‘a kirar.

Shayxning muborak qabrlari Samarqandning Chokardiza go‘ristonidadur va zamon podshohi ul mozor boshida mutakallif masjid yasabdur.

650. Shayx Burhonuddin Sog‘archi q. s.

Sog‘arch – Samarqandning to‘rt yig‘ochida bir kentdur. Shayx andin ekandur. Va o‘z vaqtida bag‘oyat buzurg ekandur. Ko‘p xaloyiqning irodat va ixlosi anga bor ekandur. Va qabri ham Samarqandda, mazkur bo‘lg‘on Chokardizadin kirgach, o‘ng qo‘ldadur.

651. Sayyid Ne’matulloh q. r.

Kirmon viloyatining Mohon degan kentida sokin erkandurlar. Zohiriyu botinin ulumida komil va zuhdu taqvo bila orosta. Zamonning salotini, xususan Hinduston mulkining maliklari anga muridu muxlis ermishlar. Va tuhfa va nazri benihoyat ul mulkdin Kirmong‘a Mir xidmatig‘a yuborurlar ermish. Mir nazmga dag‘i mashg‘ul bo‘lur ermishlar. Va devonlari dag‘i bor. Va bu abyot alarningdur.

B a y t:

[Biz Xudoni xalqqa tanitmoq uchun dunyoga keldik][1].

Qabri hamonoki ham ul kentdadur.

652. Shayx Jamol Nuqoniy q. s.

Uz vaqtida buzurg ermish. Zohir ibodoti va sofiy vaqti bor ermish. Mashhadi muqaddasaning yonida Nuqon Otlig‘ kentidin ermish. Nuqondin haj azimati qilib, tavakkul qadami bila tebrabdur. Bag‘dodqa yetganda chun zodu rahlasi yo‘q erkandur, muzdurliqqa boribdur. Bir muridi bila ekandur, alarg‘a balchig‘ ishi buyurubdurlar. Nova tashiydur ermishlar. Murid balchig‘ novag‘a solib, Shayx ko‘tarib yeriga eltur ermish, chun namoz vaqti bo‘dubdur. Shayx debdur muridg‘akim, bu novag‘a sen dastur bila balchig‘ solatur, men namoz qilib kelguncha. Murid ul balchig‘ni dastur bila solur ermish va nova eltur yerga yetkurur ermish. Uy iyasi munga muttali’ bo‘lub, taajjub qilibdur. Shayxni tilasa, namozg‘a

mashg‘ul topibdur, ayog‘ig‘a tushub, murid bo‘lub barcha molu jihotin arz qilibdur. Shayx qabul qilmay Makka azimati qilibdur. Ul dag‘i Shayx xidmatig‘a boribdur. Makkadin qaytqanda ko‘p iltimos bila Shayxning Bag‘doddin yo‘l yarog‘in qilib, Nuqong‘a uzatibdur. Va holo Nuqonda Shayxning xonaqohining asari mavjuddur. Va mozori Dastjardi Xushangur degan kentdadur.

653. Shayx Abdulloh Barnishobodiy q. s.

Xoja Ishoq Shahid murididur. Xonaqohi va muridlari bor erdi. Va zamon xaloyiqining anga ko‘p irodati bor erdi. Sofiy avqotlig‘ va avrodlig‘ kishi erdi. Podshohi zamonning ham ko‘p ixlosu niyozi bor erdi. Qabri ham ul Barnishobod degan kentida-o‘qdur.

654. Shayx Rashid Bidvoziy q. s.

Shayx Abdullohning ashobidindur. Aning dag‘i muridlari va ashobi bor erdi. Va o‘z xaylining muqtadosi erdi. Va xalqning irodat va ruju’i anga ko‘p erdi. Va qabri o‘z kenti Bidvoz degan yerdadur.

655. Shayx Shohi Bidvoziy q. s.

Ul Shayx Rashidning murididur. Zohir ulumidin oris erdi, ammo o‘z ixlosu irodat va zuhdu vara’u toatidin botin olamidin anga qaviy kushodlar yetib erdi. Va xalq anga shefta bo‘lub erdilar. Fano tariqida komil va so‘zi bag‘oyat muassir erdi, andoqki, bovujudi omiylik. Ulamodin ko‘p el anga muridu munqod bo‘lub erdilar. Va xoriqi odotu af’ol ham naql qilurlar. Va holo ham aning muridlaridin ko‘p darveshlar oradadurlarki, sulukka, balki irshod va talqing‘a mashg‘uldurlar. Va tegralarida fuqarodin toliblar alardin bahramanddurlar. Va Shayxning mozori o‘z kentidadur.

656. Shayx San’on.

Oning buzurgligin Hazrat Shayx Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» otlig‘ kitobini o‘qug‘on kishi bilur. Ishq va muhabbat bahrining gavhari va shavqu malomat otashkadasining samandari erkandur va Shayx Nozim q. s. aning bobida mundoq debdurki,

m a s n a v i y:

[O‘z davrida yashagan Shayx San’onning fazilati haqida har qancha yozsam oz. U kamolga yetgan to‘rt yuzta muridi bilan Haramda ellik yil yashadi][1].

Bovujud bu biyik marotib ulcha ishq oshubidin va muhabbat lagadkubidin Shayx boshig‘a tushubdur, aning abnoyi jinsig‘a yo‘qkim, hech bani odamga tushmaganini har kishi «Mantiq ut-tayr» kitobini o‘qusa, ma’lum qilur.

657. Mir Koriz r. t.

Ham Shayx Fariduddin Attor ba’zi kitobida aning zikrin qilibdur va adosidin base buzurglik fahm bo‘lur. Derlarki, mujarrad ermish. Zamonining ahli ta’ahhul taklifi qilibdurlarki, hayf bo‘lg‘ayki, andin natijae qolmag‘ay.

Ul debdurki, bizing bila basar eltmak dushvordur. Alar debdurlarki, biz biravni topaliki, sizning musohabatingiz va xidmatingizni bekulfat qabul qilg‘ay. Ul rozi bo‘lg‘ondin so‘ngra alar anda bir uluq kishining qizini anga nikoh qilibdurlar. Ul bir qorong‘u xilvatda bir kub ichinda suluk qilur ermish. El tarqag‘andin so‘ngra ul kubga kiribdur. Va mankuhasig‘a debdurki, sen ham kir! Ul ibo qilibdur. Ilhoh qilgach, debdurki, manga bu taklifni qilsang, taloqimni ayt! Ul taloq qilg‘andin so‘ngra mahru kobin tilabdur. Mir Koriz ilig urub, ul kub og‘zidin bir miqdor ushatib anga beribdur. Tashqari chiqarib ko‘rsa, qizil oltun ekandur. Pushaymonlik sud qilmaydur. Aning mozori Mashhad navohiysidadur. Va niyozmndlaridin ba’zi hazira yasabdurlar, yuzoru va yutabarraku bihi.

658. Shayx Shoh Ziyoratgohiy q. s.

Valodati Farohda ermish. Kichik yoshda otasi anig Farohdin Ziyoratgohg‘a kelturubdur Mavlono Kalon qoshig‘a. Va Mullo Kalon aning otasining muridi ermish. Aning takmilini anga havola qilibdur. Bulug‘ haddig‘acha Mullo Kalon ani muhofazat qilib, saboq o‘qubdur. Yigit bo‘lg‘ondin so‘ngra Ziyoratgohning qadim madrasasida sokin bo‘lub, zohiriy ulum takmilin qilibdur. Va Mavlono ham ul dastur bila andin xabardor ermish. Muddatdin so‘ngra shahrg‘a kelib, madrasasida sokin bo‘lub, mufrit taqvo yuzidin sulukka mashg‘ul bo‘lubdur. Zotida zuhd kichik yoshidin mutamakkin ermish, andoqki, tahsil chog‘ida hech tolibi ilm uyidin sham’ yorutmaydur. Chun inzivosi g‘oyati quvvat va niyati takmilu tatmimg‘a yetibdur, g‘aybdin abvobu kushod va anvo’i fayzu irshod alarg‘a yetibdur Ziyoratgohg‘a avd qilib, mavrusi manzilig‘a kirib sokin bo‘lubdur. Soyir avqotda hech kim bila ixtilot qilmas erdi. Akobir va ashrof, balki zamon podshohlari Shayx ziyoratig‘a borurlar erdi, ammo adabu ta’zim yuzidin rasm yo‘q erdiki, eshik qoqqaylar, xo‘shada tushub o‘ltururlar erdi. Birav uydin chiqsa, kirib xabar eltur erdi. Shayx tilamaguncha kishi kirmas erdi. Har kishi suhbatig‘a yetsa erdi, mahobatidin dalir so‘z ayta olmas erdi. Va haqoyiqu maorifi muassir erdi. Va podshoh va gadog‘a nasihatu pandi alassaviya erdi. Podshohga bir kun bu nav’ nasihat qilg‘andurki, harne o‘zungga ravo ko‘rmassan, Tengrining hech bandasig‘a ravo ko‘rma! Bu so‘z muassir tushub, chandin musulmonlarg‘a naf’ yetib, podshoh bu so‘zni mazkur qilur erdi. Va bu haqir bila ko‘p iltifoti bor erdi. Ko‘p qatla xayr duosi qilib erdi. Umid ulki mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay. Yoshlari yetmish ikkiga yetganda Ziyoratgohda dunyodin o‘ttilar. Va Hirot shahrida Shayx Bahouddin Umar q. s. hazirasig‘a naql qildilar.

659. Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s.

Alar Shayx Zaynuddin Xavofiy q. s. ning kibor xulafosidindur. Zohiriy va botiniy ulumda komil. Qirq yilg‘a yaqin irshod sajjodasi ustida istiqlol bila mutamakkin erdilar. Hazrat Shayx Tabodgoniy qaryasig‘a yetganda alar kichik yoshda ermishlar. Shayx suhbatining sheftasi bo‘lubdurlar. Shayx azimat qilg‘anda tilabdurlarki, xizmatida borg‘anlar. Shayx debdurlarki, holo, saning ish qilur vaqting emas. Tahsilg‘a amr qilibdurlar. Hirot shahrig‘a kelib, Feruzobod bozorida madrasai Sabzda necha vaqt zohir ulumi kasbig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar. Ammo doim xayollarida bu toifaning suluki dag‘dag‘asi bor ekandur. Bir kun hujralarida mutolaag‘a mashg‘ul ekandurlar, janoza saloti uni kelur. Qo‘porlarki, ul namozg‘a yetgaylar. Tashqari chiqib, ehtiyot qilurlar. Janoza va salot tortqon kishi ko‘runmas. Taajjub bila hujrag‘a kirib, yana mutolaag‘a mashg‘ul bo‘lurlar. Yana ul un kelur. Yana chiqarlar va ehtiyot va tafahhus qilurlar va har kishidan so‘rarlaru ne ul janozadin va undin asar bor ermish va ne hech kishiga andin vuquf. Alar o‘zlariga derlarki, go‘yo bu un [o‘lmasdan burun o‘linglar][1] hadisi hukmi ishorat angadurki, o‘lumning tahniyasida bo‘lg‘ay, chun vaqt yetgan erkandur. Chiqib, Hazrat Shayx xizmatig‘a kelib, jidd bila sulukka ishtig‘ol ko‘rguzurlar va oz fursatda alarg‘a ko‘p rushd zohir bo‘lur. Shayx der ermishlarki, Mavlono Shamsuddin Muhammad sarig‘ oltun erdi. Biz ani sikkazada qilduq va har kimga maktube yo ruq’a bitsalar ermish, alarg‘a buyururlar ermish va istihson qilib der ermishlarki, bizing mofizzamirimizni bitirsen. Mavlonodin manquldurki, bir ramazon oyida Shayxning masjidining imomi g‘oyib ermish. Alarg‘a havola bo‘lubdurki, tarovihda imomat qilg‘aylar. Dastur bu emishki, Shayx masjidida tarovihda si pora Qur’onni bir xatm qilur ermishlar. Alar har kun bir se porani yod tutub, tarovihda imomat qilib, ul ramazon ma’hud dastur bila Qur’on xatm bo‘lubdur va Shayxdin so‘ngra istehqoqu istiqlol bila murshid alar bo‘ldilar va xosu omning ruju’i alar xizmatida voqe’ erdi va xonaqohlarida muridlarni arba’in va xilvatqa o‘lturtmoq va alar takmilig‘a ishtig‘ol ko‘rguzmak alar zamonida alarning xonaqohida o‘q erdi va xotirlari mayli yaxshi un bila samo’g‘a ko‘p moil erdi va Mavlono sozu xonandalig‘din bot muassir bo‘lib, samo’g‘a qo‘porlar erdi va behol bo‘lur erdi va majlis huzzorig‘a g‘arib asar qilur erdi. Andoqki, betahammul bo‘lub erdilar va alarning tasnifoti bor, misli «Asmbulloh sharhi» va «Manozil us-soyirin» va «Qasidai

burda muhammasi» va «Tazkirat ul-habib» va «Vasoyo» tarjimasi va bir «Arba'in» tarjimasi «zikr» bobida. Va yana bir «Arba'in» tarjimasi «faqr suluki» bobida. Va bu faqirg'a iltifotlari ko'p erdi. Bu hadisni alardin istimoim borki, [iymon ikki bo'lakdan iborat: yarmi sabr, yarmi shukr][2]. Yoshlari sakson sakkizga yetti va sakkiz yuz to'qson birda Chilgaziy mahallasida olamdin o'ttilar va Xiyobonda madfundurlar. Muxlislaridin ba'zi qabrlari boshida xonaqoh va masjid imorati qilibdur va darveshlari farzandlari xizmatida sulukka mashg'uldurlar va [«qutbi zamon biraft»][3], alarning favtining tarixidur.

660. Xoja Abdulaziz Jomiy q. s.

Hazrat Shayx ul-islom Shayx Ahmad Jomiy q. s. ning yaqin avlodidindur. Kichik yoshdin zuhdu taqvog'a orosta ermishlar. Hiriy shahrida zohir ulumi takmili qilibdurlar va Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariy q. s. irshodi bila xojalar q. a. tariqida sulukka mashg'ul bo'lubdurlar va taqvolari mufrit erdi, soyim ud-dahr erdilar va samo' majlisida azim sayhalar urub, bexud bo'lur erdilar. Ulug' yoshlarida haramayni sharifayn ziyortig'a borib, musharraf bo'ldilar va vajdu shavq mizojlarida g'olib erdi va ko'prak avqot «Futuhoti Makkiya»ni mutolaa qilur erdilar. Alar vaqtida Shayx ul-islom q. s. avlodida bu tariqda alar erdilar. Va xaloyiq va soyir avlod alarg'a muxlisu munqod erdilar. Va bu haqir borasida iltifotlari ko'p erdi va ko'p qatla fotiha bila duoi xayr qilibdurlar. Umid ulki, mustajob bo'lmish bo'lg'ay. Sakson ikki yoshlarida to'qquz yuz ikkida Jom viloyatida olamdin o'ttilar. Shayx ul-islomning xonaqohida madfundurlar.

661. Mavlono Alouddin q. s.

Aning asli Ko'histondindur. Shahrg'a tahsil uchun kelib, Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariy q. s. suhbatig'a musharraf bo'lubdur. Va sulukka mashg'ul bo'lubdur. Va Hazrat Mavlono irshodi bila anga ko'p rushd hosil bo'lubdur. Va'zu samo' majlisida xushhol bo'lub, sayhalar tortar ermish. Base toliblarg'a faqr tariqi talqini qilur ermish. Ikki haj tashrifig'a musharraf bo'lub, anda Shayx Abdulkabir degan buzurg suhbatig'a yetib, ko'p favoyid topibdur. Yoshi yetmish uchga yetib, sakkiz yuz to'qson ikkida olamdin o'tti. Va qabri o'zining piri Mavlono Sa'duddin q. s. taxti ustidadur. Favtining tarixi [«Pir raft»][1] alfozidin topibdurlar.

662. Mavlono Abulxayr q. s.

Oti Ahmaddur. Hofiz Shamsuddin Saraxsiyki derlar, sohibi vaqt kishi ermish, aning o'g'lidur. Va kichik yoshda Qur'onni hifz qilib erdi. Va Shayx Zaynuddin Xavofiy r. t. silsilasida suluk qilur erdi. Yaxshi tab'i va. yaxshi ixtiloti bor erdi. Bu faqir Hazrat Maxdumiy n. m. n. jamoatida aning keynida namoz qilibmen. Qur'onni xo'b va muassir o'qub erdi. Yoshi yetmishga yetganda sakkiz yuz sakson yettida olamdin o'tti. Va qabri Hirot shahrining sharqiy haddida Shoh Abulg'ays go'ristonida durur.

663. Mavlono Shihobuddin q. s.

Oti Muhammaddur. Mavlono Abulxayrning og'asi erdi. Ul dag'i kichik yoshida Qur'on hifzi qilib erdi. Darveshlik va faqr tariqi sulukida biyik holatu voqe'otqa yetib erdi yoshi saksonga yetganda sakkiz yuz to'qson to'qquzda dunyodin o'tti. Qabri inisi yonida, Shoh Abulg'aysdadur.

664. Mavlono Xojiy r. t.

Yigitlikda tamavvul va moli bor ermish. Barchasin darveshlarga va faqr ahlig'a sarf qilibdur. Va suluki chog'ida sakkiz haj davlatig'a musharraf bo'lubdur yillar Makkada mujovir erkandur. Qirq yilg'a yaqin hazrat Maxdumii n. m. n. xidmatig'a musharraf erdi. Va ul Hazratning aning bila ko'p inbisotu iltifotlari bor erdi, andoqki, alarning kutubu musavvadalarin muhofazat qilur erdi. Va yoshi yetmish to'rtga yetganda sakkiz yuz to'qson to'qquzda olamdin o'tubdur. Va mozori Hazrat Maxdumiyning suffasi ustidadur.

665. Mavlono Sa’duddin r. t.

Bahrobodning Ravniz otlig‘ kentidin erdilar Donishmand va muttaqiy erdilar. Kichik yoshidin taqvoyu zuhd bila o‘tkarib erdilar. Hirot shahrida Hazrat Maxdumii n. m. n. bila ko‘p suhbat tutubdurlar. Va tahsil ayomida bila hamsaboq o‘qubdurlar. Va Mir Izzuddin Tohir Nishoburiynng shogirdi erdilar. Va Shayx Sa’duddin Hummuyi r. ning avrodin o‘qur erdilar. Va qirq yilg‘a yaqin Mashhadi muqaddasai rizaviyada sokin erdilar Va hayotlari muddatida «Faroyiz» adosidin so‘ngra «Tafsir» bila «Hadioqa mashg‘ul bo‘lurlar erdi Va el bila ixtilot qilmas erdilar. Va dunyo so‘zi alar majlisida o‘tmas erdi. Alar suhbatig‘a yetib, so‘zlarin eshitgan kishiga Hazrat Rasul s. a. v. va buzurgvor ashobining tariqi yod bo‘lur erdi. Ba’zi muxtalif mozohib ahliki, alar tavrida taassub g‘olib bo‘lur, Mavlononing buzurglukida hech so‘zlari yo‘q erdi. Bu haqir borasida ko‘p xayr duolari qilibdurlarki, aning bila bag‘oyat umidvormen. Sharif sinlari to‘qson yettiga yetti, to‘qquz yuzda dunyodin o‘ttilar. Va qabrlari Mashhadning bozasida Ali Zaynuddinning xonaqohi ollidadur.

666. Mavlono Muhyi q. t. s.

Imom, Rofi’iy G‘aznaviy q. s. farzandlaridindur. Valodatlari Andxudda erkandur. Kichik yoshida bozordin otasi bila o‘tub borurda, Bobo Sungu a. r. ki, zamonning majzublaridin ermish, iligin tutub, halvonaz do‘konig‘a tortib, uch tika halvo og‘zig‘a solibdur. O‘z davrida Haq taolo anga go‘yolig‘ beribdur. Donim der ermishki, ul halvoning halovati jonim mazoqidin chiqmas. Va ul Samarqandda tahsil qilibdur. Va xonaqohi va muridlari bor ermish. Va muassir va’z aytur ermish. Libosi yo kapanak, yo po‘stin ermish. Ko‘nglak o‘rnig‘a bir chodiri shab egniga solur ermish. Mashhur mundoqdurki, har kun «Kalomulloh»ni bir xatm qilur ermish. Ishi to‘qson yettiga yetib, sakkiz yuz oltmish beshda dunyodin o‘tubdur.

667. Muqriy Mahmud q. s.

Xorazmliqdur, husni savti a’lo darajada erdi. Va bag‘oyat darvesh va pokiza ro‘zgor kishi erdi. Mavlono Muhyi a. r. ning muridi erdi. Va o‘zining ham ko‘p muridlari bor erdi. Va Hiriy shahrining masjidi Jome’ida yetmish yil azon davdati anga muyassar bo‘ldi. Va yoshi yuz to‘rtga yetti va sakkiz yuz saksonda dunyodin o‘tti. Va qabri Mavlono Sa’duddin Qoshg‘ariy q. s. ning hazirasidadur.

668. Mavlono Vajihuddin r. t.

Hazrat Mavlono Muhammad Tabodgoniy r. t. ning ashobidindur. Tavbasining bidoyati bu erdikim, burun tolibi ilm kishi erdi. Vazifasining barotin bir kentga bitib erdilar, ani bitkarurga borurda darveshlik dag‘dag‘asi ko‘ngliga tushub, ham andin madrasadag‘i kutubni va hujrani muqfal quyub, Mavlono Sirojiddin Olim suhbatig‘a borib, inobat qilib, bir yil alar bila bo‘lubdur. Va andin Makka azimati qilibdur. Va Mashhadda Hazrat Mavlonoyi mazkur xidmatig‘a yetibdur. Va alar ani asrabdurlar va ko‘p ish buyurub, irshod ijozati beribdurlar. Yoshi yetmish sakkizga yetganda sakkiz yuz to‘qson to‘rtda dunyodin o‘tubdurlar.

669. Mavlono Muhammad Amin r. t.

Bag‘oyat buzurgvor kishi erdilar, donishmand va muttaqiy. Va majolislarida tafsir va hadisdin o‘zga so‘z oz o‘tar erdi. Va aksar, Haq s.t. ning lutfu ehsoni va bandalarg‘a rahmu rahmatidin va mujrim bandalarning Tengri taolo avfidin umidvorlig‘i bobida oyotu ahodis o‘qurlar erdi. Har necha foriqu fojir va noumid kishi alar suhbatig‘a yetsa erdi, umidvor chiqar erdi. Muborak sinlari yuzdin tajovuz qildi. Bu ruboiy bu faqir xotirig‘a alarning muborak tilidin qolibdurki,
ruboiy:

[Shamol esdiyu jonon zulfining hidini keltirdi, bizning eski xarob ishqimizni yangiladi. Ey shamol, u bilan oshnolig‘ing bor, zinhor biror begona atrofida aylanma][1].

Shayx Shoh Ziyoratgohiy va ul asrda koʻprak mashoyix bila suhbat tutub erdilar. Balki mashoyix alar suhbatigʻa tabarruk tilar erdilar. Qabrlari Ziyoratgoh dashtidadur.

670. Darvesh Muhammad Bihra r. t.

Shayx Zaynuddin Xavofiy q. s. majlisigʻa yetib erdi. Va Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s. xidmatida koʻp suluk qilgan kishi erdi. Hirot shahrining Bihra otligʻ kentida boʻlur erdi. Va muridlari bor erdi. Va elga nasihatu pand ayturda betahoshiy erdi. Va qabri ham ul Bihra yonida bir buyuk tepa ustidadur.

671. Darvesh Mansur q. t. s.

Pokrav solik erdilar. Va Shayx Hasan Juriy muridlaridin erdilar. Aksar avqot soyim erdilar. Va zohir ulumini Mavlono Yahyo Sebak qoshida tahsil qilib erdilar, Va zamon podshohi bu haqir kichik erkanda aruzu sanoeʼ oʻqumoqqa alargʻa siporish qilib erdilar. Ammo bu toifaning chun istilohotin ham xoʻb bilur erdilar. Mundin ham koʻprak alardin eshitilur erdi. Bu toifada alardek xush tabʼu daqiq oz kishi voqeʼ boʻlmish boʻlgʻay. Alar favoyididin bir-ikki ruboiy sabt qililur.

R u b o i y:

[Oʻz zotiga qoyim Haq har bir zarrada zuhur etadi. Ammo gʻofillar koʻzidan pinhon. Daraxtdan «analloh» sadosi chiqdi. Mansur «analhaq» desa, ajab emas...

*** * ***

Har bir zarra oʻzicha mavjud emas, bu haqda turli gaplar aytmaslik kerak. Yaratish istaksiz boʻlmas. U istaganni esa, rad etib boʻlmas)[1].

Olamdin soyim oʻttilar. Va qabrlari Xoja Toq goʻristonidadur.

672. Darvesh Hasan Shahroshub q. s.

Astrobodda boʻlur erdi. Mashoyixiing koʻpining suhbatigʻa yetib erdi. Va xaloyiqdin eʼroz qilib, goʻshae tutub erdi. Va hech kimdin hech nima qabul qilmas erdi. Va «Mushaf» kitobi bila maosh oʻtkarur erdi, ammo qogʻazu siyohi va oʻzining kitobatigʻa yarar muzddin ortiq nima rioyat jihatidin bersalar erdi, qabul qilmas erdi.

Bagʻoyat zohidu muttaqiy kishi erdi. Qabri Astrobodda oʻz maskanidadur.

673. Darvesh Muhammad Gozurgohiy q. s.

Ul sipohiy yigit erdi. Oti Maqsud Ali. Ammo nomurod uva darveshvash yigit erdi va darveshlikka moyil. Oqibat sipohiligʻni tark qilib, Hazrat Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s. mulozamatigʻa musharraf boʻlub, alarning ilkida tavba qilib, alar irshodi bila sulukka mashgʻul boʻldi. Va andoq mustahsan muomalagʻa muvaffaq boʻldiki, oz fursatda Mavlono hazratlarining kibor ashobi ani musallam tutarlar erdi. Va gʻolibliqqa pisand qilurlar erdi va Mavlononing ham inoyat nazari muridlaridin anga koʻprak erdi. Faqr tariqida koʻp yorugʻluqlar topib, maqosid hosil qilgʻondin soʻng oʻzgalardek olamdin oʻtdi. Hamonoki qabri Gozurgohdadur.

674. Mavlono Muhammad Xurosoniy a. r.

Avoilda louboli va lavand va oshuftaroʻzgor va xammor kishi erdi. Haq s. t. hodiyi tavfiqni aning sarvaqtigʻa yetkurdi va koʻngliga darde tushdi va ul voshoyist ishlarni tark qildi va Mavlono

Muhammad Tabodgoniy r. xizmatig‘a kelib, tavba qildi va sulukka mashg‘ul bo‘ldi va shoyista maosh ilgari tutdi va yaxshi arba’inlar chiqardi va Makka azimati qildi. Va tavakkul qadami bila ul yo‘lni bordi va Haramayni sharifayn ziyoratig‘a musharraf bo‘ldi. Va necha yil anda mujovirliq qildi va andag‘i xalqning ko‘pi murid bo‘ldilar. Chun Makkadin yonib keldi. El orosig‘a kirmadi. Ko‘prak avqot Pay rabotida ibodatqa mashg‘ul erdi. Bu haqir bir-ikki qatla suhbatig‘a ul mutabarrik manzilda musharraf bo‘ldi. Va ich og‘rig‘i marazi bila olamdin o‘tdi va qabri Hazrat Mavlonoi mutabarrak mozori jivoridadur.

675. Darvesh Sayyid Hasan q. s.

Xuroson viloyatining ashrofidin erdilar. Sipohilig‘ suratida o‘tkarur erdilar. Salotin iltifot qilurlar erdi. Ammo doim mayllari darvesh sari erdi va darveshlar xizmatig‘a yetar erdilar va darveshlar so‘zin va rasoyilin o‘qur erdilar. To oqibat bu jonibi ul jonibg‘a g‘olib keldi va ulug‘ manosibi zohiriyni va podshohning taqarrub va xususiyatini tark qilib, Mavlono Muhammad Tabodgoniy q. s. xizmatig‘a borib, olamning barcha ishidin ilik tortib, ul ilikni faqr etagiga urub sulukka mashg‘ul bo‘ldilar. Necha yil g‘arib arba’inlar chiqarib, darveshlar orasida mutaayyin va faqr tariqida Hazrat Mavlononing ixtiyori xulafosidin bo‘ldilar. Xoja Burhonuddin Abunasr Porso q. s. va Shayx Bahouddin Umar r. Mavlono Boyazid Puroniy a. r. va Shayx Shoh Ziyoratgohiy q. r. va ul zamonning mashoyixining ko‘pining suhbatig‘a yetib erdilar va bu haqirni farzandliqqa maxsus qilur erdi. Bu haqir faqr tariqida va fano joddasida alardek tamom kishi oz ko‘rubmen. Oxir hayotlarida Samarqandg‘a borib, Xoja Nosiruddin Ubaydulloh q. s. xizmatig‘a musharraf bo‘lub, suhbatlar tutub, nazarlar topib, qaytib kelib, sakkiz yuz to‘qson to‘rtda olamdin o‘ttilar va alarning favtining ta’rixi mundoq voqe’ bo‘lubdurki,

sh ye ‘ r:

[Fano ahlining boshlig‘i Sayyid Hasan ketdi, uning joyi abadiy jannat bo‘lsin! U pokiza zot vafotiga ta’rix axtardilar. Ayttim: «Jannati pokash makon bod»][1].
Hirot shahrining Shimol haddida, tog‘ etagida azizlar hazirasida qo‘yildi.

676. Xoja Avhad Mustavfiy q. s.

Donishvar kishi erdi. Derlarki, ulumi arabiyadin voqifdur. Ammo xaloyiqdin e’rozi bor erdi va Sabzavor viloyatida furukash qilib erdi. Hukkom aning xizmatig‘a borurlar erdi va maorifidin bahramand bo‘lurlar erdi. Ammo o‘zining faqr istig‘nosi oncha bor erdiki, ul elning kelgan kelmagani himmati nazarida alassaviya erdi. Bu haqir borasida ko‘p qatla fotihalar o‘qub, xayr-duosi qilibdurlar. Umid uldurki, ijobat asari zohir bo‘lg‘ay. Xojaning haqoyiqu maorifi ko‘p bor. She’r devoni dog‘i bor. Qabri Sabzavor viloyatidadur.

677. Bobo Aliy Xushmardon r. t.

Ham Sabzavor shahrida shayxe erdi. Xonaqoh va muridlari bor erdi, pokiza avqotlig‘, biyik maqomotlig‘ buzurg erdi. Suhbatig‘a xavosu avom yetarlar erdi.. Va andin elga yaxshi nasoyih va muassir mavo’iz zohir bo‘lur erdi. Qabri hamul shahrdadur.

678. Shayx Nuruddin Muhammad q. s.

Shayx Bahovuddin Umar r. t.ning farzandidur. Aning qoshida suluk qilibdur. Derlarki, ulum takmilini ham otasi qoshida qilibdur. Hiriy shahrida ham o‘z otasi maskanida sokin erdi va toatu ibodatg‘a mashg‘ul. Va mulk podshohi aning suhbatig‘a yetar erdi, o‘zga xavosu avom mulozamatini mar’i tutarlar erdi. Qabri ham otasi hazirasidadur.

679. Mirhaydar Faxrboyi q. s.

Sayyid erdi, donishmandu shirintakallum. Xaloyiq anga shefta va aloqa ahli, suhbatig‘a firefta. Bayak nogoh jazbae yuzlandiki, aql takliflaridin va uqalo tashvishlaridin qutuldi. Ulamo va xavos suhbatlarig‘a kelurlar erdi. Gohi o‘z holig‘a kelsa erdi, har ulumdin so‘z aytsa erdi, bag‘oyat xo‘b so‘zlar andin bosh urur erdi. Andoqki, barcha ta’rif qilurlar erdi. Bu so‘zning arosida yana takallumi parishon bo‘lur erdi. Ammo ko‘p xoriq ishlar andin manquldur. Qabri Darvozai Xush tashida, Mir Faxrboyidadur.

680. Mavlono Muhammad Arab q» s.

Majzub kishi erdi. Avval olim va donishmand erdi, so‘ngralar mutolaa kasratidin hamonoki dimog‘i oshufta bo‘ldi va parishon so‘zlar ayta boshladi. Ul jumladin, bu nav’ so‘z ham andin bosh urar ermishki, saltanatqa dalolat qilg‘ay. Bu jihatdin zamon podshohi anga shahrdin uzr qo‘ldi. Va ul Siyiston mulkig‘a borib, sokin bo‘ldi. Anda murid va muxlis ko‘p paydo bo‘ldi. Pokrav kishi erdi. Ham anda olamdin o‘tti. Qabri ham andadur.

681. Shayx Sa’dulloh Zangula r. a.

Hiriy shahrida bir shayx erdiki, xonaqohi bor erdi va muridlari ham bor erdi. Miknat ahlidin ba’zi anga muxlis va murid erdilar. Va avrodu avqoti darveshona erdi. Irodat ahli ko‘p nimalar derlar. Bo‘la olg‘ayki, chin bo‘lg‘ay, al-ilmu indalloh.

682. Shayx Sadruddin Ravvosiy a. r.

Shayx Zaynuddin Xavofiy r. a. ning xulofosidindur. Zohir ulumida Xoja Fazlulloh Abullaysiy r. a. kim, Samarqand Dor ul-ilmining olimi ulamosi erdi, zuhdu taqvoda naziri yo‘q erdi va fikhda Abu Hanifai soniy derlar erdikim, bu haqir ham alar shogirdlig‘i sharafiga musharraf bo‘lubmen. Va alad – davom toliblar irshodig‘a mashg‘ul erdi. Va suluk ahli hamesha aning xonaqohida xilvat va uzlat tariqini mar’i tutarlar erdi. Va voqeot hallida mahorati bor erdi. Ba’zi majlisida akobir, balki zamon podshohi hozir bo‘lur erdi. Va samo’i xaloyiqqa bag‘oyat mo‘‘tabar va muhtaram erdi. Va bu toifa kutubu risolasidin faqr ahlig‘a dars aytur erdts. Sakson yoshig‘a yaqinda dunyodin o‘tti, ich og‘rig‘i bila. Qabri o‘z viloyati Shag‘ondadur.

683. Mavlono Mirzayn q. s.

Marv viloyatida buzurg erdi. Yigitlikda zohir ilmin go‘yoki qilg‘andur. Avrodu avqot va xonaqohu muridlari bor edi. Ul viloyat ahlig‘a irshod huzurida erdi. Mulkning xaloyiqi ulug‘-kichikdin barcha anga muxlis va mu’taqid erdilar. Hukkom bovujudi ulki, uyi necha yog‘och shahrdin yiroq erdi, ziyoratig‘a borurlar erdi. Qabri o‘zi bo‘lur kentda-o‘qdur.

684. Xoja Muayyad Mehna q. s.

Shayx Abusaid Abulxayr q. s.ning avlodidindurlar. Zohir ulumin takmil qilib erdilar. Yillar buzurgvor jaddlari mazori boshida shayx ul-islom erdilar, va’zda nafaslari bag‘oyat mu’assir, samr’da harakotlari asru muriq. Zamon salotini va akobiru ashrofi irodatu ixlos yuzidin alarg‘a ta’zimu ehtirom qilurlar erdi. Bu haqirni farzandliq lafzi bila sarafroz qilib, xayr-duosi ko‘p etib, boramda fotihalar o‘qub erdilar. Umid ulki, biri mustajob bo‘lg‘ay. Qabrlari ham Hazrat Shayxning munavvar gunbazlaridadur.

685. Xoja Ruknuddin Mehna q. s.

Alar ham Hazrat Shayx Abu Said Abulxayr q. r. ning avlodidurlar. Donishmand va muttaqqiy erdilar. Fanovu faqr tariqlarida g‘olib voqe’ bo‘lub erdi. Xoja Muayyad olamdin o‘tgandin so‘ngra mazori boshining shayx-ul islomlig‘in alarg‘a taklif qildilar. Alar dag‘i bir necha yil o‘shal ishni qilib, olamdin o‘ttilar.

686. Mavlono Tojuddin Ahmad Shijaniy q. s.
Shijan degan Boxarz viloyatining a'molidindur. Alar Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariy q. s. murididurlar. Avval shayx Zaynuddin Xavofiy r. t. silsilasida suluk qilur ermishlar. Alarga jahr zikridin dag'dag'a yuzlanibdur. Boxarzdii shahr sari yuzlanibdurlar. Shahrg'a yetkandin so'ngra mashoyix tabaqotida suluk qilur murshidlardin tafahhusg'a mashg'ul bo'lubdurlar. Hazrat Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariyni debdurlarki, xojalar silsilasidaki, «Silsilat uz-zahob» iborat andindur, toliblarg'a talqinu irshod sajjodasidadurlar. Alarning maskanin so'rab masjidi jome' mahallasig'a borurlar. Alarning uylarin topib, bir lahza eshiklarida o'lturg'ondin so'ngra alar chiqarlar va ba'zi ashob bila uylari eshikida o'ltururlar. Mavlonog'a ham iltifot qilib, so'rub o'ltururlar. So'z asnosida Mavlono sari boqib derlarki, bu shahr podshohinki, Bobur derlar, podshohi zohirdur. Mulozimlardin biriki anga ko'p ixlosi bo'lg'ay, har saboh aning sari boqib, otin to'stoxona tutub, Bobur, Bobur deb ko'p mazkur qilsa, oyo anga xush kelgaymu deb savol qilurlar. Mavlononing ko'nglidaki dag'dag'asi raf' bo'lur va alarning silsilasida murid bo'lub, sulukka mashg'ul bo'lurlar. Ul zamon mashoyixidin ko'lining suhbatig'a yetibdurlar. «Kimyoyi saodat» kitobin qo'p mutolaa va kitobat qilibdurlar. Jami'i mashoyixu firoqning Mavlono tariqida istehsoni bor. Mufrit taqvovu zuhd bila bo'lur ermishlar. Qabrlari o'z viloyatlarida-o'qdur, yuzoru va yutabarraku bihi.

687. Mavlono Muhammad Chohu r. t.
Mujallidlig' san'atig'a mashg'ul erdi va Piri Sisadsola langarida sokin erdi. Bag'oyat darvesh kishi erdi. Ko'b darveshlar suhbat va xidmatig'a yetib erdi. Sakson yoshdin yuqori bo'lub erdi, ammo tavajjuhi va istimdodi Hazrat Shayx ul-islom ruhiyatig'a g'olib erdi, andoqki, har panjshanba sabohi, albatta, o'zin ul ostong'a yetkurur erdi. Qabri ham ul takiyadadur.

688. Xoja Mahmud Faranhodiy r. t.
Mazkur bo'lg'on mavze'dindur. Yillar Xuroson mulkida salotin xidmatida vazorat qildiki, andin bir ra'iyat ozurda bo'lg'ani eshntilmadn. Yetmish yoshdin tajovuz qilg'an umrida iltimoslar bila podshohdin istig'no qildi. Ul muyassar bo'lg'ondin so'ngra xalq bila ixtilot eshikin bog'lab, ibodatg'a mashg'ul bo'ldi. Sakson yoshida Hajji muborak safarig'a muvaffaq bo'ldi. Va ul muyassar bo'lub kelganidin, so'ngra ham uzlat tariqida ibodat qilur erdi, to sakson olti yoshida olamdin o'tti. Qabri o'zi yasag'on go'rxonasidadir.

689. Darvesh Bahlul a. r.
Mavlono Yah'yo q. s. muridlaridin erdi. Yana dag'i mashoyix xizmatig'a yetib erdi. Purhol va purzavqu shavq kishi erdi. Va'z majlisida xonandalik va go'yandalik va samo' suhbatida betahammullug'lar qilib, azim sayhalar va sa'qalar tortar erdi. Qabri Hiriy shahrining shimol haddida tog' etakidadur.

690. Xoja Pir Ahmad Naqqosh q. s.
Murtoz va g'ayratlig' kishi erdi. Avoyilda salotin xidmatig'a mashg'ul erdi, so'ngralar go'sha tutub, ibodat va iyollar maoshi uchun kasbg'a mashg'ul erdi. Mavt marazida atibbo tovug' jo'jasi buyurub erdilar. Ma'lum qilildi, yemas erdi. Nasihat yuzidin deyildi esa, dedikim: men ulg'ayibmen va borur vaqtdur. Uz sihhatimg'a bo'lg'on bo'lsa, onsiz dag'i sihhat topg'umdur. Yo'q ersa ul ham sud qilmag'usidur. Hamul marazda bordi. Qabri Xoja Toq go'ristonidadur. Bu faqir borasida xayr duosi ko'p qilur erdi. Umid ulki, mustajob bo'lmish bo'lg'ay!

691. Shayx Yah'yo q. t. s.
Shayx Zaynuddin Xavofiy q. s.ning o'g'lidur. Mufrit zuhdu taqvosi bor erdi. Haj yo'lidin kelganda, aning suhbatig'a musharraf bo'luldi. Oz so'z aytur erdi. So'z ayturida mone' hamonoki davomi

tavajjuhda istig‘roq bo‘lmish bo‘lg‘ay. Muridlar va toliblar talqinu irshodig‘a mashg‘ul bo‘lmadi, bu ham bo‘la olurki, hamul holig‘a dalolat qilg‘ay. Qabri otasining qabri ayog‘i saridur.

692. Mavlono Shamsuddin Ma’dobodiy q. s.

Soyim ud-dahr va qoyim ul-layl erdilar. Ma’dobodda o‘ttuz yil erdiki, bir masjidqa kirib erdilarki, andin chiqmaydur erdilar, magar vuzu’ qilg‘ali. Ostida bir eski bo‘riyo va boshi ostida bir eski xishtdin o‘zga nima yo‘q erdi. Hazrati Risolat s. a. v. muborak tishi muvofaqatig‘a o‘ttuz ikki tishini ushatib erdi. Aning kenti, ya’ni Ma’dobodni zamon podshohi Shayxi Sherozg‘a suyurg‘ol berib erdi. Shayx suyurg‘olig‘a borg‘onda alarg‘a za’fe torin bo‘lg‘ondur. Shayx iyodatig‘a borib, marazlarin tashxis qildim deb, sharbat va g‘izo buyurub, o‘zlari hozir qilibdurlar. Mundoq javob beribdurlarki, umridurki, Haq s. t.ning rizosi talabnda zahmat tortibbiz va ma’lum emaski, ul davlatni hargiz topibmiz, yo yo‘q. Holoki ma’lum qilduqki, aning rizosi bizing za’fimizdur, biz sihhat tilasak, aning rizosidin bo‘yin to‘lg‘ab, anga rozi bo‘lmamish bo‘lg‘aybiz. Tengri uchun bu davlatdin bizni mahrum qilmang deb, ul muolaja va g‘izovu sharbatni qabul qilmaydurlar. O‘z zamonida balki buncha qurunlarda alardek solik murtoz kishi yod bermas. Qabrlari ham ul kentda-o‘qdur.

693. Mir Muflisiy q. s.

Mashhad sodotidin erdi. Ul tolib ul-ilmliq qilib, soyir xaloyiqdek ermish. Tab’i nazm ayturg‘a muloyim ekandur. Bayaknogoh anga jazbae yetti va aqlu hush hulyasidin bebahra bo‘ldi. Ammo ko‘p xavoriqi odot andin naql qilurlar va o‘zin ko‘p riyozat va mehnat bila tutar erdi. Qabri Mashhaddadur.

694. Bobo Xokiy q. s.

Turk elidindur. Sipohi ermish. Timurbek bila Rum va Shom cherikiga borg‘ondur. Ondin qaytib kelganda, sipohilig‘ mashaqqatidin, chun toriqqon erkandur, tark qilib, faqr ixtiyor qilibdur. Dog‘i Gitu tog‘ining shimol haddida sokin bo‘libdurki, holo Boboning takyasi va mazori va darveshlari andadur. Va bag‘oyat tariqi riyozatlig‘ kishi erdi. Zamon podshohi ro‘zgor havodisidin shikaste voqe’ bo‘lub, buzulub Foryob va Maymana haddig‘a borg‘ondakim, mulkini dushman olib erdi. Andin yanib, yana taxt talashib, dushman ustiga kelganda, Bobo takyasig‘a tushdilar. Bobo himmatlar tutub, nasoyih aytib, yuz o‘n yoshig‘a yaqin erkanda otlanib, podshoh bila Gitu tog‘ig‘a chiqib, shahr soriki dushman makoni erdi boqib, suron solib, mulkni havola qildi. Ul ishorat bila podshoh yurub, hamul kecha mulkni olib yog‘ini daf’ qildi. Bu uchurda bu faqir Boboni g‘arib tushe ko‘rdumki, oning valoyatig‘a dalolat qilur. Yuz yigirma yoshig‘a yaqin yetganda dunyodin o‘tti va qabri mazkur bo‘lg‘on yerdadur.

695. Bobo Hasan Qandahoriy q. s.

Majzub ermish. Ul mulk eli G‘azniy va Kobulg‘acha anga muriddurlar. Va andin havoriqi odot ko‘p naql qilurlar. Qabri Qandahorda-o‘qdur.

696. Bobo Qo‘kiy q. s.

Bobo Ko‘kiy ham majzub erdi. Bu faqirning otasining faqr ahlig‘a ko‘p irodatu ixlosi bor erdi. Andok naql qilurlar erdiki, zamon podshohi hukmi bila bir ish uchun Astrobod viloyatig‘a borur erdim. Yo‘lda bir majnunsifat majzub yigit yo‘luqdi. Andoqki irodat ahlining odatidur, niyoz bila bir diram anga tuta berdim, olmadi va men bir kurta jubba kiyib erdim. Dedi: kurta jubbani oluram. Havo sovuq erdi. Men ani shaydu zarqqa haml qilib, otni surub o‘ttum. Manzilg‘a yetganda, Bobo Ko‘kiy meni ko‘rgach, yana dediki, kurta jubbani oluram. To necha kundin so‘ngrakim, Astrobod dahanasidin kirduk, bir darvesh yalang erdi. Ul kurta jubbani ul darveshga berdim. Bir lahzadin so‘ngra hamul yigit yetishti va menga boqib dediki, durta jubbani oldim. Bori bu so‘zdin menga hayrat va taajjub yuzlandi. Astrobodda xiyla vaqt bo‘lo‘ldi. Hirot shahridin Bobo Ko‘kiy ovozasi kelur erdiki, ajab majzube paydo bo‘lubdur. Men Hiriyga kelgandin so‘ngra bordimki, anga musharraf bo‘lg‘aymen. Ko‘rdum, hamul

yigit erdiki, Astrobod yo‘lida bizning bila yo‘ldosh erdi. Qabri Hiriy shahri xiyobonidadur.

697. Bobo Ali Mast Nisoyi q. s.

Jazbasining avvalida Mir Darziy aning sarvaqtig‘a yetar, ko‘rarki, bir go‘sha boshida ayog‘ uzatib yotibdur. Bir arra chiqarib, aning poshnasig‘a qo‘yub torta kirishur. Andoqki, etin kesib so‘ngakka yetar, ul ayog‘in tutmas. Mir Darziy derlarki, [«Alayka mast ast»][1] laqabig‘a jihat muni derlar. Shoh Abulg‘oziy avval saltanat doiyasida Bobo nazarig‘a yetibdurlar, iltifot nazari topibdurlar va Astrobod azimatidakim, Sa’dlu Husayn ustiga yurubdurlar, Bobodin ruxsat tilay kelibdurlar. Bobo debdurki, «boru bor» va umidvorlig‘ bila boribdurlar. Astrobodg‘a yetib, dushanba kuni Zilhijja oyining o‘n ikkisida urush bo‘lub, a’dog‘a: g‘olib bo‘lubdurlar. Hamul kun Bobo Nisoda takyadin chiqib, Nisoning eski qo‘rg‘oni yo‘lida turub, har kishi kelsa, tosh otib iztirob qilur ermish kun tushgacha, andin so‘ngra munbasit bo‘lub, kulub yonib takyaga kiribdur. Ul soat va ul kunni hisob qilibdurlar, podshoh dushmanig‘a zafar topqan bila muvofiq erkandur. Astrobodda vabo bo‘lub, Xurosong‘a dag‘i yuzlanibdur. Bir oqshom Bobo takyadin g‘oyib bo‘lubdur. Kechqurunroq paydo bo‘lubdur, bosh va yuzi zaxmliq, qong‘a bo‘lg‘ong‘on. Debdurki, yog‘iy keladur, urdi, urushtuk, yog‘iy bizni bosdi, ammo Xushkeldi o‘z g‘animnn bosti. Bu uchurda Nisoda vabo bo‘lubdur va Bobo ul vaboda olamdin o‘tubdur. Va qabri Nisodadur.

698. Bobo Xushkeldi q. r.

Nisoning kentlaridin birida bo‘lur ermish. Majzub va mag‘lub kishi ermish. Hamul nav’ki, Bobo Ali Mast debduri, balo bila urushtuk, balo bizni bosti, ammo Xushkeldi o‘z g‘animin bosti. Chun vabo balosi ul viloyatqa kiribdur, barcha kentlarga yoyilibdur va ko‘p xaloyiq ul zahmat bila boribdurlar, ammo Bobo Xushkeldi bo‘lur kentda dorimaydur.

699. Sayyid Muhammad Madaniy q. r.

Madinadan bu mulkka kelib qolibdur. Jazbi g‘olib ermish va bazlu ziyofat tariqi zotida mustavliy. Shoh Abulg‘oziy gohi alar xidmatig‘a musharraf bo‘lur ermishlar. Ul avqotda bir tarafdin bir dushman Shoh Abulg‘oziy qasdig‘a Nisog‘a mutavajjih ermish. Alar Niso tegrasinki, berk yerdur va suvlari bor, berkitur xayol qilib Misr otlig‘ mulozimlarig‘a buyurg‘an ermishlarki, chapar va tura uchun eshiklar yig‘ishturg‘ay. Ul eshiklar yig‘ishtururda Mir eshikig‘a borib, beadabona so‘zlar aytibdur. Va Mirg‘a g‘azab mustavliy bo‘lub debdurki, men bu harosning ishin yasamasam er bo‘lmag‘ayman. Shoh Abulg‘oziy bu so‘zni eshitib, Mir xidmatig‘a borib, avval o‘zlarining so‘ngra ul Misrning gunohin darxost qilibdurlar. Javob beribdurki, sening gunohingni bag‘ishladim, ammo aning gunohini bag‘ishlamasmen. Navmid chiqib, yana bir mulozimni darxost ta’kidig‘a yiboribdurlar. Mir debdurki, o‘qiki yoydin chiqdi, ani qaytarsa bo‘lmas. Chun Shoh otlanib azimat qilibdurlar, oz yo‘l bormaydur ermishlarki, Misr otdin yiqilibdur. Va ul ranjdin qo‘pmaydur va oz kunda ham ul tashvish bila boribdur. Va ul viloyatda mazkur bo‘lg‘an vabo asru tug‘yon qilibdur. Mirdin duo iltimose qilibdurlar. Mir debdurki, biz borurbiz va bu baloni o‘zimiz bila elturbiz. Va hamul uchurda Mir bu balo marazi bila o‘tubdur va ul vabo taskin topib, daf’ bo‘lubdur. Va mazori ul viloyatdadur.

700. Bobo Bahlul q. s.

Kichik yoshidin anga jazba yetgan erkandur va azim jazbasi bor ekandur. Va Shoh Abulg‘oziy bila ko‘p muloyamati bir zrkandur. Ham bu mazkur bo‘lg‘on vaboda Shohg‘a aytibdurki, sening baloingni men qabul qildim va yiqilibdur va ul maraz bila olamdin boribdur. Qabri ham ul viloyatdadur.

701. Bobo Ali Poyi Hisoriy q. s.

Majzub erdi va aslo kishi bila so‘zlashmas erdi. Sayyidzoda Balyoniy, Shohrux Mirzo chog‘idakim, taassub va inod ahli mazhab tuhmatig‘a qatl fatvosi bitib, Poyi Hisorda shahid qilg‘andurlar va kecha

qatl qilg‘an yerdin ko‘tarmagan ekandurlar. Ul yerning huzzorn va sukkonidin ba’zi voqif ermishlarki, yarim kecha Bobo o‘z yeridin qo‘pub, maqtul qoshig‘a kelib, ko‘p yig‘lab, nudbalar qilib degandurki, Tengri sening jazongni bergayki, behaqiqat el sanga zulm qildilar, ammo doyim ahli tahqiqqa juhhoddin bu nav’ ishlar voqe’ bo‘lg‘ondur. Va anga mag‘firat duosi qilib, ham ul yarim kecha o‘z o‘rnig‘a kelib, ham ul sukut ixtiyor qilibdur. Qabri Poyi Hisorda, o‘zi sokin erkan yerdadir.

702. Bobo Tilanchi q. r.

Marv yo‘lida Charkas bandida sokin erdi. Majzub erdi. Ilayida qish va yoz o‘t yoqarlar erdi. Bir siqa kishi bu toyifadinki, so‘zida shoyibai kizb yo‘q erdi, dedikim, Xorazm tarafidin kelurda aning takyasig‘a yettim va aning bila muloqot qildim. Va ul yo‘lda manga asru ko‘p mashaqqat yetib erdi. Bobo ramzu imo bila mening boshimg‘a ne kim o‘tub erdi va ollimg‘a ne kim kelib erdi, barchasin manga zohir qildi. Va yana nimalarki, mustaqbal zamong‘a dalolat qilur erdi, dedikim, barcha ilayimga keldi, vallohu taolo a’lam! Qabri ham ul mavze’dadur.

703. Bobo Piriy q. t. s.

Majzub erdi. Qirq yilga yaqin, bir mahaldakim yiqilib erdi, andin tebranmadi. Jazbi mufrit erdi. Hech vaqt andin kavni fasod olamig‘a shuur zohir bo‘lmadi.

Xoriqi odot andin naql qilurlar. Va xalqni ko‘p safohatomiz so‘kar erdi. Bu haqir aning ilayidin o‘tmas erdim. Va hol ulki, maskani om yo‘li ustida erdi. Bir kun bir hamroh so‘rdiki, bu yerga yetganda, doyim yo‘lni evurub, Bobo ilayidin o‘tmassen, sabab nedur, ayt?! Dedimki, bu jihatdinki, fahsh so‘kar, manga xush kelmaski, aning fahshin eshitgaymen.

Ul hamroh dediki, Boboni derlarki, karomati bor, kel, ilayidin o‘t. Agar karomati bo‘lsa, seni so‘kmagay. Agarchi imtihon erdi, ammo ul degandek ilayidin o‘ttum, so‘kmadi. Odatining xilofi – duo qildi. Qabri Hiriy shahrida.

704. Bobo Hasan Turk q. t. s.

Majzub va sohibi botin ermishlar. Xaloyiqki, alar suhbatig‘a kelsa, ko‘nglidagi xavotirni zohir qilur ermishlar. Bir qish kechasi qor yog‘gan ermish va bag‘oyat sovuq ermish. Boboga jazb g‘olib bo‘libdur yalang‘och takyadin chiqib, lo alat-ta’yin mastu bexud kezib yurur ermish. Tongga yaqin jazblari taskin topibdur va sovuq asar qilibdur. Bir hammom gulxanidin o‘t yorug‘i ko‘rinibdur. Bobo beixtiyor tabiat ko‘shishi bilan o‘t sari boribdur. Gulxantob gulxanga kafcha uradur ermish, yo‘l bermaydur. Bobo anga aytibdurki, qo‘p! Qo‘pmaydur. Qizig‘ kafchani iligidin olibdur va boshig‘a urubdurki, mag‘zi chiqibdur, ayog‘idin sudrab, gulxandin tashqari chiqarib tashlabdur. Va o‘zi gulxanga kafcha ura boshlabdur. Saboh o‘tar el ul o‘lukni ko‘rub yig‘ilibdurlar. Gulxanga kirsalar, ko‘rubdurlarki, bir yalang‘och telba gulxantobliqqa mashg‘uldur. Andin so‘rubdurlarki, bu kishini kim o‘ldurdi? Debdurki, men o‘ldurdum. Tanir el bilibdurlarki, Bobo Hasandur. Uzlari hech nima deya olmaydurlar, ammo.ul o‘lukning vorisi Boboni Shohrux Mirzo qoshig‘a eltibdurlar va kayfiyatni arz qilibdurlar. Shohrux Mirzo so‘rubdurki, Bobo, seni deydurlarki, biravni o‘ldurubsen? Andoqmudur? Debdurki, hov, andoqdur. Mirzo so‘rubdurki, neuchun o‘ldurdung? Debdurki, munchani sen o‘ldurdung, biravni dag‘i men o‘ldurdum. Mirzog‘a yana so‘z aytmoq sarfe qilmaydur.

Maqtulning varasasini diyat bila rozi qilib, Bobog‘a ijozat beribdurlar. Qabri Hirot Xiyobonidadur.

705. Bobo Jalil q. t. s.

Majzub erdi, kavni fasod olamidin bebahru beshuur kishi erdi. Bag‘oyat mahobatlig‘ shakli bor erdikim, ko‘rgan kishiga andin vahm g‘olib bo‘lur erdi. Ammo ul g‘oyatda beozoru mazlum erdiki, bir yosh o‘g‘longina boshlab, har qayon ko‘ngli tilasa, eltur erdi. Va yemak-ichmakdin parvoyi yo‘q erdi. Ne bersalar yer erdi, yo‘q esa tilamakni bilmas erdi. Qabri Hirot shahrining Xiyobonidadur.

706. Bobo Shihob q. r.

Buluj elidin erdi. Tag‘oyisi qizig‘a mutaalliq bo‘lub telbarar edi. Va ul oshuftalig‘da anga jazbae yetib erdi. Xavoriqi odot andin zohir bo‘lur erdi. Atfol tosh otib izo qilurlar erdi. Bu haqir bila ulfati bor erdi, qoshimg‘a kelur erdi. Bir kun bag‘oyat chirkin libos bila yuqori chiqib o‘lturdi, nafsqa makruh keldi. Bu xayol yuzlangach, masmu’ bo‘ldiki, bu baytni o‘qur erdi.

B a y t:

[Men o‘z o‘rnimga emas, xohlagan joyimga
o‘tiraman][1].
El ko‘zidin g‘oyib bo‘ldi, o‘luk-tirigi ne bo‘lgani
ma’lum bo‘lmadi.

707. Bobo Sarig‘ Po‘lod q. s.

Asli Rumdin erdi va nasabida siyodat sharafi bor erdi. Foniyi mahz, balki fanoyi mutlaq erdi. Kiymak jinsidin bir kapanakdin o‘zga nima hargiz qabul qilmadi va yemak jinsidin hargiz hech kimdan hech nima tilamadi. Ko‘p mubolag‘a qilsalar, juzvi yemakka mayl qilur erdi. Libos xosiyatidin podshohi zamon vz arkoni davlatdin anga maxsus kishilarki, alar bila ko‘p ulfati bor erdi, har necha darxost va iltimos qilurlar erdi, hamul bir kapanakdin o‘zga limaga iltifot qilmadi. Makka yo‘lida o‘tqa kuygan jihatdin qabri ma’lum bo‘lmadi. Bu faqir bila ko‘p ulfati bor erdi.

708. Shayx Ilyos a. r.

Nur tog‘ida Mavarounnahr mulkida bo‘lur erdi va donishmandu solik kishi erdi. Silsilasi Sulton Boyazid Bistomiyg‘a tortar. Atrof va javonibdin ham ilm o‘qug‘oli, ham faqr tariqida suluk qilg‘ali toliblar aning xidmatig‘a borur erdilar. Muridlari so‘zi xud budurki, andoqki, anjumanda xaloyiqqa sabaq aytur va xilvatda jin xaylig‘a dag‘i sabaq aytur, al-ilmu indalloh. Barn buzurgluki ul g‘oyatg‘acha bor erdiki, aning ekini boshig‘a Xoja Nosiruddin Ubaydulloh q. r. yetibdur, ko‘rubdurki, xirmanni dehqonlar sovuradurlar. Otdan tushub, chorshoxni dehqon iligidin olnb, tabarruk xosiyatidin ul xirmanni sovurubdur. Chun Shayxqa aytnbdurlar, ko‘p tafovut qilmaydur. Qabri go‘yoki ham ul Nur tog‘ida-o‘qdur.

709. Mavlono Mir Imom q. s.

Samarqandda bo‘lur erdi, valoyat osori hay’atidin zohir erdi. Zamon podshohi va arkoni davlat ko‘p hurmat tutub ta’zim qilurlar erdi. Har dardmondaning podshoh qoshida, yo aning arkoni davlati qoshida muhimmi bo‘lsa erdi, anga iltijo qilur erdi. Ul bekulfat qo‘pub, bavujudi kibari sinn, podshoh qoshig‘a borur erdi va taxtining ollida turub, ul dardmondaning so‘zin aytib, ishin butkarib yopar erdi, arkoni davlat qoshida dag‘i munga ko‘ra. Samarqandda balchig‘ azim bo‘lur, aning ishi musulmonlar ishi taraddudig‘a mone’ emas erdi. Hamonoki, qabri Samarqandda-o‘qdur.

710. Mavlono Sharafiddin Yazdiy q. s.

Yazd shahrining Taft otlig‘ kentidindur. Donishmand va sohibkamol kishi erdi. O‘z zamonida adili va naziri yo‘q erdi. Tasavvufda derlarki, Xoja Shoyinuddini Turk shogirdidur. Ammo soyir ulumda va tasavvufning ham ilmida otin a’lam tutarlar va Mavlononing mufid musannafoti bor: «Qasidai burda» sharhida va «Asmoulloh» sharhida, «muammo» fannida «Hulal va manozir», agarchi asl ishga daxli yo‘qdur, ammo «Hulal»ning muqaddimotida bu toifaning istilohotini ramzu imo tili bila andoq darj qilibdurki, bu toifaning kummali kerakki, anglag‘ay. Dag‘i Mavlono uz zamoni salotini qoshida mu’azzaz va soyir ashrof qoshida mukarram erdilar va Taftda xonaqoh va shogirdlari va muridlari bor erdi. Bu haqir sig‘ari sinda ul buq’ada alar xizmatlarig‘a musharraf bo‘lub, mening boramda fotihalar

o‘qudilar. Qabrlari anda-o‘qdur.

711. Mavlono Humoduddin Kalobodiy q. s.

Sherozning Qalobod otlig‘ kentidindur. Shahrda bo‘lur erdilar. Mufrit zuhdu taqvo bila zist qilur erdilar. Hukkom va ashrof alar suhbatig‘a yetarlar erdi. Mavlononing zohir va botin ulumi azhar min ash-shams erdi. Bu haqir sig‘ari sinda alar xidmatig‘a musharraf bo‘lubmen. Mening boramda fotiha o‘qub, bir qasab yog‘lig‘ inoyat qilibdurlar. Qabrlari hamonoki Sherozdadur.

712. Shayx Avhaduddin Homid Kirmoniy q. t. s.

Ul shayx Ruknuddin Sinjoniyning murididur va ul Shayx Qutbuddin Abhariyning va ul Shayx Abunnajib Suhravardiyning q. a. Bag‘oyat buzurg ermish. Shayx Muhyiddin Arabiy q. s. suhbatig‘a yetibdur va Shayx andin «Futuhot» va ba’zi kutub va rasoyilida so‘z aytibdur. «Iqboliya» risolasida mazkurdurki, Shayx Ruknuddin Alouddavla q. s. debdurki, bir kunki, qofila Minoda erdilar. Shayx Shihobuddin Suhravardiy q. s. muridlaridin biri anda erdi. Oning ziyoratig‘a borduq. Alhaq bas aziz kishi erdi. Soate o‘lturduq va har nav’ so‘z o‘tar erdi. Ondin so‘rduqki, eshitibbizki, sizing shayx, q. s. Avhaduddin Kirmoniyni mubtadi’ debdur va o‘z qoshida qo‘ymaydur. Bu so‘z rostmudur? Ul aziz dedi: bale. Va men ul majma’da Shayx xizmatida hozir erdimki, birav aning zikrin qiladur erdi. Alar buyurdilarki, oning otin mening qoshimda tutmangizki, ul mubtadi’dur, ammo yana bir kun ham Shayx xizmatida erdimki, dedilarki, Shayxning bu so‘zin Shayx Avhaduddin eshitdi va dedi: agarchi Shayx meni mutbadi’ debdur, ammo menga ushbu mufoxirat basdurki, otim shayxning tiliga o‘tubdur va bu ma’noda arabiy bayt ham aytibdur. Ul bayt budur.

B a y t:

[Meni yomonlik bilan eslaganing meni xafa qilmaydi, balki sening xayolingdan o‘tganim uchun xursand bo‘laman][1].

Bo‘la olurki, shayx Shahobuddinning murodi aning ibtido’idin ul bo‘lg‘ayki, derlarki, ul haqiqat shuhudida mazohir suratig‘a tavassul qilg‘on ekondur va mutlaq jamolin muqayyadot suvarida mushohada qilur ermish. Andoqki, o‘ttiki, shayx Shamsuddin Tabriziy q. s. andin so‘rubdurki, ne ishdasen? Debdurki, oy aksin suvliq tashtda ko‘radurmen. Shayx dediki, agar bo‘ynungg‘a chibqon chiqmaydur, nega oyni ko‘kda ko‘rmaysen? Va Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. qoshida birov degandurki, ul shohidbozdur, ammo pokbozdur. Alar aning javobida debdurlarki, kosh ne tilasa qilg‘ay erdi va o‘tgay erdi va bu ruboiy ham bu ma’nog‘a dalolat qilurkim,

r u b o i y:

[Suratda ma’no asari bor uchun unga ko‘zim bilan boqaman. Bu olam suratdir, biz suratlardamiz, ma’noni faqat suratda ko‘rish mumkin][2]

va Shayx Avhaduddinning q. s. latif ash’ori bor, masnaviydin va aning g‘ayridin. «Misboh ul-arvoh» kitobining oxirida ayturki,

m a s n a v i y:

[To qo‘l qimirlar ekan, ilojsiz, soya harakatga keladi. Soya qo‘ldan paydo bo‘ldi, aslida o‘zi yo‘q narsa. Borlig‘i o‘zi bilan qoyim bo‘lmagan narsaning borligini e’tirof etish aqldan emas. Hakimlar fikricha, Haqdan boshqaning borligi mutlaq borliq emas. Haq bilan qoyim bo‘lgan borliq asli yo‘q narsa, lekin nomi bor. Naqqoshning fitnasi o‘z naqshida, o‘rtada bir kishi yo‘q, xotirjam bo‘l! Vujud haqiqati haqida o‘zi gapirdi, o‘zi eshitdi, shu sababdan o‘zi ko‘rsatdi, o‘zi ko‘rdi. Allohga qasamki,

Allohdan boshqa haqiqat mavjud emasligiga ishonish lozim][3].

R u bo i y:

[Avhad, yurak eshigin qoqasan, yurak qani? Bir umr yo‘l yurasan, manzil qani? Bu vafosiz, pastkash dunyoda ellik ikki chilla o‘tirding, hosil qani?][4].

713. Amir Sayid Qosim Tabriziy q. s.

Avoilda Shayx Sadruddin Ardabiliyg‘a irodatlari bor ekandur. Andin so‘ngra Shayx Sadruddin Ali Yamaniy suhbatig‘aki, Shayx Avhaduddin Kirmoniy ashobidindur, yetishibdurlar. Ro‘zgor ahli alarning qabul va shikorig‘a ikki fariqdurlar. Hazrat Maxdumiy n. m. n. «Nafahot ul-uns»da alardin ko‘p so‘z bitibdurlarki, ul jumladin biri budurki, debdurlarki, azizlardin ba’zi der erdilarki, alar Samarqandda erkanda alar bila muloqot qilduq. Maorif asnosida, der erdilarki, Siddiq Akbardin ko‘p so‘z rivoyat qilib, riqqat qilurlar erdi va ko‘zlaridin ulug‘ oq qatarot tushar erdi va muridlari der erdilarki, alar. holo Abobakriy maqomidadurlar. Hazrat Xoja Ubaydullohdin naql qilibdurlarki, alar debdurlarki, Hazrat Mir, Hazrat Xojai buzurgvor Xoja Bahouddin Naqshband q. r. a.ni Abivard navohisida ko‘rgan ekandurlar va suhbat tutgan ekandurlar va alarning tariqasig‘a mu’taqid ekandurlar va alardin fahm bo‘lur ekandurki, o‘zlarin ul tariqag‘a tutar ekandurlar va ham Xoja Ubaydulloh debdurlarki, Mir hazratlari buyurubdurlarki, har yerga yetsam erdi, majzublardin so‘rar erdim va o‘zumni alar suhbatig‘a yetkurur erdim. Chun Rumg‘a yettim va ma’hud dastur bila so‘rdum. Dedilar: munda majzube bor, oti Mavlono Joniy. Oning qoshig‘aki bordim, oni tonidimki, tahsil avonida Tabrizda ko‘rub erdim. Onda holining kayfiyatin so‘rdum. Rum tili bila dediki, har saboh qo‘par erdim. Bir kishi erdim, tafriqag‘a tushgan. Birav bu yondin tortar erdi va birov ul yondin. Bir saboh qo‘ptum. Bir hole meni bosa oldi. Mag‘lub qildiki, borchadin xalos bo‘ldum. Debdurki, bu so‘zni necha qatla alardin eshitdim. Har qachonki, derlar erdi, mutag‘ayyir bo‘lurlar erdi va ko‘zlaridin yosh to‘kilur erdi. Ma’lum bo‘lur erdiki, bu so‘zni ul aziz aytqonda alarg‘a ko‘p ta’sir qilg‘ondur va ba’zi rasoillarinda kelturub durlarki, yetti yuz oltmish to‘qqizda Hirot shahrida xonaqoh jaddida Mavlono Zahiruddin Xilvatiy hazratlarining jivorida sokin erdim. Bir sahar vaqti nogoh Mavlono o‘z xilvatidin yig‘lab chiqib, mening xilvatim eshigiga kelib, faryod qildiki, Tangri uchun oyatni ayturki, [biz insonga uning jon tomiridan ham yaqinmiz][1].

Oltmish yil yugurturlar va hanuz yetmaymen. Fuqaro arbobidin azize hozir erdi, aytti, bu hamul Movarounnahr devonasi ishidurki, elning evlariga borur erdi va har iecha nima yesa erdi, chiqqandin so‘ngra so‘rsalar erdiki, nima yedingmu? Tashni’ qilur erdiki, yegulik nima qayda erdiki, yegaymen.

Bir kun bir ulug‘ kishi oni uyiga eltti va mulavvan at’ima ko‘p ilayiga yoydi. Yeyolg‘anchakim yedi. Andin so‘ngra mezbon qilich torttiki, barchani yemak kerak. Jon havlidin yana bir miqdorkim yedi. O‘zga dedi – o‘ltursang ham o‘lturki, yeyaolmasmen. Chun devona ul holdin xalos topib chiqdi, so‘rdilarki, hech nima yedingmu? Dediki, ne’mat xud ko‘p erdi. Ammo qilich qo‘rqunchidin kim nima yeya olur erdi? Sakkiz yuz o‘ttizda Hirot jome’ida bir fidoyi zamon podshohig‘a zaxme urdi. Andoq ma’lum qildilarki, ul kishining Hazrat Mir langarida muqfal uyi bor. Ko‘tahnazarlar bu tavahhumdinki, alarning vuqufi bila bo‘lmish bo‘lg‘ay, alarg‘a shahrdin uzr qo‘ldilar. Va alar Balxqa bordilar va xaloyiq g‘avg‘osi ham alar xizmatig‘a bois bor erdi. Alarning haqoyiq va maorifidin holo el orasida devonlari bor va yaxshi masnaviy risolalari. va yana rasoyil ham bitibdurlar va tarje’lari devonda bor va tarje’ bayti budurki,

b a y t:

[Af’ol, sifot va zot bilan barcha pinhon va oshkor narsalarning asli sensan][2].

Va Balxdin Samarqandg‘a bordilar va andin yana Xurosong‘a qaytdilar va Xarjard qasabasida sokin

bo‘ldilar va sakkiz yuz o‘ttuz yettida dunyodin o‘ttilar va muborak marqadlari ham andadur va niyozmandlaridin ba’zi qabrlari ustida gunbaz va ayvon imorat qilibdur, yuzoru va yutabarraku bihi.

714. X.akim Sanoyi G‘aznaviy r. t.

Kuniyati va oti Abdulmajid b. Odamdur va ul Shayx Raziyuddin Ali Lolo otasi bila abnoyi amm ekandurlar. So‘fiya tariqining shuarosining kubarosidindur va mashoyix aning nazmlaridin istishhodg‘a o‘z rasoyilidin kelturubdurlar va «Hadiqat ul-haqiqa» kitobi aning she’rida azvoqu mavojidig‘a va tavhid arbobi ma’rifati adosida kamolig‘a qat’iy dalildur. Xoja Yusuf Hamadoniy q. s. muridlaridindur va tavbasining sababi bu ermishki, Sulton Mahmud Sabuktegin qish faslida G‘azniydin kuffor diyorining ba’zini olurg‘a chiqqan ekandur va Sanoyn aning madhida qasidae aytqon ekandurki, oning arzig‘a yetkurgo. Bir gulxan eshigiga yetarki, bir majzub anda bo‘lur ermishki, oni Loyxo‘r der emishlar, bu jihatdinkn, doim Chog‘ir loyi ichar ermish. Aning unin eshiturki, soqiysig‘a aytur ermishki, bir ayog‘ to‘la qilib berki, G‘aznaviy Mahmudg‘inaning ko‘rlukiga ichay! Soqiy demish bo‘lg‘ayki, Mahmud podshohi islomdur va g‘oziy kishidur. Nechuk mundoq degaysen? Ul demish bo‘lg‘ayki, noxushnud mardakdurki, har ne aning ilikig‘a tushubdur, ani zabt qilmay boribdurki, yana mulk olg‘ay, debdur va ayog‘ni ichibdur. Andin so‘ngra debdurki, yana bir ayog‘ tutki, Sanoyi degan shoirg‘inaning ko‘rlukiga ichay! Soqiysi debdurki, Sanoyi fozil va latiftab’ kishi. Nechuk bu nav’ degaysen? Ul debdurki, agar ul latiftab’ bo‘lsa erdi, bir ishga mashg‘ul bo‘lg‘ay erdiki, aning bir ishiga yarag‘oy erdi! Bir necha gazofni bir qog‘azg‘a bitibdurki, aning hech ishiga yaramas va bilmaski, ani ne ish uchun yaratibdurlar. Sanoyi ul so‘zni eshitti, holi mutag‘ayyir bo‘ldi va ul Loyxo‘r tanbihi bila g‘aflat mastliqidin ayildi va qadam yo‘lg‘a qo‘yib, sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. so‘zlarida mazkurdurki, Xoja Hakim Sanoyi ul vaqtki, muhtazar erdi, o‘z-o‘zi bila og‘zida bir nima deydur ermish. Quloq solganlarga ma’lum bo‘lubdurki, bu baytni o‘qiydur ermishki,

b a y t:

[So‘zida ma’noyu ma’nosida so‘z bo‘lmagan aytganlarimdan qaytdim][1].

Azize bu so‘zni eshitib, debdurki, ajabdurkn, so‘z demakdin qaytqon mahalda ham so‘zga mashg‘ul ermish. Aning ash’oridindur.

Sh ye ‘ r:

[Bu jahon ming-ming odamlar bo‘lsa-da, o‘laksaga o‘xshaydi. Bunisi unisiga changal soladi, unisi bunisini tumshug‘i bilan cho‘qiydi. Oqibat hammasi o‘tadi, o‘laksa esa hammasidan qoladi][2].

Bu qit’a ham aning latoifidindur.

Qit’a:

[Jahon xalqining ko‘pi gumrohu ozi najot topuvchilardir. Sen shunday yashaginki, o‘lsang najot top, ammo boshqalar sendan najot topmasin-lar]3.

Bu ruboiy ham aningdur.

Ru bo i y:

[Ey ishq, ruh senga muqaddas manzil, aql-savdolaring ortilgan mahmil. Ma’rifat dunyosining sayyohi

bu – dil. G‘aming dastidan qo‘l boshdayu, oyog‘ loyda]4.

Va aning «Hadiqa»sidin boshqa hamul vazn bila uch kitobi bor va «Hadiqa»ning itmomig‘a andoqki, o‘zi nazm qilibdur – besh yuz yigirma besh ermish. Ba’zi o‘zining ham favtin ushbu tarixda debdurlar.

715. Shayx Fariduddin Attor Nishoburiy q. s.

Alar shayx Majduddin Bag‘dodiy q. s. ning murididurlar va «Tazkirat ul-avliyo» kitobikim, alarning musannafotidindur. Aning debochasida o‘zlarining Shayx Majdudding‘a irodatlarni zohir qilibdurlar va ba’zi debdurlarki, Uvaysiy ekandurlar va Mavlono Jaloluddin Rumiy q. s. so‘zlarida mazkurdurki, Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildin so‘ngra Shayx Fariduddin Attor ruhig‘a tajalli qildi va oning murabbiysi bo‘lubdur. Debdurlarki, alar andoqki otlari mashhurdur, attor ekandurlar. Tavbalarig‘a «abab bu bo‘lg‘ondurki, bir kun attorlig‘ do‘konida muomalag‘a mashg‘ul va mash’uf emishlar. Darveshe do‘kon eshigiga yetar va necha qatla [Alloh uchun biror narsa ber!][1] der. Anga parvo qilmaslar. Ul darvesh derki, ey Xoja, ne nav’ o‘lgungdur? Alar debdurlarki, andoqki sen o‘lgungdur! Darvesh debdurki, sen mendek o‘laolmassen! Alar debdurlarki: Nechuk? Darvesh debdurki, mundoq! Yag‘och ayog‘in boshin ostiga qo‘yubdur «valloh», debdur va jonni haqqa taslim qilibdur. Alarning holi mutag‘ayyir bo‘lubdur va do‘kon va anda lag‘n har ne bor ekandur, barham urubdurlar va bu tariqqa kiribdurlar.

Dyobdurlarki, Mavlono Jaloluddin Rumiy Balxdin Makkaga borurda, Nishoburda alar suhbatig‘a yetibdur va Shayx kibari sinda ermishlar. «Asrornoma» kitobini Mavlonog‘a beribdurlar va Mavlono doim ul kitobni o‘zidin ayirmay, o‘zi bila asrar ermish va haqoyiqu maorif adosida iqtidosi alarg‘adur, andoqki debdurki,

b a y t:

[Mavlono Attor atrofidan yurdi, Shams qo‘lidagi sharbatdan ichdi][2].
Va yana bir yerda debdurki,

n a z m:

[Attor ruh ediyu Sanoyi uning ikki ko‘zi. Biz Sanoiyu Attor izidan keldik][3].

Va onchaki tavhid asrori va azvoqu mavojid haqoyiqining adosi va guftu guzoriki, alarning masnaviy va g‘azaliyot va soyir nazmlarida indiroj topibdur» Hazrat Maxdumiy n. m. n. debdurlarki, bu toifaning hech qaysining so‘zlarida topilmas. [Alloh subhonahu mushtoq toliblarning eng yaxshi mukofoti bilan uni siylasin! Qutlug‘ nafasidan namunalar].

N a z m:

[Ey yuzini berkitib, bozorga kelgan, xalq bu tilsimga mubtalo bo‘lib qoldi][4].

Va bu qasidadur, yigirma baytdin ortuqroq va aholidin ba’zi anga sharh bitibdur. Va murod bu mubham adodin ul Hazratqa janobi maorifpanoh Xoja Hofiz Ali Jomiydur q. s.ki, ko‘prak ulumda bataxsis, tasavsuf nlmida zamonining yagonasi erdi va o‘tgan matla’ sharhida bu nav’ bitibdurlarki, ey ulki, o‘z yuzinki zohir vujud nuridur, ta’ayyunot va suvar burqa’i bila yoshurub, yoshirun zuhur bozorig‘a kelib, xalqe bu suvar tilismidinki, bu maxfiy ganj yuziga tortibsen, ta’ayyunoti muxtalifa kasrati va osori mutaboniya vositasidin bu’du hijron va g‘aflatu pindor va g‘ayrat giriftori bo‘lubdurlar. Yoxud ul yuz jamoli partavi siroyati vositasidinki, mazohir va suvari jamila pardalaridin

ishq balosi va muhabbat mehnatig‘a giriftor bo‘lubdurlar. Ba’zi ma’nog‘a oshiq va ba’zi suratqa.

B a y t:

[Sen – ma’no, sendan boshqasi ismdir, sen – xazina, barcha olam tilsimdir][5].

Va surat oshiqlari o‘z vahmlari bila ma’shuqdin yiroq tushubdurlar va bilmaslarki, kimning oshiqidurlar va alarning ko‘nglin olg‘on kimdur?

Sh ye ‘ r:

[Seni tanisalar ham, tanimasalar ham barcha olam xalqining mayli sengadir][6]

va bu dastur bila bu qasidani tamom sharh qilibdur va ixtisor jihatidin bu bir baytni irod qilildi va bu zaifi nomurod Hazrat Shorih q. s.ning xizmatig‘a musharraf bo‘lib erdim va ba’zi ulumda alardin sabaq eshitib erdim va Hazrat Shayx buzurgvorning nazmu nasrkdin musannafoti behad ko‘pdur. Ulcha ul orasida holo mavjud bor. Nazmlari yuz yigirma ming bayt taxminan bo‘lg‘ay va so‘zi anga o‘xsharki, bu bantlarig‘a xatm qilmish bo‘lg‘aylar.
Sh ye’r:

[Kofirning kufriyu dindorning dini Attor qalbida bir zarra darddir][7].

Va ul Hazrat olti yuz yigirma yettida kuffor ilkida shahodat sharbati totibdurlar va derlarki, muborak sinni yuz o‘n to‘rt yoshida ermish va mutahhar mozorlari Nishoburdadur va maxlis niyozmandlardin ba’zi muravvah imorat yasabdurlar, yuzaru va yutabarraku bihi.

716. Shayx Mushrifuddin Muslih b. Abdulloh Sa’diy Sheroziy q. s.

So‘fiyaning afozilidin ermish va Shayx Abu Abdulloh Xafif q. s.ning sharif buq’asining mujovirlaridindur va ulumdin tamom bahrasi bor ermish va odobdin komil nasibi. Ko‘p safar qilibdur va aqolimni kezibdur va necha qatla hajg‘a yayoq boribdur. Suminot butxonasig‘a kiribdur va alarning ulug‘roq, butin ushatibdur. Va kibor mashoyixdin ko‘pining xizmatig‘a yetibdur. Shayx Shahobuddin suhbatig‘a musharraf bo‘lubdur va alar bila bir kemada daryo safari qilibdur va debdurlarki, muddati madid Bayt ul-muqaddasda va Shom bilodida saqqolik qilib, elga suv berur erdi. To Xizr a. s.ga yetishti va ani in’om zuloli va afzoli obi hayotidin serob qildi. Bir qatla anga sodoti akobiru ashrofidin biri bila guftugo‘y voqe’ bo‘ldi.

Ul sharif kecha Hazrat Risolat s. a. v. tushda ko‘rdikim, ul Hazrat anga itob qildi. Ul sharif uyg‘ondi. Shayx xizmatig‘a borib, uzrxohliq ko‘rguzub, istirzoi xotiri qildi. Mashoyixdin biri alarg‘a munkir ermish. Bir kecha voqeada andoq ko‘rdiki, osmonning eshiklari ochildi va maloika nur tabaqlari bila nozil bo‘ldilar. Ul so‘rdikim, bu ne nurdur? Dedilarki, Sa’diy Sheroziy uchundurki, bir bayt aytibdur va ul bayt Haq s. t: hazratida qabul tushubdur va ul bayt budurki,

b a y t:

[Hushyor kishi nazarida yashil daraxtlarning har bir yaprog‘i Yaratuvchi ma’rifatining bir daftaridir][1].

Ul aziz chun ul voqeadin uyg‘ondi. Hamul aqshom shayxning zoviyasi eshigiga bordikim, anga mujda yetkurgoy. Ko‘rdiki, chirog‘e yoqibdur va zamzama qiladur. Chun quloq soldi, ushbu bayt erdiki, o‘qur erdi. Shayxning ash’ori devoni va «Bo‘ston» masnaviysi va «Guliston» kitobi va soyir kutubi va

rasoyili andin mashhurroqdurki, andin biror nima irod qilg‘ay. G‘azalgo‘y akobiru shuaro oldida mundoq muqarrardurki, g‘azal tavrig‘a Shayx muxtari’durlar, jonso‘xtalar va, ishqibozlarg‘a va dilafro‘xtalarg‘a va jongudozlarg‘a filvoqe’ g‘arib haqqe sobit qilibdurlar. Shayx olti yuz to‘qson birda shavvol oyi jum’a tuni dunyodin o‘tubdurlar.

717. Shayx Faxruddin Ibrohim Iroqiy q. s.

«Lamaot» kitobining‘ sohibidur va she’r devoni bor va mashhurdur va kichik yoshida Qur’on hifzi qilib erdi va asru xo‘b o‘qur erdi. Hamadondindur. Barcha Hamadon ahli aning sheftasi erdilar. Andin so‘ng ulum tahsilig‘a ishtig‘ol ko‘rguzubdur. Un yetti yoshida Hamadonning ba’zi madorisida ifodag‘a mashg‘ul bo‘lubdur. Bir kun bir jamoat qalandarlar Hamadong‘a yetibdurlar va alar bila bir sohibjamol yigit ermish va anga ishq mashrabi g‘olib. Ani ko‘rgach, anga giriftor bo‘lubdur. Ul musofir qalandarlar to Hamadonda erdilar, alar bila erdi. Chun alar Hamadondin safar qildilar. Necha kunki o‘tdi, firoq su’ubatidin betoqat bo‘lub, alarni erisha borib, alarg‘a yetti va ishq iqtizosi bilaki, ma’shuqqa hamranglik taqozosi qilur. Qalandarliq kisvati ixtiyor qildi va alar bila Hindustong‘a tushti va Multon shahrida Shayx Bahouddin Zikriyo suhbatig‘a yetishti va murid bo‘ldi. Derlarki, chun Shayx ani xilvatqa o‘lturtti va oning chillasidik bir dah o‘tti. Anga vajde yetishtiki, holi mustavli bo‘ldi va bu g‘azalni dediki,

b a y t:

[Vaqteki, qadahga sharob quydilar, avvalo, mastsoqiy ko‘zidan qarz oldilar][1].

Va muni biyik un bila o‘qur erdi va yig‘lar erdi. Chun xonaqoh ahli bu holni ko‘rdilar va darveshlar tariqining xilofi toptilarki, Shayx tariqi xilvatda zikru muroqaba ishtig‘olidin o‘zga ish bo‘lmas erdi. Ani inkor suratida Shayx arzig‘a yetkurdilar. Shayx dediki, sizlarga bulardin man’dur. Anga man’ yo‘qdur. Necha kun mundin o‘tti, Shayxning muqarriblaridin birining guzari xarobotqa tushti. Eshittiki, ul g‘azalni xarobotiylar changu chag‘ona bila o‘qur erdilar. Shayx qoshig‘a keldi va surati holni aytti va dediki, boqiy Shayx hokimdur. Shayx dedi: Ne eshitting, ado qil! Bu g‘azal adosida tafahhusqa chun yettikim,

b a y t:

[O‘z sirlarini o‘zlari fosh etib, Iroqiyni nega badnom qildilar?][2].

Shayx dediki, aning ishi tamom bo‘ldi va qo‘pti va Iroqiyning xilvati eshigiga kelib dediki, Iroqiy, xarobotda munojot qilasen, tashqari chiq! Tashqari chiqdi va boshini Shayxning ayog‘ig‘a qo‘ydi. Shayx muborak ilki bila boshini tufrog‘din ko‘tardi va yana oni xilvatqa kirgoli qo‘ymadi va xirqani o‘z muborak tanidin chiqarib, anga kiydurdi va o‘z farzandin aning nikohi aqdig‘a kiyurdi va anga ul nikohdin farzande bo‘ldi va anga Kabiruddin laqab qo‘ydilar. Yigirma besh yil Shayx xizmatida erdi. Shayx o‘z vafotig‘a yaqin ann o‘z o‘rnig‘a xalifa ta’yin qildi va Tengri rahmatig‘a bordi. Chun riyoyi so‘filar Shayxning iltifotin bu martabada aning jonibi ko‘rdilar. Hasad irqlari harakatg‘a kelib, vaqt podshohng‘a yetkurdilarki, aning aksar avqoti she’r bila o‘tar va sohibjamol yigitlar bila suhbat tutar. Anga shayx xilofati istihqoqi yo‘qdur. Chun shayx Iroqiyg‘a bu ma’lum bo‘ldi. Haramayni sharifayn safari ixtiyor qilib, ul davlatqa musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra Rum sori tushti va Shayx Sadruddin Qunyaviy suhbatig‘a yetib, tarbiyatlar topti va jame’ki Shayx xizmatida «Fusus» o‘qiydur erdilar, istimo’ qildilar va aning istimo’i asnosida «Lamaot»ni bitidi va shayx nazarig‘a kelturdi. Shayx pisand qilib, qabul raqamni ul sharif risolag‘a tortti va bu avqotda Hazrat Maxdumiy n. m. n. «bu xokisor iltimosi bila ul kitob sharhida «Ash’na»ni bitidilarki, mutolaa qilib, maonisidin fayz olg‘aylar va oning

nafosatin bu ilmda bilgaylar va Shayx Faxruddin Iroqiy Rumdin Misrg‘a va Misrdin Shomg‘a kelib, Dimishqda sokin bo‘ldilar va olti oydin so‘ngra farzandi Kabiruddin Multondin keldi va muddate otasi xizmatida bo‘ldi. Oqibat shayxqa oriza toriy bo‘ldi va vafot kuni ashobni va o‘g‘lini tiladi va vasiyatlar qildi va bu ruboiyni aytti.

R u b o i y:

[O‘tmishda olam nizomiga qaror qilganda, unga odam hohishicha tartib bermadilar. O‘sha kungi qoidayu qarorga binoan biror kishiga oz ham, ko‘p ham va’da bermadilar]3.

Yetti yuz sakson sakkizda zulqa’da oyining oltisida olamdin o‘ttilar va Dimishqning Solihiyasida Shayx Muhyiddin Arabiy qabrining yonida keyinroq dafn qildilar. O‘g‘li Kabiruddinni otasi yonida r.a.

718. Amir Husayniy q. t. r.

Oti Husayniy b. Olim b. Abulhusayndur. Aslida Kizivdindurki, bir kentdur, G‘ur navohiysidin. Zohiriy va botiniy ulumg‘a olim ermish va nazmu nasr kutub musannafoti bor. Nazmdin misli «Kanz ur-rumuz» va «Zod ul-musofirin» va «Si noma» va g‘azal devoni va nasrdin misli «Nuzhat ul-arvoh» va «Sirot ul-mustaqim». Va «Kanz ur-rumuz» kitobidin andoq ma’lum bo‘lurki, Shayx Zakariyoyi Mo‘ltoniyning vositasiz murididur. Ammo ba’zi kitobida andoq bitiklikdurki, ul shayx Ruknuddin Abulfath muridi bo‘lg‘ay va ul otasi Shayx Sadruddin va ul otasi Shayx Bahouddin Zakariyoyi Mo‘ltoniyning q. t. a. Aning tavbasig‘a sabab ul ermishki, ov ovlab yurur ermishki, bir kiyik ollig‘a kelur. Uq tortar, ani urg‘oli. Ul kiyik aning sori boqib ayturki, ey Husayniy, bizga ne o‘q otarsenki, Tengri seni bandalig‘iga va ma’rifatig‘a yaratibdur, yo‘q bu ish uchun? Va g‘oyib bo‘ldi. Anga hol mutag‘ayyir bo‘lub, talab o‘ti nihodidin shu’la torta boshladi. Har nesiki bor erdi, barham urdi va bir suruk javoliqilar bila qo‘shulub, Mo‘lton sori tushti va, Shayx Ruknuddin xonaqohig‘a yetishdilar. Shayx ul jamoatni ziyofat qildi. Ersa oqshom Hazrat Risalat s. a. v. voqe’da Shayxqa amr qildiki, mening bir farzandim bu jamoat orosida bordur. Chiqarib ishiga mashg‘ul qil! Tonglasi Shayx Ruknuddin ul jamoatdin tafahhus qildi. Ersa oni ko‘rguzdilar. Hamul oliy ishorat bila ani alar orasidin chiqarib, tarbiyatig‘a; mashg‘ul bo‘ldi, to oliy maqomg‘a yetti. Andin so‘ngra Xuroson viloyati sori ruxsat berdi. Amir Husayniy Hiriy shahrig‘a keldi va Hirot xalqi muridu muxlis erdilar. Yetti yuz o‘nda Shavvol oyining oltisida olamdin o‘tti va Masraxda Abdulloh b. Ja’far Tayyorning gunbazi qoshida dafn qildilar, r. a.

719. Shayx Mahmud Chabushtariy q. t. s.

Bu toifaning kummalidindur. Zohiriy va botiniy ulum sohibkamoli. Bu fan ahli qoshida muqarrar va kalomu maqoli bu toyifa tariqi adosida mustahsan. Tasnifotu kutubi bor. Ul jumladin «Haq ul-yaqin»durki, ulcha imkoni bor, bu qavm holoti va ta’rifida ham daqiq va xam mufid voqe’ bo‘lubdur. Yana «Shohid»durki, ul ham ishorat ahli tili bila maorif bayon qilibdur, ul dag‘i ta’rifdin mustag‘niydur. Va mabdavu maod bobida yana bir kitobi borki, bu tariqda suluq ahlig‘a ko‘p mufidu muntij voqe’dur. Yana «Gulshani roz»durkim, ham zohir ahlining ranginu purkor masnaviylari va ham haqiqat ahlining shirinu fayzosor so‘zlarida andin ravonroq va purchoshniyroq va sho‘rangizroq va shavqomizroq nazm aytsa bo‘lg‘ayki yo‘qdur! Va ul bu nav’ erkandurki, Mir Husayniy bu toifa istiloh va tili bila necha savol bitib, Iroq mashoyixi afozilig‘a yiboribdur, ul savolotqa javob umidi bila va ul mushkilot halli tama’i bila. Agarchi savolot o‘ttuzcha ortuq, yo o‘ksuk bor ammo o‘n yetti baytda nazm libosig‘a kiribdur. Alar nazarig‘a yetkach ul mushkilot halli uchun ul savolot javobig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar va ul masnaviyni aytibdurlar. Va abyotining adadi ming bir voqe’ bo‘lubdur. Asmoulloh adadi bila muvofiq. Va anga «Gulshani roz» tasmiya qilibdurlar. Va Shayxning muborak marqadi Chabushtardadurki,Tabriz navohiysidadur.

720. Shayx Avhaduddin q. s.
Andoq istimo’ tushubdurki, ul shayx Avhaduddin Kirmoniyning ashobidindur va otida bu nisbat ma’nisi andindur va anga she’r devoni bor, g‘oyat latofatda bir tarjeoti bor mushtamil haqoyiqu maorifqa va «Jomi jam» otlig‘, masnaviysi bor Shayx Sanoyining «Hadiqa»si uslub va vazni bila. Va anda ko‘p latoif darj qilibdur va bu ab’yot ul masnaviydindur.

M a s n a v i y:

[Bir oqshom go‘zal yorning chehrasidan baxtiyor bo‘lish uchun Avhadiy oltmish yil mashaqqat chekdi. So‘zimiz siri majoziy emas, ko‘zingni och, bu o‘yin bilan bo‘lar ish emas! Yillar falakdek saranjom kezdim va falakdek sohibnazar bo‘ldim. Oyoqda chilla o‘tirdim, ammo oziq-ovqat to‘plash uchun o‘tirganimiz yo‘q! Tashqaridan bozor o‘rtasidaman, ichkaridan yorim bilan xilvatdamen.
Hech kim xursandchiligim jamolini ko‘rmaydi va xilvatimga yo‘l topa olmaydi. Toki qalbim do‘stimga bog‘liq ekan, boshimdan shodliklar sochadi][1].

Va shayx Sanoyining «Roiya» qasidasig‘a yaxshi javob aytibdur va abyotining adadi yuz oltmish bo‘lg‘usidur. Oning muftatahi bu abyotdurkim,

m a s n a v i y:

[Bog‘liqligimiz yorga bog‘lanmasa, baxtdan qanday bahramand bo‘lish mumkin? Butun shaharda ishimiz bir zotga bog‘liq, lekin ishimizga u hech tan bermas. Hamdam yo‘q, sirimni kimga aytay? Mahram yo‘qki, zorlansam! U ma’shuq ulug‘ligidan faryodu fig‘ondaman, u nay ovozidan samo’ qilaman][2].

Va «Jomi Jam» kitobining itmomi tarixida bitibdurki,

n a z m:

[Tarixni hisobladim: yetti yuzu o‘ttiz uch edi. Men bu qutlug‘ nomani rahbarimizga bag‘ishladim. Bir yil to‘ldi, «laylat ul-qadr»da eshigida tugatdim][3].
Qabri Tabrizning Marog‘asidadur va anda favtining tarixi yetti yuz o‘ttuz sakkizda bitilibdur, r. t.

721. Afzaluddin Badil Haqoyiq Xoqoniy q. s.
Agarchi Falakiy shoirning shogirdidur va she’rg‘a shuhrati bor. Ammo derlarki, anga she’r tavridin boshqa tavre bor ermishki, she’r aning janbida gum ermish va so‘zlari bu ma’ni shohididur. Andoqki debdur.

Sh ye ‘ r:

[Mening barcha suratimu, barcha sifatim ham – u. Men nochor kishiman, hech kim so‘zimni eshitmaydi. Astoydil «U kim?» – demaydigan bo‘lsalar, biror eshikni qattiq qoqmayman, deydigan bo‘lsalar, men qanday esam, shunday desinlar!][1].
Va yana bir yerda debdurki,

sh ye ‘ r:

[Ishq ulug‘lik kigiziga oyog‘ini tirab oldi, avvalo bizdan bizning borlig‘imizni ketkazdi. Sizu bizga naqd bexudlik munosibdur, chunki sizu bizning zahmatlarimiz unga sig‘maydi][2].

Va oning bu nav’ so‘zlari ko‘pdur va mundin bu ish kelurki, anga so‘filar so‘fiy mashrabidin tamom shurbe bo‘lmish bo‘lg‘ay va ul dog‘i Shayx Sanoyining «Roiya» qasidasig‘a javob aytibdur va onda uch matla’ debdurki, avvalg‘isi budur.

Sh ye ‘ r:

[Tong otdi, tong otdi. Ish vaqti yetdi, boringizni soching, boringizni soching! Chunki yor keldi. Ishqkim, ko‘z suvidek ravshan, yorkim, bahor yelidek vaqti chog‘. Charx tong payti ishimiz uchun turfa xil jismlarni ko‘zimizga jilvalantiradi][3].

Va qasidaning oxirida debdurki,

sh ye ‘ r:

[Bu qasida yetti qasidaning sakkizinchisi bo‘lib, she’rlari g‘aroyibdur. Ka’ba eshigiga ossalar Ka’ba menga sharaf sochadi. «Kel, yig‘laylik» qasidasini ortda qoldiradi va Imrul-Qaysning obro‘yiga putur yetkazadi]4.

722. Shayx Nizomiy q. t. s.

Alarga zohiriy ulumi va rasmiy istiloxotdin bahrai tamom bor ermish. Ammo barchadin ilik tortib Haq s. t. g‘a yuz kelturubdurlar. Andoq debdurlarki,

m a s n a v i y:

[Yulduzlarning barcha daqiqalariyu ilmlarning yashirin sirlarini birin-ketin o‘qidim. O‘qidimu har bir varaq sirini axtardim. Seni topgach, varaqlarni yuvdim. Hammaning yuzini Xudoda ko‘rdim va u Xudoni hammadayu senda ko‘rdim][1].

Umri garonmoyani avvaldin oxirg‘acha qanoatu taqvo va uzlatu inzivo bila o‘tkaribdurlar va hargiz soyir shuarodek hirsu havo g‘alabasidin dunyo arbobig‘a iltijo qilmaydurlar. Balki ro‘zgor salotini alar mulozamatig‘a tabarruk tilarlar erkondur. Andoqki, debdurlarki,

M a s n a v i y:

[Yoshligimdan sening eshigingdan boshqa bir eshikka bormadim. Hammani eshigimga yubordingmen istamasdim, sen berarding. Endikim, sening dargohingda qaridim, qo‘rqiladigan narsalarda o‘zing panoh ber!][2].

Alarning besh masnaviysiki, «Panj-ganj»g‘a mashhurdur. Ko‘praki salotin istid’osi bila voqe bo‘lubdur. Bu umidvorlig‘ bilaki, alarning nazm vositasi bila bularning otlari ro‘zgor sahifasida qolg‘ay, istid’o qilur ermishlar. Va ud nazmlar agar zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig‘a bahonadur. Bir yerda ul ma’ni bayonidaki, so‘fiya debdurlarki, Haqning visoli toliblari va jamoli mushtoqlarig‘a oning vujudi dalili vujuddir va shuhud burhoni ham shuhud. Debdurlarki.

m a s n a v i y:

[Talabgorlaringning o‘z andozalarini senda ko‘rganliklari fano bo‘lishlariga sabab bo‘ldi. Kimki sendan senga nazzora qilsa, behuda varaqlarni yirtadi. Seni sensiz topib bo‘lmaydi, boshqa eshiklardan yuz o‘girish kerak][3].

Va yana bir yerda ham bu ma’noda debdurki,

m a s n a v i y:

[Aqlning oyog‘i qabarganu yo‘l qorong‘u, go‘yo qildek ingichka. Agar tavfiqing rahnamo bo‘lmasa, bu tugun aql bilan yechilmaydi. Aql sening eshigingda nurga to‘ladi, agar ichkariga oyoq qo‘ysa, kuyadi][1].

Yana bir yerda Haq s. t. mosivosining e’rozi targ‘ibi va tahrisi va aning kibriyosi janobig‘a tavajjuhda debdurki,

m a s n a v i y:

[Qonxo‘r, bu tuzoqdan uchib ketki, halos topish chorasi ziyraklikdir. Bo‘rining tishi tulkinikidan o‘tkirroq, lekin tulki ayyor bo‘lgani uchun qutuldi. Vafo qilishga harakat qil, xudparast emas, xudoparast bo‘l!][5].

«Iskandarnoma» tarixiqi, alarning kitoblarining oxiridur. Besh yuz to‘qson ikkida ekandur. Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arba’in chiqaribdurlar va to‘rt arba’inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav’ mufrit riyozatlar tortmag‘uncha bu nav’ besh ganjqi, alarg‘a nasib bo‘lubdurki, ko‘p ab’yoti alfoz jazolatidin va ma’noyu tarkib salosatidin desa bo‘lurki, e’joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas va umrlari oltmishdin o‘tgan ekandur, vallohu a’lam.

723. Xusrav Dehlaviy q. t. r.

Laqabi Yaminuddindur. Otasi Lochin qabilasining ulug‘laridin ermish. Balx navohisida hamonoki, oni Hindustonda mashhurdurki, turk derlar. Jihat bu erkin. Sulton Muborak Shoh Xalajiy favtidin yeo‘ngra Shaih Nizomuddin Avliyo xizmat va mulozamatig‘a qo‘shuldi va riyozatu mujohidat ilgari tutdi. Derlarki, qirq yil dahr ro‘zasi tutti va derlarki, Shayx Nizomuddin Avliyo hamrohlig‘idaki, aning shayxidur, tayyi arz tariqi bila haj guzorlabdur va besh qatla Hazrat Risrlat s. a. v. ni voqe’da ko‘rubdur va Shayxning ishorati bila Hizr a. s. xizmatig‘a yetubdur va andin iltimos qilibdurki, muborak og‘zi suvin aning dozig‘a solg‘ay. Hizr a. s. debdurki, bu davlatni Sa’diy eltti. Xusrav mahzun ko‘ngul bila Shayx xizmatig‘a kelibdur va surati holni arz qilibdur. Shayx o‘z og‘zi suvin aning og‘zig‘a solibdur va aning barakotidindurki, to‘qson to‘qquz kitob tasnif qilibdur. Derlarki, ba’zi musannafotida bitibdurki, mening she’rim ab’yoti adadi besh yuz mingdan ozroqdur va to‘rt yuz mingdin ko‘prakdur va derlarki, Shayx Sa’diyning yigitligida ko‘rub, xizmatig‘a musharraf bo‘lg‘on ekandur va mubohot qilur erkondur. Anga ishqu muhabbat mashrabidin choshni tamom bor emish. Andoqki so‘zlaridin zohirdurki va bag‘oyat vajdu holliq erkandur Shayx der ekandurki, qiyomatda har kishi bir nima bila faxr etgay. Men bu turkning, ya’ni Xusravning ko‘ksining kuyuki bila faxr qilg‘umdur.

Ul debdurki, bir kun mening xotirimg‘a keldiki, Xusrav ulug‘lar otidur, ne bo‘lg‘ay edi, agar menda faqr oti bo‘lsa erdiki, hashr kuni meni ul otbila atasalar erdi va bu xotirni Hazrat Shayxqa arz qildim. Dediki, solih vaqtda sening uchun ot tilalgay va men bu intizorda bo‘ldum. Bir kun Shayx dediki,

bizga mundoq makshuf bo‘ldiki, qiyomat kuni seni Muhammad Qosales degaylar. Ul jum’a kechasi yetti yuz yigirma beshda dunyodin o‘tubdur va umri yetmish to‘rtga yetgondur. Shayxning oyog‘i sari dafn qilibdurlar.

724. Hasan Dehlaviy q. t. s.

Laqab va nisbati Najmuddin Hasan b. Alo Sanjariydur. Shayx Nizomuddin Avliyo q. s.ning kotibi va muridi ermish. Yaxshi axloqu avsof bila ma’ruf va mashhur ermish. Hind sohibi tarixi debdurki, majolis latofatu zarofatida va aql istiqomati va so‘fiya tariqida qanoat luzumi va e’tiqod pokligi va tajarrud va tafarrud tavrida va olamda harne kelsa xush bo‘lmoq va xush o‘tkarmoq tariqida andoq kishi oz ko‘rubmen. Va ham Hind sohibi tarixi debdurki yillar menga Amir Xusrav va Amir Hasan bila muhabbatu mavaddat erdi. Andoqki, alar mensiz va men alarsiz bo‘lmas erdim va mening vositam bila alarning orasida andoq do‘stluq istehkom topib erdiki bir-birining uylarida taraddud qilurlar erdi va hamul debdurki, Amir Hasanning kamoli e’tiqodiki, Hazrat Shayx Nizomudding‘a bor erdi. Majolisda alarning muborak anfosidin har nimakim eshitib erdi bitib erdi va ul necha mujallad bo‘lub erdi va anga «Favoyid ul-favoyid» ot qo‘yub erdi va bu ro‘zgorda bu diyorda, ya’ni Hindda suluk va tariqat arbobiga dastur bo‘lubdur.

Va anga mundin boshqa devon va masnaviy bordur va bu ruboiy aning nazmidindur.

R u b o i y:

[G‘amgin dilginam bor, kechirginu qilmishimdan so‘rama, panada yuz xil voqealar bor, kechirginu so‘rama! Agar amalimdan so‘rasang, sharmanda bo‘laman, ey akramul akramin, kechirginu so‘rama!][1].

725. Shayx Kamol Xo‘jandiy q. r.

Bag‘oyat buzurg ermishlar. Alarning ishtig‘oli she’rg‘a va aning nozukluklarig‘a va o‘z hollarining satru talbisi uchun erdi erkin. Andoqki, o‘zlari debdurlarki,

b a y t:

[Mening she’rimdagi bu takalluflarim, ey Humayrom, menla so‘zlashgin, deganimdadir][1].

Alad-davom riyozat va mujohidotqa mashg‘ul ermishlar. Xoja Ubaydulloh q. s. debdurki, necha vaqt Shosh degan yerda bo‘lur ermishlarki, alarning otalari anda sokin ermish va ul ayyomda hayvoniy yemas ermishlar. Alarning otasi iltimos qilmish bo‘lg‘ayki, taomeki, hayvoniyg‘a doxil bo‘lg‘oy. Alar mayl qilg‘aylar. Shayx tiybat vajhi bila demish bo‘lg‘aylarki, agar o‘yungnn o‘lturub, nima pishurursen, mayl qilurbiz va Xojaning otasining bir yaxshi o‘yi bor ermish. Alar ul-o‘yin shayxdin bexabar o‘lturubdurlar va taomni tartib qilibdurlar. Shayx mayl qilibdurlar, Tabrizda ul zoviyadaki, sokin ermishlar, xilvate ermishki, kecha onda bo‘lur ermishlarki, o‘zlaridin o‘zga kishi anda yetmas emish. Shayxning vafotidin so‘ngra ul hazratniki ko‘rubdurlar, bir buryodin o‘zgaki, anda o‘lturur ermish, bir toshdin o‘zgaki boshi ostida yastar ermishlar nima topmaydurlar. Derlarki, ul vaqtki saroyda bo‘lur ermishlar mavzi’i ermishki, suv tug‘yoni chog‘da ul yerda ko‘p xaroblig‘ qilur ermish. Ul qissani Shayxqa aytibdurlar. Shayx debdurki, bizning chodirni ul yerda tiking! Chun shayx buyurg‘ondek qilibdurlar. Yana anda suv xaroblig‘ qilmaydur. Vafoti sakkiz yuz uchda bo‘lubdur va qabri Tabrizdadur va lavhida bu baytni o‘z she’ridin bitibdurlarki,

b a y t:

[Kamol, Ka’badan kechib yor eshigiga ketding, ming ofarin, mardona ketding!][2].

726. Mavlono Muhammad Shirin, mashhur ba Mag‘ribiy q. s.
Shayx Ismoil Sisiyning murididur, ul Shayx Abdurrahmon Isfaroyiniy ashobidindur q. s. Va debdurlarki, ba’zi sayohatda Mag‘rib daryosig‘a yetib, anda ba’zi mashoyix iligidinki, nisbati Shayxi buzurgvor Shayx Muhyiddin Arabiyg‘a yetar, xirqa kiyibdur. Shayx Kamol Xo‘jandiy bila r. muosir ermish. Bir biri bila suhbat tutarlar ermish. Ul vaqtki, Shayx bu matla’ni aytqan ekandur,

b a y t:

[Ko‘z agar shudir, qosh shudir, nozu ishva shu, alvido, ey zuhdo‘ taqvo, alfiroq, ey ahlu din!][1].

Mavlono samo’g‘a yetgandur. Mavlono degandurki, Shayx bisyor buzurgdur, ajabdur alardin andoq bayt aytmoqqi, zohir ma’nosidin o‘zga muhmala bo‘lmag‘ay. Shayx ani eshitib, suhbat istid’osi qilibdur: Va o‘zi Balxqa qiyom ko‘rguzubdur va Mavlono ham ul xidmatda muvofaqat qilibdur. Ul asnoda Shayx ul matla’ni o‘qubdur va debdurki, ko‘z ayndur va bo‘la olurki, ishorat tili bila ayni qadimdinki, zotdur ta’bir qililg‘ay. Va qosh hojibdur, pas, bo‘la olurki, andin ishorat sifatqa qililg‘ayki, zotning hijobidur. Mavlonog‘a ul hol ma’lum bo‘lub, tavozu’ qilib, insof beribdur. Bir qatla, Shayx Ismoil Sisiy darveshlarni arba’ing‘a o‘lturturda Mavlononi ham tilabdur va Mavlono bir g‘azal aytib, o‘tkaribdurki, matla’i budurki,

b a y t:

[Biz sening quyoshingni ko‘rdik, zarralardan kechdik, u zotni izlab, barcha sifatdan kechdik][2]

Oxirgacha tasavvuf voqe’ bo‘lubdur. Chun Shayx eshitibdur, vaqti xush bo‘lubdur va istehson ko‘rguzubdur. Va Mavlono oltmish yoshlarida sekkiz yuz to‘qquzda dunyodin o‘tubdurlar.

727. Sayyid Nosir Xusrav q. s.
Badaxshon Ko‘histonida bo‘lur ermish. Bag‘oyat murtoz kishi ermish, Ko‘histon ahli boshtin ayoq oning murididurlar va Shoh Nosir Xusrav bila ta’bir qilurlar. Zohir ulumin xeyli ko‘rgan ermish va botin ilmin dag‘i riyozat jihatidin hosil qilg‘ondur, ammo bu toifaning aning mazhabida ta’nlari bor va bu ta’n to‘yo «Ro‘shnoyinoma»sida mazkur bo‘lg‘on ab’yoti jihatidindurki, hukm mazhabi ravishida voqe’ bo‘lubdur va mazori Ko‘histondadur, yuzoru va yutabarraku bihi.

728. Shayx Ozariy q. r.
Isfaroyinliqdur. Langari va muridlari bor erdi va mazbut avrod va avqotlig‘ kishi erdi. Avoyil holida haq yo‘li suluki ko‘ngliga mustavli bo‘lg‘onda Makka azimati qildi. Ul davlatqa musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra Hind safari ilayiga tushti. Necha yil ul mulkda qoldi va ko‘p mashoyix va azizlar suhbatig‘a yetishti va ko‘p el anga murid bo‘ldilar. Andoq manquldurki, Hind salotinidin ba’zining majlisig‘a yetganda andoqki, alarning rasmi ermishki, salotin bila kishi musofaha qilurda yerga boshin qo‘yub ko‘rushur ermishlar. Shayx tavridin bu ishni yiroq ko‘ribdurlar. Ammo majoli tamanno qilib, shayxqa arz qildurubdurlarki,. agar bu rasmni bajo keltursa, bir lakki yuz ming diram bo‘lg‘ay, niyozmandlig‘ qilg‘aylar. Shayx qabul qilmay istib’od qilib, bu baytni debdurki,

b a y t:

[Men turkman, Hinduni Chibolning o‘laksasi deb ataganman. Jo‘naning hashamatini bir dona arpaga olmayman][1].

Shayxning mazori Isfaroyindadur, o‘z langarida. Sakkiz yuz oltmish birda o‘tubdur. Bu bayt ham Shayxningdurkim,

b a yt:

[Masihodan qolgan bu o‘yilgan yozuv qadimiydir, noumid bo‘lmaki, oqibat xayrdir]2.

729. Mavlono Lutfiy r. t.

Tahsil ayyomida Mavlono Shihobuddin Xiyobonin xizmatig‘a yetar ekandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirliq tariqida ma’ruf va mashhur bo‘ldi. Ammo darveshlik tariqini dag‘i ilkidin bermadi. Bu faqir borasig‘a ko‘p iltifoti bor erdi va fotihalar o‘qur erdi va doim volida mulozamatig‘a va rizoe xotirig‘a targ‘ib qilur erdi. To‘qson yoshidin tajovuz qilg‘onda, Hazrat Maxdumi n. m. n. otig‘a radifi «suxan» saj’ qasidae aytib erdiki, zamon xushgo‘ylari barcha xo‘bluqqa musallam tuttilar va ul hazrat dog‘i insof berdilar va oning matlai budurkim,

b a y t:

[Xusho, labingdan chiqqan so‘zlar – ruh ozig‘i,
so‘zning jonidir.
Yuzing guli –so‘z bo‘stoni chamanlarini
bezovchidir][1].

Ul Hazrat shukrguzorlik yuzidin ma’zirat izhori qilib dedilarkim, bu she’rning silasi uhdasidin biz chiqa olmas bizki, magar muqobalada ham qasidae sizning otingizga aytqaybiz. Mavlono dedilarkim. ani sizga oson qilurbiz. Sizing kiygan eski to‘nunguzni gadoylik qilurbizki, hulla bo‘lg‘ay. Ul hazrat uzrxohliqlar bila kisvatin Mavlonog‘a kiydurdilar. Mavlono bag‘oyat so‘xta kishi erdi. To‘qson to‘qquz yoshida olamdin o‘tdi, qabri Dehikanordadurki, o‘z maskani erdi. Bu matla’idin bu toifa mashrabining choshnisi zohirdur:
Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,
Ko‘zgudek qildi seni o‘zini paydo qilg‘ali.

730. Mavlono Muqimiy a. r.

Xuroson mulkida Tarxon eli orasida bo‘lur erdi. Fuqaro ahli mashrabi tavridin zohir erdi v.a bu toifa istilohotidin xabardor, turkcha she’rg‘a mashhur va ma’ruf erdi. Bu toifa istilohi bila turkcha tarje’ aytibdur va ko‘p maoniy anda darj qilibdur va tarje’ining bandi bu bayt voqe’ bo‘lubdurki:

Sensen asli vujudi har mavjud,
Sendin o‘zga vujudqa ne vujud.

731. Mavlono Ashraf q. s.

Hiriy shahrida bo‘lur erdi va so‘fiya tariqi bila suluki bor erdi. Boshig‘a kiyiz bo‘rk qo‘yar erdi va nazm ahli akobiri bila suhbat tutub erdi. Ko‘pi ani darveshlik jihatidin ta’zim qilurlar erdi. Ko‘prak avqotida «Xamsa» nazmig‘a o‘tkarur erdi. Oqibat ul-amr ul mutabarrak kitob itmomig‘a musharraf bo‘lurg‘a tavqif topti. Bu baytni go‘yoki matlub visoli vaqti aytmish bo‘lg‘aykim,

b a y t:

[Vasling sharafidan Ashraf bo‘ldik,
Davlatimiz ekan, musharraf bo‘ldik][1].

732. Sayyid Nasimiy q. r.

Iroq va Rum tarafidag‘i mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida hakoyiq va maorif bag‘oyat ko‘p mundarijdur. Mazkur bo‘lg‘on mulk ahlig‘a aning she’ri muqobalasida hamonoki she’r yo‘qdur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig‘a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so‘yar hukm bo‘lubdur. Ul holatda bu she’rni debdurki,

n a z m:

Qibladur yuzung nigoro qoshlaring mehroblar,
Surating mushaf vale xolu xating e’roblar.

va bu she’rning taxallusi ushbu muddaog‘a doldurkim,

n a z m:

Ey, Nasimiy, chun muyassar bo‘ldi iqboli visol,
Qo‘y, teringni so‘ysa so‘ysun bu palid qassoblar.

733. Shayx Imoduddin Faqih q. t. s.

Agarchi faqohatqa mashhurdur, ammo sohibi vajdu hol ermish. Va xonaqohi va muridlari bor ermish va samo’ suhbatig‘a ko‘p moyil ermish. Debdurlarki, Makka azimati qilg‘onda guzari Sherozg‘a tushubdur va anda Bischoqiya degan zoviyada nuzul qilibdur va ul zoviya fuqarosidin so‘rubdurki, bu navohida birovki filjumla uni bo‘lg‘ay va nima o‘quy olg‘ayki, andin dardmande xushhol bo‘laolg‘ay bormu erkinki, bir zamon tilasak? Ul darveshlar demish bo‘lg‘aylarki, Hofiz Shamsuddin Muhammad otlig‘ yigit borki, yaxshi uni bor va o‘zi nazm ham ayta olur. Nazmig‘a ba’zi xalq moyildurlar. Xud bu so‘zdin g‘arazlari Xoja Hofiz ermishki, alarning zuhurining bidoyati ermish. Xoja Imod istid’o qilurki, ul yigitni topib kelturung! Ul jamoat Xoja Hofizni topib, hozir qilurlar va Xoja Imod tilab, musofaha qilib, majlisda o‘lturtqondin so‘ngra iltimos qilurki, eshitibbizki, ham yaxshi uning bor va ham nazm aytursen. Bizing uchun o‘zungning bir she’ring o‘qug‘il! Xoja Hofiz bu she’rni yangla aytqon ekandur.

B a y t:

[Tuprog‘ni bir nazar bilan kimyo qiluvchilar koshki, ko‘z qiri bilan bizga ham bir nazar qilsalar!][1].

Un tortib bu matla’ni o‘qug‘ach, Xoja Imodqa vajd yuzlandi va faryod qilib, samo’g‘a qo‘por va buyururki, matlani-o‘q mukarrar o‘qug‘ay! Shomdin subh chog‘ig‘acha Xoja bu matla’ bila faryod qilib, samo’ qilur. Namoz chog‘i muridlari Xojani tutub, taskin berurlar va namozni ado qilurlar va Xoja Hofiz borasida xayr duolari qilur va necha kun anga bo‘la ul shahrda tavaqquf qilur. Makkaga borib qaytguncha Xoja Hofiz she’rining shuhrati olamni tutqon ekandur. Xoja Imodning devoni bor. Bu matla’ aningdurki,

b a y t:

[Qaerdaki, irodat kamol topib oxiriga yetsa, jabr har qancha ko‘p bo‘lsa, muhabbat undan ziyodadir!][2].

734. Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy q. s.

Alar lison ul-g‘ayb va tarjumon ul-asrordurlar. Baso asrori g‘aybiya va maoniyi haqiqiyaki, surat kisvatida va majoz libosida ado qilibdurlar. Agarchi ma’lum emaski, alar irodat iliki bir pirga bermish bo‘lg‘aylar va tasavvuf tariqida bu toifadin biriga nisbat durust qilmish bo‘lg‘aylar. Ammo so‘zlari andoq bu toifa mashrabi bila muvofiq voqe’ bo‘lubdurki, hech kishiga andoq ittifoq tushmaydur. Dog‘i alfoz latiflig‘i va tarkib pokizalig‘i va ravonlig‘i va ado salosati va latofati va ma’no g‘ariblig‘i choshnisida xudalarni ta’rif qilmoq hayot suyii jonbaxshliqqa ta’rif qilg‘ondek bo‘lg‘ay. Xojalar q. a. silsilasidin azize debdurki, hech devon Hofiz devonidin yaxshiroq emas, agar kishi so‘fiy bo‘lsa. Bu faqirg‘a andoq ma’lum bo‘lubdur va mashhur mundoqdurki, Hazrat Mir Qosim q. s. alarning devonini «Qur’oni forsiy» der ermishlarki, Kalomulloh oyoti maonisidin mamlu va asroru nukotidin mashhurdir. Chun alarning ash’ori maorifnigori andin mashhurroqdurki, irodg‘a ehtiyoj bo‘lg‘ay. Har oyina qalam inoni andin masruf qilildi. Alar yetti yuz to‘qson ikkida olamdin o‘tubdurlar.

735. Shayx ul-islom Mavlono Nuruddin Abdurrahmon Jomiy q. r.

Alar vasfida xoma tili lol va til xomasi shikasta maqoldur. Yillar taqrir qililsa va qarnlar tahrir sur’ati bila bitilsa, ulcha haqqi bor. Vasflarining ado topmog‘i mutaassirdir va ta’riflarnning song‘a kelmagi mutaazzir. Bu bebizoat va qalil ul-istitoatning yaqini munga sodiq va tahqiqi munga muvofiqdurki, bu ummatda alarning kamoli suvari va istikmoli ma’naviylari jome’iyati bila turamamish bo‘lg‘ay. Chun asr fuzalosidin va zamon ulamosidin kim alarning shogirdlig‘ig‘a muazzazu mumtoz va musharrafu sarafroz erdilar. Necha kishi alarning siyratu kamoloti sharhida rasoilu kutub bitibdurlar va tasonif sabt etibdurlar, arodadur. Bilay degan kishi ul jam’i ta’lifdin o‘z fahmi xurdida maxsus bo‘lur va bahra ola olur. Bu zaif dag‘i ham bu bobda «Xamsat ul-mutahayyirin» risolasi bitibmen. Anda filjumla gustoxlig‘ yuzidin alar zikri bila qalamni gavharnisor etibmen. Turk ulusida irodat ahli va ixlos xayli ul parishon avroqdin va parokanda ajzodin ilikka olsalar va ko‘z solsalar, biror nima bila olurlar va shuur hosil qila olurlar. Alar zohir yuzidin o‘zlarin qutb ul-muhaqqiqin va g‘avs us-solikin Mavlono Sa’d ul-millati va din Qoshg‘ariy q. r. a. muridi ko‘rguzurlar erdi. Ammo hamonoki Uvaysiy erdilar va hazrat Xoja Bahouddin Naqshband r. t. ruhoniyatidin tarbiyat topib erdilar va zamon mashoyixidin Xoja Muhammad Porso q. s. muborak nazarlarig‘a yetishib erdilar va Xoja Abu Nasr Porso va Xoja Muhammad Kusaviy va Mavlono Boyazid Puroniy va Mavlono Muhammad Asar va Mavlono Muhammad Tabodgoniy va Shayx Shoh Ziyoratgohiy va Mavlono Muhammad Amin Ko‘histoniy va Mavlono Sa’diddin Jojarmiy q. t. a. va soyir zamon mashoyixi bila suhbat tutub erdilar va ham bu toifa holotu masoilidin barchadin bahra topib erdilar va ham bahra yetkurub erdilar. Sakson bir yoshqa yettilar va sakkiz yuz to‘qson sakkizda jum’a kechasi Hirot xiyoboni boshida o‘z manzillarida Tangri taolo rahmatig‘a vosil bo‘ldilar va alarning muxlislaridin biri munavvar marqadlari ustida oliy imorat yasab, ba’zi muridlar va shogirdlaridin ul imoratda daqoyiq fununin va haqoyiq ulumin holo dars etib, jamoati kasir toliblardin alar ruhoniyatn barakatidin naf’i shomil va fayzi komil topadurlar va nazmu nasr tasniflaridin ellikka yaqin borki, zamon ahli andin bahramanddurlar. Nazmlaridin uch devondur. Avvalg‘i devon «Fotihat ush-shabob»qa mashhur va ikkinchi «Vositat ul-iqd»qa ma’ruf va uchunchi «Xotimat ul-hayot»qa mavsumki, olam ahli tilida ul nazmlardin o‘zga oz nazm joriy bo‘lur va masnaviydin «Haft avrang»dur, yetti daftar tarbiyat topibdurki, «Tuhfat ul-ahror»dur va «Silsilat uz-zahab»dur va «Yusuf va Zulayho»dur va «Layli va Majnun»dir va «Xiradnoman Iskakdariy”dur va «Subhat ul-ahror»dur va «Salomon va Absol»dur va nasrlaridin «Tafsir»dur va «Shavohid un-nubuvvat»dur va «Nafahot ul-uns»dur va «Naqshi Fusus»dur va «Ash’iat ul-lamaot»dur va «Lavoeh»dur va «Lavome’»dur va sharhi ruboiyotdur. Chun barchasi alarning kulliyotida mastur va mazkurdur, te’dodig‘a hojat emas va alarniig maoniy va nukoti andin mashhurroqdurki, biror nima sabt qilmoqqa hojat bo‘lgay. Ul sababdin ixtisor qilildi. Haq s. t. va alar ruhig‘a vusul nuzhatgohida qiyomatqacha orom va niyozmandlarg‘a alar asroru maoniysidin komu nashoti tamom nasib qilsun,

omin yo Rabb al-olamin!

[Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri]

Shayxi buzurgvor Shayx Muhyiddin Arabiy q. s. «Futuhoti Makkiy»ning yetmish uchunchi bobida, andin so‘ngraki, rijolulloh tabaqotidin ba’zini zikr qilibdur, debdurki, [biz zikr etgan bu toifadagi kishilarning barchasini rijol – erkaklar deb ataymiz. Shuningdek, ular ichida ayollar ham bor, lekin erkaklarning soni ko‘p. Ba’zi kishidan so‘radilar: Abdollar necha nafardirlar? Aytti: Qirq kishi. Unga aytdilar: Nega qirqta erkak demaysan? Aytti: Ular ichida ayollar ham bo‘ladi]1. Shayx Abdurrahmon Sulamiy tabaqoti mashoyixiing sohibi r. t. nisvat un-obidot va niso un-orifot ahvoli zikrida alo haddihi kitobe jam’ qilibdur va alardin ko‘pining ahvoli sharhiya bayong‘a keltirubdur.

Sh ye ‘ r:

[Agar ayollar biz aytgandek bo‘lsalar, erkaklardan afzaldirlar. Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oyning muzakkar ism ekanligi unga faxr emas][2].

736. Robiai Adaviya r. t.

Basra ahlidin erdi. Sufyon Savriy r. a. andin masoil so‘rar erdi va aning mav’izotu duosig‘a rag‘bat ko‘rguzur erdi. Bir kun Sufyon Robia q. s. qoshig‘a kirdi va ilig ko‘tarib dediki, [Allohim, sendan salomatlik so‘rayman][1]. Robia yig‘ladi. Sufyon so‘rdiki, ne uchun yig‘lading? Robia dediki, sen meni yig‘latding! Sufyon dedi: Nechuk? Robia dediki, salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robia so‘zidurki, har nimaga samaraedur va ma’rifat samarasi yuz Tengriga kelturmakdur. Va ham ul debdurki, [oz sidq ila astag‘firulloh demoqlikdan astag‘firulloh deyman][2]. Sufyon andin so‘rdiki, banda Tengri taolog‘a taqarrub tilar nimalardin yaxshirog‘i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o‘zgani sevmas. Bir kun Sufyon aning qoshida dediki, [vo alamo!][3]. Ul dedi: yolg‘on aytma, agar sen mahzun bo‘lsang erdi, tiriklik senga xushguvor bo‘lmag‘ay erdi. Va ham ul debdurki, anduhum andin emaski, anduhingdurmen. Anduhum andindurki, anduhgin emasmen!

737. Lubobat ul-muta’abbida r.

Bayt ul-muqaddas ahlidindur. Ul debdurki, men Haq s. t. din uyalurmenki, meni g‘ayr bila mashg‘ul ko‘rgay. Birav anga dediki, Hajga boradurmen, anda ne duo qilay? Dediki, Tengridin ani tilaki, sendin xushnud bo‘lg‘ay va seni o‘zidin xushnudlar maqomig‘a yetkurgay va seni do‘stlari orasida gumnom qilg‘ay.

738. Maryam Basriya r. t.

Basra ahlidindur. Robia ro‘zgorida ermish va aning suhbatig‘a yetgan ermish va xidmatin qilg‘an ermish. Va Robiadin so‘ngra necha vaqt hayot topibdur. Va muhabbatda so‘z aytur ermish. Va muhabbatomiz so‘z eshitsa ermish, behol bo‘lub, yiqilur ermish. Va olamdin o‘tmakni mundoq debdurlarki, bir majlisda muhabbat so‘zi o‘tar ermish. Chun so‘z muassirroq tushubdur, yuraki yorilib, jon beribdur. Ul debdurki, hargiz ro‘ze g‘ami yemadim va aning talabig‘a ranj tortmadim, to bu oyatni eshittimki, [Va sizning rizqingiz osmonda va sizga va’da qilingan narsa bordir][1].

739. Rayhonai Voliha r. t.

Basraning mu’ta’abbidotidin ermish. Solih Murriy r. t. ayyomida bu abyotni yoqasi ollig‘a bitib erkandur.

Sh ye ‘ r:

[Sen munisim, himmatim va sururimsan, qalbim sendan boshqani sevishni istamaydi. Ey azizim, himmatim va murodim, shavqim ado bo‘lmas, qachon diydoringga musharraf bo‘laman? Maqsadim jannat ne’matlari emas, faqat seni ko‘rmoqni orzu qilaman][1].

740. Mu’ozai Adaviya r.

Robiai Adaviyaning aqronidindur va aning bila suhbat tutubdur. Qirq yil yuzin yuqori osmong‘a qilmadi. Va hargiz kunduz nima yemadi va kecha uyuqlamadi. Anga dedilarki, nafsingg‘a ko‘p zarar yetkurasen. Dediki, hech zarar yetkurmaydurmen, kecha uyqusun kunduzga solibmen va kunduz yemakin kechaga!

741. Ufayrai Obida r. t.

Ul Basra ahlidindur va Mu’ozah Adaviya bila suhbat tutubdur. Tengri qo‘rqunchidin ancha yig‘ladiki, ko‘zlari ko‘rmas bo‘ldi. Birav anga dediki, ne baloi qattiqdur ko‘rmaslik! Ul dediki: Tengri taolodin mahjubluq andin qattiqroqdur va ko‘ngul ko‘rluki Haq s. t. ning murodi muhimmida aning amrlarida qattiqroq.

742. Sha’vona r. t.

Ul Ajamdin erdi va Ubullada o‘lturur erdi. Va yaxshi uni bor erdi va xo‘b nag‘amot bila va’z aytur erdi. Va zuhhod va ubbod va arbobi qulub aning majlisida hozir bo‘lur erdilar. [Mujtahida, qo‘rquvchi, yig‘lovchi, yig‘latuvchilardan edi]1. Anga dedilarki, qo‘rqarbizki, ko‘p yig‘lamog‘din ko‘zung ko‘rmas bo‘lg‘ay. Dediki, dunyoda yig‘lamog‘din ko‘r bo‘lmoq yaxshiroqdur, o‘t azobi bilan ko‘r bo‘lmoqdin. Ul debdurki, ul ko‘zki, mahbubi liqosidin yiroq qolg‘ay va aning diydorig‘a mushtoq bo‘lg‘ay, yig‘isiz yaxshi ko‘runmas. Derlar: ancha anduh anga g‘alaba qildiki, namoz va ibodatdin qoldi. Uyquda birov kelib anga dediki,

sh ye ‘ r:

[Agar sen g‘amgin bo‘lsang ko‘z yoshlar to‘kkin, albatta yig‘i g‘amginlarning qayg‘ulariga shifodir. Tur, harakat qil! Yonib, o‘rtanib, doimo ro‘zador bo‘l, chunki yonish va o‘rtanish itoatkorlarning fe’lidir][2].

Yana toat bunyod qildi. Va bu abyot bila tarannum qilur erdi va yig‘lar erdi va yig‘latur erdi. Derlarki, qarig‘anida Fuzayl Iyoz q. s. aning qoshig‘a borib, duo talabe qildi. Ul dedi: Ey Fuzayl, sening bilan Tengri orasida hech nima bormuki, agar duo qilsam, ijobatqa sabab bo‘lg‘ay? Fuzayl sayhae urdi va bexud bo‘lub yiqildi.

743. Kurdiya r. t.

Basradin yo Ahvozdin erdi. Va Sha’vonaning xidmatin qilur erkandur. Ul debdurki, bir kecha Sha’vona qoshida erdim. Ko‘zumkim, uyqug‘a bordi, ayog‘in manga urub dedi: qo‘b, ey Kurdiyyaki, bu yer uyqu yeri emas, uyqu yeri go‘rdur! Anga dedilarki, sanga Sha’vona suhbati barakotidin ne yetti? Dedi: ul vaqtdin beriki, aning xidmatig‘a yettim, dunyoni sevmadim va ro‘ze g‘amin yemadim va dunyo ahlidin hech kishi ko‘zumga uluq ko‘runmadi tama’ jihatidin va musulmonlardin hech qaysini kichik tutmadim.

744. Hafsa binti Sirin r. t.

Muhammad Sirinning qiz qardoshidur. Va zuhdu vara’da qardoshidek erdi. Oyot va karomot iyasi ermish. Derlarki, kecha o‘z uyida chiroq yoqar erdi va namozg‘a turar erdi. Goh bo‘lur erdiki, chirog‘i tuganib o‘char erdi va uy yoruq erdi.

745. Robiai Shomiya r. t.

Ul Ahmad b. Abulhavoriyning zavjasi erdi. Ahmad debdurki, aning ahvoli muxtalif erdi, gohi anga ishqu muhabbat g‘alaba qilur erdi va gohi uns va gohi xavf. Muhabbat g‘alabasi mahalida aytur erdiki,

sh ye ‘ r:

[U shunday mahbubki, tengi yo‘q, qalbimda undan boshqaga nasiba yo‘q. U mahbub ko‘zimdan va o‘zimdan g‘oyib bo‘ldi, ammo ko‘nglimdan g‘oyib bo‘lmadi]1.

Va uns holida der erdiki,

sh ye’ r:

[Seni qalbimda sirdosh va suhbatdosh qildim, kimki menla ulfatchilikni xohlasa, jismimni topshirdim. Jismim suhbatdosh bilan, qalbim jononim ila ulfatdir][2].

Va xavf holida der erdiki,

sh ye’ r:

[Yo‘l ozig‘im ozdir, manzilimga yetkazolmaydi, ozig‘im ozligiga yig‘laymi yo yo‘lning uzoqligiga? Ey orzum intihosi, meni o‘tda kuydirasanmi? Nahot, barcha umidim va qo‘rquvim foyda bermaydi?][3]. Ahmad Abulhavoriy debdurki,

B a y t:

[Seni ayollarni sevgandek emas, birodarlik muhabbati bilan sevaman][4].

Ahmad b. Abulhavoriy debdurki, bir kun aning oldida bir tasht erdi. Dediki, bu tashtni ko‘taringki, anda bitilgan ko‘rarmenki, amir ul-mo‘‘minin Horun ar-Rashid o‘tubdur. Chun tafahhus qildilar, ham ul kun Horun ar-Rashid o‘tub erdi.

746. Hakimai Dimishqiya r. t.

Shom nisosining sodotidindur. Robiai Shomiyaning ustodi. Ahmad b. Havoriy debdurki, Robia dediki, Halimai Dimishqiya qoshig‘a kirdim, mushaf Qur’on o‘quydur erdi. Dedi: Ey Robia, eshittimki, abushqang, ya’ni Ahmad b. Abulhavoriy sening ustungga yana xotun oladur ermish. Dedim: bale! Dedi: Ul nechuk begonur oncha aqli bilaki, ko‘nglini Tengri taolodin ikki xotung‘a mashg‘ul qilg‘an? Magar sanga ul oyat tafsiri yetmaydurkim, [Magar Alloh huzuriga toza dil bilan kelgan kishilargagina foyda yetar)[1]. Dedim: yo‘q! Dedi: bu oyatning tafsiri budurkim, Tengri taologa yetkaysen va ko‘nglungda hech nima andin o‘zga bo‘lmag‘ay. Robia debdurki, aning qoshidin chiqdim va ul so‘z asaridin taammul qila borur erdim. Va eranlardinki, ul yo‘lda yo‘liqur erdilar, uyalar erdimki, meni usruk sog‘ing‘aylar.

747. Ummi Hasson r. t.

Kufa ahlining zuhhodidin ermish. Sufyon Savriy aning ziyoratig‘a borur ermish. Va ba’zi debdurlarki, ani xotunluqqa qo‘lubdur. Sufyon debdurki, bir kuk aning uyiga kirdim, bir eski buryodin o‘zga nima yo‘q erdi. Dedim: agar bir ruq’a amakizodalaringg‘a bitilsa, sening holing rioyati qilurlar. Dedi: Ey Sufyon, myoning ko‘z va ko‘nglumga bundin burun ulug‘roq erding. Men hargiz dunyoni savol qilmon

ul kishidinki, anga molikdur va qodirdur va mutasarrif. Nechuk savol qilg‘aymen andinki, anga qodir ermas? En Sufyon, vallohki, men sevmasmenki, manga bir dam o‘tgayki, ul dam Tengridin g‘ofil bo‘lub, aning g‘ayrig‘a mashg‘ul bo‘lg‘aymen. Sufyon ul so‘zdin yig‘ladi.

748. Fotima Nisoburiya r. t.

Xuroson nisosining qudamosidindur va orifot kiboridin. Abu Yazid Bistomiy q. s. anga sano aytibdur va Zunnun Misriy andin savollar qilibdur. Makkada mujovir erkandur. Gohi Bayt ul-Muqaddasg‘a borur erkandur va yana Makkag‘a qaytur erkandur. Bir kun Zunnun uchun nima yibordi. Zunnun qabul qilmadikim, nisvondin nima qabul qilmoq mazallatdur va nuqson. Fotima dediki, dunyoda hech so‘fiy andin yaxshiroq va ulug‘roq emaski, bu sababni aroda ko‘rmagay. Abu Yazid q. s. debdurki, umrumda bir er va bir xotun ko‘rubmen. Ul xotun Fotimai Nisoburiya erdi, hech maqomdin anga xabar qilmadimki, ul xabar anga ayon emas edi. Mashoyixdin biri Zunnundin so‘rdiki, bu toyifadni kimni ulug‘roq ko‘rdung? Dediki, Makkada bir zaifa erdiki, ani Fotimai Nisoburiya der erdilar. Qur’oi maoniysi fahmida so‘zlar aytur erdiki, manga ajib kelur erdi. Umra yo‘lida ikki yuz yigirma uchda dunyodin o‘tti.

749. Zaytuna r. t.

Oti Fotima erdi. Va Abu Hamza va Junayd va Nuriy q. a. g‘a xizmat qilur erdi. Ul debdurki, bir kun qattiq sovuq erdi. Nuriy xizmatig‘a bordim va dedim: hech nima ermusen? Dedi: hov! Dedim: ne? Dedi: non bila sut! Deganini kelturdum. Ollida o‘t yonadur erdi va iligi qora bo‘lub erdi. Iligining har yerigaki, sut tegar erdi, qorasi uyulurur erdi. Chun ani ko‘rdum, ayttimki, [Ey rabbim, sening do‘stlaring qanday iflosdurlar, ularning ichida biror pokizasi yo‘kdir]1. Va aning qoshidin chiqdim, bir yerga yettim, bir xotun kishi manga yopushtiki, munda bir terma to‘n erdi, sen eltibsen! Va meni hokim qoshig‘a eltti. Nuriy ani eshitti va mening so‘ngumcha hokim qoshig‘a keldi va dediki, ani og‘ritmaki, avliyoullohdindur. Hokim dediki, ne chora qilayki, xasm ul to‘nni andin tilaydur? Nogoh bir qora kanizak paydo bo‘ldi va ul g‘oyib bo‘lgan nima anda. Xasm dediki, ani qo‘yungki, men iturganni toptim. Pas, Nuriy mening iligimni tutub, ul yerdin chiqdi va dedi: nechun dedingki, [Sening do‘stlaring qanday vahshiydirlar va iflosdirlar]2. Dedim: tavba qildim andinki, deb erdim.

750. Fotimai Barda’iya r. t.

Ardabilda bo‘lur erdi. [Aytadilarki, shathiyot so‘zlovchi oriflardan edi][1]. Mashoyixdin ba’zi bu qudsiy hadis bobida so‘z so‘rdiki, [kim meni eslasa, u bilan birgamen][2]. Ul soyil bilan soate so‘zlar aytti va so‘ngra dediki, [Zikr shudirkim, sen Haqni davomli zikr etganing holda uning zikr etganini mushohada etasan. Sening zikring uning zikrida yo‘q bo‘lib ketadi. Faqat uning seni zikr etgani qoladi. Orada makon ham zamon ham bo‘lmaydi][3].

751. Ummi Ali Zavjai Ahmad bin Xizravayh r.

Ul akobir avlodidin erdi. Va ko‘p moli bor erdi, barchani fuqarog‘a sarf qildi va Ahmad. Hizravayx q. s. bila bu tariqda muvofaqat qildi. Va Boyazidni va Abu Hafsni q. s. ko‘rub erdi. Va Boyaziddin savollar qilib erdi. Abu Hafs debdurki, hamisha xotunlar hadisin makruh tutar erdim, to ul vaqtqachaki, Ummi Ali Ahmad bin Xizravayhning zavjasin ko‘rdum, andin so‘ng bildimki, Haq s. t. o‘z ma’rifatin va shinoxtin har yerdaki, tilar ko‘yar. Boyazid. q. s. debdurki, har kim tasavvuf mudovamatida bo‘lg‘ay, kerakki, bir himmat bila mudovamat qilg‘ay Ummi Ali zavjai Ahmad bin Xizravayh himmatidek, yo bir hol bila aning holidek. Ul debdurki, Haq s. t. anvoi lutfu ehson bila xalqni o‘ziga tiladi, ijobat qilmadilar, andin so‘ngra turlug‘ balolarni alarg‘a to‘kdi, to alarni balo bila o‘ziga tortqay, aning uchunki, alarni sevar. Ham ul debdurki, hojat favti osonroqdur, andinki, xorliq tortqay aning uchun. Balx ahlidin bir zaifa anga keldi va dediki, kelibmen. Tengri taolog‘a taqarrub tilagaymen, sening xidmating vasilasi bila. Anga dedi: nechuk aning xidmati vasilasi bila manga taqarrub

bilmassen?

752. Ummi Muhammad volidai Shayx Abu Abdullox Xafif r. t.

O‘g‘li Abu Abdulloh b. Xafif bila bahr yo‘lidin Hajga bordi. Va anga mukoshafotu mujohadot ko‘p ekandur. Derlarki, Shayx Ramazonning so‘nggi ushrida ihyo qilur erdiki, laylat ul-qadrg‘a musharraf bo‘lg‘ay. Tomg‘a chiqib erdi va namoz qilur erdi. Va onasi Ummi Muhammad uy ichida, Haq s. t. g‘a mutavajjih o‘lturub erdi. Nogoh «Laylat ul-qadr» anvori anga zohir bo‘la boshladi. Un chiqardiki, Ey Muhammad, ey farzand, ulcha sen anda tilaysen, mundadur! Shayx tushti va anvorni ko‘rdi. Va onasi ayog‘ig‘a tushti, andin so‘ng Shayx aytur erdiki, ul vaqtdin so‘ngra onam qadrin bildim.

753. Fotima binti Abobakr Kattoniy r. t.

Ul Samnun Muhib majlisida vaqtiki muhabbatdin so‘z aytadur erdi, jon berdi. Va eranlardan dag‘i uch kishi aning muvofaqatig‘a o‘ldilar.

754. Fizza r. t.

Shayx Aburrabi’ Molaqiy r. debdurki, aning oyatu karomati bag‘oyat zohir va mashhur erdi. Ul jumladin biri budurki, aning bir qo‘yi bor erkandurki, sog‘salar erkandir ham sut berur erkandur, ham bol! Va bu so‘zning «Nafahot»da tafsili bor, tilagan kishi anda topar.

755. Tilmizai Sariy Saqatiy r. t.

Zaifae erdi Sariy Saqatiyning shogirdi. Va ul zaifaning bir o‘g‘li bor erdi, muallim qoshida. Muallim ani tegirmonga yibordi. Ul tegirmonning tannurasiga tushti va cho‘mdi. Muni Shayxqa ayttilar. Shayx ayttiki, qo‘pung va mening bila keling! Aning onasi qoshig‘a bordi va nasoyihu mavoiz bunyod qildi, barcha sabru rizo bobida. Ul aytti: ey ustod, bu so‘zlardin g‘arazing nedur? Dediki, o‘g‘lung tegirmon suyig‘a tushub, g‘arq bo‘lubdur. Dedi: mening o‘g‘lum? Shayx dedi: bale! Ul dediki, tahqiqki, Tengri taolo muni qilmaydur? Shayx yana sabr bobida so‘z bunyod qildi. Ul dedi: qo‘pung, mening bila keling! Qo‘ptilar va ul suv yoqasiga bordilar. Cho‘mgan yerni xotun so‘rdi, ayttilar. Ul yerda turub o‘g‘lin chorladiki, farzand Muhammad! Ul «labbayk» deb javob berdi. Suvg‘a kirdi va o‘g‘li iligin tutib, suvdan chiqardi va uyg‘a eltti. Shayx bu qissani Shayx Junayd q. s. din so‘rdiki, bu nedur? Junayd dediki, bu zaifa rioyat qilur, har neki Tengri vojib qilibdur. Va mundoq kishining hukmi uldurki, hech hodisae havodisdin anga voqe’ bo‘lmag‘ayki, avval aning hududsidin anga xabar qilmag‘aylar. Chun anga o‘g‘ul favtidin xabar qilmaydur erdilar, bildiki, ul amr bo‘lmaydur, lojaram inkor qildi va dediki, Tengri taolo bu ishni qilmaydur.

756. Tuhfa r. t.

Ul nisoning solihoti, balki vosilotidin ermish. Xazrati Mahdumiy n. m. n. «Nafohot ul-uns»da aning zikrida ancha g‘aroyib va aning holotida ancha ajoyib bitibdurlarki, sharhg‘a rost kelmas. Bu muxtasarda mundin ortuqroqning gunjoyishi yo‘q erdi. Ul holotqa ittilo’ tilagan, ul kitobdin tilasun!

757. Ummi Muhammad r; t.

Shayx Abdulqodir Gilonnyninng ammasidur. Derlarki, bir qatla Gilonda qurg‘og‘lnq bo‘ldi. Xaloyiq istisqog‘a chiqdilar, yog‘in yog‘madi. Barcha xalq Ummi Muhammadning uni eshikiga keldilar va yomg‘ir duosini tiladilar. Ummi Muhammad uyining eshikin supurdi va dedi: Xudoyo, men supurdum, sen suv sep! Oz vaqt o‘tmadi, yog‘in tutti, andoqki degaylarki, meshlarning og‘zii ochiq qo‘ya beribdurlar.

758. Bibiyaki Marviya r. t.

Shayx Abu Sa’id Abulxayr q. s. debdurki, Marvda erdukki, anda bir qari xotun bor erdiki, ani Bibiyak

der erdilar, bizing qoshimizg‘a keldi va dedi: Ey Abu Sa’id, tazallumg‘a kelibman. Biz deduk: ayt! Ul dediki, el doim duo qilurlarki, Yo Rab, bizni bir nafas bizga qo‘yma! O‘ttuz yildurki, men duo qilurmenki, Yo Rab, bir turfat ul-ayn meni manga qo‘yki, bilayki men nedurmen, yo bormumen, hanuz ittifoq tushmaydur.

759. Ka’b qizi r. t.

Shayx Abu Sa’d Abulxayr q. r. debdurki, Ka’bning qizi oshiq erdi ul qulg‘a. Ammo ulug‘lar ittifoq qildilarki, bu so‘zki, ul aytur, ul so‘z ermaski, maxluqqa aytsa bo‘lg‘ay. Anga o‘zga yerga ish tushub erdi. Bir kun ul qul ul qizni nogoh ko‘rdi, yengining uchin tutti. Qiz unga nahib bila boqib dediki, sanga muncha bas emasmukim, men iyam bilamen va anda mubtalomen va sanga zohir qilibmen. Shayx Abu Sa’id q. s. debdurki, so‘ziki, ul aytibdur, andoq emaski, kishiga maxluqluqda tushmish bo‘lg‘ay. Ul debdurki,

n a z m:

[Ishqbozlik qilib yana unga bog‘landim, ko‘p harakatlar foyda bermadi. Ishq sohili ko‘rinmaydigan daryodir, ey ishq giriftori, bu yo‘lga shoshilib bo‘ladimi? Ishqni poyoniga yetkazmoqchi bo‘lsang, nomaqbulni ko‘rib, maqbul tasavvur qil! Xunuk narsani chiroyli hisobla! Zahar ichganda qand deb gumon qil! Sarkashlik qildim, bilmadimki, tuzog‘ni harqancha tortsang, torayib boraveradi][1].

760. Fotima binti Musanno r. t.

Shayx Muhyiddin Arabiy r. a. «Futuhoti Makka»da debdurki, men yillar aning xidmatin qildim. Va ul vaqt yoshi to‘qson beshda bor erdi va yuzining tozaligi va orazining nozuklukidin uyalurdimki, aning sari tik boqqaymenki, kishi gumon qilur erdiki, o‘n to‘rt yoshidadur. Anga Haq s. t. bila ajab hole bor erdi. Barcha eldinki aning xidmatig‘a yetarlar erdi, meni ixtiyor qilib erdi. Der erdiki, men aningdek kishi ko‘rmaydurmen. Qachonki, mening qoshimg‘a kelur, o‘zin andoq jam’ qilib kelurki, tashqari hech nima qolmas va chiqarda ham andoq chiqarki, ichkari hech nima qolmas. Va ham debdurki, ul dediki, manga ajab kelur ul kishidinki, ayturki, Haqni sevarmen va aning bila sevunmas. Va hol ulki, Tengri aning shuhudidur va ko‘zi anga nozirdur va bir turfat ul-ayn g‘oyib bo‘lmas, bu el nechukki aning muhabbati da’vosin qilurlar va ayturlar, ayo uyalmaslar. Muhib qurbi muqarriblardin ortuqdur, pas nega yig‘larlar. Manga dediki, ey farzand, ne dersen bu so‘zdaki, men dermen? Dedim: So‘z budurki, sen dersen. Andin so‘ngra dediki, valloh, manga taajjub kelur mening habibim «Fotihat ul-kitob»g‘a mening xidmatim buyurubdur, billoh, hargiz «Fotiha» meni andin mashg‘ul qilmaydur. Va ham Shayx debdurki, biz aning qoshida o‘lturub erdukki, zanfae kirdi va dediki, abushqam falon shahrg‘a boribdur va doiyasi bor ekandurki, yana bir xotun olg‘ay. Dedimki, tilarsenki, kelgan. Dedi: bale! Yuz aning sari qildim va dedim: Ey ona, eshitursenkn, ne deydur? Dedi sen ne tilarsen? Dedim: aning hojatin ravo qilmoq! Va aning hojati budurki, g‘oyibi kelgay. Dedi: [Jonu dilim bilan][1]. Filhol «Fotihat ul-kitob»ni yiborurmenki, aning g‘oyibin olib kelur. Va «Fotiha»ni o‘qiy boshladi va men ham aning bila o‘qudum. Va bildimki, «Fotiha» qiroatidin «Jasadoniy» surati insho qildi va yibordi. Va dedi: Ey «Fotihat ul-kitob», falon shahrga bor va bu zaifaning hojatin top va qo‘ymay olib kel! Shayx debdurki, «Fotiha»ni yiborgandin ul kelguncha ul masofat qat’ qilurdin ortuq fursat bo‘lmadi.

761. Joriyai Savdo r. t.

Zunnun q. s. debdurki, bir qora kanizak ko‘rdumki, atfol anga tosh urarlar erdi va derlar erdiki, bu zindiqa derki, men Tengrini ko‘rarmen. Men aning keynicha bordim. Meni chorlab dedi: Ey Zunnun! Dedim: sen meni qaydin taniding? Dedi: Aning do‘stlarining jonlari aning sipohidur va bir-biriga oshnodurlar. Dedim: bu nedurki, bu o‘g‘lonlar aytadurlar? Dedi: ne deydurlar? Dedim: deydurlarki, sen aytur ermishsenki, men Tengrini ko‘rarmen! Dedi: chin ayturlar, to ani tanidim, hech mahjub

bo‘lmaydurmen.

762. Imra’atun Majhula r. t.

Va ham Zunnun q. s. debdurki, tavof qiluraning orasida ko‘rdimki, bir nur chaqildiki, ishnagani ko‘kka yetti. Mutaajjib bo‘ldum va tavofdin forig‘ bo‘lgandin so‘ngra uchamni Ka’baning tomig‘a qo‘yub, aning fikrida erdimki, nogoh bir anduhlig‘ un eshittim. Ul un so‘ngicha bordim, ko‘rdumki, joriyae Ka’ba astorig‘a osilibdur va aytadur.

Sh ye ‘ r:

[Ey mahbubim, bilasanki, mahbubim kimdir, ha, sen bilasan! Ozg‘inligim, jismim, ko‘z yoshlarim sirrimni fosh qildilar. Ishq sirrini chunon pinhon tutdimki, ko‘krak qafasim torlik qildi][1].

Pir sari bordim va aning dardidin giryon bo‘ldum. Pas dedi [Allohim, sayyidim, mavlom, menga bo‘lgan muhabbating haqqi, meni mag‘firat qil!][2] Dedim: Ey joriya, sanga bu bas emasmuki, [Senga muhabbatim haqi][3] degaysenki, dersen [Menga muhabbating haqi][4]. Bilursenki, ul seni sevar. Dediki: Tengrig‘a bandalar borki, alarni sevar, pas alar ani sevarlar. Eshitmaysen qavluhu taoloki dediki, [Alloh boshqa bir qavmni keltirurki, ularni sevadi, ular ham Allohni sevadilar][5]. Va aning muhabbati anga bas. Anga dedimki, seni asru zaif va nahif ko‘rarman, magar bemorsen? Dediki, she’r:

[Allohni sevuvchi dunyoda dardmanddir, bemorligi tuzalmaydi, faqat uning davosi – dard. Yaratuvchining oshig‘i shunday bo‘ladiki, uni topguncha eslab, muhabbatida yonadi][6].

Manga dediki, keyin boq! Keyin boqdim va hech nima ko‘rmadim. Chun aning sari boqdim, ani ham ko‘rmadim, bilmadim qayon bordi?

763. Joriyai Majhula r. t.

Ham Zunnun q. s. debdurki, manga bir kanizakni o‘gdilar, mutaabbida. Va aning holidan xabar so‘rdum. Dedilar: bir dayrda xarobdur! Ul dayrg‘a bordim, ko‘rdum, asru zaif jismlig‘ki, uyqusizlik asari anda zohir erdi. Salom qildim. Javob berdi. Dedim: nasoriy maskanida bo‘lursen? Dedi: ko‘z ochgach, Tengri taolodin o‘zga ikki dunyoda kishi ko‘rarsen? Men dedim: hech yolg‘uzluk vahshati topmassen? Dedi: mendin yiroq bo‘l, ul mening ko‘nglumni hikmatining latoyifidin va muhabbatidin andoq to‘la qilibdur va diydori shavqini manga andoq mustavliy qilibdurki, ko‘nglumda hech yer aning g‘ayri uchun topmon. Dedim: seni hokima ko‘rarmen, meni bu yo‘l torlig‘idin chiqar va tuz yo‘lni manga och! Dedi: ey javonmard, taqvoni ozug‘ung qil va zuhdni yo‘lung va vara’ni borgiring va qo‘rqunchlug‘lar tariqida suluk qil, to yetkaysen bir eshikkaki, ne hujjob ko‘rgaysen anda, ne bavvob. Xozinlarig‘a buyurg‘ayki, hech ishta sanga nofarmonlig‘ qilmag‘aylar.

764. Imra’atun Misriya r. t.

Imom Yofi’iy tarixida mashoyixinng biridin naql qilurki, Misr navohiysida bir zaifa o‘ttuz yil bir yerda iqomat qildiki, issig‘ va sovug‘da andin bormadi. Va o‘ttiz yilda hech nima yemadi va ichmadi. Vallohu a’lam.

765. Imra’atun Misriyai Uxro r. t.

Ham Imom Yofi’iy «Ravz ur-rayohin» kitobida kelturubdurki, bu toyifadin biri debdurki, Misr navohiysida bir zaifa ko‘rdumki, volahu hayron erdi va o‘ttuz yil ayog‘ ustiga turub erdi. Qishda va yozda va kecha kunduzdin va yomg‘urdin anga panoh yo‘q erdi. Va yilonlar va ajdaholar aning

tegrasida otlanurlar erdi. Vallohu a’lam.

766. Imra’atun Xorazmiya r. t.

Va ham Imom Yofi’iy o‘z tarixida ulamoning biridin naql qilurkim, debdurki, Xorazm navohiysida bir xotun ko‘rdumki, yigirma yildin ortuqroq yegulik va ichgulikdin hech ishtig‘ol ko‘rguzmaydur erdi. Vallohu a’lam.

767. Joriyai Habashiya r. t.

Shayx Muhyiddin Abdulqodir Giloniy q. t. r. debdurki, avval qatlaki, Bag‘doddin Haj azimati qildimki, yigit erdim va yolg‘uz borur erdim. Shayx Addiy b. Musofir manga yo‘luqdi. Ul ham yigit erdi. Mendin so‘rdikim, qayon borursen? Dedim: Makkaga. Dedi: musohibqa mayling bor? Dedim: men tajrid qadami bila boradurmen. Dedi: men ham tajrid qadami bilamen. Bila yo‘lg‘a tushduk. Yo‘lda bir kun Joriyai Habashiya paydo bo‘ldi, yuziga burqa bog‘liq. Va mening yuzumga tez-tez boqdi va so‘rdn: ey yigit, qaydinsan? Dedim: Ajamdin. Dedi: bu kun meni ranjg‘a solding. Dedim: nechuk? Dedi: bu soat Habash bilodidin erdim. Manga mushohada tushdiki, Tengri taolo sening ko‘nglungga tajalli qildi va sanga atoe qildiki, bu toyifadin men bilurlardin hech kimga mundoq ato qilmaydur. Tiladimki, seni ko‘rgaymen. Va dedi: men bu kun sizing bilaman va sizing bila iftor qilurmen. Va yurudi. Va ul vodiyning bir yonidin va biz yana bir yonidin borur erduk. Chun oqshom bo‘ldi, ko‘kdin bir tabaq indi, anda olti rag‘if sirkavu sabzi bila. Joriyai Habashiya dediki, [Meni va mehmonimni ikrom qilgan Allohga hamd bo‘lsin!][1]. Har kecha manga ikki rag‘if inar erdi, bu kecha yo‘ldoshlardin har biri uchun ikki rag‘if indi. Andin so‘ngra uch ibriq suv indiki, chun andin ichduk, lazzatu halovatda dunyoda ichgan suvlarg‘a o‘xshamas erdi. Pas ul kecha bizdin ayrildi va ketti. Chun Makkaga yettuk, tavofda Shayx Addiyg‘a tajalli voqe’ bo‘ldiki, bexud bo‘lub yiqildi, andoqki ba’zi der erdilarki, ul o‘ldi. Nogoh ko‘rdumki, ul Joriya aning ustida turubdur va aytadurki, seni tirguzgay ul kishi bu nav’ o‘lturubdur. [Pokdir u Allohki, jalol nurining qarshisida borliqdagi hodisalar faqat uning madadi bilan qoyimdir va sifotining zuhur etishi jihatidan koinot faqat uning kuch-quvvati bilan barqarordir. Balki uning muqaddas pokligi oqillar ko‘zlarini ko‘r qiladi va xushbo‘ylarining zeboligi ulug‘lar qalbini rom etadi][2]. Andin so‘ngra tavofda manga tajalli voqe’ bo‘ldi. Va botinimdin xitobe eshittim va aning oxirida manga ayttilarki, Ey Abdulqodir, zohir tajridini qo‘y, tavhid tafridini lozim tut va el naf’i uchun o‘lturki, bnzga xos bandalar borki, tilarbizki, alarni sening ilgingda qurbimiz sharafig‘a yetkururbiz. Nogoh ul Joriya dedi: ey yigit, bilmasmen, bu kun ne nishondur sangaki, boshingda nurdin borgoh urubdurlar va osmong‘acha maloik tegrangga aylanibdurlar va barcha avliyoning ko‘zi o‘z maqomlaridin sanga xira qolibdur va barcha sanga bergonidikka umidvordurlar. Andin so‘ngra ul Joriya bordi va yana ani ko‘rmadim.

768. Imra’atun Isfahoniya r. t.

Shayx Abdulqodir Giloniy q. r. muridu ashobidin biri debdurki, bir kun Shayxqa minbar ustida istig‘roqe voqe’ bo‘ldi, andoqki, amomasidin bir pech ochildi. Va ul voqif emas erdi. Barcha hozirlar Shayx muvofaqotig‘a dasturlarni minbar ayog‘ig‘a tashladilar. Chun Shayx o‘z holig‘a keldi va so‘z tugatti va amomasining buzulg‘an pechin yasadi, manga buyurdiki, dastorlarii solg‘an elning iyalarig‘a bergil! Men degandek qildim. Bir xotun kishining isobasi boqiy qoldiki, iyasi paydo emas erdi. Shayx ani oldi va o‘z muborak egnig‘a soldi. Solg‘och filhol ul isoba Shayxning egnidin g‘oyib bo‘ldi. Man hayron qoldim. Chun Shayx minbardin tushdi, aning kayfiyatin manga ayttiki, chun majlis ahli bizing muvofaqatimizg‘a dastorlarin minbar ayog‘ig‘a soldilar, bizing bir singlimiz bor Isfahonda, ul ham isobasin soldi. Chun biz ani egnimizg‘a solduk, ul Isfahondin ilig uzatib, egnimizdin oldi. Ul Imra’atun Isfahoniydur.

769. Imra’atun Forisiya r. t.

Shayx Najibuddin Aliy Buzg‘ush r. t. debdurki, bir qatla bir zaifa Gulpoyagon qasabasidin Sheroz shahrig‘a kelib erdi. Gohlar bizing uyga kelur erdi va boxabar zaifa erdi. Bir necha vaqt bizing uyda bo‘lur erdi va manga yo‘qsuzluq dast berib erdi. Va ul bilur erdi ul holni va bizing uyda bir necha zarf bor erdiki, agar bug‘doy-arpadek nima Tengri bersa erdi, ul zarflarg‘a solur erduk. Va ul zarflar bo‘shab erdilar va boshlarin yopib erduk, to ariq qolg‘ay hojat vaqtig‘acha. Ul xotun sog‘indiki, magar ul zarflarda nima bor? Manga dedi: chun yo‘qsuzliq dast beribdur, ul zaxiradinki, bu zarflardadur, nevchun qut qilmassen? Dedim: alar bo‘shdur. Dedi: bo‘sh bo‘lsa, boshlarin nega berkitibsiz? Dedim: aning uchunki, ariq qolg‘ay. Ul qo‘pti va ul zarflarning og‘izlarin ochti va ochiq qo‘ydi. Va dediki: aning uchun bo‘shdurki, og‘izlari bog‘lig‘dur. Agar og‘izlari ochuq bo‘lsa biravdek bo‘lg‘ayki, och bo‘lg‘ay va og‘zin ochmish bo‘lg‘ay. Tengri taolo anga qut yetkurgay. Har nimaning quti anga munosib bo‘lg‘ay, hojat vaqti. Va bu zuruf oshlig‘ zurufidur va bularning quti oshlig‘dur, chun qorin ochlig‘i, ya’ni bo‘shlug‘i zohir bo‘lsa, ani oshlig‘ va hubub bilato‘la qilurlar. Chun ul xotun bu tasarrufni qildi, filhol Haq s. t. oncha oshlig‘ yetkurdiki, ul zuruf to‘ldi. Va ul zaifa avliyoullohdin erdi.

770. Bibichai Munajjima r. t.

Kirmon mulkidindur. Mazkur bo‘lg‘on ilmda o‘z zamonining saromadi erdi, ammo mayli darveshlik sari erdi. Zamon podshohi iltifot va ta’zim ko‘p qilur erdi va podshoh haramlari uzmo xavotin bag‘oyat hurmat tutarlar erdi. Oqibat barchaning ixtilotin tark qilib, xiyobon boshida o‘z manzili javorida masjidi jome’ yasadi va mulku asbobin anga vaqf qildi, andoqkim, holo ravnaqi bor va kasir xaloyiq anda namoz qilurlar. Va ham anda o‘ziga go‘rxona yasadi, yoshida olamdin o‘tti. Va maqbarasi o‘z go‘rxonasidadur.

Ilohi, bu avliyoulloh asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu kitob mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘lgan azizlar dimog‘in mazkur bo‘lgan abror muhabbati nasoyimidin muattar va bahramand qilg‘aysen va bu kitob mumorasotig‘a mash’uf bo‘lg‘on ahli tamayyuzlar ko‘nglin mastur bo‘lg‘on axyor futuvvatn shamoyimidin munavvar va arjumand etgaysen. Va alarning tufayli roqimning ham tiyra ro‘zgorig‘a safoe va hirmon zulmatidin qororg‘on ko‘zlariga hidoyat quyoshidin ziyoe nasib qilg‘aysen. Va podshohi islomkim, iymon ahlig‘a mujibi farog‘atu amniyat va zamon xaylig‘a boisi rafohiyatu jam’iyatdurki, bular bo‘lmasa, bu nav’ nusxa tartibu tasnifi va bu tavr kutub jam’u ta’lifi mutaassir, balki muholu mutaazzirdur, sihhatu umru davlatini muxallad va insofu adolatini muabbad tutqil va a’dosini maqhur va ahibbosini mansur qilg‘il. Omin, yo Rabb al-olamin!

IZOHLAR

Abo – xirqaga o‘xshash bir kiyim, darveshlikda tavoze va faqirlik maqomiga ishoratdir.

Aloyiq – toliblarni murod va maqsadlardan yiroqlashtiruvchi sabab va munosabatlar.

Aso – hassa, tasavvufda shayxlik nishoni. Ramziy ma’noda solikning valiy va eranlar nafasiga muhtojligini ifodalaydigan bir timsol: «Eranlar nafasin aso etgin sen» (Yunus Emro).

Aqida – biror bir narsaga ishonmoq, nimanidir tasdiq etmoq va uni qabul aylab, unga sodiq qolmoq, Ishonch - e’tiqod tamali.

Ahli qol – hol ahlining teskarisi, ya’ni so‘zlarning ma’no va haqiqatini bilmasdan, o‘z hayoti, qismati va tajribasi bilai bog‘lanmaydigan gaplarni takrorlashdan nari o‘tolmaydigan kimsalar guruhi. Dil emas –til, ma’no emas, da’vo bilan yashash yo‘lini tutgan gumroh, munofiqlar jamoasi.

Vasl – yetishish, erishish, vosil bo‘lish. Haq visoliga yetishmoq. Vasl yoki vuslat tasavvufiy hayotdagi yo‘qchilikning nihoyasiga aloqador.

Vatar – orzu, bashariy sifatlar va nafsoniy lazzatlardan yiroqdagi xush bir tuyg‘u, ruhoniy istak.

Darvesh – benavo, qashshoq, kambag‘al, faqir, xudojo‘y; tasavvuf tariqatiga mansub kishi. «G‘iyos ul-lug‘ot»da izohlanishicha darvesh so‘zining asl ma’nosi eshiklardan narsa tilovchi bo‘lib, darvesh demak. Darveshning qadimgi shakli darovez – eshiklarga osiluvchidirki, keyinchalik u darvesh shaklini ogan. Darvesh uchun murshidlik eshigi bamisoli Ka’badir. U ana shu eshikka osiluvchi va undan najot tilovchidir.

Da’vo – nafsning o‘zsha mansub bo‘lmagan biror-bir narsani o‘ziga nisbat berishi. Munoqasha va munozara. Sahl bin Abdullohning aytishicha, «Qul bilan Alloh orasidagi eng katta to‘siq – da’vo, ya’ni iddaodir».

Zavoyid – qalbdagi nurlarning ko‘payishi.

Zikr – so‘zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmaslik ma’nolarini anglatadigan arabcha bir kalima. Tasavvufda bu kalima g‘aflat va isyon –esdan chiqarishning ziddi o‘rnida tatbiq etilgan. Zikr tasavvufdagi har bir tariqatda, har bir tasavvuf ahlining nazdida – barcha qoida, usul va odoblarning boshidir. Tariqat pirlari va muridlarning zikr foydalari haqida umumiy qarashlari taxminan bunday bo‘lgan: zikr – Shaytonga qarshi eng o‘tkir yarog‘ – quvar; Allohning roziligi va mehriga erishtirar; qalban g‘am, qayg‘u va g‘ussalarni haydab, dilga quvonch, farah va kenglik bag‘ishlar; tafakkur va ma’rifatning yuksalishini ta’minlar; har turli yomonliklarning ildizinn quritib, xato va gunohlarning oldini olar... «Foydali bo‘ladigan zikr– davomli va qalb huzuri ila bo‘ladigan zikr erur. Zikrning nnhoyasida esa uns va muhabbat tug‘ilur... Kishi zikr etilajak Alloh ila unsiyat paydo etib, ko‘nglida Alloh muhabbati hosil bo‘lgunga qadar bir oz zahmat chekar. So‘ngra esa Allohni xotirlamasa tura olmaydigan holga kelar...», deya ta’kidlaganlar Imom G‘azzoliy.

Zikr – faqat Allohni yod aylash, uning go‘zal ismlarini eslash emas, balki dil, fikr va tuyg‘uni Allohga yo‘naltirish, Alloh ila mukammal bir shuuriy, zehniy aloqa o‘rnatishdurki, bu salohiyat hammaga ham nasib etavermagan, albatta. Shuning uchun tasavvufda zikr ikkiga ajratilgan: biri – «zikri omma», ikkinchisi – «zikri xos». Zikri omma savobni qo‘lga kiritmoq niyati ila amalga oshirilib, unda zohirning tabiatida yomon xislatlar: kibr, g‘urur, riyo, hirs, tama’, g‘azab, makr kabilar batamom,

ya’ni tag-tugi ila barham topgan bo‘ladi. Xoslarning zikri buning aksi: unda nafs batamom mag‘lub etiladi va qalb ma’rifat, muhabbat nurlari ila yorishib, tilda ham, dilda ham Alloh ishqidan boshqa hech vaqo qolmaydi. Ammo bunday ulug‘ hol sohibi bo‘lmoq uchun qat’iy intizom, sabr va ixlos bilan zikrga berilish talab etilgan.

Zot– o‘z, javhar, biror narsaning asli. So‘fiylar a’molicha, Alloh o‘z zotida qoim, koinotda mavjud har qanday borliq Tangri sifatlarining zuhuri, sifatlar esa ul zotning tajallisidan iborat, Zuhd – parhez qilmoq, ya’ni dunyoga iltnfot etmasdan toat-ibodat ila kun kechirmoq. Asl zuhd– Allohga ma’qul narsalarni sevmoq, Tangri taqiqlagan narsalardan hazar etmoq.

Ikki jahon – dunyo va oxirat. Tasavvuf adabiyotida «dunyo va uqbo» shaklida ham ishlatilgan, haq oshiqlari diydor va visol uchun shu ikki jahonni ham tark etishgan.

Intiboh – qalbdagi g‘aflatning barham topishi, bedorlik, ruhiy uyg‘onish.

Istiqomat – to‘g‘rilik, to‘g‘ri harakat etish, rost yo‘lga yetishish. Qushayriy ta’biriga ko‘ra «Istiqomat karomatdan ustun erur».

Karomat – ikrom, sharaf, karam, lutf va ehson demak: Karomat – payg‘ambarlik da’vosidan yiroq bo‘lgan odamda favqulodda holatning zuhurlanishi yoki ruhiy tajriba bilan bog‘liq hayratlanarli voqea-hodisalarning sodir bo‘lishi. Karomat ikkiga bo‘lingan: birinchisi – karomati kunniya. Ikkinchisi – karomati ilmiy. Bular «kavniy» va «haqiqiy» deb ham atalgan. Kavniy karomatlar – qisqa fursatlarda ro‘y beradigan favqulodda g‘ayiritabiiy hodisalar. Masalan, havoda uchmoq, dengizda yurmoq, insonning qush yoki boshqa jonzotga aylanishi, qushga o‘xshab parvoz qilishi shular jumlasidandir. Haqiqiy karomat esa – ilm, irfon, ma’rifat, ibodat, axloq va insonlikdagi ustunlik va shu ustunlikdan yuzaga kelgan turli shakllardagi hodisotlar. Tasav-vuf ahlining e’tiqodiga ko‘ra, asl karomat –karomati ilmiy hisoblanadi. Shuning uchun aql va ma’rifatning kuchiga ishongan odamlar karomati kunniyaga ishtiboh bilan qaraganlar.

Latifa – sezish, his etish mumkin bo‘lgan, ammo so‘zda ifodalab bo‘lmaydigan yashirin, sirli va nozik ma’no, ishorat.

Mavt – o‘lim, nafsin tub ildizi ila havoyu havas zaminidan ajratib tashlamoq. Chunki havoyu havas nafsning joni erur. Najmiddin Kubro «Usuli ashara» risolasida bunday o‘limni besh turga ajratib ko‘rsatganlar: 1. Mavti irodiy – insonning borliq va dunyoviy narsalardan tamoman xalos bo‘lishi, ya’ni fanoyi kulliyga yetishishi. 2. Mavti ahmar – «qirmizi o‘lim». Bu– nafsning istaklariga qarshi tura olish, chidamda ularni bartaraf eta olish demakdir. 3. Mavti abyaz – «oq o‘lim». Ochlik yo‘li bilai nafs va tama’ni zabun aylash. Shunda ko‘ngil poklanib, shaffoflik, ya’ni oqlik kasb etadi 4. Mavti axzar – «yashil o‘lim». Yamoqdan kiyim tikmak va klymak. Chunkl yangi va chiroyli kiyim o‘zgalarning diqqatini jalb qilurki, bu –shuhrat nishonasi hisoblanadi. 5. Mavti asvad– «qora o‘lim». Bu – qayg‘u va musibatlarga tahammul etish, xalqu xaloyiqning har qanday jabru jafosiga chidashdir.

Ma’rifat – aqlu doiish, amAliy bilim, tanish, fahm, tasavvufga xos ilm; hol sirlari va ilohiy haqiqatlarga tegishli ilm – irfon. «Kashf ul-mahjub» muallifining aytishicha, fuqaho singari boshqa kishilar ham Alloh haqidagi ilmga «ma’rifat» nomini berganlar. Tariqat shayxlari esa Alloh xususidagi sihatli holni «ma’rifat» deya ataganlar. Va shunga ko‘ra, «Ma’rifat ilmdan ko‘p karra ustundir», deganlar. Imom G‘azzoliyning ta’kidiga ko‘ra, «qalbda ma’rifat maydonga kelgach, qalbning holi o‘zgaradi. Qalbing tutumi o‘zgargach, -a’zolarning amallari ham o‘zgaradi. Ya’ni amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Maqom – manzil, marhala, ma’navin mavqe, martaba, to‘xtam. Qushayriyning aytishicha, maqom qulning takror asosida sifat holiga yetkazgani odob va axloqdir. Maqomga riyozat, mujohada ila erishilur. Najmiddin Kubroga ko‘ra, «maqom yo‘lchilik yurg‘inligidan qutulmoq uchun istirohat va qo‘noqlamakdir. Hol – qushning ikki qanoti, maqom esa uning uyasi yanglig‘dir.

Tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, tavakkul, rizo – bular tariqat maqomlari erur. Tavba maqomi talablarini bajarmasdan vara’ maqomiga, erishib bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, keyingi maqomlarda ham biridan ikkinchisiga o‘tish ayni shu tartibda davom etadi.

Mujarrad – toqlik, bo‘ydoqlik. Tasavvufda tajarrud, ag‘yor va mosivodan tamoman forig‘ bo‘lib, Haqqa tavajjuh etishdir.

Mukavvin – takvin sifatiga sohib bo‘lgan zot. Borliq, olamning mukavvini – Allohning o‘zi.

Muroqaba – mushohada, biror narsaga diqqat ila nigoh tashlamoq, xudo fikriga berilib, dunyoga taalluqli xayol, o‘tkinchi mayllardan forig‘ bo‘lmoq. Tasavvufda muroqaba ikki xilga ajratilgan: biri avomning muroqabasi bo‘lib, bunda Haqqa tolib kishi Allohning amrlarini ado etib, uning ahvolidan ogoh va talabgor ekanini anglab, ayni shu mulohazadan g‘ofil qolmasligidir. Ikkinchisi – muroqabai xavos. Bunda solik jazban muhabbat bilan husni mutlaqning siri – ahadiyatini davomli tarzda barcha ashyoda mushohada va mulohaza qiladi hamda shu jarayonida ashyoni tamoman esdan chiqaradi. Bu ayni holatda Alloh taoloning anvariga nazar aylab, asroriga muroqib bo‘ladi.

Muhabbat– sevgi, mehr, yaqinlik va sadoqat hissi. Ishqning martabalaridan biri, ya’ni yomon fe’llardan poklanib, yaxshi va go‘zal xulqlar va sevgiliga yaqinlashmoq, unga loyiqlik. Muhabbat «hibba» o‘zagidan yaralgan so‘z bo‘lib, «ustiga tuproq tortilgan urug‘» ma’nosini anglatadi. Hayotning asli va asosi ana shu urug‘da bo‘lganidek, diniy, ma’naviy va ruhoniy hayotning urug‘i, ildizi va daraxti ham muhabbatdir.

«Mutu qabla an tamutu» – tasavvuf mafkurasining shakllanishi va jadal taraqqiy topishida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning bir talay hadislari muhim o‘rin tutgan. So‘fiylik tushunchasining negizini tashkil etgan «mutu qabla an tamutu», ya’ni «O‘lmasdan burun o‘ling» degan hadis so‘fiy, eran, abdol – xullas, Haq oshiqlari uchun ilohiy bir dastur va amaliy hayot nizomiga aylangan. Darhaqiqat, «O‘lmasdan burun o‘lish» sifati va holini kamolga yetkazmasdan na tasavvufiy hayot va axloqda, na ishqu oshiqlikda oliy maqomlarga yuksalib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Imom Rabboniy, «...o‘lmasdan burun o‘lim haqiqatga aylanmaguncha, muqaddas Zotga yetib bo‘lmas... Bu fano holi valoyat (valiylik) martabalariga tashlanadigan ilk qadam va ishning ibtidosida hosil bo‘ladigan bir kamol darajasi erur», deganlar. Shu bois Haq taoloning xos odamlari sayru sulukda ishni «o‘lmasdan burun o‘lish» dan boshlagan va bu muroqaba tarzida amalga oshirilgan bo‘lib, uning ijro shaklini Muhammad Nuriy Shamsiddin Naqshbandiy shunday tasvirlagan: «Haq yo‘lchisi – solik muroqaba bilan mashg‘ul bo‘lib, shaxsiy istaklarndan butunlay kechar, aqliga kelgan narsalarni bir yonga surib, fikrlashdan ham to‘xtar. Shu hol ila vujud a’zolarin jonsiz hisoblab, ko‘zlarin ham yumar. Go‘yo shu ahvolda o‘lim hukmi kelganu u bu foniy dunyoni tark qilgan. Shundan so‘ng solik o‘zini qabrda tasavvur etgan. Oradan ma’lum fursat o‘tib, jasad va suyaklari ham chirigan. Vujud tuproqqa qorishib ketgan va undan hech nomu nishon qolmagan. Biroq uning ruhi bilan hisob-kitoblar davom etgan... Ana shunday muroqaba eng ozi bilan–bir, o‘rtacha –ikki, ko‘pi bilan –uch soat davom etgan. Buning oqibatida esa «O‘lmasdan burun o‘ling» amrining siri ochilgan».

Muhib – haqiqat, ma’no, ya’ni botin ahliga mansub shaxs. Muhiblarning «asli tuproqdandir. Tuproq taslimiyat va rizoni tamsil etar». Shunga ko‘ra, muhib taslimiyat shavqi va rizo shukuhi ichida kun kechirgan. Muhib «Haqqal yaqin» bosqichida Alloh visoliga vosil bo‘lgan.

Nafas – g‘aybdan tug‘ilgan latif hollar va qalbning ishq o‘tidan farahlanishi. Abulkarim Qushayriyming ma’lumotiga ko‘ra, Abu Ali Daqqoq, «Muhib (oshiq) uchun nafas holi bo‘lmasa, (mushohadaga) toqati yetmaganidan halok bo‘lur», degan ekan.

Obid – ibodat qiluvchi. Ibn Sinoga ko‘ra, «dunyoning zavq va ne’matlaridan yiroqlashgan kimsaga zohid; nofila ibodatlar, turli duo va boshqa ibodatlarga o‘zini bag‘ishlagan kishiga obid» derlar. Obidlarning ibodatlari: namoz o‘qimoq, ro‘za tutmoq, hajga bormoq, nafsga daxldor orzu-havaslarni yengib, tarki dunyo qilish orqali oxiratni sevmoqdir. Obidlar bir-birini ranjitib, bir-biriga ozor yetkazgani uchuk ular avom toifasiga nisbat berilgan. Shuningdek, ularning tabiatida kibr, hasad, xusumat, fisq va g‘animlik singari illatlar ham tez-tez ko‘zga tashlanib turgan. Zero, obid shubha va da’vo odami erur, Ibn Hanbal: «Olimning obiddan ustunligi oyning yulduzlardan ustunligi kabidir», demish.

Ogoh – voqif, orif, oshno, xabardor, uyg‘oqlik. Tasavvufda holdon, anglagan, to‘g‘ri yo‘lga tushgan Haq odami. Qalb ko‘zi ochiq valiy, «Haq tajalliysi nogoh kelur, ammo dili ogohga kelur» (Najmiddin Roziy).

Orif – irfon sohibi, anglagan va tanigan. So‘fiylarning nuqtai nazarida irfon Alloh tuhfasi bo‘lgani uchun ilmdan ustun erur. Orif–Allohning shuhud, asmo va sifotlarini idrok etgan, mavhum borlig‘idan kechib, Haq borlig‘i ila bor bo‘lgan kishidir.

Ofoq – ufqlar; insonga nisbatan tashq borliq olami, zo-hiriy olam, jismoniy olam.

Ramz – ma’nosi yashirin, sir tutilgan biror so‘z, ibora yoki tushuncha; belgi, ishorat. Sarrojning ta’riflashicha, «ramz – so‘z zohirining zamirida yashiringan va ahli dildan o‘zga kishi anglay olmaydigan yashirin ma’no». Lug‘aviy ma’nosi – biror bir narsaga to‘la-to‘kis ishonmoq va chin ko‘ngildan unga bog‘lanmoq. Keng ma’noda esa– biror a’mol, haqiqat yoki axloqiy-diniy ta’limotga aloqadorlik va komil e’tiqod bilan ularga vobasta bo‘lish.

Rijol ul g‘ayb – tasavvufiy maslakda dunyoni boshqarsh va idora etishlari tan olingan valiylar jamoasi. Ular g‘ayb eranlari, rijolulloh, mardoni xudo, mardoni g‘ayb, hukumati ma’naviya deb ham yuritilgan. Olamni idora aylovchi ushbu hukumati ma’naviyaning boshida «qutb» turgan. Qutb aslida tegirmon toshining o‘qi demakdir. Tegirmon toshi bir o‘q atrofida aylangani singari olamning mehvarini ham qutb tashkil etadi. Qutbga «g‘avs» (madadkor), «g‘avsul a’zam» (eng buyuk g‘avs), «qutbul aqtob» ham deyilmish.

Rizo – rozilik, xushnudlik, mamnunlik. Tasavvufda Alloh hukmi va irodasiga to‘la taslim bo‘lish. Zunnun Misriyga ko‘ra, «Rizo – qayg‘u va qadarning achchiqligini qalb sevinchi ila qarshilamoq».

Robita – aloqa; bog‘lanish, zanjir, tartib va qoida. Robita ikki qismdan iborat: «robitai muhabbat» –ishq ila shayxni xotirlash; «robitai talabbus» – muridning o‘zini ba’zan shayxi qiyofasida tasavvur etishi.

Sakr – sahv – sarxushlik va hushyorlik. G‘aybat va huzur holining oliy shakli. Sakr (yoki sukr) ilohiy ishq mayidan mast bo‘lib o‘zini unutgan, o‘zidan kechgan oshiqning holi. Sahv esa buning aksi: o‘zii unutganning o‘ziga kelish, hushyor bo‘lish, tamkin holati; g‘aybat holining zoil etilishi. Sakr

holisiz saha holi ham bo‘lmas. Shuning uchun sakri Haq bilan bo‘lganning sahvi ham Haq bilan bo‘lur. Sakri nafsoniy lazzatlarga qorishganning sahvi ham boshqacha bo‘lmas, deyilmish.

Samo’ – eshitish, tinglash; qo‘shiq, musiqa, raqs. Darveshlarning zikr majlislarida davra aylannb, jo‘shib raqs tushishlari. Majoziy mazmunda – vajd va soliklar holati.

Abulqosim Bag‘dodiyning tasnifi bo‘yicha, samo’ ikki xildir;

1. So‘z tinglamoq. 2. Kuy tinglamoq. Samo’ning birinchi xilida biror so‘z tinglashib, undan ibrat va saboq olinadi. Lekin bunday samo’ faqat poklik va qalb huzuri bilan erishilmog‘i lozim. Ikkinchi xil samo’ga kelsak, tasavvuf tarixining ilk bosqichlaridayoq musiqa ruhning g‘izosi va rizqi sifatida e’tirof etilgan.

Safo – pok, beg‘ash, bekudurat bo‘lmoq. Safo – haqiqiy sodiqlar sifati. Safoning mohiyati qalbni va xayolni begonalardan to‘la-to‘kis poklamoqdir. Ayrim so‘fiylarning hukm etishlaricha, «Safo basharning sifati emas. Zero, bashar qadar va noqislikdan ozod bo‘la olmas». Safo – talabsiz bir huzur, tama’siz vujud holidir. Bunday holga erishgan odam mutlaq shodlik va poklik bag‘rida yashar.

Tavajjuh – yuzlanish, zehnni diqqat ila bir narsaga qaratish. Tasavvufiy mohiyatda tavajjuh Allohga yuz burmoq, yo‘nalmoq yoki tushunchani husni mutlaqqa to‘liq tobe, aylamoq demak. Tavajjuhda solik o‘zligidan kechmagan bo‘lsa-da, shunga harakat qilishi keraq. Tavajjuh vajddan avval yuz beradigan hol sanaladi.

Tavhid – lug‘aviy ma’nosi – biror bir narsani vohid aylash. Ilmiy istilohda esa Allohning yagonaligiga ishonmoqdir. So‘fiylar e’tiqodida tavhid Allohning azal va abadda sobit vahdoniyatiga ishonchdir. Olimlar tushunchasida tavhid – e’tiqodga taalluqli bo‘lsa, so‘fiylar uchun u maqsad, mushohada va ma’rifat hisoblanadi. Birinchisn bilish va tasdiq etishga asoslansa, ikkinchisi zavqiy idrokka suyanadi.

Tavhidning darajalari: tavhidi af’ol – har qanday sifatni Allohdan deb bilish va ularni hol nazari bilan ko‘rib, kamolga yetkazish; tavhidi sifot–har qanday sifatni Xudodan deb anglash va uni mukammallashtirish; tavhidi zot – borliqdagi hamma narsani faqat Alloh vujudining natijasi deb bilish.

Talbis – biror bir narsani uning haqiqatiga teskari o‘laroq tarzda xalqqa ko‘rsatish demak. So‘fiylar o‘zlarining go‘zal xislatlarini yomon xulqlari bilan yashirish yoki muhofaza aylashni «talbis qilish» deganlar.

Talvin – bir rangdan boshqa rangga o‘tish, bir holdan boshqa holga o‘zgarishdir. Talvinning natijasi tamkin hisoblanadi. Tamkin bir manzilda qaror topmoq, vazminlik va ruhiy ulug‘vorlikka erishmoq ma’nosini anglatadi.

Takvin – bor etmoq, ijod qilmoq, biror bir narsani yo‘qlikdan borliqqa chiqarmoq, Allohning xos sifatlarndan biri. Alloh ana shu sifat ila har qanday narsani yo‘qdan bor, bordan yo‘q etadi.

Tariqat – yo‘l. «Shariat» va «tariqat» so‘zlari boshqa-boshqa o‘zakdan yasalganiga qaramasdai, lug‘aviy ma’nosi bir, ya’ni yo‘l demakdir. An’anaga ko‘ra, tariqat uch asosiy tarkibga ajratilgan:

Tariqi axyor –xayrli insonlar yo‘li. Tariqi arbobi muomalat deb ham ta’riflangan ushbu yo‘lning asosini zuhd, taqvo va ibodat tashkil qilgan. Shu bois unga zohidlar va obidlar yo‘li sifatida ham

qaralgan. Bu yo‘l – Haqqa yetishishning uzundan-uzoq yo‘li. Uni tanlaganlar orasida maqsadga erishganlar nihoyatda kam bo‘lgan.

Tariqi abror– yaxshi insonlar yo‘li bo‘lib, tariqi tasfiya va mujohada deb yuritilgan. Bu yo‘l nafs ila kurashish, riyozat ila qalbni yomonlik va chirkinlikdan poklash, axloqiy komillikka yetishish yo‘li hisoblanadi. Xoh Haq bilan bo‘lsin, xoh xalq bilan bo‘lsin munosabat va aloqada ixlos hamda to‘g‘rilikdan chekinmaslik– ushbu yo‘lning bosh sababidir.

Tariqi shuttor – oshiqlar yo‘li. Uning ikkinchi bir nomi – tariqi soirin. Bu – ishq, muhabbat va jazba bilan maqsadga erishiladigan yo‘l. Uyiga yuz burgan yoki kirgan kishi ishq va jazba maqomiga yuksalguniga qadar juda ko‘p maqomlardan o‘tmog‘i shart bo‘lgan. Chunki ushbu yo‘lda sayri suluk – asosdir. Xullas, tariqat–insonlarni maxsus ta’lim-tarbiya bilan go‘zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxiroqibatda esa Allohga yaqinlikni ta’minlaydigan o‘ziga xos maslak va mafkura yo‘lidir.

Tasfiya – qalbni sof holga keltirmoq, haqiqatni idrok etmoq, mujohada va riyozat pokizaligi.

Tahammul – chuqur va teran mulohazalarga berilish, diqqat ila mushohada yuritish. Ilohiy haqiqatlarni idrok qilishga erishish holati.

Fayz – lug‘aviy ma’nosi – suvning to‘lib, qirg‘oqdan toshishi. Bu so‘z biror narsaning ko‘payishi, xabar tarqalishi, sir saqlash, kenglik ma’nosida ham ishlatilgan. Tasavvuf istilohotida fayz Haq tajallilariga nisbatan qo‘llanilib, asosan «fayzi aqdas», «fayzi ilohiy» tarzida tilga olingan.

Fayz – iste’dod natijasida yuzaga kelguvchi ilohiy hadya. Shu bois «fayzi iste’dod» yoki «fayzi husn» deyilganda zuhur va tajalli nazarda tutilgan.

«Fayzi jovidon» – yorqin, davomli fayz, «fayzi bahor» – evrilish, yangilanish, «fayzi safo» – safo va nash’aning ko‘payishi ma’nosiga ega.

Firor – qochish. Haqdan uzoqlashtiruvchi har qanday narsadan qochmoq. Firor uch qismdir, avomning firori, ya’ni bunda jahldan ilmga, johillardan olimlarga, tanballikdan g‘ayratga firor etiladi, havo firori – sirdan shuhudga, rusumdan usulga, nafsoniy lazzatlardan ilohiy najot ma’vosiga qochish anglansa, axasning firori esa mosuvodan Allohga intilish demakdir.

Xilvat – xoli jon, tanholik, hech nimaga bog‘lanmaslik, dunyoning xilma-xil g‘avg‘olaridan forig‘lik demak. Tasavvufda esa bundan holda shayx rahnamoligi va ko‘rsatmalariga binoan muridning maxsus bir go‘shada berkinib ibodat va zikr ila Alloh bilan aloqa bog‘lashi anglashiladi. Kamida qirq kun davom qiladigan bu jarayonga «chilla» yoki «arbain chiqarmoq» deyilgan. Xilvat va uzlat to‘g‘risida bizda hanuzgacha noto‘g‘ri va bir yoqlama fikr davom etib keladi. Din va tasavvuf zinhor hayotni batamom. xilvatda o‘tkazishni targ‘ib etmagan. Uzlat – hayotdai qochish, turmushdan ajralish, odamlardan bezish ehtiyojimas, balki ma’lum muddat «kasbi kamol va sayri jamol» aylagandan so‘ng ruhiy kamolot ila yana faoliyatda bo‘lmoqdir. Tasavvufda xilvat ikkiga ajratilgan: birinchisi – shariat xilvati, ikkinchisi – tariqat xilvati. Shariat xilvati ayb va nuqson sanalmish barcha gunohu yomonliklardan tavba qilishga asoslanadi. Bu xilvatning shartlari va odob qoidalarini to‘liq ado etmasdan tariqat xilvatiga yuz burib bo‘lmaydi. Shahobiddii Suhravardiyning e’tiroficha, tariqat xilvatidan maqsad bir talay g‘aroyibot, ajoyibot yoki kashfiyotlarga shohid bo‘lmoq eias, balki zikri ilohiydan o‘zga murodlardan xoli bo‘lmoqdir.

Shath, shathiya – harakat, tebranish, to‘lib-toshish. Shath yoxud shathiyaning istilohiy ma’nosi ilohiy ishq behushligi, ya’ni sakr yoki jazba holida xalq tushunmaydigan va qabul qilmaydigan so‘zlarni aytish deganidnr. Abu Nasr Sarrojga ko‘ra, shath «tilning vajd, shavqu-zavq, hayajon holida aytganlari... iddaoga yaqin bir manbadan chiqqan kalimadir».

Ehson – xayr, hadya. Murshidning muridiga, Allohning quliga ma’naviy lutfu karami.

Havo va havas – orzu, mayl, istak. Tasavvufiy ma’noda har turli sayoz va o‘tkinchi orzularni amalga oshirmoq uchun nafs va hukm o‘tkazuvchi, aqlning ziddi bo‘lmish mayli tabiiydir. Havo yolg‘on da’vo bo‘lmish mayli tabiiydnr. Havo yolg‘on da’vo ishonchi, kibr va manmanlik manbai va barcha riyokorliklarning sarbonidir, Havo va havasga tobslik Haq va haqiqat ishqining sustligi yoki yo‘qligidan yuzaga chiqadi.

Hayot – tiriklik, sog‘liq, jon, yashash, umr. Tasavvufda qudrat ilmi bilan sifatlanuvchi bir sifat. Hayotning uch darajasi bor. Hayoti ili – qalbning johillik, nodonlik o‘limidan xalos bo‘lib, ilm bilan tirikchilik qilishi. Hayoti jam, bu–qalbning tafriqa halokatidan qutulib, o‘zida hikmatni mujassamlashtiruvchi. Hayoti Haq, bu – vujud hayoti bo‘lib, qalbning fanofilloh va baqobilloh maqomlariga yuksalishi.

Hayrat – taajjublanish, hayron qolish. Tasavvufda qulinng fanofilloh holiga yetishuvi uchun egallanishi zarur bo‘lgan maqom. Hayrat Allohning qudrat va hikmatidan tug‘iladigan shunday bir tuyg‘uki, so‘fiylar nazdida u til bilan bayon etilmaydi.

Haqiqat – chindan mavjud bo‘lgan-narsa, asl mohiyat. Allohni bilish, borliq olam sirlarini to‘g‘ri va teran idrok aylash. Haqiqat–shariatning botinidir. Shuning uchun haqiqat tasavvuf ma’nosida ham keng qo‘llanilgan. Bu haqda Abu Nasr Sarroj bunday deydi: «Shariat ilmi – xizmat ilmidir. Haqiqat ilmi – mushohada ilmidir... Shariat – bayon ilmi, haqiqat – burhon ilmi. Shariat ilmi muomala uchundir. Haqiqat ilmi muroqaba uchun. Shariat ilmi fe’llarga xos, haqiqat ilmi hollarga maxsus. Shariat ilmi rivoyat uchun, haqiqat ilmi hidoyat uchundir...

Xirqa – shayx, murid va darveshlar kiyadigan maxsus kiyim. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi yamoq, parcha yoki quroqdan tikilgan kiyim demak. Istilohda esa, shayx bilan murid orasida aloqa o‘rnatish, «muridning nafs bilan o‘zi orasida shayxning hukmronligini qabul aylashi«dir. Tasavvuf arboblariga ko‘ra, xirqa kiyish odati Ibrohim alayhissalomga borib bog‘lanadi. Ibroxim Xalilulloh olovga tashlangani zamon Alloh hukmi bilan Jabroil jahatdan bir ko‘ylak keltirib, unga kiydirgan va shu ko‘ylak sharofatidan ul zot olovda yonib kul bo‘lishdan qutulgan. Bu ko‘ylak dastlab hazrati Ishoqqa, so‘ngra Yoqub payg‘ambarga meros o‘tgan. Hazrat Yoqub esa, uni maxsus bir qutig‘a solib, o‘g‘li Yusuf alayhissalomning bo‘yniga osib qo‘ygan. Yusuf payg‘ambar yalang‘och holda quduqqa tashlanganida, Jabroil yetib kelib, qutini ochib, unga ko‘ylakni kiydirgan ekan... So‘fiylar xirqada xuddi ana shu ko‘ylakning sirini ko‘rib, unga ma’naviy ma’nolar berganlar. Suhravardiy xirqaning ikki turga– muridlik xirqasi va tabarruk xirqaga ajratilishini aytib, yana bunday degan: «Shayxlarning muridlariga kiydirishnn istaganlari asl xirqa – muridlik xirqasidir. Xirqai tabarruk esa, muridlik xirqasiga o‘xshash bir xirqadir. Muridlik xirqasini haqiqiy muridlar, keyingisini esa murid bo‘lmagan, ammo ularga o‘xshashga harakat qiluvchi mutashabbih muridlar kiyurlar».

Hol – ahvol, holat, vaziyat, ichida yashayotganingiz vaqt, zamon, muayyan damda tug‘ilib, so‘ng o‘tib ketadigan his-tuyg‘u, hayajon, ehtiros, shavq, zuhur, vajd, g‘aybat, huzur kabi hollardir. Hol Haq tuhfasi va hadyasi erur. Shuning uchun hol insonning irodasiya va harakatiga tobe emas. Abu Nasr Sarroj holni «lahzada tug‘ilib qalbda rizo, tafviz va shunga o‘xshash sifatlarni muqimlashtiradigan

ahvoldir», deydi Abdulkarim Qushayriyga ko‘ra, «hol qulning (Haq oshig‘ining – I. H.) qasdi: jalb aylash tashabbusi, erishish istagisiz qalbda paydo etiladigan nash’a–huzun, shodlik–qayg‘u, haybat–hayajon singari ma’nolar erur».

Huquq – hollar, maqomlar, maqsadlar, irodalar; muomalalar va ibodatlar (Abu Nasr Sarroj).

ShAYXLAR RUYXATI

1. Shayx Uvays Qaraniy.
2. Xabib A’jamiy.
3. Abu Xozim Makkiy.
4. Ataba b. G‘ulom.
5. Molik Dinor.
6. Muhammad Vosi’.
7. Abdulloh Muborak.
8. Abuhoshim So‘fiy.
9. Zunnun Misriy.
10. Imom A’zam.
11. Imom Shofe’iy.
12. Imom Ahmad Hanbal.
13; Imom Molik
14. Muhammad Aslam Tusiy.
15. Ahmad Harb.
16. Isrofil Mag‘ribiy.
17. Abulasvad Makkiy.
18. Abulasvad Ro’iy.
19. Abu Ya’qub Hoshimiy.
20. Valid b. Abdulloh Saqqo.
21. Fuzayl b. Iyoz.
22. Ma’ruf Karxiy.
23. Abu Sulaymon Doroniy.
24. Dovud b. Ahmad Doroniy.
25. Ibrohim Adham.
26. Ibrohim b. Sa’d Alaviy.
27. Abulhoris Avlosiy.
28. Ibrohim b. Sitanbah Hiraviy.
29. Ibrohim Rabotiy.
30. Ibrohim Utrush.
31. Ibrohim Sayyod Bag‘dodiy.
32. Ibrohim Ajuriy Sag‘ir.
33. Ibrohim Ajuriy Kabir.
34. Fath b. Ali Mavsiliy.
35. Fath b. Shaxraf Marvaziy.
36. Bishr b. Horis b. Abdurahmon.
37. Shaqiq b. Ibrohim Balxiy.
38. Dovud Balxiy.
39. Bishr Tabaroniy.
40. Qosim Harbiy.
41. Horis b. Asad Muhosibiy.
42. Abu Turob Naxshabiy.
43. Abu Hotam Attor.
44. Sariy b. Mutallis Saqatiy.
45. Ali b. Abdulhamid G‘azoiriy.
46. Abu Ja’far Sammok.

47. Ahmad Huzravayh Balxiy.
48. Yahyo b. Mu’oz Roziy.
49. Xalaf b. Ali.
50. Boyazid Bistomiy.
51. Shayx Abu Ali Sindiy.
52. Abu Hafs Haddod.
53. Abu Muhammad Haddod.
54. Zolim b. Muhammad.
55. Abu Muzohim Sheroziy.
56. Abdulloh Mahdiy Bovardiy.
57. Hamdun Qassor.
58. Abulhusayn Borusiy.
59. Mansur b. Ammor.
60. Ahmad b. Osim Antokiy.
61. Muhammad b. Mansur Tusiy.
62. Ali Akkiy.
63. Hotam Asamm.
64. Ahmad b. Abulhavoriy.
65. Abu Abdulloh Xubayq Sobiq Anotokiy.
66. Sahl b. Abdulloh Tustariy.
67. Abbos b. Hamza Nishopuriy.
68. Abbos b. Yusuf Shakliy.
69. Abbos b. Ahmad Shoir Rumiy.
70. Abu Hamza Xurosoniy.
71. Abu Hamaz Bag‘dodiy.
72. Hamza b. Abdulloh Alavin.
73. Abu Sa’id Xarroz.
74. Ah-iaf Hamadoniy.
75. Abu Shu’ayb Muqanna’.
76. Abu Aqqol b. Ilvon Mag‘ribiy.
77. Hammod Qurashiy.
78. Abulhusayn Nuriy.
79. Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy.
80. Abu Ja’far Karnabiy.
81. Kahmas Husayn Hamadoniy.
82. Amr b. Usmon Makkiy.
83. Shoh Shujo’ Kirmoniy.
84. Abu Usmon Hiriy.
85. Zakariyyo b. Duluvayh.
86. Zakariyyo b. Yahyo Hiraviy.
87. Ziyod b. Kabir Hamadoniy.
88. Abu Usmon Mag‘ribiy.
89. Abu Tolib Ixmimiy.
90. Talha b. Muhammad Saboh Niliy.
91. Abulabbos b. Masruq.
92. Abulabbos Mo‘razan Bag‘dodiy.
93. Abu Abdulloh Mag‘ribiy.
94. Abu Abdulloh Nebojiy.

95. Abu Abdulloh Antokiy.
96. Mumshod Dinavariy.
97. Hasan b. Ali Musuhiy.
98. Ahmad b. Ibrohim Musuhiy.
99. Ruvaym.
100. Yusuf b. Husayn Roziy.
101. Abdulloh Hozir.
102. Sobit Xabboz.
103. Abu Sobit Roziy.
104. Samnun b. Hamza Muhibb Kazzob.
105. Zahrun Mag‘ribiy.
106. Arun b. Vassoba.
107. Ma’mun Mag‘ribiy.
108. Sa’dun Majnun.
109. Ato b. Sulaymon.
110. Ali b. Sahli Azhar Isfahoniy.
111. Muhammad b. Yusuf Banno.
112. Muhammad b. Foza.
113. Sahl b. Ali Marvaziy.
114. Ali b. Hamza Isfahoniy Halloj.
115. Ali b. Shu’ayb Saqqo.
116. Ali b. Muvaffaq Bag‘dodiy.
117. Abu Ahmad Qalonisiy.
118. Abulg‘arib Isfahoniy.
119. Abu Abdulloh Qalonisiy.
120. Abu Abdulloh b. Jallo.
121. Abu Abdulloh Xoqon So‘fiy.
122. Abu Ubaydulloh Busriy.
123. Abu Abdulloh Sijziy.
124. Abu Abdulloh Xusriy.
125. Ja’far b. Mubarqa’.
126. Ali b. Bundor Husayn So‘fiy Sayrafiy.
127. Muhammad b. Fazl Balxiy.
128. Muhammad b. Ali Hakim Tirmiziy.
129. Ali b. Bakkor.
130. Abu Abdulloh Abbodoniy.
131. Abu Abdulloh Hazramiy.
132. Ali Abdulloh Solimiy.
133. Abu Abdulloh Javporai So‘fiy.
134. Abu Tolib Muhammad b. Ali b. Amiya Horisiy Makkiy.
135. Abu Bakr Varroq Tirmiziy.
136. Abulqosi Roziy.
137. Abulqosim Hakim Samarqandiy.
138. Bakr Sug‘diy.
139. Solih b. Maktum.
140. Abu Zarr Tirmiznn.
141. Hoshim Sug‘diy.
142. Muhammad b. Hasan Javhariy.

143. Abubakr Qisoiy.
144. Abu Ali Juzjoniy.
145. Muhammad va Ahmad b. Abulvard.
146. Tohir Maqdisiy.
147. Abu Ya’qub Susiy.
148. Abu Ya’qub Nahrajuriy.
149. Abu Ya’qub Zayyot.
150. Ahmad Vahab.
151. Abu Ya’qub Mazobiliy.
152. Abu Ya’qub Aqta’.
153. Abu Ya’qub Ziziy.
154. Abu Ya’qub Mazkuriy.
155. Abu Ya’qub Maydoniy.
156. Abu Ya’qub Xarrot Asqaloniy.
157. Abu Ya’qub Kuratiy.
158. Xayr-Nassoj.
159. Mahfuz b. Mahmud.
160. Mahfuz b. Muhammad.
161. Ibrohim Xavvos.
162. Ibrohim b. Iso.
163. Ibrohim b. Sobit.
164. Abu Muhammad Juririy.
165. Olim 6. Sa’d.
166. G‘aylon Samarqandiy.
167. G‘aylon Muvasvis.
168. Abulabbos Ibn Ato.
169. Abu Solih Muzayyin.
170. Abulabbos Arziziy.
171. Abulabbos Dinavariy.
172. Abulabbos Ahmad b. Yahyo Sheroziy.
173. Abulabbos Bovardiy.
174. Abulabbos Burdu’iy.
175. Abulabbos Sayyoriy.
176. Abdulvohid b. Ali Sayyoriy.
177. Abulabbos Suhravardiy.
178. Abulabbos Nihovandiy.
179. Axiy Faraj Zanjoniy.
180. Abulabbos Nisoyi.
181. Abulabbos Surayj.
182. Abulabbos Hamza b. Muhammad.
183. Husayn 6. Mansur Halloj.
184. Abdulmalik Iskof.
185. Ibrohim b. Fotik va Ahmad b. Fotik.
186. Foris b. Iso Bag‘dodiy.
187. Ahmad b. Husayn b. Mansur Halloj.
188. Abu Mansur Govkuloh.
139. Abu Amr Dimishqiy.
190. Muhammad b. Homid Tirmiziy.

191. Abdulloh b. Muhammad Xarroz.
182. Bunon b. Muhammad Hammol.
193. Ishoq b. Ibrohim Hammol.
194. Bunon. b. Abdulloh.
195. Shaybon b. Ali.
196. Abulhasan b. Muhammad Muzayyin.
197. Abulhasan Soyig‘ Dinavariy.
198. Abulhasan Sabuhiy.
199. Abulhasan Suyutiy.
200. Abulhasan b. Sha’ra.
201. Abu Homid Asvad Ma’ruf Zanjiy.
202. Ibrohim b. Dovud Qassor Riqqiy.
203. Abu Ja’far Haffor.
204. Abu Ja’far Sumoniy.
205. Abu Ja’far Saydaloniy.
206. Abu Ja’far Ahmad b. Hamdon b. Ali b. Sinon.
207. Abu Ja’far Farg‘oniy.
208. Abu Ja’far Somoniy.
209. Abu Ja’far Haddod.
210. Abu Ja’far Mu’oz Misriy.
211. Abu Abdulloh Barqiy.
212. Abu Ja’far Majzum.
213. Shayx Abu Ja’far Domag‘oniy.
214. Shayx Abulhasan Varroq.
215. Abulhusayn Darroj.
216. Shayx Bukayr Darroj.
217. Shayx Abulhusayn Salomiy.
218. Abulhusayn Molikiy.
219. Abulhusayn Hoshimiy.
220. Shayx Abubakr Vositiy.
221. Abubakr Zaqqoqi Kabir.
222. Abubakr. Zaqqoqi Sag‘ir.
223. Shayx Abubakr Kattoniy.
224. Abubakr Ato Juhfiy.
225. Abubakr Saqqoq.
226. Abubakr Shibliy.
227. Abubakr b. Yazdonyor Urmaviy.
228. Abubakr Saydaloniy.
229. Abubakr Xabboz Bag‘dodiy.
230. Abubakr b. Iso Mutavviy.
231. Abubakr Tohir Abhariy.
232. Abubakr b. Abi Sa’don.
233. Abubakr Atufiy.
234. Abubakr Sakkok.
235. Abubakr Saqqor.
236. Abubakr Misriy.
237. Abubakr Duqqiy.
238. Abubakr Tamastoniy.

239. Abubakr Farro’.
240. Abubakr Shabahiy.
241. Abubakr Tarsusiy.
242. Abubakr Susiy.
243. Abubakr Shukayr.
244. Abubakr Javzaqiy.
245. Abubakr Roziy.
246. Abubakr Mufid.
247. Abubakr Qasriy.
248. Abubakr Mavoziniy.
249. Abubakr Ushnoniy.
250. Abubakr Mag‘oziliy.
251. Abubakr Qati’iy.
252. Abubakr Hamadoniy.
253. Abubakr Kafshiriy.
254. Abubakr Dovud Dinavariy.
255. Abu Ali Rudboriy.
256. Abu Ali Saqafiy.
257. Abu Ali Qotib Misriy.
258. Abu Ali Mushtuliy.
259. Abu Ali Roziy.
260. Abu Ali Hayron.
261. Abu Ali Sirjoniy.
262. Abdulloh b. Muhammad. Ma’ruf Murta’ish.
263. Abdulloh b. Muhammad Manozil.
264. Abdulloh b. Haddod Roziy.
265. Abdulloh b. Isom Maqdisiy.
266. Abdulloh Nabozoniy.
267. Abulxayr Taynotiy.
268. Abulxayr Habashiy.
269. Abulxayr Asqaloniy.
270. Abulxayr Himsiy.
271. Ibrohim b. Shaybon Kirmonshohiy.
272. Abu Zayd Marg‘aziy Xurosoniy.
273. Ibrohim b. Ahmad Muvallid Sufiy Raqqiy.
274. Ibrohim Jiliy.
275. Ibrohim Dehistoniy.
276. Ibrohim Marg‘iponiy.
277. Ibrohim Nozuvayh.
278. Muzaffar Kirmonshohiy Qirmisiy.
279. Abulhusayn b. Bunoi.
280. Abulhusayn b. Hind Forsiy.
281. Abuladyon.
282. Abu Ja’far Muhammad b. Ali Nasaviy al-ma’ruf Muhammad Aliyon.
283. Abu Sayid A’robiy.
284. Abu Amr Zujoj.
285. Ibrohim b. Yusuf b. Muhammad Zujojiy.
286. Ja’far b. Muhammad b. Nusayr Xuldiy Xavvos.

287. Abulhasan Sufiy Fushanjiy.
288. Bundor b. Husayn b. Muhammad b. Muhallab Sheroziy.
289. Abu Amr b. Nujayd.
290. Abdulloh b. Muhammad b. Abdurahmon Roziy.
291. Abulhusayn Sirvoniy.
292. Abulhusayn Qarofiy.
293. Abu Sulaymon Niliy.
294. Abu Sulaymon Xavvos Mag‘ribiy.
295. Abulqosim Nasrobodiy.
296. Abubakr Roziy Bajaliy.
297. Abubakr Folizbon Buxoriy.
298. Abulhusayn Husriy.
299. Abulhusayn Sam’un.
300. Abu Nasr Xabboz va Abulhasan Suhon Ojan.
301. Shayx Ahmad Xarroniy.
302. Jahm Raqqiy.
303. Abulhusayn Urmaviy.
304. Abu Abdulloh Xafif Sheroziy.
305. Abulxayr Molikiy.
306. Abubakr Sha’roniy.
307. Abu Muhammad Atoyidiy.
308. Ja’far Hazzo.
309. Hishom Abdon.
310. Abu Muhriz Sheroziy.
311. Abdurrahim Istaxriy.
312. Mu’ammil Jassos.
313. Ali b. Shuluya.
314. Abubakr Iskof.
315. Abu Zahhok.
316. Abu Muhammad Xaffof.
317. Hasan b. Hammaviyah va sohibuhu Abu Ja’far Xarror Istaxriy.
318. Abdulloh Qassor.
319. Ibrohim Mutavakkil.
320. Abu Tolib Xazraj.
321. Abu Ali Vorijiy.
322. Abulfazl Ja’far Ja’diy.
323. Abulqosim Qasriy.
324. Abdulaziz Bahroniy.
325. Abulhasan Hakimiy.
326. Abu Ali Husayn b. Muhammad Akkor.
327. Abu Ishoq Ibrohim Shahriyor Goziruniy.
328. Shayx Ro‘zbehon Baqliy.
329. Abulhasan Karduya.
330. Shayx Abdulloh Balyoniy.
331. Jamoliddin Muhammad Bokalanjor.
332. Muso Imrsn Juruftiy.
333. Xoja Ali b. Hasan Kirmoniy.
334. Mira Nisoburiy.

335. Abu Abdulloh Turug‘badiy.
336. Abu Abdulloh Rudboriy.
337. Abu Abdulloh Monak.
338. Abu Abdulloh Duniy.
339. Abu Abdulloh Mavlo.
340. Abu Abdulloh Muqriy.
341. Abulqosim Muqriy.
342. Abu Muhammad Rosibiy.
343. Abu Abdulloh Dinavariy.
344. Abulhusayn Sirvoniyi Sag‘ir.
345. Abulhusayn Jahzam Hamadoniy.
346. Abulhusayn Tazariy.
347. Abulhusayn Sarkiy.
348. Shayx Muhammad Soxariy.
349. Shayx Ahmad Juvolgar.
350. Abulhusayn Haddod Hiraviy.
351. Abulmuzaffar Tirmiziy.
352. Mirchai Safolfurush.
353. Sharif Hamza Uqayliy.
354. Orif Ayyor.
355. Abulhusayn Solbih.
356. Shayx Imron Sulusiy.
357. Abulhusayn Marv Rudiy.
358. Abu Hamid Do‘ston.
359. Bob Farg‘oniy.
360. Abu Mansur Mu’ammar b. Ahmad Isfahoniy.
361. Abu Nasr Sarroj.
362. Shayx Abulfazl Hasan Saraxsiy.
363. Xoliy Nisoburiy.
364. Shayx Abulabbos Qassob Omuliy.
365. Shayx Ahmad Nasr.
366. Shayx Abu Ali Siyoh.
367. Shayx Abu Ali Daqqoq.
368. Abu Ali Shabbuy Marnaziy.
369. Shayx Abulqosim Bishr Yosin.
370. Shayx Luqmon Saraxsiy.
371. Shayx Muhammad Qassob Omuliy.
372. Shayx Abulhasan Xaraqoniy.
373. Shayx Abu Abdulloh Dostoniy.
374. Shayx Abu Said Abulxayr.
375. Shayx Abulqosim Gurgoniy.
376. Xoja Muzaffar Ahmad b. Hamdon.
377. Xoja Muhammad Ma’shuq Tusiy.
378. Amir Aliyi Abu.
379. Shayx Abu Abdurrahmon Sulamiy Nishoburiy.
380. Husayn b. Muhammad Muso Sulamiy.
381. Abusahl Su’lukiy.
382. Shayx Abulqosim Qushayriy.

383. Shayx Abulqosim Shaqoniy.
384. Abulfazl Hasan Xatliy.
385. Ali b. Usmon b. Abu Ali Jullob G‘aznaviy.
386. Xoja Ahmad Hammod Saraxsiy.
387. Adib Kumandiy.
388. Abulhasan Musanno.
389. Shayx Ahmad Najjor Astrobodiy.
390. Shayx Abu Zur’a Roziy.
391. Shayx Abu Zur’a Ardabiliy.
392. Abu Abdulloh Bobuniy.
393. Shayx Abu Abdulloh Boku.
394. Shayx Mo‘min Sheroziy.
395. Shayx Abu Ishoq Shomiy.
396. Shayx Abu Ahmad Abdol Chishtiy.
397. Xoja Muhammad b. Abu Ahmad Abdol Chishtiy.
398. Ustod Mardon.
399. Xoja Yusuf Muhammad Sam’on.
400. Xoja Mavdud Chishtiy.
401. Xoja Ahmad b. Mavdud b. Yusuf Chishtiy.
402. Abulvalid Ahmad b. Abirrajo.
403. Abu Ismoil Abdulloh b. Abu Mansur Muhammad Ansoriy Hiraviy.
404. Xoja Yahyo b. Ammor Shayboniy.
405. Shayx Abdulloh Toqiy.
406. Shayx Abulhasan Bishr Sijziy.
407. Koko Abulqasr Bustiy.
408. Koko Ahmad Sunbul va inisi Muhammad Xoja.
409. Abu Mansur Muhammad Ansoriy.
410. Abu Mansur Suxta.
411. Shayx Ahmad Chishtiy va inisi Xoja Ahmad Ismoil.
412. Shayx Ahmad Hoji.
413. Shayx Abu Salama Bovardiy.
414. Abu Ali Kayyol.
415. Abu Ali Zargar.
416. Abu Ali Butagar.
417. Shayx Abu Nasr Qabboniy.
418. Shayx Ismoil Nasrobodiy.
419. Shayx Abu Mansur Gozar.
420. Shayx Ismoil Dabbos Jiraftiy.
421. Shayx Abusaid Muallim.
422. Shayx Muhammad Abu Hafs Kuratiy.
423. Shayx Omu.
424. Shayx Ahmad Kufoniy.
425. Abulhasan Najjor.
426. Shayx Abulays Fushanjiy.
427. Muhammad b. Abdulloh Gozuriy Hiraviy.
428. Qurbanj.
429. Xoja Xayrcha.
430. Abu Abdulloh Ahmad b. Abdurrahmon Nasr Moliniy.

431. Abu Nasr b. Abu Ja’far b. Abu Ishoq Hiraviy Xonchabodiy.
432. Sulton Majdiddin Tolba.
433. Abu Abdulloh Muxtor b. Muhammad b. Ahmad Hiraviy.
434. Shayx Abu Zar Buzjoniy.
435. Shayx ul-islom Ahmad Nomakiy Jomiy.
436. Abu Tohir Kurd.
437. Shayx Abu Ali Formadiy.
438. Shayx Abubakr b. Abdulloh Tusiy Nassoj.
439. Hujjat ul-islom Muhammad b. Muhammad G‘azzoliy Tusiy.
440. Shayx Ahmad G‘azzoliy.
441. Xoja Yusuf Hamadoniy.
442. Hoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy.
443. Xoja Orif Revgariy.
444. Xoja Mahmud Anjnr Fag‘navin.
445. Xoja Ali Romitaniy.
446. Xoja Muhammad Bobo Samosiy.
447. Sayyid Amir Kulol.
448. Qusam Shayx.
449. Xalil Ota.
450. Xoja Bahouddin Naqshband.
451. Xoja Alouddin Attor.
452. Xoja Muhammad Porso.
453. Xoja Hafizuddin Abu Nasr Muhammad b. Muhammad b. Muhammad Hofiz Buxoriy.
454. Xoja Hasan Attor.
455. Mavlono Yaqub Charxiy.
456. Xoja Alouddin G‘njduvoniy.
457. Mavlono Nizomiddin Xomush.
458. Xoja Ubaydulloh Imom Isfahoniy.
459. Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy.
460. Xoja Ubaydulloh.
461. Mavlono Qosim.
462. Abulhasan Bustiy.
463. Shayx Hasan Sakkok Simnoniy.
464. Muhammad Hammuya Juvayniy.
465. Ayn ul-quzot Hamadoniy.
466. Shayx Baraka.
467. Shayx Fatha.
468. Shayx Ziyouddin Abunnajib Abdulqahhor Suhravardiy.
469. Shayx Ammor Yosir.
470. Shayx Ro‘zbehoni Kabir Misriy.
471. Shayx Ismoil Qasriy.
472. Shayx Najmuddin Kubro.
473. Shayx Majduddin Bag‘dodiy.
474. Shayx Sa’duddin Hummuyiy.
475. Shayx Sayfuddin Boxarziy.
476. Ayn uz-zamon Jamoluddin Giliy.
477. Bobo Kamol Jandiy.
478. Xoja Abulvafo Xorazmiy.

479. Pahlavon Mahmud Pakkayor.
480. Shayx Najmuddin Roziy. al-Ma’ruf bidoya.
481. Shayx Raziyuddin Ali Lolo G‘aznaviy.
482. Shayx Jamoluddin Ahmad Jurfoniy.
483. Shayx Nuriddin Abdurahmon Isfaroyiniy Kasirqiy.
484. Shayx Abulmakorim Ruknuddin Alouddavla Simnoniy.
485. Axiy Ali Misriy. 486. Shayx Najmuddin Muhammad Edkoniy.
487. Axiy Ali Dehistoniy.
488. Abulbarakot Taqiyuddin Ali Do‘stiy Simnoniy.
489. Amir Sayyid Ali b. Shihob b. Muhammad Hamadoniy.
490. Shayx Abdulloh G‘irjistoniy.
491. Bobo Mahmud Tusiy.
492. Axiy Ali Qutluqshoh.
493. Shayx Hofiz Umar Abardihiy.
494.Xoja Abdurrahmon Gahvoragar.
495. Mavlono Faxruddin Luristoniy.
496. Shoh Ali Farohiy.
497. Shayx Muhammad shoh Farohiy.
498. Shayx Bahouddin Umar.
499. Mavlono Shamsuddin Muhammad Asad.
500. Shayx Bahouddin Valad.
501. Sayyid Burhonuddin Muhaqqiq.
502. Mavlono Jaloluddin Muhammad Balxiy Rumiy.
503.Mavlono Shamsuddin Muhammad b. Ali b. Malikdod Tabriziy.
504. Shayx Salohuddin b. Faridun Qunyaviy ma’ruf bi-Zarkub.
505. Shayx Hisomuddin Hasan b. Muhammad b. Hasan b. Axiy Turk.
506. Sulton Valad.
507. Shayx Shihobuddin Suhravardiy.
508. Shayx Najibuddin Ali b. Buzg‘ush Sheroziy.
509. Zahiruddin Abdurrahmon b. Ali b. Buzg‘ush.
510. Shayx Muhammad Yamaniy.
511. Shayx Ibrohim Majzub.
512. Shayx Jamoluddin Lur.
513. Shayx Shamsuddin Safiy.
514. Shayx Nuruddin Abdussamad Natanziy.
515. Shayx Izzuddin Mahmud Koshiy.
516. Shayx Kamoluddin Abdurrazzoq Koshiy.
517. Shayx Nuruddin Abdurrahmon Misriy.
518. Shayx Zaynuddin Abubakr Xavofiy.
519. Amir Kivomiddin Sinjoniy.
520. Xoja Shamsuddin Muhammad Kusuyi Jomiy.
521. Mavlono Zaynuddin Abubakr Toybodiy.
522. Mavlono Jaloluddin Mahmud Zohid Murg‘obiy
523. Mavlono Jaloluddin Abu Yazid Puroniy.
524. Mavlono Zahiruddin Xilvatiy.
525.Shayx Bahouddin Zakariyo Mo‘ltoniy.
526. Shayx Nizomuddin Dehlaviy Xolidiy Ma’ruf Shayx Nizomuddin Avliyo.
527. Shayx Farid Shakarganj.

528. Mavlono Faxruddin Zohid.
529. Alouddin Kirmoniy.
530. Xoja Imod Xalaj.
531. Xoja Mahmud Mo‘ydo‘z.
532. Amir Olim Dalvolijiy.
533. Qozi Sharafuddin Buhayro.
534. Qozi Safiuddin Buhayro.
535. Amir Sharafuddin Ashraf.
536. Qozi Rays.
537. Mavlono Raziyuddin Nabiy.
538. Mavlono Majduddin Hoji.
539. Xoja Rohat.
540. Mavlono Rashiduddin Na’ziy.
541. Xoja Abubakr Jom.
542. Shayx Ziyouddin Rumiy.
543. Shayx Najibuddin Mutavakkil.
544. Qirq Abdol.
545. Mavlono Karimuddin Mav’idiy.
546. Shayx Muhyiddin Ali Chishtiy.
547. Darvesh Bashir.
548. Mavlono Sarroj Hofiz.
549. Sayyid Jamol Surx.
550. Hoji Karimuddin Nimgo‘r.
551. Mavlono Hisomuddin G‘albak.
552. Mir Buzurg va Mir Xurd ma’ruf bi-Sodoti Nuhqa.
553. Mavlono Kamoluddin Zohid.
554. Shayx Rashn Avliyo.
555. Shayx Mahmud Buxoriy.
556. Shayx Abubakr Tusiy va Shayx Malikyor Parron.
557. Mavlono Nnzomuddii Kalomiy.
558. Shayx Mujir.
559. Shayx Qutbuddin Baxtiyor Kokiy.
560. Qozi Hamiduddin Noguriy.
561. Malik Nosiruddin Mahmud.
562. Shayx Shodiy.
563. Shayx Abu Abdulloh Savmaiy.
564. Shayx Muhyiddin Abdulqodir Jiliy.
565. Shayx Hammod Dabbos.
566. Shayx Sadaqa Bag‘dodiy.
567. Shayx Sayfuddin Abdulvahhob.
568. Shayx Abu Muhammad. Abdurrahmon Tafsunajiy.
569. Shayx Abu Amr Sarifiniy.
570. Shayx Baqo b. Battu.
571. Qazib ul-bon Mavsiliy.
572. Muhammad ul-Avoniy Ibnul Qoid.
573. Abu Su’ud 6. Shiba.
574. Shayx Abu Madyan Mag‘ribiy.
575. Abudabbos b. Arif Sanhojiy Andalusiy.

576. Aburrabi’ Kafif Moloqiy.
577. Adiy b. Musofir Shomiy summa Hakkoriy.
578. Saydiy Ahmad b. Abulhasan Rifo’iy.
579. Hayot b. Qays Harrokiy.
580. Shayx Jogir.
581. Shayx Abu Abdulloh Muhammad b. Ibrohim Qurashay Hoshimiy.
582. Abulhasan Ali b. Humaid. Sa’idiy.
583. Abu Ishoq b. Zarif.
584. Ibnul Foriz Hamaviy Misriy.
585. Ibrohim b. Mi’sor Ja’bariy.
586. Shayx Muhyiddin Muxammad b. Ali b. Arabiy.
587. Shayx Sadruddin Muhammad b. Ishoq Qo‘nyaviy.
588. Shayx Muayiduddin Jandiy.
589. Shayx Sa’iduddin Farg‘oniy.
590. Shayx Muso Sadroniy.
591. Shayx Iso Hattor Yamaniy.
592. Shayx Abulg‘ays Jamil Yamaniy
593. Shayx Abulhasan Mag‘ribiy Shoziliy.
594. Shayx Yosin Mag‘ribiy Hajjom ul-Asvad.
595. Shayx Abulabbos Mursiy.
596. Shayx Sa’d Haddod va muridi Shayx Javhar.
597. Ahmad b. Ja’d va Shayx Sa’id Abu Iso.
598. Shayx Najmuddin Abdulloh Isfahoniy.
599. Hoja Qutbuddin Yahyo Nishoburiy.
600. Mir G‘iyos.
601. Abu Muhammad Abduldoh Marjoniy Mag‘ribiy.
602. Abu Abdulloh Ibn ul-Mug‘arrif Andalusiy.
603. Shayx Sulaymon Turkman Muvallah.
604. Shayx Ali Kurdiy.
605. Shayx Mufarrij.
605. Shayx Abul-abbos Damanhuriy.
607. Shayx Rayhon.
608. Shayx Alouddin Xorazmiy.
609. Imom Abdulloh Yofi’iy Yamaniy.
610. Shayx Shihobuddin Suhravardiy Maktul.
611. Xoja Ahmad Yassaviy.
612. Qutbuddin Haydar.
613. Hakim ato.
614. Ismoil ato.
615. Ishoq ato.
616. Xoja Baxruddin.
617. Xoja Boyazid.
618. Xoja Xalil.
619. Qo‘rqut ato.
620. Ali ato.
621. Qilich ato.
622. Sadr ato.
623. Xubbi Xoja.

624. Yigit Ahmad.
625. Ko‘k shayx.
626. Temurchi ato.
627. Zahodxon.
628. Shayx Abulhasan Ishqiy.
629. Mahmud Shayxzoda.
630. Xudoyquli Shayx.
631. Muhammad Shayx.
632. Ilyos Shayx.
633. Shayxzoda Abulhasan.
634. Shayx Muhammad So‘fiy.
635. Abu Muso Shayx.
636. Shayx Sulton So‘fiy.
637. Qishlik ato.
638. Umar ato.
639. Sayyid ato.
640. Bob Husayn.
641. Zangi ato.
642. Hasan Shayx.
643. Yusuf Shayx.
644. Hoji Shayx.
645. Adib Ahmad.
646. Mavlono Kalon Ziyoratgohi.
647. Mavlono Nizomuddin Ahmad.
648. Bobo Sungu.
649. Shayx Abu Mansur Moturudiy.
650. Shayx Burxonuddin Sog‘arji.
651. Sayyid Ne’matulloh.
652. Shayx Jamol Nuqoniy.
653. Shayx Abdulloh Barnishobodiy.
654. Shayx Rashid Bidvoziy.
655. Shayx Shoh Bidvoziy.
656. Shayx San’on.
657. Mir Koriz.
658. Shayx Shoh Ziyoratgohiy.
659. Mavlono Muhammad Tabodgoniy.
660. Xoja Abdulaziz Jomiy.
661. Mavlono Alouddin.
662. Mavlono Abulxayr.
663. Mavlono Shihobuddin.
664.Mavlono Hoji.
665. Mavlono Sa’duddin
666. Mavlono Muhyi.
667. Muqriy Mahmud.
668. Mavlono Vajihuddin.
669. Mavlono Muhammad Amin.
670. Darvesh Muhammad Behra.
671. Darvesh Mansur.

672. Darvesh Hasan Shahrosho‘b.
673. Darvesh Muhammad Gozurgohi.
674. Mavlono Muhammad Xurosoniy.
675. Darvesh Sayyid Hasan.
676. Xoja Avhad Mustavfiy.
677. Bobo Ali Xushmardon.
678. Shayx Nuruddin Muhammad.
679. Mir Haydar Faxrboiy.
680. Mavlono Muhammad Arab.
681. Shayx Sa’dulloh Zangula.
682. Shayx Sadruddin Ravvosiy.
683. Mavlono Mirzayn.
684. Xoja Muayyad Mehna.
685. Xoja Ruknuddin Mehna.
686. Mavlono Tojuddin Ahmad Shijaniy.
687. Mavlono Muhammad Johu.
688. Xoja Mahmud Faranhodiy.
689. Darvesh Bahlul.
690. Xoja Pir Ahmad Naqqosh.
691. Shayx Yahyo.
692. Mavlono Shamsuddin Ma’dobodiy.
693. Mir-Muflisiy.
694. Bojo Xokiy.
695. Bobo Hasan Qandahoriy.
696. Bobo Ko‘kiy.
697. Bobo Ali Mast Nisoyi.
698. Bobo Xushkeldi.
699. Sayyid Muhammad Madaniy.
700. Bobo Bahlul.
701. Bobo Ali Poyhisoriy.
702. Bobo Tilanchi.
703. Bobo Piriy.
704. Bobo Hasan Turk.
705. Bobo Jalil.
706. Bobo Shihob.
707. Bobo Sarig‘ Po‘lod.
708. Shayx Ilyos.
709. Mavlono Mir-Imom.
710. Mavlono Sharafuddin Yazdiy.
711. Mavlono Humomuddin Kalobodiy.
712. Shayx Avhaduddin Hamid Kirmoniy.
713. Mir Sayyid. Qosim Tabriziy.
714. Hakim Sanoyi G‘aznaviy.
715. Shayx Fariduddin Attor Nishoburiy.
716. Shayx Mushrifuddin Muslih. b. Abdulloh Sa’diy Sheroziy.
717. Shayx Faxruddin Ibrohim Iroqiy.
718. Amir Husayniy.
719. Shayx Mahmud Shabustariy.

720. Shayx Avhaduddin.
721. Afzaluddin Badil Xaqoyiq Xoqoniy.
722. Shayx Nizomiy.
723. Xusrav Dehlaviy.
724. Hasan Dehlaviy.
725. Shayx Kamol Xo‘jandiy.
726. Mavlono Muhammad Sirin.
727. Sayyid Nosir Xusrav.
728. Shayx Ozarin.
729. Mavlono Lutfiy.
730. Mavlono Muqimiy.
731. Mavlono Ashraf.
732. Sayyid Nasimiy.
733. Shayx Imoduddin Faqih.
734. Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy.
735. Shayx ul-islom va Maxdumi Mavlono Nuruddin Abdurrahmon Jomiy.
736. Robiai Adaviya.
737. Lubbobat ul-muta’abbida.
738. Maryam Basriya.
739. Rayhonai Voliha.
740. Mu’ozai Adaviya.
741. Ufayrai Obida.
742. Sha’vona.
743. Kurdiya.
744. Hafsa binti Shirin.
745. Robiai Shomiya.
746. Hakimai Dimishqiya.
747. Ummi Hasson.
748. Fotima Nishoburiya.
749. Zaytuna.
750. Fotimai Barda’iya.
751. Ummi Ali zavjan Ahmad Xizravayx.
752. Ummi Muhammad volidai Shayx Abu Abdulloh Xafif.
753. Fotima binti Abobakr Kattoniy.
754. Fizza.
755. Tilmizai Sariy Saqatiy.
756. Tuhfa.
757. Ummi Muhammad.
758. Bibiyaki Marviya.
759. Ka’b qizi.
760. Fotima binti Musanno.
761. Joriyai Savdo.
762. Imra’atun Majhula.
763. Joriyai Majhula.
764. Imra’atun Misriya.
765. Imra’atun Misriyai Uxro.
766. Imra’atun Xorazmiya.
767. Joriyai Habashiya.

768. Imra’atun Isfahoniya.
769. Imra’atun Forsiya.
770. Bibichai Munajjima.